Türkiye 24 Ocak 1980 kararlarıyla, ithal ikamesine yönelik kalkınma stratejisini terk ederek, serbest piyasa ekonomisi çerçevesinde ihracata yönelik kalkınma stratejisine geçmeye karar vermiştir. Bu strateji değişikliğine paralel olarak, serbest piyasa ekonomisi sistemini ve bu sistemin en önemli aktörleri durumunda olan girişimciliği ve özellikle ihracata yönelik girişimciliği destekleme politikaları devreye sokulmuştur. Hükümet, sadece düzenleyici bir rol oynayacaklardı. Böylece ekonomi doğal gelişimini fiyat göstergelerinin ışığında ve özel girişimin öncülüğünde sağlayacaktı.

#### ***Kısaca bu kararlar:***

Fiyatlandırma süreci; Bu süreç tümüyle piyasa koşullarına bırakıldı. Fiyatlar piyasada serbestçe oluşacak arz ve talebe göre belirlenecekti. Mal ve Hizmet piyasasında; uluslararası rekabete açıldı .Bu da yerli üretimde rekabet gücünü artırabilmek için kalite, verimlilik gibi kavramların ön plana çıkmasını sağlayacaktı. Türk Parasının diğer paralar karşısındaki fiyatının belirlenmesi; 1 Temmuz 1981'den başlayarak döviz kuru her gün yeniden ayarlanmaya geçildi. Bu sayede resmi ve karaborsada farklı olan Türk Lirası değeri farkı azaltılırken borç alma, yurt dışındaki işçilerden sağlanan döviz gelirlerinin artırılması sağlandı.

80'li yıllarda girişimci profilinde önemli gelişmeler yaşanmıştır. 1980 öncesinde;

Sadece karı düşünen, Fırsatları değerlendirme amacıyla hareket eden, Eğitim seviyesi düşük, Profesyonel davranmayan, Vizyonu ve misyonu olmayan girişimci tipi terk edilmesiyle başlamıştır. Serbest piyasa ekonomisi ve dünyaya açılmanın işlerlik kazanmasıyla rekabet sonucunda yeni girişimci tipi ortaya çıkar. Yeni girişimci tipinin özellikleri;


Dinamik, değişime ve gelişime açık,

Profesyonel yönetim kuralları doğrultusunda hareket eder. Kaliteli ürün ve hizmeti amaçlar. Yüksek öğrenim görmüştür. Piyasanın beklentisini karşılar. Müşteri memnuniyetini hedefleyen özellikler göze çarpmaktadır. Bu yeni özelliklerin bulunduğu girişimcilerle birlikte piyasalarda güçlü ve yeni işletmeler ortaya çıkmıştır.

**2000 YILI ÖNCESİ TÜRKİYE’DE GİRİŞİMCİLİK DEĞERLENDİRMESİ**  
(Tüsiad 2002 değerlendirme raporu) Türkiye Sanayici ve İşadamları Derneği (TÜSİAD) tarafından 2002 de yaptırılan araştırmada Türkiye girişimcilik altyapısı ile ilgili olarak diğer ülkelerle karşılaştırmalı analizler yapmak için yedi ülke seçilmiştir. Öncelikle GEM tarafından 2001 yılında yapılan uluslararası endekste bulunan ve dünyanın değişik bölgelerindeki en girişimci dörtül seçilmiştir: ABD, İrlanda, Güney Kore ve Meksika bunlara dünyanın güçlü ekonomilerinden İngiltere ve Japonya ile girişimcilikte büyük atılımlar yapan İsrail eklenmiştir.

Bu çalışma sonuçlarına göre 2000 öncesi genel değerlendirme :

### **Girişimciliği Etkileyen Faktörler**



**Buna göre: Ekonomik altyapı olarak:**

•Türkiye tarım ülkesi konumundadır..

Türkiye'nin katma değeri yüksek teknoloji ürünleri ihracatı azdır.

Genel ekonomik göstergelerden enflasyon oranı fazladır.

Türkiye, yolsuzluk ve bürokratik engeller gibi sorunlar nedeniyle yabancı yatırımcılar için çekici olamamıştır.

Ekonomik istikrarsızlık ve belirsizlik ortamı girişimciler için önemli bir sorundur.

### ***Teknolojik altyapı olarak:***

- Türkiye'yle karşılaştırılan ülkeler arasında sadece Meksika Türkiye'den daha az kaynağı Ar-Ge'ye harcamaktadır.
- İsraili sanayici Türkiyeli sanayicinin toplam 38, İrlandalı sanayici 32 ve Güney Koreli sanayici 28 katı Ar-Ge yatırımı yapmaktadır.
- Karşılaştırılan ülkelere göre hem teknoloji geliştirmeye kaynak ayırmayan, hem de yeterli sayıda Ar-Ge çalışanı olmayan Türkiye, doğal olarak bilimsel ve teknolojik üretimde düşük bir performansa sahiptir.

Girişimcilik altyapısı beş düzeyde incelenebilir: insan kaynakları, (2) finans, (3) yasal düzenlemeler, (4) sosyal, kültürel ve politik altyapı ve (5) girişimci teşvikleri ve destek mekanizmaları. İnsan kaynakları olarak. Türkiye karşılaştırma yapılan ülkeler arasında % 30 ile en fazla genç nüfus (0-14 yaş grubu) oranına sahip olan iki ülkeden biridir (diğeri Meksika). Bu genç nüfusa rağmen işsizlerin çoğunluğu (% 64) 30 yaşın altındaki gençlerdir.

- 0-14 yaş grubunda bulunan çocukların istihdam içindeki oranı (% 9) en yüksek olan ülke Türkiye'dir. Kadın istihdamının çok büyük çoğunluğu tarımdadır, karşılaştırma yapılan ülkelere ise hizmet sektöründedir. Finans yapısı olarak;
- Türkiye'de her büyüklükteki firmanın başlıca sorunlarından biri finansmandır. Türkiye'nin toplam ulusal kredi miktarı diğer ülkelerle karşılaştırıldığında düşüktür.
- Özel sektöre verilen ve bankalarca sağlanan kredilerin GSYİH içindeki payları karşılaştırma yapılan ülkeler arasında bir tek Meksika'dan iyidir.
- Yenilikçi ve teknolojiye dayalı firmaların gelişmesinin arkasındaki en büyük destek olarak görülen risk sermaye sektörü, Türkiye'de henüz emekleme sürecine

dahi girememiştir. Devlet tarafından özel firmalara yapılan Ar - Ge yardımlarının GSYİH içindeki oranı karşılaştırılan ülkelere göre Türkiye’de düşüktür.

- Girişimcilik ve yenilik için gereken çeşitli finansman destekleri olmadığından, Türk firmaları finansmanı, teknolojik gelişmenin önünde engel olarak görmektedirler.

#### ***4-2000 Sonrası Girişimcilik***

Ülkede derin bir ekonomik krizin patlak vermesiyle başlayan 2000’li yıllar hem politik hem de ekonomik anlamda oldukça hareketli ve sıkıntılı geçmiştir. Türkiye’nin Avrupa Birliği üyelik sürecine adım attığı bu dönemde Ekonomi bakanı Kemal Derviş’in hazırladığı Güçlü Ekonomiye Geçiş programı, Türkiye’nin ekonomik anlamda yeni bir döneme daha girişini göstermekteydi.

Bu dönemin önemli başka bir özelliği de girişimciler tarafından istikrar ve bu istikrarın sağladığı güven ortamı açısından olumlu bir gelişme olarak kabul edilen üst kurulların yaygınlaştığı yıllar olmasıdır. Bu kurullar siyasi iradenin popülist uygulamalarıyla girişimcilik ortamının istikrarını bozacak müdahalelerine karşı tedbir görevi üstlenmiştir.

Piyasalarda oluşan bu istikrar ve güven ortamı, ülkeye yabancı sermayenin girişini kolaylaştırmış ve dolayısıyla da yatırım anlamında önemli bir katkı sağlamıştır.

AB üyelik süreci ve liberal söylemlerin savunucusu olarak iktidara gelen AKP hükümetleri döneminde de, söz konusu üst kurulların etkinliği sürmüştür. Kasım 2002 sonrasındaki dönemin yeni yüzü ise, ülkenin özellikle yabancı sermaye için uygun koşulları sağlayarak ekonomik gelişmeyi yabancı sermaye yatırımlarının da desteğini alarak gerçekleştirmek şeklinde olmuştur. Özellikle uluslar arası tahkim sözleşmesinin kabul edilmesi, yabancı sermayenin bilhassa özelleştirmeler yoluyla ülkeye girişini hızlandırmıştır.

#### ***Girişimciliği Destekleyen Kuruluşlar***

Finansman konusunda Türkiye’de birçok kurum/kuruluş kuruluş geri ödemeli/ödemesiz destek ve fiziki mekan desteği vermektedir. Bu 2023 yılı itibari ile kurum/kuruluşlar'dan başlıcaları:



İŞKUR (Eski hükümlü ve engelliler için 90 bin ve 70 bin lira iş kurma hibe desteği)

TÜBİTAK

Kalkınma Ajansları

TOBB GENÇ GİRİŞİMCİLER KURULU

ABİGEM (Avrupa Birliği İş Geliştirme Merkezleri Ağı)

KOSGEB (Küçük ve Orta Ölçekli İşletmeleri Geliştirme ve Destekleme İdaresi Başkanlığı)

İŞGEM (İş Geliştirme Merkezleri)

TTGV (Türkiye Teknoloji Geliştirme Vakfı)

TESKOMB (Türkiye Esnaf ve Sanatkarlar Kredi ve Kefalet Kooperatifleri Birlikleri Merkezi Birliği)

T.C. Ekonomi Bakanlığı

Türk Eximbank

TGMP (Türkiye Grameen Mikrofinans Programı)

TSKB (Türkiye Sınai Kalkınma Bankası)

KGF (Kredi Garanti Fonu)

TEKNOPARK/TEKNOKENT DESTEKLERİMELEK YATIRIMCILAR Derneği girişimciliği desteklemektedir.

Girişimcilere Sağlanan Destek Türleri

Sermaye Desteği Programı

İş Kurma Desteği Programı

AR-GE Projeleri Destekleme Programı

Proje Pazarlar Destekleme Programı

Ar-Ge Başlangıç Destek Programı

Geliştirme ve Yenilik

Destekleme Programı

Kamu Projelerini Araştırma ve Geliştirme Projelerini Destekleme Programı

Girişimcilik Alanlarında Kapasite Artırılmasına Yönelik Destekleme Programı

Patent Destek Programı

İşbirliği Destek Programı gibi birden fazla destek verilmektedir.

## **МАҲАЛЛА – ЁШЛАР ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ МАСКАНИ**

**Исмаил Саифназаров**

**ТДИУ “Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси**

**профессори, фалсафа фанлари доктори**

**Аннотация:** Маҳалла минг йиллик тарихга эга, миллий кадриятларимизни ўзида ифода этган маскан ҳисобланади. Бу мўътабар маскан инсоннинг ҳаётида, турмуш тарзида шунингдек, таълим – тарбиясида муҳим аҳамият касб этадиган катта куч ҳисобланади. Инсон ҳаёти, бутун умри айнан маҳалла билан узвий боғлиқдир. Ушбу мақолада маҳалла тушунчаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган. Шунингдек, муаллиф томонидан олий таълим муассасалари талабаларининг мустақил таълимини ташкил қилиш юзасидан ишлаб чиқилган ўқув лойиҳа ва қўлланмаларининг амалий натижалари, маҳалла – ёшлар тарбиясининг муҳим маскани эканлиги Тошкент давлат иқтисодиёт университети талабалари мисолида таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** маҳалла, ўзини –ўзи бошқариш, маъмурий-худудий бирлик, анъана ва кадриятлар, таълим ва тарбия жараёни.

**Аннотация:** Махалля имеет тысячелетнюю историю и является важным местом выражения наших национальных ценностей. Это престижное место – является великой силой, имеющее важное значение в жизни человека, в формировании образе жизни и в его образовании и воспитании. Вся жизнь человека неразрывно связана с его махаллей . В статье анализируется понятие махалли и её особенности. Также на примере студентов Ташкентского государственного экономического университета были проанализированы практические результаты учебных проектов и пособий, разработанных автором в связи с организацией самостоятельного обучения студентов высших учебных заведений, о том, что махалля является необходимым местом для воспитания молодежи

**Ключевые слова:** маҳалля, самоуправление, административно-территориальная единица, традиции и ценности, процесс образования и воспитания.

**Abstract:** The mahalla has a thousand-year history and is a place that expresses our national values. This prestigious place is a great force that is important in a person's life, lifestyle, and education. A person's life, his whole life, is inextricably linked with the neighborhood. The article analyzes the concept of neighborhood and its characteristics. Also, the practical results of educational projects and manuals developed by the author in connection with the organization of independent education of students of higher educational institutions, the fact that the neighborhood is an essential place for the education of young people, were analyzed on the example of students of the Tashkent State University of Economics.

**Key words:** mahalla, self-government, administrative-territorial unit, traditions and values, process of education and upbringing.

Янгиланаётган Ўзбекистон шароитида, хусусан, Ҳаракатлар стратегиясидан Тараққиёт стратегияси мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда маҳаллага алоҳида эътибор берилмаётгани муҳим аҳамиятга молик. Табиийки, мамлакатимизда ўзини ўзи бошқариш органлари фуқаролик жамиятининг асосий институти сифатида босқичма-босқич такомиллашиб бормоқда. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг бошқарув тизимидаги кўламнинг кенгайиб бориши билан ҳуқуқий давлатнинг ўз ваколатларини демократик тамойиллар асосида амалга ошириши учун қулай ва кенг имкониятлар пайдо бўлмоқда. Маҳаллий ижро органлари, вакиллик идоралари ҳамда маҳалланинг институтсионал асосларини янада такомиллаштириш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Унга кўра, маҳаллий бюджет даромадининг 10 фоизи бевосита маҳалладаги муаммоларни ҳал этишга йўналтирилади, маҳалла раиси ва унинг ўринбосарлари ваколатлари кенгайтирилади, маҳалла раисига маҳаллий кенгашда кўрилиши мажбурий бўлган масалаларни киритиш ҳуқуқи берилди, маҳалладаги ишларнинг аҳволи вазирлик, идоралар ва ҳокимликлар

ишини баҳолашда бош мезон бўлади, маҳаллада ишлаётган кадрларни давлат идоралари раҳбарлик лавозимларига тавсия этиш тизими йўлга қўйилади ва шу кабилар белгиланган.

Ўзини ўзи бошқаришнинг ноёб тизими бўлган маҳалланинг нуфузини ошириш, уни аҳолини қийнаб турган муаммоларини мустақил равишда ўзи ҳал эта оладиган, давлат органлари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатишга қурби етадиган етакчи фуқаролик жамияти институтига айлантириш мақсад қилиб қўйилган. Янгиланган Конституциямизда маҳалла институтига янгича таъриф берилди. Яъни уни чинакам халқ дарди ва ташвиши билан яшаётган йирик фуқаролик жамияти институти сифатида ислохотларнинг фаол иштирокчисига айлантириш мақсадида унинг мақоми Конституция даражасида эътироф этилди. Бош қомусимизнинг маҳаллий давлат ҳокимияти асосларига бағишланган XXI бобига фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисидаги тушунча ҳам киритилди.

Шунингдек, Президентимиз маърифий ислохотлар ва баркамол инсон тарбиясида маҳаллаларнинг аҳамиятига қуйидагича тўхталиб ўтади: “Яна бир муҳим масала. Маҳаллаларда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш ҳокимлар – ҳудудий кенгашлар раисларининг доимий эътибори марказида бўлиши шарт. Маънавий тарғибот ишларини ҳар бир маҳаллада, таъбир жоис бўлса “маҳаллабай” усулида ташкил этмас эканмиз, бу борада аниқ натижа бўлмаслигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда.” [1;286]

Биз ёшларимизни ҳақиқий ватанпарварлик, азму шижоат, мардлик ва жасорат руҳида тарбиялашда муҳтарам зиёлиларимиз, фаол ва фидоий олимларимиз ҳамда ижодкорларимизнинг ёрдамига таянамиз. Шу асосда маҳалла – ёшлар тарбиясининг муҳим масканларидан бири бўлиши керак. Президентимиз “Янги Ўзбекистон стратегияси” да “... айниқса “Бир зиёли – бир маҳаллага маънавий ҳомий” тамойили асосида ҳар бир маҳаллага профессор-ўқитувчилар ва таниқли зиёлиларнинг жалб этилаётгани, уларнинг

бу ишга масъулият ва куюнчаклик билан ёндашишига эришиш муҳим аҳамиятга эга” [1;286] деб таъкидлаб ўтган эдилар.

Маҳалла – шаҳарча, қишлоқ, овулларга ёки улар ўртасида, шунингдек шаҳарларда белгиланган аҳоли яшаш масканларида фаолият кўрсатадиган ҳудудий бирлик; ўзини ўзи бошқаришнинг халқ анъаналари ва кадриятларига хос бўлган усули. Аҳоли энг қуйи ҳудудий бирлигида таркиб топган бу демократик тартиботи ўзини ўзи бошқаришнинг миллий моделидир. Бамаслаҳат қарор қабул қилиш, уюшқоқлик, бағрикенглик, мурасасозлик, ўзаро меҳр-оқибат сингари Ўзбекона фазилатлар айнан маҳалла муҳитида камол топади. Маҳаллада кучли таъсирга эга бўлган жамоатчилик фикри фуқароларнинг хулқ-атвори, ўзаро муносабатларини ижтимоий адолат ва маънавий-ахлоқий мезонлар асосида тартибга солиб туради. Маҳалла аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг халқ ишонадиган адолатли йўли ва воситаларидан биридир, чунки маҳалла ким қандай шароитда яшаяпти, ким ҳақиқатан ҳам ёрдамга муҳтожлигини яхши билади. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида маҳаллалар мавқеини оширишга, улар фаолиятини ривожлантиришга катта эътибор қаратилади. Маҳаллалар фаолиятини ривожлантиришга ҳар томонлама кўмаклашувчи давлат ва нодавлат тузилмалари шаклланди. 1993 йилда Республика “Маҳалла” хайрия жамғармаси, 1995 йилда Ўзбекистон оқсоқоллар кенгаши тузилди. Мамлакатда тинчлик, осойишталик ва барқарорликни таъмин этиш, омма куч-ғайратини бунёдкорликка йўналтиришда маҳаллаларнинг аҳамияти ортиб бормоқда [2].

Маҳалла аҳолини, айниқса ёшларни Фозил, комил инсонлар қилиб тарбиялашга доир назарий ва амалий тадбирларни ўтказиш, уларнинг дунёвий ва диний билимларини чуқур эгаллашлари ва касб-хунар ўрганишлари учун янги тизимларни ишлаб чиқиш, шу асосида махсус илмий-амалий дастурлар тузишда қатнашиш ва уларнинг бажарилишига эришиш, маҳаллада ўқимайдиган, ишламайдиган ёшлар билан алоҳида шуғулланишда нурунийлар ва кекса фахрийларимиз ёрдамида “фарзандларимиз тарбияси, маънавий-

маърифий соҳадаги ишларимизни бир зум ҳам сусайтирмасдан... янги босқичга кўтаришимиз керак”. Бу борада Президентимизнинг “Ҳар бир нуруний – беш нафар ёшга мураббий” тамойили асосида иш кўришимиз мақсадга мувофиқдир. XXI асрда бу борадаги ишларни такомиллаштириш, давр ва тузум талабларидан келиб чиқиб янги меъёрий ҳужжатлар қабул қилиш, илмий-тадқиқотлар асосида услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш, дарсликлар яратиш, маҳалланинг нуфузини кўтариш зарур масалалардан эканлигига эътибор қаратилди. Зотан XXI аср ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд тизимлари ҳамда жамоат ташкилотлари қаторида, хусусан фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари, маҳалла фуқаролар йиғинлари кенг миқёсли фаолиятини янада такомиллаштириш, кучайтириш, самарадорлик ва таъсирчанлигини ошириш, иш сифатини яхшилашда янгича ёндашув асри бўлди. Ўз умумий манфаатларимизни халқаро рақобатчиликда ҳамда хавфсизлик масалаларида ҳимоя қилиш учун, албатта кучли давлат ёки катта-катта иттифоқларга муҳтожлик бўлади. Лекин, айтилган пайтда ижтимоий, иқтисодий-сиёсий тараққиётдаги шахсий ёки фуқаролик иштирокига ва уларни бу жараёнларга жалб этилишини кафолатловчи кучли маҳаллий ва ҳудудий ўзини-ўзи бошқариш даражасига эга бўлган давлатлар марказлашган давлатларга қараганда тезроқ ва яхшироқ ривожланадилар [3].

Кўпчилик маҳалла ҳақида сўз юритганда унинг вужудга келиши ва ривожланиши жуда қадим тарих саҳифаларига бориб тақалиши ҳақида сўз юритишади. Чиндан ҳам шундай. “Маҳалла” атамасининг келиб чиқиши ҳам узок тарихга бориб тақалади ва у Арабча сўз бўлиб ўзбек тилидаги “жой” маъносини билдирувчи “маҳаллун” сўзидан келиб чиққан. У турли минтақаларда Маҳаллот (жой), гузар, жамоа, элат, элод номларида аталиб келинган. Аммо маҳалла нафақат тарих, балки бугунги ва эртанги кунимизни ҳам туташтириб турувчи маскан ҳисобланади. Шу билан бирга маҳалла миллийлигимиз тимсоли ҳамда қадриятлар ва урф-одатларни авлоддан авлодга этказувчи ижтимоий макон сифатида, ўзлигимизни англашга, миллий гуруҳ ва ватапарварликни юксалтиришга хизмат қилади.

Маҳалла кичик маъмурий ҳудуд бўлиши билан бирга, турмуш тарзи, кадриятлар, анъаналар, урф-одатлар умумийлиги билан боғланган кишилар жамоаси бирлигидир. Тарихнинг турли босқичларида даврлар, тузумлар ўзгаришига қараб маҳалланинг вазифалари ҳам ўзгариб турган. XX асрнинг бошларидаёқ маҳаллалар даҳа бошлиқлари — мингбошилар сайлайдиган юзбоши (оқсоқоллар) томонидан бошқарилган. Юзбоши ва унинг ёрдамчилари маҳалладаги барча жамоат ишлари ва маросимларни бошқарган. Шунингдек, фуқароларнинг шаҳар йиғинлари ва шаҳар муассасаларида маҳалла манфаатларини ҳимоя қилган.

Маҳалланинг асосий вазифалари: маросимларни биргаликда ўтказиш, ўз ҳудудини батартиб сақлаш ва ободонлаштириш, ёш авлодни ижтимоий руҳда тарбиялаш, жамият ҳаётида тартиб сақланишини таъминлаш, барча анъанавий меъёрларнинг бажарилиши устидан назорат ўрнатиш, урф-одатларга риоя қилиш ва уларни бузган, жамоат мажбуриятларидан бўйин товлаганларни жазолашдан иборат бўлган. Маҳалла раҳбарияти ариқ-ҳовузларни тозалаш, кўчалар, йўллар қуриш ва маҳалла ободончилиги билан боғлиқ бошқа жамоат ишларини уюштирганлар. Бу ишларнинг барчаси биргаликда ҳашар йўли билан амалга оширилган. Маҳалланинг маънавий қиёфаси унда истиқомат қилувчи аҳоли ҳаёти, турмуш тарзида, муносабатларида, эътиқодида намоён бўлади. Шу сабабдан, қадимда кўшничилик ҳақи ва фақирларга ёрдам ҳақида “Билки, Ислом биродарлигида кўшничилик ҳақлари алоҳида ўрин эгаллайди” деб Абу Ҳомид Ғаззолий асарларида баён қилинади. Кундалик ҳаётимизда, айниқса, Ўзбекистон шароитида ижтимоий фикрнинг асосий биометри, ўлчови — бу маҳалладир. Маҳалла аҳли ҳар бир оилада рўй бераётган ҳодисаларни билади, инсонлар тақдирига бефарқ бўла олмайди, фаоллар орқали ижтимоий ҳаётдаги ҳар бир ўзгариш, одамлар онги ва қалбидаги ҳис-туйғулар ўрганилади. Мамлакатимизда “шахс-оила-мактаб-маҳалла” тўртлиги катта аҳамият касб этади. Чунки, шахс маънавияти, унинг дунёқараши, инсоннинг тасаввур ва эътиқодига алоқадор кўникмалар мажмуи

асосан оилада шаклланади. Шу маънода оила – ҳақиқий маънавий ўчоғи, мафкуравий-тарбиявий ишлар омили ва муҳитидир.

Бу жараён боболар ўғити, оила ибрати, она меҳри орқали амалга оширилади. Оила, унинг асрлар мобайнида сақланиб келаётган муқаддас анъаналари орқали ёшларда Ватанга муҳаббат, иймон, эътиқод, масъулият, ватанпарварлик, инсонпарварлик, ишга иштиёқ ва маданият кўникмалари шаклланади. Зеро, ҳар бир фуқаро оиланинг жамиятдаги ўрни ва вазифасини, Ватаннинг остонадан бошланишини тушунмасдан туриб, ўзини мукаммал инсон деб ҳис қила олмайди. Ота-онани қадрлаш, уларнинг беминнат хизматига бир умр содиқ бўлиш, дуоларини олиш болаларнинг фарзандлик бурчидир. Бу миллий қадриятларимизнинг энг муҳим талабларидан биридир. Буюк бобомиз Алишер Навоий айтганларидек, ота-онани ҳурмат қилиш фарзандлар учун мажбуриятдир. Маҳаллада кучли таъсирга эга бўлган жамоатчилик фикри маҳалла аҳлининг хулқ-атвори, ўзаро муносабатлари адолат ва маънавий мезонлари асосида тартибга солиб турилади. Демак, инсоннинг оилада шаклланган иймон-эътиқоди, одоб-орияти ва виждони, ғурур-ифтихори, ақл-заковати, тафаккури маҳалла муҳитида янада кучаяди, халқ иродаси, ўзаро тотувлик ва ҳамкорлик ришталари билан уйғунлашиб, жамиятда соғлом мулоқотларнинг шаклланишига олиб келади [4].

Дарҳақиқат маҳалла, аввало, соғлом ижтимоий муҳитдир. Бу эрда кучли таъсирга эга бўлган жамоатчилик фикри маҳалла аҳлининг хулқ-атвори, ўзаро муносабатларини адолат ва маънавий мезонлар асосида тартибга солиб туради. Маҳаллада кенг жамоатчилик ўртасида маънавий ишларни самарали йўлга қўйиш учун катта имкониятлар мавжуд. Бунинг ёрқин ифодасини “Наврўз”, “Рамазон ҳайити”, “Қурбон ҳайити” ва шу каби миллий ва диний байрамларни ўтказишда кўриш мумкин. Жамият ҳаётининг бундай маънавий янгилинишида, миллий қадриятлар, меҳр-оқибат, эл-юрт шаъни учун кураш каби фазилатлар камол топишида маҳалланинг ўрни беқиёс. Маҳалла доирасида амалга ошириладиган таълим ва саводхонлик курсларини ташкил этиш, анъанавий байрам ва тадбирлар пайтида муҳтож оилаларга ёрдам



кўрсатиш, иқтидорли ёшларни рағбатлантириш, аёллар нуфузини ошириш, ОАВ имкониятларидан фойдаланиш, бошқа муассасалар билан ўзаро ҳамкорликда тадбирлар уюштириш, турли авлод вакиллари ўртасидаги ижтимоий муносабатларни такомиллаштириш орқали тарғибот ўзига хос тарзда амалга ошириб борилади. Яъни, бунда таъсир воситалари сифатида ижтимоий реклама, турли курслар ташкил этиш, оилаларга психологик хизматни йўлга қўйиш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, оталар насихатлари асосида ёшларни тарбиялаш ишида кенг фойдаланиш, ОАВ орқали берилаётган маълумотларнинг психоллингвистик таҳлилини амалга ошириш, ижтимоий фикрнинг маҳаллалар бўйича мониторингини олиб бориш муҳим аҳамиятга эга. Шунда маҳаллалар фуқаролар, биринчи навбатда, ёшларни миллий ғоя руҳида тарбиялашнинг чинакам таъсирчан ўчоғига айланади. Негаки, халқимизда “Ватан маҳалладан бошланади”, “бир болага этти маҳалла – ота-она” деган юксак маънавий-тарбиявий аҳамиятга эга бўлган ҳикматли иборалар бор. Шунинг учун ҳам маҳаллада ҳар бир оила, ота-она, энг аввало, бола тимсолида шахсни кўриши, унинг учун шахсга тегишли барча ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлаши борасида ўзининг масъул эканлигини доимо ҳис этиб туриши ниҳоятда муҳим ҳисобланади. Зотан, маҳалла ҳам миллий-маънавий қадриятларни асраб-авайлашда, эл-юрт тинчлиги ва осойишталигини мустаҳкамлашда, ҳам ёшларни уларни комил инсон этиб тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга доим зарур бўлган ижтимоий институт мақомини ўтаб келган.

Мамлакатимизда 10 минга яқин маҳалла мавжуд. Маҳалла йиғинларининг ҳар бири қошида ўнга яқин комиссиялар фаолият кўрсатади. Бу комиссиялар маҳалланинг тарихан шаклланган тажрибалари асосида фуқароларни бошқариш ишлари билан бир қаторда, ўз фаолият доираларини кенгайтириб бормоқда. Бугунги кунга келиб, маҳаллалар ўз ҳудудини белгилаш, ўзгартириш, ўз раҳбар органларини сайлаш, комиссиялар таркибини белгилаш, маҳаллий ҳокимликлар раҳбарларининг маҳалла аҳли ҳузуридаги ҳисоботларини тинглаш, маҳалла ҳудудидаги ташкилотлар билан

хамкорлик қилиш, маҳаллада тадбиркорликни йўлга қўйиш, коммунал тўловларни ундириш ва коммунал хизмат кўрсатишни йўлга қўйиш, мухтожларга моддий-маънавий ёрдам кўрсатиш, фуқароларни қабул қилиш, ишсизлар билан ишлаш ва уларни ишга жойлаштириш каби ўнлаб ваколатларни бажармоқда.

Хусусан, тараққиёт стратегиясида белгиланган 7 йўналиш ва 100 та мақсад доирасида белгиланган бош мақсаднинг асосий ғояси – инсон қадрини таъминлашдир. Ушбу ҳодиса ва мақсад маҳалла билан бевосита алоқадор десак муболаға бўлмайди. Холбуки, ҳаракатлар стратегиясининг ҳар бир устувор йўналиши бўйича ҳозирги кунга қадар 26 та концепция ва бир қатор дастурлар қабул қилинган бўлса, келгусида тараққиёт стратегияси доирасида 13 та кодекс, 12 та қонун, яъни ҳар бир устувор йўналишда зарур қонун ҳужжатлари қабул қилиниши кўзда тутилган бўлиб, буларнинг барчаси инсон омили ва маҳалла билан узвий алоқадор. Президентимизнинг фармони билан тасдиқланган ушбу тараққиёт стратегияси маҳаллалар зиммасига алоҳида масъулият юклайди. Энг муҳими, Фармонда белгилаб берилган устувор вазифаларнинг ўз вақтида ва юксак самарадорлик билан ҳаётга татбиқ этилиши, давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, маҳаллаларнинг жойларда халқнинг маслакдоши ва кўмакдошига, таъбир жоиз бўлса, “адолат тарозиси” га айланишини таъминлади.

Тошкент давлат иқтисодиёт университети талабаларининг дунёқарашини, ижтимоий фикрини, ҳаёт тарзи ва турмуш шароитларини амалий таҳлил этиш кўникмаларини ривожлантириш мақсадида камина муаллифлигида “Менинг ҳаёт фалсафам”, “Маҳалламнинг олим ва зиёли инсонлари” [5], “Устозим - ҳаётим чироғи” мавзуларида ўқув лойиҳалари ишлаб чиқилди. Университет талабаларида ўз юртига садоқат, бағрикенглик, ватанпарварлик ва меҳр-оқибат ҳиссини ривожлантириш, жамиятимиз асоси бўлган маҳалла институтининг мазмун-моҳиятини чуқур ўрганиш мақсадида Фалсафа фанидан **“Менинг маҳаллам – менинг фахрим”** [6] мавзуида талабаларнинг мустақил ишини ташкил қилиш юзасидан тегишли

тавсияларни ўзида камраб олган қўлланма тайёрланди. Унинг асосий мақсади, нафақат назарий жиҳатдан балки амалий аҳамиятга молик ҳисобланган фарзандларимизни, талаба ёшларни маҳалла ҳаётига, унинг қадриятларига яқинлаштириш ва шу орқали ўзлигини англаши ватанпарварлик, элпарварлик эътиқодини ривожлантиришдир. “Фарзандларимизнинг мустақил фикрли, замонавий билим ва касб-хунарларни эгаллаган, мустақил ҳаётий позицияга эга, чинакам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади.” [7;157] Муҳими, жамият тараққиётида маҳаллаларнинг ўрни ва инсоннинг шахсий ҳаётида ҳам маҳалла – муҳим қадрият сифатида эканлигини кўрсатиб бериш, талаба ёшларнинг миллий ва умуминсоний қадриятлар тизимига асосланган ахлоқий нормаларини, ўз маҳалласи билан фахрланиш, ўз юртига садоқат, кишиларга меҳр-оқибат, бағрикенглик, оилапарварлик ва ватанпарварлик каби туйғуларини ривожлантириш, уларнинг эстетик дидини тарбиялаш, илмий изланиш кўникмаларини шакллантириш ва уларни фикрлашда мантикий аниқлик, изчиллик қоидаларига амал қилишга ўргатишдан иборат. Қолаверса, уларда ўзлари яшаб турган маҳалласи тўғрисида аниқ маълумотлар базасини шакллантириш ва тақдирот тайёрлаш орқали ўз маҳалласи ҳақида тўлиқ таассуротга эга бўлиш, ўз маҳалласи билан фахрланиш учун керакли факт ва далилларни излаб топиш ва уни чиройли намоён қилиш, шунингек, маҳаллада ўз оиласининг нуфузини янада юксалтириш, жамият ривожига маҳалла институтининг родини янада ошириш учун аниқ тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш ўз аҳамиятини топган.

Талабалар томонидан мустақил ишни тайёрлашда ўз маҳалласи ҳақида қуйидаги маълумотлар шакллантирилади: талабанинг ўзи, унинг оиласи, ушбу маҳаллада қачондан бери яшаши ҳақида (оила аъзоларининг расмлари билан); маҳалла ҳақида талаба оила аъзоларининг фикрлари; маҳалла номи, унинг қандай келиб чиққани ва тарихи ҳақида (талабанинг маҳалла гузари ва оқсоқоли билан тушган сурати билан); маҳалланинг аниқ ташкилий тузилмаси, маҳалла кенгаши таркиби, маҳалла бўйича Ҳоким ёрдамчиси,

маҳалла оқсоқоли, маҳалла ёшлар етакчиси ҳақида (улар билан суратга тушиш); маҳаллада ватанпарварлик, миллий ғурур, меҳр-оқибат, ор-номус, бағрикенглик, меҳнатсеварлик каби маънавий фазилатларни шакллантирувчи анъаналар, урф-одатлар ва расм-русумлар ҳақида; маҳаллада жойлашган тарихий, маданий обидалар, зиёрат жойлари ҳақида; маҳалла ҳудудида жойлашган давлат ва нодавлат ташкилотлари, муассасалари ҳақида; маҳалла ҳудудида жойлашган мактабгача таълим муассасалари, академик лицей, касб-хунар коллежлари, мактаблар ва бошқа таълим муассасалари ҳақида маълумот олишлари лозимлиги назарда тутилган.

Дарҳақиқат, муаммога жиддий эътибор қаратилса, маҳалланинг тадбиркорлиги ва ишлаб чиқариш соҳаси тўғрисида ҳамда маҳаллада яшаб ижод этган буюк, улуғ, атоқли, ҳурматли инсонлар ҳақида маълумотлар билан уларнинг тафаккури бойиши миллий ўзлигини янада кучайтириши омили эканлигини ҳис этиш лозим. Бугунги кунда маҳалланинг фахрига айланган ўзининг юксак маънавияти ва ахлоқий фазилатлари билан барчага намуна бўлган маҳалланинг фахрий инсонлари ҳақида; маҳаллада диний қадриятларни, расм-русумларнинг амалга оширилиши ва маҳалла масжидлари ҳақида; маҳалла фуқаролари соғлигини асраш мақсадида маҳалла ҳудудида жойлашган сиҳатгоҳ, профилакторий, оилавий поликлиника ва шифохоналар ҳақида; маҳалла ҳудудида жойлашган маданият марказлари ҳақида; маҳалла ҳудудида жойлашган кўнгилочар ва дам олиш масканлари, боғлар ва спорт иншоотлари ҳақида; маҳалла ҳудудида жойлашган кутубхона ва китоб дўконлари ҳақида кўплаб қизиқарли маълумотларни ўрганади ва таҳлил қилади. Президентимиз таъбири билан айтганда “... катта тажрибага эга бўлган нурунийларимиз ўзларининг ҳаётий ўғитлари билан ёшларимизга тўғри йўл кўрсатса, бунинг фойдаси катта бўлади.” [1;287]

Юқорида кўрсатилган маълумотларни тайёрлаш жараёнида талаба ҳар бир борган жойида албатта расмга тушиши ва расмларни тақдимотга киритиши талаб этилади. Албом-тақдимот намойиши гуруҳда, маҳалла гузарида ёки маҳалладаги ташкилот, муассасаларда университет ёшлар

иттифоқи вакиллари, маҳалла фаоллари, профессор-ўқитувчилар, маънавият маркази, деканат ходимлари иштирок этиши мумкин. Кафедра ва университет томонидан мустақил ишлар кўргазмаси ташкил этилиши ва рағбатлантирилиши мақсадга мувофиқ.

Бу орқали талаба ўз маҳалласи тарихи ва бугунги кунидан хабардор бўлади. Маҳалла тарихини билиши унда тарихий онгни шакллантириб, унинг эътиқодини мустаҳкамлайди. Эътиқодли ёшларда дахлдорлик ҳисси юқори бўлади. Ўзининг ошғени, маҳалласи ва ватанига бефарқ бўлмайди. “Шу азиз Ватан меники” тушунчасини кадрлашга ўргатади. Холбуки, кўшни Хитойдек буюк давлатда ҳам ёшларга оид давлат сиёсатининг туб моҳиятида Ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш масаласи ўрин олган.

Юқорида айтиб ўтилган фикрлар ижтимоий фанларнинг амалий аҳамиятини талабалар ўқув фаолиятида ошириш билан бирга уларнинг ўзлари вояга етаётган маконни яқиндан ўрганишга, дахлдорлик ҳиссини оширишга, ўз мақсад ва вазифаларини аниқ режалаштиришга ёрдам беради. Кафедрада ўтиладиган фанлардан ўқув режа асосида ушбу мавзуларда мустақил ишлар, оралиқ назоратларини қабул қилиш профессор-ўқитувчилар томонидан амалга оширилмоқда. Натижада, талабалар ўзининг оиласи, яшаб турган маҳалласи, ундаги олимлар, зиёлилар, ижтимоий тузилмалар тўғрисида тўлиқ маълумотлар базасини шакллантирмоқдалар. Ёшларнинг фалсафий, иқтисодий дунёқарашини кенгайтириш, билимлари ва ҳуқуқий-фалсафий мулоқот маданиятини янада юксалтиришга, илмий мушоҳада қилиш ва мустақил тадқиқот олиб бориш кўникмаларини ривожлантиришга эришилмоқда.

### **Хулоса ва таклифлар**

Умуман олганда, маҳалаларда ўтказилган юқоридаги талаб ва мақсад ҳамда вазифалар асосида прагматик жараёнлар ёшларимизнинг маъсулиятга, шижоат ва ташаббусга эга эканлигини кўрсатди. Улар том маънода шу азиз Ватан, ўз юрти равнақи учун нафақат истиқболда, балки айни пайтда ҳам шу жараён фаол иштирокчиси эканлигини ҳис этдилар. Ватан ва маҳалла

тушунчалари, нафақат шунчаки ошён, балки маънавият ва маърифат каби улкан инсонийлик ва элпарварлик туйғуси устувор макон бўлиб қолганлигига ишонч ҳосил қилганлигининг гувоҳи бўлдик. Хусусан, аҳоли осойишталигини таъминлаш, оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш, нуронийлар ижтимоий фаоллигини ошириш, маҳаллани жинойтчиликдан холи худудга айлантиришда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари роли ва мавқеини янада мустаҳкамлаш бугуннинг долзарб масаласидир.

Маҳалла институтининг жамиятимиз ижтимоий-маънавий ҳаётида тутган ўрнини ҳисобга олиб, соҳа ходимларини қўллаб-қувватлаш мақсадида 22 март санасини “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ўзини ўзи бошқариш органлари ходимлари куни” деб белгиланди.

Давлатимиз раҳбари айтганларидек, “барча ислохотларимиз замини ва кўзгуси бу – маҳалла. Жамиятимиздаги барча жараёнлар маҳалла ҳаётида ўзифодаси ва амалий эчимини топади” [8].

Таклиф сифатида айтиш жоизки, ёшларни таълим олиш жараёнида юқорида айтилган каби амалий лойиҳалар асосида ўзлари яшаётган маҳаллалари билан яқиндан таништириб бориш, маҳаллаларнинг тарбиявий имкониятларини янада оширади деб ҳисоблаймиз.

### **Фойдаланган адабиётлар рўйхати**

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. 464 bet.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 tom. – Toshkent: O‘zmen, 2005. – B. 201.
3. Raximov, S. (2021). Mahalla - uyim, tarbiya maskanim. Academic Research in Educational Sciences 2(4), 457-465.
4. Abu Homid G‘azzoliy. Mukos‘hafat ul-qulub. – Toshkent, 2020. – B.420-421.
5. Saifnazarov I. Mahallamning olim va ziyoli insonlari. – Toshkent, 2019
6. Saifnazarov I. Mening mahallam –mening faxrim. – Toshkent, 2019. – 23 b.

7. Shavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. 488 bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi // “Xalq so‘zi”, 2022 yil 21 dekabr, №272 (8334).

Муҳаммаджон Қосимов,

Тошкент далаат иқтисодиёт университети доценти,

иқтисод фанлари номзоди.

## **REVOLUTIONIZING ENTREPRENEURSHIP EDUCATION IN UZBEKISTAN WITH LEAN METHODOLOGY**

**Stephen Lin**

**Master of Business Administration**

**University of Southern California, USA**

### ***Entrepreneurship at BMU***

Over the past year, I have taught entrepreneurship with a class of business students at British Management University with - 120 students.

All students had to form teams of - 5 students

All teams had to come up with a new business idea

All teams had to implement their business idea, with grades dependent on how their business developed

A few teams have made enough profit to cover their tuition costs.

Understanding Lean Methodology:

Rooted in Silicon Valley - Lean methodology follows the principles of innovation and experimentation developed at UC Berkeley and Stanford.

Action Over Planning - This approach prioritizes action and experimentation over extensive planning, making it a "scientific" approach to startups instead of homework.

Customer Feedback Driven - This method emphasizes maximum customer support and feedback, which is essential for developing a successful product or service.

As lectures progress, so too does the team's business implementation  
*Mini-MVP* A rough product is created, oftentimes even just marketing material or an initial product

*Product development* Using information from early customers, students change and adapt their value proposition

*Brainstorming* Teams come up with 10 business ideas, I M help them with choosing one.

*Early customers* Sales is done very early - not for the goal of revenue, but for the goal of information.

*Iteration and partnerships* As students learn more about analyzing their market, they apply what they learn to expand their customers.

### **Benefits of Lean methodology**

**Hands-On Learning** Students learn by doing, engaging in activities that enable them to test hypotheses, iterate solutions, and refine products.

**Teamwork and Collaboration** Lean methodology encourages a bottom-up approach where everyone is encouraged to provide input and participate in decisionmaking.

**Speed and Agility** This approach prioritizes speed and flexibility over extensive planning, making it well-suited for startups that need to move quickly and pivot often.  
**Improve soft skills** Students have to approach and pitch business partners, retailers, and investors as part of the class. This teaches them to be more confident, assured, and to think like business people.

### ***The future:***

**Cross-Organization Program** Lean entrepreneurship classes are more successful when there is a mix of skill sets. I am working on a cross-university and crossorganization class with local Venture Capital funds to provide seed funding.

**Corporate Innovation** The same methodology used to create startups is also used by corporations in the US to manage innovation and adapt to market changes. If your organization wants to make a systematic and professional process to manage change, let me know.



## **МАХАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ ВАКОЛАТЛАРИ ВА НУФУЗИ**

**Муҳаммаджон Қосимов,**

**Тошкент давлат иқтисодийёт университети доценти,**

**иқтисод фанлари номзоди.**

### **1.Кириш**

Маҳалла институти аҳолини ўзи - ўзини бошқариш институти бўлиб, мамлакатда амалга оширилаётган демократлаштириш жараёнларини ҳамда аҳолининг бу жараёнларда фаоллигини айниқса маҳаллада кўриш мумкин. Маҳалла шу боисдан ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган институтлардан биридир.

Ўзбекистонда 2017 йилдан кейинги йилларда маҳалла институти шиддат билан такомиллашиб борди, унинг ваколатлари кенгайиб, фаолият турлари кўпайди. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг қатор Фармонлари ва Қарорлари хусусан “Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги (ПҚ 147 сон, 1 март 2022 йил), “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устивор йўналишлари тўғрисида” ги (ПФ-29 сон 2021 йил 3 декабр Фармони) ҳамда “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” қабул қилинди ва маҳалланинг ҳуқуқлари кенгайди.

Жумладан, маҳалла раисини муқобил асосда сайланадиган бўлди, маҳаллада турли функцияларга эга бўлган комиссияларни ташкил этилиб, аҳолининг турли иқтисодий – ижтимоий муаммолари маҳаллада ечиладиган бўлди. Маҳалла аҳолисини рози қилиш борасида кўп қиррали қарорлар қабул қилиш амалиёти шаклланди. Келгусида эса маҳалла қуйи бўғиндаги ҳокимият ваколатига эга бўлиб, унинг нуфузи янада мустаҳкамланади. Шу сабабдан маҳалла институтининг келгусидаги ривожланиш йўналишларини тадқиқ этиш долзарб институционал ва ижтимоий – иқтисодий муаммолардан биридир.

## 2. Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Ўзбекистонда маҳалла институтини ижтимоий, иқтисодий, институционал асосларига қаратилган илмий асарлар ва норматив асослар яратилган. Улар илмий анжуманларда кенг муҳокама қилинмоқда. 2022 йили ўтказилган “Хавсиз маҳалла- фаровон оила” илмий - амалий конференцияси бунга мисол бўла олади.

Конференцияда мамлакатимизнинг ҳар бир шаҳар ва қишлоқларида маҳаллаларнинг моддий-техник базаларини мустаҳкамлаш, уларнинг ваколат ва имкониятларини кенгайтириш, маҳалланинг ҳар бир хонадонга таъсирини ошириш, меҳнат билан бандлигини таъминлаш, аҳолининг розилигига эришиш борасида самарали янги ёндашувлар муҳокама қилинди. Жумладан маҳаллаларни ҳуқуқбузарлик кўрсаткичи бўйича “яшил”, “сарик” ва “қизил” дафтарлари ташкил этилди. Маҳалла фаолиятига турли вазирлик ва идораларни ҳамкорлиги ташкил этилди .

Маҳалла хавсизлиги бўйича, тизимли ёндашув асосида унинг кўрсаткичлари аниқланди. Унинг кўрсаткичлари тиббиёт, озиқ- овқат, экология, жиноятчилик, хавсизлик каби кўрсаткичлар билан ўлчаниш амалиёти татбиқ этилди.

“Маҳаллада ишлаш тизимлари яратиди. Жумладан “маҳаллабай”, “оилабай”, “фуқоробай” тизимлари яратилди. “Маҳаллада ёшлар билан ишлашнинг янги вертикал тизими” яратилди” .

“Темир дафтар”, “аёллар дафтари” ташкил этилиб, кам таъминланганларга моддий ва маънавий кўмак бериш йўлга қўйилди.

Маҳаллада ёшлар тарбия ишларини янги форматда “уч авлод учрашуви” тадбирлари асосида ташкил этиш амалиёти йўлга қўйилди. Натижада ёшларда кекса авлод вакилларига эҳтиром кучаймоқда.

“Маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори янги форматдаги ёндашув бўлиб, унга кўра маҳаллага қатор ваколатлар берилди.

Адабиётларни умумлаштириш ва муаллифнинг халқаро кузатувлари ҳамда тажрибалари Ўзбекистондаги маҳалла институтини ноёблиги ва ўзига хос хусусиятларини теран англашга замин бўлди.

### **3. Тадқиқот методологияси.**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йилдан кейинги маҳалла институтини янада ривожлантириш бўйича қабул қилган Фармон ва Қарорларини ўрганиш маҳалла институти бўйича амалга оширилаётган ислохотларнинг траекторияларини тушиниш имконини берди.

Муаллиф тадқиқот олиб бориш учун тизимли таҳлилни қўллаган бўлиб, у мамлакатда ҳокимият тизими ва унда маҳалла институтининг ролини ошиб бораётганини таҳлил қилган, марказий бошқарув идоралари ваколатлари ва ҳуқуқларини маҳаллий ҳокимиятга ўтишини кузатиш ва маҳалланинг ўзи ҳам ўзига хос тизимлигини англаш имкониятини берди.

Маҳалла тизимини анализ ва синтез қилиш қилиш эса илмий асосланган ҳулосаларни ишлаб чиқишга асос бўлди. Тошкент шаҳридаги 12 та маҳалла фуқаролар йиғинлари раислари, Шайхонтохур туман Нуроний жамғармаси раиси ва 23 та маҳалла фаоллари билан очиқ интервью ўтказилди ва улар умумлаштирилди.

### **4. Таҳлил ва натижалар**

Маҳалла институтига чет мамлакатлар олимлари, сиёсатшунослари ва журналистларининг қизиқиши катта, чунки маҳалла ноёб институт, баъзи мамлакатларда бунга яқин аҳолини ўзини - ўзи бошқариш институтлар бор, лекин бундай ноёб институт жаҳон амалиётида учрамайди. Шу билан бирга Ўзбекистонда ҳар бир маҳалланинг ўзига хослиги ва салоҳияти бор. Бирок янги Ўзбекистонда марказлашган давлат идораларининг ваколатлари маҳаллага трансфер қилинишида умумийликни кўриш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 майда Тошкент шаҳар Шайхонтохур тумани “Жангоҳ” маҳалласида аҳоли билан учрашди. Учрашувда президентимиз “туманлар ва шаҳарлар маҳаллий

хокимиятларининг 30-40 % ваколатларини маҳаллага ўтказамиз”,- деб маҳаллага қанчалик катта эътибор берилаётганларини кўрсатиб ўтди.

Ўзбекистонда яратилган ваколатлардан яхши фойдаланаётган маҳаллалар кўпайиб бормоқда. Шайхонтохур тумани “Боғ- кўча” маҳалласи бунга мисол бўла олади. Маҳаллада турли функцияларни бажарувчи комиссиялар ташкил этилган, комиссияларнинг аъзолари ва раҳбари билимли ва катта тажрибага эга бўлган фахрийлардан ташкил топган. Улар маҳаллага ибрат бўла оладиган, лозим бўлса маҳаллани сафарбар қила оладиган инсонлардир. Улар адолатли қарор қабул қила олганликлари учун маҳалла аҳли уларга ишонади ва уларни ҳурмат қилади. Авваллари маҳалланинг ихтиёрида бўлмаган чойхоналар ва кичик савдо дўконларини маҳалла номига кадастр қилиниб, маҳалла балансига олиниб, тадбиркорларга ижарага берилган. Ундан олинган ижара тўловлари маблағлари комиссия қарори билан кам таъминланган ва муҳтож оилаларга ёрдам бериш учун ишлатилмоқда.

Шу каби маҳаллалар тажрибаларини умумлаштириб, кейс стади форматида тренинглар ташкил қилиб, шаҳар ва туманлар маҳалла фаолларининг малакасини ошириш лозим. Бу илғор маҳаллаларнинг тажрибаларини янада оммалаштириш имкониятини беради.

Жангоҳ маҳалласида яна қўшимча қандай салоҳият бор?

Жангоҳ маҳалласи - туристик объект бўлиши мумкин. Туристлар Хастимом комплекси, Чорсу бозори билан бирга маҳалла институти билан ҳам танишишлари мумкин. Жангоҳ маҳалласи мисолида маҳалланинг мукамал пилот моделини яратиш, келгусида Самарқанд, Бухоро, Хива ва бошқа туристлар кўп келадиган шаҳарларнинг маҳаллалари билан туристларни таништириш мумкин, бу эса туристларни қўшимча 1-2 кун қолишларини таъминлаши мумкин. Бу маҳаллий иқтисодиётни ривожланишига ҳам муносиб ҳисса бўлади.

Маҳалла институти туман хокимиятидан кейинги кичик аммо аҳамияти катта институтига айланади. Ҳозирги маҳалланинг бюджети бор, унинг молиялаштириш манбаълари, кенг кўламли ваколатлари (маҳаллий давлат

идораларининг функциялари берилмоқда) жумладан тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, иш жойи яратиш, хомийлик қилиш, ёшлар тарбияси, ночор оилаларга кўмак бериш, фахрийлар, ёш оилалар билан ишлайди.

Маҳалланинг фаолият турлари кенг, у қуйи бўғиндаги демократик ҳокимият органига айланмоқда.

Ҳурматли Президентимиз Жангоҳ маҳалласи билан бўлиб ўтган учрашувда “Маҳалла институтини ЮНЕСКОда Ўзбекистоннинг номоддий мероси сифатида рўйхатдан ўтказиш тўғрисида тошириқ берганман”,- деди. Ўзбекистондаги маҳалланинг 3 минг йиллик тарихи бор – деди ҳурматли Президент. “Авваллари маҳалланинг пули йўқ, имкониятлари чекланган, ваколатлари тор эди”. Эндиликда – чи? Келгусида-чи?

Дарҳақиқат бугунги маҳалла бутунлай янгиланаётган демократик ҳокимиятнинг қуйи бўғинига айланмоқда. Авваллари маҳалла аҳолиси ободончилик, тиббиёт ёки уй-жой коммунал хизмат масалаларида ҳокимиятга мурожат қилган бўлсалар, эндиликда бундай мурожатлар маҳаллада ҳал бўлмоқда. Маҳаллага берилган ваколатлар кенгайиб бормоқдаки уни тушуниб, ўзлаштириб олишга қайсидир маҳалларда аҳоли улгира олишмаяпти.

Яқин йилларда маҳалла - туман ҳокимлигидан кейинги қуйи ҳокимият бўғини ваколатидан фойдаланади. Бунинг учун ўз-ўзини бошқариш институтларига, маҳалла институтига берилган ваколатлардан фойдаланиш, ибратли тажрибаларни тарғиб қилиш ҳам мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Бу ўринда кўшимиз, қардош Қозоғистон Республикаси Президенти Қосим-Жомард Тоқаевнинг бир иборасини эслаб ўтиш ўринлидир. У шундай деган эди “...биз бир-биримиз билан келиша олмай, бир- биримиз билан мураса қила олмай юрган йилларда кўшни Ўзбекистонда аҳоли бир - бири билан яқин ҳурмат-иззатда яшаб, янги марраларга эришмоқда. Ўзбекистонда аҳоли 35 миллиондан ошди ...” деган эди. Маълумки мустақилликдан аввалги йилларда эса аҳоли сони бўйича республикаларимизда фарқ унча кўп бўлмаган.

Аҳоли тинч, маҳалла обод, кўнгиллар обод, ҳар бир оила обод бўлса катта марраларни эгаллайверамиз.

Маҳалла аҳолининг тинч-тотувлиги таъминласа, маҳаллий ҳокимият, вазирлик-идоралар бошқа устивор вазифаларни ҳал қилишга вақтларини сарфлайди, бу давлат институтларини стратегик вазифаларни ҳал қилишга кўпроқ вақт ва ресурсларни йўналтиришга имконият яратади. Ҳозирда Ўзбекистонда амалга оширилаётган институционал ислохотлардан кутилаётган натижалардан бири марказлашган давлат идораларидан ваколатларни қуйига – маҳаллий ҳокимиятларга, жумладан маҳаллага ўтказишга қаратилган. Бу жамиятимиздаги ижобий демократик ўзгаришларнинг биридир.

Маҳалла – бу оила. Оиладаги гап кўчага чиқмасин, деган ўзбекнинг ўзига хослиги, анъанаси бор. Маҳалладаги гапларни – муаммоларни маҳалла ва унинг функционал комиссиялари ҳал қилиши лозим.

Маҳалла ёш етакчиларни саралаб олиш тажриба - синов майдонига ҳам айланмоқда.

Мамлакатимизда “маҳалладан – республикагача” тамойили асосида давлат хизматлари учун янги авлод кадрларини тайёрлаш амалга оширила бошланди. Кадрларни танлаб олиш қуйидан яъни маҳалладан бошланяпти. Ёш етакчилардан маҳаллада халқни истаклари ва муаммоларини тушуниши, масалаларни ечимларини топиш бўйича тажриба орттириши, конструктив ва креатив фикрлаши талаб этилмоқда. Бундай платформа маҳалла институтида бор, маҳалла етакчилари келгусида маҳаллий ҳокимият ва республикага раҳбар кадр бўлиб давлат хизматларида ишлашларида маҳалла катта тажриба мактаби бўлмоқда.

Президет ташаббуси билан маҳаллада “бешлик” жорий қилинди ва уларга кенг имкониятлар берилди. “Маҳалладан - республикагача” тамойили асосида давлат хизматлари учун салоҳиятли кадрлар захираси шакллантириладиган янги тизим яратилди. Сўнги 5-6 йилда давлат хизматлари учун яратилган бу тизим кадрларни салоҳиятини синовдан

ўтказиб, захира кадрларини тайёрлаш, уларни турли бўғинларда синаб кўриш ишлари маҳалладан бошланмоқда.

“Бешлик”нинг маҳалла аҳлига таъсири ҳам ўзгармоқда. Маҳалла кичик хокимиятга айланиши билан бирга ёш етакчиларни синовдан ўтказиб, ёш етакчиларнинг захираси рўйхати бутун мамлакатда аниқланмоқда.

Маҳалланинг ижрочилари - маҳалла раиси, хоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси, хотин- қизлар фаоли ва инспектор бир жамоа бўлиб бир мақсадга ҳаракат қилади. Тизим 2022 йилдан жорий қилинди. Бу лавозимларга рақобат асосида кадрлар танлаб олинмоқда. Танловда бир ўринга камида 3-4 та номзод ҳужжат топширмоқда. Танловдан ўтганлар бир йил давомида фаолият юритади. Хар куни улар камида 100-120 та аҳоли билан мулоқот қилади ва уларни муаммоларига ечим топади. Айниқса хоким ёрдамчиси ва ёшлар етакчиси энг кўп халқ билан мулоқотда бўлмоқда. Муаммолардан бири ишсизлик. Ишсиз ёшларни 3 тоифага бўлиб иш билан бандлиги таъминланмоқда ёки тадбиркорликка жалб этилмоқда. Маҳалла “бешлиги”дан давлат хизматлари агентлиги захира кадрлар шакллантирмоқда. Шундай қилиб келажак етакчилари аввало маҳалла институтида ўз қобилиятларини кўрсатиб, давлат хизматларида карьера қила олишлари, поғанама-поғана лавозимларда кўтарилиши механизми яратилди.

## **5. Хулоса ва таклифлар**

1. Маҳалла институтига чет мамлакатлар олимлари, сиёсатшунослари ва жамоатчилигининг қизиқиши катта, чунки маҳалла ноёб институт, бундай ноёб институт жаҳон амалиётида учрамайди.

2. Авваллари маҳалланинг ихтиёрида бўлмаган чойхоналар, кичик савдо дўконларини маҳалла номига кадастр қилиниб, маҳалла балансига олиниб, тадбиркорларга ижарага берилган. Ундан олинган ижара тўловлари маблағлари комиссия қарори билан кам таъминланган ва муҳтож оилаларга ёрдам бериш учун ишлатилмоқда.

3. Маҳалласи - туристик объект бўлиши мумкин. Туристлар Хаста имом комплекси, Чорсу бозори билан бирга маҳалла институти билан ҳам

танишишлари мумкин. Туризм ривожланган шаҳарларда маҳалла- туризм объекти бўлиши мумкин.

4. Маҳалла институти туман хокимиятидан кейинги кичик аммо аҳамияти катта институтига айланади. Хозирги маҳаланинг бюджети бор, унинг молиялаштириш манбаълари, кенг кўламли ваколатлари бор. Келгусида туман ва шаҳарларнинг 30-40 % ваколатлари маҳаллага трансфер қилинади.

5. Мамлакатимизда “маҳалладан – республикагача” тамойили асосида давлат хизматлари учун янги авлод кадрларини тайёрлаш амалга оширила бошланди. Кадрларни танлаб олиш қуйидан яъни маҳалладан бошланяпти.

1. Илғор маҳаллалар тажрибаларини умумлаштириб, кейс стади форматида тренинглари ташкил қилиб, шаҳар ва туманлар маҳалла фаолларининг малакасини ошириш лозим. Бу илғор маҳаллаларнинг тажрибаларини янада оммалаштириш имкониятини беради.

2. Жангоҳ маҳалласи мисолида маҳалланинг мукамал пилот моделини яратиб, келгусида Самарқанд, Бухоро, Хива ва бошқа туристлар кўп келадиган шаҳарларнинг маҳаллалари билан туристларни таништириш мумкин, бу эса туристларни қўшимча 1-2 кун қолишларини таъминлаши мумкин. Бу маҳаллий иқтисодий ривожланишига ҳам муносиб хисса бўлади.

3. Маҳалланинг янги бошқрув модели мамлакатда амалга оширилаётган институционал ислохотларнинг узвий компоненти бўлганлиги учун унинг қонуний базаси, кадрлари, коммуникация тизими ва бошқа атрибутлари мутанносиб ва шаффоф бўлиши лозим.

PS: Мен “Жангоҳ” маҳалласининг фаоли сифатида ҳурматли Президентимиз Шавкат Миромонович билан мулоқот қилдим. Мулоқот сўнгида ҳурматли Президентимиз мен фаолият қилаётган Тошкент давлат иқтисодий университети жамоасига ва ректорига менинг саломимни етказиб қўйинг дедилар. Албатта мен университет жамоасига ва ректорига Президент саломини етказдим. Бу жамоамизни руҳиятини янада ошириб юборди.



## **6.Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекисто Республикаси Президентининг Қарори “Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги (ПҚ 147 сон, 1 март 2022 йил).

2. Ўзбекисто Республикаси Президентининг Фармони “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устивор йўналишлари тўғрисида” ги (ПФ-29 сон 2021 йил 3 декабр Фармони).

3. Ўзбекисто Республикаси Президентининг Фармони “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”.

4. Makhamatjon S.Kasimov. The Socio-economic transformation of Rural Economy in Uzbekistan. 31-41 pages. Economic transformation in Central Asia. March 1999. Center for Interdisciplinary Research. Tohoku University. Japan.

5. MakhamatjonS.Kasimov. The Socio-economic transformation of Central Asia and Rural Economy (in case of Uzbekistan). 1998 The Center for Interdisciplinary Research. Tohoku University. Japan.80 pages

5. Оқил Салимов. Янги Ўзбекистон цивилизациявий ҳодиса сифатида тарихга киради. Кексалик гашти. Журнал 9 сон 2022. 7-10 бетлар

6.Маҳалла ва оилалар хавсиз ва фаровон бўлсин. Нуроний газетаси 2022 йил 17 ноябрь №47 (1153).

7.Обод ва файзли маҳалла – юрт кўрки. Нуроний газетаси 2023 йил 29 март №12 (1165).

8.Президент Шавкат Мирзиёев Шайхонтоҳур туманидаги Жангоҳ маҳалласида амалга оширилган бунёдкорлик ишлари билан танишди ва аҳоли билан суҳбатлашди, Абдулла Қодирий кўчасидаги янгиланган хиёбонни кўздан кечирди. (<https://president.uz/uz/lists/view/6307>)

## **BRANDING ARTISANAL PRODUCTS**

**Sachdev Ramakrishna**

**Head of Marketing at Tata Business**

**Support Services Limited**

**CEO Marco Polo Ventures**

Something artisanal is made by hand and very special. The little wooden spoon your sister carved is artisanal, and so is the honey from your neighbors' beehive.

This adjective describes things made by artisans, or skilled craftspeople. Artisanal bread might be hand-kneaded and baked in a wood-fired oven, while an artisanal ax is forged by hand in a small blacksmith's shop. Artisanal is from the Latin *artitus*, "skilled," and a root meaning "art."

### *Artisanal Products*

- Made by Craftspersons
- Handmade, using traditional methods and tools
- Produced on a small-scale or in small batches.
- Created according to a traditional recipe usually around for hundreds of years
- Associated with families or tightly-knit communities
- Strong association of product with the artist
- Personal selling

### *Food is a big category*

Breads, cheeses, fruit preserves, cured meats, beverages, oils, and vinegars that are made by hand using traditional methods by skilled craftworkers, known as food artisans. The foodstuff material from farmers and backyard growers can include fruit, grains and flours, milks for cheese, cured meats, fish, beverages, oils, and vinegars. The movement is focused on providing farm to fork type foods with locally sourced products that benefit the consumer, small scale growers and producers, and the local economy. A long history of production, local consumption.

Also, everything on the old Silk Route: Chinese Silk, Other commodities such as Spices, Tea, Precious metals, Clothes and paper, Religions, Languages, Technologies, Cultural customs, even Diseases.

Made by Craftspersons ,Handmade, using traditional methods and tools  
Produced on a small-scale or in small batches. Created according to a traditional recipe usually around for hundreds of years Associated with families or tightly-knit communities strong association of product with the artist, personal selling.

*Who are the buyers?*

Prefer Things

- 1 That are rooted in tradition
- 2 That are human scale
- 2 From natural sources
- 3 That are hand made
- 4 Relatively raw and untransformed
- 5 Unbranded
- 6 Whose producers can be traced
- 7 Unique and exclusive
- 8 Authentic
- 9 Marked by locality
- 10 Simple and Basic

How To Market Artisanal Products Tell the story, apply modern design techniques, a unique package, creating a brand that had an affinity for a cause or charity, sell through an unexpected channel of distribution, with a powerful guarantee or promise to the end-user, from an exotic location, for a unique and special job or function small production quantities - exclusivity, sell this extremely high quality, show recognition such as certificate of purity or excellence, with extraordinary customer services beyond the industry standard.

## ЦЕЛЬ СОЗДАНИЯ БИЗНЕСА И ЕГО РАЗВИТИЯ ДО МЕЖДУНАРОДНОГО УРОВНЯ

**Основатель компании  
My Lovely Asia Co, PhD  
Тарават Абдул Салам,**

### **Как начать малый бизнес?**

Как малый бизнес может вырасти до международного уровня?

Каковы преимущества малого бизнеса в повседневной жизни граждан и страны в настоящее время?

**Цель создания бизнеса** – это получения прибыли и удовлетворение потребности потребителей.

Малый бизнес – это предпринимательская деятельность, осуществляемая субъектами рыночной экономики при определённых, установленных законами, государственными органами. И создают рабочие места, платят налоги в бюджет, вовлекают деньги населения в оборот, сокращает количество без работы и помогают бороться с монополиями.

**Рост и развитие** — единственный способ выжить и двигаться вперед. Если бизнес не растёт умирает и исчезнет.

**Преимуществами малого бизнеса** является относительно низкий размер капитала, простота в управлении, быстрый процесс принятия решений, качество сервиса, отношение общественности, контроль над компанией, гибкость структуры, поддержка со стороны государства, микроклимат, мобильность.

Ничего не происходит само по себе. Все большие компании когда-то были маленькие, но со временем они стали большими.

Так что нужно быть целесообразным. Надо уважать и любить свое дело, справлять ошибки и не допускать их. Иметь конкретные стратегические планы на долгосрочные перспективы... Мотивировать работников и сотрудников создать команду, где каждый хочет быть полезным на предприятии. Владельцы малого бизнеса всегда должны планировать рост и развитие своего бизнеса и

иметь краткосрочные, среднесрочные и долгосрочные планы развития. И всегда анализировать эффективности деятельности предприятия, имеет стратегические планы и адаптировать политику активности, полезности плану иже годна.

**Малый предприятия** станут крупными предприятиями, когда у них есть цель и задачи долгосрочные перспективы, стратегический план. Хотя темпы роста таких предприятий не очень быстрые, это необходимо в современном цивилизованном обществе, если уделять внимание всем промышленно развитые страны. Они начали с очень маленькими объектами. У них было много ограничения, проблемы и не достатки. Они развивались и терпели неудачи. Исправили ошибки и наконец-то, достигли желаемого результата.

### **Крупный бизнес**

К большим компаниям относятся предприятия, производящие существенную часть всех товаров или услуг в своей отрасли. Их объемы заметны во всем: количестве сотрудников, числу продаж, годовом обороте. Но самое главное, они работают не в рамках одного конкретного территориального рынка, а в нескольких регионах страны или на международном уровне. Признаками таких предприятий можно считать:

1. Большой штат работников (не меньше 251 людей).
2. Годовой доход от 1 миллиона долларов.
3. Строгое соблюдение порядка в отношении инвентаризации.
4. Большие торговые площади.

## **МАҲАЛЛА ФАРАВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎРНИ**

**Тошкент молия институти  
“Менежмент ва маркетинг”  
кафедраси профессори  
Назарова Фотима Ҳакимовна**

Ўзбек миллатининг йиллар давомидаги тарихий салоҳиятига эътибор берадиган бўлсак, миллий хунармандчилик, бадий ва амалий санъатини сақлаиб қолиниши, бу миллатнинг мероси ва тарихий анъаналарини давом этишлишини дарак беради деб ҳисоблаймиз. Иш билан банд бўлмаган аҳолини, айниқса ёшлар, аёллар ва кам таъминланган оилаларни хунармандчиликка кенг жалб этиш орқали уларга ярадам бериш имкони етарли.

Шу боис хунармандчиликни ривожлантириш масалаларига катта эътибор бериш, ташкилий-иқтисодий томонларини такомиллаштиришда илмий ёндашиш, давлат томонидан молиявий томонларини қўллаб-қувватлаш, хунармандчилик билан боғлиқ инновацион лойиҳаларни амалга ошириш, ёш хунармандлар мактабини ташкил этиш, касбий маҳорат ва иқтисодий саводхонликни ошириш, соҳада рақамли иқтисодиёт имкониятларидан самарали фойдаланиш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқилиш бугунги куннинг долзарб масалалари деб биламиз.

Бу вазифаларни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги ПФ-5242-сон «Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ва 2019 йил 28 ноябрдаги ПҚ-4539-сон «Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорлари, мазкур фаолиятни ривожлантиришдаги белгиланган вазифаларни амалга оширишда хизмат қилади[3].

Мамлакатимиз миллий хунармандчилигини ривожлантиришда имкониятларда диверсификацияланган ва салоҳиятли бозор шаклланганлиги, кўп турга эга маҳсулотлар мавжудлиги, давлат қўллаб-қувватловчи сиёсати юритилиши, бозорларга хизмат кўрсатадиган турли хил маҳсулотлар, мослашувчан ишлаб чиқариш, янгиликнинг кириб келишига тўсиқларнинг камлигини эътиборга олиш лозим. Аммо хали бу соҳада миллий хунармандчиликни муоммоларихам мавжуд, яъни инфраструктура ва алоқавоситаларининг етишмаслиги, халқаро талаблар ва бозор ҳақида маълумотлар, янги технологияларни етарли эмаслиги ва жорий бозор тенденциялари ҳақидаги платформалар камлиги.

Таҳлиллар кўрсатишича, миллий хунармандчиликнинг ривожлантириш самарадорлигини оширишда маҳаллий ва халқаро туризмни ривожлантириб, давлат томонидан кенг қўламдаги яратилган шарт-шароитлардан фойдаланиб, улардан оқилона фойдаланиб иш юритилса, бой маданий мероси ва тарихий ан'аналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва янада бойитиш, хунармандчиликни кенг миқёсда қўллаб-қувватлаш ҳамда хунармандчилик билан шуғулланишга аҳолини, айниқса, ёшлар, аёллар ва кам таъминланган оилаларни рағбатлантириш лозим. Хунармандчилик марказларини сайёҳлик салоҳиятдан кенг фойдаланган ҳолда, молиявий ва хомашё ресурслар билан таъминлаш, улар ишлаб чиқарган маҳсулотларни сотиш, шу жумладан экспорт қилиш учун шароит яратишга ёрдам бериш ишлари самарадорлигини янада оширарди[1].

Факат бизда эмас, балки бошқа мамлакатлар ҳам ўзига хос материаллардан тайёрланган маҳсулотларни харид қилишга ҳаракат қилишади, улар шам, ёғочдан тайёрланган буюмлар, сунъий гуллар ва мевалар, сопол идишлар, шиша идишлар, металл буюмлар ва суюқдан ясалган маҳсулотларидир. Масалан Хитой глобал уй аксессуарлари бозорида экспорт қилувчи сифатида эгаллаб турган позитсиясида бўлиб, соҳа мутахассислари ушбу тенденциянинг яқин келажакда ўзгармаслигига ишонч ҳосил қилишади. Хитой улкан ишлаб чиқариш қуввати ва иш ҳақи камлиги билан бошқа давлатларнинг ишлаб чиқарувчилари ажралиб туради.

Замонавий ускуналар ва юқори маҳсулдорлик Хитойга ишлаб чиқарувчилар катта миқдорда маҳсулотни тез, ўз вақтида ва паст нархларда этказиб беришга имкон беради. Бу компаниялар ишлаб чиқаришни механизатсиялашда (кесиш, саралаш, қадоқлаш ва ҳоказо) компютерорқали безаш ва ранг бериш технологияларидан мукамал ва илғор фойдаланиш омконини беради. Бундай янгилик Хитойлик ишлаб чиқарувчиларга бошқа мамлакатлардан келтириладиган кўлда тайёрланган нақшларнинг яқин нусхаларини машина ёрдамида яратишга ҳам имкон яратади. Энди ҳар қандай маҳсулотни арзон ва самарали Хитой дунёдаги бошқа жойлардан кўра кўпроқ ишлаб чиқариши мумкин.

Самарали ишлаб чиқариш ва йиғиш қоидаларига қўшимча равишда, Хитой фабрикалари харидорнинг инвентаризатсиясини бошқариш тизими ва аниқ спетсификатсиялар бўйича ёрликларни, штрихкодлашни ва қадоқлашни аниқ таъминлаш ва тартибга солишга қодир. Ҳозирги вақтда Хитой маҳсулотларига бўлган глобал талаб жуда юқори, баъзи хитой корхоналари керакли малакали ишчиларнинг етишмаслиги сабабли буюртмаларини бекор қилиб, уларни бошқа ишлаб чиқариш объектларини мавжуд бўлган малакали меҳнатдан фойдаланиб очишга ундайди[2].

Мамлакатимизда ҳам маҳалла раислари ҳунармандчилик билан шуғулланиш хоҳиши ва салоҳияти борларининг рўйхатини тузиб, тегишли сектор раҳбарига тақдим этишмоқда. “Ҳунарманд” уюшмаси туман (шаҳар) бўлими бошлиғи ушбу секторда фаолият кўрсатаётган ҳунармандлар тўғрисида маълумотларни тўплаб, йўналишлар учун режа тузишади. Сектор раҳбари, маҳалла раиси ва “Ҳунарманд” уюшмаси туман (шаҳар) бўлими билан биргаликда, ҳунармандчилик қилиш истагидаги фуқароларни ҳунармандчилик соҳасида кўникма ҳосил қилиш учун уларни ҳунармандларга “Устоз-шогирд” тамойили асосида бириктиради.

Ҳунарманднинг ўқув устахонаси қуввати, касб хусусиятига кўра шогирдлар устозларга бириктирилади, бунда бир ҳунармандга бириктириладиган шогирдлар сони 10 нафардан ортиб кетмаслиги белгидаб



қўйлади. Туман (шаҳар) Аҳоли бандлигига кўмаклашиш маркази ишсиз фуқаролар ва уста-хунарманд ўртасида хунар ўргатиш бўйича барча зарурий шартлар ва ўқиш муддатлари кўрсатилган уч томонлама шартнома тузади. Ишсиз фуқаролар бир вақтнинг ўзида Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказида “ишсиз” сифатида рўйхатда туради ва хунар ўрганиш даврида стипендия тўланади. Шартнома муддати хунар ўргатиш хусусияти ва шартларига кўра белгиланади, шу билан биргаликда, касбга ўқитиш муддати 6 ойдан ошмаслиги керак. Ўқув курси якуни билан бириктирилган фуқаролар хунармандчилик билан шуғулланиш учун давлат хизматлари марказидан тегишли тартибда якка тартибдаги тадбиркор сифатида рўйхатдан ўтади ва “Хунарманд” уюшмасига аъзо бўлади.

Маҳалла раислари тадбиркорлик ва хунармандлик қилиш истагидаги фуқаролар касбга ўқитишни самарали ташкил қилиши учун туман (шаҳар) Аҳоли бандлигига кўмаклашиш маркази ва “Хунарманд” уюшмаси билан мустаҳкам алоқани йўлга қўйилмоқда. Хозирги вақтда маҳаллалар бўйича меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касбларга эътиборни кўчатириш лозим.

Хунармандчиликда ҳозирги замон маркетинги маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатишни бевосита бозор имкониятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширишни тақозо этади ва кўп ҳолларда айнан бозор учун мослашган маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни шакллантиришда хунарманд кўникмасига боғлиқ.

Демак, бу масалага ўз муносабатимизни билдириб, шуни таъкидлаймизки, бизнинг фикримизча, маркетинг ривожлантиришда хунарманднинг шахсий ва ижтимоий эҳтиёжини қондириш мақсадида маҳсулотни яратиш, ишлаб чиқариш, ишлаб чиқарилган маҳсулотни бозорда сота билиш ва уни истеъмол жараёнидаги хизмат кўрсатишни ташкил қилишга йўналтирилган истеъмолчини жозибадорлигини оширувчи тадбирлар мажмуаси яратиш мақсадга мувофиқдир.

Хунарманд маҳсулоти бозорида сотувчилар ва харидорларни юқори даражада ташкил этилган сервис асосида ишни ташкил этишга қаратилган

тадбирларнинг йиғиндиси бўлиб, унинг мамлакат миқёсидаги ижтимоий-иқтисодий моҳияти, бу соҳада амалга ошириладиган ишлар кўламини замонавий маркетинг тамойиллари асосида йўлга қўйиш заруриятини белгилайди. Шундан келиб чиққан ҳолда, айнан миллий ҳунарманд товарлари бозорида маркетинг фаолиятини шаклланиши ва ривожланиши истиқболлари билан боғлиқ, илмий-амалий муаммоларни ечимига урғу бериш ва бу жараёнда маркетинг тизимини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган хусусиятларни ўрганиш ўта муҳимдир.

Шуни таъкидлаш лозимки, ҳунарманд маҳсулотларига талаб нисбатан секин ўзгаради ва кўплаб омиллар, айрим ҳолларда умумий ёки бир маҳсулотга тегишли бўлган омиллар асосида белгиланади. Ҳунарманд товарлари истеъмолчиларини ахборотлар билан тўлиқ таъминлаш мақсадида ва бунинг сифатли маҳсулотларига харидорлар диққатини жалб қилувчи маълумотларни аниқлаш имконини берувчи восита ҳисобланади.

Миллий ҳунармандчиликни ривожлантириш мақсади, иқтисодий сиёсатида асосий ҳунармандчилик турларининг кўпатириш ва ошириш орали ташқи иқтисодий алоқаларни йўлга қўйиш ва кўл меҳнатига асосланган миллий-тарихий ҳунармандчилик фаолиятининг такомиллаштиришдир. Ҳунармандчиликнинг миллий-тарихий хусусиятлари билан боғлиқ омилларни эътиборга олиб, «уй-устахона-дўкон» тизимидаги ҳунармандчилик лойиҳаларини давлат субсидиялари ва узоқ муддатли кредитлар орқали молиялаштирилса ҳунармандларни янги авлодини тайёрлаш имкони бўлар эди[3].

Рағбатлантиришда ҳунармандчиликдаги бандликнинг ижтимоий-демографик хусусиятлари, жумладан, ёш ва жинс, моддий таъминланганлик даражаси, фаолият фаоллиги, шогирдлар сони, ҳудудий жойлашув ҳамда молиявий имкониятларнинг ҳунармандлар сони билан боғлиқлик моделлари асосида соҳа фаолиятининг кўп йиллик прогноз кўрсаткичлари ишлаб чиқирилиши лозим.

Фикримизча, хунармандлар янги авлодини тайёрлашни рағбатлантиришда «устоз-шогирд» анъаналарининг тарихий тенденциялари ҳамда меҳнатни ташкил этишнинг замонавий талабларидан келиб чиққан ҳолда, шогирд қабул қилишда истеъдодлигини танлаб олиш керак; хунармандчилик ишлаб чиқарувчи маҳсулот маркетингини олиб бориш буюртмачилар иштирокида буюртмани маҳаллий бозор учун ишлаб чиқариш тизими яратиш керак;

хунармандчилик фаолияти тадбиркорлик фаолиятидан фарқли равишда жисмоний шахсларнинг меҳнат ва (ёки) фуқаролик-ҳуқуқий шартномалари бўйича жалб қилинмай, мустақил равишда амалга ошириладиган товарлар ишлаб чиқариш ва сотиш, ишларни бажариш, хизматларни қўл меҳнати ва асбобларидан фойдаланган ҳолда амалга оширишдаги фаолиятидир; хунармандчилик миллий анъаналар ва якка тартибдаги ижодиётни ўзида мужассамлаштирган, кўп жиҳатдан қўл меҳнатига асосланган юқори малакали меҳнат, у доимо ривожланувчи ва янги касбий йўналишлар ҳамда шаклларни яратувчи юқори технологик, ҳатто, инновацион ишлаб чиқаришни оширишга имкон беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Гўланова З. Амир Темур ва Темурийлар даврида хунармандчилик. Бизнес-Эксперт журнали. – Тошкент. №8 2015 йил, 50-53-б. (08.00.00; №3).
2. Хамидова З. Торговые и денежные отношения в период Темуридов. International Conference on Eurasian Economies Tashkent, 2018, June 18. 579-582 pp.
3. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии открытия первого Международного фестиваля народно-прикладного искусства. 14.09.2019.– <https://president.uz/uz/lists/view>.

# **PRESERVING HERITAGE, EMPOWERING COMMUNITIES: A NATIONAL APPROACH TO REVIVING TRADITIONAL CRAFTS AND ENTREPRENEURSHIP IN EGYPT**

**Muhammad Eid Balbaa, PhD**

**Associate Professor, World Economy Department**

**Tashkent State University of Economics**

Egypt's cultural legacy encompasses thousands of years, including ancient civilizations, archaeological wonders, and artistic traditions, making it renowned for its rich and diverse cultural heritage. Revitalizing and promoting traditional crafts in Egypt preserves cultural heritage, showcasing artistic traditions, historical narratives, and unique craftsmanship for future generations.

Promoting entrepreneurship and supporting the artisan sector in traditional crafts not only preserves cultural heritage but also has significant potential for economic sustainable development.

## *Diversity of Egyptian Crafts*

Pottery: ceramic vessels and decorative items.

Weaving: textiles and carpets.

Woodwork: carving and sculpting.

Metalwork: decorative items.

Jewelry: precious metals and gemstones.

Each craft carries its own distinct style, motifs, and symbolism, representing the cultural diversity within Egypt.

## *Challenges & Difficulties*

Globalization: changes in consumer preferences and the rise of mass-produced goods. Urbanization: modernization, more industrialized production methods.

Decline in Interest: Younger generations often show less interest in traditional crafts.

Limited Access to Markets: limited exposure and opportunities to showcase their crafts. Lack of Resources and Infrastructure: Less efficient production and growth.

Insufficient Support Systems: marketing, finance, and entrepreneurship.

*Importance* Cultural Importance Preserving Cultural Heritage: passing down ancestral knowledge, techniques, and artistic traditions to future generations.

Celebrating Identity: fostering a sense of pride among its people.

Economic Importance


Employment Opportunities: create employment opportunities, contributing to poverty reduction and economic empowerment.

Local Economic Development: by attracting tourists, generating income, and supporting related industries, such as tourism and hospitality.

Economic and Environmental Sustainability: utilize local materials and sustainable production methods.

### ***Egyptian Model***

Figure 1: The creative and social enterprise universe



Companies operating in creative sectors and/or utilizing creative skills towards achieving social and/or environmental impact in a financially viable manner.

Social Importance

Community Cohesion: brings communities together, fostering a sense of belonging, pride, and shared cultural values.

Skill Development and Knowledge Transfer: enables the transmission of specialized skills and knowledge from experienced artisans to younger generations, ensuring the continuity of traditional craftsmanship.

## Sustainable Tourism

**Cultural Tourism Attractions:** attracting tourists interested in authentic cultural experiences and contributing to the development of sustainable tourism in Egypt.


## Policy Frameworks and Support

**Government Initiatives:** providing a conducive environment for their growth.

**Legislative Support:** supportive legislation and regulations that protect and promote traditional crafts

## Institutional Support and Capacity Building

**Craft Associations and Cooperatives:** craft associations and artisan cooperatives, providing institutional support, networking opportunities, and capacity building programs.



Training and Skills Development: to enhance their skills, introduce new techniques, and improve product quality, ensuring competitiveness in local and international markets. Funding Mechanisms

Grants and Financial Support: enabling them to invest in equipment, raw materials, marketing, and product development.

Access to Microfinance: to obtain loans and financial resources for business expansion, product diversification, and market access.

## **ЎЗБЕКИСТОНДА МАҲАЛЛИЙ ЗАРГАРЛИК БУЮМЛАРИНИ ЯСАШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ**

**Дадамухамедов Бобир Фасихитдинович**

Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик  
ва дизайн институти ўқитувчиси, санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

заргар, санъатшунос  
Тошкент, Ўзбекистон

XVI аср бошларида Темурийлар салтанати Бухоро, Қўқон ҳамда Хива хонликларига бўлиниб кетиши, амалий санъатдаги ўзгаршларга ҳам ўз таъсирини кўрсатиб, ҳар бир хонлик ўзига хос йўналишни тарғиб қила бошлади. Бу ҳолат заргарлик санъатини ҳам четлаб ўтмай, ҳар бир хонлик ўзига бўйсунган ҳудудларнинг заргарларини юксак маҳорат билан ижод қилишлари ва хонликнинг мавқеини, куч-кудрати ва салоҳиятини ўзида акс эттирувчи зеб-зийнат буюмларини яратишлари учун раҳнамолик қилди. Бунинг натижасида эса, заргарликда йирик мактаблар ва марказлар шаклланиши кўзга кўрина бошлади. Шу аснода XIX бошларидаёқ заргарликнинг қуйидаги анъанавий мактаблари тўлиқ шаклланганлигини кўришимиз мумкин. Булар: Бухоро, Хоразм, Сурхондарё, Фарғона, Тошкент, Қорақалпоғистон. Ҳар бир мактабнинг йирик марказлари ҳам бўлиб, улар мактабларнинг ривожланиши ва такомиллашишида катта аҳамият касб этган. Қуйида ҳар бир мактаб ва марказлар ҳамда уларнинг ўзига хос бўлган маҳаллий хусусиятлари ва бошқа шу каби қатор илмий асосланган ҳолдаги маълумотларни бирма-бир таҳлил қилиб ўтамыз.

**Бухоро заргарлик мактаби.** XIX – XX аср бошларида Бухоро хонлигида хунармандчилик, савдо-сотик, бадий ижод, меъморчилик, рассомчилик, халк амалий санъати ўзига хос йўналишда ривожланди. Бухоро хонлигида асосий заргарлик марказлари сифатида шаҳар ва қишлоқлар катта аҳамиятга эга бўлган. Бухоро заргарларининг ишлари шаклан мукамаллиги ва мазмун уйғунлиги, нақшинкор безакларнинг буюмга бевосита мослиги ва ўзаро мутаносиблиги, танланган рангларнинг бир-бирига уйғунлиги ва мазмунан бойлиги билан Ўзбекистон заргарлик санъатида ўзига хос мактаб сифатида алоҳида ажралиб туради. Буюмларнинг мукамал ва пухта, қадимий даврларда шаклланган турлари ўзининг бой бадий хусусиятларини кўпроқ сақлаб қолди. Бухоро заргарлик мактабига оид тақинчоқларда тоблаш, кавшарлаш, куйиш, сайқаллаш, ўймакорлик, симкори, соводкори, кандакорлик, тиллаҳал, миной, каби усуллар қўлланилган. Айниқса, тақинчоқнинг ташқи кўринишига зиён етказмаган ҳолда қимматбаҳо металлни тежаш имконини берувчи “мастика-фольга” услуги ажралиб туради. “Майдаланган феруза” услубидан эса фақат Бухоронинг ўзида фойдаланилган. Симкори буюмлари бўлмиш “Панжара”, “Бозбандча”, “Катмала”, “Моҳитилло” каби тақинчоқлар Бухоро заргарлик мактабининг асосий хусусиятларини ўзида мужассам этган.

Бухоро мактабига оид заргарлик ишларида бадий қайта ишланган шишалар, айниқса, “яхлит қадама” услубида ясалган буюмлар ҳам кенг қўлланилган. Баъзи туморлар ичига мастика тўлдирилган, юза қисмига нафис нақшлар билан Қуръон оятлари ёки “Аллоҳ”, “Бисмиллоҳ”, “Муҳаммад” сўзлари босма услубида битилган. Зираклар эса олтиндан босма, симтўр, хоискори, ўрама, қадама услубларида ясашиб, ёкут, марварид каби тошлар қадаб, фақат мазкур заргарлик мактабигагина хос бўлган “ҳалқай кундалсоз” услубида зираклар ҳам ясалган.

**Хоразм заргарлик мактаби.** Хива хонлиги хунармандчилигида ҳам ўзига хос ўзгаришлар ва ривожланишлар юзага келган бўлиб, Хоразм хунармандчилиги ихтисослашган бўлишига қарамай, ярим кўчманчи



хўжаликларда уй хунармандчилиги устунлик қилган. Хоразм заргарлари асарлари – бой шакллари, ажойиб безак жиҳатларига эгалиги, мураккаб композицион тузилиши, нозик ишлов усули, маржонлар билан безатилган занжирсимон шокилалар, заргарлик санъатида мўл-кўлчилик рамзи бўлган барг, ғунча, куртак, дон сингари осилчоқлар, ранг-баранг ойналардан ясалган кадама нақшлардан иборат санъат намуналаридир.

**Сурхондарё заргарлик мактаби.** Сурхондарё аҳолисини анъанавий кийимлари ва тақинчоқлари ўзбек маиший моддий-маънавий маданиятининг ажралмас қисми бўлиб, ўзидан миллий хусусиятларни жипслаштирган. Сирғалар турли ёшдаги барча аёлларнинг нафақат байрамона балки кундалик тақинчоқларидан ҳам бири ҳисобланган. Шеробод туманининг Пашхурт, Майдон, Ғоз қишлоқларида аёллар доира шаклидаги осилчоқларсиз турли хил ақиқ, ёқут, зумрад, гавхар кўзлар кўйиб ясалган сирғалар тақишган.

XIX асрнинг охирида ўрта ёшдаги аёллар орасида “Қозик исирға”, “Ой балдоқ” каби сирғалар тақиш расм бўлган. Қозик сирға кумушдан ясалган ва узун тик кўринишда бўлиб, қулоқларга ўтказиладиган қисми катта илгаксимон ёки қозик кўринишида бўлган ҳамда турли хил мунчоқлар ва тошлар билан безатилган.

**Фарғона заргарлик мактаби.** XIX аср Фарғона водийси заргарлик мактаби Қўқон, Наманган ва Андижон, Чуст усталари томонидан намоён бўлган. Фарғона анъанавий заргарлик мактабига оид сирғаларнинг энг кенг тарқалган тури “Ой балдоқ” бўлиб, қадимий намунадаги ярим ой шаклидаги сирғалар, узум боши кўринишидаги сирғалар, “Қашқар балдоқ” номли симкори ва зиғираклар билан безатилган сирғалар бўлган. XX аср ўрталарида қўқонлик заргарларга Усто Шарифжон Сулаймонов раҳбарлик қилиб, кўплаб усталар, жумладан, бўйин ва кўкрак тақинчоқларини ишлаб чиқаришга ихтисослашган Музафар Юсуфжоновга мазкур санъатнинг сир-асрорларини ўргатган.

**Тошкент заргарлик мактаби.** Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашган Тошкент қадимдан Ўрта Осиёнинг йирик савдо-сотик маркази бўлиши билан

бирга ҳунармандчиликнинг барча турлари ривожланган йирик шаҳарлардан бири ҳам ҳисобланади. Ҳунармандчиликнинг асосий турларидан бири заргарлик ҳунари Ўзбекистоннинг Бухоро, Самарқанд, Қўқон, Андижон, Марғилон, Наманган, Хўжанд, Қарши, Шаҳрисабз каби шаҳарлар сингари Тошкент шаҳрида ўзига хос тарзда шаклланиб, локал-худудий хусусияти билан ажралиб туради.

Тошкентда заргарлик буюмларидан тиллақош, тиллабаргак, нозик ўйма нақшли енгил қорамтир билакузуклар, катта ва нафис айланага бириктирилган осилмалардан иборат Тошкент зираклари, ойбалдоқлар кўплаб ишлаб чиқарилган. Айниқса, Тошкент зирак, Самарқанд зирак, нўғай зирак, козок зираклар, сочпопуклар, тиллабаргаклар, туморлар жуда машҳур бўлиб, ички ва ташқи харидорларни жалб қилиб келган. Тошкент мактаби буюмлари кўпроқ кумуш ва кейинчалик қотишмага тилла суви юритилиб ясалган. Бу одат Тошкент заргарларида ҳозиргача сақланиб қолган.

**Қорақалпоғистон заргарлик мактаби.** Қорақалпоқ халқ амалий санъати, хусусан, заргарлик санъати буюмлари нафақат бадий мероснинг ноёб манбаи, балки халқнинг этник тарихни, халқлар билан муносабатларни, диний-маданий қарашлари асосини ҳам ифодалайди.

Қорақалпоқ халқи заргарларининг турли техникалари ўзбекларникига ўхшаш. Асосан, зарб қилиш, қуйиш, босма, ўйма, кандакорлик ва бошқалар. Айрим буюмлар яшашда ҳунармандлар кумушлаш ва оддийроқ металлларни ялтироқ қилишни афзал билганлар. Қорақалпоқ ҳунармандлари ўз тақинчоқларини ақиқ, феруза, маржон, баъзан марваридлар, олмослар каби қимматбаҳо ва ярим қимматбаҳо тошлар билан безатганлар.

Қорақалпоқ заргарлари ижодида зарб қилиш (таплаш), қуйма (қуйидан), ўймакорлик (нағис ойиш), зернь, (зиғирак), штамп (босма), тиллаҳал (олтин жаллатив) ва кумуш қоллама (гумис жаллатив), ялтиратиш, жилвирлаш каби услублари жуда кенг тарқалган.

XIX – XXI аср бошларида анъанавий заргарлик мактабларининг шаклланиши ва ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этиш ва таҳлилий ишларни

ёритишга бағишланган мазкур тадқиқот соҳадаги янгилик. Сабаби, санъатшунослар, тарихчилар томонидан шу кунга қадар ўзбек заргарлик мактаблари борасидаги тадқиқотларга қўл урилмаган. Бу борада Ўзбекистон халқ устаси, заргар, профессор Ф.Дадамухамедовнинг тажрибаси, маҳорати ва билимига таянилди ҳамда академик, санъатшунослик фанлари доктори, профессор А.Хакимовнинг таклиф ва тавсияларини инобатга олган ҳолда тадқиқотлар олиб борилди.

Шунга кўра, юртимиздаги 100дан ортиқ заргарларнинг ижодий фаолияти тадқиқ қилинди. Булар, Қорақалпоғистон Республикасида – 3 та, Андижонда – 3 та, Бухорода – 12 та, Жиззахда – 3 та, Қашқадарёда – 4 та, Навоийда – 10 та, Наманганда – 11 та, Самарқандда – 13 та, Сирдарёда – 3 та, Сурхондарёда – 4 та, Хоразмда – 4 та, Фарғонада – 5 та, Тошкент вилоятида – 8 та, Тошкент шаҳрида – 19 та. Уларнинг ҳар бири ўз ҳудудида ижодий фаолиятларини олиб бориш билан бир қаторда, ҳам Ўзбекистон заргарлик мактаби анъаналарини, ҳам замонавий инновацион услубларни ривожлантириб, янгиликлар яратиш келишмоқда. Бу ўз навбатида Ўзбекистон заргарлик мактаблари тобора ривожланиб, янги босқичга кўтарилаётганидан далолат беради.

Албатта ҳар бир соҳада бўлгани каби заргарлик соҳасидаги электрон тижоратда ҳам ўз ечимини кутаётган муаммолар бор. Жумладан масофавий савдога имкон очилгани билан ба'зи ҳолларда буюртмани почта орқали маҳсулотни этказиб беришда қонун томонидан эчимини топиши керак бўлган ишлар мавжуд. Кўпгина ҳолларда почта хизмати корхоналари олтиндан ва қимматбаҳо металллардан ясалган буюмларни этказиб беришда қатор сертификатлар расмийлаштирилган ҳолдагина этказиб бериш имкониятига эга бўлади. Бу эса соҳадаги электрон савдони ривожлантиришини қисман секилаштиради. Ҳозирги кунда ҳаридорлар оддий металлдан ясалган буюмлар ва кумушдан ясалган маҳсулотларни ҳарид қилиб этказиб бериш хизматига эга бўлмоқдалар.

## 1 – SHU'BA

### MAHALLA – FAQAT YASHASH MAKONI EMAS, BALKI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTISH MAKTABI

#### МИЛЛИЙ ХУНАРМАНЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ -ҚУВВАТЛАШНИНГ МАҲАЛЛА ФАРАВОНЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ

ТДИУ“Менежмент”

кафедраси доценти

Юсупова Дилдора Туражановна

Мамлакат иқтисодиётини модернизациялаш ва диверсификациялаш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини жадал суръатларда ривожлантириш устувор вазифалардан бири бўлмоқда. Бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳаси ички бозорни сифатли, рақобатбардош ва ҳар хил турдаги маҳсулотлар билан тўлдиришда, аҳолини оқилона иш билан таъминлаш ва янги иш ўринларини яратишда, бунинг натижасида эса, аҳоли турмуш тарзи фаровонлигини ошириш ҳамда даромадларининг ошишида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Иқтисодиётнинг деярли ҳар бир тармоғида фаолият юритаётган кичик корхоналар, одатда, йирикларига қараганда ишчанлиги ва инновацион фаоллиги билан ажралиб туради. Бу ҳолат миллий ва ҳудудий саноат сиёсатини шаклланишида кичик бизнес имкониятларини кўриб чиқиш масаласини долзарб қилиб қўяди, чунки маҳаллий хом ашё билан ишловчи ва маҳсулотининг катта қисмини маҳаллий бозорда сотувчи кичик корхоналар, ҳозирда вилоятлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг катализатори сифатида майдонга чиқмоқдалар[1].

Чет элдаги ривожланган мамлакатлар тажрибаси ва мамлакатимиз саноатида эришилган ютуқлар кичик корхоналарнинг йирик корхоналарга нисбатан афзаллиги мавжудлигини исботлайди.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, саноатда кичик бизнесни қўллаб-қувватлашнинг ишчан механизмини яратиш ва жорий қилиш унинг моҳиятини чуқур таҳлил қилиш ва ривожланишининг барча босқичларида асосий тенденция ва қонуниятларни аниқлаш асосидагина мумкин бўлади.

Кичик корхоналар тезда ўзгарувчан шароитга мослаша олиш, истеъмолчилар талабига мос маҳсулот ишлаб чиқаришга, тез суръатлар билан янги техника технологияни жорий этишга, янги ишлаб чиқариш қувватини яратиш ва улардан яхши фойдаланиш имкониятларига эга[2].

Ўтган йиллар давомида республикамизда миллий ҳунармандчиликни ривожлантириш, халқ бадиий ҳунармандчилиги ва амалий санъатнинг кўп асрлик анъаналарини сақлаб қолиш, ҳунармандчилик билан шуғулланувчи шахсларни қўллаб-қувватлаш бўйича амалга оширилган чора-тадбирларга қарамадан, ҳунармандчилик кичик бизнес ва яқка тадбиркорлик ривожланишининг кучли, мустақил ва оммавий ёналишига айлана олмаяпти.

“Ҳунарманд” уюшмаси, берилган имтиёзлар ва қулайликларга қарамадан, ўз сафларига ҳунармандларнинг кенг оммасини қамраб ололмапти, уюшмага аъзо бўлганлар сони ҳунармандчилик билан шуғулланувчиларнинг кам қисмини ташкил этмоқда. Ҳунармандларга молиявий ва хомашё ресурслари ажратиш, улар ишлаб чиқарган маҳсулотларни сотиш, шу жумладан экспорт қилиш учун шароит яратишга ёрдам бериш ишлари самарадорлиги етарли даражада эмас.

Шунга кўра, ҳунармандчиликни ривожлантириш йўлидаги мавжуд муаммо ва тўсиқларни тизимли бартараф этиш, Ўзбекистон халқларининг бой маданий мероси ва тарихий анъаналарини тўлиқ сақлаб қолиш ва янада бойитиш, ҳунармандчиликни кенг миқёсда қўллаб-қувватлаш ҳамда ҳунармандчилик билан шуғулланишга аҳолини, айниқса, ёшлар, аёллар ва кам таъминланган оилаларни жалб қилишга рағбатлантириш мақсадида 2017 йилнинг 17 ноябрида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар

томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди.

Республикада миллий ҳунармандчиликни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари бўлиб, ҳунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларга ер майдонлари ва бинолар ажратиш, муҳандислик-коммуникация тармоқларига улаш, имтиёзли кредитлар бериш, ҳунармандчилик маҳсулотларини сотиш ва экспорт қилиш, шунингдек, республикамизнинг туман ва шаҳарларида ҳунармандчиликни ривожлантириш марказларини ташкил этиш ва «Уста-шогирд» мактаблари фаолиятини такомиллаштириш ишлари белгиланди.

Шуни таъкидлаш муҳимки, Фармонда ҳунармандлар учун имтиёз ва қулайликларни кенгайтириш, шунингдек, уларнинг манзиллилиги ва самарадорлигини кучайтириш кўзда тутилган. Хусусан, 2017 йилнинг 1 декабридан ҳунармандчилик субъектлари – “Ҳунарманд” уюшмасининг аъзолари:

- ҳунармандчилик фаолияти маҳсулотлари (товар, иш, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотишда қатъий белгиланган солиқ тўловидан тўлиқ озод этилади;

- ёшга доир пенсия ва нафақа олувчилар бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига суғурта бадали тўловидан озод этилади;

- қишлоқ туманларида рўйхатдан ўтган ва фаолиятини амалга ошираётган ҳунармандлар ўз фаолиятининг дастлабки икки йили мобайнида бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига белгиланган суғурта бадалининг 50 фоизини тўлайди. Шу билан бир қаторда, ҳунармандларга ўз маҳсулотларини экспорт қилишдан тушган хорижий валютани эркин тасарруф этиш, шу жумладан, банк ҳисоб рақамларидан чет эл валютасини нақд шаклда ечиб олиш ҳуқуқи берилмоқда.

Бунда хорижий мамлакатларда ўтказиладиган кўرғазма, фестивал, ярмаркаларда ҳунармандчилик маҳсулотларини экспорт шартномаларини тузмаган ҳолда сотиш мумкин, бунда олинган даромад экспорт тушуми

ҳисобланмайди. Шу билан бирга, ҳунармандларга ташқи реклама воситаларини жойлаштиришда маҳаллий бюджетга тўланиши белгиланган тўловларнинг 50 фоизи миқдорида имтиёз бериш жорий этилмоқда. Бунда кўрсатилган шартларда ҳунармандларга берилган объектлардан 5 йилдан кам бўлмаган вақт давомида ҳунармандчилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш соҳасида фойдаланилиши лозим.

Фармонда ёшларни ҳунарга ўқитиш ва ҳунармандчилик кўникмаларини авлоддан-авлодга ўтказиш масалаларига алоҳида эътибор ажратилган. Шу мақсадда 2018 йилда республикамизнинг барча ҳудудларидаги 16 та касб-ҳунар коллежида “Ҳунарманд” уюшмасининг аъзоси бўлган ҳунармандларни ўқитувчилар сифатида жалб қилган ҳолда, ҳунармандчилик иши бўйича янги касбий таълим йўналишлари очилиши назарда тутилган. Бунда ҳунармандчиликка ўқитишда ҳунармандлар билан яқка тартибдаги тадбиркорлар сингари шартнома тузиш ҳуқуқи берилади ҳамда улар кўрсатган таълим хизматлари солиққа тортилмайди. Бундан ташқари, “Уста-шогирд” мактаблари ўқувчиси сифатидаги иш даври ўқувчилар 25 ёшга етгунга қадар, йилига энг кам иш ҳақининг камида 2,5 баробари миқдорида суғурта тўлови тўланган тақдирда, уларнинг меҳнат стажига қўшилади. Шу билан бирга, 2018-2019 йилларда ёшларни «Уста-шогирд» усулида ўқув дастурлари бўйича тайёрлаш учун Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси ҳисобидан 1 миллиард сўм миқдорида маблағлар берилган. Фармон билан ҳунармандчиликни республика ҳудудлари, туман ва шаҳарларида ривожлантириш бўйича ҳам аниқ чора-тадбирлар белгиланган. Хусусан, республика ҳудудларида ҳунармандчилик объектлари, жумладан музей-устахоналар, “Уста-шогирд” мактаблари, ҳунармандчиликни ривожлантириш бўйича ахборот-ресурс марказлари ва бошқа объектларни ташкил этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тасдиқланган. 2018-2019 йилларда республикамизнинг 23 та шаҳар ва туманларида “Ҳунармандчиликни ривожлантириш марказлари”ни яратиш назарда тутилган. Ушбу марказлар тарихий-анъанавий архитектура услубида қурилиб, улар ҳудудида “тарихий

шарқ бозори” услубидаги савдо расталари, халқ ижоди усталари томоша кўрсатадиган махсус жойлар, карвонсаройлар ва бошқа объектлар жойлаштирилади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Тараққиёт ва тикланиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан «Микрокредитбанк», «Халқ банки» ва «Агробанк» акциядорлик тижорат банклари учун умумий ҳажми 50 миллион АҚШ доллари миқдоридан кредит линиялари очилади. Ушбу маблағлар тижорат банклари филиаллари орқали Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг қайта молиялаштириш ставкасининг 50 фоизи миқдоридан лойиҳаларни кредитлаш учун, Марказий банкнинг қайта молиялаштириш фоиз ставкасида айланма маблағларини тўлдириш учун йўналтирилади. Бир кредит олувчига бериладиган кредит ҳажми энг кам иш ҳақининг 300 баробаригача бўлган миқдорда кўзда тутилган, кредит муддати олти ойлик имтиёзли даврни ҳисобга олган ҳолда 2 йилни ташкил этади[3].

Фикримизча, миллий хунармандчиликнинг иқтисодий мавқеини янада ошириш учун қуйидаги бир қатор муаммоларни ҳал этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

уларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш, ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштириш;

моддий техника ресурслари билан таъминлаш механизмида юзага келаётган муаммоларни нисбатан қисқа муддатларда бартараф этиш;

хунармандчиликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмининг ишлаш жараёнини назорат қилиш ва бошқалар. Маҳалла фаровонлигини оширишда ҳамда уни юксалтиришда кичик бизнес ва тадбиркорликни, миллий хунармандчиликни ривожлантиришга қаратилган давлат сиёсати алоҳида аҳамиятга эга ва салмоқли ўрин тутаяди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Юсупов У.Ш. Кичик тикувчилик корхоналарида инновацион фаолиятни бошқариш хусусиятлари. «Иқтисодиёт ва таълим» журнали. 2012йил, №6, 59-63 бетлар.



2. Baker, D. S. (2018). The Impact of Social Media Influencers as an Advertising Source in the Beauty Industry from an Irish Female Millennials' Perspective (Doctoral dissertation, Dublin, National College of Ireland).

3. www.stat.uz

## **МАҲАЛЛА -МИЛЛИЙ ҲУНАРМАНДЧИЛИК МАРКАЗЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ**

**и.ф.д., профессор Ф.Назарова,**

**Тошкент молия институти,**

**Менежмент ва маркетинг кафедраси профессори**

**Яхшиликков С**

**Таянч докторант ТДАУ**

Ўзбекистон мустақиллигини ҳар томонлама мустаҳкамлаш унинг умумбашарият тан олган маънавиятини тиклаш ва янги давр талаблари асосида юксак даражага кўтаришни талаб қилади. Бу эса мустақил Ўзбекистон тарихининг барча даврларини чуқур ўрганиш, тарихий ҳақиқатни юзага чиқаришни тақозо этади. Ватанимиз тарихининг ана шундай даврларидан бири – жаҳон тарихида муносиб из қолдирган Амир Темур ва Темурийлар давридир. Бу даврда аждодларимиз томонидан яратилган буюк илмий мерос жаҳон цивилизациясига муҳим ҳисса бўлиб қўшилган ва улар илгари сурган шундай иқтисодий ғоялар мавжудки, уларни ўрганиш, умумлаштиришнинг ҳам назарий, ҳам амалий аҳамияти жуда долзарб масала ҳисобланади.

Юртбошимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек: «... Бу ҳақда сўз юритганда, айтиш лозимки, биз улуғ боболаримизнинг муносиб давомчилари бўладиган етук инсонларни тарбиялаш масаласига, афсуски, етарлича аҳамият бермадик. Ҳолбуки, интеллектуал ва маданий салоҳиятнинг қандай ноёб бойлик экани, нодир талант эгаларини тарбиялаб камолга етказиш ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини унутишга ҳаққимиз йўқ. Ривожланган мамлакатлар бугунги юксак тараққиёт даражасига айнан шунинг ҳисобидан етгани – бу ҳам ҳақиқат» . Биргина мисол, тарихга мурожаат қиладиган бўлсак, мамлакатимизга чет эл инвестицияларини жалб қилиш масаласи Амир Темур

замонида ҳам кун тартибига долзарб вазифа сифатида кўйилганини кўришимиз мумкин. Масалан, Соҳибқирон бобомизнинг 1402 йилда Франция кироли Карл VI га йўллаган мактубида, жумладан, шундай дейилади: «Сиз, аъло ҳазратлари, ўз савдогарларингизни бизнинг мамлакатимизга юборсангиз. Биз ўз томонимиздан уларнинг иззат-хурматини сақлаш, уларга ҳеч ким зўрлик кўрсатиб, зиён-заҳмат етказмаслигини таъминлаймиз. Чунки дунё савдо аҳли билан обод ва фаровондир». Қаранг, бу ҳикматли сўзлар бугунги халқаро муносабатларда ҳам ўзининг аҳамияти ва қимматини йўқотмаган. Улар худди шу бугун айтилгандек жарангламоқда»<sup>2</sup>

XI-XII асрларда ҳунармандчилик кенг миқёсда ривожланиб, ўрта Осиёнинг, шу жумладан ўзбек элининг ҳам чет эллар билан иқтисодий маданий алоқалари авж олади. Маҳаллий ҳунармандчилик халқ хўжалигига зарур маҳсулотлар ишлаб чиқариш техник ва бадиий жиҳатдан юксак даражага кўтарилди. Ўзбек хонликлари даврида пойтахтларда зодагонлар, бой-тўралар ва ҳокимлар эҳтиёжларини қондирадиган ҳашаматли бинолар, турли зебу-зийнатлар яратадиган касб - ҳунарлар анча ривожланди. Шаҳар ва қишлоқ аҳолисига зарур маҳсулотлар етказиб берадиган ҳар-хил ҳунармандчилик соҳалари пайдо бўлди.

Одатда ҳунармандчиликнинг энг камида 3 хили мавжуд бўлган аҳоли яшайдиган жойга шаҳар деб ном берилган 1897 йили биринчи аҳоли рўйхати вақтида катта шаҳарларда аҳолининг кўпчилик қисми ҳунармандлар ҳисобланган . Масалан, Наманган аҳолисининг -64%, Қўқоннинг -52%, Чустнинг -54%,Марғилоннинг - 50%,Андижоннинг -45%, Тошкент ва Самарқанднинг - 29% аҳолиси мустақил касб - ҳунар эгаси ҳисобланган хўжаликлардан иборат бўлган.

Шуни алоҳида қайд қилиш лозимки, ўтмишда ўзбеклар нафақат кўшни кўчманчи элатлар маҳсулотини харид қилувчилар, балки улар учун зарур ҳунармандчилик маҳсулотларини етказиб берувчи сифатида ҳам намоён бўлган. Шунинг учун маҳаллий усталар кўплаб тери ва жундан, ёғоч ва металдан, пахта ва ипақдан турли буюмлар, кийим-кечакларни ишлаб чиқариб

бозорларда сотганлар. ўрта аср хунармандларининг яна бир хусусияти уларнинг муайян ижтимоий ташкилотларга эга бўлишида эди. Бу ўзига хос жамоатчилик анъаналарига таянган махсус уюшмаларга бирикиш эди.

Ўзбек хунармандчилигининг яна бир хусусияти унинг кўп соҳаларини бевосита уй-рўзгор хўжалиги билан боғлиқлиги эди. Кўп хунармандлар асосий касбидан ташқари айниқса қишлоқ шароитида(баъзан, шаҳарларда ҳам) деҳқончилик, боғдорчилик ва сабзавотчилик билан ҳам шуғулланиб келганлар. Уларнинг кўпчилик қисми ўз маҳсулотларини яқин бозорга чиқарибгина қолмай ишлаб чиқарилган маҳсулотларга қараб, ҳақ олганлар. Бундай ҳолат қишлоқ жамоатчилик анъаналарига боғлиқ бўлиб, даставвал қишлоқ эҳтиёжларига бўйсунган. Уй хунармандчилигида ип йиғириш, тўкиш, кигиз босиш каби касблар билан шуғулланилган. Тўқимачиликда гилам ва палос биринчи ўрин турар эди. Иш қуролларининг оддийлиги, техникавий жиҳатидан қоқлигига қарамай, ўзбек хунармандчилигининг кўп соҳалари ниҳоятда юксак санъат намуналарини яратган ажойиб амалий касб - хунар сифатида танилган. хунармандчиликнинг қадимий даврларидан энг кенг тарқалган соҳаси темирчилик ҳисобланган. Бу соҳанинг ривожини даставвал маҳаллий хом ашёга боғлиқ бўлган. Ўзбекистон ўзининг ер қазилма бойликлари, олтин, кумуш, мис, темир кабилари билан аввалдан машҳур бўлган. 1913 йилда маҳаллий хунармандлар 72% металл буюмлар ишлаб чиқарганлар. Металл ишлаб чиқариш 19 касбга бўлинган.

Ривожланган соҳалардан бири металл қуйиш билан боғлиқ бўлган, у кўп жойларда дегрезлик ёки қозончилик, Хоразм ва Бухорода «Позачи» ёки «Позагар» деб номланганлар.

Дегриз одатда ҳар хил ҳажмдаги қозон, поза(тиш), чой идиш, обдаста, аспак, шамдон, маколдон, корачирок, арава ғилдирикларига таг чўян ёки халқа жувоз бошмоқи ва ҳоказолар ишлаб чиқарган. Баъзан буюртма елим идиш, қандил, келича, носсўқи ва бошқа буюмлар ҳам қуйилган. Бухоро ва Самарқандда рехтагар - жиз билан чўяндан замбарак (тўп) ва ўқи, қурол-аслаҳа ва бошқа уй- рўзгор буюмларини ясаган. Айрим жойларда дегрезлар чўяндан

махсулотига қараб чўянлар деб ҳам номланган. Чўян қуйиш учун махсус лойдан қурилган ўчоқ (Фарғона ва Тошкентда «Ён дўкон», Бухорода «кўра», Хоразмда «Дастгоҳ»)ларда эритилиб, қумдан ясалган асбоб идишларнинг ҳар хил қолипларда зарур махсулотлар қурилган.

XIX аср ўрталаригача дегрезлар хомашёни маҳаллий конлардан олганлар, кейинчалик рус мамлакатчилиги даврида Россиядан келтирилган темир-терсақлардан фойдаланилган. Умуман металл буюмларни ишлаб чиқариш ҳунармандчилиги асосан тўртта йирик соҳага бўлинган: темирчилик, заргарлик, мисгарлик ва тунукасозлик. Шулардан энг қадимий ва барча метал ишлаб чиқариш соҳаларига зарур қурол ва дастгоҳлар, халқ хўжалигига, айниқса дехқончилик қуроллари, уй-рўзғор буюмларини етказиб бериб турган соҳа темирчиликдир.

XIX аср охири-XX аср бошларида ўзбек темирчилиги шунчалик ривожланганки, унинг ичида меҳнат тақсимоли асосида мустақил соҳалар юзага келган. Масалан, уйрўзғор буюми ва эркак сарпоси таркиби ҳисобланган ўзбек пичоғини махсус пичоқчилар, қулф-калитни қулфчи ёки қулфгарлар, игна - бигизни игначи ёки игнасозлар, ҳар хил асбоб ва буюмларни чилангар, михгар, наълчи, тақачи каби темирчи усталар ясаган, маҳаллий темирчилар асбоблардан 40 га яқин турларини билганлар Бухорода 32 хилдаги темир махсулотлари ишлаб чиқарадиган соҳа маълум бўлган. Мисгарлик ҳам жуда кенг тарқалган. Масалан, асримиз бошларида Бухорода 400 га яқин, Хивада 200 дан ортиқ мисгар бўлган. Айрим усталар маҳорат билан бадий буюмлар ясаганлар. Айниқса, Бухоро, Фарғона, Хива мисгарлари машҳур бўлганлар. Улар ҳар хил ичимликлар учун идишлар, овқат ва сут идишлар (мислаган, мис товоқ, мис баркаш, лаъли, мис кўза, хумча, қумғон, стойил, офтоба, обдаста, тос, лаган, солобча, чилобчин, кошкул) ҳар хил қутича ва сандиқча носвой идиш ва ҳоказолар ишлаб чиқарганлар. Кўп буюмларга бўрттирилган ёки ўйма нақшлар берилган. Россия хонликларни босиб олгандан сўнг маҳаллий мисгарлар ўзига хос самовар чиқара бошлаганлар. Мисгарлар хом ашёни асосан Россиядан келтирганлар, рух, қўрғошин, кислота, нашатир ҳам

ташқаридан келтирилган. Барча манбаларда маҳаллий усталарнинг зўр маҳорат билан бадий буюмлар ясаганлиги тўғрисида гапирилади.

Ўзбек заргарлиги ҳам қадимий даврлардан ўзининг ажойиб санъати билан танилган. Заргарлик ноёб бадий асарларининг намуналари кўпгина археологик қазилмалардан топилган. Заргарлик техник жиҳатдан умумий металл буюмларни яшаш услубларидан ташқари ўзига хос хусусиятларга ҳам эга бўлганлар. ҳатто олтин ва кумушни боғлаш, қиздириш, сайқаллаш, пардозлаш буюмга гул босиш, тилла сув бериш каби ишларда ўзига хос нозик услуб талаб қилинган. Заргар бойларнинг буюртмаси билан катта кичик қиммат баҳо безакларни жуда чиройли қилиб ясаганлар.

Ўрта Осиё, шу жумладан Россия мустамлакасига айланган Ўзбекистонда заргарлик ва мисгарлик касблари аста - секин инқирозга учрайди. Арзон баҳода завод, фабрикадан зебу-зийнат буюмларининг маҳаллий бозорларга кўплаб келтирилиши бу ерлардаги ҳунармандчиликнинг таназзулга юз тутишига сабаб бўлди.

Тери ишлаб чиқариш ва ундан турли буюмлар тикиш жуда машҳур бўлган. Ўзбек усталарига мол териси дастлабки хом ашё сифатида кўнчилик ва чарм маҳсулотини етиштириб беришда хизмат қилган.

Diversity and inclusion initiatives within talent management enhance the academic experience for students. By attracting diverse faculty, universities offer a broader range of experiences and perspectives in teaching and mentoring. It enriches students' learning experience and prepares them to thrive in a diverse and globalized society. In addition, diverse student communities and faculty contribute to a vibrant intellectual environment, fostering lively debate, critical thinking, and collaborative research.

Talent management's focus on diversity and inclusion extends beyond the university campus. Universities serve as catalysts for social change and economic



development. Universities contribute to social justice by embracing diversity and providing equal opportunities, reducing disparities and empowering individuals from marginalized groups. Diverse and inclusive universities also attract a wide range of students, faculty, and staff, enhancing the institution's reputation, engagement, and collaboration.

6. Alumni engagement: Talent management extends beyond the tenure of faculty and staff. Universities recognize the value of engaging with their alumni community, leveraging their expertise, networks, and support. Effective talent management includes nurturing and maintaining relationships with alumni, creating opportunities for their continued involvement, such as guest lectures, mentoring programs, and career development initiatives. Engaged alumni contribute to the university's reputation, fundraising efforts, and the success of current students.

These are just a few examples of how talent management plays a crucial role in university activities. By implementing comprehensive talent management strategies, universities can optimize their human resources, promote excellence, and achieve their educational and research goals. Graduate recruitment is an important aspect of talent management in universities. How talent management contributes to the development and maintenance of alumni relations:

Talent Management recognizes the valuable experience and networks that graduates bring to the university community. Universities engage with alumni by inviting them to share their knowledge and experiences through guest lectures, panel discussions and seminars. This gives current students and faculty access to diverse perspectives and industry insights. Alumni can also serve as valuable mentors or advisors, providing guidance and support to students as they navigate their careers.

Talent management includes creating mentorship programs and career development initiatives that connect alumni with current students and recent graduates. These programs give graduates the opportunity to share their professional experiences, provide career guidance and advice on job hunting and

career transitions. Mentoring relationships promote professional development, networking, and increasing student readiness for the labor market.

The talent management organization organizes networking events that connect alumni with current students, faculty and other alumni. These events provide an opportunity for alumni to reconnect with their peers, expand their professional networks, and engage with the university community. Networking events can include industry meetings, alumni meetings, or social gatherings that encourage networking and knowledge sharing.

Talent Management recognizes the importance of alumni contributions in terms of financial and non-monetary contributions. Universities create channels for alumni to donate to scholarships, research initiatives, or other university programs. They also encourage alumni to contribute their time, expertise, or resources in various capacities, such as serving on advisory boards, participating in volunteer programs, or providing internship opportunities. Alumni engagement strengthens the university's resources and enhances its ability to fulfill its mission and strategic goals.

Talent management involves recognizing and celebrating the achievements and contributions of graduates. Universities regularly engage with their alumni communities through newsletters, magazines, social media platforms and alumni websites. This communication will keep alumni informed of university developments, events and opportunities to get involved. Recognizing the achievements of alumni not only strengthens the bond between the university and its alumni, but also fosters a sense of pride and loyalty among alumni.

Alumni involvement plays a critical role in the university's fundraising efforts. By maintaining strong alumni ties, universities increase the likelihood that alumni will contribute financially to support the institution. Alumni with strong ties to their alma maters are more likely to support fundraising campaigns, philanthropy and capital projects. These financial contributions contribute to the growth of the university, allow for the expansion of academic programs, and enhance the overall student experience.

By actively engaging with the alumni community, universities benefit from the experience, networks and support of their alumni. As part of talent management, effective alumni engagement programs enhance the university's reputation, strengthen relationships with stakeholders, support fundraising efforts, and support the success and career development of current students. contributes.

### **References**

1. Lewis, R. E., & Heckman, R. J. (2006). Talent management: A critical review. *Human resource management review*, 16(2), 139-154.
2. Scullion, H., Collings, D. G., & Caligiuri, P. (2010). Global talent management. *Journal of world business*, 45(2), 105-108.
3. Cappelli, P. (2008). Talent management for the twenty-first century. *Harvard business review*, 86(3), 74.
4. Tansley, C. (2011). What do we mean by the term “talent” in talent management?. *Industrial and commercial training*, 43(5), 266-274.
5. Collings, D. G., Scullion, H., & Vaiman, V. (2015). Talent management: Progress and prospects. *Human Resource Management Review*, 25(3), 233-235.

### **NATIONAL CRAFTSMANSHIP: PRESERVATION OF CULTURAL HERITAGE**

**Sardor Yakhshilikov,  
Tashkent State agrarian  
university base doctorant**

National craftsmanship. National craftsmanship is a form of cultural expression that is deeply rooted in a country's history and traditions. It encompasses a wide range of crafts, including pottery, textiles, woodworking, metalworking, and more. National craftsmanship is often associated with rural areas, where traditional crafts have been practiced for generations. However, it can also be found in urban areas, where artisans have adapted their craft to modern tastes and demands.

Historical development. National craftsmanship has a long history that dates back to ancient civilizations. Artisans in different parts of the world have developed their own unique styles and techniques using local materials and resources. For

example, in Japan, traditional crafts such as pottery, lacquerware, and textiles have been practiced for centuries, and they are known for their delicate beauty and attention to detail. Similarly, in India, traditional crafts such as weaving.

In many countries, national craftsmanship was once an important part of the economy, providing employment and income to artisans and their families. However, with increasing industrialization and globalization, traditional crafts have faced challenges such as competition from mass-produced goods and declining demand for handicrafts. Many artisans struggled to make a living from their craft, as well as their skills and knowledge.

**The Importance of National Craftsmanship.** Despite these challenges, national craftsmanship remains an important part of many preservation of the national

To preserve national craftsmanship, it is important to support artisans and their communities. This can be achieved through a variety of means, such as providing training and education to young artisans, encouraging the use of traditional materials and methods, and creating markets and opportunities for artisans to sell their products. Governments can also play a role in preserving national craftsmanship by providing funding and support to artisanal communities and one example of a government initiative

Another example is Peru's "Qhapaq Ñan" program, which aims to promote the country's cultural heritage and traditional crafts through tourism. The program focuses on developing tourist routes that showcase traditional crafts and cultural sites, and it provides training and support for artisans to create products that appeal to tourists.

**International Trade and National Craftsmanship.** In addition to preserving cultural heritage and promoting economic development within a country, national craftsmanship can also play a role in international trade. Traditional crafts can be a source of cultural exchange and can help to promote a country's image and reputation abroad. For example, the popularity of Japanese pottery and textiles has helped to promote Japan's cultural image and has contributed to the country's tourism industry.

However, international trade can also present challenges for national craftsmanship. Cheap mass-produced products from other countries can undercut the prices of handmade products, making it difficult for artisans to compete. Additionally, the demand for traditional crafts in other countries can lead to overexploitation of natural resources and can threaten the sustainability of traditional crafts.

One of the unique characteristics of national craftsmanship is its connection to cultural identity. Traditional crafts reflect the values, beliefs, and traditions of a society, and they play an important role in preserving cultural heritage. National craftsmanship can also foster a sense of national pride and identity, as it showcases the unique skills and traditions of a country's artisans. For example, traditional Japanese crafts such as pottery, lacquerware, and textiles are known for their delicate beauty and attention to detail, and they are a source of pride for the Japanese people. National craftsmanship can also have economic benefits. It can provide employment and income for artisans and their communities, especially in rural areas where other employment opportunities may be limited. Traditional crafts can also attract tourists and contribute to a country's tourism industry. In addition, traditional crafts can be a source of innovation and creativity, as artisans adapt their craft to modern tastes and demands.

However, national craftsmanship also faces challenges. As mentioned earlier, traditional crafts have faced competition from mass-produced goods and a decline in demand for handmade products. Many artisans have struggled to make a living from their craft, and the skills and knowledge associated with traditional crafts have been in danger of being lost.

To address these challenges, it is important to support artisans and their communities. This can be done through various means, such as providing training and education to young artisans, promoting the use of traditional materials and techniques, and creating markets and opportunities for artisans to sell their products. Governments can also play a role in preserving national craftsmanship by providing funding and support for artisanal communities and by promoting traditional crafts as part of national heritage and culture.

International trade can also play a role in the preservation and promotion of national craftsmanship. Traditional crafts can be a source of cultural exchange and can help to promote a country's image and reputation abroad. However, international trade can also present challenges, such as the competition from cheap mass-produced products and the threat to the sustainability of traditional crafts.

In conclusion, national craftsmanship is a valuable form of cultural expression that reflects a country's unique skills, traditions, and identity. It plays an important role in preserving cultural heritage and promoting economic development, and it can contribute to a country's tourism industry and international trade. To preserve national craftsmanship, it is important to support artisans and their communities and to promote traditional crafts as part of national heritage and culture. By doing so, we can ensure that the skills and knowledge associated with traditional crafts are passed down to future generations and that national craftsmanship continues to enrich our cultural and economic lives.

## **ТАРБИЯ ОИЛА – МАҲАЛЛАДАН БОШЛАНАДИ**

**Акбаров Алишер Асрорович**

**Ўзбекистон Республикаси**

**Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси**

**Магистратура тингловчиси**

Оила-жамиятнинг таянчи. Фарзандларимиз онгида элу юртга, Ватанга муҳаббат туйғулари оилада, яшаб турган маҳаллада шаклланади. Мамлакатнинг эртанги куни, тинч ва обод бўлиши энг олдин мана шу кичик жамиятда ўсиб-унаётган болаларимизга боғлиқ. Қайси оилада, қайси маҳаллада тарбия яхши йўлга қўйилар экан, ўша оила, ўша маҳалла гуллаб-яшнайдди.

Оила, одоб-ахлоқ ва таълим-тарбияга эътибор қон-қонимизга сингиб кетган бурчларимиздандир. “Бир болага етти қўшни ота-она” деган ибратли мақол ҳам айнан халқимизга хос. Мана шу мақолнинг ўзи ҳам фарзанд тарбияси, оилапарварлик биз учун нечоғлик муҳим эканини билдиради. Маҳалла аҳли, айниқса кексалар кўчада нобоп иш қилаётган бола олдидан ҳеч

качон бепарво ўтиб кетмаган, шу заҳотиёқ танбех бериб тўғри йўлга чақирган. Зеро, ҳар томонлама чиройли, одобли, гўзал хулқли бўлиш, нафсни поклашга буюрувчи муқаддас динимиз оилага катта аҳамият беради.

Оиладаги муҳит ота-она ўз маъсулиятларини ҳис қилиши билан барқарор бўлади. Болаларнинг одобли бўлиб улғайиши учун ота-она билан бир қаторда маҳалла-қуй ҳам катта ибрат мактабидир. “Қуш уясида кўрганини қилади”, деб бежиз айтмаган халқимиз. Истиқлол туфайли халқимиз чет-эл юртларини кезиб, янги халқ ва урф-одатларни гувоҳи бўлиб қайтмоқдалар. Шу жумладан Европа давлатларига сайр қилиб келаётган фуқароларимиз бугунги кунда ғарб ўсмирлари орасида бошқа мамлакатлар ёшларига қараганда уюшган жинойтчилик ва зўравонликка берилиш ҳолати юқори. Бунга сабаб болаларга керагидан ортиқ эркинлик берилгани экан. Уларни ҳозирдан айшишратга берилиб, турли ахлоқсиз ҳатти-ҳаракатларга ружу қўйишдан ҳеч ким қайтармаслигини айтиб беришмоқда.

XXI асрда турли ҳаёт тарзлари ва ғоялар рақобатга киришди. Бунда муваффақиятга эришиш учун ҳар бир давлат ўзлигини сақлаган ҳолда диний ва миллий қадриятларини бошқаларга англантишни асос қилган мафкурага эга бўлиши лозим. Акс ҳолда, ўзликни йўқотиш, бебаҳо қадриятлардан воз кечиш кишини тараққиётдан ажратиб, уни тобе, мустақил фикри йўқ манкуртга айлантириб қўяди. Ҳозирги кунда ғаразли мақсадларни амалга ошириш учун зимдан олиб борилаётган фитналар баъзи миллатларнинг ўзлигини йўқотишга қаратилганини сезиш мумкин. Бунда эътибор ҳудудларини эгаллаш эмас, балки инсон онгини эгаллашга йўналтирилган.

Шарқ алломалари ўз асарларида фарзандларга тарбия ва таълим бериш, уни маърифату маданиятга етаклаш муаммоларига эътибор берганлар. Буюк мутафаккирлар фарзанд тарбияси, гўзал ахлоқнинг инсон камолотига сабаб бўлувчи юксак фазилат эканини таъкидлаганлар. Жумладан, Имом Бухорийнинг “ал-Адаб ал-муфрад ҳадислар тўплами [1], Абу Лайс Самарқандийнинг “Танбехул ғофилийн” асарларида[2] фарзандларга юксак инсоний фазилатларни камол топтириш тараннум этилган.

Оила тарбияси ижтимоий тарбия билан узвий алоқада бўлсагина, кутилган натижаларга эришиш мумкин. Бу борада ота-оналарнинг оилада фарзанд тарбияси ва маънавий -ахлоқий рухий ва жисмоний камолоти учун зарур бўлган ижобий ота- оналик кўникмаларини ўзлаштириб бориши катта аҳамиятга эга. Хар бир ота-она ўз фарзандини дунёдаги энг толеи баланд маърифатли ва саодатли бўлишини истайди ва бунга эришиш йўлида ҳаракат қилмоқда. Шундай экан, биз мактабгача таълим тизими ходимлари, ота-оналар маҳалла билан ҳамкорликда болалар тарбиясига ҳеч қачон бепарқ бўлмайлик. Фарзандларимиз таълим- тарбиясига бўлган эътиборни ўзлгимиз ва келажакка бўлган эътибор деб билиб, ёш авлодга ғамхўрлик кўрсатиш , соғлом ўсиши, тўғри тарбия ҳамда таълим олишини таъминлаш барчамизнинг бурчимиз эканлигини ҳеч қачон унутмайлик. Фарзандларимизга шундай тарбия берайликки, улар ўз ота-боболарига, ўз тарихи, Ватани, оиласи, она тилига, миллати, дини ва анъаналарига содиқ бўлиб камол топишсин.

Ёшларнинг таълим-тарбияси ҳақида гап кетганда, маҳалланинг роли ва таъсири тўғрисида тўхталмай иложимиз йўқ. Бежиз “Маҳалла — ҳам ота, ҳам она” дейилмаган. Ўзаро меҳр - оқибат, аҳиллик ва тотувлик каби халқимизга хос урф - одат ва анъаналар айнан маҳалла муҳитида ривожланган. Булар эса ёш авлоднинг онгу тафаккурини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Демак, фарзандларимиз таълим - тарбиясида маҳалланинг ўрнини ҳеч нарса билан тенглаштириб бўлмайди. Маҳаллаларда, таълим муассасаларида ибратли хонадон вакиллари, уруш ва меҳнат фахрийлари, ёзувчи ва шоирлар иштирокидаги учрашув ва давра суҳбатларини мунтазам равишда ўтказиб туриш зарур. Ушбу тадбирлар қанчалик кўпайса, кўзлаган мақсадларга тезроқ етишимиз мумкин.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, мустаҳкам маънавий иммунитетли, ўзининг фикрларини равон айта оладиган, юқори марраларга эришувчан авлодни тарбиялаш учун ота-она, оила муҳити жуда катта аҳамият касб этади. Ҳеч кимга сир эмас, инсоннинг қалби ва онгини эгаллаш, айниқса, ёшларнинг маънавий дунёсини заҳарлашга қаратилган турли хавф-хатарлар ҳам кучайиб



бораётган бугунги кунда ўзининг кимлигини, қандай бебаҳо мерос ворислари эканини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, имон-эътиқоди мустаҳкам ёш авлодгина муқаддас заминимизни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанимизни ҳар томонлама раванк топтиришга қодир бўлади.

Фарзандларимизга шундай тарбия берайлики, улар ўз ота-боболарига, ўз тарихи, Ватани, она тилига, миллати, динига ва анъналарига содиқ бўлиб камол топишсин.

### **Адабиётлар рўйхати**

1. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф ҳазратларининг «Ал-адаб ал-Муфрад» асарига қилган таржима ва шарҳлари, «Hilol-Studio» 2008 йил.
2. Фақиҳ Абул Лайс Наср ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Иброҳим ас-Самарқандий ал-Ҳанафий “Танбеҳул-ғофилийн“ номли асар 2010 йил.

### **МАҲАЛЛА ИЛМ МАСКАНИ, ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МАКТАБИ**

**Вафоева Дилафруз Икромовна**

**ТДИУ таянч докторанти**

Ёшлар муаммоларини самарали ҳал этиш мақсадида жорий йил 30 июнда “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” Президент фармони қабул қилинди.[1] Ушбу фармонга мувофиқ, ёшлар сиёсатини юритишда давлат идоралари олдига масала қўя оладиган, зарур ваколат ва молиявий ресурсларга эга бўлган Ёшлар ишлари агентлиги ташкил этилди.

Бундан беш йил муқаддам Президентимиз ташаббуслари билан мамлакатимизда “Ёшлар куни” деб эълон қилиниши ўзида ҳам кейинги йилларда юртимизда ёшларнинг ҳаётда ўз ўрнини топиши учун муносиб шароит яратиш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, касбга йўналтириш

ва бандлигини таъминлаш, ташаббусларини рағбатлантиришга катта эътибор қаратилаётганини яққол тасдиқлайди.

Юртимиз – бахтиёр ёшлар мамлакати, десак, асло муболаға эмас. Аҳолимизнинг қарийиб 64 фоизини ёшлар, яъни- 30 ёшгача бўлган шахслар ташкил этади. Албатта бу воқелик давлатимиз зиммасига улкан масъулият юклайди, жамиятимиздан жуда катта эътибор ва ғамхўрлик кўрсатишни талаб этади. Бинобарин, ёшларимизга кўрсатиладиган ҳар қандай эътибор эртага ўзининг улкан ютуқ ва натижаларини ҳам беради.

"Муваффақиятли инсон " омадсиздан фақат битта томони билан фарқ қилади— ўз илми билан. баъзи қоидаларни , малакаларни , ўзини, сабабларни билиши. Дунё ўзгаряпти , муваффақиятга эришишни истаган ҳар бир кимса ўзгараётган дунёга монанд равишда мослашиб бориши керак. Нафақат кун кўриш учун, шу билан бирга ғалаба қозониш учун ҳам. Бунинг учун еса у доимий равишда ўрганиб, ўқиб бориши керак . Агар сиз реал бойлик эгаси бўлишни истасангиз, сиз ҳар қандай воқеадан сабоқ бўладиган фойда ундиришга ўрганишингиз керак. Улкан бойлик ярата олганлар, ижодкорлик томонидан чўққиларни забт эта олганлар ёки кашфиёт қилишга эришганлардан биронтаси махсус илмга эга бўлмасдан туриб ўз фаолияти соҳасида юксакликка эриша олган эмас. Илм фақат шундагина кучга эга бўладики, қачонки у ташкиллаштирилган ва ақл билан аниқ мақсадга эришиш йўлида амалий иш режасига биноан фойдаланилса. Ҳамма нарсани билиш шарт эмас, лекин нимани ва қаердан топишни, ўзимиздан талаб этиладиган нарсалар ҳақида нималар маълум эканлигини билишимиз керак.

Ёш авлод ҳақида ғамхўрлик кўрсатилар экан, аввало улар бизнинг таянчимиз ва эртанги келажагимизнинг давомчилари эканлиги, ёшларга оид қонунчилик тизимини замон талабларига мос равишда такомиллаштириш қулай ҳуқуқий ва ташкилий иқтисодий имкониятлар барпо қилиш, уларнинг касб-ҳунар ўрганишлари, меҳнат қилишлари, эркин ижод қилишлари учун барча шароитларни яратиш ишлари диққат марказимизда туради.

Ҳар қандай давлатнинг тарихий тараққиёт йўлидан маълумки, юртнинг жадал ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши, халқнинг фаровон бўлиши ўша давлатда ёшлар таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътибор даражасига чамбарчас боғлиқ. Шу маънода, жамиятнинг фаол қатлами сифатида эътироф этилувчи келажак авлодга, юрт равнақини таъминловчи катта куч, давлатнинг стратегик ресурси сифатида қаралаётгани бежиз эмас.

Бугунги кунда мамлакатимизда узлуксиз таълим тизимида олиб борилаётган кенг қамровли ислохотларнинг асосий мақсадларидан бири ёшларни чуқур билим олишлари, истеъдодларини рўёбга чиқаришда ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, шу билан биргаликда уларнинг мустақил ҳаётга тайёрлаш кўникмаларини ҳам шакллантириб бориш таълим тизимининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Президентимиз таъкидлаганларидек, «Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилиб қўйган эканмиз, бунга жадал ислохотлар, илм маърифат ва инновация билан эриша оламиз. Бунинг учун, авваламбор, ташаббускор ислохотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлод кадрларини тарбиялашимиз зарур.»

Айнан шунинг учун замонавий билим олиш билан бир қаторда ўқувчи ёшларда ҳаётий кўникмаларни шакллантириб бориш, оддий қилиб айтадиган бўлсак, ёшларни касб танлашга, уларни ижодий фикрлашга, ёки конструкцион буюмлардан материаллар ясаш, оддийгина электр чироғи патронини ўрнатиш, уйдаги сув тармоқлари тизимлари тўғрисида, шунингдек, оддий ёғочга ишлов бериш, уй рўзғорда кичик таъмирлаш ишлари ва ҳоказолар каби ҳаётий касбий кўникмаларни тўлиқ етказиб беролмаётганлигимиз ҳеч кимга сир эмас.

Ёш авлод тарбияси, хорижий тажриба сифатида Японияда қуйидагилар қўлланилади:

- Японлар бой бўлишига қарамасдан уларда хизматкорлар йўқ экан. уй ва болалардан ота-она масъул экан.

- Биринчи синфдан учинчи синфгача имтиҳон бўлмас экан. Чунки бу вақтда мақсад тарбия қилиш, тушунчаларни ундириш ва шахсиятни шакллантириш бўлар экан.

- Япон ўқувчилари устозлари билан бирга ҳар куни 25 дақиқа мактабни тозалаш билан шуғулланишар экан. Бу уларни тозалikka ҳарис бўлиб, камтарин бўлиб ўсишларига ёрдам берар экан.

- Японияда бошланғич синфларга токи олтинчи синфгача "Ахлоқ томон йўл" дастури остида дарс ўтишар экан. Бунда ўқувчилар фақат ахлоқ ва кишилар билан муомалани ўрганишар экан.

- Мактаб мудирлари ўқувчилардан ярим соат олдин овқатланишар экан. Бу билан овқат болаларга зарар берадими йўқми, шуни аниқлаб беришар экан. Улар ўқувчиларни Япония келажаги деб билишар, уларни ҳимоя қилиш лозим деб эътиқод қилишар экан.

- Япон ўқувчилари мактабга ўзлари билан зарарсизлантирилган тиш чўткасини олиб боришар экан. Овқатдан сўнг тишларини ювишар экан. Улар ёшлиқдан саломатликларига эътиборли бўлишга кўникирилар экан.

Мухтарам президентимиз, 2022 йилда 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномасида [2] барча ислохотларимиз замини ва кўзгуси бу — маҳалла. Жамиятимиздаги барча жараёнлар маҳалла ҳаётида ўзифодаси ва амалий ечимини топади. Маҳалла — тинчлик ва осойишталик пойдевори, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик, маърифат ва тарбия кўрғонидир. Шунинг учун ҳам бундан буён давлат инвестиция дастурлари маҳалла даражасига туширилади.

Авваламбор, 2023 йилда аҳоли томонидан таклиф берилган сув, электр энергияси, йўл, мактаб каби йўналишлар бўйича лойиҳалар учун қарийб 3 баробар кўп, яъни 8 триллион сўм йўналтирилади. Ҳар бир маҳалла ўзининг кутубхонаси, спорт майдончасига эга бўлиши зарур. Маҳалла ўзининг муаммосини мустақил ҳал этиши учун «Маҳалла бюджети» тизими жорий

этилади. Бунинг учун янги йилда 1 январдан бошлаб мол-мулк ва ер солиқларининг бир қисми маҳалланинг ўзида қолади.

Хулоса, қилиб шуни айтишимиз мумкинки, илм олиш бешиқдан то қабргача давом этади. Илм олишда оиланинг, маҳалланинг роли муҳим ҳисобланади. Ҳар бир шаклланиб келаётган шахс илмли, теран фикрлайдиган бўлиши жамиятнинг келгуси ривожланишида муҳим аҳамият касб этади.

### **Адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.06.2020 йилдаги ПФ-6017-сон “Ўзбекистон республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2022 йил 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси.

### **ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА МАҲАЛЛАНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

**Рашидова Бахти Яхяевна**

**Жиззах политехника институти**

**“Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси**

Ёшларни ҳар томонлама етук, миллий анъана ва диний қадриятлар руҳида, шу билан бирга замон билан ҳамнафас қилиб тарбиялаш бугунги кунда энг етакчи муаммолардан бири бўлиб турибди. Ўзбек оиласининг тарбия соҳасида олдида турган асосий мақсади ўсиб келаётган авлод онгига кекса авлод доно тажрибасини сингдириш, инсоний фазилатларни шакллантириш ва ривожлантириш, Ватан ва миллат олдидаги бурч ва масъулиятни ҳис қилишга ўргатиш, қонунларга риоя этиш фазилатларини қарор топтиришдан иборатдир. Чунки ватанга содиқлик, ватанпарварлик ўзининг қудратли илдизлари билан оила, авлод-аждодларнинг номус-ориға чуқур эҳтиром билан қарашга, инсоннинг ўз виждони ва бурчига содиқлигига бориб тақалади. Ўзбек халқининг юксак миллий қадриятлари ватанпарварлик,

миллий ғурурни маънавий юксалтириш жамият равнақи йўлидаги қийинчиликларни енгиб ўтишда ёрдам беради.

Мустақилликнинг қўлга киритилиши оилага бўлган халқимизнинг эътиборини узок ўтмиш маънавий, маданий, эстетик маданиятимиз билан боғлиқ ҳолда шаклланишига кенг имкониятлар яратиб берди. Чунки ҳар бир ўспирин оила муҳотида камол топади, унинг келажакда қандай шахс бўлиши ана шу оила негизида акс этган маънавий олам ва эстетик маданият билан узвий боғлиқдир. Оиланинг ҳар бир шахс ҳаётидаги ролини қуйидагича таърифлаш мумкин: “Бола туғилган кундан бошлаб оила муҳотида яшайди. Оилага хос урф-одатлар қадриятлар бола зуваласини шакллантиради. Энг муҳими фарзандлар оилада ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади.”

Ўзбекистонда фуқаролар ўзини-ўзи бошқарувини амалга оширишда маҳалла ўрнатилган бўлади. Маҳалла ўзбекларнинг тарихан шаклланган жамият тараққиётини юксалтириш учун ягона мақсад билан яшаб, фаолият кўрсатиш маконига айланган. У ўзбек халқининг турмуш тарзи, руҳияти, ижтимоий ҳаётининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи, миллий анъаналарини, урф-одатларини, ахлоқий-маънавий қадриятларини авлоддан-авлодга етказувчи муқаддас маскан бўлиб келган. Маҳалла инсонларнинг миллати, ёши, жинси, дини, ирқи, тили, эътиқоди, ижтимоий келиб чиқиши, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар уларни эзгулик йўлида жипслаштирувчи ва бирлаштирувчи катта ва муқаддас оила ҳисобланади.

Маҳалла шарқона анъаналар, урф-одатлар ва маросимларни жамоада амалга ошириб, авлоддан-авлодга етказиб келмоқда. Маҳалла фаоллари анъанавий, оилавий тўйлар, байрамлар, мотам маросимларини ўтказиш билан боғлиқ ташкилий ишларни амалга оширишда бош-қош бўлишади. Уларни дабдабасиз, исрофгарчиликсиз, ортиқча харажатларсиз, ихчам қилиб ўтказиш, маҳалла оқсоқоли ва махсус мутасадди комиссияларга боғлиқ. Маҳаллада ўтаётган ҳар бир тантана ёки маросим учун маҳалла аҳлининг каттаю кичиги бирдай масъулдир. Бундай тадбирларда каттаю кичикка, бою камбағалга,

мансабдору оддий фукарога бир хил ҳурмат ва эҳтиром кўрсатилади. Чунки маҳалланинг барча аъзоси ягона, тенг ҳуқуқли ва мустаҳкам битта оила ҳисобланади.

Президентимизнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасида Ўзбекистон миллий тараққиётнинг юксалиш даврига дадил кадам қўйгани, бу ўзгаришлар барча соҳаларда сезилаётгани аниқ рақамларда кўрсатилди. Жумладан, маҳалла тизими борасида ҳам бир қанча ишлар амалга оширилгани ва келгусидаги ишлар белгилаб берилди.

Ёшлар маҳаллаларда улғаяди, худди шу боис ҳам уларни ушбу маҳаллаларда китобга бўлган меҳрини ошириш, китобга жалб қилиш таълим-тарбиядаги энг самарали усуллардан эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Мурожаатномада энди ҳар бир қишлоқ ва овулнинг, маҳалланинг ўз кутубхонаси ҳамда руҳан тетиклик бахш этувчи спорт майдончаси бўлиши ҳақидаги ташаббуслар давлатнинг ёшларга қаратган эътиборининг яна бир муаммосини мустақил ҳал қилиши учун “Маҳалла бюджети” тизими жорий этилади. Бу механизм 1 январдан ишга туширилиб, мол-мулк ва ер солиқларининг бир қисми маҳалланинг ўзида қолади. Маҳаллада ҳар бир фукаро диққат эътиборда бўлиб, айниқса ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда муҳим ишлар амалга оширилмоқда.

Жамиятда аёлларнинг ўрни ва ролини мустаҳкамлаш, уларни оилавий зўравонликдан ҳимоя қилиш, оилаларни мустаҳкамлаш, хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалалари маҳалла олдига муҳим масалаларни қўймоқда. Шу мақсадда, вилоят, шаҳар, (туман), чекка қишлоқ ва овулларда ҳам хотин-қизлар жамоатчилик кенгашлари фаолияти йўлга қўйилди. Нотинч оилаларда жабрдийда аёлларга махсус ордер берилиб, зўравонликдан ҳимоя қилинмоқда. Бундай аёллар ижтимоий қўллаб-қувватланмоқда. Бу ҳам инсонпарварликнинг яна бир кўриниши ҳам оиладаги тинчлик учун хизмат қилади.

Маҳалла-асрлар оша миллий урф-одат ва анъаналаримизни безавол сақлаб, халқимиз учун эзгулик ва тарбия бешиги, яхши кўшничилик ва ҳамжихатлик маскани бўлиб келмоқда.

Биз маҳалла деганда, дунёда камдан-кам учрайдиган, инсонни жамият билан уйғун бўлиб яшашга ўргатиб, бағрикенглик руҳида тарбиялайдиган, халқ билан давлат ўртасидаги ишончли кўприк вазифасини бажарадиган ноёб тузилмани тушунамиз. Айни пайтда, юртимизда яшаётган ҳар бир инсон, миллати, тили ва динидан қатъи назар, ўз ҳаётини, қувончу ташвишларини маҳалладан айри ҳолда тасаввур эта олмайди.

Айниқса, асрлар давомида яшаб келаётган урф-одатларимиз, удумларимиз, кадриятларимиз, жумладан, кекса ва ёш авлод суҳбатлари, учрашувлар, мавсумий байрамлар, лола сайиллари, “бойчечак” айтиш, қовун сайиллари, бола туғилиши билан боғлиқ ақиқа маросимлари, қизлар мажлиси, “юз очди”, “келин саломлари”, сумалак, эчки ўйини, улоқ ўйини каби маросимларнинг ҳаммаси ҳам ёшларни ўзбекона оилавий ҳаётга тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади. Халқимиз томонидан амал қилинаётган миллий одатларимизга кўра катталарга биринчи бўлиб салом бериш, катталар суҳбатига аралашмаслик, уйга меҳмонлардан сўнг кириш, эшикни биринчи бўлиб очиб, ушлаб туриш, давраларда катталардан юқорига ўтмаслик каби одоб қоидаларига риоя қилиш талаб этилади.<sup>2</sup>

Кейинги йилларда маҳалла институтига миллий давлатчилигимизнинг асосий қуйи бўғини сифатида қараб, унинг жамият бошқарувидаги ўрни ва ролини оширишга қаратилган кенг кўламли ва пухта ўйланган ислохотлар амалга оширилмоқда, соҳа ривожига доир кўплаб норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинмоқда, ҳар бир ҳудудда “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган янги тизим жорий этилган.

---

<sup>2</sup> Гаппаров Б.Н. ва бошқалар. “Ёшларни оилага тайёрлаш”. “Замонавий тадқиқотлар, инновациялар, техника ва технологияларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник анжуман. Жиззах. 10-11.04.2020, 1-том. 343-344 бетлар.



Маҳалла жамиятимизда маънавий муҳит барқарорлигини, миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш, ёшларни она Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш борасидаги кўплаб ишларни амалга оширмоқдалар.

Жумладан, маҳалла фаоллари томонидан фуқаронинг бандлигини таъминлаш, юртдошларимизни тадбиркорлик ва ҳунармандчиликка жалб этиш, имконияти чекланган оилаларнинг томорқалардан самарали фойдаланишга амалий ёрдам кўрсатилганини алоҳида эътироф этиш зарур.

Айниқса, жамиятда соғлом маънавий муҳит асосларини мустаҳкамлаш мақсадида маҳалла фаоллари кўмагида ажралиш ёқасига келиб қолган минглаб оилалар яраштирилгани, оиланинг нотинчлигига барҳам берилгани, маҳаллаларда жинойт содир этилишини олдини олиш, намунали маҳаллалар сонининг кўпайгани албатта таҳсинга лойиқдир.

Халқимизда: “Бир болага етти маҳалла ота-она”, деган гап бежиз айтилмаган. Фарзандларимизнинг маънавий баркамол инсонлар бўлиб вояга етиши, ёш оилаларнинг мустаҳкам оёққа туриб олишида ушбу тузилманинг ролини янада ошириш, “Ҳар бир нуроний – беш нафар ёшга мураббий” тамойили асосида бошланган эзгу ишларни изчил давом эттириш бугунги кун талабидир.

Айни вақтда аҳолининг эҳтиёжманд қатлами билан манзилли иш олиб бориш, “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари”га киритилган юртдошларимиз муаммоларини “хонадонбай” ҳал этишда, ҳеч шубҳасиз, маҳалла органлари муҳим ўрин тутди. “Кучли давлатдан – кучли фуқаролик жамияти сари” деган муҳим тамойилни амалга оширишда аввало маҳалла тизимига, маҳалла фаоллари ва фидойиларининг улкан салоҳиятига таянилмоқда.

Маҳаллада келажак авлодимиз тарбия топади. Бу ерда ўсаётган ҳар бир йигит-қизнинг ахлоқ-одоби учун бутун маҳалла аҳли масъулдир. Шунинг учун ҳам “Бир болага етти қўшни ота-она”, “Бир бола тарбияси учун етти маҳалла ота-она” каби нақллар бежиз пайдо бўлмаган. Ёшларнинг ҳар бир ҳатти-

харакати барчанинг диққат-марказида бўлади. Маҳалладошларнинг ҳар бир ёш тақдирига жавобгарлиги, уларни назорат қилиши-баркамол инсонни тарбиялаб етиштиришнинг негизидир. Хулқ-одоби яхши ҳар томонлама намунали фарзанд маҳалланинг обрўсидир, ноқобил, ахлоқан номақбул фарзанд эса маҳалла учун қора доғдир. Маҳалладан юртга таниқли инсонлар етишиб чиқса, бутун маҳалла аҳли, уларнинг авлод-аждодлари ғурурланадилар.

Маҳалла тузилмаси ва функцияси вазиятга қараб ўзгариб турган, аммо у ўзини-ўзи бошқариш тамойилини сақлаб қолган, ўз ҳудудида истиқомат қилувчи кишилар ўртасида ижтимоий-иқтисодий муносабатларни мувофиқлаштириб турган. Мустақиллик йилларида маҳаллалар жамиятнинг моддий-маънавий асосларини яратиш таянчига айланиб, ижтимоий-иқтисодий ва маданий-сиёсий масалаларни ҳал этиб, фуқаролар йиғинида демократия тамойилларини шакллантириш, инсон омилини қадрлаш макони сифатида тикланмоқда.

Маҳалла, умуман, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг фуқаролик жамиятидаги роли уларнинг муайян ҳудуддаги аҳолини бирлаштириши, уни ягона жамоага айланиши ва фаолият кўрсатишига хизмат қилишидадир.

Хулоса ўринда таъкидлаш жоизки, маҳалла бир томондан ҳар томонлама ривожланган шахсни, яъни ахлоқий ва меҳнат тарбияси асосида тарбиялашни, иккинчи томондан ёш инсонни оилавий ҳаёт учун зарур бўлган билим ва малака билан қуроллантиришни назарда тутди. Ёшлар турмуш жараёнида катта авлоддан ўзга жинсдаги инсонга муносабат ҳақида, никоҳ ҳақида, оила ҳақида тақлидан анча билимларни ўрганиб олади, ахлоқ мезонларини ўзлаштиради. Уларда ўртоқлик, дўстлик, ор-номус, қадр-қиммат туйғуси эрта ривожлана бошлайди. Бу эса уларнинг олий инсоний туйғу-муҳаббат ҳақида, никоҳ-оила муносабатлари ҳақида тасаввурларининг тўғри шаклланишига ёрдам беради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Аёлларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” (БМТ томонидан 1952 йил 20 декабрда қабул қилинган).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
3. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (ЎРҚ-562-сон 02.09.2019)
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат Дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.02.2021 йил ПФ-6155-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Янги Ўзбекистон” газетаси 2022 йил, 21 декабрь, № 259( 781)
6. Гаппаров Б.Н. ва бошқалар. “Ёшларни оилага тайёрлаш”. “Замонавий тадқиқотлар, инновациялар, техника ва технологияларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник анжуман. Жиззах. 10-11.04.2020,
7. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). The concepts of sustainability and instability in synergetics are an important principle. *Scientific progress*, 3(3), 930-933.
8. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). Content of the concept of synergetics. *Scientific progress*, 3(3), 938-941.
9. Рашидова, Б. (2022). Юксак маънавият аввало инсон одобиди намоён бўлади. *Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 2(12), 351-355.

10. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. American journal of science and learning for development, 2(1), 162-168.
11. Abdurashidovich, T. M. (2022). O‘zini o‘zi tashkillashtiruvchi tizimlar-ilmiy bilishining dolzarb metodologik muammolarning biridir. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 361-365.

## **МАҲАЛЛАДА УСТОЗ-ШОГИРД АНЪАНАЛАРИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ**

**Кудратова Умида Рахматовна  
ТДИУ, “Ижтимоий-гуманитар фанлар”  
кафедраси доценти в.б., ф.ф.д. (PhD)**

Устоз-шогирдлик анъаналари қадимдан ривожланиб келган, айниқса илм-фан, адабиёт ва санъат, хунармандчилик, тиббиёт каби соҳаларда устоз-шогирдлик муносабатлари умуминсоний қадриятга айланиб кетган.

Ёшларни касб-хунарга ўргатиш анъаналари бевосита уларни фаоллиги билан узвий боғлиқ ҳодисадир. Чунки ХХ асрнинг 90-йилларидаги ёшлар фаоллиги билан охириги йиллардаги ёшлар фаоллигини кескин фарқлари мавжуд. Ахборотлашган жамиятда ёшлардаги фаоллик айниқса, иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, маънавий-маърифий, спорт соҳаларида яққол кўзга ташланмоқда. Модернизация жараёнида маънавий-ахлоқий соҳани такомиллаштирмасдан туриб, ютуқларга эришиб бўлмайди. Чунки Ёшлар тадбиркорлиги Янги Ўзбекистонни барпо этишнинг муҳим омилларидан биридир.

Касб-хунар таълими миллий таълим тизими ва инсон ресурсларини ривожлантиришнинг муҳим бўғини бўлиб, унинг елкасига турли истеъдодларни етиштириш, техник кўникмаларни мерос қилиб олиш, бандлик ва тадбиркорликка кўмаклашиш каби муҳим масъулият юкланади. Шу боисдан ҳам “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 августдаги ПҚ-4804-сонли «Камбағал ва ишсиз фуқароларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-хунарга ўқитишга

қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чоратadbирлар тўғрисида»ги Қарори асосидаги Давлат Дастурига асосан мамлакатимизда меҳнат бозорининг самарали механизмларини жорий қилиш, аҳолининг ишчанлик фаоллигини ошириш, камбағал ва ишсиз фуқароларни замонавий касб-хунар ва тадбиркорлик кўникмаларига ўқитиш, шу асосда уларни доимий даромад келтирадиган меҳнат ва тадбиркорлик фаолиятига жалб қилиш орқали бандлигини таъминлаш мақсадида мамлакатимизда ёшлар билан ишлашнинг янгича тизими жорий этилиб, унга кўра барча ҳудудларда уларнинг бандлиги таъминлашга устувор масала сифатида эътибор қаратилмоқда”<sup>3</sup>.

Бу борада маҳалла институти муҳим буғин ҳисобланади. Жумладан, маҳалла-мактаб-оила тизими ўзаро ҳамкорликда ёшларнинг маънавий юксалишини, касбий профессионаллашувини таъминловчи ижтимоий макон сифатида намоён бўлади. Модернизация жараёнида “модернизация тафаккури”ни шакллантириш ўта муҳим аҳамият касаб этади. Модернизация тафаккури статуси, жамиятни модернизациялашдаги йўналишларни кенг қамровли эканлигини, улар бир-бирини тўлдиришини, вақти келганда бири-бирига таъсир этиши аниқланди.

Маҳалла ёшларнинг касб-хунарни анъанавийлик ва замонавийлик уйғунлиги тамойили асосида устоз-шогирд анъаналари трансформациясида эгалламоқда. Янги Ўзбекистонни яратиш ва барпо этишда илғор фикрлайдиган жамият аъзоларини бирлаштириш, бир мақсадга йўналтириш давр талабидир. Халқимизнинг миллий, тарихий анъаналаридан, қадриятларидан фойдаланиш даражасини аниқлашимиз учун маҳалла билан ҳамкорликда иш олиб бориш ёшларнинг тадбиркорлик кўникмаларининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Маълумки, маҳаллаларда хунармандчилик техника ривожини билан биргаликда такомиллаша боради ва турли ихтисослик: кулолчилик, дурадгорлик, темирчилик, мискарлик,

---

<sup>3</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.08.2020 й., 07/20/4804/1173-сон

бинокорлик, сартарошлик, ўймакорлик, заргарлик, зардўзлик, бўёқчилик, тунукасослик кабилар ажралади. Маҳаллаларда очилган бундай хунармандчилик шахобчаларига болаларни кизиштириш орқали, уларни моҳир усталарга шогирдликка йўналтириб борилган.

Асрлар давомида устоз-шогирд анъаналари ҳам такомиллашиб борса-да, моҳиятан улуғвор инсоний муносабатларни, қард-қимматни, ҳалолликни, меҳнатсеварликни, ватанпарварликни, ўз касбига садоқатни, янгиликларга бўлган иштиёқни талаб этади.

Бу борада Ўзбекистон Президентининг 2021 йил 13 декабрдаги ПҚ-31-сон “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига асосан маҳаллалардаги ёшларни, хотин-қизлар ва ишсиз фуқаролар бандлигини таъминлаш учун амалий ёрдам берилмоқда. Жумладан, маҳалла институтида касб-хунарга ўргатиш учун махсус, бепул ўқув курслари фаолияти йўлга қўйилмоқда. Касб-хунарга эга ёшларнинг тажрибасини ошириш учун уста-хунармандларга, устозларга бириктирилиб иш билан ҳамда керакли меҳнат воситалари билан таъминланмоқда.

Давлатимиз томонидан қишлоқ жойларида касб-хунар таълими тизимини қўллаб-қувватлаш, қишлоқ хўжалигига оид кўникмаларга ўқитишни ташкил этиш, тадбиркорликка қайтиш ва аҳоли бандлигини таъминлаш, қишлоқни жонлантириш бўйича юқори малакали истеъдодларни тайёрлаш учун касб-хунар кўникмаларини ўқитиш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилди. Давлат чекка ва ривожланмаган ҳудудларда касб-хунар таълими ривожланишини қўллаб-қувватлаш чораларини кўради. Давлат томонидан иш ўринларига кўчириш, ишга жойлаштириш, ишсизлар ва махсус гуруҳлар учун касб-хунар таълимининг турли шаклларини ташкил этиш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг касб-хунар таълимининг ривожланишини қўллаб-қувватлаш чоралари кўрилди.

Давлат аёлларнинг касб-ҳунар таълими олишда тенг ҳуқуқлилигини кафолатлайди. Касбий таълимни амалга ошириш иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш эҳтиёжларига, касбий таснифга, касбий стандартларга ва касбий ривожланиш эҳтиёжларига асосланади, таълим стандартлари ёки ўқув дастурларини ишлаб чиқади, академик сертификатлар ва бошқа ўқув сертификатларини беради.

Давлат аҳоли айниқса ёшларни ишга жойлашиш ёки ишга жойлашишдан олдин зарур касбий таълим олиш тизимини жорий қилади.

Давлат техник ва малакали кадрларнинг ижтимоий мавқеини ва муомаласини яхшилаш, меҳнатни, бебаҳо маҳоратни эъзозлаш, буюклик яратиш даври модасини тарғиб қилиш чора-тадбирларини кўради.

Ҳозирги даврда мамлакатимизда касбий таълим давлатнинг умумий режалаштиришини, иерархик бошқарувни, маҳаллий йўналишни, саноатга раҳбарликни, мактаб ва корхона ҳамкорлигини ва ижтимоий иштирокни амалга оширади. Барча даражадаги давлат бошқарув институтлари касбий таълимни ривожлантиришни миллий иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш режасига киритишлари, бандлик ва тадбиркорликни ривожлантиришга кўмаклашишлари, ривожланиш усулларини ўзгартиришга кўмаклашишлари, саноат тузилмаларини мослаштиришлари ва умуман олганда технологияни оптималлаштириш ва янгилашлари керак. Шу боисдан ҳам “Ёшларнинг ишлаб чиқаришдаги фаоллигини таъминлаш учун ўрта умумий таълим мактаблари ўқувчиларига маълумот бериш билангина чекланмасдан, балки уларни охириги синфлардаёқ маълум бир касбни ўрганишга йўналтириш лозим. Ёшларга касб-ҳунар ўргатиш учун ўрта махсус касбий таълим тизимини янада тараққий эттиришга эҳтиёж сезилмоқда. Ўрта махсус маълумот олганлар, бакалаврият ва магистратурани битирганлар учун эса хориж мамлакатлардаги сингари таълим олишни тугаллаганларидан кейин маълум бир давр мабойнида ўзи танлаган ва иш бошлашни режалаштирган йўналиш (масалан, ишбилармонлик, тадбиркорлик тузилмалари, қўшма корхона, жамоат

ташкilotи, ҳокимият идоралари, марказий бошқарув идоралари, вазирликлар ва ҳоказолар) бўйича қайта тайёрлашдан ўтказиш муҳим аҳамиятга эга<sup>4</sup>.

Дарҳақиқат, асрлар давомида шаклланиб келган устоз-шогирд анъаналари ўз тизимига, қонун–қоидаларига, ахлоқий қадриятларига эга мукамал тизимни ҳосил қилади. Устоз-шогирд анъанасининг давомийлиги: прогнозловчи босқичи, амалий босқич, таҳлилий босқичлари билан фарқланади<sup>5</sup>. Демак, маълум касб-ҳунарни эгалламоқчи бўлиб шогирд тушаётган талабгорнинг малака даражаси, иштиёқи, ҳошиш-иродасини аниқлаш асосида унга нисбатан устоз муносабати ва талаблари белгиланади. Маҳаллада касб-ҳунар ўрганган шогирд билан дипломли кадр ўртасида доимо фарқли жиҳатлар юзага келади. Юқорида келтирилган ҳунармандчилик соҳалари ёшлардан нафақат назарий билимларни, балки амалий кўникмаларни талаб этади. Шу сабабдан, кўплаб дипломли ёшларимиз ўқишни тугатишлари билан ўйланиб қоладилар. Чунки уларнинг назарий билимлари билан амалий кўникмалари ўртасида кескин фарқнинг мавжудлиги оқибатида, реал иш фаолиятига киришиб кетишда айрим муаммоли вазиятлар юзага келади. Бу жараёнда унга доимо амалий кўмакчи, яъни Устоз ёрдами зарур бўлади.

Дарҳақиқат, маҳалла ўзбек халқининг кундалик ижтимоий ҳаётини ва турмушини ташкил қилишда шакллантирган ва асрлар давомида такомиллаштириб келган ҳаётий аъмолидир. Ўзини ўзи бошқаришнинг миллий модели бўлган маҳалла халқимизнинг азалий удумлари, урф-одатлари ва анъаналарига таянган ҳолда улкан тарбиявий вазифани бажаради. Зотан, маҳаллаларда кексаларнинг панд-насихатлари, катталарнинг шахсий ибрати, жамоанинг ҳамжиҳатлиги мисолида одамлар онгига эзгулик ғоялари сингдириб борилади. Маҳалла, аввало, соғлом ижтимоий муҳитдир. Бу ерда кучли таъсирга эга бўлган жамоатчилик фикри маҳалла аҳлининг хулқ-атвори,

---

<sup>4</sup> Раҳманов А.М. Жамиятни модернизациялаш жараёнида ёшларнинг тадбиркорлик фаоллигини ошириш омиллари: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2023.- Б.22.

<sup>5</sup> Кудратова У. Замонавий таълим тизимида ўқитувчи феноменининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс. фан. бўйи. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2023.-Б.22.



ўзаро муносабатларини адолат ва маънавий мезонлар асосида тартибга солиб туради. Маҳалла фақат яшаш эмас, балки ёшларни касбга йўналтириш мактаби сифатида намоён бўлади. Зеро, маҳаллада устоз-шогирд анъаналари трансформацияси анъанавий ва замонавий талаблар уйғунлигида ўз ифодасини топмоқда.

**MAHALLALARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI  
YOSHLARNI KASBGA O'RGATISH HAMDA AHOLI  
DAROMADLARINI OSHIRISH**

**Saidov Mashal Samadovich**

**TDIU "Menejment" kafedrası v.b.,professori,**

**iqtisod fanlari doktori,**

**Gaziyev Jamshid Maxkamovich**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

**magistranti MMNP-11-guruh**

**[mr.jmgaziev@gmail.com](mailto:mr.jmgaziev@gmail.com) / 99897 732 2006)**

**Annotatsiya:** Maqolada, mahallalarning o'ziga xosligidan kelib chiqib turizmga ixtisoslashtirish, yoshlarda turistlarga xizmat ko'rsatish ko'nikmasini shakllantirish va bu orqali turizm sohasi bilan bog'liq turli kasblar bo'yicha bilimlarini oshirish, pirovardida aholi daromadlarini oshirish mumkinligi o'rganilgan.

Shu bilan birga, mahallada yashovchi aholini jamoatchilikka asoslangan turizm yo'nalishini amalga oshirish yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan zarur chora-tadbirlarni tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, oilaviy mehmon uylari, tadbirkor, jamoatchilikka asoslangan turizm, turist, tashkiliy va huquqiy jihatlari tushunchasi.

**Kirish:** Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi sifatida tadbirkorlikka yaratilgan shart-sharoitlar ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, tadbirkorlik to'g'risida so'z borar ekan bu borada mahallaning o'zni o'ziga xos ahamiyat kasb etadi albatda, buni har bir mahalla kesimida tashkil qilingan hokim

yordamchilari yoki haqiqiy ma'nodagi tadbirkorlarning ko'makchisi deb atash mumkin bo'lgan alohida tizilarning tashkil qilinganligida anglash mumkin bo'ladi. Davlatimiz rahbari hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish hamda buning uchun mahallalarni ahamiyatini yana-da kengaytirish bo'yicha quyidagi jummalarni keltirilgan:

“Yagona yo‘limiz – tadbirkorlar sonini ko‘paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish”;

“Har bir mahallaning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy markazi bo‘lishi kerak”

“Tadbirkorlikni jadal va yana-da keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir”;

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda bir necha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan turli ko'rinishdagi hunarmandchilik, temirchilik va boshqa turli xil meroslar saqlanib kelmoqda hamda yurtimizning ayrim viloyatlarida aynan bir mahsulot turi yoki xizmat ko'rsatishni o'zida mujassam etgan mahallalar mavjud.

Biroq, mazkur mahallalarning mavjud salohiyati lozim darajada targ'ibot qilinmasligi ayrim holatlarda aholida ayniqsa, yosh avlodda kasb ko'nikmalarini shakllanmagani oqibatida bugungi kunda bir necha asrlardan berib saqlanib kelinayotgan hunarmandchilik turlari keyingi avlodlarga yetib bormaslik xavfini keltirib chiqarmoqda.

Shundan kelib chiqib, mahallalarning ixtisoslashuvi hamda o'ziga xosligidan kelib chiqib, tadbirkorlikning ayrim turlariga alohida e'tibor qaratgan holda rivojlantirish bosqichlarini amalga oshirishni tahlil qilish, yangicha yondashuv mexanizmlarini ishlab chiqish, hamda takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar qamrovini kengaytirish muhim hisoblanadi.

**Tahlil:** Mahallalarda turizmni rivojlantirish orqali yoshlarni kasbga o'rgatish borasida so'z borar ekan bunda jamoatchilikka asoslangan turizm turning o'rni beqiyos hisoblanadi. Umuman olganda jamoatchilikka asoslangan turizm bu - mahalla tabiati va o'ziga xosligi bilan boshqalaridan ajralib turadi va bu o'z navbatida turistlarning qiziqishga hamda mazkur mahallaga tashrif buyurishda katta

qiziqish uyg'otadi. Bu kabi mahallalarda bir qator tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p sonli turistlar tashrifini tashkil qilish mumkin.

Bu borada, ushbu mahallada istiqomat qiluvchi aholining ko'magisiz katta natijaga erishish bir muncha qiyin kechadi shuning uchun aholini jalb qilgan holda jamoatchilikka asoslangan turizm turini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur jarayon quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi tashrif buyuruvchi turistlarga birinchi navbatda yashash uchun joy, ovqatlanish hamda vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun turil ko'ngil ochar tadbirlar va maskanlar kerak bo'ladi, ushbu xizmatlarni tashkil qilishni mahallada istiqomat qiluvchi aholiga o'rgatish orqali yaxshi natijaga erishish hamda yoshlarni kasbga o'rgatish pirovardida aholi daromadlarini oshirishga erishish mumkin.

Yuqorida keltirilgan xizmatlarni tashkil qilishda aholining qobiliyati o'rganilib, amalga oshirilishi ya'ni mahallada istiqomat qiluvchi aholini bir qismida yashash bilan bog'liq oilaviy mehmon uylari xizmatlarni tashkil qilishga qolganlarida ovqatlanish xizmatini yana kimdadir ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qilish, kimdadir qo'shimcha turizm xizmatlarini, ot, eshak va velosipedda sayr qilish xizmatlarini tashkil qilishga o'rgatilishi va bu jarayon bir birin to'ldirish jamoatchilikka asoslangan turizmni asl ko'rinish hisoblanadi va shu ko'rinishda amalga oshirilish kutiladigan natija yana-da yuqori bo'lishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, mahallalarda keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining xalqimizni hayotdan rozi qilishdek ulug'vor maqsadga erishish yo'lida islohotlarni "mahallabay" asosda amalga oshirish, barcha qishloq va mahallalarimizni jadal rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor qaratayotgani yangi O'zbekistonda har bir fuqaro, har bir inson davlatimiz e'tiborida ekanligini anglatadi.

2023 yilda aholi tomonidan taklif berilgan suv, elektr, yo'l, maktab kabi loyihalar uchun qariyb 3 barobar ko'p, ya'ni 8 trln so'm yo'naltiriladi. Mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla byudjeti" tizimi joriy

etiladi. Buning uchun 2023 yildan boshlab sinov tariqasida har bir viloyatdan 1 ta tumanda mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qoladi.

Hududlarda 1 000 ta avtobus harakati yo'lga qo'yiladi. Bu orqali jamoat transporti bo'yicha ahvol og'ir bo'lgan 300 ta mahalladagi 1 mln aholining uzog'i yaqin qilinadi.

Prezidentimizning 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan 2021 yil 1 iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foiz miqdori ajratilib, Tashabbusli byudjet doirasida aholi tomonidan «Ochiq byudjet» axborot portali orqali 2021 yilda 41,1 ming ta takliflar berilgan bo'lib, ushbu takliflarga jami 530,5 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda 131,2 ming ta takliflar uchun 2,6 trln so'm mablag' ajratilgan.

Amalga oshirilib borilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar bilan bir qatorda mahallalarda jamoatchilikka asoslangan turizmni rivojlantirish hamda aholini bu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa:** Mahallalarda jamoatchilikka asoslangan turizm yo'nalishini tashkil qilish hamda yoshlarni kasbga yo'naltirishni samarali tashkil qilish muhimdir: Birinchidan, Mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi qo'shimcha daromadga ega bo'ladi hamda yoshlarni ushbu kasblarga yo'naltirish orqali ularni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilinishiga va yakunida kambag'allik darajasi qisqarishiga erishiladi.

Ikkinchidan, Mahallalarning asil qiyofasi saqlab qolingan holda ularning infratuzilma holati yaxshilanishiga shu bilan birga, turizm bozorida yangidan-yangi turizm xizmatlar yaratilishga erishiladi.

Uchinchidan, Mahallalarda hunarmandchilikning yo'qolib borayotgan turlarini saqlab qolishiga avlodlardan-avlodlarga o'tishiga shuningdek, rivojlanishning yangi bosqichiga chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, mahallalarda turizmni rivojlantirish tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda muhim mexanizmmi sifatida ijobiy jihatdan ko'mak beradi,

shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshishiga, yoshlarni bandligini ta'minlashga, aholida tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini yana-da ortishiga zamin yaratib beradi.

## **MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA**

### **IQTISODIY TA'LIMNING MUHIMLIGI**

**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti assistenti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim-maktab-mahalla o'zaro hamkorlik, hamjihatlik masalalari, maktablarda sifatli iqtisodiy ta'lim, maktab o'quvchilarining iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, ularga iqtisodiyotning sir-asrorlarini o'rgatish orqali mahallada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ta'limning metodlari va vositalari haqida so'z yuritilib, hamjihatlikning amaliy ahamiyati va qo'llanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Hamkorlikning amaliy ahamiyati atroflicha muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Mahalla, Oliy ta'lim, maktab, iqtisodiy ta'lim, ta'lim metodlari, iqtisodiy ta'lim usullari va vositalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati, faoliyatni tashkil etish va o'rgatish metodlari, amaliy ta'lim metodlari

#### **Kirish**

Maktab o'quvchisida iqtisodiy tafakkurni shakllantirish jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, iqtisodiyoti turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyliги bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar o'zgarishiga qarab mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan.

Hozirgi kunda mahallaning asosiy vazifalari: obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishdan iborat bo'lgan. Shuningdek mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardir. Mahallalar davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, moliyaviy budjetiga, bankdagi hisob raqamiga — jamg'armasiga egadir. Bu qonunga asosan, har bir mahalla o'z hududida ishlab

chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini mahalladagidagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

Mahallalar qanday tarkib topgan? Mahallalar, odatda, asrlar davomida kasb-hunar yoki milliy belgilar asosida vujudga kelgan.

Mahallalarga aholini ijtimoiy foydali mehnat bilan qamrab olish, qo'shimcha ish joylarini yaratish uchun kichik korxonalar ochish huquqi berilgan. Ana shu joyda tadbirkorlik tushunchasiga keng e'tibor qaratiladi. Tadbirkorlik aholidan iqtisodiy ta'limni talab qiladi.

Iqtisodiy ta'lim deganda biz shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga, kasbiy faoliyatda va iqtisodiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligini shakllantiradigan rejalashtirilgan tizimli ta'sir jarayonini tushunamiz. Bu fazilatlarga tadbirkorlik, ratsionalizm, yuzaga keladigan muammolarni tezda hal qilish qobiliyati kiradi. Tadbirkorlik deganda biz har qanday yo'l bilan yuzaga kelayotgan muammolarga muqobil yechimlarni topish va eng yaxshisini tanlash qobiliyatini tushunamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taminlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni, "Mahallaning "faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash" vazifalari qo'yilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"

<https://lex.uz/docs/-5758437>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 2 maydagi 118-sonli buyrug'iga asosan "Menejment" kafedrasi 2023 yil 14 – iyun kuni "Mahalla – hunarmandchilik va tadbirkorlikni tashkil etishning milliy modeli" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazishni rejalashtirganligi, menda

ushbu konferentsiya ishida ishtirok etish uchun o‘z tezisimda 2023-yil 19-may kuni chekka qishloq To‘rtko‘l tumani 35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabining Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan Iqtisodiy fanlardan hamkor dars tashkil qilish, bitiruvchilarni kasbga yo‘naltirish hamda 2023-2024-o‘quv yilida o‘zaro hamkorlik qilish (Master klass) oldi rejalari bo‘yicha uchrashuv haqidagi taassurotlarimni bayon qilish fikri paydo bo‘ldi.



Maktabda 8- sinflarda Iqtisodiy bilim asoslari fanidan Soliqlar va ularning turlari. Soliqqa tortish asoslari. Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari mavzusida maktab o‘qituvchisi, men va talabalarim bilan birgalikda dars mashg‘ulotini o‘tkazdik, 9-sinflarda Iqtisodiy bilim asoslari fanidan Jahon xo‘jaligi mavzusida dars mashg‘ulotini o‘tkazdik. Bitiruvchi 11-sinflarda Tashqi va ichki turizm masalalari mavzusida dars mashg‘ulotini o‘tkazdik hamda ular bilan “Kasbga yo‘naltirish” masalasida suhbatlashdik. Dars va suhbatimiz davomida o‘quvchilarning iqtisodiy ta’limga qiziqishlari va e’tibori balandligi yaqqol ko‘rinib turardi. Bunday holatda maktablarda iqtisodiy fanlarni yanada chuqurroq o‘rgatilishiga ehtiyoj balandligi sabab dars mashg‘ulotlarini olib borish uchun tajribali pedagog-iqtisodchi mutaxassis zarur bo‘ladi. Maktablarda iqtisodiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirish mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sarmoyadir.

Bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirishda mahalla ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlamoda, yangi ishlab chiqarishlarni ochish, milliy hunarmandchilikni

tiklashga ko‘maklashmoqda. Shu bilan birga aholining iqtisodiy faolligi, mahallalarda yaratuvchanlik ishlari uchun biznesning ijtimoiy ma’sulligi ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va olimlarning ilmiy ishlarida maktabdagi iqtisodiy ta’limning mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishda muhimligi to‘g‘risida muhokamali takliflar o‘rin olsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Mamlakatimizda jamiyatning iqtisodiy savodli, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan, ishbilarmonlik fazilatlarini bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlarini uyg‘unlashtira oladigan shaxsga bo‘lgan ehtiyoji yaqqol seziladi. Agar ilgari iqtisodiy muammolar o‘quvchidan sun’iy ravishda chetga surilib, u ba’zan maktabni bitirgunga qadar ulardan uzoqlashsa, bugun hayot o‘quvchidan, hatto boshlang‘ich sinflarda ham ehtiyojlar nima ekanligini va ularni qondirish imkoniyati cheklanganligini qat’iy talab qilmoqda; ongli ravishda qanday tanlashni bilardi; pulning maqsadini tasavvur qildi; oila va maktab budjeti nimadan iboratligini tushunish; mahsulotning narxi nima va u nimaga bog‘liq; boylik qanday yaratiladi va uning manbalari nimadan iborat va hokazo. Maktabimizda maktab o‘quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash borasida katta tajriba to‘plangan. Bilim olish, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan iqtisodiy sinflarni yaratish haqida gapirishimiz mumkin. Muhimi fazilatlar va ko‘nikmalar, muloqot qobiliyatlari. Iqtisodiyot o‘qitiladigan maktabda fanga qiziqishni rivojlantirish birinchi o‘rinda turadi. Ayrim iqtisodiy masalalarni o‘rganish ta’lim yo‘nalishlari va o‘quv fanlarining (ijtimoiy fanlar, texnologiya, geografiya) minimal mazmuniga kiritilgan. Ta’limning borishi va sifati monitoringi, iqtisodiy fanlar bo‘yicha yakuniy attestatsiya natijalari fanni o‘rganishga jiddiy munosabatda ekanligini tasdiqlaydi. Biz o‘z oldimizga iqtisodiy toifadagi barcha bitiruvchilar tushunchalari orqali iqtisodiy yo‘nalishli Oliy o‘quv yurtlariga kirishlari yoki iqtisod bilan bog‘liq kasblarni tanlashlari haqida vazifa qo‘ymaymiz. Olingan bilimlar bugungi kunda har bir insonga kerak. Ko‘rinib turibdiki, maktab doimiy ijodiy izlanishda, zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak. Maktab, mahalla va Oliy ta’lim bir-biri bilan uyg‘ulikda



bo'lish kerak. Bu o'quvchilarning ijtimoiy kamolotiga, o'z xususiy tadbirkorligini yo'lga qo'yishiga ham foydali ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, iqtisodiy ta'limning asosiy muammosi. Maktabda gap shundaki, deyarli hamma joyda iqtisodiy fanlarni o'qitishda sof nazariy yondashuv mavjud. Amaliy faoliyatda makroiqtisodiy masalalarga ko'p e'tibor beriladi. Iqtisodiy bilim - bu og'ir yuk emas, balki tadbirkorlik faoliyatining tanqidiy vaziyatlarida odamga tez va to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradigan tezkor vositalar to'plami. Maktab o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda yondashuvlarni aniqlash bo'yicha ko'plab nuqtai nazarlar mavjud. Maktab o'quvchilari ko'pincha bu iqtisodiy bilimlarning muhimligi haqida o'ylashlari kerak. Shuni ta'kidlashni istardimki, har bir maktab o'quvchisini tadbirkor bo'lish ishonchiga ega bo'lish kerak. Albatta, barcha maktab o'quvchilariga asosiy iqtisodiy bilimlarni yanada kengroq berish kabi aniq maqsaddan voz kechmaslik kerak, chunki ular umumiy rivojlanish inson mavjudligining iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini tushunish. Afsuski, maktab o'quvchilarning iqtisodiy ta'limini tashkil etish masalasini o'z imkoniyatlariga mos ravishda: moddiy, kadrlar va boshqalarni o'zi hal qilishga majbur bo'lib, ijtimoiy tartib bilan hisob-kitob qila olmaydi. Iqtisodiy darslar qisqarib ketgan 2-3 mavzu qo'shib o'tiladi. Bu sifat va xususiyatlarning pasayishiga olib keladi

Sifat va xususiyatlarga nimalar kiradi:

- o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati
- ijtimoiy faollik va ijodkorlik
- ijtimoiy muloqot qobiliyatlari.

Qo'shimcha ta'lim berish o'quvchilarga biznes haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, o'quvchilar iqtisodiy fanlardan faqat o'quv rejadagi fanlardan emas, balki har-xil tadbirli, iqtisodiy faoliyatlar bilan tanishish, mustaqil xo'jalik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Asosiy maqsad - iqtisodiy tafakkur asoslarini shakllantirish, funktsional iqtisodiy savodxonlik va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirish, turli

iqtisodiy vaziyatlarda amaliy qarorlar qabul qilish va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Maktab ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishining eng muhim tamoyili – samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish uslublarini yangilashga e'tibor qaratishdir.

Umumiy iqtisodiy ta'lim 7, 8, 9-sinflar maktablarning asosiy o'quv rejasiga yoki tadbirkorlik asoslarini 11-sinfda o'qitish rejasiga kiritilgan. 11-sinfda kasbiy tayyorgarlikdan o'tish amalga oshiriladi.

Ko'pincha maktabdagi iqtisodiy ta'lim shunchaki keraksiz sakrash bo'lib, keyinchalik bu mahallalarda kichik biznesning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin, chunki agar bitiruvchilar Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilinsa talabalarni universitetdagi ma'ruzalarda zerikishga majbur qiladi va universitet o'qituvchilari uchun yoqimsiz muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalaning ikkinchi tomoni bor, agar maktab o'quvchilarining iqtisodiy savodxonligi yuqori darajada bo'lganda edi, u holda xoh bitiruvchi bo'lsin xoh maktab o'quvchisi ularda kichik biznesga bo'lgan qiziqishlari baland bo'lgan bo'lardi.

### **Metodik muammolar**

Maktabda iqtisodni qanday o'rgatish kerak? Ushbu mavzu bo'yicha suhbat fanni o'qitishdagi dastlabki qadamlardan boshlandi. Katta ehtimol bilan, har bir yoshning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. O'qituvchi uchun iqtisodni o'qitishning asosiy muammolaridan biri maktab o'quvchilarida ushbu fanni o'rganish motivatsiyasini rivojlantirishdir. Har bir bosqichda biz o'rganilayotgan masalalarga qaytamiz, ularni kengaytiramiz va chuqurlashtiramiz, shuningdek, yangi muammolarni qo'shamiz. Shu sababli, o'qituvchining asosiy vazifasi qisman kelishilgan materialga malakali qaytish, takrorlanmaslik, balki mavzuning keng qirralarini ochib berish, yangi savollarga javob berish qobiliyatini oshirish va boshqalar. Shunday qilib, o'qitishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qitish usullariga bog'liq. Taqdim etilgan iqtisodiy tushunchalarning murakkablik darajasiga ko'pincha metodologik omillar ta'sir qiladi, masalan, o'rganish uchun tanlangan masalalar, foydalanilgan material, taqdimotning tezligi va sifati.

Darsni o'quvchi uchun qanday qiziqarli qilish kerak? Tayyor bilimlarni o'rgatish metodlari va ularni o'zlashtirish bo'yicha faoliyatlarni o'rgatish usullarini, fikr yuritish usullarini, o'quvchilarning iqtisodiy faktlarni, qonuniyatlarni mustaqil kashfiyotlarini rag'batlantiradigan vaziyatlarni yaratishni o'z ichiga oluvchi usullarni, masalalarni yechishda birlashtirish didaktik jihatdan maqsadga muvofiqdir, ya'ni o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullar, ta'limning faol shakllari va ayniqsa ishbilarmonlik o'yinlari nafaqat fanga qiziqishni oshiradi, darslarning o'ziga xosligini yaratadi, balki o'quvchilarga qisqa vaqt ichida iqtisodiy vaziyatni boshdan kechirish, uni o'z-o'zidan o'tkazish, xulosalar chiqarish va shu orqali mustahkam bilim va daromad olish imkonini yaratishga yordam beradi. Iqtisodiy savodxonlikning haqiqiy shaxsiy va ijtimoiy foydalari o'quvchilarda o'z bilimlarini o'z hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan keng ko'lamli iqtisodiy masalalarda qo'llash ko'nikmalari shakllangandagina namoyon bo'ladi.

### **Moddiy va kadrlar bilan bog'liq muammolar**

Kadrlar – iqtisodiy fanlar o'qituvchilarini tayyorlash muammosi hozirgi kungacha eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Maktabda iqtisod o'qituvchilari to'liq iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, maktablarda qo'llanmalar, sxemalar va boshqalar mavjud bo'lishi. Bu, ehtimol, kelajak masalasidir, shuningdek, o'qituvchilarning o'z ishtiyoqi. Maqolada asosiy e'tibor maktabda iqtisodiy ta'limni rivojlantirish hamda uning mahallada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhimligini isbotlashga qaratilgan.

### **Xulosa**

Shubhasiz, iqtisodiy savodsiz odam dastlab qiyinroq hayot yo'lidan boradi, uning ko'p sohalarda qarorlari, jamoat hayoti ko'pincha noto'g'ri bo'lib chiqadi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotdan tashqarida yashash va undan tashqarida bo'lish mumkin emas, o'quvchilar iqtisodiyotning o'z hayotida tutgan o'rnini qanchalik tez anglasa, hayotning ko'p sohalarida shunchalik muvaffaqiyat qozonadi va raqobatbardosh shaxs bo'lib qoladi.

Maktabda yaxshi iqtisodiy ta'limni ta'minlash o'quvchilarga to'g'ri qarorlar qabul qilish va mamlakatda to'g'ri iqtisodiy siyosatni shakllantirishga ta'sir qiladi. Maktablarda iqtisodiy bilimlarni yaxshi o'zlashtirish mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sarmoyadir.

Bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirishda mahalla ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab quvvatlaydi, yangi imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashadi. Shu bilan birga aholining iqtisodiy faolligi, mahallalarda yaratuvchanlik ishlari uchun biznesning ijtimoiy ma'sulligi ortib boradi. Oliy ta'lim muassasalari ham maktablarda iqtisodiyotga oid kunlarini o'tkazib borsa, ya'ni "Master klass" shaklida dolzarb mavzular bo'yicha darslar tashkil qilsa, qiziqarli tadbirlar o'tkazsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Oliy ta'lim-maktab-mahalla o'zaro hamkor, hamjihat, hamohang bo'lardi. Maqsad: maktab o'quvchilarining iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, ularga iqtisodiyotning sir-asrorlarini o'rgatish orqali mahallada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish

#### **Foydalanilgan manba:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/tadbirkorlikni-rivojlantirish-boyicha-yangi-tizim-ishga-tushadi?view=tadbirkorlik-islohotlariga-masuliyatsiz-yondashgan-rahbarlar-lavozimidan-ozod-etildi> 1.
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/koncepciya-ekonomicheskogo-obrazovaniya-v-shkole-problemy-shkolnogo/>
3. <https://solncesvet.ru/opublikovannyie-materialyi/oquvchilarning-iqtisodiy-bilimlarini-riv131245/>
4. <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1420>
5. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida Toshkent shahri, 2021 yil 3 dekabr
6. B. X. Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent - 2017, "Sano-standart" nashriyoti.

# МАҲАЛЛАЛАРДА КАСАНАЧИЛИКНИНГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Абдурахимова Саида Ахмаджановна  
и.ф.д., доцент, “Иқтисодий хавфсизлик”  
кафедраси доценти,ТДИУ

Хозирга қадар иқтисодий адабиётларда касаначилик ва унинг мазмуни, уни юритишнинг ўзига хос хусусиятларини асослаб беришга ҳаракат қилинган бир қанча қарашлар шаклланган. Баъзи адабиётларда касаначиликга “уй иши” тушунчаси билан таъриф берилган. Жумладан, “Касаначилик – надомная работа деб аталиб бирор кишининг ижтимоий, иқтисодий, ва маънавий эҳтиёжни қондириш ҳамда маълум даражада даромад (фойда) олиш учун саноат корхоналари билан тузилган шартнома асосида уй шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш” [Словарь бизнес терминов,1996] [1]. Корхона ходими(ишчиси)нинг корхонада эмас балки узининг уйида ёки устахонасида иш бажариши таърифланган. [Большой экономический словарь,2010] [2]

Бошқа хориж адабиётларда эса “уй иши” тушунчаси илгари сурилиб, унинг ишлаб чиқариш фаолияти тушунчаси билан биргаликда мустақил тарзда яшовчи бир кишидан ёки қариндошчилик муносабатлари билан боғлиқ бўлган ёки боғлиқ бўлмаган бир неча кишиларнинг саноат корхоналари билан тузилган шартнома асосида уй шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш. [Cambridge english dictionary.2011] [3].

Демак, умумлаштириб хулоса қиладиган бўлсак **касаначилик** – бу йирик саноат корхоналари билан тузилган шартнома асосида уй шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатишдир. Бундай таъриф ва тушунча бугунги кунда халқимиз тадбиркорлигини ошиб боришида муҳим рол ўйнамоқда.[5]

Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 11 январдаги Касаначилик тўғрисидаги низомга кўра, касаначилик бу тузилган меҳнат шартномасига мувофиқ жисмоний шахс– касаначининг яшаш жойида ёки унга ёхуд унинг оила аъзоларига тегишли бўлган бошқа биноларда иш берувчининг

буюртмаларига кўра товарлар ишлаб чиқариш ёки хизматлар кўрсатиш бўйича касаначи томонидан амалга оширилаётган ишдир.[4] Мамлакатимиз иқтисодиётида касаначиликни ривожлантириш орқали аҳолининг фаол қисмини ишлаб чиқариш жараёнларига жалб қилиш, уларни иш билан таъминлаш ва аҳолини турмуш даражасини яхшилашга хизмат қилади. Чунки, касаначилик - корxonанинг буюртмасини бажариш учун, меҳнат шартномаси асосида ва тегишли ҳақ эвазига, жисмоний шахслар томонидан амалга оширилаётган меҳнат фаолиятидир.

Касаначилик фаолияти одатда корxonанинг ишлаб чиқариш майдонларидан ва офис биноларидан ташқарида, яъни ходимнинг уйида жойлашган, стационар иш жойи талаб қилинадиган иш фаолиятидир.

Бугунги кунда аҳолини самарали бандлигини таъминлаш, ялпи ички маҳсулот ҳажмини кўпайтириш, шунингдек, оила бюджети даромадини ошириш муаммосини ҳал этишда касаначиликни ўрни беқиёсдир. Мамлакатимизда ва вилоятимизда касаначилик фуқаро-ларни, биринчи навбатда хотин-қизларни, айниқса кўп болали аёлларни, ёрдамга муҳтож ногиронлар ва меҳнат қобилияти чекланган бошқа шахсларни ишлаб чиқариш фаолиятига жалб этиш учун муҳим ижтимоий аҳамият касб этмокда.

Йирик саноат корxonаларида бошқа тармоқлардаги йирик корxonалар ва кичик саноат корxonалари билан касаначилик ўртасидаги кооперацияни ривожлантириш-нинг асосий мақсади аҳолининг иш билан банд бўлмаган қисмини бандлигини таъминлаш орқали ишлаб чиқариш жараёнларини ривожлантириш ва мамлакатимиз иқти-содиётини янада барқарорлаштиришдир

Аҳолини иш билан таъминлашнинг ижтимоий жиҳатлари аҳоли бандлигини таъминлаш жамият ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим иқтисодий хусусиятларидан бири ҳисобланади ва у иқтисодиётда алоҳида аҳамиятга эга. Ўзбекистонда аҳолини иш билан таъминлашни янада яхшилаш ва фаровонлигини оширишнинг энг муҳим йўналиши сифатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, хизмат кўрсатиш ва касаначилик

соҳаларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришни рағбатлантириш, ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани янада ривожлантириш бўйича ишлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимиздаги қонунчиликка асосан касаначиликнинг турли турлари ва шакллари мавжуддир.

Йирик ва кичик саноат корхоналари билан коопе-рацияга асосланган касаначиликнинг асосий характе-ристикалари бўлиб ҳисобланади:

- корхонанинг буюртмасини бажариш учун, меҳнат шартномаси асосида ва тегишли ҳақ эвазига, жисмоний шахслар томонидан амалга ошириладиган меҳнат фаолияти;

- корхонанинг ишлаб чиқариш майдонларидан ва офис биноларидан ташқарида, одатда, ходимнинг уйида жойлашган, стационар иш жойи талаб қилинадиган иш:

- ҳисобот даври давомида ишни бир маромда ва мунта-зам равишда уйда бажарилиши.

Юртимизда ва чет элда касаначиликни қуйидаги турлари ва шаклларида фойдаланилади:

- қўл меҳнати ёки уни енгиллатиш имконини берувчи оддий восита ва асбоб-ускуналарни қўллаш орқали ёки қўлламадан амалга ошириладиган қўл меҳнати. Бундай қўл меҳнатининг мисоллари: пахта, жун ёки сунъий толали калавалардан маҳсулот тўқиш, кашта тикиш, кичик ҳажмдаги маҳсулотларни саралаш ва қадоқлаш, қоғоз маҳсулотлар (конверт, папка ва бошқа картон ва қоғоз маҳсулотлар)ни елимлаш, шахсий буюртма асосида ягона нусхада тикув кийимлар (маҳсулотлар) ни бичиш ва тикиш, матоларни бўяш ва шу каби қўлда бажариладиган бошқа ишлар;

- қийин (муракаб) бўлмаган технологик ускуналар ва асбоб-ускуналарни қўллаган ҳолда бажариладиган, ишлаб чиқариш топшириғини бажаришини таъминлайдиган, механизациялашган меҳнат. Мисоллар: тикув ва тўкув машиналарни қўллаган ҳолда бажариладиган тикиш ва тўқиш ишлари (оммабоп кийимлар, махсус химоя кийим-лари, ишчи қўлқоплар, кўрпа-ёстик

жилдлари, пахта териш учун этак ва қоплар, тўқиладиган маҳсулотлар – рўмоллар, бош кийимлар), металлдан эсдалик-сувенир маҳсулотларни ишлаб чиқиш (заргарлик маҳсулотлари, эсдалик пичоқлар ва ҳ.к.), пластмасса буюм-маҳсулот-ларни йиғиш, ёғоч ва картондан қадоқлаш идишлари (қоплар, яшиклар) ни ишлаб чиқиш, электротехник ва электрон маҳсулотларни йиғиш (кавшалар, улаш), конди-тер маҳсулотларни пишириш, мебел ва унинг бутловчи маҳсулотларни (фурнитура ва ҳ.к.лар) ни ишлаб чиқиш ёки пойафзал учун керак бўладиган ярим маҳсулотларни тайёрлаш, чарм-галантерея маҳсулотлари ва уларга тегишли деталларни ишлаб чиқиш, мева-полиз маҳсулотларни консервалаш, хом ғишт ишлаб чиқариш, инкубаторлар ёрдамида жўжа очириш, кўпайтириш ва шунга ўхшаш ишлар;

- касаначи томонидан ўзининг уйида телекоммуникация алоқа каналлари воситалари (телефон, интернет) ни қўллаган ҳолда масофадаги (дистанционно) офис ишлари. Бу турдаги ишга куйидагилар мисол бўлади: ҳар хил каталог ва аннотациялар (тушунтиришлар) ни тайёрлаш, ЭҲМ учун дастурларни ишлаб чиқиш, телефон орқали маълумотларни бериш, пейджинг алоқаси, аҳолидаги тушаётган сўровларни қайта ишлаш (тартибга келтириш), аҳолига масофада таълим бериш хизматини кўрсатиш, айрим турдаги бухгалтерия ишлари, таржималар ва бошқа шунга ўхшаш ишлар;

-корхонага уйда бажариладиган хизмат кўрсатиш ишлари. Мисоллар: ярим тайёр озиқ-овқат маҳсулотла-рини ишлаб чиқариш, корхоналарнинг ошхонаси учун нон ва кондитер маҳсулотларни пишириш, махсус ҳимоя кийимларини ювиш ва таъмирлаш, корхоналарнинг эҳтиёжи учун, корхонага тегишли бўлган, йирик шоҳли қорамолларни боқиш ва етиштириш.

Агар, жисмоний шахслар томонидан корхонанинг буюртмаси асосида бажариладиган иш бир марталик ёки қисқа муддатли характерга эга бўлса, бундай ишни йирик саноат корхонаси билан кооперация асосидаги иш деб ҳисобланмайди. Бундай ишларга мисоллар: ипак қуртини боқиш, бир йиллик ва кўп йиллик сабзаёт экинларини етиштириш кабилардир.



Миллий ва жаҳон тажрибасида йирик саноат корхоналари билан кооперацияга асосланган касаначиликни ташкил этишни қуйидаги механизмлари қўлланади:

Корхоналарнинг турли хил истеъмол моллари ишлаб чиқарувчи ва аҳолига хизматлар кўрсатувчи фуқаролар билан кооперация алоқаларини ўрнатиш.

Бунда, корхона – худудда яшовчи, меҳнат фаолиятни амалга ошириш учун тегишли малака ва шароитлари мавжуд фуқаролар билан аҳоли томонидан талабга эга бўлган турли истеъмол молларини ишлаб чиқиш бўйича шартномалар тузади.

Бундай ҳолатида, корхона қуйидаги асосий мажбуриятларни ўз зиммасига олади:

- касаначиликнинг буюртмаси асосида уни керакли хом-ашё ва материаллар билан етарли миқдорда ва турда (ассортимент) таъминлаш;

- касаначи томонидан ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотни олдиндан келишилган ҳажмда олиб кетиш ва сотилишини кафолатлаш;

- касаначига меҳнат шартномасига мувофиқ иш ҳақи тўлаш.

Касаначилар томонидан ишлаб чиқарилиб сотилган маҳсулот ҳажми халқ истеъмол молларини ишлаб чиқариш сифатида – корхонада ишлаб чиқарилган ва сотилган маҳсулотнинг умумий ҳажмига қўшилади. [6]

Иқтисодий эркинлаштириш ва модернизациялаш шароитида аҳолини ижтимоий муҳофазалашни бир вақтнинг ўзида амал қиладиган ва бир-бирини тўлдирувчи қуйидаги тўртта тизимга ажратиш мумкин: давлат ижтимоий таъминоти, давлат ижтимоий суғуртаси, жамоа ижтимоий суғуртаси ва шахсий суғурта.

Маълумки жамоа суғуртаси етарли турмуш даражасини кафолатлайди. У мажбурий ёки ихтиёрий равишда амалга оширилиши мумкин. Бунда иш берувчилар ва ёлланганнинг суғурта бадаллари тўлов манбалари бўлиб хизмат қилади. Шахсий суғурта фаровонликнинг юқори даражасини кафолатлайди. У

ихтиёрий равишда, фуқароларнинг суғурта бадаллари ҳисобига амалга оширилади.

Биринчи икки қуйи тизимнинг асосий тамойили - бирдамлик, учинчисиники субсидиялаш, тўртинчи, яъни шахсий суғуртаники эса, мутаносиблик тамойилидир. Бирдамлик тамойили ёрдамнинг мухтожлик даражасига қараб, фуқаро тўлаган солиқлар ва суғурта бадаллари миқдорини ҳисобга олмасдан тақсимланишини кўзда тутди. Субсидиялаш тамойилида эса, мухтожлик даражасига қараб, аммо бадаллар миқдори ва мос равишда тўловлар миқдорини ҳисобга олган ҳолда ёрдам кўрса-тилади. Мутаносиблик тамойили тўланган суғурта бадал-ларига мутаносиб миқдорда ёрдам кўрсатишни кўзда тутди.

Янги ижтимоий-иқтисодий тизимда ғарбда фуқароларни ижтимоий муҳофаза қилишнинг америкача, европача, японча ва ҳоказо андозалари мавжуд бўлиб, улар доирасида яна ўзига хос кўринишлари ҳам фаолият кўрсатмоқда. Бу андозаларнинг умумий хусусиятлари билан бир қаторда ўзига хос умумий белгилари ва миллий жиҳатлари ҳам мавжуддир.

Корхоналарнинг солиққа тортиладиган базаси касана-чиларга текин фойдаланиш учун берилган мулкнинг қолдиқ қиймати миқдорига камайтирилади.

Берилган имтиёзларни қўлланиши устидан назорат касаначилар меҳнатидан фойдаланадиган корхоналар учун бериладиган имтиёзлардан фойдаланишни қону-нийлигини назорат қилишни солиқ органлари ва бандликка кўмаклашиш марказлари бу борада ўрнатилган тартиб асосида, амалга оширишади.

Касаначига текин фойдаланиш учун корхона томонидан берилган асбоб-ускуналар, жиҳозлар ва инвентар-ларни озод қилинадиган мулк солиғининг суммасини (миқдорини) тасдиқлаш учун корхона солиқ органига касаначига берилган асбоб ускуналар, жиҳозлар ва инвентарларнинг руйхатини ҳамда уларнинг-берилган йил ҳолатига қолдиқ қиймати, берилган санаси, касаначининг фамлияси, исми-шарифи, яшаш манзили, ускуна (жиҳоз,

инвентар) нинг табел номери, ускуна (жихоз, инвентар) берилганлиги хақидаги юк варақаси (накладной) номери кўрсатилган маълумотнома тақдим этади.

Йирик саноат корхоналари билан касаначилар ўртасида кооперация алоқаларининг мустахкамланиши оилада муҳим муаммони ҳал этиш, иш билан банд бўлмаган аҳоли сонини кескин қисқартириш ва унинг фаол қисмини ишлаб чиқаришга жалб этиш имконини беради. Айни пайтда касаначилар иш стажини ҳисоблаш, уларга пенсия ва ижтимоий суғурта бўйича нафақалар тайинлаш ҳуқуқи таъминланади.

Саноат корхоналарининг касаначиларга зарур хом-ашё ва материалларни етказиб бериш асосида оилавий пудратни ривожлантириш фуқароларга вақтдан унумли фойдаланиш, шу билан бирга паст рентабелли ва кўп меҳнат сарфи талаб қилинадиган маҳсулотларнинг айрим турларини уй шароитида ишлаб чиқаришни ўзлаштириш имкониятини яратади, бу, ўз навбатида, йирик корхоналар иш самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

Иш билан банд бўлмаган аҳолини ишлаб чиқаришга жалб этиш, оила бюджети даромадларини кўпайтириш, уй меҳнатидан фойдаланган ҳолда бутловчи қисмлар, тайёр маҳсулотларнинг айрим турларини ишлаб чиқариш ва баъзи бир хизматлар кўрсатишни ташкил этиш орқали йирик саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш фаолияти самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Касаначиликни давлат тамонидан тартибга солиш маъмурий усулларнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

- улар давлат ҳокимиятининг қудрати ва салоҳиятига таянади;
- уларни амалга ошириш билан боғлиқ қўшимча моддий рағбатлантирувчи чоралар яратишни шарт қилиб қўймайди;

таъқиқлаш, руҳсат бериш ва мажбурлаш тадбир-ларини (квоталаш, лицензия бериш, меъёрий нормаларни белгилаш ва ҳ. к.) ўз ичига олади.

Касаначиликнинг ишида, қоидага кўра иш ҳақи тўланади. Ҳақ тўлаш амалда бажарилган ишларнинг сифати бўйича белгиланган талабларга жавоб берадиган маҳсулот ишлаб чиқарилгани учун амалга оширилади.

Касаначиликда иш ҳақи, меҳнат нормалари ва меҳнат мажбуриятлари белгиланган энг кам ойлик иш ҳақи миқдоридан кам бўлиши мумкин эмас ва бирон бир энг юқори миқдор билан чекланмайди.

Касаначилар иш ҳақи миқдори иш берувчининг ўз ишлаб чиқаришида банд бўлган ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш шароитлари сингари бўлиши керак. Касаначилик тўғрисидаги Низомда “Корхоналар билан тузилган меҳнат шартномаларига эга бўлган касаначилар иш билан банд аҳоли тоифасига киритилади ва уларга меҳнат дафтарчаси берилади” - деб кўрсатиб ўтилганидек, баъзи иш берувчи корхона ташкилот раҳбарлари касаначилар билан ҳеч қандай меҳнат шартномаси тузилмаётганлиги ҳолатлари албатта ачинарли ҳолдир.


Касаначилик фаолиятининг тўғри йўлга қўйилиши, унинг самарали амал қилиши учун мазкур фаолият иқтисодий табиатидан келиб чиқувчи асосий тамойилла-рини белгилаб олиш муҳим ҳисобланади (1-расм).

Касаначилик фаолиятидаги вақтдан унумли фойдаланиш имконияти, яъни, ишчининг уйда ўзи истаган вақтида ишлаши мумкинлиги; корхонага бориш-келиш учун кетадиган вақт ва харажатни тежаши; уйдаги қўшимча ишчи кучи имкониятларидан фойдалана олиши; айти пайтда уй-рўзғор ишларини назорат қилиб туриши каби жиҳатлар меҳнатни ташкил этишнинг мазкур шаклига нисбатан қизиқишни кучайтиради.

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики, иқтисодиётимизнинг турли тармоқларида касаначилик бўйича етарли имкониятлар мавжуд бўлсада, айрим корхона раҳбарлари томонидан бу масалага эътиборсизлик билан қараб келинмоқда.

Бугунги кунда мамалакатимизнинг, аввало, иқтисо-диётимизнинг ислоҳ этиш, эркинлаштириш ва модернизация қилиш, унинг таркибий тузилмаларини диферсификация қилиш борасида амалга оширилаётган ҳар

томонлама асосли ва чуқур ўйланган сиёсат бизнинг инқирозидан ва бошқа таҳдидлар салбий таъсиридан ҳимоя қиладиган кучли тўсиқ айтиш мумкинки, мустаҳкам ва ишончли ҳимоя воситаси яратилди.



**1-расм. Касаначилик фаолиятининг асосий тамойиллари.**

Ҳозирги кунда бозор муносабатларига ўтиш касаначилар барқарор молиявий базасини яратиш, моддий ва молиявий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг иқтисодий воситаларини жорий қилишни талаб қилади, натижада молиявий бошқарув соҳасида мавжуд бўлган муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш зарур бўлади. Бу ўзгаришлар корхона молиявий ресурс-лари миқдори, фойдаланиш тартиби ва йўналишларини белгилаб берувчи юқоридан кўрсатма бериш ва марказлашган кўрсаткичлар ўрнатишни бартараф қилади, юқори ташкилот корхона маблағини тартиб олиш ва қайта тақсимлаш йўли билан тасарруф қилиш имкониятлари чекланди ва корхоналар ўз молиявий ресурсларидан фойдаланиш ҳуқуқлари кенгайди.

Касаначилик фаолиятидаги фойдани тақсимлашнинг мақбул нисбатлари ва шакллари масаласида ҳал қилувчи тависиялар иқтисодчи олимлар томонидан берилиши керак. Ўйлайманки, ҳуқуқий жиҳатдан ҳал этилиши

лозим вазифа корхона иқтисодий механизми амал қилишини ҳуқуқий воситалар билан таъминлаш, хўжалик тизими-нинг турли бўғинларининг молиявий бошқариш бўйича ваколатларини белгилаш ва уларнинг бу соҳадаги ҳуқуқларини таъминлашдан иборатдир.

Касаначилик фаолиятини ташкил этилиши ва бошқарувининг жараён сифатидаги моҳияти унинг вазифаларида акс этади. Бошқарув вазифалари деганда бошқариш бўйича маълум масалаларни хал этишга қаратилган ҳаракат йиғиндиси тушунилади. Корхонада бошқарув вазифалари, аввало, бошқарилувчи объектнинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқади. Ишлаб чиқариш таркибига мос равишда қуйидагичадир:

- иқтисодиёт тармоқ таркиби;
- унинг ҳудудий таркиби;
- ишлаб чиқаришнинг алоҳида унсурлари.

Айтиш мумкинки, ишлаб чиқариш соҳасини бошқаришга саноат ва унинг тармоқларини, қурилиш, транспорт, алоқани бошқариш вазифалари; муомала соҳасини бошқариш вазифаларига савдо, молия, моддий-техникавий таъминот соҳалари, фан, маданият, таълим соҳаларини бошқариш киради. Фикримизча, ишлаб чиқаришнинг бошланғич ишлаб чиқариш бўғини-корхонани бошқариш муҳим вазифадир. Бошқарув вазифалари бошқарув ташкилотлари, бажа-рувчи ва бошқарув аппарати вазифаларини белгилайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Словарь бизнес терминов,1996
2. Большой экономический словарь,2010
3. Cambridge english dictionary.2011
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Касаначилик тўғрисида”ги низоми. 2006 йил 11 январ.
5. И.Махкамов, О.Козоков, Х.Хуррамова “Оилавий тадбиркорликни ташкил этиш ва ривожлантириш” Монография.2013

6. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида” ги Қонуни. 2012 йил. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 йил.

## **ТАДБИРКОРЛИК ВА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ҲАМДА ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ИЛҒОР ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ**

**Ашуров Мухаммаджон Муродович**

**НамМТИ таянч докторанти**

Кўпгина ривожланган мамлакатларда тадбиркорлик корхоналарини вужудга келиши ва муваффиқиятли хўжалик юритиши давлат ёрдами воситасида таъминланади. Уларда бу соҳада жуда катта ижобий тажриба тўпланган, ундан бизнинг шароитларимиз ва хусусиятларимизни ҳисобга олган ҳолда фойланиш ижобий натижаларга олиб келади.

МДҲ ва Ғарб мамлакатлари етакчи мутахассисларининг баҳолашига кўра, бизнинг иқтисодиётимиз самарали амал қилиши учун аҳолининг ҳар 70-80 кишисига битта ташкилий бирлик тўғри келиши лозим.

АҚШда 1953 йилдаёқ бутун мамлакат бўйича вакилларни кенг тармоғига эга кичик бизнес ишлари бўйича маъмурият ташкил этилган эди. Унда 3 мингдан ортиқ ходимлар хизмат қиладилар. Ҳуқуқий қўмиталар (30-40 кишидан иборат) ҳар бир штатда ташкил этган.

Бу ташкилот фаолиятининг асосий йўналиши шахсий ишнинг олиб боришда ёрдам бериш, кичик бизнесга кредитлар ва кафолатланган қарзлар беришдан иборат. Шу билан бирга, хусусий секторга кўмаклашиш, молиялаштириш ва кредитлаш, турли хил маълумотлар бериш, тадбиркорлар малакасини оширишдан иборат. (SBA) маъмурият 45 миллиард долларлик бюджетга эгадир ва уни фаолиятини мамлакат президенти назорат қилади. Мамлакат ишчи кучининг учдан икки қисми ушбу секторда банд.

АҚШ иқтисодиётини юқори жаражада ривожланганли туфайли бу ердаги кичик корхоналар ҳам бошқа мамлакатлардагига нисбатан йирик корхоналар сифатида намоён бўлади.

Ривожланган давлатларда кичик корхоналарнинг энг муҳим вазифаларидан бири – иқтисодиётда рақобат муҳитини таъминлаш ҳисобланади. Бу борада АҚШда белгиланган қонунида қуйидагича таъкидланган: “Хусусий тадбирорлик америкача тизмининг моҳияти бўлиб, эркин рақобат ҳисобланади. Фақат тўла ва эркин рақобатгина эркин бозорни, тадбиркорликка бўлган эркин имкониятни, шахсий ташаббус ҳамда карашларни намоён этиш ва ривожлантириш учун имкониятни кафолатлаш мумкин. Бундай равобатни ҳимоя қилиш ва рағбатлантириш нафақат иқтисодий фаровонликни, балки мамлакат хавфсизлигини ҳам асосини ташкил этади. Хавфсизлик ва фаровонлик эса, кичик бизнеснинг мавжуд ва потенциал имкониятларини ривожлантирмай ва рағбатлантирмай туриб таъминлаш мумкин эмас”.<sup>6</sup>

1-жадвал

#### Ривожланган мамлакатларда кичик бизнес кўрсаткичлари

Мамлакат	КЎК сони, минг	Ҳар минг киши аҳолига КЎК соин	КЎКни умумий бандликдаги улуши, фоиз
АҚШ	200000	74	69
Европа иттифиқи мамлакатлари	350770	58.0	83
Буюк Британия	2630	56.0	59
Германия	3690	48.0	75
Италия	3920	26.5	73
Франция	1980	45.0	65
Япония	6450	49.6	78
Россия	866.2	25.8	20.1

Японияда ҳам кичик бизнесга жуда катта эътибор берилади.

<sup>6</sup> У.Гафуров “Кичик бизнес корхоналари салмоғини оширишнинг айрим йўналишлари”. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. №3, 2004 йил, 15-бет.



Японияда ҳар 10 та корхонанинг 9 таси ҳунармандчилик, кичик ва ўрта бизнес корхоналари ҳисобланади. Унинг ялпи миллий маҳсулотдаги улуши жуда юқори. Бу давлатда кичик корхоналарнинг қўллаб-қувватлаш учун қуйидаги ташкилотлар, уюшма ва марказлар хизмат қилади:

- кичик ва ўрта бизнес бўйича бошқарма;
- кичик бизнес ва ҳунармандчилик корхоналарини ривожлантириш бўйича давлат корпорацияси;
- КЎК ассоциациясининг умумяпон федерацияси;
- КЎК умумяпон маркази ва бошқалар.

Шунингдек, тадбиркорликни кредитлаш учун ўнлаб махсус банклар хизмат қилади. Давлат ёрдамида эса имтиёзли солиққа тортиш, тезлаштирилган амортизация, банкрот бўлганда ёрдам бериш, кичик бизнесни техникавий даражасини ўстиришни рағбатлантиришдан иборат.

Японияда кичик корхона ва тадбиркорларга 500 дан ортиқ савдо – саноат палаталари ва унинг филиаллари маслахатлар, молиявий ва билим олиш учун ёрдам беради. Давлат ёрдамида молиявий асосини тадбиркорлик ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш махсус фонди – халқ фонди, шунингдек молиявий корпорация ташкил қилади.

Қўллаб-қувватлаш ишларини тижорат банклари ҳам давлат ва ижтимоий фондлар воситачилигида олиб боради.

Давлат маблағларини тақсимлаш Япония ҳукумати томонидан ташкил этилган кичик тадбиркорлик корпорациясини каби тижорат тузилмалари томонидан бажарилади.

Францияда ҳунармандчилик ва кичик корхоналарни қўллаб-қувватлаш бўйича ҳар хил ташкилотлар фаолият олиб боради:

- кичик ва ўрта корхоналар конфедерацияси;
- савдо палатаси;
- ҳунармандчилик ишлари бўйича палата;
- қишлоқ хўжалиги палатаси;
- инвестицион хавф-хатарни суғурталашнинг француз жамияти;

-бизнесни ташкил қилиш маркази ва бошқалар.

Миллий даражада хунармандчилик ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш сиёсати давлатнинг топириғи бўйича ҳаракат қилувчи вазирликлар ва муассасалар томонидан назорат қилинади.

Қуйидаги шаклда молиявий ёрдамлар қўлланилади:

-бошловчилар учун кафолатсиз, фоизсиз қарз (сўз бериш остида қарз);

-5 йил давомида тўланадиган фоизли қарзлар;

-ишини йўқотган ва бизнесни бошлашни истовчилар учун 32 минг фракгача субсидиялар ажратиш;

-имтиёзли солиққа тортишнинг турли шаклларида фойдаланиш.

Германияда 3.6 млн.дан ориқ кичик ва ўрта бизнес субъектлари мавжуд бўлиб, уларда иқтисодий жиҳатдан фаол аҳолини қарийб 75 фоизи машғул. Бу корхоналар мамлакатда ишлаб чиқарилган ЯИМнинг 60 фоизини етказиб бермоқда. У ерда ишловчилар сони 50 кишигача бўлган, ўртачалари эса ишловчилар сони 50 кишигача ва йиллик обороти 100 млн маркагача бўлган корхоналар киритилади.

Германияда қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлашга ихтисослашган, озиқ-овқат ва бошқа истеъмол молларини кўплаб турларини ишлаб чиқарадиган корхоналар давлат тасарруфидан ҳар томонлама рағбатлантирилади. Улар қишлоқ жойларида цехлар шаклида кичик-кичик ишлаб чиқариш қувватлари сифатида ташкил этилган. Бу давлат ҳам хунармандчилик ва тадбиркорликни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган давлатлар тизими шаклланган бўлиб, у биринчи галда бу борадаги ҳуқуқий базани яратишга ва тадбиркорларни ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга асосланади.

Шунингдек, уларни узоқ муддатли кредит ресурсларидан имтиёзли фойдаланиш, имтиёзли солиқ тартибини, ишлаб чиқариш, молиявий, ижтимоий, бозор инфратузилмаларини шакллантириш ҳам пировард натижада иқтисодиётни ана шу тармоғини самарали равожлантиришга хизмат қилади.

Германиянинг Федерал иқтисодиёти вазирлиги хунармандчилик ва кичик корхоналарни ташқи бозорга яна ҳам фаолроқ чиқишларига катта эътибор бермоқда.

Халқаро тажриба корхонанинг фаолияти билан боғлиқ потенциал хавфининг назорат органи томонидан баҳоланиши асосида корхоналарни текшириш учун танлаб олиш энг самарали усул эканлигини кўрсатади. Бошқача қилиб айтганда, бу усул текшириш учун танлаш ва текширишларни даврийлиги хўжалик юритувчи субъект фаолиятларини соғлиғига, атроф-муҳитга ёки мамлакатнинг иқтисодий ҳолатига потенциал хавф даражасига боғлиқлигини назарда тутди.

Германияда кичик тадбиркорликни қўллаб-қувватлашнинг давлат дастури ишлаб чиқилган ва амалга оширилади. Унга мувофиқ тадбиркорларга фаолиятнинг дастлабки икки йилида фоизсиз кредит берилади. Кейинги йилларда эса жуда паст ставкаларда йиллик фоизлар ундирилади. Шу тариқа, деярли бепул бошланғич сармоя билан таъминланади.

Имтиёзлар давлат ташкилоти томонидан пухта ишлаб чиқилган бизнес режага асосан берилади. Кейинчалик бу ташкилот кредитдан мақсадли фойдаланилаётганлигини жиддий назорат қилади ва барча ҳаражатлар тегишли ҳисоб-варақлар билан тасдиқланишини талаб қилади. Ишлаб чиқариш соҳасида фаолият юритаётганлар кичик корхоналар арзон нархларда курилиш учун ижарага участкалар олади.

Шуниси муҳимки, бу мамлакатда иқтисодиёт таркибини ўзига хос хусусиятларидан халқни менталитетидан, мавжуд ресурслар ва бошқа омиллардан келиб чиқиб, кичик ва ўрта бизнесни аниқ мақсадли қўллаб-қувватлаш бўйича пухта ўйланган давлат сиёсати амалга оширилади.

Жанубий Кореядаги кичик бизнес федерацияси, кичик ва ўрта корхоналар банки, технологияларни суғурта қилиш федерацияси, савдо ва саноат вазирлиги кичик ва ўрта корхоналарни ривожланишига ёрдам беради.

Саноатни ривожлантириш сиёсатнинг ажралмас қисми сифатида хунармандчилик, кичик ва ўрта корхоналарни ривожлантиришни қўллаб-

қувватлаш сийёсати соҳасида йирик қонунчилик базаси ташкил қилинган: кичик ва ўрта корхоналарни рағбатлантириш ҳақидаги декрет (1966 йил), кичик ва ўрта корхоналарни субконтракт ишларини рағбатлантириш ҳақидаги қонун (1978 йил), фақат кичик ва ўрта корхона ишлаб чиқарадиган товарлар рўйхатидан (1982 йил), кичик ва ўрта корхоналар ўзаро ёрдам фонди ҳақидаги қоидалар (1984 йил), кичик бизнес бошқарувини тартибга солиш ва модернизация қилиш бўйича декрет (1983 йил) ва бошқалар.

Қўллаб-қувватлаш биринчи галда энг юқори экспорт потенциалига эга бўлган фирмаларга берилади. Шу билан бир вақтда кичик корхоналар йирик кооператив гуруҳларга бирлашган бўлади, улар ҳукумат молиявий, солиқ бўйича ва техникавий ёрдам бериб туради.

Жанубий Кореяда иқтисодий ривожланишини экспертга йўналтирилган стратегияси XX асрни охириги 40 йили мобайнида босқичма-босқич амалга оширилган.

Мазкур стратегия 4 босқичдан иборат бўлиб, барча босқичлар бевосита хунармандчилик ва кичик бизнес фаолиятни ривожлантириш билан боғлиқ бўлган. Тўғри иккинчи босқичда (1973-1979 йиллар кичик бизнесни ривожланиши пасайиши кузатилган бўлсада, учинчи ва тўртинчи босқичларда (1980-1990, 1990-2000 йиллар) кичик бизнесни ривожланишига хизмат қилувчи давлат ислоҳотлари амалга оширилди.

Италияда ҳозирги пайтда кичик бизнес кўрсаткичлари асосида “Учинчи Италия” мамлакатни маркази ва шарҳини ўз ичига олувчи минтақа пайдо бўлди. Бу ерда тўқимачилик маҳсулотлари, кийим-кечак, оёқ кийими, мебель ва керамика ишлаб чиқарувчи кичик корхоналарни аксарият қисми жойлашган.

Италияда, саноат округлари, констуляциялар, гуруҳлар ва тармоқлардан иборат минтақавий кооперативларни кузатишимиз мумкин. Округ бирор мамлакатни ишлаб чиқаришда айрим босқичларга ихтисослашган бир талай кичик корхоналарни бирлаштиради. Корхоналарни тор ҳудудда зич жойлашгани эса уларга инновация ҳолатини яхшилаш, ҳозир жавоблик,

хавотирни камайтириш, умумий харажатларни камайтира олиш каби кооперация афзалликларидан фойдаланиш имконини беради. Констелляция – ишлаб чиқаришни ўрта ёки охириги босқичларига ихтисослашган бир неча (5-10) корхоналардан иборат кооперациядир. Уларнинг ичида биттаси етакчи ҳисобланади. Ишлаб чиқаришни замонавийлаштириш шароитида янги тараққиёт истиқболлари белгиланаётган аниқ ҳаракат мақсадларига эгалик қилиш имкониятлари туғилган жойларда гуруҳлар пайдо бўлади.

Айниқса, констелляцияларни фойдаси ва самараси юқоридир. Кичик корхоналар бирлашиб олишган кейин ўз муаммоларини ҳал этибгина қолмай, балки ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш, янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш, янги бозорларга чиқиш каби масалаларни ҳам ҳал этиш имконига эга бўладилар.

Одатда констелляцияда ишлаб чиқаришни охириги босқичида банд бўлган корхоналар етакчи ҳисобланади, яъни у ишлаб чиқаришдаги шерикларидан улар ишлаган қисмларини тўплаб, ҳаммасини бир бутун, тугалланган маҳсулот шаклига келтиради ва тайёр маҳсулотни бозорга чиқаради. Асосийси, констелляция кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ўзаро фойдали шартлари асосида кўнгилли равишда бирлашиш шаклидир. Гарча унда етакчи фирма мавжуд бўлса ҳам бирлашма ичида бир-бирига қаттиқ тобелик йўқ.

Бундан ташқари, Италияда битта йирик саноат корхонаси атрофида, унинг учун ёрдамчи тариқасида ўнлаб, юзлаб кичик корхоналарни юзага келади ва бундан мамлакат иқтисодиёти катта манфаат кўради.

1990 йилда Италияда маъмурий тартиб қоидаларни соддалаштиришга, муддатларни қисқартиришга ва хусусий секторни давлат органлари билан бевосита ўзаро алоқасини камайтиришга қаратилган “Маъмурий тартиб қоидалар тўғрисида”ги (241/90 Қонун) қонуни қабул қилди. “Сукут сақлаш – ризолик аломати” (Silenzio assenso) принципини жорий этилиши соддалаштиришдан бири бўлади. Унга мувофиқ давлат органи ариза берувчини сўровига жавоб бериши керак бўлган муддат билан чекланади.

Агар 30 кун мобайнида аризага салбий жавоб берилмаса, ариза берувчи ўзи сўраётган ҳаракат ёки фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқига эга деб ҳисобланади. Ҳозирги вақтда Италия ҳукумати “ризолик сақлаш – ризолик аломати” принципи қоидасини 194 маъмурий тартиб қоидаларига жорий этган.

Шу билан бирга Италияда кичик корхоналарни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тадбирлари орасида мақсадли молиялаш ва имтиёзли кредитлар алоҳида ўрин тутди.

Ҳар йили бунга тахминан 600 млрд лира сарфланади. Кўп ҳолларда бундай молиялаш имтиёзли солиққа тортиш ва кичик корхоналарни бирлаштирадиган консарциум ва ширкатлар каби қўлланилади. Битта консарциум таъминладиган маблағ миқдори йилига 300 млн лирадан ёки уч йил мобайнида 800 млн лирадан ортиқ бўлмаслиги лозим. Таркибига сармояси 20 млн лирадан кам бўлмаган камида 5 та корхона кирган бирлашмалар махсус ёрдам кўрсатилади. Бундай уюшмалар асосий вазифаси қатнашчилари 40 фоизгача ҳаражатни қоплаш мумкин. Янги корхоналарни ташкил этишда кредитлар 15 йил муддатга, фаолият юритаётган корхоналарни замонавийлаштириш ёки кенгайтириш 10 йил муддатга берилади. Бунда фоиз ставкаси кредит миқдорини ҳисобга олган ҳолда, бозор фоиз ставкасини 36-60 фоизини ташкил этади.

Россия Федерациясида кейинги йиллар мобайнида кичик бизнес соҳасида жуда кўп ишлар амалга оширилади. Россияда авваллари хусусий сектор ва тадбиркорлик фаолияти паст даражада эди.

Россияда солиқ сиёсати бўйича жадал ишлар амалга оширилмоқда. Солиқ “юки” юқори эканлиги бизнесни ривожланишига тўсқинлик қилибгина қолмайдан, балки кўпгина тадбиркорларни бозорда рақобатбардошлигини сақлаб қолиш учун “хуфиёна иш юритишга” мажбур қилади. Россияда солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимини қўллайдиган кичик бизнес корхоналир учун ягона солиқ ставкаси даромад ҳажмининг 6 фоизини ёки

харажатлар миқдорига камайтирилган даромаднинг 15 фоизини ташкил этади.<sup>7</sup> Солиқ солиш объекти тадбиркорнинг ўзи қоплайди.

Солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимини қўллайдиган ташкилот қўшилган қиймат солиғини тўловчи ҳисобланмайди. Россия Федерациясининг божхона ҳудудига олиб келишда тўланиши керак бўлган қўшилган қиймат солиғи бундан мустасно.

Бундан ташқари Россия даромад солиғи учун 13 фоиз миқдорида пропорционал (ясси) шкала қўлланилишидан ташқари, социал солиқ регрессив шкала бўйича ундирилади. Ушбу схема бўйича муайян даражадан олинадиган иш ҳақи суммасидан пасайтирилган ставка бўйича солиқ ундирилади. Бунда энг юқори ставка 26 фоизни ташкил этади. (20 фоиз – қишлоқ хўжалиги корхоналари учун).

2-жадвал

**Турли давлатларда тадбиркорлик ва хунармандчиликни  
ҳуқуқий бошқаришда давлатнинг бош ислохотчилик  
йўналишидаги аҳамияти<sup>8</sup>**

<b>АҚШ</b>	<b>Англия</b>	<b>Германия</b>	<b>Франция</b>	<b>Япония</b>	<b>Ўзбекистон</b>
эркин бозор муноса- бат- ларига асос- ланган	давлат ва бозор механизми фаолия- тига асосланган	ижтимоий бозор хўжалигига асосланган	давлат «дирижизм»и- га асосланган	ишлаб чиқариш фаолиятини кооператив- лаштириш устуворли- гига асосланган	«давлат – бош ислохотчи» тамойили асосида бозор муносабат- ларини фаоллашти- ришга асосланган

<sup>7</sup> Россия Федерациясининг солиқ кодекси. 346.20-модда, 241-модда.

<sup>8</sup> Жадвал тадқиқотчи томонидан Internet маълумотлари асосида тузилган (манбалар [www.cer.ru](http://www.cer.ru) сайтдан олинган).

Буюк Британияда кичик тадбиркорлик ва ҳунармандчиликни қўллаб-қувватлашнинг асосий ҳукумат дастури Loon Garantie Scheme ҳисобланади. У тижорат банклари учун мустақил равишда кредит олмайдиган тадбиркорлик турларига кредит бериш имконини беради. Бунда ҳукумат 70 фоизгача, хатар мавжуд бўлган жойларда эса 85 фоизгача маблағ қайтмаслигини кафолатлайди. Бундай кафолатлар фоиз ставкаси йилига 2.5 фоизни, хатар мавжуд бўлган жойларда эса 2 фоизни ташкил этади. Шу тариқа банклар томонидан кичик тадбиркорликка тақдим этилган кредитларни 70-80 фоизи ҳукумат томонидан кафолатланади. Бу кафолатларни қоплаш учун ҳар йили бюджетдан тахминан 50 млн фунт стерлинг ажратилади.

“Маҳаллий аҳамиятдаги корхоналарга кўмаклашиш агентлиги” кичик фирмаларни ҳудудий қўллаб-қувватлайдиган 200 мустақил бюродан иборат ассоциациядир. Унинг “Корхоналар ташкил этишга кўмаклашиш схемаси” дастури ўз фирма, корхона кабиларни очишни хоҳлаган ишсизларга молиявий ёрдам беради. Бошқа дастур “Кредитларни кафолатлаш” дастурига мувофиқ, уч йил мобайнида муваффиқиятли фаолият олиб борган тадбиркорлар ҳисобига суғурта мукофотлари бералади. 90-йиллардан бошлаб, Буюк Британия саноати конфедерацияни “Тадбиркорликни кенгайтириш дастури”ни амалга оширмоқда. Унда кичик тадбиркорлик билан амалий муносабатлар ўрнатилган ва унинг ривожланишидан манфаатдор юридик ва жисмоний шахслардан олинadиган махсус бадал кичик корхоналарни молиялаштиришни қўшимча манбаи ҳисобланади. Шунингдек, жойларда кичик тадбиркорликни ривожлантиришни учун муниципал ҳукуматнинг молиявий қўллаб-қувватланиши таъминлайдиган, шунингдек, ўз ишини ташкил этиш ёки кенгайтиришда ёшларда кўмаклашадиган, кичик тадбиркорлик соҳасида тадбиркорни тайёрлайдиган махсус дастурлар мавжуд. Демак, тадбиркорликни ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиб берувчи, турли хизматлар кўрсатувчи инфратузилма объектив ҳол бўлиб, у асосан тадбиркорлик фаолиятини яхшилашга қулай муҳит яратади.



## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА И РАЗВИТИЕ

### МАХАЛЛИ

**Беркинов Базарбай Беркинович, профессор кафедры  
«Макроэкономического анализа и прогнозирования» ТГЭУ,  
Академик Международной Академии информатизации, д.э.н.,  
Адрес электронной почты: [berkinovbozorboy@gmail.com](mailto:berkinovbozorboy@gmail.com); тел..**

**Неделькина Н.И., старший научный сотрудник кафедры  
«Макроэкономического анализа и прогнозирования» ТГЭУ,**

**Адрес электронной почты: [nedna@mail.ru](mailto:nedna@mail.ru); тел..**

Махалля и семья, как основные элементы общества, были и остаются хранительницей человеческих ценностей, культуры и исторической преемственности поколений, фактором стабильности и развития. Согласно Конституции Республики Узбекистан семья находится под защитой государства и общества. Во все времена о развитии страны судили по положению семьи в обществе и по отношению к ней государства.

В соответствии со Стратегией развития Нового Узбекистана новый уровень развития Узбекистана подразумевает повышение уровня и качества жизни населения [1]. Осуществленные на деле реформы реализовываются на основе принципа «Интересы и благосостояние человека превыше всего». Все принятые за последнее время реформы в этом направлении указывают на то, что огромное внимание уделяется развитию семьи, ее социальной поддержке, в которой особое место определено женщинам, молодежи и детям.

В процессе институциональных и экономических реформ, проводимых в нашей стране, сформирован механизм всесторонней поддержки и поощрения общественных и семейных институтов. Реализуются масштабные процессы, направленные на повышение места и роли в общественном управлении, института махали, являющегося первичным звеном в государственном устройстве. Выступая с Посланием Олий Мажлису Узбекистана в конце 2020 года, Президент страны Ш. М. Мирзиёев сказал, что «махалля - зеркало нашего общества и жизненных ценностей». Он также отметил, что создана

принципиально новая система адресной работы с малообеспеченными семьями, женщинами и молодежью, внедренной во всех районах и городах, в каждой махалле [2].

Для развития махалли за последние четыре года принято более 50 нормативно-правовых актов, в каждом регионе страны внедрена новая система на основе принципа «Благоустроенная и безопасная махалля». Построены 1163 новых здания органов самоуправления, 3612 реконструированы и отремонтированы. В 110 районах и городах республики возведены комплексы «Махалла маркази», в зданиях 4319 сходов граждан открыты библиотеки.

С учетом этого ускоряется реализация дальнейшей поддержки махалли и семьи в стране на основе новых критериев и подходов, особенно приоритетного развития малого бизнеса и семейного предпринимательства. Пандемия COVID-19 показала эффективность махалли в поддержке малообеспеченных семей, в рамках снижения ее последствий, как сказал Президент Ш. М. Мирзиёев «в махаллях оказали практическую помощь в трудоустройстве около 700 тысячам граждан, привлечении к предпринимательству и ремесленничеству более 60 тысяч, содействие 754 тысячам семей, имеющих инвалидов, в эффективном использовании приусадебных участков» [3].

На оказание единовременной помощи населению Указом Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по материальной поддержке слоев населения, нуждающихся в помощи и социальной защите в период коронавирусной пандемии» от 30.07.2020 г. N УП-6038 из республиканского бюджета было выделено 380 млрд. сумов. На каждого члена семьи выделена помощь в размере 220 тысяч сумов [4].

Однако социально-экономическое развитие махалли, ее предпринимательская деятельность и участие в рыночных отношениях на нынешнем этапе реализации задач новой Стратегии отстает от требований инновационного развития страны, обеспечивающих устойчивый экономический рост. Отсутствие систематизированных знаний о функционировании семей и

законах развития, недостаточная развитость институтов, регулирующих, поддерживающих и поощряющих их предпринимательскую деятельность, являются одними из причин, препятствующих полному достижению ожидаемых результатов.

В настоящее время создается больше возможностей для трудоустройства и получения дополнительных доходов гражданами, желающими заниматься семейным предпринимательством в махаллях. Однако существующий для этого производственный (сервисный) потенциал в махаллях не используется в полной мере. Президент Ш.Мерзиёев в своем Послании Олий Мажлису Узбекистана отметил, что «отныне каждое село и махалля будут развиваться с учетом их специфики, выявления их «точек роста»» [2]. Для этого создается Фонд развития инфраструктуры регионов с бюджетом в 3 трлн. сумов для использования его средств в софинансировании инфраструктурных проектов, предложенных местными Кенгашами.

Меры по поддержке семьи, субъектов предпринимательства и молодежи, укрепления здоровья населения республики и ее социальной защиты определены в Государственной программе по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования» [5].

В рамках изучения вопросов социально-экономической поддержки и развития махалли проводились исследования, результаты которого более подробно освещены в работе [6]. Основной целью исследования являлось выбор эффективных способов социально-экономической поддержки и укрепления семей в стране, дальнейшего развития семейного предпринимательства, и разработка предложений и рекомендаций по их реализации. Исходя из этого, на первом этапе исследовались содержание институтов махалли и семьи в Узбекистане, принципы поддержки семьи, концептуальные аспекты и проблемы их социально-экономического развития. В ходе исследования разработана методика привлечения трудовых ресурсов и инвестиций в комплекс махалли, основанная на анализе опыта зарубежных стран и нашей республики. Далее

раскрываются социально-экономические функции развития частного предпринимательства в махалле и направления совершенствования институтов и механизмов реализации программы «Каждая семья - предприниматель» на территории махалли. Проанализирован опыт развития семейного предпринимательства в промышленности, сельском хозяйстве, образовании, здравоохранении и других сферах в Узбекистане.

Сформированные по результатам исследования предложения основаны на создании новых институциональных организаций, частных предприятий, которые оказывали бы всестороннюю поддержку семье. Результаты данного исследования важны для решения вопросов по укреплению семьи и развитию семейного предпринимательства, совершенствованию механизмов государственно-частного партнерства, разработки различных нормативных актов и «дорожных карт».

#### **Список использованной литературы**

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г., №УП-60;
2. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису. 29 декабря 2020 г./ «Народное слово», 30 декабря 2020 г.
3. Мирзиёев Ш.М. Поздравление, направленное работникам и активистам системы махалли 22.03.2021 г. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [https://uza.uz/ru/posts/rabotnikam-i-aktivistam-sistemy-maxalli-uzbekistana\\_250755](https://uza.uz/ru/posts/rabotnikam-i-aktivistam-sistemy-maxalli-uzbekistana_250755) (дата обращения: 03.11.2022 г.)
4. Макроэкономическая ситуация в странах Центральной Азии: как Казахстан, Узбекистан, Киргизия и Таджикистан переживают последствия пандемии COVID-19. [Электронный ресурс]: [https://raexpert.ru/researches/int\\_fin/central\\_asia\\_2021/](https://raexpert.ru/researches/int_fin/central_asia_2021/) (дата обращения: 24.09.2022 г.) /
5. Указ Президента Республики Узбекистан «О Государственной программе по реализации **Стратегии** развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы

в «Год заботы о человеке и качественного образования» от 28.02.2023 г. №УП-27.

6. Ташмухамедова Д.Г., Беркинов Б.Б. Развитие частного предпринимательства в махалле. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриет – матбаа уйи”, 2022. – 174 с.

## **МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

### **ТАМОЙИЛЛАРИ**

**Беркинов Б.Б., ТДИУ, “Макроиктисодий таҳлил ва прогнозлаштириш” кафедраси профессори, “Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази” Директори, Халқаро ахборотлаштириш академияси Академиги, и.ф.д.**

**Адрес электронной почты: [berkinovbozorboy@gmail.com](mailto:berkinovbozorboy@gmail.com);**

Маҳалла қадимдан жамият ўзини-ўзи ташкил этишининг анъанавий тузилмаси сифатида мавжуд бўлиб, ўзига хос ва бетакрор миллий тажрибани намоён этади. Маҳалла мамлакатимизда мавжуд энг кичик ҳудуд сифатида фаолият юритади.

Ўз ҳаётининг бутун босқичида жамиятимиз бўғинининг ҳар бир аъзоси ота-онаси билан яшашидан ёки ўз оиласини қурганидан ёхуд алоҳида яшашидан қатъий назар, бевосита маҳалла ва унинг ҳаётининг негизлари, шаклланган азалий анъаналар билан боғлиқ. Эзгулик ва ўзаро тотувлик муҳитини асраш, кўмакка муҳтож кишиларга меҳр-мурувват кўрсатиш, ҳашарлар, тўй маросимлари ва бошқа тадбирларни маслаҳат ва ўзаро ёрдам асосида ўтказиш, яъни урф-одат ва анъаналардаги энг яхши жиҳатлар, авваламбор, маҳаллада шаклланган ва амалга ошади.

"Маҳалла" сўзи арабча "маҳаллун" сўзидан келиб чиққан бўлиб, "жой" деган маънони англатади. Ўзбек адабий манбаларида ушбу атама биринчи марта XI асрда Махмуд Қошғарийнинг "Девону луғатит турк" ("Турк лаҳжалари тўплами") асарида қўлланилиб, савдо-ҳунармандчилик мавзеини англатар эди [1]. Анъанавий тарзда маҳалла (ўзбек тилидан - жамоа, мавзе) –

бир мавзе аҳолисини қамраб олувчи, кўшниларининг ҳаёт ва турмуш масалаларидаги ўзаро ёрдамчи, маросимлар, қурилиш ва таъмирлаш ишлари – ҳашарлар ўтказишни ташкил этувчи ўзини-ўзи бошқарадиган ҳудудий бирлашма [2] сифатида қаралади.

Бу ерда шуни таъкидлаш лозимки, инсон ҳуқуқларига ҳурмат анъаналарининг шаклланишида Шарқнинг буюк гуманизм тарафдорлари: Абу Наср Фаробий (870-950), Беруний (973-1048), Абу Али Ибн Сино (980-1037), Алишер Навоий (1441-1501) ва бошқалар тарихан муҳим роль ўйнаган. Ушбу мутафаккир олимларнинг асарларида адолатли жамият, инсоний кадр-қиммат ғоялари, инсон қадриятлари ва давлатнинг унинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасидаги мажбуриятлари ўз аксини топган [3].

Ўсиб келаётган авлодлар тарбиясида маҳалланинг роли катта, у билан ёши улуғ ота-боболардан тортиб ҳозирги авлодгача бир неча авлод вояга етган. Халқ орасида: "Боланинг ота-онаси – етти маҳалла", деган мақол тарқалгани бежизга эмас. Бу шуни англатадики, бола нафақат ота-онанинг назорати остида, балки шу ва ҳатто кўшни маҳаллаларда яшовчи барча оилаларнинг ҳам эътиборида бўлади.

Давлатимизнинг институционал ривожланиши – маҳалла функцияларининг амалга оширилиши орқали миллий ва оилавий қадриятларни тиклаш Концепциясида "Кучли давлатдан – кучли фуқаролик жамияти сари" тамойилининг тизимли амалга оширилиши доирасида жорий этила бошланди. Мазкур Концепцияда [4] маҳалланинг жамиятдаги ролини янада оширишга қаратилган бир қатор янги муҳим ташаббуслар илгари сурилди. Шу билан бирга мамлакатимизда "Оила фаровонлиги – жамият ривожланиши асоси" тамойили [5] маҳалла ва оиланинг янада ривож топишига янги имкониятлар очиб бермоқда.

Ҳозирги кундан мамлакатимизда амалга оширилаётган институционал ва иқтисодий ислохотлар жараёнида маҳалла ва оила институтларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантиришнинг янги бошқарув тизими шаклланди. Унинг негизини "Обод ва хавфсиз маҳалла" тамойили асосида янги

тизимни амалиётга киритиш ғоялари ташкил этади [6]. Уларга кўра маҳаллаларимиз янги қиёфага эга бўлиб, ривожланиши жадаллашмоқда.

Шу билан бир вақтда, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасида “Маҳаллани институционал асосларини янада такомиллаштириш”, маҳалланинг нуфузини, унинг ресурс ва имкониятларини ошириш бўйича дастур ишлаб чиқиш зарурлиги, ҳамда “маҳаллалардаги муаммоларни ўрганиш ва уларга ечим топиш зарур” лиги алоҳида таъкидланган [7].

Мамлакатимизда маъмурий бўлиниши бўйича маҳалла энг кичик ҳудуд ҳисобланади. Ҳозирги кунда 9 мингдан ортиқ маҳалла фуқаролар йиғинида 18 минг киши ишлайди. Ўзбекистон Президентининг 2020 йил 18 февралдаги Фармони билан тасдиқланган “Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги” (ҳозирги “Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги”) тузилмасида 2059 киши бошқарув фаолиятини олиб боради.

Мамлакатимизда кейинги йиллар ичида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев раҳбарлигида маҳалла ва оилани давлат томонидан тартибга солиш усуллари, аҳолини ва уларни рағбатлантириш тизимлари шаклланди. Ушбу тизимни янада ривожлантириш ва такомиллаштириш амалда уларнинг натижадорлигини таъминланмоқда. Жумладан:

- маҳалла институтларини маҳаллабай бошқариш тамоиллари, концепциялари ва қонунчилик асослари тубдан янгиланмоқда;

- маҳаллани ривожлантириш функциялари, маҳалла фуқаролар йиғинида “Ҳар бир оила-тадбиркор” дастурини амалга ошириш тезлашмоқда;

- маҳаллада давлат-хусусий шерикчиликни ташкил этиш, саноат, қишлоқ хўжалиги, таълим, соғлиқни сақлаш, хизмат кўрсатиш ва бошқа соҳаларда ДХШни устувор ривожлантириш амалга оширилмоқда;

- маҳалла фуқаролари ўзини-ўзи бошқариш органларининг роли ва иш самарадорлиги оширилмоқда;

– маҳалла комплексларини қуриш ва унга ички ва ташқи инвестициялар жалб этиш жадаллашмоқда.

Шуларни ҳисобга олганда маҳалла ҳудудида ўта мураккаб ва кенг қамровли ташкилий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ҳамда бошқарув муаммолари ва вазифалари ҳал этилмоқда.

Шу билан бир вақтда, мамлакатимизда 2022 йилнинг 28 январь кунда Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони эълон қилинди. Президентнинг ана шу Фармонида маҳалла институтининг “фаол” моделини жорий этиш мақсадида қатор вазифалар қўйилган. Хусусан, маҳаллаларда янги институт сифатида жорий қилинган тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш, маҳалланинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ўрганиш ва уларни ҳал этиш, камбағалликни қисқартириш, давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, “Ҳар бир оила – тадбиркор” ғоясини изчиллик билан ҳаётга тадбиқ этиш, жамиятда фаол тадбиркорлик маданиятини шакллантириш, маҳаллаларнинг “ўсиш нуқталари” ва уларда яшовчи аҳолининг тадбиркорлик фаолиятидаги ихтисослашувидан келиб чиқиб, уларда истиқомат қилиб фаолият юритувчи аҳолини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими самарадорлиги ошириш [8], каби вазифалар белгилаб қўйилган.

Шу нуқтаи назардан қараганда, республикаимизда маҳаллани янги меъзон ва дастурлар асосида фаол қўллаб-қувватлаш, ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан устувор ривожлантириш ва уни бошқаришнинг илмий-методологик асосларини чуқур ўрганиш ва кундалик ҳаётда улардан фойдаланиш зарур ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Толипова Ш.Ш. Национальные традиции воспитания в махаллях Узбекистана. Режим доступа: <https://docplayer.ru/41558809-Kultura-vospitanie-lichnost.html> (дата обращения: 22.02.2020 г.).



2. Топилдиев О.Р. Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи // Общество: социология, психология, педагогика. 2015. - №3. - С. 29-30.
3. Информация Национального центра Республики Узбекистан по правам человека о наилучшей практике применения традиционных ценностей в поощрении и защите прав человека и поддержке уважения человеческого достоинства в Узбекистане. Режим доступа: <https://www.ohchr.org/Documents/Issues/HRValues/NationalCentreHRUzbekistan.pdf> (дата обращения: 23.02.2020 г.)
4. Ўзбекистон Республикаси Либерал-демократик партиясидан Президентликка номзод Мирзиёев Ш.М.нинг сайлов олди дастури. 12.11.2016. [Электрон манба]. [https://www.ng.ru/cis/2016-11-03/6\\_6851\\_uzbekistan.html](https://www.ng.ru/cis/2016-11-03/6_6851_uzbekistan.html)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.06.2018 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон қарори.
6. “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил ПФ-5938-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 29-декабрь 2020 йилдаги Мурожаатномаси.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

## ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Р.Д.Дусмуратов - ТДИУ, Молиявий таҳлил

ва аудит кафедраси профессори, и.ф.д.,

«Ўзбекистон Республикаси Олий таълими аълочиси».

**Кириш.** Мамлакатимизда ҳар йили минглаб йигит-қизлар мактабни тамомлаб, «ким бўлсам экан?» деган саволга жавоб излайдилар. Дарҳақиқат, ким бўлиш, қандай касбни танлаш, нимани ўрганиш инсоннинг бутун онгли умрини, ҳаётнинг мазмунини ва жамиятдаги ўрнини белгилайдиган муҳим масала ҳисобланади. Бу масала янгиланаётган Ўзбекистон ёшларини касбга тўғри йўналтириш, уларнинг замонавий касб-ҳунарларни эгаллаш ва меҳнат бозорида рақобатбардош бўлишларини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Дарҳақиқат, Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида «таълим соҳасидаги навбатдаги муҳим йўналиш, бу — ёшларнинг замонавий касб-ҳунар эгаллаши учун барча зарур шарт-шароитларни яратишдан иборат»[1] деб алоҳида таъкидланди.

Статистик маълумотларга кўра дунё бўйича тўрт мингдан ортиқ касб мавжуд . *Хўш касб ўзи нима?*

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида «Касб» сўзининг этимологияси арабча бўлиб, луғавий маъноси-«*Иш фаолиятининг маълум тажриба, тайёргарлик талаб этадиган тури, соҳаси; ҳунар*»[3.328 б.] деб изоҳланган.

«Мутахассис» сўзи ҳам арабча бўлиб, «*бирор соҳада махсус билим ва тажрибага эга бўлган киши, ихтисос эгаси*»[3.654 б.] деган маънони билдиради.

Демак, ҳар бир одам ўз касб-корига, мутахассислиги бўйича махсус билим ва тажрибага эга бўлмоғи лозим. Шунингдек, бу сифатлар яхши хулқ-одоб ва бошқа кўплаб юксак инсоний фазилатлар билан безатилмоғи ҳам зарур. Дарҳақиқат, буюк мутафаккир Абу Наср Форобий айтганидек, «*Ҳар бир киши касб-корни мукамал билмоғи, яхши тарбия олмоғи ва яхши хулқ-одоб, фазилатларга эга бўлмоғи керак*».

**Методлар ва материаллар.** Тадқиқот жараёнида аввало умумий методологик асос сифати диалектика, умумилмий: илмий тафаккур, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, абстракция, қиёслаш каби назарий методлар; кузатиш, таққослаш каби эмпирик методлар қўлланилди.

Афсуски, талабаларимиз орасида танлаган касбига умуман қизиқиши бўлмаган, ота-онасининг хошиш-истаги, фарзандининг «келажагини ўйлаб», қандай бўлса-да олий маълумотли қилиш, кейинчалик эса ишга жойлаб қўйиш борасидаги панд-насихатлари оқибатида ўқиётганлари ҳам учраб туради.

Аниқроқ айтганда, бундайлар ўзининг қобилияти, қизиқиши бўйича яшаб, ўқимасдан, ўртача инсон умрининг тўртдан бир қисмини, энг гўзал, бетакрор ва беқиёс, ҳақиқий келажак учун замин яратадиган даврини, «келажакка тайёрланиш»га сарфлайди. Бу тоифа ёшлар бутун ҳаётини ота-онасининг тайёр «рецепти», «орзу-ҳаваси» бўйича қуриб, улар учун олий маълумот тўғрисидаги диплом малакали мутахассисликни билдирмасдан, «карьер» қилиш учун восита бўлиб хизмат қилади.

Бундайлар кўпинча «шоҳдан-шоҳга сакраб», ҳар қандай «хасга ёпишиб» бўлса ҳам, лавозимга эришиш ва уни сақлаб қолишга ҳаракат қиладилар ва бу жараён шундай узоқ чўзилиши мумкинки, охир-оқибатда мутлақо касбга яроқсиз бўлиб қолинади. Натижада, «юқори»да ишонган одами бўлиши ва кўп пул топиш асосий яшаш қондаси ҳамда турмуш тарзига айланади. Энг ёмони бу тоифалар раҳбарлик лавозимини эгалласа, қўл остидагилар ва атрофдагилар учун ҳам фожеага айланиши мумкин.

Дарҳақиқат, *«Бошлиқ бўлмасингиздан аввал илмни чуқур ўрганинг»*[2. 23 б.] дейилган саҳиҳ ҳадисларда. Ўтмишда ҳам, ҳозир ҳам, аввал илм эгаллаган, юксак маданиятли, ўзининг касб-корини мукамал билган, ҳаётий тажрибага эга, яъни халқ тилида айтганда - «оқ-у, қорани кўрган» одамлар раҳбар бўлган жамоа ҳамиша барқарор ривожланган.

Шунингдек, ҳеч бир касбнинг бошини тутмаган, устоз кўрмаган, илму-хунар юқтирмаган бошқа тоифалар эса ҳаёт тўлқини қайси қирғоққа чиқариб ташласа, шу жойда «тирикчилик» учун восита излайдилар.

Ҳозирги тифиз ахборот асри, ижтимоий тармоқлар тараққий этган виртуал маконда «касб», «ҳунар» ва «малака» тушунчалари билан фақат ўз манфаати йўлида қандай бўлмасин, пул топишга қаратилган «фаолият» ўртасидаги тафовутлар сезиларли даражада йўқолган. Айрим ёшлар, ҳатто аниқ бир ихтисослик бўйича олий маълумотлилари ҳам, йиллаб «ўзига мос» иш излаб, фаолият турини тез-тез ўзгартириб юрадилар. Лекин, уларнинг ҳеч қайсиси ҳам ҳақиқий ҳунар, касб эгасига, ҳақиқий мутахассис, уста, ўз касбининг «пири»га айлана олмайди. Афсуски, енгил ҳаётга ўрганиб вақтида «ўйнаб қолиш»ни, диплом бўлса бўлди, қолгани «қўллаб-қувватлаш»га боғлиқ деб, оқим бўйича сузадиган, машғулотини, буюмларини ва ҳатто ўз «дўстларини» ҳам тез-тез ўзгартириб турадиганлар тоифаси ҳам учрайди. Бундайлар кўпроқ моддий таъминланган, уларда ҳамма нарса бор, фақат жамиятга ва атрофдагиларга нафи тегадиган, ўзига эса ҳурмат-эътибор келтирадиган касби-кор, илму-ҳунар етишмайди!

Шунинг учун касб танлашда ёшларнинг қобилияти, қизиқиши, оилада ва мактабда касб танлашга тўғри йўналтирилиши муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга ёшлар касбларнинг минглаб турлари тўғрисида ҳеч бўлмаганда умумий тасаввурга эга бўлганидагина касб танлашда адашмасликлари мумкин.

**Натижалар ва уларнинг таҳлили.** Психологлар аниқлашича, барча касблар меҳнат предмети бўйича учта гуруҳга бўлинади. Масалан, жонсиз нарсалар билан боғлиқ касблар гуруҳи: муҳандис, геолог, гидролог, метеоролог, ёки аксинча, жонли табиат билан алоқадор касблар-биолог, ўрмончи, селекионер, генетик ва б. учинчи гуруҳга меҳнат предметлари ҳар хил ахборотлар, белгилар ва сигналлар билан боғлиқ касблар киради. Масалан, сунъий интеллект, робототехник, ЭҲМ оператори, дастурловчи, диспетчер ва ҳ.к.

Ҳозирда долзарб соҳага айланаётган – эксперт-бухгалтер касби айнан мана шу сўнгги, учинчи гуруҳга мансуб бўлиб, бу касб эгаларида диққат-эътибор, хотира ва изчил фикрлаш қобилиятлари ривожланган бўлиши зарур.

Бундай хусусиятлар эса мунтазам равишда шуғулланиш билан ривожланиб боради. Шу ўринда таъкидлаш жоиз-ки, эксперт-бухгалтерлик жудаям қадимий ва мураккаб касб, аммо уни эгаллаш учун тарихий манбалар(қўлёзмалар)ни ўрганиш билан бирга, ўз устингизда мунтазам ишлаш, замонавий билимларни эгаллаш, амалиётда бевосита шу касб билан шуғулланиш, рақамли технологияларни ўзлаштириш зарур. Баъзилар бу касб бўйича олий маълумотга эга бўлганидан сўнг амалиётда ишлашга журъат қила олмайди, илмий назариясини мукаммал ўрганмаган иккинчи бир тоифалари эса амалиётда бирон-бир «*оралиқ иш*»ни ёки ишнинг «*бир бўлаги*»ни ўрганиб олиб, уларни назария билан боғлай олмасдан, яъни эксперт бухгалтерлик касбини бир бутун яхлит тизим сифатида тушуниб етмасдан, «*назария бошқа, амалиёт бошқа*» (ёки «*ўқини бошқа, иш бошқа экан*») қабилидаги сийқаси чиққан «*қоида*»ни такрорлаб юрадилар. Фақат назария билан шуғулланиб, китобий илмда маълум даражага эришган учинчи бир тоифа кишилар амалиётда оддий ҳисобчиликни ҳам бажара олмаслиги мумкин. Дарҳақиқат, «*китобий олимлик зийнат, аммо у пойдевор эмас*» (*Мишель де Монтень*). Шунинг учун ҳақиқий малакали эксперт-бухгалтер касбининг эгасини эгаллаш бухгалтерия ҳисобининг назариясини ҳам, методологиясини ҳам, амалиётини ҳам мукаммал ва ҳуқуқ тармоқлари (фуқаролик, меҳнат, иқтисодий ва б.) билан ўзаро боғлиқликда билишни тақозо этади.

**Хулосалар.** Баён қилинганларни умумлаштириб, хулоса қилганда, ҳар бир одам касбни қобилияти ва қизиқишига қараб танлаб, уни эгаллаганидан сўнг тўхтовсиз такомилликка интилса, моҳирона бажара олса ва бошқаларга ҳам ўргата олса, бу касб унинг яшаш тарзи ва ҳаёт мазмунига айланади. Ниҳоят, бутун умри давомида кимларгадир тобе бўлмасдан, касби орқали ўзининг ва оиласининг эҳтиёжларини таъминлайди ҳамда бутун жамиятга ҳам нафи тегади. Бундай касб инсон руҳиятига сингиб, унинг маънавиятига айланади. Маънавиятли одамлар виждонли бўлади, виждонли одамларнинг имони мустаҳкам бўлади ва улар жамиятимиз учун ҳамиша фойдалидир.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>.
2. Ал-Бухорий, Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил. Саҳиҳи Бухорий: Ал-жомиъ ас-саҳиҳ: 1 китоб. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2008, - 712 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.

## ЁШЛАРНИ ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ ТИЗИМИГА ЖАЛБ ҚИЛИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Наврўзова Фароғатхон Абдухамид кизи  
(ТДИУ мустақил изланувчиси, Йирик солиқ тўловчилар бўйича  
худудлараро солиқ инспекцияси давлат солиқ катта инспектори)

[navruzova777@umail.uz](mailto:navruzova777@umail.uz)

*Аннотация:* Мақолада юртимизда ёшларни иш билан таъминлашда ўз ўзини банд қилиш тизимининг афзаллиги таҳлил қилинади.

*Калит сўзлар:* меҳнатга лаёқатли ёшлар, ўзини ўзи банд қилиш, иш билан таъминлаш.

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида аҳолини янги иш ўринлари ва кафолатли даромад манбаи, малакали тиббий ва таълим хизматлари, муносиб яшаш шароитлари билан таъминлашни янги босқичга кўтаришда фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва камбағалликни қисқартириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланган[1]. Мамлакатимизда янги иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва шу орқали 2026-йил якунига қадар камбағалликни камида 2 бараварга қисқартириш режалаштирилган.

Меҳнатга лаёқатли ёшлар – жамиятнинг энг фаол қисмини ташкил этиб, улар муаммоларини ҳал қилиш, давлатнинг ижтимоий-иқтисодий барқарорлигини таъминлаш билан бирга, мамлакат хавфсизлигининг

кафолати саналади. Шу туфайли, дунёнинг барча мамлакатларида аҳолининг “меҳнат бозорида минимал билим ва кўникма, кам иш тажрибасига эга ёки умуман муқаддам меҳнат фаолиятига эга бўлмаган, меҳнат рақобатида суст бўлган” ушбу қатламини иш билан таъминлаш – давлатнинг асосий вазифаларидан саналади[2].

Мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар 19 миллиондан ортиқ ёки аҳолининг 55 фоизини ташкил қилади. Меҳнат бозорига ҳар йили 600 минг ёшлар кириб келаётган бўлса, келгуси 10 йилда бу рақам 1 миллионга етади.<sup>9</sup> Шу боис ёшларга сифатли таълим бериш, касб-ҳунарга ўқитиш ва бандлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мисол учун, ўтган йилнинг ўзида ёшлар тадбиркорлиги учун 4 триллион сўм кредит берилиб, 150 мингта лойиҳа ишга туширилган, 325 мингта иш ўрни яратилган. 43 минг гектар экин майдони ажратилиб, 435 минг ёшлар бандлиги таъминланган. 32 мингдан зиёд ёшларга субсидия орқали асбоб-ускуна, меҳнат қуроллари ва компьютер олиб берилган.

Ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиб, улар иқтисодий фаоллигини ошириш мақсадида манзилли дастурлар ишлаб чиқилмоқда. Ижтимоий шерикчилик асосида нодавлат ташкилотларини аҳоли бандлигини таъминлаш муаммоларини ҳал этиш бўйича ижтимоий лойиҳалар асосида аҳоли бандлигини ошириш иштирокини таъминлаш мақсадларига Олий Мажлис фонди томонидан ҳам маблағлар ажратилмоқда.

Жумладан, ўтган йили 130 минг талабага 1 триллион 700 миллиард сўм таълим кредити берилди, хотин-қизларнинг магистратурада ўқиши харажатлари давлат ҳисобидан тўлаб бериш тартиби жорий этилди. 2022 йил давомида ушбу йўналишларда 53 минг нафар эҳтиёжманд талабага контракт пуллари, 15 мингдан зиёд ёшларга ҳарбий хизмат ва 13 минг нафарига чет тиллари бўйича имтиҳон харажатлари тўлаб берилиб, 81 минг талабага уй-жой ижараси тўлови учун маблағлар ажратилган. “Ёшлар дафтари”да ҳисобда

---

<sup>9</sup> Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 11 апрель куни ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишидан. Ҳавола: <https://president.uz/uz/lists/view/6145>

турган 300 минг ёшларга қарийб 600 миллиард сўмлик ёрдам кўрсатилди.<sup>10</sup> Ушбу мақсадли ҳаракатлар ёшларни турли салбий оқимлардан асрайди ва уларни келажакдаги иқтисодий фаоллигини таъминлашга хизмат қилади.

Ҳозирги кунда юртимизда меҳнат қилиш истагида бўлган талаба ёшлар учун кенг имкониятлар яратиш мақсадида, қонунчилик тизими янада такомиллаштирилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг “Олий таълим муассасалари талабаларини мутахассислиги бўйича ишлашига имконият яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори лойиҳаси муҳокама қилинмоқда. Мазкур қарор лойиҳасига мувофиқ, олий таълим муассасалари талабаларини иккинчи курсдан (айрим таълим йўналишларида иккинчи курсдан кейинги курслардан) бошлаб олий таълим муассасаси раҳбари томонидан берилган сертификат асосида мутахассислиги бўйича ўқишдан бўш вақтида ишлашига рухсат этилади.<sup>11</sup>

Мазкур амалиётни жорий этилиши бўлажак мутахассисни ривожланиши ва ўз касбига бўлган муносабатни шаклланишига хизмат қиладиган муҳим омилдир. Ривожланган мамлакатлар тажрибасида ёшлар бандлигини таъминлаш масаласида жуда кўплаб лойиҳалар ишлаб чиқилади. Ушбу лойиҳаларни барчаси билим олиш билан бирга амалга оширилади.

Мамлакатимизда аҳолини банд қилиш ва даромад манбаига эга бўлишини таъминлаш мақсадида ҳозирда ўзини-ўзи банд қилиш тизимида катта эътибор қаратилмоқда. Фикримизча, ушбу тизим талабалар учун ҳам ўқишдан бўш вақтини унумли ўтказиш, олийгоҳда олган билимларини амалиётга тадбиқ қилиши ва қўшимча маблағ топишнинг қонуний манбаи ҳисобланади.

Ўзини ўзи банд қилганлар – бу қонунчиликда белгиланган фаолият турлари билан мустақил шахсий меҳнати билан иштирок этадиган ва ўз меҳнати эвазига даромад олиш учун иш олиб боровчи шахслардир. Бунда улар

---

<sup>10</sup> Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 11 апрель куни ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилишидан. Ҳавола: <https://president.uz/uz/lists/view/6145>

<sup>11</sup> Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси портали. Ҳавола: <https://regulation.gov.uz/uz/d/78449>



якка тартибдаги тадбиркор сифатида рўйхатга олинмайди ва ёлланма ходимлар меҳнатидан фойдаланмайди.

2023 йил 1 январ ҳолати бўйича 78 турдаги фаолият билан ўзини ўзи банд қилиш мумкин. Хоҳишга кўра, уларнинг бир нечтаси билан бирваракайига шуғулланиш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 23-февралдаги "Касаначиликни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-70-сонли Қарорига мувофиқ ўзини ўзи банд қилган шахслар шуғулланиши мумкин бўлган фаолият турлари яна 19 тага кўпайтирилди ва жами 97 тани ташкил етди.[3]

Мазкур қонунчилик хорижий тиллар йўналишлари талабасига ўқишдан бўш вақтида "Гид (гид-таржимон), экскурсия етакчиси ва йўриқчи-йўл бошловчилар хизматлари"ни кўрсатиш ёки репититорлик билан эркин шуғулланиши имкониятини беради. Шунингдек ахборот технологиялари таълим йўналишида таълим олаётган талабалар "Дастурий таъминот, ахборот тизимлари, мобил иловалар ва веб-сайтларни ишлаб чиқиш ва техник қўллаб-қувватлаш" ёки "Ижтимоий тармоқлардаги фаолият" турларининг бири билан ёки буларнинг иккиси билан бир вақтнинг ўзида шуғулланиши мумкин. Бунда талаба бир вақтнинг ўзида ўзининг билим ва кўникмаларини амалиётга жорий қилиши, ҳамда даромадли, фойдали ва энг муҳими қонуний фаолият билан шуғулланади. Масаланинг энг муҳим жиҳатларидан яна бири талаба ўзининг қайси масалаларга эътибор қаратиши ҳамда ўз билими ва кўникмаларини ошириш зарурлигини мустақил англаб етади. Ўзини-ўзини банд қилиш тизими талабага нафақат даромад олиш, балки келажак учун муҳим билимли, бозор талабига мослаша оладиган малакали мутахасси бўлишига ёрдам беради.

Бундан ташқари, талабаларни учун ўзини ўзи банд қилиш тизимига кенг жалб этиш қуйидаги афзалликларга ҳам эга бўлиш имкониятини беради:

1. Қонуний равишда бизнес юритиш ва вақтинчалик ишдан даромад олиш.
2. Содда ва қулай тарзда рўйхатдан ўтиб, фаолият юритиш.
3. Жисмоний шахслардан олинмаган даромад солиғидан озод бўлиш.

4. Бир вақтнинг ўзида бир неча фаолият турлари билан шуғулланиш.
5. Солиқ декларацияси топширмаслик.
6. Банкда ҳисоб рақам очиш заруриятидан холи бўлиш.
7. Ўзини-ўзи банд қилган давр учун меҳнат стажи ва пенсия таъминоти олиш[4].

Талабаларни ўзини ўзи банд қилиш тизими билан шуғулланиш учун жалб этишни самарали ташкил этиш мақсадида олий таълим муассасалари етакчи кафедралари ва тадбиркорлик субъектлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик қилиш бўйича ишларини кучайтириш ҳамда талаба ёшлар ўртасида уларни меҳнатга йўналтириш ишларига алоҳида эътибор қаратиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тарққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. <https://Lex/uz/docs/5841063> (accessed Apr.03,2022).
2. А.З.Саъдуллаев ва Ф.Б.Зайнобиддинова. “Ёшларни иш билан таъминлашнинг ҳуқуқий жиҳатлари: хорижий амалиёт ва замонавий тенденциялар” // ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ // vol. 3, no. 1, 121–130 б., 2021, doi: 10.26739/2181-9416.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 23 февралдаги “Касаначиликни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-70-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/6389635> (accessed May 21, 2023).
4. Ф. Наврузова. “Ўзбекистонда фуқаролар ўзини ўзи банд қилиш тизимининг ўзига хос жиҳатлари” / Рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисоби, ҳисобот ва аудитини халқаро стандартлар асосида ташкил қилишининг долзарб масалалари / 2021, 261–265 б. УДК:657.22 ББК: 65.052

# **«ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ» КАК ОСНОВНАЯ ДИСЦИПЛИНА В ПОДГОТОВКЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ ЭКОНОМИСТОВ**

**Хакимов Назар Хакимович**

**доктор философских наук, профессор, заведующий кафедрой**

**«Общественно -гуманитарные и точных наук»**

**Ташкентского государственного экономического университета**

**Email: hakimovnazar@rambler.ru**

**Аннотация:** Ушбу мақолада “Иқтисодий таълимотлар тарихи” фанининг иқтисодчи кадрлар тайёрлашдаги долзарб масаллари тадқиқ қилинган. Турли қарашларнинг чуқур ўрганилиши, талабага мавжуд муаммоларни таҳлил қилишга, иқтисодий фанларга оид иқтисодий таълимотларни тизимлаштиришга, реал иқтисодий сиёсатни англаш учун зарур бўлган маълумотларни беради. Ушбу фанни ўқитиш жараёни Ўзбекистон Республикаси олий таълим давлат стандартлари асосида олиб боилиши лозим. Бундай ёндошув талабаларга иқтисодий назариялар методологияси генезиси мазмунини, турли давлатларда шаклланган иқтисодий сиёсатнинг бошқа давлатларга тўғри келмаслиги, самара бермаслигининг хусусиятларини англашга, иқтисодиётнинг ривожланиш концепциясини тушинишга ёрдам беради.

**Калит сўзлар;** иқтисодиёт, бакалавр, студент, назария, рақобот, илмий мерос, олий таълим.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены актуальные вопросы значение дисциплины «История экономических учений» в подготовке экономистов. Глубокое изучение альтернативных взглядов на ту или иную проблему позволяет студенту анализировать, а также систематизировать тезисы всех теорий, так как в экономической науке та или иная идея в необходимое время может быть востребована реальной экономической политикой. В процессе преподавание дисциплины необходимо изложить материал, в соответствии с государственным образовательным стандартам

высшей школы Узбекистана. Это позволит студентам разобраться как в генезисе экономической методологии, так и в способах и формах осуществления экономической политики в различных государствах, а также понять, что концепции развития экономики, пригодные для условий одних государств, совершенно не эффективны для других стран.

**Ключевые слова:** экономика, бакалавр, студент, теория, конкуренция, научное наследие, мыслители, высшее образование.

**Annotation:** This article discusses topical issues of the importance of the discipline "History of economic doctrines" in the training of economists. A deep study of alternative views on a particular problem allows the student to analyze and systematize the theses of all theories, since in economics this or that idea can be demanded by real economic policy at the right time. In the process of teaching the discipline, it is necessary to present the material in accordance with the state educational standards of higher education in Uzbekistan.

This will allow students to understand both the genesis of economic methodology and the methods and forms of implementing economic policy in various states, as well as to understand that the concepts of economic development that are suitable for the conditions of some states are completely ineffective for other countries.

**Key words:** economics, bachelor, student, theory, competition, scientific heritage, thinkers, higher education.

**Введение.** Основная цель изучения дисциплины «История экономических учений» дать будущим бакалаврам необходимое знание об основных этапах и особенностях систематизации экономических идей и воззрений в экономическую теорию и выявить значимость для практики экономической жизни научного наследия известных ученых, теоретиков, мыслителей, вносящих вклад в формирование различных теоретических школ, течений и направлений экономической мысли. Обучения гуманитарных, социальных, экономических знаний, получение высшего профессионально профилированного (на уровне бакалавра) образования,

позволяющего выпускнику успешно работать в избранной сфере деятельности, обладать универсальными и предметно-специализированными компетенциями, способствующими его социальной мобильности и устойчивости на рынке труда.

В области формирования социально-личностных качеств студентов: целеустремленности, организованности, трудолюбия, ответственности, гражданственности, коммуникативности, толерантности, повышение их общей культуры и расширение научного кругозора.

Основные задачи дисциплины состоят в том, чтобы объяснить студентам необходимые понятия экономической науки, историю их возникновения. Познакомить будущих экономистов с научными методами: формационного, субъективистского, маржинального, социально-исторического и социально-институционального анализа экономической ситуации. Сформировать навыки для самостоятельных оценок развития мировой и отечественной экономической мысли, выработки альтернативных вариантов экономической политики. Результатом освоения дисциплины «История экономических учений» является формирование у студентов системных знаний об особенностях развития различных экономических теорий и школ; истории развития экономических отношений, процессов и их взаимосвязи с современными экономическими отношениями. Кроме того, изучение данной дисциплины позволит в дальнейшем использовать систематизированные теоретические знания основ экономической теории при решении профессиональных задач.

**Литературное обозрение.** В XVIII веке вместе с развитием экономической теории появляются и работы, посвящённые изучению уже сложившихся экономических доктрин. Так, в 1824–1825 годах изданы обзоры экономических воззрений последователя Д. Рикардо Дж. Р. Мак-Куллоха. В 1829 году французский экономист Жан-Батист Сэй посвятил истории науки 6-й том своего «Полного курса практической политической экономии». В 1837 году выходит в свет «История политической экономии в Европе»

французского экономиста Жерома Бланки. Также анализ экономических воззрений можно обнаружить в книге 1848 года немецкого экономиста Бруно Гильдебранда «Политическая экономия настоящего и будущего» и публикациях его соотечественника Вильгельма Рошера. В 1850-1868 годах выходит несколько статей, посвященных обзору экономических доктрин итальянского учёного Франческо Феррари. В 1858 году русский экономист И. В. Вернадский выпускает «Очерк истории политической экономии». В 1871 году немецкий философ Евгений Дюринг публикует «Критику истории национальной экономии и социализма», а в 1888 году вышла книга ирландского экономиста Дж. К. Ингрэма «История политической экономии».

12

В XIX веке экономическая теория возникает в форме отдельных курсов на юридических факультетах университетов, затем появляются особые экономические факультеты, формируется круг профессиональных экономистов. Так, в 1805 году английский экономист Томас Мальтус стал профессором новой истории в колледже Британской Ост-Индской компании, в 1818 году в Колумбийском университете Нью-Йорка появилась должность профессора моральной философии и политической экономии, в 1819 году французский учёный Жан-Батист Сэй занял кафедру промышленной экономии в Парижской Консерватории искусств и ремесел. Политическую экономию в качестве особого предмета начинают преподавать в 1825 году в Оксфорде, в 1828 году в Университетском колледже Лондона, а 1832 году в Дублинском университете.<sup>13</sup> Среди российских работ по истории экономических учений XIX и начала XX веков выделяются «Очерк истории

---

<sup>12</sup> [Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе.](#) — М.: Дело, 1996. - 687 с. - ISBN 5-86461-151-4.

[Назар С.](#) Путь к великой цели. История одной экономической идеи. - М.: АСТ CORPUS, 2013

[Роббинс Л.](#) История экономической мысли: лекции в Лондонской школе экономики / пер. с англ. - М.: [Издательство Института Гайдара](#), 2013.

<sup>13</sup> Корниенко О. В. Экономическая теория: учеб. пособие для вузов. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. —410 с. - ISBN 978-5-222-12710-0.

политической экономии» И. И. Иванюкова, «История политической экономии» А. И. Чупрова, «История политической экономии» Л. В. Федоровича и «История политической экономии. Философское, историческое и теоретическое начала экономики XIX в.» А.Н.Миклашевского. В рамках книги «Экономические очерки», российский учёный В.К.Дмитриев анализирует основные положения теории трудовой ценности и ренты Д. Рикардо, концепции распределения И. фон Тюнена, модели конкуренции О. Курно и основные положения маржинализма при помощи математических методов. Ценный вклад в изучение истории экономических теорий древнего Китая внес В. М. Штейн, осуществивший перевод и исследование экономических глав древнекитайского памятника «Гуань-цзы».

Крупный вклад в данную область экономического знания внёс и великий английский экономист Альфред Маршалл, включивший в свой трактат 1891 года «Принципы экономической науки» приложение под названием «Развитие экономической науки». «История теорий производства и распределения в английской политической экономии с 1776 по 1848 гг.» английского экономиста Э. Кеннана, опубликованная в 1893 году содержит интерпретацию идей Д. Рикардо, Джеймса и Джона Стюарта Миллей, Т. Мальтуса и других. Таким образом, формирование истории экономической науки завершилось в конце XIX – начале XX вв., к этому времени историю экономических учений уже начали преподавать в парижской Сорбонне.

Определенный вклад в формирование экономических учений внесли представители движения джадидов Махмудхужа Бехбудий, Мунаввар Кори, Файзулла Ходжаев и другие.

Среди работ начала конца XIX и начало XX века, посвящённых изучению экономических воззрений, выделяется «Теории прибавочной стоимости» Карла Маркса в редакции Карла Каутского, изданная в 1905-1910 годах, где анализируются теории А. Смита, Д. Рикардо и других представителей политической экономии. В 1909 году вышло первое издание «Историй экономических учений» французских экономистов Шарля

Жида и Шарля Риста. В данной работе анализировались концепции неортодоксальных направлений, например, сенсимонистов, утопистов, фабианцев, анархистов (в том числе показаны взгляды М.А.Бакунина и П.А.Кропоткина). Важнейшей работой, посвящённой истории меркантилистской теории и сохраняющей научное значение по сей день, является двухтомное произведение 1934 года шведского экономиста Эли Хекшера «Меркантилизм».<sup>14</sup>

В начале XX в. в связи с усилившейся монополистической тенденцией в экономике зародилось новое социально институциональное направление экономической мысли. Великая экономическая депрессия 1929-1933 гг. поставила новые проблемы научных исследований. Решение этих проблем опиралось на учение Дж.М. Кейнса, которое предполагало государственное регулирование экономических процессов. Также подробный анализ меркантилизма приведён в «Общей теории занятости, процента и денег» Дж. М. Кейнса.

Ҳозирги кунда «Ҳунарманд» уюшмасининг маълумотларига кўра: «Ҳунармандчиликни ривожлантириш дастури доирасида ажратиладиган

кредитлар, субсидиялар ва уста-шогирд мактаблари ташкил этиши ҳисобига ўтган 2022 йилда 91 534 та янги иш ўрни яратилди. Яратилган иш ўринларининг 17 565 нафари уста хунармандлар бўлса, 73 969 нафари шогирдлар ҳиссасига тўғри келади.

Сўнгги йилларда хунармандчиликка эътибор туфайли миллий кадриятларимиз, бой маданий меросимиз қайта тикланиб ривожлантирилмоқда. Бу эса ҳудудларимиз маданияти ва санъатининг маҳаллий жиҳатларини очиб беришга, миллий анъаналарни акс эттиришга, йўқолиб бораётган хунармандчилик турларини қайта тиклашга, уларни сақлашга, асраб-авайлашга, шунингдек, аҳоли бандлигини таъминлаш ва шу орқали камбағалликни олдини олишга сабаб бўлмоқда.

Ушбу хунармандчилик маҳсулотларининг экспортини йўлга қўйиш, хунармандчиликни асосий экспорт қилувчи соҳалардан бирига айлантириш, кўплаб маҳаллий хунармандларни иш билан таъминлаш, касаначиликни йўлга қўйиш, хунармандлар ишбилармонлигини ошириш, ҳам оиласига ҳам давлатга валюта даромадини келтириш муҳим масала ҳисобланади.

Хунармандчилик соҳасини янада ривожлантириш борасида давлатимиз раҳбари томонидан мамлакатимизда кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда, хунармандлар учун соҳани ривожлантириш, ишлаб чиқаришни кўпайтириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳоли бандлигини таъминлаш борасида имтиёзли кредитлар ажратилиб, соҳа истиқболи учун кўпгина имтиёз ва афзалликлар яратилмоқда.

### **Фойдаланилган манба ва адабиётлар**

1. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, Тошкент - 2004.
2. ЭшовБ.Ж., Одилов А.А. “Ўзбекистон тарихи”, II китоб. “Донишманд зиёси”, Тошкент – 2020.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 31 декабрдаги ПҚ-77-сонли «Хунармандчилик фаолиятини қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 январдаги ПҚ-39-сон «Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида аҳолининг бизнес ташаббусларини қўллаб-қувватлашни янги босқичга олиб чиқишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори.

## **THE ROLE OF ENTREPRENEURSHIP IN NEIGHBORHOODS TO IMPROVE WELLBEING AND ECONOMIC GROWTH**

**Yakhshiboeva Laylo**

Deputy Director of Scientific Research  
Center “Scientific bases and issues of  
Economic development of Uzbekistan”,  
Tashkent State University of Economics

[l.yaxshiboeva@tsue.uz](mailto:l.yaxshiboeva@tsue.uz)

In today's ever-changing economic landscape, the role of entrepreneurship in neighborhoods is becoming increasingly significant. The integration of digital marketing technologies and evolving market trends have opened up new possibilities for local businesses. However, to fully leverage these opportunities, it is essential to explore ways to enhance the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in neighborhoods.

Improving the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in neighborhoods brings about a range of benefits. Firstly, it fosters economic growth by creating job opportunities and stimulating local investment. Secondly, it contributes to the social fabric of neighborhoods, promoting community engagement and a sense of ownership. Additionally, successful entrepreneurship in neighborhoods can lead to improved living standards, enhanced local services, and a stronger sense of pride and identity. Despite these advantages, challenges persist, such as limited access to financing, a lack of business knowledge and skills, and the need for effective marketing strategies tailored to local contexts.

The importance of entrepreneurship in neighborhoods cannot be overstated. Local businesses serve as the backbone of communities, driving economic resilience and social cohesion [1]. By empowering individuals to start and sustain their

businesses, neighborhoods can flourish economically and socially. Moreover, fostering entrepreneurship in neighborhoods reduces reliance on external sources and promotes self-sufficiency, creating a sustainable ecosystem.

Recognizing the significance of entrepreneurship in neighborhoods, governments and organizations have implemented various initiatives and policies to support and encourage local businesses. These include funding programs, business incubators, mentorship programs, and networking opportunities [2,3]. Furthermore, policymakers have developed policies that facilitate entrepreneurship, such as streamlining regulatory processes, providing tax incentives, and promoting collaborations between businesses and educational institutions.

The purpose of this thesis is to conduct a comprehensive analysis of the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in neighborhoods. Specifically, it aims to assess the current state of entrepreneurship in selected neighborhoods, identify the existing challenges and opportunities, and propose strategies to enhance the effectiveness and efficiency of entrepreneurial endeavors.

To achieve the research objectives, this thesis will employ a rigorous mixed-methods research approach. The qualitative research component will involve in-depth interviews with successful entrepreneurs in various neighborhoods. These interviews will provide valuable insights into their experiences, challenges faced, and strategies employed. Additionally, case studies of successful neighborhood businesses will be conducted to gain a deeper understanding of the factors contributing to their growth and sustainability. The quantitative research component will include surveys administered to entrepreneurs and residents to gather data on the perceptions, needs, and aspirations of the community. Statistical analysis will be applied to identify key factors influencing the development and success of entrepreneurship in neighborhoods.

The findings of this study will contribute to the existing body of knowledge on entrepreneurship in neighborhoods, providing actionable insights for policymakers, community leaders, and aspiring entrepreneurs. The research will

offer practical strategies and recommendations to strengthen the mechanisms of organization and development, ensuring the growth and prosperity of neighborhood businesses. By addressing the challenges and harnessing the opportunities, this thesis will lay the groundwork for more inclusive, resilient, and thriving local economies. Ultimately, the study aims to empower neighborhoods, fostering entrepreneurship as a catalyst for sustainable development and improved quality of life.

In recent years, Uzbekistan has made significant strides in prioritizing key areas of scientific research to achieve sustainable development. With a focus on the digital economy and the health sector, the nation aims to enhance its economic competitiveness and improve the well-being of its citizens. In alignment with these priorities, this thesis explores the topic of "Improvement of the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in the neighborhoods." By examining the significance and benefits of this research topic, linking it to development goals, and referring to official statements, this study aims to provide valuable insights and recommendations for policymakers and stakeholders.

As part of its development agenda, Uzbekistan has recognized the importance of fostering entrepreneurship and innovation. While the digital economy and the health sector have been identified as primary areas of focus, it is crucial to extend this attention to grassroots entrepreneurship in local neighborhoods. By examining the mechanisms for organizing and developing entrepreneurship in neighborhoods, this research aims to contribute to the overall scientific research conducted in the republic [4].

The research topic, "Improvement of the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in the neighborhoods," is highly relevant to the priorities set in the program of the year "Development of science and digital economy" in Uzbekistan. By addressing the needs and challenges faced by local entrepreneurs, this study directly supports the goals of fostering a vibrant digital economy and promoting innovation in the country.

Enhancing the mechanisms of organization and development of entrepreneurship in neighborhoods holds immense significance for Uzbekistan. By

empowering local entrepreneurs, we can drive economic growth, create employment opportunities, and improve living standards within communities. This research aims to uncover effective strategies and mechanisms that will boost the efficiency and effectiveness of entrepreneurship development, aligning with the priority directions of scientific research in digitization, innovation, and economic advancement.

Uzbekistan is committed to achieving various development goals, including the improvement of medical services, the enhancement of citizens' quality of life, and becoming a leader in the digital economy. Strengthening the mechanisms of entrepreneurship in neighborhoods directly contributes to these objectives by fostering economic growth, facilitating access to goods and services, and promoting innovation at the grassroots level. This research will propose strategies and recommendations to align neighborhood entrepreneurship with the nation's development goals, ensuring sustainable progress [5].

In line with President Sh.M. Mirziyoyev's vision for digitization and innovation, this research topic aligns with his emphasis on leveraging new technologies to enhance services and opportunities. By referring to his address to the parliament on January 24, 2020, where he highlighted the importance of innovation in various sectors, including entrepreneurship, this study seeks to contribute to the realization of his vision. By improving the mechanisms of organizing and developing entrepreneurship in neighborhoods through this research, we can create an enabling environment for digital transformation and economic prosperity.

The findings of this study will offer policymakers and stakeholders valuable insights and recommendations to accelerate Uzbekistan's progress towards its development goals. By providing evidence-based strategies and mechanisms to enhance entrepreneurship in neighborhoods, this research aims to contribute to the formulation of effective policies that will drive sustainable economic growth, improve livelihoods, and ensure the well-being of citizens.

This thesis on the improvement of mechanisms for organizing and developing entrepreneurship in neighborhoods aligns with Uzbekistan's priorities in the digital economy and the health sector. By exploring the significance and benefits of this



research topic, linking it to development goals, and referring to official statements, this study aims to provide valuable insights and recommendations for policymakers and stakeholders. Ultimately, through evidence-based research, we can enhance entrepreneurship in neighborhoods, foster economic growth, and contribute to the sustainable development of Uzbekistan.

#### References

1. Wong, P. K., Ho, Y. P., & Autio, E. (2005). Entrepreneurship, innovation and economic growth: Evidence from GEM data. *Small business economics*, 24, 335-350.
2. Weissbourd, R. (2016). Understanding Middle Neighborhoods as Vital Parts of Regional Economies. *INVESTMENT REVIEW*, 127.
3. Wiklund, J., Nikolaev, B., Shir, N., Foo, M. D., & Bradley, S. (2019). Entrepreneurship and well-being: Past, present, and future. *Journal of business venturing*, 34(4), 579-588.
4. Furlan, R., Petruccioli, A., Major, M. D., Zaina, S., Zaina, S., Al Saeed, M., & Saleh, D. (2019). The urban regeneration of west-bay, business district of Doha (State of Qatar): A transit-oriented development enhancing livability. *Journal of Urban Management*, 8(1), 126-144.
5. Yan, W., Zhang, L., Duan, X., & Wu, F. (2023). Strategic Approaches to Realize Sustainable Neighborhoods in Urban Renewal: A Case Study of Banan, Chongqing, China. *Sustainability*, 15(4), 3515.

#### **МАҲАЛЛАЛАРДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

Рашидов Жамшид Хамидович  
ТДИУ, и.ф.н, доцент

Мамлакатимизда мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини доимий равишда қўллаб-қувватлашни назарда тутувчи аниқ мақсадга йўналтирилган иқтисодий ислохотлар изчиллик билан амалга оширилиб келинмоқда. Республикамизда кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш зарурати, энг аввало барқарор

иқтисодий ўсишга эришиш, иқтисодиётга инвестицияларни киритиш, иқтисодиётдаги инновацион ўзгаришларни рағбатлантириш, аҳоли даромадларини кескин ошишига эришишга асосланадиган янги босқичдаги иқтисодий ислохотларни мазмун моҳиятидан келиб чиқади. Натижада мамлакатимизда янгича иқтисодий-ижтимоий муносабатлар шаклланиб, кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятининг ўрни ва аҳамияти тобора мустаҳкамланмоқда.

Ҳозирги кунда республикаимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилиб келинмоқда. Айнан кичик бизнес ва тадбиркорликни тараққий этишига кўмаклашиш, уларга муносиб шарт-шароитлар яратиш масаласига давлатимиз иқтисодий сиёсатининг стратегик вазифаси сифатида эътибор қаратилиб келинмоқда.

Мамлакатимизда макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, валюта бозорини эркинлаштириш, иқтисодиёт тармоқларида тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар аҳолининг кенг қатламларини тадбиркорлик фаолиятига фаол жалб қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратди.

Республикаимизда ўтган давр мобайнида амалга оширилган кенг қамровли ислохотлар натижасида хусусий мулкдорларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоясини таъминлашга қаратилган мустаҳкам қонунчилик базаси яратилди, амалда давлат хизматлари кўрсатиш борасида тўғридан-тўғри мулоқотсиз замонавий интерактив шакллари жорий этилиб, давлат билан тадбиркорлар ўртасида тизимли мулоқот йўлга қўйилди, тадбиркорликни жадал ривожлантириш учун аниқ ва ишончли ҳуқуқий кафолатлар яратилди.

Республикаимизда сўнгги йилларда маҳаллада тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қарилиб келинмоқда. Бу борада бир қатор меърий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва

камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида”ги ПФ-29-сон фармони, 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сон, 2018 йил 27 июндаги “Ёшлар – келажагимиз” Давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5466-сон фармонлари қабул қилинди.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 апрелдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3680-сон, 2018 йил 7 июндаги “Ҳар бир оила - тадбиркор» дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги ПҚ-3777-сон ва 2018 йил 14 июлдаги “Аҳоли бандлигини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3856-сон қарорлари қабул қилинди. Шунингдек, “Ҳар бир оила – тадбиркор”, “Ёшлар – келажагимиз”, “Обод қишлоқ”, “Обод маҳалла” ва бошқа шу каби дастурлар қабул қилинди. Ушбу қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида маҳаллаларда оилавий тадбиркорлик, даромад топишга қаратилган муайян меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ва фаолият турини кенгайтириш истагини билдирган аҳоли ҳамда тадбиркорлик субъектларига йиллик 8 фоиз ставкада 3-6 ойгача бўлган имтиёзли давр билан 3 йилдан кўп бўлмаган муддатга имтиёзли кредитлар ажратилмоқда. Бу эса маҳаллаларда аҳоли бандлигини таъминлаш, оилалар учун даромад манбаи яратишга хизмат қилмоқда.

Юқорида маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш бўйича қабул қилинган меърий-ҳуқуқий ҳужжатлар мамлакатимизда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий, иқтисодий ва ҳуқуқий асоси

бўлиб, бу борадаги ишларни янада жадаллаштиришга хизмат қилмоқда. Бирок бир қатор объектив ва субъектив сабабларга кўра бугунги кунда маҳаллада тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш билан боғлиқ қуйидаги муаммолар мавжудлиги кўзга ташланмоқда.

– маҳаллаларда тадбиркорлик фаолиятини юритиш истаги бўлган субъектларнинг барчасида ҳам ушбу фаолиятни ташкил этиш ва амалга оширишда иқтисодий ва ҳуқуқий саводхонлик етишмайди;

– янгидан ўз фаолиятини бошлаётган тадбиркорлар бизнес-режаларни тайёрлаш бўйича етарлича кўникмаларга эга эмас;

– харидорлар ва бозор ҳолати тўғрисида етарлича ахборотга эга эмас;

– ишлаб чиқарилган маҳсулотларга харидорлар излаб топиш ва ички бозорларга олиб чиқиш ва бошқа шулар билан боғлиқ муаммолар.

Маҳаллаларда тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш ва кўллаб-қувватлаш учун қуйидаги шарт-шароитларни яратиш ва ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

– маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларига фаолиятни ташкил этиш ва амалга ошириш, ижтимоий ва бозор инфратузилмаси субъектлари хизматларидан фойдаланиш бўйича ҳуқуқий маслаҳат хизматларини кўрсатишни ташкил этиш, шунингдек ахборот билан таъминлаш бўйича ёрдамлар кўрсатиш;

- янгидан ўз фаолиятини бошлаётган тадбиркорлар учун бизнес юритиш бўйича маслаҳатлар бериш, уларга бизнес-режаларни тайёрлашга ёрдам кўрсатиш, тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш учун керакли ахборотларни олиш ва турли амалий масалаларни ечишда эксперт маслаҳати ва бошқа маслаҳат ёрдамларини кўрсатиш;

- маҳаллаларда тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш истаги бўлган субъектларни тадбиркорлик кўникмалари бўйича ўқитиш, тайёрлаш, малакасини ошириш ва қайта тайёрлашга ихтисослашган доимий фаолият юритадиган курсларини ташкил этиш;

- маҳалладаги тадбиркорлар, шунингдек касаначилар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг ички бозорларга олиб чиқишига ва буюрмачилар излаб топишга амалий ёрдам кўрсатиш;

– турли бизнес-форумлар, кўргазма ва ярмаркаларни ташкил этиш ва уларда маҳаллий тадбиркорлик субъектларининг мунтазам иштирок этишига ёрдам бериш;

– тадбиркорларга ишончли бўлган ҳамкорлар, янги бозорларни топиш ва маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш, экспорт имкониятларини кенгайтириш ва тадбиркорликларнинг экспорт салоҳиятини кўтариш, шунингдек, миллий брендларни хорижда илгари суриш, маҳаллий ва хорижий инвестицияларни, замонавий технологияларни жалб этиш;

– маҳаллий тадбиркорларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда амалий ёрдамлар кўрсатиш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, юқорида келтирилган тадбирларни амалга ошириш, маҳаллаларда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш, улар учун муносиб шарт-шароитларни яратиш, ўз навбатида мамлакатимиз маҳаллаларида тадбиркорлик субъектларининг фаоллигини ошириш, янги иш ўринлари вужудга келиши натижасида аҳоли бандлигини таъминлаш, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган ҳар бир оиланинг даромадини ошириш ва пировард натижада аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшиланишига олиб келади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва

камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида»ги ПФ-29-сон фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ёшлар – келажакимиз” Давлат дастури тўғрисида»ги ПФ–5466-сон фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–5242-сон фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 апрелдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3680-сон қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги “Ҳар бир оила - тадбиркор» дастурини амалга ошириш тўғрисида»ги ПҚ–3777-сон қарори.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги “Аҳоли бандлигини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ–3856-сон қарори.

## **МАҲАЛЛАЛАРДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Турсунов Бобир Ортиқмирзаевич**

и.ф.д., доцент, “Иқтисодий хавфсизлик”

кафедраси мудири, ТДИУ

Мустақиллигимизнинг дастлабки йиллариданоқ мамлакатимизда мулккий муносабатларга катта аҳамият қаратила бошланди. Бунинг натижасида хусусий мулкчиликнинг ортиб бориши ва иқтисодиёт ривожланишига таъсир кўрсатиш доираси кенгайиб бора бошлади. Ҳар қандай хусусий тадбиркорликнинг, шу жумладан оилавий тадбиркорликнинг ҳам асосида мулкчилик, мулкга бўлган эгалик ётади. Бизга маълумки, мулк хусусий бўлган

тақдирдагина, яъни у ўз эгасини топган тақдирдагина ундан самарали фойдаланиш томон ҳаракат бошланади. Ҳар қандай жамиятнинг иқтисодий тизими мулкчиликдан бошланади. Ҳамиша авлодлар меҳнати яратган ва табиат инъом этган бойликлар мулк бўлиб келган. Мулккий муносабатларга асосланмаган иқтисодиёт бўлиши мумкин эмас. Ишлаб чиқариш ресурслари биронта мулк бўлиб ҳаракатга келади. Яратилган маҳсулотлар ҳам муайян мулк доирасида ўзлаштирилади.

Бозор иқтисодиётининг асосий белгиси ҳисобланган рақобат тадбиркорлик фаолияти натижасида юзага чиқади ва кескин тус олиб боради. Одамларнинг танлаш имкониятлари кенгайиб боради. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиши таъсирида рақобат кураши ривожланади ва такомиллашиб боради.

Айниқса тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқариш харажатлари ва ресурсларидан фойдаланиш даражасини ҳисобга олиш муҳим аҳамият касб этади. Самарадорликнинг хусусий кўрсаткичлари корхонадаги алоҳида харажатлар ва ресурслардан – асосий фондлардан, материаллардан ва меҳнатдан фойдаланиш даражасини ҳисобга олади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши иқтисодиёт ривожланиши билан давом этади. Тадбиркорлик фаолияти катта маблағ талаб қилмаслиги билан ажралиб туради. Катта хажмдаги бошлангич инвестициясиз фаолият кўрсатиб, иқтисодиётнинг таркибий тузилишини такомиллаштиришга ва бу борадаги масала ва муаммоларнинг ечимини топишга, бозорни истеъмол буюмлари билан тўлдиришга олиб боради. Энг аҳамиятли томони шундаки, ушбу самарали ишлар молиявий ресурслар чекланган шароитда амалга оширилади.

Туб ўзгаришлар амалга оширилаётган мамлакатимизда иқтисодиётнинг барча соҳалари ва тармоқларини ривожлантиришга кенг кўламли ҳаракатлар амалга оширилмоқда. Олиб борилаётган бу каби ҳаракатларнинг пировард мақсади ҳар бир оила муносиб турмуш шароитини яратишга қаратилгандир. Муносиб турмуш шароитини яратишнинг назарий масалаларини ҳал қилишда

оила хўжалигининг ижтимоий-иқтисодий мазмунини ва унинг фаровонлигини оширишнинг асосий устувор йўналишларини, хусусан унинг ташкилий-иқтисодий омилларини қараб чиқишни тақозо қилади. Бундай вазифани бажаришга киришиш “оила хўжалиги”, “оилавий тадбиркорлик” каби тушунчаларнинг ижтимоий-иқтисодий мазмунини очиб беришдан бошланади.

Оила хўжалиги деганда – оила аъзоларининг ва бутун жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва маънавий эҳтиёжини қондириш ҳамда маълум даражада даромад (фойда) олиш учун ўз мулкига эга бўлган ишлаб чиқариш, иш бажариш ва хизмат кўрсатиш каби фаолиятини амалга ошириш мақсадида бир-бири билан эр-хотинлик, бола-чақалик ва туғишганлик асосида бирга яшовчи кишилар гуруҳи тушунилади.

Оила хўжалигининг микроиқтисодиёт субъектига айланиши бевосита уларнинг тадбиркорлик билан шуғулланишига ҳам боғлиқдир. Оила хўжалиги тадбиркорлиги деб – оилавий мулкка асосланган оила аъзолари иштирок этадиган ва маълум даражада оилага даромад (фойда) ва ижтимоий наф келтирилишини кўзлаб қилинадиган эркин танланган қонуний фаолиятга айтилади.

Оилавий тадбиркорлик фаолиятини тўла таҳлил қилиш учун авваламбор мулкчилик муносабатларига эътибор қаратиш лозим бўлади. Мулкчилик муносабатлари - жамиятдаги бойликларни ўзлаштириш хусусидаги иқтисодий муносабатлардир. Мулкчилик, биринчидан, инсон билан бойлик бўлмиш буюм ёки бошқа нарса ўртасидаги муносабат, иккинчидан, бойлик хусусида кишилар ўртасида юзага келадиган муносабатлардир. Кишилар буюмларни ўзиники қилиб ўзлаштиришлари мумкин, чунки жамиятда ўзганикени ўзлаштириб бўлмайди. Бойликнинг ўзиники ёки ўзганики бўлиши кишиларни мулкдор ёки мулксиз қилиб, улар ўртасида маълум алоқаларни юзага келтиради. Ҳар бир киши ўз мулки орқасидан кун кўради.

Оилавий тадбиркорлик фаолиятининг асосини хусусий мулк ташкил қилади. Хусусий мулк қадимда ҳам мавжуд бўлган бўлиб, жуда узоқ тарихий ривожланиш жараёнини ўтказган. Бозор муносабатларининг қарор топтириш



замирида мамлакатда кўп укладли иқтисодиётни шакллантириш, унинг ижтимоий-иқтисодий асосларини яратиш ва бу жараёни давлат томонидан кўллаб кувватлаш тизими бугунги кенг қамровли иқтисодий ислохотлар стратегиясида асосий йўналишлардан бири ҳисобланади. Иқтисодиётнинг ижтимоий таркибида давлат мулки яқка ҳокимлигига барҳам бериш ва шу йўл билан эркин рақобат мухитини раванқ топтириш пировард натижасини ижтимоий ишлаб чиқаришнинг нодавлат секторини вужудга келтиришни ташкил қилади. Бозор муносабатлари шароитида хусусий секторнинг ривожланганлик даражаси бир йўла ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга саналади. Хусусий сектор ривожланишининг ижтимоий-сиёсий аҳамияти бевосита жамиятда турли табақадаги мулкдорлар қатламларининг вужудга келиши билан боғлиқ. Бу жараён шубҳасиз мамлакатда ҳуқуқий демократик давлатчиликнинг вужудга келишида муҳим роль ўйнайди.

Оилавий тадбиркорлик ўз кўлами жиҳатдан иқтисодиётни узлуксизлигини ва барқарорлигини таъминлашда катта ўрин эгаллайди. Оилавий тадбиркорликнинг иқтисодиётга таъсир кўлами бир қатор иқтисодий, ижтимоий, маданий, маърифий ва жиҳатларни ўз ичига олади. Биз фақатгина иқтисодий жиҳатдан муҳим бўлган хусусиятлар хусусида тўхталамиз, булар куйидагилардир:

а) иш жойларини ташкил этишдаги мавқенинг юксалиши. Шу билан бирга оилавий тадбиркорлик томонидан ҳосил қилинган иш жойларининг ҳиссасини ортиб бориши:

- иш ҳақиға қўшимча тўловлар, имтиёзларнинг бир мунча пастлиги;
- иш жойларини қарийб 25 фоизи белгиланган иш куни тартибида шаклланади;
- уларда ишловчилар таркибининг турли-туманлиги;

б) янги товарлар ва хизматларни тадбиқ қилиш. Бу ўта муҳим кўрсаткич ҳисобланади;

в) йирик корхоналар эҳтиёжини қондириш. Йирик корхоналар маҳсулотини сотиш, уни бозор талаблари асосида шаклланишига кўмак беришда оилавий тадбиркорлик корхоналарнинг роли юқоридир. Ўз

навбатида йирик ривожланувчи фирмалар ўз иқтисодий стратегияларида майда таъминотчилар билан алоқа ўрнатишни самарали ҳисоблайдилар. Чунки улар мослашувчанлик хусусиятига эгадир. Йирик корхоналар учун бутловчи қисмлар ишлаб чиқаришда ҳам оилавий тадбиркорлик муҳим ўрин тутди. Масалан, Асакадаги автомобил ишлаб чиқариш корхонаси учун бутловчи қисмлар ишлаб чиқаришга оилавий тадбиркорлик фаолияти субъектлари мослашишлари мумкин;

г) махсус товарлар ва хизматлар билан таъминлаш вазифаси. Оилавий тадбиркорлик фаолияти субъектлари мижозларнинг ўзгача махсус эҳтиёжларини қондиришга етакчи ўрин эгаллайдилар. Чунки биринчидан, махсус талабнинг оммавий тусга эга эмаслиги ва унинг йирик ишлаб чиқаришда ташкил этиш самарали бўлмаслиги сабаб бўлса, иккинчидан эса, имконияти чекланмаган харидорларнинг “ўзига хос” истакларининг мавжудлигидир. бу истакларни қондиришда ҳам оилавий тадбиркорлик фаолияти муҳим ўрин тутди.

Мамлакатимиз иқтисодиётини модернизациялаш даврининг асосий масалаларидан бири – оилавий тадбиркорлик фаолиятининг самарали ташкил этишдир. Ҳозирги вақтда мамлакатимиздаги оилавий тадбиркорлик фаолиятининг таҳлили бу соҳани ривожлантириш йўлида қатор муаммолар ва масалалар мавжудлигини ва уларни тезликда ҳал қилиш заруриятини кўрсатди. Амалга оширилган назарий таҳлиллар натижасида қуйидаги йўналишларни белгилашни лозим деб топдик.

1. Оилавий тадбиркорлик субъектларини ишлаб чиқаришга йўналтириш, уларни маҳаллий ҳом-ашёдан самарали фойдаланишлари бўйича қатор ишларни амалга ошириш талаб этилади. Жумладан, саноатда фойдаланиладиган ҳом-ашё материалларини кичик бизнес субъектларида тайёр маҳсулот сифатида ишлаб чиқариш.

2. Оилавий тадбиркорлик субъектларини маҳаллий ҳом ашё ресурслари ҳақида тўлиқ маълумотларга эга бўлишлари учун уларни етарли ахборот ва маълумотлар билан таъминлаш, бошқарув ва ҳуқуқий билим савияларини

ошириш ҳамда уларни ишлаб чиқаришга йўналтиришдан иборат. Хусусий шахсларга ва ташкилотларга ишбилармонлик тартиб-қоидалари муаммолари бўйича консалтинг хизматларини таклиф қилиш катта аҳамиятга эгадир.

3. Оилавий тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш масалалари ҳамма вақт ҳам долзарб масалалардан бири бўлиб келган. Ҳар қандай ишлаб чиқаришда маҳсулот ишлаб чиқариш учун харажатлар сарфланади. Бундаги харажатларни катта ёки кичик бўлиши кўпга омилларга боғлиқдир. Ҳар бир маҳсулот тури турли усулларда, турли дастгоҳларда, турли хил маҳсулотлардан фойдаланилган ҳолда ишлаб чиқариш мумкин. Мана шу танловда энг самарали ва кам чиқинди, кам харажат қилинадиган йўлини танлаш самарадорликнинг ортишига сабаб бўлади. Амалга ошириладиган ушбу танлов маҳсулот сифатига таъсир этмаслиги лозим.

4. Ишлаб чиқариш соҳасида фаолият кўрсатаётган тадбиркорлар ҳамда кичик бизнес билан шуғулланаётган корхоналарда мавжуд иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигининг пастлиги сабабли, уларда маҳсулот ишлаб чиқариш таннархи ортиб кетмоқда, шунингдек ишлаб чиқарилган маҳсулот нархига таъсир кўрсатади. Таннарх ортиб борган сари нарх-навоси ҳам кўтарилиб боради. Бу эса бозордаги рақобат курашида устунликни қўлдан бой беришга сабаб бўлади. Тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган субъектларда фойдаланиладиган ҳар бир иқтисодий ресурсларнинг самаралилик даражасини ошириш, бир бирлик ресурсни ҳам чиқиндига чиқармаслик шароитларини яратиш лозим деб ҳисоблаймиз. Тадбиркорлик субъектларида фойдаланиладиган иқтисодий ресурсларнинг фойдаланиш даражасини ва самаралилик коэффициентини аниқлаш керак.

5. Иқтисодий модернизиациялаш, ишлаб чиқаришни техник ва технологик жиҳатдан янгилаш ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар ва хизматларнинг сифатига катта таъсир кўрсатади. Ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар ва хизматлар маълум даражадаги эҳтиёжни қондириши ҳамда белгиланган муддатгача ва ундан ортиқ муддатгача хизмат қилиши лозим.

Сифатли маҳсулот, уни ишлаб чиқарувчи учун ҳам, истеъмол қилувчи учун ҳам самарали ва фойдали бўлади. Оилавий тадбиркорлик фаолиятини такомиллаштиришнинг ушбу йўналишларини ҳаётга татбиқ этиш орқали мамлакатимиздаги тадбиркорлик субъектларининг муваффаиятли фаолиятини йўлга қўйиш мумкин ва бу орқали иқтисодиёт ривожига катта туртки беришга эришилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Махмудов Э.Х. Исаков М.Ю. «Корхона иқтисодиёти» (Ўқув қўлланма) - Т.: ТДИУ, 2006 й.
2. Хизрич. Р. , Питерс. М. Предпринимательство, или как завести собственное дело и добиться успеха. Москва, Прогресс, 1990 г.
3. Carlock, Randel S; Manfred Kets de Vries and Elizabeth Florency-Treacy (2007) “Family Business”. International Encyclopedia of Organization Studies.
4. Kachaner, Stalk, Bloch (November 2012). “What you can learn from Family Business. Harvard Business Review.”
5. Казаков О.С., Хурамова Х. Оилавий тадбиркорликни ташкил этиш ва ривожлантириш. Монография. – Наманган.: Наманган нашриёти, 2013 й.

## **МАҲАЛЛАДАРДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА КИЧИК БИЗНЕСИ СОҲАСИДА ИНВЕСТИЦИОН ИҚЛИМНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Турсунов Бобир Ортиқмирзаевич**

*И.ф.д., доцент, “Иқтисодий ҳавфсизлик”*

*кафедраси мудири, ТДИУ*

**Ашуоров Мухаммаджон Муродович**

*НамМТИ таянч докторанти*

**Ахмаджонов Фарходбек Акрамжон ўғли**

*НамМТИ таянч докторанти*

Мамлакатимизда амалга оширилаётган бозор муносабатларининг муваффақияти, энг аввало, мулкый муносабатларнинг ўзгариши, турли

хўжалик юритиш шакллари ривожланиши ва бунинг учун давлат бош ислохотчи сифатида иқтисодий имкониятлар яратиб бераётганлиги билан характерланади.

Республикада 2017 йилдан бошлаб бизнесни рўйхатга олиш осонлаштирилди. Натижада рўйхатга олинган тадбиркорлик субъектлари сони 2017 йилда 229,6 мингтани ташкил этган бўлса, 2022 йил сўнгига келганда 555,9 мингтага етди ёки 2017 йилдагига нисбатан 2,4 баробар кўпайди. Сўнгги йилларда республикада тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш борасида муҳим қадамлар қўйилди. Масалан, юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ ставкаси 2017 йилда 5 фоизни ташкил қилган бўлса, 2022 йилга келганда 1,5 фоизгача пасайтирилди. 2017 йилда солиқ турлари 13 та эди. Улар 9 тагача камайтирилди. 2017-2022 йиллар оралиғида солиқ текшируви турлари 10 тага қисқарди ва 13 тадан 3 тагача камайди. Маълумот учун, Солиқ кодексига кўра, солиқ органлари қуйидаги солиқ текширувларини ўтказди:

камерал солиқ текшируви;

сайёр солиқ текшируви;

солиқ аудити.

Қўшилган қиймат солиғи ставкаси 2016 йилда 20 фоизни ташкил этган бўлса, солиқ тизимида олиб борилган ислохотлар натижасида, 2023 йилнинг 1 январидан ҚҚС ставкаси 12 фоизга туширилди. 2022 йил якунларига кўра, худудларда фаолият кўрсатаётган кичик тадбиркорлик субъектлари сони 2017 йилдагига нисбатан Тошкент шаҳрида 2 баробар ортиб, 106 мингтага, Тошкент вилоятида 2,3 баробар ортиб, 49,1 мингтага, Самарқанд вилоятида 2,9 баробар ортиб, 47,9 мингтага етган. 2019 йил 24 октябрдаги “Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларни кредитлаш тартибини такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги президент қарорида белгиланган вазифаларнинг ҳаётга татбиқ этилиши туфайли 2018-2022 йиллар мобайнида оилавий корхоналар сони 2 баробар ошди. Натижада хусусий бизнес ва кичик тадбиркорлик субъектларининг экспортдаги улуши 29,5 фоизга етди. [1]

Республикамизда хунармандчиликни ривожлантириш учун барча шароитлар етарли. Кейинги пайтларда ички бозоримизда ҳам хунармандчилик маҳсулотларига талаб ошиб бормоқда, яъни сўнгги 8 йил ичида талаб 30% га ошган. Аммо биз хунармандчилик маҳсулотларини хорижга экспорт қилишни кенг йўлга қўйишимиз зарур.

Биздан хорижий мамлакатлар бу борада анча илгарилаб кетишган. Масалан, Аргентинанинг “Dinka” компанияси Аргентиналик хунармандларнинг ишлаб чиқарган маҳсулотлари учун хориждан харидорлар излаш билан ва маҳсулотларни етказиб бериш ва божхона расмиятчилиги билан шуғулланади, эвазига сотувдан фоиз олишади. Компания ташкил топиши билан қўшни Чили, Перу, Эквадор давлатлари дўконлари билан ҳамкорлик муносабатларини ўрнатган, кейин эса Техасдан дистрибьютор-компания билан шартнома имзолаган. Бугунги кунда эса Испания, Италия, Германия ва Швейцария давлатлари дўконлари билан ҳамкорликнинг янги имкониятларини излашмоқда. Компаниянинг йиллик айланмаси 1 млн. доллардан ошади.

Вьетнамда ҳам халқ хунармандчилигига алоҳида эътибор қаратилади. Масалан, 2003 йил Вьетнам халқ хунармандчилиги маҳсулотлари экспорт ҳажми бўйича дунёда 8-ўринни эгаллаган ва 367 млн. долларлик даромад қилинган.

Хитой ва Германия ҳам хунармандчилик маҳсулотлари экспорти билан кенг шуғулланади.

Демак, Республикамизда ҳам хунармандчилик маҳсулотларини хорижга экспорт қилишни кенг йўлга қўйишимиз керак.

Бозор иқтисодиёти шароитида юқори меҳнат унумдорлигига эга бўлган тадбиркорлик фаолиятини моддий қўллаб-қувватлаш ва ривожланишини таҳлил этиш услубиятини такомиллаштириш шахсда ишлаб чиқаришнинг эгаси ҳисси шаклланишини таъминлайди ва буларнинг барчаси меҳнатни ташкил этиш ва унга ҳақ тўлашнинг ижобий шакллларини қўллаш, моддий рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш билан ўзаро боғлиқ бўлади.

Тадбиркорлик фаолиятини моддий қўллаб-қувватлаш ўз-ўзидан маълумки, объектив жиҳатдан чекланган бўлади. Аммо у шундай шакллантирилиши ва таҳлил услубияти танланиши керакки, бозор иқтисодиёти шароитида ривожланишнинг ҳозирги босқичида жамиятнинг тамойиллари ва вазибаларига тўлиқ жавоб берадиган бўлсин.[2]

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ривожланишини ва самарадорлигини таҳлил этишнинг услубий жиҳатларини аниқлашда унинг аниқланиш мумкин бўлган мезонларини белгилаб олиш керак. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодий самарадорлиги мезонлари меҳнатига кўра ҳақ тўлашнинг самарадорлигини акс эттириши, ўсиб бораётган эҳтиёж, талаб ва таклифларни қондирадиган, характерлайдиган қонунларни амалга ошириши, меҳнатига кўра ҳақ тўлашнинг такомиллашуви жараёнида уларнинг ўзаро боғлиқлигини акс эттириши керак. Тадбиркорлик фаолиятининг иқтисодий самарадорлиги ишлаб чиқариш самарадорлигининг умумий мезонлари билан ўзаро боғлиқдир.[2]

Шу билан бирга, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини моддий қўллаб-қувватлашлар қанчалик мукамал бўлмасин, агар меҳнатга ҳақ тўлаш шартлари уни ташкил этиш, бошқариш ва хўжалик юритиш механизмининг бутун тизимини яхшилаш билан биргаликда бормаса кутилган самарани бермайди. Иш ҳақи кўринишида тадбиркорлик-ташаббускорлик фаолиятининг иқтисодий самарадорлигини оширишни ходимнинг қўшган меҳнат ҳиссаси билан боғлаш зарур. Табиийки, ишдаги камчиликлар ва йўл қўйилган хатолар учун тадбиркорнинг моддий ва маънавий жавобгарлигини ҳам ошириш керак, қайсики ҳозир бозор иқтисодиёти шароитида, хусусан, ушбу жиҳатларга қатъий эътибор бериш лозим.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг самарадорлигини баҳолаш услубиятида тадбиркорнинг салоҳиятини ва кредитни қайтариш қобилиятини таҳлил қилиш ҳамда корхонанинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш усуллари асосий ўринни эгаллайди.[3]

Тадбиркор фаолиятининг барча қирралари ҳар томонлама таҳлил қилиниши зарур. Бунда ички омиллар уларнинг назарий жиҳатдан мумкин бўлган ва амалдаги натижалари ҳамда йўқотишлар (мижознинг кучли ва заиф томонлари) йўналишида, ташқи шароитлар эса тадбиркор фаолиятига ижобий ёки салбий таъсир нуқтаи назаридан тадқиқ қилинади.

Ички омиллар қаторида қарздор молиясининг ташкил этилиши ва аҳволи, корхона раҳбарларининг тадбиркорлик малакаси, ходимлар таркиби, техника ва ундан фойдаланишнинг аҳволи, технология хусусияти, хом-ашё ва материалларни ҳисобга олиш, сақлаш ва ундан фойдаланишни ташкил этишга тегишли масалалар мажмуаси, маҳсулот таркиби, харид қилиш ва маҳсулот ўтказиш бозорлари хусусияти (жумладан, натурал айирбошлашнинг кенг тарқалгани), тадқиқотлар ва ишланмаларнинг аҳволи, корхона тузилмаси кўриб чиқилиши керак. Ташқи омиллар таркибида қарздор фаолият юритишининг ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, технологик ва юридик шарт-шароитлари таҳлил этилади.

Таҳлил давомида қарздор тадбиркор фаолиятининг турли соҳаларида рўй бераётган ўзгаришлар йўналиши ва ўсишини ўрганиш, ўз фаолиятини режалаштириш ва уни назорат қила олиш қобилиятини аниқлаш мақсадга мувофиқдир. Уни аниқлаш, аввало, қисқа муддатда фойда олишни режалаштириш ва пул маблағлари ҳаракатининг сифатини баҳолаш, мавжуд шарт-шароитлар ва олинган натижалар билан боғлиқ ҳолдаги фаолиятни ташкил этишда тегишли ўзгартиришлар кирита билиш қобилиятини баҳолаш орқали аниқланади.

Қарздор тадбиркор фаолиятини ташкил этишнинг анча узоқ келажакка мўлжалланган истиқболли лойиҳалари мавжудлиги, тадбиркорнинг лойиҳани амалга оширишга доир имкониятлари, кредит инвестиция сифатида берилаётган бўлса, кредит лойиҳаси бўйича тахминий рентабеллик даражаси таҳлил қилиниши керак. Мижознинг ликвидлилиги (умумий тўлов қобилияти) унинг фаолияти (капитали) манбалари ва маблағ жойлаштириш характери нуқтаи назаридан кўриб чиқилади. Бундай ҳолларда корхонанинг хўжалик



юритиш шарт-шароитлари, унинг ўз мажбуриятларини бажариш имкониятлари таҳлил этилади.

Бизнинг фикримизча, ялпи таҳлил қуйидагиларни қамраб олиши керак:

- бошқарув тизимини;
- ички омилларни;
- ташқи омилларни;
- ишлаб чиқариш шарт-шароитларини;
- баланс ва бошқа ҳисобот маълумотларининг характерини;
- индекслар ва нисбатларни таҳлил қилишни ўз ичига олади.

Молиявий таҳлилнинг асосий воситаси бўлғусида баҳоларнинг қандай бўлишини айтиб бериш учун нархларни чизма тасвир кўринишида келтириб ўтиш асосида хулосалаш ҳамда ушбу чизма тасвирларнинг ўзига хосликларини очиқ бериш ҳисобланади.[3]

Бозор иқтисодиёти шароитида тадбиркорлик фаолияти кенг миқёсда ривожланади. Тадбиркорлик фаолиятини кенг кўламда ривожланиши ва такомиллашиб бориши унинг моҳиятини ва асосий вазифалари доирасини кенгайиб бориши билан боғлиқ. Бу вазифаларни қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

- моддий ресурслар вазифаси, яъни ҳар қандай тадбиркорлик фаолияти объектив - омиллар, ишлаб чиқариш учун зарур бўлган хом-ашёлар ишлаб чиқариш воситлари ҳамда керакли ишлаб чиқариш кучлари билан таъминланиши лозим,

- ташкилотчилик вазифаси шундан иборатки, ишлаб чиқариш хом-ашёлари, ишлаб чиқариш воситаларини, ишлаб чиқариш кучларини шундай ҳолда шакллантириш керакки, унинг натижасида тадбиркор белгиланган ҳажмда маҳсулот ишлаб чиқариш даражасига ва белгиланган ҳажмда маҳсулот ишлаб чиқариш даражасига ва белгиланган миқдордаги даромадга эга бўлиши керак;

- ижодкорлик (яратувчилик) вазифаси бу асосан ишлаб чиқаришни ташкил этишда зарур бўлган ишлаб чиқариш воситаларини, ишлаб чиқаришга

унинг сифатини оширишга, ишлаб чиқариш ҳаражатларини камайтиришга ижодий ёндошуви фойданинг ўсишининг таъминлайди.

Худудларда хунармандчилик ва кичик бизнеси соҳасида инвестицион иқлимни баҳолаш учун “Худуд кичик тадбиркорлик рақобатбардошлиги салоҳиятининг индекси (IPK)” кўрсаткичи таклиф этилган бўлиб, у қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$IPK = \sqrt[3]{I_n \times I_f \times IRP \times IQP}, \quad (1)$$

Бу ерда  $I_n$  – инновацион салоҳият индекси;

$I_f$  – информацион салоҳият индекси;

$IRP$  – ресурс салоҳияти индекси;

$IQP$  – иқтисодий салоҳият индекси.

Индексни ҳисоблаб чиқиш учун локал индикаторлардан фойдаланилиб, уларни интеграция қилиниши натижасида худуд кичик тадбиркорлик рақобатбардошлиги салоҳияти аниқланади.

Ўз навбатида локал индекслар ўзида рақобатбардошлик салоҳияти индикаторига нисбат бўйича анчайин қуйи тартибли интеграциялашган кўрсаткичларни акс эттиради.

Шу билан бирга, худудларда маҳаллий хом ашёни қайта ишлашга ва тайёр рақобатга бардошли маҳсулот ишлаб чиқаришга йўналтирилган озиқ-овқат саноатини қайта ишлаш тармоқларининг кўп меҳнат талаб қиладиган соҳаларини жадал ривожлантириш аҳолининг бандлигини оширишда ҳамда хунармандчиликни ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш тармоғини ривожлантириш бу соҳада катта имкониятлар яратади. Худудларнинг қўлай иқлим шароити мева, сабзавот ва полиз экинларини катта миқдорда ва кенг ассортиментда етиштириш имконини беради. Бундай имконият, биринчидан, қишлоқ хўжалигида етиштириладиган маҳсулотларнинг, айниқса, тез бузиладиган ва ташиш қийин бўлган маҳсулотларнинг нобуд бўлишини қисқартиради, иккинчидан, маҳсулот сифатининг сақланишини таъминлайди, учинчидан, деҳқон, фермер хўжаликларининг маҳсулотни ташиш, сақлаш ва сотиш

харажатларини қисқартиради, тўртинчидан, аҳолининг иш билан бандлигини орттиради, даромадларини оширади, ишсизликни пасайтиради, бешинчидан, кишлоқ аҳолиси учун ўз яшаш жойида меҳнат қилишни яратади.

Таъкидлаш жоизки, касаначиликка асосланган сермеҳнат ишлаб чиқаришлар, халқ ҳунармандчилиги корхоналарини қуриш ҳам аҳолини иш билан таъминлашга ёрдам беради.

Фикримизча, маҳаллаларда ҳунармандчиликни янада ривожлантириш ва шу орқали аҳолининг иш билан бандлигини таъминлаш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

-ҳунармандчилик ва касаначилик фаолиятини ривожлантиришда илғор хорижий тажрибаларни, яъни телефон орқали уйда хизматлар бажариш, адвокатлик, дастурий маҳсулотлар яратишни ўрганиш ва жорий этиш;

-аҳоли ўртасида касаначилик фаолияти, унинг афзалликлари, касаначиликни ривожлантириш бўйича ҳукуратимиз томонидан берилган имтиёзлар, енгилликлар тўғрисида кенг тарғибот ишларини олиб бориш; омма ўртасида касаначилик имиджини ошириш;

-норасмий фаолият билан банд бўлган ҳунармандчилик ва касаначиларни расмий фаолиятга ўтказишга имкон берадиган иқтисодий механизмларни ишлаб чиқиш;

-ўзгарувчан бозор шароитларига мос янги товар ва хизматлар ишлаб чиқаришга ихтисослашган ҳунармандчилик фаолияти турларини ўзлаштириш.

Шу билан бир қаторда, маҳаллий ҳудудларнинг тарихий-маданий ва меъморчилик обидалари асосида туристик хизматларни, шунингдек қўшни мамлакатлар билан иқтисодий ҳамкорликни ва чегарабўйи савдосини ривожлантириш ҳам аҳолининг иш билан бандлик даражасининг ортишига ёрдам беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. <https://m.kun.uz/news/2023/02/17/xususiy-biznes-va-kichik-tadbirkorlik-subyektlarining-eksportdagi-ulushi-295-foizga-yetdi>.

2. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. “Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари”  
Т.: Мехнат, 2000
3. Ходиев Б.Ю ва бошқалар. “Кичик бизнесни бошқариш” Тошкент,  
Ўқитувчи, 2008 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари  
(2000-2015 йиллар).
5. <http://www.artcraft.uz/uz/content> «ХУНАРМАНД» УЮШМАСИ  
Наманган вилоят бошқармаси расмий сайти маълумотлари.

## **ОСНОВНЫЕ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ИХ ОСОБЕННОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Азларова Мунира Мухаммад-Амин кизи  
ТГЭУ  
[muniraazlarova75@gmail.com](mailto:muniraazlarova75@gmail.com)

Пищевая промышленность Узбекистана является одной из ключевых отраслей страны. Так, например, уголья под сельское хозяйство занимает в Узбекистане 45%, а в сельской местности проживает 50% населения.

В совокупности с водным и лесным хозяйством пищевая отрасль обеспечивает занятость 3,6 млн чел. (27% занятых по экономике в целом) и 18% ВВП. Экспорт сельскохозяйственной продукции приносит Республике Узбекистан около 20-25% совокупных экспортных доходов.

Наиболее мощный импульс к развитию предпринимательства в Узбекистане дала Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы. В рамках данной стратегии был разработан комплекс мер, состоящий из 42 конкретных мероприятий для развития малого бизнеса в республике. Среди них, такие меры, как:

- Ежегодное проведение «Открытого диалога» Президента Республики Узбекистан с предпринимателями;
- Создание в регионах 200 новых промышленных зон и развитие системы бизнес-инкубаторов. Создание более благоприятных условий для развития

предпринимательства в районах с «тяжелой» социально-экономической ситуацией;

- Развитие факторинговых услуг на основе передового зарубежного опыта;
- Снижение налоговой нагрузки на субъекты предпринимательства с 27,5 процента до 25 процентов к валовому внутреннему продукту к 2026 году;
- Поддержка предпринимательства, совершенствование деятельности структур в регионах по сокращению безработицы и бедности;
- Обеспечение свободного доступа к сведениям, необходимым для начала осуществления предпринимательской деятельности. Устранение проблем и недостатков в строительной сфере;
- Сокращение участия государства в экономике и расширение условий для развития частного сектора. Широкое внедрение принципов свободной рыночной экономики [1].

Также было принято Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полноценному обеспечению населения качественной продовольственной продукцией». Основанием принятия данного постановления было несоответствие качества продукции международным стандартам, а также увеличения объема переработки продукции мясной, плодовоовощной, сельскохозяйственной, молочной и другой продукции для повышения конкурентоспособности республики Узбекистан на внутреннем и внешнем рынках.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ЯИМ даги улуши 2022 йилда 51,2 фоизни ташкил этди. Бу секторда иш билан банд аҳолининг 74,4 фоизи меҳнат қилмоқда. Шу билан бирга кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг экспортдаги улуши 29,5 фозни ташкил этмоқда.

В результате принятых за последние годы мер в стране доля малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП в 2022 году составила 51,2 процента. В этом секторе занято 74,4% занятого населения. При этом доля

малого бизнеса и частного предпринимательства в экспорте составляет 29,5 процента.

Для достижения поставленных целей, на Министерство сельского хозяйства республики Узбекистан были возложены следующие задачи:

- принять участие в организации взаимовыгодных отношений между производителями сельскохозяйственной, плодоовощной, молочной и мясной продукции и предприятиями, перерабатывающими её;

- повышение конкурентоспособности отечественной продукции и разработка стратегии пищевой промышленности на основе имеющихся природных и экономических ресурсов;

- создание новых информационных систем по поддержке отечественных предприятий, занимающихся переработкой, заготовкой и реализации продукции;

- проведение анализа и прогнозирования иностранных инвестиционных потоков и разработка соответствующих предложений по инвестициям;

- создание современных логистических и торговых центров для продвижения отечественной продукции на мировой рынок, сокращение импорта, расширение торгового потенциала республики Узбекистан.

Также для реализации данного Постановления, был определен размер его финансирования:

- покрытие 50 процентов затрат на подготовку технико-экономического обоснования формируемых новых перспективных проектов по производству продовольственной продукции в размере, не превышающем 100 миллионов сумов на каждый проект;

- покрытие 50 процентов затрат на обеспечение инфраструктурой формируемых новых перспективных проектов по производству продовольственной продукции в размере, не превышающем 100 миллионов сумов на каждый проект;

- покрытие 50 процентов затрат на привлечение зарубежных экспертов в сферу производства и глубокой переработки продовольственной продукции в размере, не превышающем 50 миллионов сумов на каждый проект.

Министерству сельского хозяйства совместно с Министерством финансов, Министерством экономического развития и сокращения бедности было поручено обеспечить:

- **Harakat (action)** – mahsulotni sinab ko'rish va davomli foydalanishga undash zarur.

Maqsadli bozorda iste'molchilar qanday bosqichda ekanligini aniqlash kerak bo'ladi va shunga mos ravishda iste'molchilar saviyasini yuqoriroq bosqichga o'tkazishga harakat qilinadi hamda reklama byudjeti ko'zlangan maqsadlarga qarab belgilanadi[8]. Agar mablag'lar hajmi cheklangan bo'lsa, bunda maqsadlarni shunga mos holda tanlashga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarining reklama faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida xaridorlarni jalb qilish, ularning ishonchini orttirish hamda ularni saqlab qolish maqsadida AIDA modelini shakllantirish ijobiy natijalarga erishishga sababchi bo'ladi.

Savdo korxonalarida reklama faoliyatini qo'llash rivojlanayotgan marketing sohasidagi tadbirkorlik faoliyati bo'lib[2], reklama faoliyati pullik ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan, moliyalashtirish manbasi aniq belgilanadigan aloqa shakli sifatida amalga oshiriladi.

Savdoda reklamadan foydalanish tadbirkorlar o'zlarining maqsadli auditoriyasidan sotishni yaratish uchun o'z mahsulotlariga qiziqish va xabardorlikni oshirish uchun reklamadan (onlayn va oflayn) foydalanish jarayonidir[5]. Reklama orqali tadbirkor o'z auditoriyasiga ma'lum bir harakatni amalga oshirishga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi[6]. Reklama aylanmani tezlashtiradi, o'lik zaxiralar xavfini kamaytiradi va umumiy xarajatlarni mutanosib ravishda kamaytirishga olib keladi.

Savdo korxonalarining reklama faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida reklama vositalarini to'g'ri tanlash va foydalanishda iste'molchilarning yoshi, jinsi,



yashash joyi hamda daromadi kabi asosiy ko'rsatkichlarni inobatga olish orqali reklama vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

Bugungi rivojlangan axborot texnologiyalari davrida raqamli texnologiyalarni doimiy to'g'ri foydalangan har bir tadbirkor yuksak marralarga erishmoqda[10]. Yurtimizda savdo-sotiq takomillashgani sari, reklama faoliyati ham jadal rivojlanmoqda va turli ko'rinishlardagi shakllari ko'payib bormoqda, shu sababli reklama beruvchilar birgina axborot kanalidan foydalansa ham, ularning ixtiyorida reklama uslublarining keng assortimenti mavjuddir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
2. Карпова, С. В. Маркетинговый анализ. Теория и практика : учебное пособие для вузов / С. В. Карпова, С. В. Мхитарян, В. Н. Русин ; под общей редакцией С. В. Карповой. - Москва: Издательство Юрайт, 2021. - 181 с.
3. Овсянников, А. А. Современный маркетинг. В 2 ч. Часть 1: учебник и практикум для вузов / А. А. Овсянников. - Москва: Издательство Юрайт, 2021. - 374 с.
4. Audrezet, A., G. De Kerviler, and J. Guidry Moulard. 2020. Authenticity under threat: When social media influencers need to go beyond self-presentation. *Journal of Business Research* 117:557–69. doi:10.1016/j.jbusres.2018.07.008
5. Baek, T. H., and M. Morimoto. 2012. Stay away from me. *Journal of Advertising* 41 (1):59–76. doi:10.2753/JOA0091-3367410105
6. Borau, S., and M. V. Nepomuceno. 2019. The self-deceived consumer: women's emotional and attitudinal reactions to the airbrushed thin ideal in the absence versus presence of disclaimers. *Journal of Business Ethics* 154 (2): 325–40
7. Dessart, L., and V. Pitardi. 2019. How stories generate consumer engagement: An exploratory study. *Journal of Business Research* 104:183–95. doi:10.1016/j.jbusres.2019. 06.045

8. Hennig-Thurau T., and M. B. Houston. 2019. Entertainment communication decisions, episode 1: Paid and owned channels. In Entertainment Science, 523–86. Springer. [https://doi.org/10.1007/978-3-319-89292-4\\_11](https://doi.org/10.1007/978-3-319-89292-4_11)
9. Hill, R. P., and E. Sharma. 2020. Consumer vulnerability. *Journal of Consumer Psychology* 30(3): 551–570.
10. Rosengren, S., M. Eisend, S. Koslow, and M. Dahlen. 2020. A meta-analysis of when and how advertising creativity works. *Journal of Marketing* 84 (6):39–56. doi:10.1177/0022242920929288

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI  
DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA  
UNI TARTIBGA SOLISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

**Komila Suyunova**

**Feruza Ibrohimova**

**Toshkent davlat agrar universiteti talabalari**

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz Prezidentligiga saylangandan keyin “O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” nomli ulug‘vor va keng qamrovli chora-tadbirlardan iborat hujjat ishlab chiqqan edi. Mazkur strategiyani hayotga tatbiq etish davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilib, jamiyatimiz, xalqimizni butunlay o‘zgartirib yubordi.

2022 yilning 20-oktabr kuni “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida Yoshlar bilan mahallabay ishlash va tadbirlar bo‘limi tomonidan talabalari uchun “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ga bag‘ishlab tadbir



o‘tkazildi. Yoshlar bilan mahallabay ishlash va tadbirlar bo‘limi boshlig‘i N.Abduvaxidova “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” mavzusidagi prezentaziyada:

Harakatlar strategiyasi doirasida, avvalo, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat tashkilotlarining faoliyati, mas‘uliyati va shaffofligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish borasida ulkan tadbirlar amalga oshirildi.

Haqiqiy bozor iqtisodiyotini barpo etish maqsadida tashqi savdo, soliq va moliya siyosati liberallashtirildi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash tizimi yaratildi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirish ta‘minlandi.

Aholi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olinib, yangi va munosib ish o‘rinlari yaratish, aholini malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash holati yaxshilandi.

Muxtasar aytganda, 2017–2021 yillar mobaynida amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi natijasida yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi.

Natijada mamlakatimizda jamiyatimiz rivojining keyingi bosqichiga o‘tish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Ya‘ni, xalqimiz turmush darajasini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoq va sohalarini transformatsiya qilish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari, manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlangani tog‘risidagi ma‘lumotlarni aytib o‘tdi .

Taraqqiyot strategiyasi 2021 yilda o‘tkazilgan Prezident saylovida Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Inson qadri uchun”, “Davlat – inson uchun”, degan g‘oyalar

hamda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”, tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘tgan davr mobaynida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi va unda bildirilgan 17 ming 500 dan ortiq taklif va tavsiyalar e‘tiborga olinganini ta’kidladi.

Hulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Harakatlar strategiyasi doirasida, avvalo, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat tashkilotlarining faoliyati, ommaviy axborot vositalarining shaffofligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari borasida ulkan tadbirlar va ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Aholi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib yoshlarni ish bilan ta‘minlash hamda malakaliy ta‘lim tizimini yaxshilashga erishildi.

#### **Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://univ-silkroad.uz> “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”

#### **MAHALLALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY, IQTISODIY VA MOTIVATSIYAVIY OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Gaziyev Jamshid Maxkamovich**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,**

**magistranti MMNP-11-guruh**

[mr.jmgaziev@gmail.com](mailto:mr.jmgaziev@gmail.com)

**Annotatsiya:**Maqolada, tadbirkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uni boshqarish jarayonida uchraydigan turli to‘siq va muammolarni bartaraf etish hamda foyda olish maqsadida barcha imkoniyatlari shuningdek, faoliyat yuritishdagi talablarni ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, Tadbirkorlik faoliyati bu jamiyatda iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xos bir turi ekanligi, uning negizida tadbirkorning mustaqil tashabbusi, mas’uliyati, ijodkorligi, o‘z g‘oyasiga asoslangan hamda foyda olishga qaratilgan maqsad sari undovchi omillar tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini MOTIVATSIYAVIY omillar orqali tushuntirib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy-iqtisodiy holat, raqobat, tadbirkor, tadbirkorlik, kapital egasi, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, huquqiy mexanizm, motivatsiya tushunchasi.

**Kirish.** Oʻzbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivoji, kambagʻallik darajasini pasaytirish uchun ijtimoiy, moliyaviy iqtisodiy shart-sharoit yaratish, ularni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash boʻyicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ishlarni nafaqat jadal ravishda amalga oshirishda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini tahlil qilish, unga taʼsir qiluvchi motivatsion omillar taʼsirini oshirishda, zamonaviy talablar asosida ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan qayta koʻrib chiqish, hamda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar qamrovini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda roʻy beradigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar asosan aholi oʻrtasida paydo boʻlishi, yaʼni, buning tub sabablaridan biri aholi real daromadlarining pasayishi va ishsizlikning koʻpayishi oqibatida yuzaga keladi. Bu jarayonda muammolarning yechimini topishda tadbirkorlik faoliyatini toʻgʻri tashkil qilinishi va rivojlantirish orqali muammolarni yumshatish yoki bartaraf qilishga imkon tugʻiladi.

Har bir mahallada tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish borasida oʻziga xos toʻplangan uzoq yillik tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ammo, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish ham boshqarish ham murakkab kechadi va buni tartibga solish hamda rivojlantirish tadbirkorning faqat oʻziga bogʻliq boʻlmaydi. Bunda turli taʼsir etuvchi omillar va rivojlantirishga koʻmaklashuvchi omillar ham ishtirok etadi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda turli mulkchilik munosabatlarning shakllanishi, shu bilan birga xoʻjalik yurituvchi subyektlar oʻrtasida mulkdorlarning oʻrta sinfini shakllanishi, aholi ehtiyojlarini taʼminlash uchun ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan toʻldirish vazifalarining mavjudligi,

aholi bandligini oshirish maqsadida yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda farovonligini oshirishning muhim omili sifatida yurtimiz taraqqiyoti yo‘lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yana-da rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bular quyidagilar iborat:

-mamlakatda qulay biznes-muhit yaratish, qonun hujjatlarini takomillashtirish, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash;

-davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yana-da qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berish mexanizmini yana-da soddalashtirish;

-kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni keng jalb etish;

-sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish.

Yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarning tub maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi muammolarni hal qilishga, faoliyat yuritish jarayonidagi to‘siqlarni bartaraf etishga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonini yaxshilashga, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, tadbirkorlik faoliyati natijasida yaratilgan mahsulot va xizmatlarni eksport qilishga, tadbirkorlik faoliyatini axborot bilan ta‘minlash pirovardida har bir mahallada tadbirkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli

chora-tadbirlar bilan bir qatorda muammolar va masalalar ham mavjud. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilisha aholida kerakli bilim ko'nikmalarni shakllanmaganligi;

tadbirkorlik subyektlarida marketing, menejment tizimini keng joriy etilmaganligi;

tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida innovatsion texnologiyalarning, g'oyalarning yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi;

milliy standartlarning xalqaro standartlarga nomuvofiqligi;

mahsulotlarni tekshirish uchun sinov laboratoriyalarining yetarli emasligi.

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning asosiy qismi faoliyatni boshqaruv jarayonida motivatsiyaviy omillardan foydalanmaslik va uni boshqaruv jarayonida keng qo'llanilmasligi hamda tadbirkor kerakli me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmuniga tushunmasligi sabab bo'lmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiyva huquqiy motivatsiyaviy omillari quyidagilardan iborat:

Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish usullarini ishlab chiqish;

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda innovatsion faoliyatni takomillashtirish;

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi tashqi hamkorlar bilan munosabatlarni yaxshilash;

Tadbirkorning fikrlash natijalarini moddiy shaklga o'tishi bu tadbirkor o'z faoliyatida yangiliklarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilish orqali, mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirgan holda korxonani ishlab chiqarish tarkibida tub o'zgarishlar sodir bo'lishi tadbirkordan ijodkorlikni talab etadi (1- rasm).


Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy motivatsiyaviy omillari quyidagilardan tashkil topgan bo'lib, ularni mahalla kesimida joriy qilinishi maqsadga muvofiq:

Tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda moliyaviy institutlarning rolini oshirish;

Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish va soliq yukini yana-da kamaytirish va rag‘batlantirish;

Tadbirkorlik faoliyati jarayonida iqtisodiy maslahat xizmatlari faoliyatini rivojlantirish.



**Xulosa.** Hozirda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda motivatsiyaviy omillardan foydalanishni to‘g‘ri tashkil qilishda boshqaruvchi menejerlarning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan, zamonaviy boshqaruvni shakllantirishda boshqaruvchiga ishni to‘g‘ri tashkil qilish bilan bir qatorda motivatsiyaviy omillardan foydalangan holda boshqaruvni samarali tashkil etish muhimdir:

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari faoliyatini turli risklardan himoya qilish mexanizmini takomillashtirish, bunda tadbirkorlik faoliyatida uchraydigan iqtisodiy xavflarni aniqlash, ularni baholash hamda ulardan himoya qilish choralarini ko‘rish.



Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga doir soha mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish, ishlab chiqarishni – ta'lim bilan bevosita bog'lash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishda innovatsion faollikni oshirish.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi subyektlarni marketing va menejment sohalariga oid iqtisodiy bilimlarini oshirish dasturlarini ishlab chiqish.

To'rtinchidan, muntazam ravishda har bir mahallada yoshlar va tadbirkorlar uchrashuvlarini tashkil qilish.

Beshinchidan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagidan bo'lgan shaxslarga yaqindan ko'maklashish maqsadida mahallaning o'zida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yana-da takomillashtirish.

Oltinchidan, soliq yukini mahallalarning iqtisodiy holati va joylashuvidan kelib chiqib, belgilash hamda soliqni yukini tabaqalashtirish jarayonlarini soddalashtirish.

Yettinchidan, mahallarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishda mahallaning o'ziga xosligini inobatga olgan holda ma'lum bir tadbirkorlik yo'nalishlarini amalga oshirishni rag'batlantirishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni joriy qilish.

Xulosa o'rnida aytish joizki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy motivatsiyaviy omillaridan to'g'ri foydalanish faoliyatning boshqaruviga ijobiy jihatdan ko'mak bersa, bir tomondan iqtisodiy samaradorlikni oshishiga, tadbirkorning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilinishiga aholida tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini yana-da kengayishiga, har bir mahallada tadbirkorlik jarayonlarini tashkil qilishda muhim zamin yaratib beradi.

## **O'ZBEKISTONDA TADBIRKOR AYOLLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TADQIQOTLAR**

**Sharopova Nafosat Radjabovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası dotsenti v.b., PhD

[nafosat.sharopova@mail.ru](mailto:nafosat.sharopova@mail.ru)

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, turmush farovonligini yuksaltirishga imkon yaratadi. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka yanada ko'proq jalb etish mamlakatimizda kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga yana bir turtki bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son farmoni<sup>23</sup> va "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarorlarida<sup>24</sup> xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, ularning tadbirkorlik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha horijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida ayollar boshchiligidagi biznes ijobiy natijalarga erishmoqda. Ayrim mamlakatlarda ayollar boshchiligidagi kompaniyalar yalpi ichki mahsulotning 50-60 foizini tashkil qiladi. Masalan, Germaniya va AQShda bunday korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50-52%, Yaponiyada

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son farmoni <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

<sup>24</sup> "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarori, 2021 yil 5-mart.

55%, Italiyada 60%<sup>25</sup>. Shu sababli, aksariyat ayollar tadbirkorligiga oid ilmiy izlanishlar faqat rivojlangan mamlakatlarning olimlari tomonidan chuqur o'rganib kelinayotganligini ko'rish mumkin. Ushbu tadqiqotlar rivojlanayotgan davlatlarning umumiy xususiyati bo'lgan siyosiy tartibsizliklar ushbu mintaqadagi kichik biznesdagi ayollar tajribasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini aniqlashga qaratilgan<sup>26</sup>.

Yu Liu va boshqalar tomonidan 24 ta davlatlar misolida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollar boshchiligidagi korxonalar pandemiya davrida erkaklar boshqaradigan korxonalarga qaraganda yopilish ehtimoli yuqori bo'lgan ekan<sup>27</sup>. Demak, ayollar biznes rahbarlari ham erkaklar biznes rahbarlaridan ko'ra kelajakka ko'proq umidsizlik bilan qarashar ekan. J.Sharafizadning ta'kidlashicha<sup>28</sup>, kichik biznes egalari ayollarga mo'ljallangan arzonroq va moslashuvchan norasmiy kurslarni taklif qilishlari, sanoat hamkorlari bilan hamkorlik qilish orqali o'zlarining biznes kurslariga murabbiylik yordamini ko'rsatish uchun sanoat bo'yicha tajribasi bo'lgan o'qituvchilarni tayinlashlari lozim.

Olsson va Bernhardlar kichik biznesdagi tadbirkor ayollarning raqamlashtirish bilan bog'liq qanday muammolarga duch kelishi hamda kichik biznesda tadbirkor ayollarga oid tadqiqotlarning nazariy asoslari va raqamlashtirish ko'nikmalaridan foydalanish orqali biznesda ijtimoiy mediadan samarali foydalanish masalalarini o'rganishdi<sup>29</sup>. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqobatbardosh bo'lish va biznes o'sishi uchun tadbirkor ayollar doimiy ravishda raqamlashtirishga doir yangi ko'nikmalarni o'rganishlari lozim. Tadbirkor ayollar ijtimoiy tarmoqlar (social media)dan faol foydalanishadi, lekin yuqori

---

<sup>25</sup> <https://plus.rbc.ru/news/5dda0b867a8aa967dba741ba>

<sup>26</sup> [Jaim, J.](#) (2022), "Problems of political unrest: women in small businesses in Bangladesh", [New England Journal of Entrepreneurship](#), Vol. 25 No. 1, pp. 48-69. <https://doi.org/10.1108/NEJE-01-2021-0004>

<sup>27</sup> Yu Liu, Siqi Wei, Jian Xu. COVID-19 and Women-Led Businesses around the World. Finance Research Letters, Volume 43, 2021, <https://doi.org/10.1016/j.frl.2021.102012>.

<sup>28</sup> [Sharafizad, J.](#) (2018), "Informal learning of women small business owners", [Education+Training](#), Vol. 60 No. 1, pp. 82-103. <https://doi.org/10.1108/ET-01-2017-0006>

<sup>29</sup> [Olsson, A.K.](#) and [Bernhard, I.](#) (2021), "Keeping up the pace of digitalization in small businesses—Women entrepreneurs' knowledge and use of social media", [International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research](#), Vol. 27 No. 2, pp. 378-396. <https://doi.org/10.1108/IJEER-10-2019-0615>

samaradorlikka erisha olmas ekanlar. Chunki, ular asosan reklama qilish uchun undan foydalanishar va ularning biznesda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qaroriga ularning oila a'zolari va do'stlar kabi tashqi omillar ko'proq ta'sir ko'rsatar ekan<sup>30</sup>. An'anaviy marketing vositalari bilan birgalikda ijtimoiy media marketinggi va raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish mijozlarning faolligini oshirish va biznes samaradorligini oshishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda tadbirkor ayollar duch kelayotgan **muhim muammolar** sifatida moliyaviy cheklovlar, keskin raqobat muhiti, xom ashyo tanqisligi, oiladagi ayollarning mas'uliyati, ta'lim olishdagi cheklovlar, ijtimoiy munosabatlar (gendir tengligi muammolari), tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayollarga nisbatan ba'zi qoloq qarashlar yoki salbiy munosabatlarni sanab o'tish mumkin. Shuningdek, tadbirkorlik favoliyatini boshlash va uni samarali yuritish uchun infratuzilma ob'ektlarining yo'qligi, ayrim hududlarda gaz va elektr energiyasi taqchilligi, turli nazorat kengashlaridan litsenziya olishdagi qiyinchilik va boshqa qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tadbirkor ayollarga to'siq bo'lmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

**1. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish.** Ushbu soha ayollarga yuqori texnologiyali sohalarni o'zlashtirish uchun yanada ko'proq imkoniyatlar beradi.

**2. Xom ashyo yetkazib berish.** Imkon qadar, mahalliy hokimiyat organlari tadbirkor ayollarga xom ashyo yetkazib berish uchun soliq imtiyozlari berish va hukumat xom ashyoni minimal narxda yetkazib berish bo'yicha tegishli choralar ko'rish.

**3. Kooperativ ayollar marketing jamiyatlarini tuzish.** Ushbu jamiyatlar tadbirkor ayollar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yig'ib, raqobatbardosh narxlarda sotishlari mumkin.

---

<sup>30</sup> [Fatima, N.](#) and [Ali, R.](#) (2022), "How businesswomen engage customers on social media?", *Spanish Journal of Marketing - ESIC*, Vol. ahead-of-print No. ahead-of-print. <https://doi.org/10.1108/SJME-09-2021-0172>

#### **4. Ta'lim va treninglar tashkil etish.**

#### **5. Oilaviy qo'llab quvvatlash zarur.**

**6. Jamiyatning yordami.** Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida xotin-qizlarning rolini oshirish uchun jamiyatdagilarning tadbirkor ayollarga nisbatan salbiy munosabatlarini o'zgartirishga erishish lozim.

**7. Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash.** Hukumat tomonidan yangi tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan tadbirkor ayollarga asosan infratuzilma ob'ektlari, xom ashyo, soliq va bojxona bo'yicha maxsus imtiyozlar berish, shuningdek, tadbirkor ayollarga maxsus grantlar va subsidiyalar berish hajmini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning tadbirkorlik yoki biznesni boshqarish kabi sohalarga kirib borishi jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ayollar o'z mavqeini hurmat qilsalar, o'z kar'eralarini yaratib, uni ushlab qolsalar hamda biznes va iqtisodiyotda mustaqil bo'lishni o'rgansalar bu o'z navbatida kelajakda jamiyatda ayollarga nisbatan zo'ravonlik, go'daklar o'limi, mahr va jinsga bog'liq nomutanosibliklar kabi muammolarga chek qo'yilishi va butunlay yo'q bo'lib ketishiga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ayollarning oila daromadiga ijobiy hissa qo'shishi qishloq joylaridagi ayollar imidjini o'zgartirishi mumkin. Bu ko'plab qishloq oilalarining qiz bolalarini o'qishga yuborishga olib kelishi mumkin. Bu kelajak avlodning o'sishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Oilaning asosiy bo'lagi bo'lganligi sababli, madaniyat va oilaviy qadriyatlar kabi jihatlar jamiyatdagi ayollar tomonidan ham shaxsiy ham professional darajada yaxshi targ'ib qilinadi.

## METHODOLOGICAL ASPECTS FOR INCREASING ASSETS OF COMMERCIAL BANKS

**Khasanboy Rakhmatov**

D.Sc., Deputy Chairman of the Board  
of the Aloqabank, Tashkent city,  
Republic of Uzbekistan

***Аннотация.** В статье исследованы механизмы внедрения зарубежного опыта в формировании портфеля банковских активов в национальных банках, направления совершенствования концепции построения здорового банковского портфеля в национальной экономике, перспективы развития риск-ориентированного контроля над эффективностью активов в стране. коммерческие банки.*

***Ключевые слова:** банк, риск, механизм, национальная экономика, банковский портфель, качество активов, банковская система.*

***Abstract.** In this article investigated mechanisms of implementation of foreign practices in the formation of a portfolio of bank assets in national banks, areas for improving the concept of building a healthy banking portfolio in the national economy, prospects for developing risk-based control over asset efficiency in commercial banks.*

***Keywords:** bank, risk, mechanism, national economy, banking portfolio, asset quality, banking system.*

In 2010 year commercial banks began to act, first of all, as specific credit institutions, which, on the one hand, attract temporarily free funds from the economy, and on the other hand, satisfy the financial needs of enterprises, private entrepreneurship and the population at the expense of attracted funds.

In recent years, in the republic, as in the world banking practice in general, international and domestic experts have noted the presence of the main tendency - a departure from specialization and deepening of the universalization of banking activities. This predetermines the very content of the bank's operations and the essence of credit relations.

The strategy is aimed at increasing efficiency, ensuring financial stability, reducing the state share in the banking sector, as well as increasing the availability and quality of financial services. As a result of the ongoing reforms, it is planned to achieve the following indicators by 2025:

- increasing the share of banks' assets without the state's share in the total assets of the banking system from the current 15% to 60%;
- increasing the share of banks' liabilities to the private sector in the total volume of liabilities from the current 28% to 70%;
- attracting at least three strategic foreign investors with appropriate experience, knowledge and reputation in the authorized capital of at least three banks with state shares;
- an increase in the share of non-bank credit institutions in the total volume of lending from the current 0.35% to 4%.

The banking legislation of the Republic of Uzbekistan stipulates that “assets of commercial banks - credit, microcredit, overdraft, leasing, factoring, securities, investments, funds in other banks, accrued interest-free income, other private property of the bank, property sold in installments, off-balance sheet items (irrecoverable) credit liabilities, unused credit lines, letters of credit, guarantees) and all other requirements, except for accrued interest. The existence of an asset-related relationship gives rise to asset transactions. In our opinion, increasing the efficiency of bank assets is a matter of development not only of the banking system, but of the economy as a whole. In this process, the decline in asset efficiency in commercial banks can lead to a lack of resources in correspondent accounts, a decline in the bank's position in the financial market, increased customer distrust and dissatisfaction with the bank.

An increase in the level of impairment of assets in banks leads to a decrease in production rates in various sectors of the economy, which in turn leads to an increase in unemployment. In addition, the effects of the global financial and economic crisis show that the negative effects of the economic crisis on banking practices are not

limited to a particular country or region, but cause serious problems in the global economy as a whole.

Therefore, in the framework of our research, the following important areas of the methodological framework for the effectiveness of banking operations were identified:

1. Clarification of the main criteria, requirements and indicators that determine the effectiveness of the Bank's active operations;
2. Systematization, assessment of problematic aspects and factors that hinder the effectiveness of the Bank's active operations and ways to overcome them;
3. The importance of ensuring the effectiveness of the bank's active operations at the macro and micro levels, highlighting the socio-economic basis;
4. Defining the basic principles of ensuring the effectiveness of the bank's active operations and determining the conditions for their implementation;
5. Systematization of measures, methods and tools and approaches to assess the effectiveness of banking operations through the study of foreign experience in banking.

In the course of our research, it was expedient to study the general aspects of the methodological basis of the effectiveness of banking operations, to classify "banking assets" and "banking assets operations" as the main criteria for determining the effectiveness of banking operations, to clarify the concept of "efficiency of banking assets". In this regard, economists of the country are divided into groups according to the characteristics of the assets of commercial banks, the level of liquidity and risk, as well as income. [3]

In our opinion, an individual approach to addressing these issues will help to determine the real value of the assets of commercial banks and to develop a comprehensive mechanism to reduce the volume of problem assets.

In particular, today in the practice of banks the importance of assessing the financial condition of the bank by means of stress tests on the basis of the recommendations of the Basel Committee on Banking Supervision is growing. This method allows to determine the significant impact of factors such as liquidity level,



operating activity, market value, management and risk assessment system on asset efficiency.

Various imbalances in the efficiency of international banking assets are leading to a crisis in the international banking sector and a slowdown in international economic growth. This, in turn, has led to a decline in production in a number of developed countries, rising unemployment and bankruptcy of banks. In this context, the study of the mechanisms of the banking system at the international level, the study of the principles of formation and distribution of international banking assets is one of the urgent issues.[1]

In this regard, the study of the domestic financial market of Uzbekistan shows that the local market capacity is small and the local capital market is underdeveloped and there is no active market in the country to provide private sector speculative debt. Due to the high level of government participation, lack of transparency and inequality in law enforcement, the risk of investing in the banking system and in the country is high. The low purchasing power of the population significantly limits the opportunities to attract liabilities and develop banking products. There is a low level of compliance with international requirements, including compliance system, financial reporting and corporate governance standards. Lending practices and underwriting standards in Uzbekistan lag behind world standards. The state often interferes in the lending decision-making process. The central bank decided to increase the transparency of the system, including recommendations to reduce tariffs and abolish commissions for a number of banking services. Introduction of new standards aimed at improving the financial stability of financial institutions, improving the system of guaranteeing deposits. Liberalization of monetary policy and improvement of inflation targeting in order to reduce the shocks of the banking system to investments and increase their attractiveness. Another problem is the lack of cooperation between banks and government agencies on products.

Improving these processes is based on a number of factors: a gradual transition from existing models in the world experience (high level of public sector participation) to the distribution of financial flows through development institutions,

privatization and more complete liberalization of the banking system. The Russian experience can be cited. In Japan and Singapore, private and independent banks, including public projects, are implemented in development institutions.

The analysis shows that in 2018 in our country the number of users of remote services to bank accounts increased, almost 3 times among legal entities and individual entrepreneurs, and 4.3 times by individuals. Due to the development of infrastructure, the spread of banking services is gradually growing, but a large part of the population is still not provided with basic banking products.[2]

In order to solve the above tasks, it is necessary to expand the range of banking products and establish quality services to the population with the effective use of modern software. A study of the experience of developed countries shows that today commercial banks have been operating for several years on the basis of modern innovative software and special platforms in the system.[3]

"Artificial intelligence" and digital technologies are widely used to further improve the banking business, small and large financial technology companies to improve customer service. New competitors have begun to threaten old financial institutions of all sizes, while many new technologies are also creating great opportunities.

Indeed, organizations that use big data, advanced analytics, and new technologies to improve their customer service experience need to build and provide trust, transparency, and revenue, which are key to future success. Today, "the introduction of modern FinTech and blockchain technologies in the market of banking services opens up many opportunities for the development of financial services."

According to a study by the European Corporation for Information Technology, there are four transformational challenges and opportunities for the future of the bank over the next 5 years, including meeting the broad needs of customers; price optimization, in which, due to the effectiveness of digital competition, banks and credit unions should consider separation from non-governmental operations and the use of intelligent automation; create new revenue streams; the development of

security and coordination systems can reduce these costs and lead to business growth. [4]

In the Innovation in Retail Banking [6] report, 2018 commercial banks now need to focus on increasing digitalization and innovation initiatives, using cloud technologies such as Cloud technologies, advanced analytics and new distribution alternatives to meet consumer demand. Innovative technologies in the banking sector will be the driving force in the future, they will be able to redefine themselves to be more competitive in the market and meet market needs. The European Corporation for Information Technology has developed a very useful Global Banking Technology Radar that takes into account the business impact of technologies and the timing of integration over the next five years. Also, according to IBM (International Business Machines), international business operators have entered the banking industry with cloud (hybrid cloud) accounts, and most banks are looking for the optimal mix of traditional IT, public and private clouds. Another area is the implementation of banking services based on this open platform software. The combination of banks and API (Application programming interface - software) changes the entire banking ecosystem, products and services, the types of transmission networks services used in shaping future innovation and customer experience.

The study of the advantages of the above technologies, their gradual introduction and use in the banking activities of the republic is important in improving the efficiency of the industry and is consistent with the goals and objectives of the study. Therefore, it will be necessary to introduce modern banking practices and standards, including the regular introduction of modern information and communication systems, the transition to digital banking and full liberalization of the banking sector.[5]

Our research shows that the problem of diversification of bank assets is not only in the microeconomic context, but also in general economic issues. First, the optimal diversification of bank assets will ensure the efficient use of monetary resources by businesses in the economy. Second, the diversification strategy reduces

the risk exposure of the asset portfolio, resulting in the possibility of financial losses of the bank. Third, the bank's intersectoral financing serves to ensure the regional balance of economic growth.

The dissertation examines the impact of macro- and micro-level factors on the efficiency of assets of commercial banks and analyzes their correlation. The collected data were analyzed on the basis of special indicators, including panel data, in particular, the total value of assets of 10 branches of joint-stock commercial bank "Aloqabank", the level of capitalization, resource base, debit turnover, number of customers, the average interest rate on loans of these banks. The number of competing banks in the regions is reflected in the data for 2009-2018. Carrying out econometric analysis on the basis of panel data allows to accurately assess the impact of factors affecting the assets of the joint-stock commercial bank "Aloqabank". [6]

Ensuring the optimal level of risks is a prerequisite for ensuring the effective management of assets of commercial banks [4]. At the same time, the risks directly affect the financial performance of commercial banks, including liquidity and solvency. Therefore, the risks reflected in the activities of commercial banks, in particular, the nature of interest rate risk, its causes and the development of management methods are reflected in our study.

In order to reduce the level of risk, products (services) should be selected so that the demand for them changes in opposite directions, that is, when the demand for one product increases, the demand for another product decreases, and vice versa. As we can see, the combined method of risk assessment and identification, i.e. the statistical and expert method and its extensive use of fixed assets, is advisable. In conclusion from the above, we consider it expedient to express the methods used to identify risks in a commercial bank - in the form given in the table.

At present, credit institutions use mainly single-factor models to analyze their potential risks and losses, which is not always effective enough. The dissertation analyzes the global approach, which includes the simultaneous use of unrestricted risk factors for the assessment of general commercial banking risk, ie risk - appetite (appetite) and its individual components. In this process, different methods are used

by credit institutions to assess the value of potential losses, most of which are applied using single-factor models or models with the same type of risk factors. There are very few models that can be used to analyze credit, market and other risk factors at the same time. This situation does not allow credit institutions to adequately estimate the amount of their total losses across the entire financial portfolio. One-factor models do not allow simultaneous changes in multiple risk factors. According to the recommendations of the Basel Committee on Banking Supervision, the issues of assessing the capital adequacy of a credit institution in a single context are related to the assessment of the value of the overall risk. The purpose of the methodology proposed in the research is to develop a unified approach to identify possible losses, including credit risk, in the future when a credit institution realizes various risks.

Credit risk is the risk of loss due to late or incomplete fulfillment of financial obligations of the borrower to the credit institution in accordance with the terms of the contract (risk of default). In addition, credit risk also includes potential losses associated with a downgrade of a borrower's credit rating (creation of reserves for potential losses, reduction of the market value of the borrower's liabilities, etc.). A large proportion of losses in the foreign banking sector may be related to credit risk. In the structure of losses from the implementation of market risk, losses on interest rates are 65-81%, losses on capital risks are 15-32% and losses from currency risk are 3-4%. The following table provides an overview of the models and methods for assessing the main types of risks for stress testing.

In the experience of European countries, a comprehensive approach to stress tests helps to form a unified approach to bank risk management. At present, the problem of preventing the complex risks of individual enterprises of a credit organization related to the management of banking risks is not sufficiently developed. The analysis of the theory and practice of stress testing is the basis for the creation of a comprehensive system of testing financial stability in commercial banks and the development of consistent, logical and reasonable procedures.

Another important criterion is risk - appetite (appetite), which is expressed as the total amount of risk that banks may see to achieve their strategic goals, and

determines their own funds and liquidity, which are willing to take risks when approving a risk management strategy. In determining risk appetite, commercial banks assess current and future risks, taking into account, among other things, commercial banks' expectations of profitability, international regulatory standards, the size and structure of current and expected risk, and the current and expected level of total capital; others In this case, the annual limit set by the Board of the bank, the level of sublimation should not exceed the risk appetite target. World practice and analysis today allow us to identify the "risk-appetite" in the protection of assets of commercial banks, based on which it is expedient to use stress-testing methods. This, in turn, can affect credit allocation processes.

Among the active operations of commercial banks, credit plays a key role, and a significant part of the bank's income is obtained through these operations. Therefore, how the loan portfolio of commercial banks is formed has a direct impact on banking activities. In order for the bank to effectively manage its loan portfolio, it is necessary, first of all, to increase the volume of assets through the proper organization of the lending process of commercial banks, the effective use of conveyor-scoring method. It is also necessary to constantly improve the legislation in this area, to determine the quality of credit in commercial banks, as well as to assess the quality of credit management, including the simplification of credit documents and loan collateral and to ensure compliance with international standards.

In international practice, the use of the scoring method to increase the volume of assets through the introduction of a credit conveyor mechanism of commercial banks. Scientific and practical analysis has shown that it is effective to use software products to work with multiple scoring models when selecting them according to the customer segment. Different approaches can be used to solve this problem. They are "scoring schemes" that include dozens of scoring maps, mathematical approaches, techniques and transition constructors, data modification, and additional checks of basic data.

In general, one of the main goals of commercial banks is to achieve the optimal level of profitability and liquidity in the credit system and increase the

volume of assets. In our opinion, the following factors should be taken into account when increasing the volume of assets in commercial banks through the effective use of the credit conveyor method, in particular, scoring technology:

- formation of new methods of managing problem loans, ensuring the growth of assets in commercial banks, the effectiveness of the credit conveyor-scoring system;

- Constant monitoring of the quality and volume of assets of commercial banks, the use of various "scoring maps" that take into account credit risk and creditworthiness factors to identify and eliminate problems at an early stage;

- implementation of regular asset diversification in commercial banks, the formation of simplified conditions for obtaining motivational loans for customers with a positive credit history as a result of the application of the scoring model;

- Activity of commercial banks - on the basis of the organization of execution of regulatory documents regulating credit relations, the scoring system should be formed taking into account constant growth of the customer base, expansion of a product line and increase in number of users.

To reduce the risk of inefficient loans, commercial banks need to create an effective early warning system to protect their assets and reduce the effects of late payments. The ongoing global financial crisis in recent years has had a negative impact on the banking sector. The impact of inefficient assets has led to an increase in additional prices - which has led to a loss of stability in certain segments of the market (e.g. retail and mortgage banking).

In this uncertain environment, many stakeholders, as well as regulators, need constant confidence to meet their expectations for quality and low-risk loans through constant monitoring and early detection. Accordingly, institutions understand that they need to be more proactive in tracking their assets. The warning signs of problem assets can be divided into five areas: financial, behavioral, geographical, industrial, and information. During the research, it is necessary to analyze these areas and identify key indicators that can be used to identify indicators, measures to protect banks' own assets, and to develop an early warning system.

The Early Warning System (EOT) is a set of processes used to identify risks at this new stage, and a well-designed EOT helps the bank's management to identify potential threats and impending risks. In addition, such a system can significantly strengthen control over bank assets. [5]

Based on the above analysis, it should be noted that in the lending practice of commercial banks it is important to form a portfolio of healthy assets through the widespread use of early warning systems, in which the effectiveness of these indicators can be determined. Methodologically, the Early Warning System identifies EOT-debtors at risk of difficulty or default. Such a system should not only combine a reliable database and rigorous statistics, but also ensure close collaboration between "soft" success factors, observers, underwriters, and advanced identified cases belonging to different checklist categories depending on the nature and severity of the risk.

Summary, the results of a study on improving the efficiency of commercial bank assets in the context of economic diversification allowed to form the following conclusions:

1. A number of economists of the country have expressed their views on the problems of ensuring the efficiency of banking assets, and the study of the evolution of scientific and theoretical views serves to strengthen the theoretical basis for the development of banking in the country. At the same time, traditional and modern methods of increasing the efficiency of commercial bank assets have been systematized and author's approaches have been developed.

2. The dissertation considers the general aspects of the methodological basis of the effectiveness of banking operations, which includes the classification of "banking assets" and "banking operations", the essence of the concept of "efficiency of banking assets" among the main criteria for determining the effectiveness of banking operations. .

3. It is important to effectively manage the assets and liabilities of commercial banks and improve their quality, in which the efficiency of bank assets is divided into a number of socio-economic bases, and the methodology of ensuring the



efficiency of active operations in commercial banks is based on a number of important principles.

4. The development of an interbank competitive environment encourages the placement of bank assets, the abandonment of traditional methods of improving efficiency, the introduction of new and modern methods of performance evaluation in banking practice. In this regard, a classification of methods has been developed and its advantages have been substantiated.

5. It is necessary to strengthen the corporate governance system by deepening the process of privatization and denationalization of banks, further corporatization of commercial banks, increasing the role of shareholders in the management of banks.

6. It is necessary to increase the financial stability of banks through institutional development, improving the quality of bank assets, including foreign exchange assets, further improving banking and expanding the range of banking services provided.

7. Based on the study of the experience of developed countries in improving the efficiency of banking assets, modern methods of using innovative software and special platforms in the commercial banking system are proposed, based on the experience and directions of the US, Russia and Europe to create a healthy, strong and stable banking environment.

8. Development and monitoring of the strategy of effective asset placement in the activities of commercial banks, enhancing the role of the bank's board and improving the procedure for making sound decisions on asset placement, independent development of banks and effective resource management require improving the quality of bank management. This can be achieved directly through the widespread introduction of corporate governance in commercial banks.

#### **References:**

1. Tashmatov Sh.X. Formation and development of the banking system in Uzbekistan. Doctoral dissertation.-T .: 2006. (pages 169-170).

2. F.M.Mullajonov. Banking system of the Republic of Uzbekistan. Completed second edition.-T .: «Uzbekistan», 2011.-368 p. (Pages 4-6).
3. Abdullaeva Sh. Banking (textbook) .- T .: TMI, 2003.-312 p. (Pp. 131-135); U.Azizov and others. Banking (textbook) .- T .: Economics and Finance, 2016.-768 p. (Pp. 178-168).
4. Gulamhussen, M.A., Pinheiro, C.M., Pozzolo, International diversification and risk of multinational banks:evidence from the pre-crisis period. J. Financ. Stabil. 13, 30–43, 2017.
5. Peter Gatere, Central Bank of Kenya. The Early Warning System. September 2010.
6. [https://www.eastafritac.org/images/uploads/documents\\_storage/Early\\_Warning\\_System-Gatere.pdf](https://www.eastafritac.org/images/uploads/documents_storage/Early_Warning_System-Gatere.pdf).

**AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNI  
RIVOJLANTIRISH**

**Karimov Ikromali Tojimatovich**

*Farg‘ona politexnika instituti ,DCs, professor,*

**Siddiqov Muhriddin Zayniddin o‘g‘li**

*Farg‘ona politexnika instituti magistranti*

E-mail: i.karimov@ferpi.uz

**Annotatsiya.**Maqolada hududlarda mahalliy kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi va uning yurtimiz salohiyatiga qo‘shadigan ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kichik biznes,tadbirkorlik,hizmat ko‘rsatish,hududiy iqtisodiyot,salohiyat,rivojlanish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.[2]Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini

davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. [1]Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilib, unga 200 milliard so'm va 50 million dollar mablag' ajratildi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi. Sanoatni raqamlashtirish "aqlli" korxonalariga mijozlarning talabiga to'la mos keladigan mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Bu konsepsiyaning ijobiy jihatlaridan biridir. Lekin, raqamlashishning salbiy jihati ham mavjuddir.[4] Bunday korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni deyarli inson aralashuvisiz amalga oshiriladi. Bu esa ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi. Bu holda mamlakatlar mehnat resurslarining malakasini oshirishi, ularni zamon talabiga javob beradigan kasblarga yo'naltirishi darkor. Ammo ushbu jihatlar raqamlashtirishning ahamiyatini kamaytirmaydi.[3]Bunday amaliy choralar o'z natijasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta'minlamoqda. Ko'pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to'g'ri keladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jih atdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilm oqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etm aydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanm asining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiy orni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'm ol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish m uam m osini tez ham da tejam li tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o

‘zgarishiga darhol moslashadi va shu yo‘l bilan iste‘mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta‘minlaydi.[4] Kichik biznes yangi ish o‘rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmoqda. [3]Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi ko‘rxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Ushbu soha nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta‘minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmoqda.[1] Lekin shu bilan birga, bu borada ayrim muammolarga ham duch kelinmoqdaki, buning asosiy sababi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan shaxslarning ishni nimadan boshlamoq kerakligi, uni qanday tashkil etish zarurligi va boshqarish sirlari haqida to‘la tasavvurga ega emasligidadir. Shu jihatdan qaralganda, mazkur o‘quv qo‘llanma yuqoridagi muammolarni samarali bartaraf etishga muhim hissa qo‘shadi[2]

**Xulosa** o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun eng avvalo raqamli infratuzilmani yaratish, O‘zbekiston Respublikasi hududini yuqori darajadagi global internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich ta‘minlash, hamda raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash va ularning malakalarini doimiy ravishda oshirib borish zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.statista.com/statistics/1134766/nominal-gdp-driven-by-digitally-transformed-enterprises/>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

3. [The Fourth Industrial Revolution: what it means and how to respond | World Economic Forum \(weforum.org\)](https://www.weforum.org)

4. Олимова, Н. Х., Абдурахимов, М. Т., Каримова, Г. И. (2022). Экономический потенциал предприятий реального сектора и возможности выбора их стратегии управления. *Cognitio rerum*, (1), 55-57.

## **ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH HOLATI**

### **TAHLILI**

Fayziyev Samandar Sobri o'g'li

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

s.fayziyev1229@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada energetika sohasidagi amaldagi holat, kuzatilayotgan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda yurtimizda energetika infratuzilma rivojlantirish bosqichlari, energetika sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi va samarali asbob-uskunalarni va texnologiyalarni yaratish imkoniyatini berishi to'g'risida so'z boradi. Tadqiqotning maqsadi – energetika sohasida barqarorlikka erishish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Energiya resurslari, energetika, issiqlik elektr stansiyalari, shamol elektr stansiyalari, atom elektr stansiyasi, gidroelektrstansiya, energoblok, davlat-xususiy sheriklik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektr uzatish tarmoqlari, yashil energiya.

Elektr energetika sohasidagi amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan ushbu fikrni keltirib o'tishimiz mumkin: "Elektr energetikasi iqtisodiyotning "motori" bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, umuman hayotni bu sohasiz tasavvur qilib bo'lmaydi". Hozirgi kunda mamlakatimizda jami 14 ming megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lib, uning 86 foizi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Biroq, issiqlik elektr stansiyalari quvvatlarining 84 foizi qariyb yarim asr avval ishga tushirilgan bo'lib, ular ham 83 foiz quvvatda ishlamoqda, xolos. Solishtiradigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda 1 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 240-260 gramm yoqilg'i sarflansa,

mamlakatimizdagi ayrim stansiyalarda bu ko'rsatkich 2 barobar ko'proq ekanligi sohadagi asosiy muammolardan biridir. Tahlil va prognozlarga qaraganda, iqtisodiyotimizning rivojlanishi natijasida elektr energiyasiga bo'lgan talab 2030 yilga borib 20 ming megavattga yetishi kutilmoqda. Ma'lumki yurtimizda elektr energiyasi asosan tabiiy gazdan foydalanish natijasida ishlab chiqariladi. Gaz resurslari esa cheklangan bugungi sharoitda 2030-yilga borib uni yanada ko'proq sarflash – tiklanmaydigan tabiiy resurslarning juda katta miqdorini uvol qilish bilan barobar ekanligini unutmasligimiz kerak. Atom elektr stansiyasining ishga tushirilishi yoqilg'i sarfini qisqartirish bo'yicha mutlaqo yangi yechimlardan biri bo'lishi mumkin, biroq buning uchun kamida yana 10 yil kerak. Shuning uchun mavjud muammolarni tezroq bartaraf etish va tarmoqni tubdan rivojlantirish, eng muhimi, qisqa vaqtda tizimda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish lozim ekanligi prezidentimiz tomonidan ta'kidlanmoqda. 2030-yilga borib qo'shimcha talab etiladigan 12,5 ming megavatt quvvatlarni yaratish chorasini ko'rish, jumladan, bug'-gaz qurilmalari, atom elektr stansiyasi, gidroelektrstansiyalar barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Taxiatosh issiqlik elektr stansiyalaridagi energobloklarni yangilash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni elektr energiyasi tizimiga ham joriy qilish orqali zarur bo'ladigan quvvatlarni qoplash zarurati mavjud. Shuningdek, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatiga 3,9 ming megavattli bug'-gaz va gaz-turbina qurilmalari hamda Angren shahrida va Surxondaryo viloyatida ko'mirda ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish choralarni ko'rish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilayotganligini ham aytish joiz. Elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi yangi obyektlar qurishni jadallashtirish bo'yicha ham vazifalar mavjud. Kelgusi yillardan boshlab elektr energiyasi sotishdan tushadigan mablag'larning 15 foizini investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kreditlarni qaytarish uchun yo'naltirishi ko'zda tutilmoqda.

Tizimda amalga oshiriladigan modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektorni jalb qilishni taqozo

qilayotganligi toboro oydinlashib bormoqda. Lekin, na normativ-xuquqiy baza va na texnik infratuzilma bunga tayyor emas ekanligini ham tan olish lozim. Masalan, xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasini energotizimga qabul qilish masalasi hanuzgacha muammo sifatida qolmoqda. Solishtirish uchun misol, Turkiyada 60 foiz, Janubiy Koreyada 20 foiz elektr energiyasi xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilishini keltirishimiz mumkin. Shu sababli ham yurtimizda xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda hamda ularning tavsiya va xulosalari asosida sohaga xususiy sektorni jalb qilish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmining huquqiy, institutsional, texnologik asoslari ishlab chiqilishini ta'minlash zarur. Uzoq yillardan foydalanib kelinayotgan eski tarmoqlar ulushi 62 foizni tashkil etadi, shu boisdan ham, taqsimlovchi tarmoqlarda liniyalarning 57 foizi va 39,6 mingta transformator punkti yangilanishi zarur.

Energiya resurslarining avtomatlashtirilgan hisobini yuritish tizimini joriy etish masalalari ham hali o'z nihoyasiga yetkazilgani yo'q. Bugungi kunda, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki Energetika sohasini rivojlantirishda hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekistonda xalqaro moliya institutlari ko'magida energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va energiya tejamkorlik, issiqlik elektr stansiyalari qurish, elektr uzatish tarmoqlarini qurish hamda gidro elektr stansiyalarni ta'mirlash ishlari loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, Qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalarini moliyalashtirishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalari bo'yicha xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Olmaliq va Navoiy kon metallurgiya kombinatlariga o'z ehtiyojlari uchun 500-1000 MVt quvvatga ega stansiyalarni davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida qurish rejalashtirilmoqda, Surxondaryo viloyatida esa 1560 MVt quvvatga ega issiqlik elektr stansiyasini qurish loyihasi doirasida investorlar Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankidan mablag' jalb etish imkoniyatini ko'rib chiqilmoqda, shu bilan birga elektr uzatish tarmoqlarini qurish loyihalarini moliyalashtirish hamda yangi quvvatlar uchun elektr energiyasini uzluksiz ta'minlash maqsadida 1000 kilometr uzunlikdagi yangi yuqori

kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari va 5 ta podstansiya qurish bo'yicha "Xian Electric i State Grid – CET" bilan ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonda quyosh panellari ishlab chiqarishni moliyalashtirish va "Yashil" iqtisodiyotga o'tish dasturi doirasida 2022-yilda davlat muassasalari va ijtimoiy soha obyektlari tomlariga umumiy quvvati 49 MVt bo'lgan quyosh panellari va 722,6 million litr hajmdagi quyosh suv isitgichlari o'rnatildi va "Yashil energiya" ixtisoslashtirilgan korxonasi tashkil etildi. Panellarni o'rnatishni jadallashtirish, shuningdek, ularning tannarxini pasaytirish maqsadida O'zbekistonda quyosh panellari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish masalasi ham ko'rib chiqilyapti. Zarafshon GESining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun mablag' ajratish masalasi ko'rilyapti. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari hukumatlari o'rtasida Tojikiston Respublikasi hududida Zarafshon daryosida gidroelektr stansiya qurilishini o'rganish va loyihaning yangilangan texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grant mablag'larini jalb etish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 yanvar 2019 yildagi № 5614 – sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiya"si.
2. minenergy.uz
3. stat.uz

### **INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASI XIZMAT KO'RSATISH KORXONASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA**

**Yoriyeva Dilafro'z Oltinovna**

**Osiyo Xalqaro universiteti iqtisodiyot yo'nalishi magistri**

Global iqtisodiy jarayonning jadallashishi bilan tobora ko'proq korxonalar kuchli raqobatbardosh bozor va tez rivojlanayotgan iqtisodiy muhitda uzoq muddatli istiqbolda moslashish va rivojlanish uchun kelajakka umumiy vaziyat nuqtai nazaridan qarashlari kerak. O'z imkoniyatlarini oshirish va korxonaning ichki va tashqi muhiti o'rtasidagi dinamik muvozanatga erishish uchun doimiy ravishda



innovatsion strategiyalarni amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun korxonalar uchun innovatsion strategiyaning korxonadagi o‘rnini o‘rganish juda muhimdir.

Korxonalar uchun innovatsion strategiyaning o‘rnini aniqlashda odatda quyidagi jihatlariga e‘tibor berish zarur:

1. Innovatsion strategiyaning korxonaga ta‘sirining yuqori darajada umumlashtirilgan ko‘rinishi: innovatsion strategiyani amalga oshirish orqali korxonalar raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Masalan, M.Porterning fikricha, “korxonalar innovatsiyalar orqali raqobatdosh ustunliklarga erishadilar” degan g‘oyani ilgari surgan.

Birinchidan, innovatsion strategiya korxonadan ichki tashkiliy muhitni va umumiy tashqi muhitni makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan har tomonlama ko‘rib chiqishni va innovatsion strategiya usullaridan mavjud vaziyatga qarab har tomonlama foydalanishni talab qiladi. Korxonalar ma‘lum vaqt ichida korxonani yangilash uchun mikro nuqtai nazardan biznes va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqadi va korxonaga o‘z texnologiyasini, mahsulotlarini, tashkiliy tuzilmasini, boshqaruv modelini va boshqa jihatlarini yanada yaxshilashga yordam beradi va shu bilan uning rivojlanishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, uzluksiz rivojlanish, yangilanish va o‘zgartirish jarayoni orqali korxonalar yanada to‘liq mahsulot zanjiri, yanada ishonchli brend imidji va marketing strategiyasi va bozordagi ulushini oshirish va daromad olish uchun boshqa o‘ziga xos jihatlar orqali iste‘molchilarning manfaatini qozonishi mumkin.

Umuman olganda, innovatsion strategiya korxonani kelajakda ma‘lum bir davrda modernizatsiya va o‘zgartirishni rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega va korxonalar muvaffaqiyatli modernizatsiya va transformatsiyalar orqali katta bozor ulushini qo‘lga kiritishi va raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, korxonalar tomonidan innovatsion strategiyalarni amalga oshirish ularning ichki tuzilishini o‘zgartirishga yordam beradi. Innovatsion strategiya tashkilotning bozordagi harakatlarini va bu harakatlarning yo‘nalishini belgilaydi. Korxonaning ichki texnologiyasi, boshqaruvi, moliyasi, tashkiliy

tuzilmasi va boshqa jihatlari har tomonlama yangilanganda, u tashkilotning ichki samaradorligini va ichki qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishi mumkin.

Agar bunday o'zgarishlar amalga oshirilmasa, tashkilot o'zining ilg'or xususiyatlarini (korxonaning umumiy texnik jihozlari, tashkiliy tuzilmasi, menejerlar va xodimlarning kasbiy mahoratini) o'zgartira olmaydi, bu esa korxonaning bozorga moslasha olmasligiga olib keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiya nafaqat korxonaning ichki tuzilishini o'zgartirishga hissa qo'shishi, balki korxonaga tashqi iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga to'liq moslashish, tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq ichki vaziyatni o'rganish imkonini beradi va atrof-muhitga ta'sir qiladi va uni korxonaning faoliyatini to'g'rilash uchun o'z maqsadlari uchun qo'llaydi.

Ushbu jihatlarda tufayli korxonaning raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Innovatsion strategiyani amalga oshirishning yana bir xususiyati - bu innovatsion strategiya (tashkilot bozorda nima qiladi) va tashkilot jarayoni (tashkilotning o'zida nima sodir bo'ladi) o'rtasidagi o'zaro ta'sirni amalga oshiradi. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish korxonaning uzoq muddatli rejalashtirishini aniqlashi mumkin. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish usuli ko'p jihatdan korxonaning bugungi dunyoda bozorni zabt eta oladimi yoki yo'qligini va korxonaning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishini qanday aniqlashni aniqlaydi. Natijada, biz innovatsion strategiya korxonani hozirgi holatidan kelajakda kerakli holatga o'tkazish vositasidir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkilot faoliyatida innovatsion strategiyaning roli juda katta. To'g'ri innovatsion strategiyani tanlagandan so'ng, tashkilot yangi yuqori bosqichga ko'tariladi. Bu ham korxonalar innovatsion strategiyalarni amalga oshirish orqali bozor ulushini oshirishi, raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishi va natijada muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini anglatadi. Har qanday tashkilot rahbarlari uchun, kichik tashkilot bo'ladimi yoki aksincha, katta va t'sirchan tashkilot bo'ladimi, ularning innovatsion strategiyalarga bo'lgan ehtiyoji aniq.

2. Innovatsion strategiya korxonalarining hozirgi va kelajakdagi rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Korxonaning funktsional strategiyalari orasida

eng muhim rolni uning innovatsion strategiyasi o'ynaydi, u turli xil yangiliklarni joriy etishning maqsadlari, usullari va vositalarini belgilash, ularni qo'llash sohalarini aniqlashtirish, mahsulotni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarilayotgan va foydalanilayotgan texnologik jarayonlar, shuningdek, hozirgi holat va umuman mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda korxonaning hozirgi va kelajakdagi real innovatsion imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion strategiya korxonaning tashqi muhitini tahlil qilishni, tashqi rivojlanish tendentsiyasini va uning korxonaga ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi.

Innovatsion strategiya, shuningdek, korxonaning ichki muhitini baholashni o'z ichiga oladi, biz takliflar va innovatsion strategik rejalarni ilgari surishga imkon beradi, shunda korxonalar oqilona va ob'yektiv ravishda tegishli tuzatishlar kiritishi va resurslarni o'z holatiga qarab oqilona taqsimlashi, har tomonlama quvvatini oshirishi va korxonalar duch kelishi mumkin bo'lgan har bir rivojlanish imkoniyatini yaxshiroq tushunishi mumkin. Innovatsion strategiyani amalga oshirish loyihalar, korxonalar va korporativ boshqaruv uchun ayniqsa qiyin muhitni yaratishi mumkin, jumladan:

- natijalarning noaniqligini oshirish (vaqt, xarajatlar, sifat va samaradorlik nuqtai nazaridan);
- loyihaning investitsiya xavfining oshishi;
- innovatsion qayta tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy o'zgarishlar jarayonini kuchaytirish (korxonaning har qanday elementini o'zgartirish orqali korporativ qayta tashkil etish);
- manfaatlar to'qnashuvi va tashkiliy boshqaruv usullarini kuchaytirish.

Imkoniyatlar va muammolar bir tanganing ikki tomoniga o'xshaydi, ular qarama-qarshi va birlashadi va ma'lum sharoitlarda ular bir-biriga aylanadi.

3. Innovatsion strategiya korxonaning yangi maqsadlariga va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi:

Birinchi, innovatsion strategiya korxonaga aniq maqsadlarni belgilashga, ya'ni korxonaga kelajakda ma'lum vaqt oralig'ida yangi strategik maqsadlarni

belgilash imkonini berishi kerak. Shunday qilib, korxonaning umumiy maqsadlari ma'lum bo'lishi mumkin va turli funktsional bo'limlar va dizayn tashkilotlari nima qilishlari kerakligini aniq tushunishlari va ularni faol ravishda davom ettirishga undashlari uchun korxonada ichidagi birlashish va markazlashtiruvchi kuchni kuchaytirish mumkin.

Ikkinchidan, innovatsion strategiya innovatsion vositalarni talab qiladigan aniq biznes maqsadlarini, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish va innovatsion modelni yaratish uchun zarur bo'lgan resurslarni aniqlashi kerak. U kelajakda har bir bosqichda ish yo'nalishi va resurslarga bo'lgan talablarni aniqlaydi, shunda tashkilotning rivojlanishi va tashkilot resurslarining integratsiyasi yo ko'proq yo'naltirilgan va printsiptial bo'lib, shu bilan tashkilotni innovatsion strategiyaga moslashtiradi va resurslarni yaxshiroq optimallashtirishi mumkin.

Uchinchidan, innovatsion strategiya doimiy ravishda korxonaning manfaatdor tomonlari, raqobatchilari va o'zining kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini ta'kidlab turadi va maqsadlarga erishish uchun qanday innovatsiyalar bilan bog'liq vositalar zarurligini ko'rsatadi, shunda korxonada imkoniyatlardan unumli foydalana oladi va ularga xotirjam javob beradi. O'z navbatida, bu korxonaning yo'nalishini yangilaydi, bozor barqarorligini oshiradi va korxonaning barqaror raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Bu nafaqat korxonaning yangi qisqa muddatli maqsadlariga erishish, balki korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishishga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion strategiyalarni amalga oshiradigan tashkilotlar muvaffaqiyatliroq va olingan foyda sanoatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori bo'lishga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Махмудов Э.Х., Исаков М.Ю. Бизнес планирование. Учебное пособие. – Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Ўзбекистана, 2004. - 160с.

2. Губарев В.Г. Основы экономики и предпринимательства: Учеб. пособ. –Ростовна-Дону: Феникс, 2003. –287 с. 4. Бринк И.Ю., Савельева Н.А. Бизнес-

план предприятия. Теория и практика F Серия «Учебники и учебное пособие» - Ростов Дон. «Феникс», 2003. -384 с.

3. Khasanov, S. N. T., & G'ayratbek qizi Khasanov, O. Z. (2023). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION STRATEGIYALARNING AHAMIYATI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(21), 37-42.

4. Suyarov, H. (2022). IQTISODIYOT TARMOQLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 315-319.

## **АНДИЖОН ВИЛОЯТИ МАҲАЛЛАЛАРИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Ахмаджонов Фарходбек Акрамжон ўғли**

*НамМТИ таянч докторанти*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги "Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги фармониغا асосан Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил этилди. Ушбу қарорга мувофиқ Андижон вилояти ҳокимининг ўринбосари, вилоят хотин-қизлар кўмитаси раиси лавозимида фаолият олиб борган Юнусова Манзурахон Пазлиддиновна эндиликда Андижон вилоят ҳокимининг ўринбосари, маҳалла ва оила масалалари бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинланди.

“Маҳалла” фонднинг Андижон вилоят бўлими ва бўлинмалари ҳузуридаги ташкил этилган “Саховат ва кўмак” жамғармаси томонидан

2022 йил апрел, май июнь ойлари давомида 11048 та эҳтиёжманд оилаларга, 5679 та “Темир дафтар” га киритилган оилаларга, 184 нафар “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш мақсадида 9 млрд 720 млн. 676 минг сўмлик ёрдамлар кўрсатилди.

Жумладан, 2947 та эҳтиёжманд ва “Темир дафтарга” киритилган оилаларга ва 73 нафар “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларга 3 млрд. 013 млн. 903 минг сўмлик моддий ёрдам кўрсатилди. 226 та эҳтиёжманд ва “Темир дафтарга” киритилган оилаларга 246 млн. 219 минг сўмлик миқдоридаги маблағлар уй-жойини таъмирлаш мақсадида қурилиш материаллари сотиб олишга шароитларини яхшилаш учун моддий ёрдамлар берилди.

Иқтисодиётнинг муҳим бўғинларидан бирига айланиб бораётган бизнес ривожланиш жараёнларини статистик таҳлилини амалга оширишда, унинг таркибига кирувчи фаолият турларини соҳалар, ҳудудлар бўйича кўриб чиқиш лозим ва бизнес секторининг ривожланиш жараёни моделини ишлаб чиқиш, ривожланмаган жихатларини ривожлантириш, унга таъсир этувчи омилларини қандай қилиб ривожлантириш лозим деган саволларга жавоб кидириш, келгусидаги кутилаётган иқтисодий натижаларини аниқлаш ушбу мақоланинг умумий тавсифи саналади.[1]

Мамлакатимизда ҳам бу мақсад асосида кўплаб ижобий тенденцияларни кузатиш мумкин. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик мамлакатимизнинг устувор йуналиши деб белгиланган. Сунгги беш йилда бу соҳани ривожлантиришга қаратилган 2 мингга яқин қонун, фармон ва қарорлар қабул қилинди.

Молия кенг маҳнода иқтисодиёт субъектларининг даромад ва ҳаражатлари билан боғлиқ муносабатларидир. Молия объекти пул маблағлари, яъни молиявий ресурслар ҳисобланади. Тадбиркорлик молияси - бу тадбиркорлик фаолияти учун зарур бўлган пул маблағларини шакллантириш, тақсимлаш, ишлатиш муносабатлари ва жараёнлари мажмуидир.

Унинг асосий вазифаси:

- тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш;
- юриниш ва ривожлантиришни пул маблағлари билан таъминлаш;
- пул оқимларини самарали бошқариш ҳисобланади.

Молия хўжалик жараёнларига кучли таъсир кўрсатадиган восита бўлиб, бир томондан, тадбиркорлик субъектлари ва иккинчи томондан, давлат органлари, идоралари ва муассасалари ҳамда бошқа корхона ва ташкилотлар, жисмоний шахсларнинг иқтисодий манфаатларини мувофиқлаштириш ва улар ўртасидаги иқтисодий алоқаларни амалга оширишда катта рол ўйнайди.

Тадбиркорликнинг молиявий ресурслари унинг пул маблағларидир. Тадбиркорлик фаолиятида хилма-хил ва мураккаб ўзаро иқтисодий алоқалар пул маблағлари ёрдамида амалга оширилади. Пул маблағлари воситасида такрор ишлаб чиқаришнинг бир фазасидан бошқа фазасига ўтилади ҳамда мақсадли жамғармалар шакллантирилади. Булар ишлаб чиқариш ва умуман, тадбиркорлик фаолиятини узлуксиз юритиш ва кенгайтириш гарови бўлиб хизмат қилади.

Тадбиркорлик фаолиятини молиялаш деганда уни пул маблағлари билан таъминлаш тушинилади. Тадбиркорлик фаолиятини молиялаш икки хил манбадан - ички ва ташқи манбалардан амалга оширилади. (1 - чизмага қаранг).

Молиялашнинг ички манбаи бўлиб:

- тадбиркорлик субъектининг ўз маблағлари
- низом сармояси таркибидаги пул маблағлари,
- фаолиятдан олинадиган фойда,
- амортизация жамғармаси,
- текинга берилган маблағлар киради. [6]

Президент фармонида мувофиқ Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги, унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳридаги ҳудудий бошқармалари, туман (шаҳар)ларда маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш марказлари ташкил этилган.

Бундан ташқари, ҳар бир шаҳарча, қишлоқ, овулда, шунингдек, шаҳарлар, шаҳарчалар, қишлоқлар ҳамда овуллардаги ҳар бир маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва

камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокимининг ёрдамчиси лавозими таъсис этилган.

Президентнинг қарорига мувофиқ Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш жамғармаси ташкил этилган.

Ҳужжат билан Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги тўғрисидаги низом тасдиқланди, у қуйидагиларни назарда тутди: агентликнинг мақоми; вазифалари ва функциялари; ҳуқуқлари ва жавобгарлиги; агентлик фаолиятини ташкил этиш; агентлик раҳбарларининг функционал вазифалари.

Қарор билан қуйидагилар тасдиқланди:

Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш маркази тўғрисидаги намунавий низом;

- маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокимининг ёрдамчиси фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги намунавий низом;

- Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш жамғармаси тўғрисидаги низом;

- “Онлайн маҳалла” электрон платформасига маълумотлар базаси интеграция қилинадиган ҳамда ушбу интеграциялашган тизимдан реал вақт режимида фойдалана оладиган давлат органлари ва ташкилотларининг рўйхати. [5]

2022 йил ярим йилликда Андижон вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш бўйича бир қатор ижобий ишлар амалга оширилди. Жорий йилнинг 1 октябрь ҳолатига кичик бизнес субъектларининг сони 723 тага етиб, йил бошига нисбатан 117 тага ёки 16,1 фоизга ўсишга эришилди.

Шаҳарда кичик бизнес субъектларини ташкил этиш 9 ойлик режаси 125 тани ташкил этиб, амалда 126 тага ёки 100,8 фоизга бажарилди.

Хусусан, Хонобод шарида бугунги кунда хизмат кўрсатиш соҳасидаги корхоналар сони 331 тадан ошган бўлиб, ўтган даврга нисбатан 10 фоизга



ортган бўлса, хизмат кўрсатиш ҳажми ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 1,2 баробарга ошган.

Шаҳар учун зарур бўлган 48 турдаги хизмат кўрсатиш шохобчаларини кўпайтириш мақсадида, жорий йил якуни билан умумий қиймати 238,2 млрд.сўмлик 268 та лойиҳаларни амалга ошириш ва 612 та янги иш ўринлари яратилиши белгиланган.

Жорий йилнинг ҳисобот даврида 278 та (100%) хизмат кўрсатиш йўналишида йирик ва кичик шохобчалар ишга туширилиб, 797 та янги иш ўринлари яратилди.

Хонобод шаҳри Истиқлол МФЙ “Анхор” кўчасининг 2 км узунликдаги қисмига 50 та умумий қиймати 20 млрд.сўмлик шундан, банк кредити 10 млрд.сўм бўлган, 100 та янги иш ўрнига эга лойиҳа ташаббускорлари жойлаштириш режалаштирилган. Шаҳримизнинг “ўсиш нуқталари”дан келиб чиққан ҳолда ижтимоий-иқтисодий дастурларимиз асосида 2021-2022 йилларда умумий қиймати 401,5 млрд.сўмлик 25 та лойиҳаларни амалга оширилиши натижасида 562 мингга яқин янги иш ўринлари яратилиши белгиланган.[3]

Жорий йилнинг январ-сентябрь ойларида қиймати 38,1 млрд.сўмлик 14 та лойиҳалар ишга туширилган бўлиб, 251 та янги иш ўринлари яратилди. Хонобод шаҳрида жойлашган "Dolina invest" МЧЖ томонидан 2,2 млрд.сўмлик инвестициялар ўзлаштирилиб, йилига 2000 минг дона трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўлга қўйилиб, 150 нафар шаҳар аҳолисини иш билан таъминлашга эришилди.

Бироқ шу билан биргаликда, маҳаллаларда фаолият юритаётган айрим кичик бизнес субъектларида айланма маблағларни етишмаслиги ҳолатлари кузатилмоқда.

Ушбу муаммони ҳал этиш учун қўйидагилар таклиф этиш мумкин:

- маҳаллаларда аҳолини бўш турган маблағларини тадбиркорларга инвестиция қилиш механизмини жорий этиш;

- айрим тармоқлардаги кичик бизнес субъектларига имтиёзли кредитлар бериш амалиётини давом эттириш;

- ҳокимият томонидан маҳаллаларда фаолият юритаётган кичик бизнес субъектларига хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. <https://andijan.uz/news/mahalla-jamoat-fondi-andijon-viloyati-bolimitomonidan-2-chorakda-amalga-oshirilgan-ishlar>;

2. Ибрагимова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини таркибий ўзгаришлар асосида самарадорлигини ошириш. и.ф.б.ф.д. дисс. автореф.-Т.ТДИУ. 2018. – 54 б.;

3. Андижон вилоят ҳокимлиги статистик маълумотлари;

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiyy-tadbirkorlikning-rivozhlanishidagi-asosiy-infratuzilmasi-b-lgan-bank-tizimlarining-rol-i>.

5. <https://kun.uz/uz/news/2022/04/21/mahallabay-ishlash-agentligining-funksiya-va-vazifalari-belgilandi>.

6. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9063-2020-12-12-05-10-23>.

#### **КИЧИК КОРХОНАЛАРДА МЕҲНАТНИ МОТИВАЦИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**Ахмедов Музаффар Шокиржонович**

Наманган муҳандислик-технология

институтини таянч докторанти

[muzaffarsp86@gmail.com](mailto:muzaffarsp86@gmail.com)

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2021 йил 3 декабрдаги ПФ-29-сон “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида”ги Фармонида маҳалла аҳолисини мавжуд муаммоларини ҳал қилиш, уларни бандлигини таъминлаш масалаларига катта эътибор қаратилган. Шу нуқтаи-назардан маҳаллада 2022

йил 1 январдан бошлаб хоким ёрдамчиси лавозими жорий этилган. Бу эса маҳалла фаровонлиги учун ташланган яна бир қадам бўлди. Айниқса ишсиз фуқароларни иш билан банд қилишга бўлган ҳаракатлар жонланди.

Аввало аҳоли учун ўз маҳалласида муносиб иш билан банд бўлиши, унга дастлабки мотивацияни беради. Маҳаллада ҳудуднинг ўсиш имкониятларини ҳам ҳисобга олган ҳолда кичик корхоналарни ташкил этилиши, ҳудуд аҳолисига оиласига яқин жойда ишлаш имкониятини беради. Ўз ўрнида ишчига бу ҳам асосий мотиватор вазифасини ўтайди.

Маҳаллада корхона маҳаллий ходимларини мотивациялаш тизимига ҳам бошқа тизимларда бўлгани каби инновацион ёндашув зарур. Президентимиз Ш.Мирзиёев айтганларидек, “Инновация – бу келажак дегани. Биз буюк келажакимизни барпо этишни бугундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион ғоялар, инновацион ёндашув асосида бошлашимиз керак...”<sup>31</sup>. Шундай экан персонални мотивациялашга ҳам инновацион ёндашув зарур. Техника ва технология бир неча йил ўзгармасдан ишлари мумкин, лекин инсон бу қурилма эмас. Шунинг учун ҳам бир биридан фарқ қилади. Инсонга бўлган муносабат қаерда аъло даражада бўлса, шу ерда доимий ижобий муҳит ва унинг асосида ривожланиш бўлади. Инсон омилига эътибор эса самарали мотивация орқали бўлади. Мотивациянинг етишмаслиги ёмон ишлашга, миждозларга қониқарсиз хизмат кўрсатишга, даромаднинг пасайишига ва бренд обрўсининг секин аста йўқолишига олиб келиши мумкин.

Шу ўринда биз барча маҳаллий тадбиркорларимизга бу борадаги муммоларни бартараф этиш, ходимларни ўринли мотивация қилиш бўйича умумжаҳон эътироф этган, илмий жиҳатдан тасдиқланган, ҳозирда муваффақиятга эришиб келаятган корхоналар томонидан узлуксиз равишда қўллаб

---

<sup>31</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабр, <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

келинаётган ва қўшимчасига менталитетимизга мос бўлган қўйидаги мотивациялаш йўлларини тавсия этамиз:

**1. Корхонани ёқимли маконга айлантириш.** Хеч ким ёқимсиз жойда мажбур бўлсада узоқ қолиб кетишни хоҳламайди. Бу борада аввало тозалик, иш жойини яхши ёритилганлигига алоҳида аҳамият бериш лозим. Ишлашга қийинчилик туғдирадиган эски техникалардан корхонани доимий тозалаш талаб этилади.

**2. Катта стратегик мақсадларга майда қадамлар билан эришиш.** Стратегик мақсадни албатта ходимлар амалга оширади. Мақсадларни режалаштириш ва белгилаш - ходимларни мотивациялашнинг ажойиб усули, аммо агар бериладиган вазифа жуда катта бўлса, ходимлар ўзларини ҳаддан ташқари ноқулай хис эта бошлайди. Кичик мақсадлар ҳар бир ходимни катта мақсадни амалга оширишга аста-секин яқинлаштиради. Стратегик мақсад майда қадамларсиз ходимларга ёрқин кўринмайди.

**3. Ҳалол, адолатли ва қўллаб-қувватловчи менежер бўлиш.** Ходимлар билан ҳалол бўлиш рағбатлантиришнинг энг яхши усули ҳисобланади. Уларга катта қарорлар қабул қилишда иштирок этишларига имкон бериш лозим. Агар улар катта режалар ҳақида билишса, улар менежернинг ҳалоллигини содиқлик ва ортиб бораётган мотивация билан ҳурмат қилишади. Яъни шаффофлик албатта бўлиши зарур. Нотўғри юритилган бошқарув ходимларни парокандалигига олиб келади. Нима учун пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) суннатлари доимий амалда, Темурийлар сулоласи нега узоқ давр ҳукмронлик қилди. Барчаси ҳалол, адолатли, самимий бошқарув асосида.

**4. Ходимларни асосий иш ҳақи ва мукофотлаш тизимини самарали жорий қилиш.** Моддий рағбат ходимларни концентрациясини айнан корхона асосий миссияси сари ундайди. Вақтида берилган иш ҳақи ва мукофот энг яхши мотивлардан биридир. Бу борада ходимни эҳтиёжи бўйича табақаларига ҳам алоҳида аҳамият бериш лозим.

**5. Ходимлардаги ишонч содиқликни келтириб чиқаради.** Корхона муваффақияти ходимлар ишлаб чиқарадиган иш сифатига боғлиқ. Айнан

шунинг учун барча иш уларга боғлиқлиги тўғрисида уларга ишонч билдириш лозим. Уларнинг қобилиятларига ишончингиз юқори эканлигини кўрсатиш уларга ўзини жамоанинг бир қисми сифатида ҳис қилишига ёрдам беради ва корхонага содиқликни рағбатлантиради.

**6. Иштиёқни ривожлантириш.** Бу борада аввало ходимларни иштиёқини асосини ўрганиш лозим. Масалан, кўпчилик ходимларники моддий, кимдадир сиз билан ҳамкорлик, касбни севиш ва бошқалар. Бундан ташқари ходимни табиатида мавжуд қизиқишларини ўрганиб, шу орқали рағбат беришингиз унинг иштиёқини кескин оширади. Иштиёқ кимдадир физиологик, кимдадир карьера, лидерлик ёки кўпроқ даромад бўлиши мумкин. Агар бу базавий равишда тўғри ташкил этилса ишчилар мотивацияси доимий юқори бўлади.

**7. Мунтазам яккама-якка учрашувларни режалаштириш.** Бу муаммоларни ўрнида ҳал қилиш ва ходимлар билан яқинлик учун зарур. Бу япон бизнесида кенг қўлланилиб келинаётган самарали усуллардан биридир. Бу ҳолатда улар билан эркин мулоқот қилиб, фирмага ва ходимга тегишли муаммолар ўринли ҳал қилишга эришилади.

**8. Ютуқларни тан олиш ва нишонлаш.** Умумий йиғилишда ёки жамоа билан овқат пайтидами ютуққа эришган ишчини мақташ ва ўз ўрнида бу ютуқни нишонлашга ҳаракат қилиш лозим.

**9. Ходимни иш, оила ва бошқа ижтимоий мувозанатини кадрлаш.** Ҳаёт фақат ишдан иборат эмас. Қайсики раҳбар ходимига шундай муносабат қилса, ходимда мотивация бутунлай ўлади. Аксинча бу мувозанатни ушлашга ходимга ёрдам берилса, раҳбар ва ўз ўрнида корхона ишчи учун қадриятга айланади.

**10. Ходимларнинг барча ғояларини тинглаш ва бу бўйича ғоялар базасини яратиш.** Ҳозирги кунда бизда энг кам эътибор берилаётган жиҳатлардан биридир. Янги ғояни ташқаридан эмас, балки ўз ходимларимиздан қидириш яхшироқ самара беради.

**11. Иш жойида овқат таклиф қилиш.** Айтганимиздек инсоннинг табиати, организми иш фаолияти бир хил эмас. Ахир, ҳеч ким оч қолганда яхши

ишламайди. Бу жуда оддий кўринади, лекин баъзида одамларни хурсанд қилиш учун қилиш керак бўлган ягона нарса уларни овқатлантиришдир. Бу эса яхшигина мотиватор вазифасини бажаради.

Албатта бу каби умумжаҳон эътироф этган тавияларга амал қилиш ҳар бир тадбиркорнинг фаолияти самарадорлигининг асосий калити бўлиб хизмат қилади.

Энди эса корхоналарда ташкил этилиши зарур бўлган қуйидаги таклифларни берамиз:

**1. Ҳар бир корхонада фитобарларни ташкил қилиш.** Агар корхона раҳбарлари унга алоҳида эътибор қаратса, провардида ишчи учун доимий мотивациялардан бирига айланади. Ҳозирда эътиборимиздан биров четда қолаётган бу ташкилий тизимни жорий қилиниши корхона муваффақиятига ҳам, ишчи соғлиғига ҳам жуда катта ижобий таъсир кўрсатади. Инсон тирик мавжудот бўлганлиги учун, унга тирик нарсалар ёрдам бера олади. Шунинг учун фитобарларни ташкил қилиш долзарб ҳисобланади.

**2. Тушликдан аввал ёки ундан сўнг қисқа муддатли дам олиш тизимини жорий қилиш.** Японларда қўллаб келинаётган бу тизим аслида биз мусулмонларда қўлланиши лозим бўлган мотивация усулларида биридир. Яъни бизда “қайлула” деб номланган дам олиш, уйқу вақти бўлиб, у концентрация ва зехнга жуда катта ижобий таъсир кўрсатади. Хитойда олимлар ушбу суннат бўлган қайлуладаги ҳикматни очиқ намоён қиладиган тадқиқот ўтказди. “United Press International”нинг хабарига кўра, Шанхай руҳий соғлиқ марказидаги мутахассислар қайлуланинг зехн устидаги таъсирини ўрганиш учун тадқиқот олиб борди. Тадқиқот доирасида Пекин, Шанхай ва Шиан шаҳарларидан 2 минг 200 кўнгилли иштирок этди. Тадқиқот якунида уларнинг барчасида зехн яхшилангани кузатилган.

**3. Зарурий эҳтиёж товарларини ойлик ҳисобидан бериш тизимини жорий қилиш.** Оддий ишчиларга бирламчи эҳтиёж товарларини, хусусан ун, ёғ ва зарурий сабзавотларни сотиб олиб, бозор баҳосидан пастроқ нархларда ойлик ҳисобидан заруратга қараб беришни ташкил қилиш корхонага кўшимча

муваффақият олиб келади. Агар маҳаллаларга кириб оддий хонадонларни ўрғанадиган бўлсак, оила бошлиғининг ойлиги чиқишидан аввал зарур бўлган ун, ёғ ва бошқаларни тугаб қолганлигини кузатиш мумкин. Шу ўринда оила бошлиғи қарз олиб энг зарур эҳтиёжини қондиришга уринади. Агар шу вазиятда корхонада юқорида айтилган тизим жорий этилган бўлса, оддий ходим учун бу юқори мотивацияга сабаб бўлади ва корхона мақсади унинг асосий мақсадларидан бирига айланади.

Умуман олганда юқоридаги таклифларни корхоналарда тизимли равишда жорий этилиши корхона муваффақиятига, нафақат корхона, балки маҳаллаларимиз фаровонлигига ҳам катта хисса қўшади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг 2018 йил 5 майдаги “Фаол тадбиркорлик ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3697-сонли қарори.
2. Кибанов А.Я. и др. Управление персоналом: теория и практика. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебно-практическое пособие. – М.: Проспект, 2013 – 64 с
3. <https://www.cliffsnotes.com/study-guides/principles-of-management/motivating-and-rewarding-employees/motivation-strategies>

## **МАҲАЛЛАЛАРДА ТАДБИРКОРЛИКНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИШ ВА ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ- ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ**

**Ж.Х.Рашидов**, ТДИУ, и.ф.н, доцент

Маҳаллаларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш – тадбиркорликнинг барқарор ривожланиши учун қулай муҳит, шарт-шароит яратишга қаратилган иқтисодий, ижтимоий, ташкилий, ҳуқуқий ва сиёсий чора-тадбирлар тизимидир. Давлат органларининг иқтисодиётни тартибга солиш ва тадбиркорликнинг

ривожланишини кўллаб-қувватлашдан кўзлаганган мақсадлари қуйидагилардан иборатдир[1].

Иқтисодиёт тармоқларида тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизми мазмунини тадқиқ этиш ундаги институтционал, методологик ва меъёрий-ҳуқуқий компонентларни ажратиб кўрсатиш имконини яратади. Уларнинг ҳар бири тадбиркорликни ривожлантиришнинг мустақил шакл ва йўллари ва шу билан бирга улар ҳал этадиган асосий вазифалар йўналишини белгилаб беради. Уларга тадбиркорликни шаклланишининг барча жараёнларида хўжалик субъектларининг фаоллигини рағбатлантириш, хўжалик субъектларининг салоҳиятини (инновацион, технологик, кадрлар, илмий, иқтисодий ва ҳоказо), тармоқнинг инвестицион жозибадорлигини ошириш киради.

Тадбиркорлик янгилик киритиш, товар ишлаб чиқариш фаолиятини ўзгартириш ёки корxonани (шу жумладан, кичик корxonани) ташкил қилиш соҳасида ижодкорликнинг мавжудлиги билан таърифланади[3].

Хориж тажрибаларини чуқур ўрганиш шуни кўрсатмоқдаки, тадбиркорликни ривожлантирилиши, ташкилий, иқтисодий фаолиятини кўллаб – қувватлашни, уларга имтиёзлар жорий этиш орқали рағбатлантиришдан бошлаш, илмий-тадқиқот марказларини тадбиркорлик соҳасида миллий дастурлар доирасида давлатнинг илмий - техник мавзулари бўйича ишлаётган инновацион кичик корxonалар билан интеграциялашиш учун кенг шарт-шароитлар яратиш зарур.

Маҳаллаларда тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш, бу борадаги мавжуд муаммоларга ечим топиш, тадбиркорлик соҳасини жадал ривожлантириш имконини беради.

Маҳаллаларда тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш ва кўллаб-қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш, бу борадаги мавжуд муаммоларга ечим топиш, тадбиркорлик соҳасини жадал ривожлантириш имконини беради(1-чизма).





**1-чизма. Маҳаллаларда тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари**

Бизнинг фикримизча, маҳаллаларда тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг ташкилий механизмларини такомиллаштириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. Маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш. Ушбу дастур 2023-2027 йиллар даврида тадбиркорлик соҳасида комплекс тадбирларни амалга оширишни, жумладан соҳада кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш ва ривожлантириш, техник ва технологик янгилаш масалаларини қамраб олиши керак.

2. Маҳаллаларда тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишга кўмаклашиш. Тадбиркорлик субъектларига фаолиятни ташкил этиш ва амалга оширишда амалий ёрдамлар кўрсатиш, ижтимоий ва бозор инфратузилмаси субъектлари хизматларидан фойдаланиш бораси имкониятлар ва шароитлар яратиш, турли маслаҳат хизмати, шунингдек ахборот билан таъминлаш бўйича ёрдам кўрсатишда қуйидагилар орқали кўмаклашиш[2]:

- янгидан ўз фаолиятини бошлаётган тадбиркорлар учун бизнес юритиш бўйича маслаҳатлар бериш ҳамда уларга бизнес-режаларни тайёрлашга ёрдам бериш, тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш учун керакли ахборотларни олиш ва турли амалий масалаларни ечишда эксперт маслаҳати, ҳуқуқий ва бошқа маслаҳат ёрдамларини кўрсатиш.

3. Маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларини ўқитиш ва малакасини ошириш. Тадбиркорлик субъектлари учун кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизими сифатини кескин ўзгартириш, иқтисодиёт тармоқлари эҳтиёжларини ўрганган ҳолда, муайян таълим йўналиши ва мутахассисликлар тайёрлаш бўйича ўқув дастурларини такомиллаштириш, туман ва шаҳар ҳудудларида кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш ёки қайта тайёрлашга ихтисослашган доимий фаолият юритадиган курсларини ташкил этиш[2].

4. Ташқи иқтисодий фаолият ва инвестицияларни жалб қилишга кўмаклашиш. Маҳаллий тадбиркорлар маҳсулотларининг ташқи бозорларга олиб чиқишини таъминлаш, миллий брендларни хорижда илгари суриш, маҳаллий ва хорижий инвестицияларни, шунингдек, замонавий технологияларни жалб этиш[2]:

– турли бизнес-форумлар, кўргазма ва ярмаркаларни ташкил этиш ва уларда маҳаллий тадбиркорлик субъектларининг мунтазам иштирок этишига ёрдам бериш;

– тадбиркорларга ишончли бўлган ҳамкорлар, янги бозорларни топиш ва маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш, экспорт имкониятларини кенгайтириш ва тадбиркорликларнинг экспорт салоҳиятини кўтариш,

шунингдек, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда амалий ёрдамлар кўрсатиш.

Маҳаллаларда тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

- солиқлар орқали рағбатлантириш. Тадбиркорлик субъектларини рағбатлантиришга қаратилган солиқ имтиёзларини жорий этиш;

- божхона тизими бўйича рағбатлантириш. Тадбиркорлик субъектларини моддий-техника базасини янгилаш мақсадида хорижий мамлакатлардан келтириладиган турли техника воситалари, инновацион технологиялар учун божхона тўловларидан озод қилиш;

- имтиёзли кредитлаш. Тадбиркорлик субъектларини фаолиятини амалга ошириш, моддий-техника базаларини модернизациялаш учун имтиёзли кредитлар бериш;

- суғурталаш механизми. Суғурталаш инновацион ривожлантиришнинг муҳим омили ва турли хил хавф-хатарлардан ишончли ҳимоя қилиш механизмидир. Маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш учун киритилган инвестицияларни имтиёзли суғурталаш.

Иқтисодий механизмнинг таъсири маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларини фаолиятини ташкил этиш ва рағбатлантириш шакл ва йўллари аниқлаш имконини беради. Тадбиркорлик субъектларини давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмини амал қилиши, ишлаб чиқариш фаолиятини ташкил этиш шакллари ва йўлларида, илмий-техник фаолият соҳасини ривожлантириш ва унинг барча иштирокчилари ўзаро ҳамкорлигида инновациянинг жорий этишни давлат томонидан қўллаб - қувватланишга асосланади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, маҳаллаларда тадбиркорлик субъектларини давлат томонидан тартибга солишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларидан кенг фойдаланиш ва улар амалиётга кенг татбиқ этилиши, глобаллашув шароитида тадбиркорликни ривожланиши, тадбиркорлик

субъектларининг фаоллигини ошириш, ишлаб чиқариш қувватларини техник-технологик янгилаш ва тўлиқ модернизациялаш, пировард натижада мамлакатда иқтисодий ўсишни таъминлашга олиб келади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1.Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ., Топилдиев С.Р. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш усуллари. Дарслик.–Т.: 2019. 298-бет.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 июндаги “Бизнеснинг қонуний манфаатлари давлат томонидан муҳофаза қилиниши ва тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5087-сон фармони.

3.М.Р. Болтабоев, М.С.Қосимова, Ш.Ж. Эргашходжаева, Б.К. Гойибназаров, А.Н. Самадов, Р.Ходжаев. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Ўқув кўлланма. – Т.: 2010, 9-бет.

### **БАНК ТИЗИМИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ КИЛИШ**

**Муталова Мохира Алишер кизи**

**ЖИДУ докторанти**

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг муҳим соҳаси булган банк тизими барқарор ривожланиб бормоқда. Бунга эса бир қатор омиллар ва биринчи навбатда замонавий илмий-техника тараққиети натижаларини амалиётга кенг татбиқ этиш натижасида банклардаги барча транзакциялар ва банк операцияларини тўлиқ рақамлаштирилиши орқали эришилаёпти. Тижорат банкларининг миллий иқтисодиёт барча соҳалари ва тармоқларида ҳамда мамлакатимизнинг барча худудлари ва уларнинг

бошлангич звеноси булган махаллаларда олиб борилаётган фаол инвестиция жараёнларида иштирок этиши мазкур жараёнларга бевосита таъсир этмоқда.

Хозирги пайтда юкоридаги махаллаларда трансформациялашган банкларнинг махалла худудида фаолият юритувчи кичик бизнес субъектлари ва якка тадбиркорларга комплекс хизмат курсатувчи марказлари барпо этилаётир. Уларда бизнес субъектларини хисобга олишдан бошлаб уларга банк хизматлари курсатишнинг барча жабхаларини уз ичига олган ва энг асосийси мижозларнинг барча талабларининг банкка келмасдан уз иш еки яшаш жойларидан чикмасларидан масофавий хал килинишига эришмоқдалар.

Бу тадбирларни амалга ошириш айникса кичик бизнес субъектлари ва якка тадбиркорлик кенг ривожланган махаллаларда тижорат банклари соф даромадларининг узлуксиз ортиб боришига олиб келмоқда.

Ушбу маколада Ўзбекистон Республикаси банк тизимини трансформациялашда муваффакиятли фаолият олиб бораётган АТБ “Саноатқурилишбанк” фаолиятининг натижавий курсаткичи сифатида банкнинг соф фоизли даромадини эконометрик тадқиқ қилиш амалга оширилган.

Бунда натижавий омил бўлиб - соф фоизли даромад млрд. сўм (Y) олинган, таъсир этувчи омиллар эса – соф комисион даромад, млрд. сўм (X1), банкнинг операцион харажатлари, млрд. сўм (X2) ва соф фойдаси (X3) олинган.

Дастлаб АТБ “Саноатқурилишбанк” нинг 2018-2022 йиллар чораклари бўйича фаолият кўрсаткичлари асосида тавсифий статистика ўтказамиз.

Тавсифий статистика натижалари қуйидаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Омиллар бўйича тавсифий статистика

	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>
Mean	352.2950	274.6300	201.4000	185.7600
Median	400.9500	352.1500	188.9500	198.5000

Maximum	637.8000	475.9000	299.3000	302.4000
Minimum	128.4000	56.70000	118.7000	48.60000
Std. Dev.	144.5564	173.6602	59.61390	82.72208
Skewness	-0.105350	-0.258078	0.207995	-0.355372
Kurtosis	2.216861	1.228215	1.817283	2.105181
Jarque-Bera	0.548084	2.838032	1.309889	1.088215
Probability	0.760300	0.241952	0.519471	0.580360
Sum	7045.900	5492.600	4028.000	3715.200
Sum Sq. Dev.	397034.6	572999.4	67522.52	130015.9
Observations	20	20	20	20

1-жадвал маълумотларидан ҳар бир омилнинг ўртача қиймати (mean), медианаси (median), максимал ва минимал қийматлари (maximum, minimum) қийматларини кўриш мумкин. Бундан ташқари ҳар бир омилнинг стандарт четланиши (“std. Dev” - (Standart Devation) - стандарт четланиш коэффициенти ҳар бир ўзгарувчиларнинг ўртача қийматдан қанчалик четланганлигини кўрсатади) қийматлари келтирилган.

Skewness – асимметрия коэффициенти бўлиб, у нолга тенг бўлса, нормал тақсимот эканлиги ҳамда тақсимотнинг симметриклигини билдиради. Агар у “0” дан анча фарқ қилса, у ҳолда тақсимот асимметрик ҳисобланади, агар асимметрия коэффициенти “0” дан катта, яъни мусбат бўлса, у ҳолда ўрганилаётган омил бўйича нормал тақсимот графиги ўнг томонга сурилган бўлади, “0” дан кичик, яъни манфий бўлса, ўрганилаётган омил бўйича нормал тақсимот графиги чап томонга сурилган бўлади. Нормал тақсимот функцияси қуйидагича аниқланади:

Урганилаётган банкда деярли барча омиллар нормал тақсимот қонунига бўйсунар экан.

Кўп омили эконометрик моделга киритилаётган омиллар  $Y$ ,  $X_1$ ,  $X_3$  ларнинг асимметрия коэффициентлари манфий бўлганлиги сабабли, улар графикларининг чап “думи” назарий нормал тақсимот графикларидан чапга сурилган. Фақатгина  $X_2$  омилнинг асимметрия коэффициенти мусбат бўлганлиги сабабли унинг графиги ўнг “думи” назарий нормал тақсимот графикларидан ўнгга сурилган.

Ушбу сурилишлар асосан ўрганилаётган омилларнинг динамикасидаги ўзгаришларни кўрсатади.

Айрим йилларда баъзи омиллар кескин ортишга эга бўлган бўлса, айримларида ўзгаришлар сезиларли даражада бўлмаган.

Омилларнинг нормал тақсимотга бўйсунганини статистик мезон бўлган Жак-Бера мезони орқали тадқиқ қилиш мумкин.

Мазкур мезон, кузатувлар хатоларини нормал тақсимот моментлари билан учинчи момент (асимметрия) ва тўртинчи моментини (эксцесс) нормал тақсимотда текширади  $S = 0$ ,  $K = 3$ .

Жак-Бера мезонида  $H_0: S = 0, K = 3$  гипотезага қарши  $H_1: S \neq 0, K \neq 3$  нолинчи гипотеза текширилади, бу ерда  $S$  - асимметрия коэффициенти,  $K$  - эксцесс коэффициенти.

Жак-Бера мезони қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$JB = n \left( \frac{S^2}{6} + \frac{(K-3)^2}{24} \right), \quad (2)$$

бу ерда  $S = \frac{\sum e_i^3}{n \hat{\sigma}_{ML}^3}$ ,  $K = \frac{\sum e_i^4}{n \hat{\sigma}_{ML}^4}$  ва  $e_i$  - модел қолдиқлари,  $n$  - кузатувлар сони,

$\hat{\sigma}_{ML}^2 = \frac{\sum e_i^2}{n}$ ,  $ML$  - максимал ҳақиқатга ўхшаш усулини белгиланиши. Ушбу

статистиканинг озодлик даражаси хи-квадрат иккита озодлик даражаси билан тақсимотга эга, чунки  $S$  - асимметрия коэффициенти ва  $K$  - эксцесс коэффициенти асимптотик нормал, бундан унинг квадратлари ҳам асимптотик нормалдир.

Кўп омилли эконометрик моделга омиллари танлаш учун корреляцион таҳлил ўтказиш керак. Бунинг учун омиллар ўртасида хусусий ва жуфт корреляция коэффициентлари ҳисобланади (2-жадвал).

2-жадвал

Омиллар ўртасида хусусий ва жуфт корреляция коэффициентлари матрицаси

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 01/25/23 Time: 00:49

Sample: 2018Q1 2022Q4

Included observations: 20

Correlation

t-Statistic

Probability	Y	X1	X2	X3
Y	1.000000			
X1	0.914296	1.000000		
	9.576775	-----		
	0.0000	-----		
X2	0.902411	0.599626	1.000000	
	8.885630	1.740864	-----	
	0.0000	0.0721	-----	
X3	0.952848	0.602616	0.653803	1.000000
	13.32214	1.896508	2.06944	-----
	0.0000	0.0759	0.0654	-----

Ушбу жадвал хусусий корреляция коэффициентлари - бу натижавий омил ( $Y$ ) ва унга таъсир этувчи омиллар ( $X_i$ ) ўртасидаги боғланишлар зичлигини кўрсатади. Демак, хусусий корреляция коэффициентлари натижавий омил - соф фоизли даромад ( $Y$ ) ва таъсир этувчи омиллар ( $X_i$ ) ўртасида турли хил боғланишлар мавжудлигини кўрсатмоқда.



Масалан, соф фоизли даромад ( $Y$ ) ва соф комисион даромад ( $X_1$ ) ўртасида боғланиш зичлиги 0,9143 га тенг. Бу эса ушбу икки омил ўртасида зич боғланиш мавжудлигини кўрсатади. Худди шунингдек, соф фоизли даромад ( $Y$ ) билан банкнинг операцион харажатлари ( $X_2$ ) ўртасида зич боғланиш мавжуд экан, яъни улар ўртасидаги хусусий корреляция коэффицентининг қиймати 0.9024 тенг экан. Соф фоизли даромад ( $Y$ ) ва соф фойда ( $X_3$ ) ўртасида ҳам зич боғланиш мавжуд. Ушбу омиллар ўртасида корреляция коэффиценти 0.9528 га тенг (1-жадвалга қараганда).

Бундан ташқари, 1-жадвалда жуфт корреляция коэффицентлари ҳам мавжуд бўлиб, улар таъсир этувчи омиллар ( $X_i, X_j$ ) ўртасида боғланиш зичликларини кўрсатади. Бу ерда энг муҳим ҳолат бўлиб, таъсир этувчи омиллар бир-бири билан зич боғланмаслиги керак. Яъни, таъсир этувчи омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд бўлмаслиги лозим. Агар иккита таъсир этувчи омил ўртасида жуфт корреляция коэффиценти қиймати 0,7 дан катта бўлса, мультиколлениарлик мавжуд дейилади. 1-жадвал маълумотларидан кўриш мумкинки, таъсир этувчи омиллар ўртасида боғланиш зичликлари 0,7 дан катта эмас экан. Корреляцион матрицадаги жуфт корреляция коэффицентлари бўйича ҳулоса қиладиган бўлсак, таъсир этувчи омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд эмас.

Шунингдек, 1-жадвалда корреляция коэффицентларининг ишончлилиги ва эҳтимоллигини аниқлаш бўйича коэффицентлар ҳисобланган (ҳисоблаган корреляция коэффицентларининг тагида жойлашган қаторлардаги қийматлар). Ҳар бир корреляция коэффицентининг пастки қисмида унинг  $t$  - стьюдент мезони ҳисобланган қиймати ва эҳтимоллиги келтирилган. Омиллар ўртасида ҳисобланган эҳтимоллик 0,05 дан катта бўлмаслик шарти қўйилади. Масалан, соф фоизли даромад ( $Y$ ) ва ҳисобланган соф комисион даромад ( $X_1$ ) ўртасида хусусий корреляция коэффиценти  $r_{Y,X_1} = 0,9143$ ,  $t = 9,5768$  ва  $\text{prob.} = 0,0000$  га тенг. Бу эса мазкур икки омил ўртасида зич боғланиш борлигини, хусусий корреляция

коэффициенти ишончли эканлиги ва 95 фоиз аниқликда икки омил ўртасида мусбат боғланиш мавжудлигини кўрсатади.

Юқорида айтилганларни текширишда ҳар бир омилнинг натижавий кўрсаткич билан боғлиқлигини аниқлаш учун уларнинг нуқтали графикларини кўриб чиқамиз.

Бунинг учун соф фоизли даромад ( $Y$ ) бўйича кўп омилли эконометрик моделини тузишда барча омилларни - соф комиссия даромад, млрд. сўм ( $X_1$ ), банкнинг операцион харажатлари, млрд. сўм ( $X_2$ ) ва соф фойдаси ( $X_3$ ) ни кўп омилли эконометрик моделга киритамиз.

Таъсир этувчи омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд эмаслигини текширишнинг яна битта усули - бу VIF (Variance Inflation Factors - мультиколлениарлик самарасини) коэффициентларини ҳисоблашдир.

Агар таъсир этувчи омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд бўлса, у ҳолда Centered VIF > 10 бўлади. 3-жадвалдан кўриш мумкинки, барча таъсир этувчи омилларнинг VIF коэффициентлари 10 дан кичик. Демак, бу ҳам омиллар ўртасидаги корреляция таҳлили каби таъсир этувчи омиллар ўртасида мультиколлениарлик мавжуд эмаслигини кўрсатмоқда.

Биз урганаётган объектда омиллар ўртасида автокорреляция ва хусусий автокорреляция тести ҳам юқори олинган натижаларга мос келди, яъни ўрганилаётган вақтли қаторларда автокорреляция мавжуд эмас экан. Чунки, кузатувларнинг барчасидан шуни кўриш мумкинки, қолдиқларнинг барчасида эҳтимолликларининг қиймати 0.05 дан кичик экан.

Кейинги босқичда Ўзбекистон Республикаси АТБ “Саноатқурилишбанк” нинг соф фоизли даромади бўйича кўп омилли эконометрик модель тузамиз. Умумий ҳолда кўп омилли эконометрик модель қуйидаги кўринишга эга:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + \varepsilon, \quad (3)$$

бу ерда  $y$  – натижавий омил,  $x_i$  - таъсир этувчи омиллар,  $\varepsilon$  - тасодиқий хато.

Кўп омили эконометрик моделдаги (3) номаълум  $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$  параметрларини аниқлашда "энг кичик квадратлар усули" қўлланилади. Кўп омили эконометрик моделнинг номаълум параметрларини ҳисоблашда EViews дастуридан фойдаланамиз.

Банк маълумотларидан фойдаланиб кўп омили эконометрик моделнинг аналитик кўринишини келтирамиз:

$$\ln \hat{y} = 103,3564 + 0,2812x_1 - 0,5238x_2 + 1,4922x_3. \quad (4)$$

Ҳисобланган (4) кўп омили эконометрик модель шуни кўрсатадики, АТБ "Саноатқурилишбанк" соф комиссиян даромади ўртача 1 млрд. сўмга ортса ( $X_1$ ), банкнинг соф фоизли даромади ( $Y$ ) ўртача 0,2812 млрд. сўмга ортиши мумкин экан. АТБ "Саноатқурилишбанк" нинг операцион харажатлари ( $X_2$ ) ўртача 1,0 млрд. сўмга ортиши, банкнинг соф фоизли даромади ( $Y$ ) ўртача 0,5238 млрд. сўмга камайишига олиб келар экан.

АТБ "Саноатқурилишбанк" соф фойдаси ( $X_3$ ) ўртача 1,0 млрд. сўмга ортиши, банкнинг фоизли даромадини ( $Y$ ) ўртача 1,4922 млрд. сўмга ортишига олиб келиши кузатилмоқда.

Кўп омили эконометрик модель (4) сифатини текшириш учун детерминация коэффицентини текширамиз.

Детерминация коэффицентини натижавий омил неча фоизга моделга киритилган омиллардан ташкил топишини кўрсатади.

Ҳисобланган детерминация коэффицентини ( $R^2$  - R-squared) 0,9276 га тенг. Бу эса АТБ "Саноатқурилишбанк"нинг соф фоизли даромади ( $Y$ ) 92,76 фоизи (4) кўп омили эконометрик моделга киритилган омиллардан ташкил топишини кўрсатмоқда.

Қолган 7,24 фоизи (1,0-0,9276) эса ҳисобга олинмаган омиллар таъсиридир.

Кўп омили эконометрик моделдаги (4) омилларнинг стандарт хатоликларининг ҳам кичик қийматларни қабул қилганлиги ҳам моделнинг статистик аҳамияти юқори эканлигидан далолат беради.

Моделларни турли миқдордаги омиллар билан таққослаш имконияти бўлиши ва ушбу миқдордаги омиллар  $R^2$  статистикага таъсир этмаслиги учун одатда текисланган детерминация коэффицентидан фойдаланилади, яъни:

$$R_{\text{adj.}}^2 = 1 - \frac{s^2}{s_y^2} \quad (5)$$

Текисланган детерминация коэффиценти (Adjusted R-squared) 0,9141 га тенг бўлиши ва унинг  $R^2$  га яқинлиги, моделнинг таъсир этувчи омиллар сони ўзгариши атрафида қийматларни қабул қила олишини билдиради.

Кўп омилли эконометрик моделнинг (4) статистик аҳамиятлигини ёки ўрганилаётган жараёнга адекватлигини (мос келишини) текширишда Фишернинг F-мезони қўлланилади ва унинг ҳисобланган F-мезони қиймати унинг жадвалдаги қиймати билан таққосланади. Агар  $F_{\text{ҳисоб}} > F_{\text{жадвал}}$  бўлса, у ҳолда кўп омилли эконометрик модель (4) статистик аҳамиятли дейилади.

Демак, (4) моделнинг статистик аҳамиятлилигини текшириш учун F-мезоннинг жадвал қийматини топамиз. Бунинг учун озодлик даражалари  $k_1 = m$  ва  $k_2 = n - m - 1$  ҳамда  $\alpha$  аҳамиятлик даражаси бўйича қийматларни ҳисоблаймиз. Аҳамиятлик даражаси  $\alpha = 0,05$  ва озодлик даражалари  $k_1 = 3$  ва  $k_2 = 20 - 3 - 1 = 16$  дан келиб чиқиб, F-мезоннинг жадвал қиймати  $F_{\text{жадвал}} = 3,24$  га тенг. F-мезоннинг ҳисобланган қиймати  $F_{\text{ҳисоб}} = 68,3636$  ва жадвал қиймати  $F_{\text{жадвал}} = 3,24$  га тенг ва  $F_{\text{ҳисоб}} > F_{\text{жадвал}}$  шarti бажарилганлиги учун (4) кўп омилли эконометрик моделни статистик аҳамиятли дейилади.

Кўп омилли эконометрик моделнинг (4) ҳисобланган параметрлари (регрессия коэффицентлари) ишончлилигини текширишда Стьюдентнинг t-мезонидан фойдаланилади.

Стьюдентнинг t-мезонининг ҳисобланган ( $t_{\text{ҳисоб}}$ ) ва жадвал ( $t_{\text{жадвал}}$ ) қийматларини таққослаб,  $H_0$  гипотезани қабул қиламиз ёки рад этамиз. Бунинг учун t-мезоннинг жадвал қийматини танланган ишонччилик эҳтимоли ( $\alpha$ ) ва озодлик даражаси (d.f. =  $n - m - 1$ ) шартлар асосида топамиз. Бу ерда  $n$  - кузатувлар сони,  $m$  - омиллар сони.

Ишончлилик эҳтимоли  $\alpha = 0,05$  ва озодлик даражаси  $d.f. = 20 - 3 - 1 = 16$  бўлганда,  $t$ -мезонинг жадвал қиймати  $t_{\text{жадвал}} = 2,1190$  га тенг.

Регрессион ҳисоб-китоблардан шуни кўриш мумкинки, барча омиллар бўйича  $t$ -мезоннинг ҳисобланган қийматлари  $\alpha = 0,05$  аниқликда жадвал қийматидан катта эканлигини кўриш мумкин (5-жадвал). Бу эса мазкур омилларнинг кўп омилли эконометрик моделда қатнашишларига имкон беради.

Кўп омилли эконометрик модель (4) бўйича натижавий омил қолдиқларида автокорреляцияни текшириш учун Дарбин-Уотсон ( $DW$ ) мезонидан фойдаланамиз.

Ҳисобланган  $DW$  қиймати жадвалдаги  $DW_L$  ва  $DW_U$  билан солиштирилади. Агар  $DW_{\text{ҳисоб}} < DW_L$  дан кичик бўлса, қолдиқларда автокорреляция мавжуд дейилади.  $DW_{\text{ҳисоб}} > DW_U$  дан катта бўлса, қолдиқларда автокорреляция мавжуд эмас дейилади.

Дарбин-Уотсон мезонининг пастки чегараси қиймати  $DW_L = 1,00$  га тенг ва юқори чегараси қиймати  $DW_U = 1,68$  га тенг.  $DW_{\text{ҳисоб}} = 1,7159$  га тенг. Демак,  $DW_{\text{ҳисоб}} > DW_U$  бўлгани учун натижавий омил (АТБ “Саноатқурилишбанк”нинг соф фоизли даромади ( $Y$ )) қолдиқларида автокорреляция мавжуд эмас экан.

Натижавий омил қолдиқларида автокорреляциянинг мавжуд эмаслиги ҳам юқорида келтирилган (4) кўп омилли эконометрик моделдан прогнозда фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади.

Кўп омилли эконометрик моделнинг ҳақиқий (Actual), ҳисобланган (Fitted) қийматлари ва улар ўртасидаги фарқлар (Residual) кўп омилли эконометрик модель бўйича АТБ “Саноатқурилишбанк” соф фоизли даромадининг ҳисобланган қийматлар графиги унинг ҳақиқий қийматлари графиги билан жуда яқин жойлашган, улар ўртасидаги фарқлар ҳам унчалик катта эмаслигини курсатди.


Бу эса (4) кўп омилли эконометрик моделдан АТБ “Саноатқурилишбанк” соф фоизли даромадини келгуси даврларга прогнозлашда фойдаланиш мумкинлигини яна бир исботи ҳисобланади.

Ҳисобланган (4) кўп омилли эконометрик моделдан келгуси даврларга натижавий кўрсаткични прогнозлашда MAPE (Mean absolute percent error – фоизлардаги ўртача абсолют хатолик) коэффиценти ҳисобланади ва у куйидаги формула ёрдамида топилади:

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|y_i - \hat{y}_i|}{y_i} \cdot 100\% , \quad (6)$$

бу ерда  $y_i$  - натижавий омилнинг ҳақиқий қийматлари,  $\hat{y}_i$  - натижавий омилнинг ҳисобланган қийматлари.

Агар ҳисобланган MAPE коэффиценти қиймати 15,0 фоиздан кичик бўлса, моделдан натижавий омилни прогнозлашда фойдаланиш мумкин бўлади, акс ҳолда фойдаланиб бўлмайди. АТБ “Саноатқурилишбанк” соф фоизли даромади бўйича MAPE коэффицентининг қиймати 8,3294 фоизни ташкил этмоқда (1-расм).



1-расм. Ҳисобланган кўп омилли эконометрик моделдан прогнозда фойдаланиш кўрсаткичлари

Бу эса 15,0 фоиздан кичик ( $MARE=8,3294$ ). Шунинг учун ҳам (4) кўп омилли эконометрик моделдан АТБ “Саноатқурилишбанк” соф фоизли даромади кўрсаткичини прогнозлашда фойдаланиш мумкин.

### **Адабиетлар руйхати**

1. Муталова М.А., Ишназаров А. “Трансформация банков на основе применения Санкт-Галленской модели управления банков”. Монография – Т.: 2022. – 73 с.

2. Муталова М.А., А. Муталов “О совершенствовании налогообложения малого бизнеса в Республике Узбекистан” - Тезисы доклада на Республиканской научно-практической конференции “О совершенствовании налогообложения малого бизнеса” Ташкент -2022г.

3. Муталова М.А., Р. Файзиев “Эмпирические экономико-математические модели управления запасами в ms excel - Тезисы доклада на Республиканской научно-практической конференции на тему: “Узбекистонда хужалик юритишнинг янги бизнес моделлари-иктисодий усишни таъминлаш ва камбагалликни кискартириш асоси сифатида” Ташкент -2022г.

4. Муталова М.А. “Тижорат банкларини трансформациялаш давр талаби” - Доклад на Республиканской научно-практической конференции на тему: “Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida bank-moliya tizimini rivojlantirish istiqbollari” Ташкент -2022г.

5. Муталова М.А. “Экономическое моделирование трансформации банков (на примере Санкт-Галленской модели управления) - Журнал “Экономика и предпринимательство” г. Москва № 6, 2022 г

## **ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ УСЛУБИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА АМАЛИЁТИ**

**Пардаев Жамшид Музаффарович**

**ТДИУ тадқиқотчиси**

Агар, хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортиш эволюцион жараёнларига эътибор берадиган бўлсак, уларни солиққа тортиш асосан даромадларини солиққа тортиш шаклида амал қилганлигини кўриш мумкин.

Бундан келиб чиқадики, бугунги кунда Ўзбекистон солиқ тизимида хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишда солиққа тортишнинг турли хил тартиблари амал қилиб келмоқда. Назарий ва амалий жиҳатдан олиб қаралганда бошқа корхоналар сингари хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишда ҳам асосан 4 хил тартибдаги солиққа тортиш амалиёти уларнинг фаолиятининг хусусиятига қараб турлича қўлланилади. Жумладан, пропорционал солиққа тортиш тартибида Хизмат кўрсатиш корхоналарига бир хил тартибда солиқ режимлари қўлланилса, соддалаштирилган солиққа тортиш тартибида эса, хизмат кўрсатиш корхоналарига бир неча солиқларни битта солиқ турида тўлаш имконияти берилиши тарзида солиққа тортилади, марказлаштирилган солиққа тортиш тартибида (масалан почта хизматлари) аксарият хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортиш Бош корхонадан ундирилиши шаклида амал қилади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортиш амалиёти ва услубий асосларини таҳлил қиладиган бўлсак, ўзига хос ёндошувлар сифатида хизмат кўрсатиш корхоналарига нисбатан мезонларнинг қўлланишини келтириш мумкин. Дастлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 1998 йил 9 апрелдаги ПФ–1987-сонли Фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 15 апрелдаги Солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимида ўтган кичик корхоналарга солиқ солиш тартиби



тўғрисида"ги 159-сон [қарорига](#)<sup>32</sup> асосан бошқа кичик корхоналар сингари хизмат кўрсатиш соҳасидаги тадбиркорлик субъектлари учун ҳам солиқ солишнинг соддалаштирилган тизимини қўллаш тартиби ялпи умумдавлат солиқларини, шунингдек, давлат ҳокимияти маҳаллий органлари томонидан жорий этиладиган маҳаллий солиқлар ва йиғимларни тўлаш ўрнига ягона солиқ тўлаш амалиёти жорий қилинди. Ушбу мезонларга кўра, савдо, хизмат кўрсатиш ҳамда бошқа ноишлаб чиқариш соҳаси тармоқларида кўпи билан 5 нафар иш билан банд ходимга эга бўлган микрофирмалар, илм-фан, илмий хизмат кўрсатиш, чакана савдо ҳамда бошқа ноишлаб чиқариш соҳаси тармоқларида — кўпи билан 10 нафар иш билан банд ходимга эга бўлган кичик корхоналар тоифалари белгилаб берилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 7 апрелдаги "Хусусий тадбиркорлик, кичик бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4609 -сонли Фармонида асосан 2014 йил 1 январдан бошлаб хизмат кўрсатиш соҳасидаги кичик бизнес субъектларини солиққа тортиш мақсадида қуйидаги мезон ўрнатилди: хизмат кўрсатиш ҳамда бошқа ноишлаб чиқариш соҳаларида — ўн нафардан, улгуржи, чакана савдо ва умумий овқатланиш соҳасида — беш нафардан ошмайдиган ишчи ходимларга эга бўлган микрофирмалар; илм-фан, илмий хизмат кўрсатиш, транспорт, алоқа, хизмат кўрсатиш соҳалари (суғурта компанияларидан ташқари), савдо ва умумий овқатланиш ҳамда бошқа ноишлаб чиқариш соҳаларида — йигирма беш нафардан ошмайдиган ходимга эга бўлган кичик корхоналарни мезонлари ўрнатилди. Шунга мувофиқ тарзда хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишда асосий солиқ тури бўлган ягона солиқ тўлови жорий қилиниш мезонлари такомиллаштирилиб борилди.

Бизга маълумки, хизмат кўрсатиш корхоналари тўлайдиган аксарият солиқлар бўйича тушумлар маҳаллий бюджетларга тушади, бу эса, ҳудудлар

---

<sup>32</sup> Ушбу қарор Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 27 декабрдаги 244-сонли «Ўзбекистон Республикасининг 2006 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги [қарорига асосан бекор қилинган](#).

кесимида кўрсатилган бозор хизматларининг даражасига ҳам боғлиқ бўлади, агар ҳудудларда кўрсатиладиган хизматларнинг ҳажми ошиб борса, маҳаллий бюджетларга солиқ тушумларининг ошишига ҳам ижобий таъсир қилиши табиий.

1-жадвал.

**2020-2022 йилларда Ўзбекистонда ҳудудлар кесимида кўрсатилган бозор хизматларининг асосий кўрсаткичлари таҳлили<sup>33</sup>**

Ҳудудларнинг номи	Ҳажм, млрд. сўмда	Умумий ҳажмга нисбатан улуши, % да	Ўсиш суръати, % да	
			2021 й.	2020 й.
Ўзбекистон Республикаси	357 554,5	100,0	115,9	119,5
Қорақалпоғистон Респ.	10 421,9	2,9	115,7	121,5
<i>вилоятлар:</i>				
Андижон	17 642,4	4,9	112,9	118,3
Бухоро	15 780,0	4,4	115,8	118,0
Жиззах	7 984,0	2,2	115,7	117,8
Қашқадарё	15 945,8	4,5	114,1	114,4
Навоий	9 247,2	2,6	114,2	118,3
Наманган	14 722,6	4,1	116,6	119,7
Самарқанд	22 734,9	6,4	114,9	119,0
Сурхондарё	12 878,0	3,6	114,5	120,1
Сирдарё	5 029,8	1,4	112,5	118,8

2020-2022 йилларда Ўзбекистонда ҳудудлар кесимида кўрсатилган бозор хизматларининг асосий кўрсаткичлари таҳлилига эътибор қаратадиган бўлсак, 2022 йилда ҳудудлар кесимида хизмат кўрсатишнинг энг юқори улушларни Тошкент шаҳри, Самарқанд, Андижон ва Бухоро вилоятлари

<sup>33</sup> Статистика Давлат агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

эгаллайди, яъни, 2022 йилда бозор хизматларининг умумий ҳажмида Тошкент шаҳрининг улуши 38,4 %, яъни 137 358,1 млрд. сўмни, 2021 йилга нисбатан эса, Тошкент шаҳрида хизмат кўрсатиш қийматининг ўсиш суръати 118,2 %ни ташкил қилган. Ҳудудлар кесимида энг кам улушни эгаллаган Сирдарё вилоятида кўрсатилган бозор хизматлари ҳажми 2022 йилда 5 029,8 млрд. сўмни ташкил этганки, бу умумий хизматлар ҳажмининг бор йўғу 1,4 % ини ташкил этади. Ўз ўзидан кўринадики, ҳудудларда хизматлар ошиши маҳаллий бюджетларига ҳам солиқ тушумларининг ошишига хизмат қилади.

Яна шуни ҳам таъкидлаш лозимки, республикамизда аҳоли сони хизматлар соҳасининг ўртача жон бошини ривожланиш кўрсаткичига муҳим таъсир кўрсатади ва бу ҳолат ҳудудларда солиқ тушумларининг миқдорига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Жумладан, аҳоли сони нисбатан кам бўлган Навоий ва Бухоро вилоятларида аҳоли жон бошига кўрсаткичлар аҳоли зич жойлашган вилоятлар ҳисобланган-Қашқадарё, Наманган ва Андижон вилоятларига қараганда анчайин яхши кўрсаткичларга эга. Чунки, саноати ривожланган Ўзбекистон ҳудудлари бўлган Навоий ва Тошкент вилоятлари ҳамда, Тошкент шаҳрида хизматлар соҳасининг аҳоли жон бошига ўртача кўрсаткичлари Хоразм, Наманган ва Сурхондарё вилоятларига нисбатан юқоридир. Ҳудудларда кичик тадбиркорлик қанчалик ривожланган бўлса, биринчидан, хизматлар ҳажмининг ошишига олиб келса, бошқа томондан аҳоли бандлигини таъминлашга хизмат қилса, провардида солиқ тушумларининг ошишини ҳам таъминлайди. Чунки, хизматлар соҳасида кичик тадбиркорлик сектори иқтисодиётнинг барқарор ўсишига, янги иш ўринларини яратишга, даромадларни оширишга ва аҳоли фаровонлигини таъминлашга ёрдам беради. Албатта, ҳудудларнинг социал-иқтисодий ривожланиши уларда хизмат турларининг даражасининг даражасини ҳам белгилаб беришга хизмат қилади. Баъзи ҳудудларда хизмат турининг қайсидир тури ривожланган бўлса, бошқаларида эса бошқа турлари нисбатан кучлироқ ривожланган бўлади. Масалан, Тошкент, Бухоро Самарқанд, Хива

шаҳарларида яшаш хизматларини кўрсатиш хизмат турлари анчайин ривожланган ва бу ўз навбатида солиқ тушумларида ҳам ўз аксини топади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишнинг назарий-услубий асосларини тадқиқ қилишда бу жараённинг услубий механизмларини ҳам кўриб чиқиш илмий аҳамиятга эгадир. Бу услубий асослари тарихий жараёнлар ва иқтисодий ислохотлар натижасида ўзгариб ривожланиб борган. Ҳозирги кунда Ўзбекистон солиқ тизимидаги солиққа тортиш амалиётида хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишда икки хил услубий амалиётни кўриш мумкин. Яъни, бунинг биринчиси, хизмат кўрсатишга ихтисослашган корхоналар фаолиятига мувофиқ солиққа тортиш ёндошув бўлса, кейингиси, тадбиркорлик субъектларининг қўшимча хизмат кўрсатиш фаолиятига нисбатан солиқ солиш услубиётига асосланган амалий жараён мавжудлигини келтириб ўтиш мумкин.

Маълумки, солиқ солишнинг соддалаштирилган тартиби солиқ тўловчиларнинг айрим тоифалари, жумладан хизмат кўрсатиш корхоналарига нисбатан ҳам қўлланилиб, у ўз ичига ягона солиқ тўловини, ягона ер солиғини ҳамда тадбиркорлик фаолиятининг айрим турлари бўйича қатъий белгиланган солиқни қамраб олган, қатъий белгиланган солиқни тўлаш белгиланган фаолият турларини амалга оширувчи ягона солиқ тўлови тўловчилар ва ягона ер солиғини тўловчилари ушбу фаолият турлари бўйича алоҳида-алоҳида ҳисоб юритишлари ҳамда белгиланган тартибда қатъий белгиланган солиқ тўлашлари шарт бўлган, шунингдек, ягона солиқ тўловини тўлашни назарда тутадиган солиқ солишнинг соддалаштирилган тартибини ёки умумбелгиланган солиқлар тўлашни ихтиёрий равишда танлаш имконияти берилган. Ўз навбатида ушбу тоифадаги корхоналар ягона солиқ тўловини тўлашдан ихтиёрий равишда воз кечган тақдирда ҳисобот даври тугаганидан сўнг ўн кун ичида давлат солиқ хизмати органларига тақдим қилинадиган ёзма билдириш асосида кейинги ҳисобот давридан бошлаб умумбелгиланган солиқлар тўлашга ўтиши мумкинлиги амал қилган.

*Умумий хулоса қилиб айтганда* хизмат кўрсатиш корхоналарини солиққа тортишда ўзига хос тамойиллар қўлланиладики, бу биринчидан, хизмат кўрсатиш соҳасининг ички ижтимоий-иқтисодий хусусиятларига боғлиқ бўлса, бошқа томондан ушбу тармоқдаги корхоналарда молиявий ресурсларнинг айланиши бошқа тармоқлар (масалан, ишлаб чиқариш, қурилиш)дан анчайин фарқ қилади. Бошқа томондан бу турдаги корхоналарда молиявий рискларни бошқариш ҳам ўзига хос мураккабликларга эгаки, фикримизча, ушбу корхоналарни солиққа тортишга оид сиёсатни ишлаб чиқишда эътиборга олиш лозим деб ҳисоблаймиз.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-5113-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 сентябрдаги ПФ-6314-сон “Тадбиркорлик субъектлари учун маъмурий ва солиқ юкини янада камайтириш, бизнеснинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.
4. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Ибодуллаев Н.Е., Амриддинова Р.С. Туризм асослари: Ўқув қўлланма – С.: СамИСИ, 2010.
5. Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг тавсифи. // Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. Т.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2008 йил.

## **“МАҲАЛЛАБАЙ” ТИЗИМИ АСОСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

**Жўраева Шахло Учқун кизи**

**Тошкент давлат иқтисодиёт**

**университети таянч докторанти**

**E-mail: [jorayevashaxlo@gmail.com](mailto:jorayevashaxlo@gmail.com)**

Бугунги кунда тадбиркорлик фаолияти жамият ва турмуш тарзи фаровонлигининг ошишида муҳим ўрин тутди. Ваҳоланки инсонларнинг турмуш тарзи сифати, уларнинг яхши шароитда кун кечириши давлатимиз олдида турган муҳим вазифалардан биридир. Шу боис ҳам тадбиркорлик фаолиятини кўпайтириш ва ривожлантириш жоиздир.

Жорий йил 25 январ куни мамлакатимиз раҳбари бошчилигида камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш, шунингдек тадбиркорлик ва кичик бизнесни қўллаб-қувв Жорий йил 25 январда Президентимиз раислигида камбағалликни қисқартириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтди. Йиғилишда келтириб ўтилган маълумотлар Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш жараёнлари бошқа мамлакатларга нисбатан яхшироқ натижани кўрсатган бўлиб, ўтган йил 1 январдан жорий этилган “маҳаллабай” тизими юқори самарадорликни ҳам намоён этди. Албатта бундай натижага эришишда Президентимизнинг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида”ги ПФ-29-сон фармони пойдевор бўлди. Ушбу фармонга мувофиқ маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман, шаҳар ҳокимларининг ёрдамчилари масъул булдилар ва самарали фаолият олиб бордилар. Шунингдек Президентнинг 2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-62-сон қарорига мувофиқ Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш жамғармаси ташкил этилиб, Вазирлар

Маҳкамасининг 19.04.2022 йилдаги “Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 195-сон қарори қабул қилинди ва агентликнинг асосий вазибалари этиб, қуйидагилар белгиланди:

-республикада тадбиркорликни ва маҳаллаларни иқтисодий ривожлантириш борасида ягона давлат сиёсатини юритиш;

-маҳаллабай ишлашнинг вертикал тизими асосида аҳолининг даромадли меҳнат билан бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорликка жалб қилиш ва ўқитиш ҳамда ўзини ўзи банд қилиш фаолиятига йўналтириш;

-ваколатли давлат органлари ва ташкилотлари ҳамда маҳаллаларда тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича туман (шаҳар) ҳокими ёрдамчиларининг фаолиятини мувофиқлаштириш.

Ҳозирда ҳар бир вилоятда ушбу агентлик фаолият олиб бормоқда. Шулардан бири Хоразм вилоят Урганч шаҳарнинг Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги бўйича маълумотларни келтирамиз ва таҳлил қиламиз. Маълумотларга кўра вилоятда аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш, ёшлар ва хотин-қизларни касб-хунар ва тадбиркорликка ўқитиш 2022 йилда 4 725 нафар ўқиш ва касб-хунар ўрганиш истаги бор бўлган фуқаролар аниқланди. Йил бошида 1 710 нафар фуқаролар ўқиш ва касб-хунарга жалб қилинди. Жумладан, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳисобидан унинг қуйи тизимидаги касб хунар мактаблари ва мономарказларида 1 380 нафар, Савдо саноат палатаси томонидан туманлар ва шаҳарлардаги бўлимлари орқали 101 нафар ва нодавлат таълим ташкилотлари томонидан 229 нафар фуқаролар ўқишга жалб қилинди. Ўқишни муваффақиятли тамомлаган фуқаролардан 285 нафарининг бандлиги таъминланди, 15 нафарига кредит маблағлари ажратилди ва 9 нафарига субсидиялар берилди. Шунингдек, вилоят, туман, шаҳарларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурлари доирасида

бир қанча лойиҳалар амалга оширилди ва мингга яқин янги иш ўринлари яратилди. Бундан ташқари хориж мамлакатларидан қайтиб келган 6 454 нафар фуқароларнинг 4 499 нафари билан учрашувлар ташкил қилинди ва уларнинг 424 нафари саноат корхоналарида, 843 нафари қишлоқ хўжалиги ишларида, 4 010 нафари қурилиши ишларида, 543 нафари савдо соҳасида, 11 нафари таълим соҳасида, 623 нафари эса бошқа турли йўналишларда фаолият олиб бормоқда. Уларнинг 1 733 нафари бандлиги таъминланди.

Яна бир тадбиркорлик фаолияти ривожланган вилоят Фарғонадир. Вазирлар Маҳкамасининг “Фарғона вилояти мисолида республиканинг барча ҳудудларида “Тадбиркор – ислохотчи” ғоясини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги қарори лойиҳаси юқоридаги сўзимиз исботидир. Фарғона вилоятининг Тошлоқ туманида, маҳаллаларда тадбиркорликни ривожлантириш ва иш ўринлари яратиш, оилалар даромадини кўпайтириш борасида амалга оширилаётган ишлар билан танишамиз. Юқориқишлоқ МФЙ Қалача маҳалласида “Export Import Quality” мева-сабзавотчилик кластери томонидан барпо этилган лимончилик иссиқхонаси ҳамда амалга оширилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, ташиш ва сақлаш лойиҳаси бўлиб, тадбиркорнинг ўз сармояси ҳамда хорижий кредит линияси ҳисобидан 46 млрд. сўмдан зиёд маблағ йўналтирилган ушбу лойиҳа 2022 йилнинг март ойида тўлиқ якунланиши натижасида 300 та янги иш ўринлари яратилди. Ушбу лойиҳа учун тадбиркорга “Туронбанк” АТБ томонидан кредит маблағлари ажратиб берилди. Шунингдек ушбу туманда 668 та хонадонларнинг қарийб 200 тасида иссиқхоналар мавжуд бўлиб, улар самарали фаолият олиб бормоқда. Марғилон шаҳрида ҳам тадбиркорлик фаолияти раванқ топган десак муболаға бўлмайди. Сўзимиз исботи тариқасида "Narimteks" кўшма корхонасини айтиш жоиздир. Ушбу корхона тўқимачилик соҳасида фаолият олиб бораётган корхоналардан биридир. Корхона асосан тўрт мавсумга мўлжалланган аёллар кийим-кечакларини тикишга ихтисослашган. Корхонага хориждан энг сўнги русумдаги бичиш-тўқиш, безак бериш ҳамда тикув машиналари импорт



қилинган. Йилига ўртача 40-50 минг дона аёллар пальтоси, пиджак ва куртқалари, шунингдек юздан ортиқ турдаги хотин-қизлар учун мўлжалланган либослар ишлаб чиқарилади. Корхонада ишлаб чиқарилаётган мазкур товарларга нафақат республикамизда, балки хорижда ҳам талаб катта. Корхона ишлаб чиқарилаётган сара маҳсулотлар дунёнинг деярли барча қитъаларига экспорт қилиниши йўлга қўйилган. Қува туманида эса “Осиё бизнес ривожини” масъулияти чекланган жамият бўлиб, ушбу корхонада 10 нафарга яқин ёшларнинг бандлиги таъминланган. Шунингдек Риштон туманида фаолият бошлаган томорқачилик кластерлари ҳам аҳолига юқори даромад олиб келмоқда. Кластер томонидан 2 та 10 сотихли иссиқхона ташкил қилинган бўлиб, у ерда лимон, апельсин ва мандарин парваришланмоқда. Кўчатлар 4 ёшга тўлган бўлиб, лимон кўчатларини ҳар бир тупидан 50-60 килограмм, мандарин ва апельсин кўчатларидан эса 40-45 килограмм ҳосил олинмоқда. Томорқачилик кластерида цитрус меваларни кўпайтириш ва аҳолини билим-кўникмаларини ошириш мақсадида ўқув маркази ташкил қилинган. Ҳозирги кунда томорқа кластерида 2 та мини трактор, 10 та мотокультиватор, 2 та юк ташувчи транспорти ҳамда 500 тоннали музлатгич ташкил қилинган. Бундан ташқари, паррандачиликни ривожлантириш мақсадида аҳоли хонадонларига жами 20 минг дона жўжалар етказиб берилди.

Самарқанд вилоятида ҳам тадбиркорлик фаолияти кун сайин ривожланиб бормоқда. Бугунги кунда вилоятдаги “Ургут” эркин иқтисодий зонасида 58 инвестор томонидан умумий қиймати 226 миллион АҚШ долларига тенг 65 та атрофида лойиҳа амалга оширилди. Мазкур лойиҳалар тўлиқ ишга туширилиши ҳисобига 4423 та янги иш ўринлари яратилди ва 347,6 миллион долларлик маҳсулот ишлаб чиқарилиб, 44 миллион долларлик экспорт амалга оширилди. Айти пайтда вилоятнинг 14 ҳудудида 115,8 гектар ер майдонида 19 та кичик саноат зонаси ташкил этилган. Уларда инвестиция миқдори 67,1 миллион АҚШ долларига тенг 96 та лойиҳа амалга оширилмоқда. Ҳозиргача 32 та лойиҳа ишга туширилиб, 742 та янги иш ўрни яратилди.

Бухоро вилояти туристлар оқими кенг шаҳарлардан биридир ва шу боис ҳам тадбиркорлик фаолиятига имкониятлар кенгдир. Маълумотларга кўра сўнгги беш йилда Бухорода 31 триллион сўм инвестиция жалб қилинган ва 3 мингдан зиёд корхона ишга туширилган. Бу давр оралиғида вилоятда ишлаб чиқариш 4,3 бараварга кўпайиб, 2022 йилда 27 триллион сўм, саноат экспорти 200 миллион долларга етди, яъни 5 баравар ошди. Бугун фаолиятини бошлаган 6 та корхонада ҳам 3,5 мингта янги иш ўрни яратилган ва вилоят ишлаб чиқаришига 850 миллиард сўм қўшилиши режалаштирмоқда. Маълум қилинишича, 2023 йил давомида Бухорода 880 миллион долларлик 703 та корхона ишга туширилиб, 15 мингта иш ўрни яратилиши мақсад қилинган. Бу лойиҳаларга 220 миллион доллар кредит ва инфратузилмасига 100 миллиард сўм ажратилади. Шунингдек, Бухородаги умумтаълим мактабларида "Тадбиркорлик марказлари" ташкил этилмоқда. Мақсад эса сектордаги ёшлар, эҳтиёжманд оилалар билан ишлаш, улардан меҳнатга лаёқатлиларини бирор бир ҳунарга ўргатиш ва шу орқали уларни доимий иш билан таъминлашдан иборат. Бухоро тумани ҳудудидаги 5 та умумтаълим мактабларида ташкил этилган ана шундай марказларда юздан ортиқ ўқувчилар касб-ҳунар эгалламоқда. Тадбиркорларга «Устоз-шогирд» анъанаси асосида мактаб ўқувчилари ва ҳудуддаги ишсиз фуқароларга ўз ҳунарини ўргатгани учун иш ҳақи тўлаш ҳам йўлга қўйилган.

Олиб борилаётган саъй-ҳаракатлар натижасида ўқувчилар мактабни битиргач ўзи қизиққан ҳунар эгаси бўлади. Катта ҳаёт остонасига қадам қўйиши билан ўзи эгаллаган ҳунарини давом эттириб тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш имконияти пайдо бўлади. Бу орқали эса мактаб битирувчилари орасида ишсизлик кўпайиши, пул топиш учун четга чиқиб кетиш каби ҳолатларнинг олди олинади. Ҳозирда вилоятда 533 та умумтаълим мактаблари мавжуд. Уларда иш бошлаган марказлар 12 минг 400 нафар ўқувчилар ва ҳудудлардаги ишсиз аҳоли вакиллари қамраб олди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, мамлакатимизда ҳар бир вилоятда ўзининг жойлашуви, об-ҳавоси ва бошқа турли сабабларга кўра тадбиркорлик

фолияти турлича ривожланган бўлиб, улар улар ўзаро билим алмашишлари ва ўзларининг энг яхши бизнес режаларини ўз ҳудудларида тадбиқ этиб, жорий этиш лозим. Албатта маҳаллабай тизими асосида тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ва ривожлантириш янада юқори натижаларга олиб келиб турмуш тарзини яхшилашга хизмат қилади.

## **КРЕАТИВ ҲИСОБНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШДАГИ РОЛИ**

**Аслиддин Махмудов**

**ТДИУ тадқиқотчиси**

Бухгалтерия соҳасида илмий фикр бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш мақсадлари учун ижодий ёндашув нуқтаи назаридан доимо ривожланмоқда. Иқтисодий адабиётларда бухгалтерия ҳисоби жараёнига ва ҳисобот беришга таъсир қилувчи профессионал фикрга оид баҳс-мунозарали нуқтаи назарлар пайдо бўлди. Бунинг оқибатида хорижий адабиётларда турли мамлакатлар олимлари томонидан турли нуқтаи назар ва позицияларда кўриб чиқилган креатив ҳисоб тушунчаси пайдо бўлди.

Шунингдек, сўнгги вақтларда дунёнинг ривожланган мамлакатларида йирик компанияларнинг биржа қийматини ошириб кўрсатиш, асосиз кўшимча дивидендларни тўлаш, соф фойдани кўпайтириб қайд этиш тенденцияси кузатилмоқда. Бу бухгалтерия ҳисобини юритиш ва ҳисоботни тузишга креатив ёндашув натижасида пайдо бўлди.

Креатив ҳисоб ёки ижодий ёндашиладиган ҳисоб инглиз тилидаги creative (ижодий) сўзидан олинган. Креатив ҳисоб бухгалтернинг профессионал фикрларидан фойдаланган ҳолда манфаатдор шахслар учун молиявий ҳисоботларнинг жозибадорлигини оширадиган ва фаолият кўрсатаётган компанияси учун солиқ юқини камайтирадиган қонуний усуллар тўпламини ифодалайди. Шундай қилиб, бухгалтернинг ижодий ёндашуви давлат нуқтаи назаридан қараганда бюджет ва ташкилотнинг ўртасидаги бюджетни тўлдириш масаласидаги ўзаро муносабатларига салбий таъсир кўрсатади. Хорижда креатив ҳисоб нисбатан мақбул кўринишида - бу умумий

қабул қилинган амалиётга ёки белгиланган меъёрлар ва тамойилларга мос келмайдиган ҳар қандай ҳисобга олиш усулидир. Энг салбий кўриниши эса, акциядорлар, инвесторлар ва бошқа манфаатдор фойдаланувчилар олдида ўз фаолиятларини янада мақбул ва ижобий кўринишда тақдим этиш мақсадида компаниядаги ҳисобни ўзгартириш жараёнидир, деган қарашлар мавжуд.

Ҳисобнинг креативлиги ахборот йўналишига ва унинг бошқарувда кўлланилишига боғлиқ бўлмайди, балки бухгалтернинг бухгалтерия ҳисобини бошқарув мақсадлари учун жорий қилиш ҳамда ташкил этишга таъсирини тавсифлайди. Бизнингча, креатив ҳисобни бухгалтернинг профессионал фикрини корхонани ўз олдига қўйган мақсадидан келиб чиқиб, ишончли, сифатли бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларни тайёрлашга таъсири нуқтаи назаридан кўриб чиқиш керак.

Ҳозирги кунда иқтисодий адабиётларда креатив ҳисоб асосан корхонанинг ҳақиқий молиявий ҳолатини хаспўшлаб кўрсатиш воситаси сифатида қаралади. Шу муносабат билан, молиявий ҳисоботларда йўл кўйиладиган хатолар иккита тур: рақамларни нотўғри акс эттириш ва сохталаштиришга ажратилади. Рақамларни нотўғри акс эттириш ҳар доим ҳам қасддан қилинмайди ва баланс тузувчиларнинг малакасини пастлиги ёки бепарволиги туфайли юзага келиши мумкин, лекин одатда қасддан қилинади. XX асрда хорижий олимлар бундай ҳисобни алдов, бироқ меъерий хужжатлар ва тартибга солувчи хужжатлар асосида амалга ошириладиган алдов деб ҳисоблаган. Иқтисодий адабиётлар тадқиқоти шуни кўрсатдики, бу йўналиш бухгалтерия ҳисобини инглиз-саксон мактабига тегишлидир. Ушбу мактабда бухгалтерия ҳисобини малакали бухгалтерлар институти томонидан ишлаб чиқилган қоидаларга кўра ташкил этилиши устувор ҳисобланади. Умуман олганда, кўплаб хорижий тадқиқотчиларнинг ижодий ҳисоб масаласига муносабати салбий ҳисобланади. Бухгалтерия ҳисоби қонун билан қатъий тартибга солинган мамлакатларда бундай ҳисоб унчилик ривожланмаган. Буни асосий сабаби уларда даромадлар, молиявий қийинчиликлар, қарздорликнинг

мавжудлиги ёки корхонани молиявий барқарор қилиб кўрсатиш мақсадида рақамларни атайин пасайтириш имконияти кам бўлади.

Россияда эса креатив ҳисоб кўпинча бухгалтерия ҳисобини одатдаги солиқ ҳисоби, бошқарув ҳисоби, кичик корхоналар ҳисоби элементлари каби мустақил элемент сифатида қаралмоқда. Бу тўғри албатта. Чунки креатив ҳисоб бизнесни юритиш шартларидан келиб чиқиб, ижодий ёндашув корхоналарнинг иқтисодий муаммоларини ҳал қилиш ва фаолият объектларини оқилона бошқариш имконини берадиган ҳолатларда қўлланилиши керак. Креатив ҳисоб аслида мавжуд бухгалтерия стандартлари ичидан турли ҳисоб технологияларини танлаш демакдир.

Креатив ҳисобни кенг тарқалган усулларига қуйидагилар киради:

- харажатларни қонун ҳужжатларида белгиланган счетлардан бошқасига ҳисобдан чиқариш;

- савдо ҳажмини ошириш мақсадида ўзаро тил бириктириш орқали ширкатлар ўртасида бир хил товарни сотиш бўйича операцияларни амалга ошириш;

- компаниянинг даромадларини сезиларли даражада бузилишига олиб келадиган бозор баҳосида эмас, балки шартнома нархларида амалга ошириладиган акциялар, дастурий таъминот ёки бошқа технологиялар учун хизматлар алмашиш бўйича бартер битимлари;

- капитал таркибини сунъий равишда яхшилайдиган ва қўшимча маблағларни паст нархларда жалб қилиш имконини берадиган балансда манбаси кўрсатилмаган балансдан ташқари молиялаштириш.

Бу чора - тадбирларнинг барчаси қоғозда савдо ҳажми, даромад ва охир-оқибат-компания бозор қийматини сунъий оширилишига олиб келади. Шу билан бирга, раҳбарлар мазкур ҳолатда қуйидаги турли мақсадларни кўзлашлари мумкин:

- компаниянинг ривожланиш истиқболларини яхшилаш;

- акцияларга эга бўлиш орқали даромад олиш ва опционлар тизими орқали наф кўриш мақсадида ҳар қандай йўл билан компаниянинг юқори бозор қийматига эришиш.

Кўпинча асосий мақсад инвесторларни истак хоҳишларини қондириш ҳисобланади. Кўпгина ҳолларда оддий қоида мавжуд: агар компанияни эълон қилинган молиявий кўрсаткичлари инвесторларнинг талабларига жавоб берса, компаниянинг қиймати ёки компаниянинг улуши ортади.

Ғарб таҳлилчилари томонидан олиб борилган ижтимоий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, креатив ҳисобга бўлган муносабат хорижий мамлакатларда турличадир. Таққослаш базаси сифатида Европанинг иккита мамлакати - Испания ва Буюк Британия олинган. Тадқиқот жуда қизиқарли натижалар берган: креатив ҳисобнинг бизнес воситаси сифатида қонунийлигига муносабат тахминан тенг бўлган. Буюк Британия ва Испанияда креатив ҳисоб муаммосининг ҳал қилинишига муносабат аксинча бўлиб чиқди. Британиялик респондентларнинг 91 фоизи, Испанияда эса 38 фоизи креатив ҳисобни ҳал қилиб бўлмайдиган муаммо деб билади.

Ривожланган Европа ва АҚШ мамлакатларида бухгалтерия ҳисоби манипуляцияси муаммоси бухгалтер ва аудиторларнинг касбий этикасини такомиллаштириш орқали ҳал қилинади. Бухгалтерияга оид ахлоқ кодексини яратиш бўйича ишларни кучайтирилиши, биринчи навбатда, АҚШда бухгалтерия ҳамжамияти томонидан содир этиладиган қонунбузарликларга йўл қўймасликка уринишдир. Бу борада бухгалтерия уюшмалари Янги Зеландия тажрибасига жуда оптимистик қарашади. У ерда бухгалтерия ҳисоби стандартлари ва бухгалтерия ҳисобини қонуний тартибга солиш тизими бухгалтерларнинг ўзини ўзи тартибга солувчи ташкилотлари фаолияти билан биргаликда бухгалтерия ҳисобининг ижодий технологияларидан фойдаланиш имкониятларини энг паст даражага туширган.

Ҳозирги кунда креатив ҳисобни тарафдорлари ва танқидчилари мавжуд. Танқидчилар унга турлича қонунийлаштирилган фирибгарлик сифатида қарашади. Бу молиявий ҳисоботнинг ташқи ва ички фойдаланувчиларини

чалғитиш ва алдашга олиб келади, деб ҳисоблашади. Креатив ҳисоб тарафдорлари уни муайян объектларни ҳисобга олиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни шакллантириш, бухгалтерия балансини тузиш, фойдаланувчилар учун ички ҳисобот тақдим этиш билан боғлиқ ижодий жараёни кўришади. Натижада, ушбу ҳисоб-китоб тартиб-қоидаларини амалга оширишда бухгалтернинг профессионал фикрига таянилади. Шундай қилиб, профессионал фикр креатив ҳисобнинг бир қисми ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Егорова С. Е., Юданова Л. А. Профессиональное суждение бухгалтера и учет расходов будущих периодов / С. Е. Егорова, Л. А. Юданова // Современное состояние и перспективы развития бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита: материалы международной научно-практической конференции/под научной редакцией Е. М. Сорокиной. – Иркутск, 2015. – С. 208–213.

2. Жук В., Гриявський С., Нагірска К. Стратегічне судження бухгалтера. Економічний часопис Волинського національного університету імені Лесі Українки. РОЗДІЛ II. Облік, аналіз, аудит та оподаткування. 4, 2021.

3. Шевелева, Е.А. Профессиональное суждение бухгалтера в условиях перехода к цифровой экономике / Е.А. Шевелева // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». – 2020. – Т. 14, № 2. – С. 129–136.

4. Пономарева С.В, Мироненко В.М. Механизм профессионального суждения в реализации принципов бухгалтерского учета. Экономика: проблемы, решения и перспективы. Вестник университета. № 7-8, 2017.

5. Миславская Н.А. Профессиональное суждение: научный аспект. Аудит и финансовый анализ. 1'2016.

tizimlar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir. Mehnat vositalarini mehnat predmetlariga ta'sir etish xususiyatiga ko'ra, bir nechta katta guruhlarga bolish mumkin. Birinchi guruhga mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, uskunalar, turli xil apparatlar va boshqalardan iborat mehnat qurollarini kiritish mumkin. Ularning yordamida ishchi tabiat ashyolari va kuchlariga bevosita ta'sir qiladi va bu ashyolarni o'zining iste'moli uchun zarur bolgan shaklga keltiradi. Ikkinchi guruhga materiallarni saqlash uchun moljallangan mehnat vositalari kiritiladi. Uchinchi guruhga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan, lekin unga shart-sharoit yaratib beradigan mehnat vositalari kiradi. Lekin bu vositalarsiz ishlab chiqarish jarayonining amalga oshishi mumkin emas yoki tola va samarali amalga oshmasligi mumkin. Bularga binolar, yo'llar va boshqalar misol bo'la oladi. Hozirgi fan-texnika inqilobi davrida ishlab chiqarishning rivojlanishida mehnat predmetlarining ahamiyati oshib bormoqda. Materiallarning tabiatda tayyor holda uchramaydigan yangi turlari yaratilmoqda. Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy bo'lsa-da, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berishadi va ularni turlicha tushuntirishadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer-suv, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi. Ko'pgina adabiyotlarda esa ularni sinonim (bir xil tushuncha) deb qarashadi va ko'pgina chalkashliklar keltirib chiqaradi. Bizga ma'lumki, mehnat turli omillarning birikib, amal qiladigan jarayonidir. Ishchi kuchi. vuqorida aytganimizdek. insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyati. uning bilim. malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishga qatnashishiga tayyor tuigan omil bo'lib xizmat qiladi, mehnat esa ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan va ma lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir. Shuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, yersuv va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat deb ta'kidlaymiz. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bolganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida

inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi, uning boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qollanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'rniga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'miga ishchi kuchi resurslari deyilsa to'g'ri va tushunarli bo'lar edi. Ishchi kuchi faol asosiy ishlab chiqaruvchi kuchdir. Chunki u hamma moddiy vositalarni va pul mablag'larini harakatga keltiradi, ulardan unumli foydalanadi. Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor deb, iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan dovyurak kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular yer va kapitalda o'z ifodasini topadi. Ishlab chiqarish jarayonida biz yuqorida sanab o'tgan omillarning hammasi qatnashadi, ular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi. Ulardan biri yetishmasa ishlab chiqarish oqsaydi yoki samarasiz yakunlanadi, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ikki yoki bir nechta ishlab chiqarish omillarining bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan mahsulot hajmining o'zgarishi ishlab chiqarish funksiyasi deyiladi. Ishlab chiqarishning omillari doimo bir xil bo'lib turmaydi, ular sifat va miqdor jihatdan o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari rivojlanib borgan sari murakkab mashinalar, asbob-uskunalar, stanoklar vujudga keladi. Shuningdek, ishchi kuchi ham ongi, malakasi oshgan, yangi mashinalarni yaratadigan, ulardan unumli foydalanadigan bo'lib boradi. Ishlab chiqarish omillari bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'ladi, birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro ta'sir usuli texnologiyada o'z ifodasini

topadi. Kishilar buyumlarning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarini anglab, tovar va xizmatlarning yangi turlarini tayyorlash sirlarini bilib oladilar, ilg'or texnologiyani qo'llaydilar, yangi materiallardan, energiya turlaridan foydalanadilar. Xulosa: Ishlab chiqarish omillarining va texnologiyaning o'zgarishi ishlab chiqarishni tashkil etishning mazmuni va shaklining o'zgarishiga, uning takomillashuviga sabab bo'ladi.

#### Adabiyotlar

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
- [2]. The Fourth Industrial Revolution: what it means and how to respond | World Economic Forum (weforum.org)
- [3]. Олимова, Н. Х., Абдурахимов, М. Т., Каримова, Г. И. (2022). Экономический потенциал предприятий реального сектора и возможности выбора их стратегии управления. *Cognitio rerum*, (1), 55-57.
- [4]. Эргашев, А. Х., Каримова, Г. И., Хомидов, К. К. (2022). Возможности выбора антикризисной стратегии управления на основе собственной экономического потенциала предприятия. *Cognitio rerum*, (1), 79-82.

### **ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ**

*Шахобиддинова Малоҳат Зайнилобиддин қизи*  
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*  
*“Менежмент” кафедраси тадқиқотчиси*

Ўзбекистон Республикасида таълим – халқ маданий кадриятларининг кудратли двигатели, келажак авлод маънавияти манбаи бўлиб хизмат қилувчи давлат сиёсати даражасига кўтарилган энг муҳим вазифадир.

Барқарор бозор иқтисодиётига, очиқ ташқи сиёсатга, Ўзбекистон халқининг муносиб ҳаёт кечириши, ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатига эга бўлган кучли демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо

этиш, миллий маданий анъаналарни тиклаш, маънавий-ахлоқий шахсни шахс сифатида камол топтиришни ўқитувчисиз, янги замонавий мактабсиз амалга ошириб бўлмайди, демак, шахснинг миллий-маънавий камолотининг негизида айнан мактаб туради. Ахборот технологиялари жадал ривожланаётган бугунги ўзгарувчан дунёда таълим тизимини илғор такомиллаштириш алоҳида ўрин тутди.

Республикамиз мустақиллик йилларида таълим соҳасида эришилган салмоқли ютуқлар аҳолини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини мониторинг қилиш ва сифатини баҳолаш механизмини такомиллаштириш мақсадида институционал салоҳиятни оширишга салмоқли ҳисса қўшмоқда.

Ўрта таълимнинг сифати – бу мактабгача ва мактаб таълими фаолиятининг барча жиҳатларини қамраб олувчи кўп ўлчамли тушунчадир. Шунинг учун адабиётларда у ҳар хил талқин этилади. Масалан, 9000 серия ИСО халқаро стандартлари нуқтаи назаридан таълимнинг сифати маҳсулот ёки хизматнинг белгиланган ёхуд назарда тутилаётган эҳтиёжларни қондириш қобилиятини таъминловчи хусусиятлари йиғиндиси сифатида таърифланади. Касб-ҳунар таълими энциклопедиясининг муаллифлари таълимнинг сифатига кенгроқ таъриф бериб, уни “таълим жараёни ва унинг натижаларининг ушбу жараён қанақа бўлиши кераклиги ва қанақа мақсадларга хизмат қилиши лозимлиги ҳақидаги жамиятда тарқалган тасаввурларга мос келиши меъёрини ифодаловчи интеграл тавсиф” сифатида кўриб чиқади[1].

Проф. Н.А.Селезнева “Тор маънода таълимнинг сифати – бу “олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашнинг сифати” – деб таърифлаган . Проф. Э.М.Короткова берган таърифга кўра, “...таълимнинг сифати ... – бу мутахассиснинг касбий фаолиятни ривожланишнинг ҳозирги босқичидаги иқтисодиёт талабларига мувофиқ муваффақиятли амалга ошириш қобилиятини белгилаб берувчи касб-ҳунар онги тавсифларининг мажмуи” .

Ўрта таълимнинг сифати – бу мактабгача ва мактаб таълими фаолиятининг барча жиҳатларини қамраб олувчи кўп ўлчамли тушунчадир. Шунинг учун адабиётларда у ҳар хил талқин этилади. Масалан, 9000 серия

ИСО халқаро стандартлари нуқтаи назаридан таълимнинг сифати маҳсулот ёки хизматнинг белгиланган ёхуд назарда тутилаётган эҳтиёжларни қондириш қобилиятини таъминловчи хусусиятлари йиғиндиси сифатида таърифланади. Касб-хунар таълими энциклопедиясининг муаллифлари таълимнинг сифатига кенгроқ таъриф бериб, уни “таълим жараёни ва унинг натижаларининг ушбу жараён қанақа бўлиши кераклиги ва қанақа мақсадларга хизмат қилиши лозимлиги ҳақидаги жамиятда тарқалган тасаввурларга мос келиши меъёрини ифодаловчи интеграл тавсиф” сифатида кўриб чиқади . Проф. Н.А.Селезнева “Тор маънода таълимнинг сифати – бу “олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашнинг сифати” – деб таърифлаган. Проф. Э.М.Короткова берган таърифга кўра, “...таълимнинг сифати ... – бу мутахассиснинг касбий фаолиятни ривожланишнинг ҳозирги босқичидаги иқтисодиёт талабларига мувофиқ муваффақиятли амалга ошириш қобилиятини белгилаб берувчи касб-хунар онги тавсифларининг мажмуи”[2] .

Субъект тушунчаси инсоннинг ишлаб чиқариш фаолияти таъсирида ривожланган. Ушбу босқичда ҳар бир элемент ўзгариши мумкин бўлган ўзига хос хусусиятларга эга эканлиги тан олинган.

Сифатни тизимли тушуниш турли тизимларнинг илмий тадқиқот ва амалий фаолият объектига айланиши туфайли пайдо бўлди. Моддий ва номоддий дунёнинг деярли ҳар қандай объекти тизим эканлигини фан тушунди, шунинг учун ҳар бир объектнинг сифати унинг хилма-хил хусусиятларининг ўзаро таъсири натижасида шаклланади ва шунинг учун ҳам тизим категорияси ҳисобланади.

“Сифат” тушунчасини функционал тушуниш инсон хўжалик фаолиятининг маълум натижалари (биринчи навбатда маҳсулот) сифати унинг мақсадига мувофиқ маълум функцияларни бажариши билан идентификацияланганлиги билан боғлиқ.

Интеграл тушуниш сифатни инсон ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олувчи кўп қиррали ижтимоий-иқтисодий категория сифатида англаш билан

боғлиқ. Сифатнинг яхлит тушунчаси "ҳаёт сифати" тоифаси мазмунида мужассамланган.

“Сифат” категориясининг моҳиятини англашнинг ҳар бир босқичида тегишли таърифлар ишлаб чиқилган ва юнон файласуфи Аристотел унинг биринчи тадқиқотчиси ҳисобланади. Аристотел "Категориялар" асарида "ўхшаш ва ўхшашлар ҳақида фақат сифатларга нисбатан гапирилади.” Демак, сифатнинг ўзига хос хусусияти сифатида ўхшаш ва ўхшамайдиган нарсалар ҳақида фақат унга нисбатан гапирилишини айтиш мумкин.

Таърифларнинг хилма-хиллиги ва кўплиги билан барча тадқиқотчилар бир тўхтама келишади: сифат - бу объектнинг белгиланган ва кутилган эҳтиёжларини қондириш қобилияти билан боғлиқ бўлган хусусиятлар тўпламидир. Шу билан бирга, энг муҳими, сифат объекти сифатида ҳақиқий маҳсулот (товар ёки хизматлар), уни ишлаб чиқариш жараёни ва ишлаб чиқарувчи (ташкilot, тизим ёки ҳатто алоҳида ходим) тушунилиши мумкин. Таълим хизматлари соҳасида “сифат” тушунчаси иккита асосий маънога эга. Бир томондан, ташкilot фаолиятини "муайян мезонларга мувофиқ дастлабки материал ва / ёки маълумотни якуний маҳсулотга (хизматга) айлантирадиган такрорланадиган ҳаракатлар (функциялар) нинг боғлиқ тўплами" сифатида белгилайдиган жараёнли ёндашув мавжуд[1].

Таълим фаолияти билан шуғулланадиган ташкilotлар учун сифат кўрсаткичлари имтиҳон натижалари ва рейтинг жадваллари ҳисобланади. Бошқа томондан, муваффақиятли таълим муассасасини трансформацион етакчиликсиз тасаввур қилиб бўлмайди, бу раҳбарнинг хатти-ҳаракатининг қуйидаги тўрт ўлчовига кўра талқин қилиниши керак: харизма / идеаллаштирилган таъсир; бўйсунувчиларни интеллектуал рағбатлантириш; мумкин бўлган энг юқори натижаларга эришиш учун илҳом сифатида мотивация; бўйсунувчилар билан муносабатларни индивидуаллаштириш.

Ўрта таълим тизимининг сифати мезонлари (натижа, жараён, таълим тизими сифатида) олий таълим сифатининг белгиланган турли эҳтиёжлар,

мақсадлар, нормалар, талаблар, намуналар, стандартларга мос келиши даражасининг белгилари билан боғлиқ.

Ўрта таълим тизимининг сифатининг даражаси унинг сифатининг ҳам ички, ҳам ташқи омиллар: таълим технологиялари, олий таълим муассасаси фани ва ташкилий маданиятнинг ҳолати, таълим муассасаларининг молиявий имкониятлари, сифат (абитуриентларни тайёрлаш даражаси) ва ҳоказолар билан белгиланадиган нисбий тавсифини ўзида намоён этади.


Ўрта таълим тизимининг сифатини ошириш омиллари бўлиб бир ёки бир неча хусусиятларни ўзгартиришга қодир бўлган муайян кучлар иштирок этади.

Ўрта таълим тизимининг сифатини ошириш шароитлари дейилганда омиллар амал қиладиган ҳолат, вазият ва муҳит тушунилади. Шарт-шароитлар омилларнинг пайдо бўлиши эҳтимолига катта таъсир кўрсатади. Шарт-шароитларга қараб омилларнинг таъсири турлича бўлиши мумкин. Бир ҳолатда улар таълим сифатининг ошишига катта таъсир кўрсатиши мумкин. Бунда жуда кам саъй-ҳаракатлар ва маблағлар қўлланилиши мумкин. Бошқа ҳолатда эса шарт-шароитлар омилларнинг олий таълимнинг хусусиятлари (тавсифлари, параметрлари)га тўлиқ таъсир кўрсатишига ёрдам берадиган тарзда юзага келиши мумкин. Бунда шарт-шароитларни ўзгартириш ёки муҳитнинг салбий таъсирларини бартараф этиш мақсадида омилларга янги куч ато этиш учун қўшимча саъй-ҳаракатлар талаб этилади, бу таълим сифатини оширишга доир тегишли тадбирларнинг ишлаб чиқилиши, моддий, меҳнат ва молиявий ресурсларнинг қўшимча тарзда сарфланиши билан боғлиқ[2].

Тадбирлар ўрта таълим тизимининг сифатини оширишга йўналтирилган мақсадларнинг амалга оширилишига ёрдам берувчи ҳаракатларни ўзида намоён этади. Ўз хусусияти ва таъсир этиш кўламига кўра тадбирларнинг уч хили ажратилади. Биринчиси фақатгина ўрта таълим тизимининг сифатини ошириш омилларига таъсир кўрсатувчи тадбирлар, иккинчиси шарт-шароитларга таъсир кўрсатувчи тадбирлар, учинчиси ўрта таълим тизимининг



сифатини ошириш омилларига ҳам, шарт-шароитларга ҳам таъсир кўрсатувчи тадбирлар. Ўқувчилар тайёрлаш сифатининг оширилишига амалда ўрта таълим муассасалари фаолиятининг самарадорлигини белгилаб берувчи омиллар ва шарт-шароитларга бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатувчи дастурий тадбирлар мажмуини амалга ошириш ҳисобидан эришилади (1-расм).



**1-расм. Ўрта таълим тизимида ўқувчиларни тайёрлаш сифатини бошқариш схемаси**

Ўрта таълим тизимининг сифатини бошқаришда ўтказилаётган тадқиқот методологияси ушбу тушунчага аниқлик киритилишини белгилаб беради. Чунончи, таълимнинг сифатини бошқариш унинг ишлаши параметрлари ва натижаларнинг талаблар, нормалар, стандартларга кўпроқ мос келиши мақсадида ушбу жараёнга ҳам, унинг асосий босқичларига ҳам аниқ мақсадга йўналтирилган, комплекс, мувофиқлаштирилган таъсир кўрсатиш сифатида тавсифланади. Ўрта таълим тизимида сифатини бошқариш ЎТМни бошқаришнинг энг муҳим таркибий ва узвий қисми ҳисобланиб, унинг улушига бошқарув функцияларининг катта қисми тўғри келади.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, ўқитиш ва тарбиялаш жараёнининг самарадорлигига кўплаб омиллар таъсир кўрсатади. Улар орасида асосийлари қуйидагилар: техник, инсоний ва маъмурий. Шу билан

бирга, иқтисодчи кадрларни тайёрлашнинг сифатига технологик ва иқтисодий омиллар ҳам катта таъсир кўрсатади, чунки ўқитиш жараёнини таълим технологияларисиз ва уни молиялаштирилмасдан туриб амалга ошириб бўлмайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ergashev B, Ismailova Z, D. Khimmataliev, M. Khashimova, M. Baybaeva. Integrative approach to designing the content of secondary specialized vocational education // Revista de Ciencias Humanas y Sociales ISSN 1012-1587/ISSNe: 2477-9385. Opción, Año 36, Regular No.91 (2020): Pp. 25-41.

2. Эргашев Б.Б. Мониторинг как средство управления качеством образования // Международная научно – практическая конференция, «Научные разработки: евразийский регион». –Москва, 2019. – С.85-89.

### **АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ САМАРАЛИ ТА 'МИНЛАШ ВА FAROVONLIGINI YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Abdulazizov Abdulloh Abduqaxxor o'g'li**

*Tayanch doktorant*

*Farg'ona politexnika institute*

*Ferpi.uz*

Mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlik harakatini rivojlantirish, xususiy sektorning m am lakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirishga qaratilgan tizimli va tadrijiy chora-tadbirlar izchil olib borilmoqda. Chunonchi, xususiy sektorning erkin va mustaqil rivojlanishini ta'minlaydigan zarur huquqiy asoslar yaratildi va ular faol takomillashtirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti keldi». Prezidentim iz tom onidan ta 'kidlab o'tilgan bu m uhim xulosa m ehnatni tashkil etish va boshqarishda tarix sinovlaridan juda ko'p bor o'tgan va samarali 1 I. A.

Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008. - 12-bet. hisoblangan oilaviy mehnat jamoalarini nazarda tutadi. Oilaviy fermerlik — an'anaviy mehnat jamoalari ichida eng ko'p tarqalgan xo'jalik yuritish usuli hisoblanadi. Shu m a'noda «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi»da ko'rsatib o'tilgan oilaviy tadbirkorlikning qonunchilik bazasini yaratish to'g'risidagi taklif juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda qabul qilinadigan qonunlar oilaviy biznes va tadbirkorlikni huquqiy asoslarini tashkil qilibgina qolmay, balki hozirda bu yo'nalishda mavjud turli m a'muriy-byurokratik to'siqlar, o'rinsiz aralashuvlaiga baiham berib, oilaning qonun kuchiga va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga olib keladi.

Oilaviy tadbirkorlik — yuridik shaxs maqomini olmagan jismoniy shaxslarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati shakli bo'lib, bu faoliyat er-xotinlar tomonidan, ularga umumiy birgalikdagi mulk huquqi asosida tegishli bo'Mgan umumiy mulk negizida amalga oshiriladi.

Oilaviy tadbirkorlik er bilan xotinning va ulaiga ko'maklashuvchi oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Bunda aholining ijtimoiy him oyaga m uhtoj qatlam lariga kiruvchi oilaviy tadbirkorlik subektlariga mikro kreditlar birinchi navbatda beriladi. Bular:

- kam ta 'minlangan oilalar;
- tarkibida nogironlar ham da aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga kiritilgan boshqa shaxslar bo'lgan oilalar;
- tarkibida ikki va undan ortiq ishsizlar bo'lgan oilalar.

Oilaviy tadbirkorlik subektlariga mikro kreditlar O'zbekiston Respublikasi M ehnat vazirligi huzuridagi Ish bilan ta 'minlash jam g'arm asining kredit yo'nalishi hisobidan, 6 oygacha davom etadigan imtiyozli davr bilan, ikki yilgacha muddatga beriladi. Oilaviy tadbirkorlik subektlariga ish bilan ta'minlash fondining kredit yo'nalishi hisobidan beriladigan mikro kreditlar eng kam ish haqi m iqdorining 150 baravaridan oshmasligi kerak. Oilaviy tadbirkorlik subektlariga mikro kreditlar

imtiyozli foiz stavkasi bilan ajratiladi. Bu foiz stavkasi amaldagi M arkaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/4 qismini tashkil etadi.

Fikrimizcha, oilaviy tadbirkorlik harakatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonunda quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

— oilaviy tadbirkorlikni moddiy va moliyaviy qo'llab-quw atlash mexanizmini samarali tashkil etish va mustahkamlash, tijorat banklar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini har tom onlam a mustahkamlash, bunga hozirda mavjud ayrim sun'iy to'siqlarga to'liq barham berish;

— har bir oilaning mehnat va bilimlari uchun katta hurmat bilan qarash, uni tiklash va rivojlantirish, mavjud ishchi kuchlaridan samarali foydalanishga erishish;

— mahalliy hokimiyat kuchi bilan oilaviy biznes yuritish uchun zaruriy moddiy va mabnaviy shart-sharoitlarni yanada kengaytirish, ularni har tom onlam a qo'llab-quw atlash asosida o'z mahsulotlari bilan ichki va tashqi bozorga erkin chiqishini ta'minlash;

— ta'lim tizimida oilaviy biznes sirlarini chuqur o'rganish va tahlil qiluvchi maxsus fanlarni kiritish, oila va ta'lim tizimini o'zaro yaqin hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash;

— oilaviy biznesga xorijiy investisiyalar, ilg'or va zamonaviy minitexnologiyalarning kirib kelishiga keng yo'l ochish, chetga tayyor mahsulotni eksport qilish hajmini yanada oshirish va boshqalar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010-yil 27 yanvar.

2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. 136-b.

3. Моран, Гвен. Бизнес план. — изд. 2-е. — М.: АСТ, 2008. — 320 с.

4. Сборник бизнес планов: практ. пособие. / под ред. Ю.Н. Лапыгина. — М.: «Омега-Л», 2008. — 310 с.

5. Боголдин - Малых В.В. Бизнес-стратегии и операционный маркетинг на рынке услуг: Учеб пособие. — НПО «Модек», 2008. — 608 с.

6. Попов В.М. Финансовый бизнес-план : учеб. пособие. — 2- изд. — М.: Финансы и статистика, 2007. — 464 с.

## **QURILISH SANOAT KORXONALARIDA MAHALLIY ISHLAB CHIQRARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Axmedova Sanobar Ikrom qizi**

**Toshkent arxitektura qurilish universiteti doktoranti**

**Gmail:sanobarahmedova839@gmail.com**

### **ANNOTATSIYA**

Hozirgi kunda, raqamli iqtisodiyot davrida, respublika va dunyo miqyosida iste'molchilarning ehtiyojlari oshib, haridlar soni ortib bormoqda. Albatta, bu holat korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonalararo raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Ko'plab rivojlangan va yetakchi mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiyotning qurilish tarmog'ida ham ishlab chiqarishga bo'lgan talabning ortib borishini ko'rish mumkin. Shu sababli ham, iqtisodiyotning har bir tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ayni muddao bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Qurilish ishlab chiqarish, sanoat korxonalari, ishlab chiqarish, samaradorlik, foyda, rentabellik, ishlab chiqarish harajatlari, qurilish materiallari.

### **АННОТАЦИЯ**

В настоящее время в эпоху цифровой экономики возрастают потребности потребителей и увеличивается количество покупок в республике и мире. Безусловно, такая ситуация повышает эффективность производства на предприятиях и усиливает межпредпринимательскую конкуренцию. Основываясь на опыте многих развитых и ведущих стран, можно увидеть возрастающий спрос на продукцию в строительном секторе экономики. По этой причине повышение эффективности производства во всех отраслях экономики является приоритетной задачей.

**Ключевые слова:** Строительное производство, промышленные предприятия, производство, эффективность, прибыль, рентабельность, себестоимость продукции, строительные материалы.

### **ABSTRACT**

Nowadays, in the era of the digital economy, the needs of consumers are increasing, and the number of purchases is increasing in the republic and the world. Of course, this situation increases production efficiency in enterprises and strengthens inter-enterprise competition. Based on the experience of many developed and leading countries, it is possible to see the increasing demand for production in the construction sector of the economy. For this reason, increasing the production efficiency in every branch of the economy is a priority.

**Key words:** Construction production, industrial enterprises, production, efficiency, profit, profitability, production costs, construction materials.

Jahon miqyosida globallashuv jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi uchun ham iqtisodiy rivojlanishni yanada oshirish asosiy maqsadlardan biriga aylanmoqda. Shu sababli iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida rivojlanishni oshirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroridan muhim vazifalarni tahlil qilishimiz mumkin. Ushbu qarorda keltirilgan bandlar orqali korxonalarda ishlab chiqarish samaradorlini oshirish, bosqichma-bosqich amalga tadbiriq etilishi muhim ahamiyatga ega. Sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishni nazariy asoslashdan boshlash eng muhim vazifadir.

Korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda nazariy manbalar juda ko'p. Bu ma'lumotlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan va asoslangan. Ishlab chiqarish iqtisodiy jarayonlar orasida ham eng ko'p o'rganilgan hamda turlicha nazariyalarga ega jarayondir. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan birgalikda, sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining tarixi ham 17 asrda Yevropada vujudga kelgan bo'lsada, iqtisodni oziqlantirgan g'oyalar dastlab Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda shakllangan. Bu o'rinda Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu

Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek asarlarini eslash kifoyadir. Ishlab chiqarish jarayonlari va iqtisodiy nazariyalar dastlab “Siyosiy iqtisod” nomi yuzaga kelga. Bu tushunchani birinchi marta A. Monkreyen (Fransiya) o'zining “Siyosiy iqtisod haqida traktat ” asarida qo'llagan. [Sh.Shodmonov “Iqtisod nazariyasi” 156 bet]. 19- asrning oxiri va 20 – asr davomida iqtisodiy fanlar nazariyalarida 3ta yo'nalish vujudga keldi: Birinchisi neoklassik yo'nalish bo'lib, uning o'zi monetarizm [A. Marshall (Angliya), M. Fridmen (AQSH)] va neoliberalizm - [L. Mizes (Avstriya), F. Xayek (Angliya) va L. Erhard (Germaniya)] ga bo'linadi. Ikkinchisi – keynechilik yo'nalishi bo'lib, uning yirik vakillari J.M. Keyns (Angliya), J. Robinson (Angliya), A. Xansen va P. Samuelson (AQSH) lar hisoblanadi. Uchinchisi – institutsional ijtimoiy yo'nalish bo'lib, uning ko'zga ko'ringan vakillari T. Veblen, J.Komons, U. Mitchell, J. Gelbreyt (AQSH). 21-asr boshiga kelib, monetarizm maktabi uzsuvorlikka ega bo'ldi, chunki uning tavsiyalari ko'pchilik mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatdagi o'zining amaliy ifodasini topdi. [O'lmasov Ahmadjon, O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2020 yil]. O'zbekiston ishlab chiqarish sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida qator bosqichlarni bosib o'tgan. IX-X asrlarda hunarmandchilik, xo'jalik mahsulotlari tayyorlash, shisha mahsulotlar tayyorlash, uy-joy va qurilish uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarish yanada rivojlanib bordi. Xiva va Shosh, Farg'ona, Buxoro ilk ishlab chiqarish markazlari sifatida tarixiy manbalarda juda ko'p keltirib o'tilgan. Sanoat ishlab chiqarishi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va jamiyatdagi mavqeining ko'tarilishiga olib keladi. Mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to'g'risida so'z yuritilar ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuvi, jiplashuvi va istiqlolni himoya qilish, mustahkamlash va uni uzil-kesil ta'minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodiyoti, sanoati, ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi nazariy ma'lumotlarni Sh.Sh.Shodmonovning “Iqtisodiyot nazariyasi”, A.Ortiqovning “Sanoat iqtisodiyoti”, G.M.Davlyatova va O.N.To'ychiyevalarning “Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil qilish” kabi darslik adabiyotlardan olishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar) yaratish jarayoni bo'lib, ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish jarayonidir. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Moddiy va ma'naviy ne/matlarni yaratish, xizmatlar ko'rstish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun moddiy asosdir. Shuning uchun ishlab chiqarishning to'xtovsiz takrorlanishi va uni rivojlantirish har doim eng muhim iqtisodiy qonuniyat va obyektiv zaruriyatdir. Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi, eng avvalo, uning ro'y berishi uchun bu jarayonda qatnashadigan omillar mavjud bo'lmog'i lozim. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rstishning hamma sohalarini uchun umumiy bo'lgan uchta omil ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo'lishi shart. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyot nazariyasini o'rganishning dolzarb muammosi sifatida uning diqqat markazida bo'lib keladi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda bu masala yanada chuqur o'rganilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib mamlakatimiz oldida turgan muhim masala – mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan harajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi. Lekin turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy subyekt ko'proq foyda olishga intiladi.

Samaradorlik – foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rstish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak. Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak,



samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

$$S = \text{natija} / \text{xarajatlar} = \text{natija} / \text{mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}$$

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlari mavjud. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma'lum ma'noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish – boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara – material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtini zoye ketishini kamaytirish, mablag'lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o'stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi. Yillik iqtisodiy samara – bu, yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarning, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etsihning iqtisodiy samaradorligini tahlil etsih va baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rstakichlardan biridir. Bu ko'rsatkich qiyos qilinadigan variantlar bo'yicha sarflangan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Y = [[(T1+En*K1)-(T2+En*K2)]]*A2$$

Bu yerda: Y – yillik tejam;

T1 – yangi texnika bo'yicha tadbirlar joriy qilinguncha bo'lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi ( so'm hisobida);

T2 – shuning o'zi tadbirlar joriy qilingandan so'ng ( so'm hisobida);

K1 – tadbirlar jori qilinguncha mahsulot birligiga sarflangan kapital mablag'lar miqdori;

K2 – shuning o'zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng;

A – yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadigan yillik mahsulot yoki ishlarning natura birligi;

En – kapital xarajatlarning normadagi qiyosiy samaradorligi koeffitsienti.

Ishlab chiqarsih jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar umumiy ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy negizini tashkil etib, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarida bo'ladigan munosabatlarning tavsifini belgilab beradi. Shuning uchun ularni o'rganish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat zarur ne'matlar iste'molisiz yashay olmaydi. Shunga ko'ra, bu ne'matlarni muntazam ravishda ishlab chiqarsih muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida insonning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy vositalar yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida barcha omillar harakatda bo'ladi, lekin ular ichida jonli mehnat, ya'ni ishchi kuchi faol bo'lib, u barcha ishlab chiqarish vositalarini haraktga keltiradi, ularga "jon kiritadi", asosiy kapital qiymatining yo'qolib ketmasligini ta'minlab, yangi yaratilgan tovar va xizmatlarga o'tkazadi. Va nihoyat, bu jarayonda yangi Tovar va xizmatlar vujudga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 24.01.2022 yildagi "Respublikada ishlab chiqarsihni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99- sonli Qarori. lex.uz.
2. Abdurahim Ortiqov "Sanoat iqtisodiyoti " darslik. 304 bet, Toshkent 2014 y.
3. Yuldasheva S.N. "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish" o'quv qo'llanma. 290 bet, Buxoro 2020 y.
4. Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'afurov "Iqtisodiyot nazariyasi" darslik. 784 bet, Toshkent 2005 y.
5. G.M. Davlyatova, O.N. To'ychiyeva "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish" darslik. Toshkent 2020 y.

**2022 ЙИЛ ҲУНАРМАНДЧИЛИК ФАОЛИЯТИДА АМАЛГА  
ОШИРИЛГАН ИШЛАР ВА 2023 ЙИЛДА РЕЖАЛАШТИРИЛГАН  
ЧОРА-ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА**

**О мероприятиях, проведенных в ремесленной деятельности в 2022 году и  
планируемых мероприятиях в 2023**

**About events held in handicraft activities in 2022 and planned events in 2023**

**Исраилова Феруза Назриллаевна**

**ТДИУ катта ўқитувчиси**

**[israilovaf76@gmail.com](mailto:israilovaf76@gmail.com)**

Сўнгги йилларда хунармандчиликни янада ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси ва “Хунарманд” уюшмаси ҳамкорликда қатор ишларни амалга ошириб келмоқда. Натижада 2022 йил январь-декабрь ойларида қуйидаги ишлар амалга оширилди:

- Хунармандчиликни ривожлантириш дастури доирасида ажратиладиган кредитлар, субсидиялар ва уста-шогирд мактабларининг ташкил топиши ҳисобига

2022 йилда 80 минг (шундан 15 501 уста, 64 499 шогирд) нафар фуқаронинг бандлигини таъминлаш режа қилинган бўлиб, амалда 91 534 та янги иш ўрни (шундан 17 565 уста, 73 969 шогирд) яратилиб, шундан 68% аёллар ва 44% ёшлар ҳиссасига тўғри келди.

- Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлигининг “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш жамғармаси” ҳисобидан 8 972 млн. сўм маблағлар 10 231 нафар ишсиз фуқароларни хунармандчиликка йўналтириш ва бандлигини таъминлаш учун ажратилди.

- Хунармандчилик лойиҳалари дастурини шакллантириш ва бу орқали соҳа вакиллари молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадида 2018-2021 йилларда соҳага 1,1 трлн. сўмдан ортиқ имтиёзли кредитлар ажратилган бўлиб, шундан 931 млрд сўмлик кредитлар хунармандлар томонидан тижорат банкларига қайтарилди.

- Марказлар ташкил этилиши бўйича 2022 йил давомида 6 та (Бухоро вилояти зардўзлик йўналишида “Малика Султон” ва Вопкент туманида (Зардўзлик маркази), Тошкент вилояти “Ёғоч ўймакорлиги уста-шогирд мактаби” Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Катта Дўмбиробод маҳалласидаги “Хунармандлар маркази”, Фуркат туманида Наққошлик ва ёғоч ўймакорлиги маркази) хунармандчилик маркази ишга туширилиб, 500 нафардан ортиқ янги иш ўринлари яратилди.

- Хунармандларнинг халқ амалий санъати миллий каталоги яратилиб, фахрий ва халқаро кўргазма ҳамда танловларда ғолиб бўлган 353 нафар усталар ушбу каталогга киритилди. Шунингдек, 1,2 мингга яқин хунармандлар туризм реестрига киритилди.

- МДХ, Европа ва АҚШ давлатларига хунармандчиликнинг кулолчилик, каштачилик, зардўзлик, ёғоч ўймакорлиги, гиламчилик ва қўлда газлама тўқиш йўналишлари бўйича жами 13,2 млн АҚШ доллари миқдоридagi маҳсулотлар экспорт қилинди.

- Amazon, Ebay ва ETSY каби платформаларга 12 та йўналиши бўйича 11 мингдан ортиқ маҳсулотлар жойлаштирилиб, 1,5 млн долларлик онлайн савдолар амалга оширилди.

2023 йилга режа ва вазифалар:

– жами 58 мингта иш ўринлари яратилади, шундан, уста-хунармандлар – 15,5 минг нафар, шогирдлар – 42,5 минг нафарни ташкил этади;

– “Хунармандчиликни ривожлантириш дастури” доирасида тижорат банклари томонидан 580,7 млрд сўм кредитлар ажратилиши натижасида, жами 17 598 та хунармандчилик лойиҳалар амалга оширилади;

– хунармандларни онлайн савдо ва туризм соҳасида билим ва кўникмаларини ошириш мақсадида ўқув-семинар, трайнинглар ташкил этиш ва E-Commerce тизмида фаолият юритаётган хунармандлар сонини 220 нафардан 500 нафарга, туризм соҳасида фаолият юритаётган хунармандлар сонини 1 520 нафардан 2 500 нафарга етказиш.

- хорижий давлатларда бўлиб ўтадиган 28 та хунармандчилик кўргазмаларида 320 нафар хунармандларнинг иштирокини таъминлаш орқали ушбу йўналишда савдо ҳажмини 3,8 млн долларига етказиш, тўғридан-тўғри шартномалар тузиш орқали йиллик экспорт ҳажмини 15,3 млн долларга етказиш.

Юқоридагиларни ва соҳада амалга оширилаётган ислохотларни изчил давом эттириш мақсадида, қуйидагилар таклиф этилади:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январдаги «Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-18-сон қарорига асосан 2023 йилда Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида лойиҳаларни молиялаштириш учун Тикланиш ва тараққиёт жамғармасидан «Агробанк» АТБ, «Микрокредитбанк» АТБ ва АТ Халқ банкига ажратилган

300 миллион АҚШ доллари эквивалентидаги маблағларнинг 580 миллиард сўми хунармандчилик лойиҳаларини молиялаштириш учун йўналтириш;

2. “Хунарманд” уюшмаси аъзоларига истисно тариқасида, “Маркетплейс” платформадан рўйхатдан ўтмаган аъминотчилардан ҳам хомашё ва асбоб-ускуналар сотиб олиш имконини яратиш;

3. 2023 йил 1 январдан бошлаб 2026 йил 1 январга қадар 353 нафар Миллий каталог ва 1 218 нафар туризм реестрига киритилган уюшма аъзолари учун маҳсулотларини сотишдан тушган тушуми 100 млн сўмдан ошган, бироқ 1 млрд сўмдан кўп бўлмаган миқдори учун ягона солиқ тўлов ставкасини амалдаги

2 фоиздан 2,5 фоизгача миқдорида этиб белгилаш;

4. 2023 йилда Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш жамғармаси ҳисобидан хунармандларга шогирдлар тайёрлаш, зарур хомашё сотиб олиш, шогирдларни иш ҳақи билан таъминлаш ҳамда мустақил фаолият бошлаган

шогирдларга асбоб-ускуна сотиб олиш учун 31,6 млрд.сўм субсидиялар ажратиш;

5. Худудларда фаолият олиб бораётган хунармандлар ва хунармандчилик кластерларига қаттиқ турдаги ёғоч хомашё

базасини етиштириш мақсадида Ўрмон хўжалиги агентлиги тасарруфидаги ерлардан 49 йил муддатга ижара ҳуқуқи асосида шундан, дастлабки ўн йилида ижара ҳақисиз ер майдонларини ажратиш.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 мартдаги ПҚ-168-сон қарорининг 5-илоvasи 2-банди "б" кичик банди иккинчи хатбошиси билан тасдиқланган: "Амал қилиш муддати тугаган электрон савдолар орқали расмийлаштирилмаган ижара шартномаларининг муддати келгуси давр учун узайтирилмайди ва ушбу шартномалар бўйича тадбиркорлик субъектларига ижарага берилган давлат мулклари, 2022 йил 1 июлдан бошлаб электрон савдоларига чиқарилади" жумласига ўзгартириш киритиш бўйича қарор лойиҳаси тайёрлаш. (Бугунги кунда Республикамиз бўйлаб архитектура маданий мерос объектлари мавжуд бўлиб, шулардан 106 та объектларда жами 485 та уста хунармандлар ижара шартномаси асосида фойдаланиб келмоқда);

7. Хунармандлар томонидан тўғридан-тўғри ҳамда онлайн савдо орқали сотилган ва экспорт қилинган маҳсулотларни халқаро курьерлик компаниялари (ДЧЛ, Федекс, Арамекс ва ЕМС) орқали жўнатиш харажатларининг 50 фоизини ёки хунармандчилик маҳсулоти экспорт қийматининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаган қисмини белгиланган тартибда компенсация қилиб беришини жорий қилиш;

8. Ўзбекистондан қўшни давлатлар ҳамда Туркияга абрли матолар экспортини расмий йўл билан амалга оширишни соддалаштириш мақсадида Карго терминалини ташкил этиш (Абу Сахий мисолида). Бу орқали хунарманд ишлаб чиқарган маҳсулотини Карго терминалга топширади ва хизмат ҳаққини тўлайди. Экспорт-импорт расмийлаштируви, етказиб бериш ва бошқа хизматлар хунарманд иштирокисиз амалга оширилади.

**CRITERIA FOR ETHNOGRAPHIC TOURISM ON THE EXAMPLE OF  
THE REGIONS UZBEKISTAN (4-N.Agzamova)**

**КРИТЕРИИ ЭТНОГРАФИЧЕСКОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ  
РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА (4-Н.Агзамова)**

**O`ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA ETNOGRAFIK TURIZM  
MEZONLARI (4-N.Agzamova)**

**Agzamova Nargiza Gapurovna**

Intern-researcher at the scientific-research institute "Study of problems of cultural heritage objects and tourism development"

[nargizaagzamova1608@gmail.com](mailto:nargizaagzamova1608@gmail.com), +99897 709-16-08

**Agzamova Nargiza Gapurovna**

"Madaniy meros obektlari muammolarini o`rganish va rivojlantirish " ilmiy-tadqiqot instituti, stajyor-tadqiqotchi

[nargizaagzamova1608@gmail.com](mailto:nargizaagzamova1608@gmail.com), +99897 709-16-08

**Агзамова Наргиза Гапуровна**

Научно-исследовательский институт "Изучения проблем культурного наследия и развития туризма", стажёр-исследователь

[nargizaagzamova1608@gmail.com](mailto:nargizaagzamova1608@gmail.com), +99897 709-16-08

The article analyzes the features of ethnographic tourism on the example of the regions of Uzbekistan. The aim of the research is to identify the essence of ethnotourism and its development in the regions of Uzbekistan. The tasks and prospects of ethnotourism. Ethnographic tourism contributes to the improvement of the lives of the families themselves. The inclusion of the local population in the reception of tourists causes him to be interested in preserving its own traditions and protecting the nature of his native land. The production and sale of handicrafts to visitors is also a reliable source of material well-being of the local population.

**Keywords:** the Fergana Valley, ethnotourism, craft, Man-Nature, development.

Цель исследования - определить сущность этнотуризма и его развитие в регионах Узбекистана. Задачи и перспективы этнотуризма. Этнографический туризм способствует улучшению жизни и самих семей, принимающих у себя туристов. Включение местного населения в прием туристов вызывает у него заинтересованность в сохранении собственных традиций и охране природы родного края, а производство и реализация визитерам изделий ремесел и кустарного производства - это, кроме того, надежный источник материального благополучия местного населения.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: Ферганская долина, этнотуризм, ремесло, Человек-Природа, развитие.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston hududlari misolida etnoturizmning mohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari aniqlashdan iborat. Etnografik turizmni rivojlantirish o'z navbatida mahallalarda oilalarning turmush tarzini yaxshilashga yordam beradi. Sayyohlarni qabul qilish jaratonida mahalliy aholining ishtiroki ularni o'z an'alarini asrab-avaylashga, o'z ona yurti va tabiatini muhofaza qilishga chorlaydi. Hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish va tashrif buyuruvchilarga sotish, qo'shimcha ravishda mahalliy aholining moddiy sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Tayanch so'zlar: Farg'ona vodiysi, etnoturizm, hunarmandchilik, Inson-tabiat, taraqqiyot.

Today, projects developed by tourism companies within the framework of ethnographic tourism, offer guests at any time of the year an interesting program of leisure with a unique opportunity to get acquainted with the untapped culture, traditions and life of indigenous peoples, including visits to national houses, stay in the families of different nationalities, participation in folk festivals and celebrations, familiarization with local folk crafts, arts and crafts, etc.

Ethnographic tourism improves the lives of the host families as well. The inclusion of local people in the reception of tourists arouses their interest in preserving their own traditions and protecting the nature of their native land, and the production and sale of handicrafts and handicrafts to visitors is, in addition, a reliable



source of material well-being for the local population. However, there is a tendency that because of the unexpectedly rapid and global leap in the development of modern tourism, there is often a shortage of professionals able to meet the demands of this successfully developing area, including in the field of ethnographic tourism. In the villages where there are already guest houses or are planned, people need professional support with organizing responsible tourism that does not harm the environment, contributing to the economic and cultural development of the village, trainings for the staff of guest houses on the procedure of visa support and registration of foreign guests and tourists, training in effective advertising and promotion of their tourist product on the international market. For more successful development of ethno-tourism in the Fergana Valley, the following tasks should be solved:

- development of special laws and their legal mechanism for the formation of the ethno-tourism industry;
- development of theoretical foundations of science, education and practice in the sphere of ethnotourism;
- improving the culture of the population through ethnotourism;
- solving the issues of social protection of the local population with the help of ethnotourism;
- training and retraining of ethnotourism specialists;
- comprehensive evaluation of ethno-tourist sites and maintaining their cadastre;
- establishing monitoring and perspectives of ethno-tourism;
- studying tactical plans and strategic programs and measures in the sphere of ethnotourism in other countries and the world community;

It is promising to unite ethno-tourism and eco-tourism in one package, as it is impossible to travel to the protected areas of the Ferghana Valley without getting in touch with people, their culture, traditions and way of life. This will give an opportunity for travel agencies to develop more and more tours of the Fergana Valley, focusing on the combination "Human-Nature" [1]. This will help tour firms

develop more and more new tours in the Fergana Valley, emphasizing the combination of people and nature [1], but it is necessary to train specialists or staff who are knowledgeable in both directions as well as know how to serve tourists competently. Tour firms need to remember that, forming a package and preparing the base for the reception of tourists, it is important to start with the educational and informational component both for guides and staff of protected areas, as well as for the villagers [2]. It should be a basis for all projects on development of ethno- and ecological tourism. Under condition of creation of conditions and base for development of ethnotourism in personnel, training programs in the village and reserves, the country (professional variety of tourist firms oriented on this type of tourism [3]) and the state support, tourism could really become that alternative source of income for Uzbekistan which is the main source for many countries oriented on tourism for several decades already.

As mentioned above, in the city of Margilan in Fergana Valley, tourists visiting silk production workshops will be able to admire the unique silk creations, famous masters - arbands, carefully preserving the traditions of folk silk weaving, and observe the process of production of unique types of fabrics. In 50 km from Fergana there is a small town Rishtan. Since ancient times people of Rishtan were famous for their pottery. For over eight hundred years masters have been passing the secrets of making pottery from local varieties of red clay and glaze of natural mineral dyes and ash of mountain plants from generation to generation. Large dishes "lagans", deep bowls "shokosa", water jugs, milk vessels, decorated with ornaments from the glaze "ishkor" [4] in unforgettable turquoise and ultramarine colors, brought Rishtan masters fame at numerous international exhibitions and decorated the expositions of many world museums and private collections.

The arts and crafts of Uzbekistan is the most popular part of the national culture that gives wide choice of souvenirs for tourists. Uzbek craftsmen have been passing the secrets of their art from generation to generation, and their works are of high quality and special elegance. Blacksmiths, potters, weavers, carvers, and many others create works of art from silk, clay, wood and metal, which are recognized all

over the world for their smooth lines, geometrically perfect patterns and harmony of form. The most famous craftsmen in Uzbekistan are ceramists of Gijduvan and Rishtan, blacksmiths of Bukhara and Chust, weavers of Margilan and wine-makers of Samarkand. Often, artisans can arrange master classes in their workshops, and show collections of works, in which you can get acquainted with the best creations of their fathers and grandfathers.

The decorative-applied art of Uzbekistan is an original and exclusive work of folk craftsmen, artisans who pass their skills from generation to generation. Putting a piece of their soul into every thing, for centuries they have been creating unique samples of items, be it home utensils or home decoration, unique cloth for festive dresses, or special tableware.

Creatures of Fergana, Samarkand, Bukhara, Khiva and other masters have long been famous far beyond the homeland, and continue to arouse the interest of fans of beauty from around the world. Diverse schools of suzane embroidery and ceramics, skullcaps of various kinds and purposes, national knives-pichaks for every occasion, silk and woolen carpets, silk and embossing - wonderful works created by the hands of local masters and craftswomen have for many centuries created a unique exoticism of Uzbekistan.

For centuries distinctive centers and schools of folk arts and crafts have been forming on the territory of Uzbekistan. Each region has its own trend. Namangan Chust is widely known for its skullcaps and knives, Fergana Rishtan - for azure ceramics, the ancient Margilan - for iridescent satin, and the holy city of Bukhara - for its golden embroidery.

The arts and crafts of Uzbekistan have evolved from age to age, leaving a legacy of unique products made by both known and anonymous masters, which strike with the wealth of imagination and perfection of form.



Thus, at the moment there are different peoples with different cultures, religious beliefs and traditions living on Earth. Year after year, there is a great potential to learn about the religion, history, and tradition of different nations. Therefore, the great potential to study ethnographic features increases. Many people from other countries study the Uzbek language in order to read the original text of Uzbek thinkers.

#### **List of references**

1. Aleksandrova Y.N. International tourism. Textbook. Moscow: Aspect Press, 2017. C. 298-300.
2. Artyomova N.D., Kozlova A.V. Fundamentals of hospitality and tourism. Textbook. Oryol: Oryol GTU, 2019. C. 87.
3. Chumakov K.K. Ethno-ecological tourism in the preservation of natural and cultural heritage. M.: 2006. C. 46.
4. Arifkhanova Z., Abashin S., Alimova D. The Uzbeks. Peoples and cultures. Moscow: Nauka, 2011. C. 456.

## **HUDUDLARDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MAMLAKAT TARAQQIYOTI GAROVI**

**Umarova Mohinur Zafarbek qizi**

**Toshkent pediatriya tibbiyot**

**instituti talabasi**

**mohinur.umar21@mail.ru**

Mamlakatning izchil iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan undagi hududlarning rivojlanish suratlari va darajasiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston hududlarining mutanosib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – makroiqtisodiy barqarorlikning, milliy iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishining asosidir. Bu barcha hududlar manfaatlariga mos keladigan iqtisodiyotning samarali tuzilmasi shakllantirilishini taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning nazariy jihatlarini chuqurroq o‘rganish asosida erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi amalda ro‘yobga chiqarilishi zarurligini belgilab beradi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo‘yicha ro‘y bermaydi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘risida fikr yuritganda ular bilan bog‘liq nazariyalarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Hududiy o‘sish nazariyalarini ko‘rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o‘sish modellarini qo‘llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o‘xshatish mumkin. Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning hatti – harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki hududlarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi. Ushbu nazariyalar bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassislari, ham iqtisodchilar shug‘ullanishgan. Turli mamlakatlarda hududiy nazariyalarning turli yo‘nalishlariga ustuvorlik berilgan. Hududiy nazariyalarni o‘rganish mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan hududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish aholining turmush darajasini ko'tarish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, hududlardagi xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni faqat o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar va istiqbol rejaları orqali hal etish imkonini beradi. Mamlakat doirasida ishlab chiqilgan hududlarni kompleks rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o'ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri keluvchi strategiyaga asoslangan bo'ladi [1].

Ijroiya hokimiyatning hududlar rivojlanishini tartibga solish bo'yicha tashkiliy-institutsional tuzilmasi bir qator vazirlik va idoralar ishtirokida Vazirlar Mahkamasi tomonidan shakllantiriladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yagona siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning ayrim sektorlari va tarmoqlari bo'yicha hududiy rivojlanish muammolari bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqalar shug'ullanadi [2].

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni tartibga solish makro-mikro darajada qo'llaniladigan tur bevosita va bilvosita, ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy mexanizimlarda foydalangan holda turli vositalarni qo'llashni talab etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani isloh qilish hamda yuksaltirishning respublika maqsadli tarmoq, tarmoqlarao va hududiy dasturlar ishlab chiqish va ular asosida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududiy dasturlar ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, hududlarda to'laqonli bozor infratuzilmasini tashkil etishga yo'naltirilgan institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturlar.

2. Asosiy sanoat tarmoqlarini, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa real sektorlarini rivojlantirish, investitsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish,

tabiiy iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish, transportkommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda uning boshqa sohalarini to'liq shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar.

3. Ijtimoiy tarmoqni rivojlantirish dasturlari: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kasb-hunar kollejlari va litseylarini tashkil etish hamda ularning moddiy-texnik ta'mino'lini mustahkamlash, umumta'lim maktablarini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va kommunal xo'jalikni qayta shakllantirish, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini shakllantirish, chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish.

4. Hududlar va ayrim hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanti rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

Respublikamiz viloyatlarida, ayniqsa qishloq joylarda, muhandislikkommunikatsiya tarmoqlarini - suv ta'mino'li, kanalizatsiya elektrlashtirish tizimlari va boshqalami qurish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilishni kengaytirish, shu asosda aholini va xo'jalik yurituvchi subyektlarni suv va elektr energiyasi bilan ta'minlash darajasi hamda sifatini oshirish, umumfoydalanishdagi yo'llarni qurish, mayjudlarini ta'mirlash hamda ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini qurib foydalanishga topshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Viloyatda ham aholini ichimlik suvi va gaz bilan ta'minlash, yangidan qurilgan, kapital ta'mirlangan va rekonstruksiya qilingan ijtimoiy-madaniy xizmat obyektlarini foydalanishga topshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda [3].

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan hal e'tilgandagina erishiladi. Bunda respublika hokimiyat organlari e'tibor umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat ko'rsatish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo'ladi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zaruriyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya,

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) o'zlariga biriktrilgan daromadlar manbalari hisobga hal etishda ko'proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat mustaqilligining iqtisodiy asosi sifatida olingan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyo'lning hozirgi sharoitlariga eng ko'p darajada mos keladi. Bunday ko'rinishdagi bozor iqtisodiyoti korxonalarini va jismoniy shaxslarning ish faoliyatlarini davlat qonunlari, huquqiy kafolatlar asosida, moddiy rag'batlantirishlar asosida olib borishni ta'minlashi lozim. Barcha turdagi mulklarning qonuniy va huquqiy asosda tengligini, ish yurituvchilar erkinligini respublikadagi milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarni e'tiborga olishi insonlarning faoliyatlarini to'liq shart-sharoitlar bilan ta'minlashi lozim.

Davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha keskin tafavutlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida hududlarni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va qo'llab – quvvatlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- mamlakat barcha hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish;
- hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va ularni joylashtirishdagi asossiz nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- hududlarni oqilona xo'jalik ixtisoslashuvini ta'minlash va hududlararo iqtisodiy aloqalarni maqbullashtirish;
- mintaqalararo va tashqi iqtisodiy integratsiyam ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ajralib qolishga yo'l qo'ymaslik va boshqalar.

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 1-maqsadi: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish hisoblanadi:



Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish.

Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta'minlash, bank-moliya, tomorqa, er, chorvachilik va parrandachilik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish [4].

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tufayli mamlakatda iqtisodiy o'sish ta'minlanadi va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlar qondira boriladi. Buning evaziga mamlakatda cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish ta'minlanadi. Bu esa bozorlarda mahsulot turlarining ko'payishi va narxlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholini ish bilan ta'minlash, pulning qadrsizlanishini oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shartidir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyasi makro iqtisodiyot darajasida tahlil qilinib, uning sohalari, ko'rsatkichlari, omillari o'rtasidagi bog'lanishlarni, iqtisodiy o'sish yo'llarini aniqlab ko'rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asoslangan bolib xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – ko'p

o'Ichamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

### **Adabiyotlar ro'yhati**

1. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. "Mintaqaviy iqtisodiyot". Darslik. - TDIU. Toshkent, 2010.

2. Jumayev T., Hakimov N., Abirqulov Q., Islomov A. "Iqtisodiy geografiya" TDIU. Toshkent, 2005. 198-b.

3. Abdurahmonov Q. X., Shoyusupova N. T. "Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari" - TDIU. Toshkent, 2011, 223-b.

4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

## **РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Абдумуротов Шохрух Шавкат ўғли**

**Тошкент давлат иқтисодиёт**

**университети тадқиқотчиси**

Рақамли иқтисодиёт шароитида саноат корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг асоси уларнинг рақобатбардошлиги бўйича жаҳондаги етакчи ҳамкасбларига мос келадиган саноат мажмуасини сифат жиҳатидан янги босқичга ўтишини таъминловчи рақобатбардош стратегияларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобланади. Рақобат стратегияларини шакллантириш ва ишлаб чиқиш саноат корхоналарини ташқи муҳит (рақобатчилар) хусусиятлари билан доимий таққослашда рақобатбардошлигини белгиловчи барча турдаги йўналиш ва усулларни узвий бирлаштирган илмий асосланган ёндашувга асосланиши керак. [3]

МДҲ олимлари Н.А.Смирнова ва Г.В. Сусловларнинг услугиётига кўра, Эллиотт тўлқин принципига асосланган бўлиб, у учта нисбий хусусиятда

ифодаланади: моделлар (рақамлар), вақт ва муносабатлар. Бундан ташқари, бу хусусиятларнинг барчаси Фибоначчи йиғиндиси церийасига бўйсунди. "Вазифа тўлқинларни талқин қилиш, уларнинг табиати ва нақшларини тушунишдир" [2] деб ёзишади ўз илмий ишларида.

Шунингдек, Березина А.А.нинг модели "Моделлаштириш методологияси, рақобатбардошликни прогнозлаш алгоритми, сценарий таҳлили методологияси ва башоратли моделлаштириш натижаларини баҳолаш мезонлари рақобатбардошликни бошқариш усулининг таркибий қисмлари" номли илмий ишида кас этган [1].

Рақобатбардошликни баҳолаш учун муаллифлар ташқи ва ички тебранишларнинг тасодифий таъсири остида барқарорлаштириш учун киритилган кечикиш билан Ван дер Пол тенгламаси билан боғлиқ ўзгартирилган математик моделни ишлаб чиқдилар. Модел қуйидаги омиллар атамаларига асосланади: "ҳар хил фаолият турларидаги корхоналар учун мослаштирилган рақобатбардош ўзаро таъсирнинг математик моделлари тўплами; бенчмаркинг жараёнини математик моделлаштириш методологияси; рақобат муҳитида компанияларнинг рақобатбардошлиги ва молиявий ҳолати кўрсаткичларини башорат қилиш алгоритми; бозор шароитлари учун корхона хатти-ҳаракатларининг одатий сценарийлари (оптимистик, пессимистик, танқидий, оптимал); рақобатбардош ўзаро таъсирларни моделлаштириш учун сценарий таҳлили методологияси; рақобат стратегиясини танлаш учун симуляция натижаларини баҳолаш мезонлари; рақобатдош устунликларни яхшилаш бўйича тавсиялар; амалга оширилган тавсиялар самарадорлигини баҳолаш учун корхона фаолиятини мониторинг қилиш тартиблари. Ушбу модел молиявий институтларда қўлланилади.

Муаллифлар Шувалов И.А., Семенчин Э.А. томонидан микроиқтисодий тизимларнинг рақобатбардошлиги таҳлилинини кўриб чиқсак, муаллифлар рақобатбардошликни прогнозлаш моделини ишлаб чиқишда дискрет Марков жараёнлари назарияси аппаратида фойдаланганликларини кўрамиз, бу эса корхоналарнинг рақобатбардошлигини башорат қилиш имконини беради.

бозор. Моделни ишлаб чиқишда муаллифлар бозорнинг ўзига хос мезонларини, яъни бозорнинг бир ҳолатидан иккинчисига ўтиш интенсивлигини ҳисобга олдилар, бу вақт ўтиши билан боғлиқ бўлиб, "янги хусусиятларга эга маҳсулотларнинг аналоглари талаб қилинмоқда. истеъмолчилар доимо бозорда пайдо бўлади ва, қоида тариқасида, улар бозорда компания маҳсулотлари билан рақобатлашади. Аммо бу интенсивликни бутунлай эътиборсиз қолдириб бўлмайди, чунки ҳар доим рақобатчининг маҳсулотлари талабга эга бўлмаслиги ва шунинг учун у бозорни тарқ этиши мумкин. Муаллифларнинг ушбу моделининг афзаллиги - ҳисоблашнинг соддалигидир. Камчилиги - ахборот базасининг пастлиги, корхонанинг рақобатбардошлигини ривожлантириш учун бир қатор омиллар ҳисобга олинмаган, корхонанинг ишлаш механизми аниқланмаган.

Шундай қилиб, биз математик воситалардан фойдаланган ҳолда корхоналарнинг рақобатбардошлигини башорат қилиш учун моделларни ишлаб чиққан муаллифлар, олимларнинг тадқиқотларини тақдим этамиз. Моделлар қуйидаги математик воситаларга асосланган эди: бозорда корхоналарнинг рақобатбардошлигини башорат қилиш имконини берувчи дискрет Марков жараёнлари назарияси аппарати, Эллиотт тўлқин принципи, иқтисодий динамикани башорат қилиш учун Фибоначчи муносабатлари аппарати; кечикиш билан Ван дер Пол тенгламаси билан боғлиқ ўзгартирилган математик модел, ўлчамдаги  $(p + 1) \times (p + 1)$  барча йўналтирилган кўшнилик матрицаларини яратиш орқали  $p$  тартибли БМБПТ диаграммаларини автоматлаштирилган яратиш. Корхоналарнинг рақобатбардошлигини башорат қилишнинг барча моделлари ўзларининг кучли ва заиф томонларига эга, аммо шунга қарамай, улар ўзига хосдир ва корхоналар рақобатбардошлигининг башоратли мезонларини кўрсатади ва бу моделларнинг ўзига хослиги шундаки, уларнинг ҳар бири математик воситалардан фойдаланади. асосий моделлар амалга оширилади.

Ушбу мақолада биз иқтисод ва математика фанлари соҳасидаги тадқиқотчилар ва муаллифлар томонидан математик моделлаштириш асосида

корхонанинг рақобатбардошлиги прогнозини баҳолашнинг баъзи моделларини тақдим этамиз. Келинг, "Эллиотт тўлқини принципи асосида" "кўтарилиш-тушиш" типигаги бифуркацияни кутиш зонасини излаш механизмини ишлаб чиқишга эътибор берайлик. Тақдим этилган аналитик модел Фибоначчи спиралини башорат қилиш учун ишлатилади" томонидан тақдим этилган Н.А. Смирнов ва Г.В. Суслов. Ушбу модел реал иқтисодий жараёнлар динамикасига асосланади, уларда цикллар мавжуд бўлиб, улар доирасида учта фазани ажратиш мумкин: бошланиш, тўйинганлик ва пасайиш. Шу билан бирга, келиб чиқиш босқичи ҳар доим ўсиш билан бирга келади ва пасайиш янгисининг пайдо бўлиши билан бирга келади, бу эса янги талабни кўзгатади. Бундай цикллар қисқа вақтга эга ва корхоналарнинг иқтисодий фаолиятини башорат қилиш имконини беради [2].

Ўзининг ишлаб чиқилган моделида Н.А. Смирнов ва Г.В. Суслов Эллиотт тўлқин принципи ва Фибоначчи тренд каналларидан фойдаланади. Муаллифлар Эллиоттнинг сўзларига кўра, фонд бозори "буқа бозори" ва "айиқ бозори" га бўлинган иккита гуруҳни асос қилиб олишади. Эллиоттнинг сўзларига кўра, "буқа бозори" "аниқ барқарор ўсиш динамикасига эга бўлган бозор деб аталади, аммо қисман муваффақиятсизликлар билан "айиқ бозори" - ўхшаш хусусиятларга эга - аксинча" [2].

Шундай қилиб, Н.А.нинг ривожланишини ўрганиб чиқди. Смирнова ва Г.В. Сулова ушбу моделнинг афзалликлари ва камчиликларини қайд этди. Моделнинг афзаллиги шундаки, у "бу усулдан нафақат тез ҳаракатланувчи (биржа) жараёнларни башорат қилиш учун, балки нисбатан секин ўзгарувчан иқтисодий динамика учун ҳам фойдаланиш имкониятини тасдиқлайди", шунингдек, модел тўлқин цикллари даражасини кўрсатади. бозор ҳолати, бозор туғилганда, тўйинган ва ретсессия. Ушбу моделнинг энг муҳим хусусияти шундаки, у инқироз даври бошланиши прогнозини 1-3 ой (чорак) бўлган "+" дан "-" гача ўлчашнинг аниқлигини кўрсатади [1].

Ушбу ишланманинг камчилиги шундаки, иқтисодий прогнозлаш мақсадлари учун ФИ воситаларининг роли ва ўрнини аниқлаш учун катта

хажмдаги маълумотлар керак бўлади ва моделнинг камчиликлари ўтмишда катта рақамли кузатув нуқталарини талаб қилади. .

Корхонанинг рақобатбардошлиги прогнозини баҳолашнинг услубий воситаси сифатида Березин А.А., Финогеев А.Г. моделларини кўриб чиқиш таклиф этилади. “Ван Дер Пол тенгламаси асосида рақобатбардошлик динамикаси моделини ишлаб чиқиш” [1]. Ушбу моделни ишлаб чиқиш Ван дер Полнинг тадқиқотига асосланган бўлиб, у икки жуфт боғланган тенгламаларнинг чизиқли бўлмаган моделини, яъни куйидаги кўринишдаги жуфтлик таққослаш моделини таклиф қилди (1):

$$\begin{aligned}
 & \frac{d^2 M_1}{dt^2} - a_1(1 - Y_1) \frac{dM_1}{dt} + \omega_3^2(1 + \alpha_1 M_2 + \alpha_2 M_3 + \alpha_3 M_4) M_3 \\
 & = c_1 \frac{d^2 M_2}{dt^2} + c_2 \frac{d^2 M_3}{dt^2} + c_3 \frac{d^2 M_4}{dt^2} + d_1 F_1 + d_2 F_2 - d_3 F_3; \\
 & \quad b_1 Y_1 + T_1 \frac{dY_1}{dt} = M_1^2 \\
 & \frac{d^2 M_2}{dt^2} - a_2(1 - Y_1) \frac{dM_2}{dt} + \omega_2^2(1 + \alpha_4 M_1 + \alpha_3 M_3 + \alpha_6 M_4) M_2 \\
 & = c_4 \frac{d^2 M_3}{dt^2} + c_3 \frac{d^2 M_3}{dt^2} + c_6 \frac{d^2 M_4}{dt^2} + d_1 F_1 + d_2 F_2 - d_3 F_3; \\
 & \quad b_2 Y_2 + T_2 \frac{dY_2}{dt} = M_2^2 \\
 & \frac{d^2 M_3}{dt^2} - a_3(1 - Y_3) \frac{dM_3}{dt} + \omega_3^2(1 + \alpha_2 M_1 + \alpha_3 M_2 + \alpha_3 M_4) M_3 \\
 & = c_7 \frac{d^2 M_1}{dt^2} + c_3 \frac{d^2 M_2}{dt^2} + c_9 \frac{d^2 M_4}{dt^2} + d_1 F_1 + d_2 F_2 - d_3 F_3; \\
 & \quad b_3 Y_3 + T_3 \frac{dY_3}{dt} = M_3^2 \\
 & \frac{d^2 M_4}{dt^2} - a_4(1 - Y_4) \frac{dM_4}{dt} + \omega_4^2(1 + \alpha_{10} M_3 + \alpha_{11} M_2 + \alpha_{12} M_1) M_4 \\
 & = c_{10} \frac{d^2 M_1}{dt^2} + c_{11} \frac{d^2 M_2}{dt^2} + c_{12} \frac{d^2 M_3}{dt^2} + d_1 F_1 + d_2 F_2 - d_3 F_3; \\
 & \quad b_4 Y_4 + T_4 \frac{dY_4}{dt} = M_4^2, \tag{1}
 \end{aligned}$$

Бу моделда биз дифференциал тенгламаларни қўллашни кўраимиз, бу эрда  $M_1, M_2, M_3, M_4$  кўрсаткичлари бозор улушини, тахминан 4 та корхона, сотиш сонига мутаносиб;  $a_1, a_2, a_3, a_4$  компаниялар ишининг ритми даражасини кўрсатадиган коэффициентларни акс эттиради (0,1 дан 2 гача);  $a_1, a_2, a_3, a_4, a_5, a_6, a_7, a_8, a_9, a_{10}, a_{11}, a_{12}$  - бир компаниянинг бошқа компания

хақидаги стратегик ахборот маълумотларига эгалик даражасини акс эттирувчи кўрсаткичлар (0 дан 100% гача);  $c_1, c_2, c_3, c_4, c_5, c_6, c_7, c_8, c_9, c_{10}, c_{11}, c_{12}$  - бир компаниянинг бошқаси хақидаги оддий маълумотларга эгалик даражасини кўрсатадиган коэффициентлар;  $F_1, F_2$  – бозор мезонларининг ойлик ва йиллик тебранишларининг компаниянинг бозор улушига таъсирини акс эттирувчи тасодифий функциялар;  $F_3$  – “техноген, табиий ва антропоген характердаги ташқи муҳитдан форс-мажор ҳолатлари”нинг савдо жараёнига таъсирини акс эттирувчи тасодифий функция;  $T_1, T_2, T_3, T_4$  компанияларнинг омборларида маҳсулотнинг кечикиш вақтини кўрсатади;  $b_1, b_2, b_3, b_4$  маҳсулотларнинг компания омборларидан сотиш тезлигини кўрсатади;  $\omega_1, \omega_2, \omega_3, \omega_4$  - компаниялар томонидан ишлаб чиқариш цикллари вақтига тескари кўрсаткичлар.

Шундай қилиб, ушбу моделдан фойдаланиш рақобатбардош разведка усуллари кўллашни кўрсатади, яъни саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш учун улар ўртасида очиқ ва махфий маълумотларнинг ўзаро алмашинуви зарур. Агар ўзаро таъсир қилувчи (ахборот билан боғлиқ) бир хил бошланғич шароитлар юзага келса, саноат корхоналари бошқа саноат корхоналари билан ҳамкорлик қилмасдан ишлайдиган ягона корхоналарга қараганда энг катта бозор улушини олиш имконияти бўйича аниқ рақобатдош устунликка эга. Моделнинг афзаллиги унинг саноат корхоналари учун бозор улушлари динамикасини нисбий барқарорлаштириш ва тартибсиз иш омилини камайтиришдир.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Смирнов Н.А., Суслов Г.В. Волновой принцип Эллиотта как основа для прогнозирования конкурентоспособности хозяйствующих субъектов / Конкурентоспособность бизнеса. – 2013. - № 3(39). – С. 129-141.

2. Куц В.И. Модернизация промышленности как основа повышения конкурентоспособности национальной экономики : автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук: 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление

предприятиями, отраслями, комплексами; промышленность). Москва. 2012. – 25 с.

3. Шувалов И.А., Семенчин Е.А. Математическое моделирование конкурентоспособности микроэкономических систем / Современные проблемы науки и образования. – 2013. - №4. – С. 316-322.

4. Воронов А.А., Овчаренко Н.А. Моделирование конкурентных процессов в конкурентной среде промышленных предприятий / Практический маркетинг. – 2011. - №5. – С.18-27.

## **МАҲАЛЛАЛАРДА АЁЛЛАР БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ – ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ БАНДЛИГИ СИЁСАТИНИНГ АСОСИЙ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ**

**Азаматова Гулмира Байирбековна**

**ЖизПИ, “Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси**

**[g.azamatova1987@bk.ru](mailto:g.azamatova1987@bk.ru)**

Ҳар бир мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши - бу аҳоли бандлиги билан ўлчанади. Глобаллашув даврида бандлик масаласида аёллар ҳам муҳим ўрин тутмоқда. Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлашда аёллар бандлигини таъминлаш муҳим масала ҳисобланади, гендер тенглик жамият ривожини, мамлакат тараққиётида муҳим бўлган ижтимоий-иқтисодий муносабатларда муҳим аҳамият касб этиб, ҳозирги кунда янада яққол намоён бўлмоқда.

Мамлакатимизда аҳоли бандлигини таъминлашга, айниқса кейинги йилларда меҳнат бозори самарадорлигини ошириш, аҳолини мунтазам иш билан таъминлаш ва аҳоли даромадини ошириш, хотин- қизлар, кам таъминланган оилалар аъзоларини бандлигини таъминлаш ҳамда ташқи меҳнат миграцияси жараёнларини тартибга солиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда[1]. Аҳоли бандлигини таъминлаш аҳоли турмуш даражасини оширишнинг муҳим омилidir. Республика Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “...Биз амалга ошираётган иқтисодий ислохотлар ва ижтимоий ўзгаришларнинг самараси, биринчи навбатда, аҳолининг моддий



аҳволи ва фаровонлигини, унинг ҳаёт даражаси ва сифатини оширишга қай даражада таъсир кўрсатаётгани билан ўлчанади”[2] Аҳоли ўртасида ишсизликни камайтириш, одамлар ва оилаларнинг даромадини ошириш лозим. ... хотин-қизлар ва ёшларни давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш лозим.... ҳалигача оғир турмуш шароитда яшаб, иш билан таъминланмаган 13 мингдан зиёд хотин-қизлар борлиги ачинарлидир[3]. Аҳоли бандлигини таъминлаш, ҳар бир оилада тадбиркорлик муҳитини яратиш бўйича зарур чора- тадбирлар кўрилмоқда[4]. Хотин-қизлар орасида тадбиркорликни ривожлантириш жаҳон миқёсида давом этаётган муҳим жараёнлардан биридир. Мамлакатимизда меҳнатга лаёқатли ва иқтисодий фаол аҳолисининг катта қисмини аёллар ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги – “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5325- сонли Фармони, шунингдек, 2019- йил 7 мартдаги “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинганлиги бунинг ёрқин ифодасидир. 2020 йилнинг 8 ойи давомида хотин-қизларнинг 14 минг нафари доимий ишга жойлашган, ҳақ тўланадиган жамоат ишларига 179 минг 933 нафар, ҳунармандчилик, оилавий тадбиркорлик, томорқа ва бошқа йўналишларга 4 минг 404 нафари жалб этилган. Шу билан бирга, қўлида ҳунари бор, тадбиркорликка малакаси етарли 11 минг нафар хотин-қизларга тижорат банклари томонидан 1 трлн.дан ортиқ кредитлар ажратилишига кўмаклашилган. Хотин-қизларни миллий ҳунармандчилик (зардўзлик, каштачилик, гилам тўқиш) касбларига йўналтириш мақсадида маҳаллалардаги уста-ҳунармандларга “устоз-шогирд” анъаналари бўйича бириктириш ва касб-ҳунарга ўргатишга 4 873 нафар аёллар жалб этилган. Худудий “Хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари” томонидан 12 минг 186 нафар хотин-қизлар қисқа ўқув курсларида ўқитилган[5]. Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурларига асосан 2020 йилда 1 138 млрд

сўм имтиёзли кредитлар ажратилди ва 44 448 та иш ўрни яратилди. Шундан, биргина “Ҳар бир оила-тадбиркор” давлат дастури доирасида ажратилган 879 млрд сўмлик имтиёзли кредитлардан 569 млрд сўми 28 122 нафар ёшлар ва хотин-қизлар бандлигини таъминлашга йўналтирилди.

2021 йилда 192,2 минг ишсиз хотин-қизга бандлик хизматлари кўрсатилди. Ушбу йилнинг дастлабки тўрт ой давомида 8,3 минг эҳтиёжманд хотин-қизнинг ишга жойлашишига кўмаклашилди. 41,2 минг нафар иш билан банд бўлмаган хотин-қиз ҳақ тўланадиган жамоат юмушларига жалб этилган ва уларнинг маоши учун 35,2 миллиард сўм маблағ йўналтирилган[6]. 2021 йилда аёллар тадбиркорлиги дастурлари доирасида 200 мингдан зиёд лойиҳаларга 2 триллион сўм кредит ва субсидиялар ажратилиб, 320 минг хотин-қиз доимий иш ўрнига эга бўлди. 190 минг нафар аёл касб-хунарга ўқитилди. 4 мингдан зиёд хотин-қизларга уй-жой тўловининг бошланғич бадалига маблағ ажратилди[7]. Сўнгги уч йил давомида 329 минг 228 нафар, шу жумладан оғир турмуш шароитида яшаётган 83 мингдан зиёд хотин-қизларнинг бандлиги таъминланди[8].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 7 мартдаги ПФ-87-сон Фармони ҳамда “Хотин-қизлар бандлигини ошириш ва саломатлигини мустаҳкамлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2022 йил 21 сентябрдаги ПҚ-376-сон қарори ижросини таъминлаш, шунингдек жамиятда хотин-қизларнинг ижтимоий ва иқтисодий фаоллигини ошириш, уларни касбга ва тадбиркорлик кўникмаларига ўргатиш орқали бандлигини таъминлаш ҳамда саломатлигини мустаҳкамлаш ишларини маҳаллаларда ташкил этиш мақсадида самарали ишлар олиб борилмоқда. Маҳаллаларда аёллар бандлигини таъминлаш – аёллар ишсизлигини камайтириш, камбағалликни қисқартириш масалаларига ижобий таъсир кўрсатади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Аманов О.А. Қишлоқ меҳнат бозорини самарали ривожлантириш асосида аҳолини иш билан бандлигини ошириш. Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент-2019. Б-3.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. (Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиغا киришиш тантанали маросимиغا бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ), Тошкент, Ўзбекистон, 2016, 15-16 бетлар].

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь, № 271-272 (7229-7230), 2-3 бетлар.

4. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма етти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2018 йил 1 сентябрь, № 180-181 (7138-7139), 1-бет.

5. <https://xs.uz/uzkr/post/khotin-qizlar-bandligi-taminlansa-zhamiyatda-izhtimoiy-barqarorlik-boladi>

6. Аёллар бандлигини ошириш йўлида // Халқ сўзи, 2021 йил 1 июнь, № 114 (7894), 3-бет.

7. <https://president.uz/uz/lists/view/5014>

8. Минтақамиз аёл тадбиркорлари ўртасида изчил мулоқот йўлга қўйилади // Халқ сўзи, 2021 йил 16 июнь, № 125-126 (7905-7906), 2-бет.

9. AZAMATOVA G. Illegal Migration And Human Trafficking // Journal of Contemporary Issues in Business and Government | Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 2. – С. 3542.

10. Азаматова Г. Б. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING РОССИЯ ФЕДЕРАЦИЯСИ БИЛАН МИГРАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИГИ // ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – №. SI-1 № 1.

11. Azamatova G. B. THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA: MUTUALLY BENEFICIAL COOPERATION IN THE FIELD OF LABOR MIGRATION // International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – С. 60-65.

12. Azamatova G. B. SOME CONSIDERATIONS ON THE MIGRATION MOVEMENTS OF THE POPULATION OF JIZZAH REGION AND ITS PERIODIC CHANGE // International Journal Of History And Political Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 09-13.

13. Azamatova G. B. THE MOVEMENT OF WOMEN IN POPULATION MIGRATION: PROBLEMS AND SOLUTION // Ўтмишга назар журнали. – 2019. – Т. 23. – №. 2.

14. Азаматова Г.Б. ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ МИГРАЦИЯСИ ҲАРАКАТЛАРИ МАСАЛАЛАРИ ВА МИГРАНТЛАР ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ // ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.

15. Азаматова Г. Глобаллашув жараёнида инсон капитали ва интеллектуал миграция // Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 412-415.

## **МИНТАҚАЛАРДА ЁШЛАР МЕҲНАТ БОЗОРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна*

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

*ҳузуридаги "Ўзбекистон иқтисодиётини*

*ривожлантиришининг илмий асослари ва муаммолари"*

*илмий тадқиқот маркази илмий ходими*

Меҳнат бозори бозор иқтисодиётининг ажралмас қисми сифатида иш берувчилар ва ёлланма меҳнат манфаатларини мувофиқлаштирувчи ижтимоий муносабатлар тизимидир. Узоқ муддатли истиқболда давлат сиёсатининг мақсадларидан бири мослашувчан, яхши ишлайдиган меҳнат бозорини ривожлантиришдир. Минтақаларда меҳнат бозорини тартибга солишнинг асосий вазифалари куйидагилардан иборат:

- ишчи кучига талаб ва таклиф ўртасидаги мувофиқликни таъминлаш;
- аҳолининг менталитети ва ижтимоий-маданий кадрларини ҳисобга олган ҳолда ҳудуд иқтисодиёти талабларига жавоб берадиган меҳнат салоҳиятини шакллантириш, иқтисодиёт тармоқларида фаолият юритаётган турли корхона ва ташкилотларни зарур кадрлар билан таъминлаш;
- аҳоли бандлигини таъминлаш (ўқитиш, қайта тайёрлаш, ишдан бўшатиш ва ишсиз фуқароларни ишга жойлаштириш);
- замонавий касб-ҳунар таълимига эга бўлган ёшларни иш билан таъминлаш ҳисобига кадрлар салоҳиятини янгилаш.

Белгиланган вазифаларни ҳал этиш ёшлар меҳнат бозорининг ривожланиш даражасига боғлиқ. Минтақаларнинг ҳозирдаги ва истиқболдаги ижтимоий иқтисодий ривожланиши ёшлар билан бевосита боғлиқ. Улар нафақат мамлакатда содир бўлаётган барча ўзгаришларга тезда муносабат билдиради, балки баъзи ҳолларда уларнинг ташаббускори сифатида ҳам ишлайди. Бошқа томондан эса, аксарят давлатларда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ўзгаришлардан энг кўп жабр кўраётганлар ҳам ёшлардир.

Собиқ Совет даврида давлат ягона иш берувчи сифатида ҳаракат қилган. 1991 йилгача умумий бандлик тўғрисидаги қонун амалда бўлган. Ҳар бир корхонада ходимларнинг тартибга солинадиган таркиби, иш ҳақи даражаси ва бошқалар мавжуд бўлиб, корхона раҳбарлари ходимларни ишга олиш ва ишдан бўшатиш бўйича тор ваколатларга эга эди. Ҳозирги кунга келиб бу ҳолатлар тубдан янгиланди, ваколатлар эса корхона ва ташкилотлар раҳбарларига берилди.

Ёшлар уч шаклда ишга қабул қилинди:

- мактаб битирувчилари;
- касб-ҳунар таълими муассасалари битирувчилари;
- ОТМ битирувчилари.

Бизнинг фикримизча ҳозирги даврнинг ёш авлодини шакллантиришга ёндашувларни ўрганишга бошқача ёндашиш керак деб ҳисоблаймиз. Ёшлар меҳнат бозори Ўзбекистон иқтисодиётининг алоҳида сегменти бўлиб, иш

билан таъминлашда ҳисобга олиниши керак бўлган ўзига хос хусусиятларга эга. Ёшлар ҳаётий муносабатларнинг беқарорлиги, иш стажи ва иш тажрибаси етишмаслиги билан ажралиб туради ва бунинг натижасида нисбатан паст профессионал мақом уларни тарк этмайди. Меҳнат бозорининг аҳолининг янада рақобатбардош тоифалари билан тўйинганлиги сабабли, ёшлар анча аниқ хавф гуруҳидир [1].

Кўпгина тадқиқотчилар ёшлар меҳнат бозори деганда маълум бир ҳудудда 18 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшларнинг ишсизлиги деб тушунадилар.

Бизнингча, ёшлар меҳнат бозори ёшларнинг ишсизлигидан ҳам кенгрок тушунчадир. Шу муносабат билан Н. В. Бессарабованинг таърифи ёшлар меҳнат бозори ва бозорнинг асосий субъектлари ўртасидаги барча жиҳатлар ва муносабатларни камраб олади.

Ёшлар меҳнат бозори ижтимоий-иқтисодий муносабатлар мажмуи бўлиб, унинг субъектлари ёшлар, давлат ва корхоналардир. Бу томонларнинг меҳнатга жалб қилиш, меҳнат ресурсларидан фойдаланиш, касбий кўникмаларни шакллантириш ва натижада фаровонлик, иқтисодий барқарорликни таъминлаш бўйича манфаатларини мувофиқлаштиришга асосланади. Бу таърифдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ёшлар мамлакат келажаги, унга ҳозирдан қайғурмасангиз, кеч бўлади. Бу аралашув ҳам бевосита олиб борилаётган демографик сиёсат билан боғлиқ. Ҳар бир бозор сингари, ёшлар меҳнат бозори ҳам ўзига хос хусусиятларга эга.

Ёшлар меҳнат бозорининг қуйидаги хусусиятларини ажратиш кўрсатиш мумкин:

- талаб ва таклифнинг беқарорлиги, бу ёшларнинг касбий йўналишларининг ўзгарувчанлиги ва ижтимоий-касбий ноаниқлик билан боғлиқ.

- бошқа ёш гуруҳларига нисбатан паст рақобатбардошлик. Ишни йўқотиш ёки ишламаслик хавфи энг кўп ёшларнинг ёш гуруҳида учрайди. [2].

Рақобатбардошлиги паст бўлишига қарамай, ёшлар қуйидаги хусусиятлар туфайли катта авлодга нисбатан устунликка эга:

- ҳаётнинг ўзгарувчан ташқи шароитларига, шу жумладан меҳнат шароитларига тез мослашиш қобилияти;

-мослашувчанлик, динамиклик, янги, номаълумни ўзлаштиришга, ўзини-ўзи такомиллаштиришга интилиш;

- фан ва техника, шунингдек, информатика ва электроника, илгари номаълум бўлган касблар, хориждаги фаолият соҳаси бўйича жаҳон ютуқларига эришган умумий таълимнинг нисбатан юқори даражаси;

- ёшларга хос хислатлар: мурасасизлик, ғайрат, ўзини-ўзи талаб қилиш истаги, беадаблик. Бу афзалликлар ёшларнинг рақобатбардошлик даражасини ошириш, ислохотлар шароитида бардавом бўлиш имконини бермоқда.

Юқоридаги хусусиятлардан ташқари, ёшлар меҳнат бозорининг ўзига хослиги миллий ва минтақавий бўлинади.

Миллий ўзига хослик маълум бир мамлакатга тегишли ёшлар меҳнат бозорини тавсифлайди. Бу қуйидаги омилларга боғлиқ:

- давлатнинг геосиёсий позицияси;
- иқтисодиёт тури ва унинг ҳолати;
- таълим тизимининг ўзига хослиги;
- жамиятнинг маданий даражаси.

Минтақавий ўзига хослик муайян ҳудудий бирликнинг иқтисодий ва ижтимоий омиллари билан белгиланади.

Иқтисодий омилларга қуйидагилар киради:

- табиий ресурслар ва иқлим;
- ҳудуднинг саноат, технологик “архитектураси” ва салоҳияти;
- ҳудуднинг инвестицион жозибадорлиги.

Ижтимоий омилларга қуйидагилар киради:

- хавфсизлик;
- инфратузилмани ривожлантириш;
- таълим сифати;
- ҳудудий қонунчиликнинг хусусиятлари;
- жинс ва демографик ўзига хослик;

- сиёсий тенденциялар [3].

Ушбу ўзига хосликни таҳлил қилиб, биз ёшлар меҳнат бозори қанчалик заиф ва беқарор эканлигини кўришимиз мумкин. Ёшларнинг ёш гуруҳларини ўрганиб чиқиб, уни уч гуруҳга бўлиш мумкин.

**Биринчи гуруҳга** 15 ёшдан 18 ёшгача бўлган ёшлар киради. Булар асосан ўрта мактаб ўқувчилари. Аксарият ҳолларда улар меҳнат фаолияти билан шуғулланмайдилар, лекин кўриниб турибдики амалиёт, баъзи ўсмирлар, мустақиллик иш бошлашга ҳаракат қилиб, ишга кетишади (газета сотиш, варақалар тарқатиш, машина ювиш ва бошқалар). Бу вақтинчалик иш бўлиб, бунинг натижасида меҳнат бозори ишсизлар сафини тўлдиради.

**Иккинчи гуруҳга** 18 ёшдан 24 ёшгача бўлган ёшлар киради. Ушбу тоифага касбий тайёргарликдан ўтган талабалар ёки ёшлар киради. Ўзига хос бу гуруҳнинг ўзига хос хусусияти шундаки, таълимни яқинда тугатган ёшларнинг рақобатбардошлиги паст.

**Учинчи гуруҳ** 25 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшлар. Улар ҳаётдан нимани хоҳлашларини билишади ва аллақачон касб танлаш ва ҳаёт истиқболлари ҳақида қарор қабул қилишган.

Ёшлар меҳнат бозорининг учта гуруҳини кўриб чиқсак, биринчи гуруҳ энг заиф гуруҳдир, деган хулосага келишимиз мумкин, бу эса, ўз навбатида, нафақат давлатнинг қаттиқ назоратини, балки уни тарбиялашда барча ижтимоий институтларнинг иштирокини талаб қилади.

Ёшлар меҳнат бозорининг бошқа бозорлар қатори асосий элементлари талаб, таклиф ва товарлар нархидир. Меҳнат бозори - бу товар сифатидаги меҳнат ресурслари бозори, эквивалент, уларнинг нархи ва миқдори талаб ва таклифнинг ўзаро таъсири билан белгиланади. Тадбиркорлар ва меҳнатга лаёқатли, иқтисодий фаол аҳоли вакилларида иборат бозор агентлари олди-сотди муносабати билан ҳаракат қиладилар. Талаб ва таклиф механизми орқали хўжалик субъектлари ўртасидаги рақобат натижасида маълум миқдордаги бандлик ва иш ҳақи даражаси ўрнатилади, меҳнат бозори



рақобатбардош сифатида тавсифланади. Ёшлар меҳнат бозорининг ҳозирги ҳолатини тавсифловчи асосий кўрсаткич ишсизлик даражасидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Dunaeva, N. Youth at the Labor Market / N. Dunaeva // Issues of Economics. – 1998. – No. 2. P. 81-91
2. Kuryshov, I.V. Youth Market Specifics / I.V. Kuryshov // Herald of Povolzhsky Academy of State Service. – 2008. – No. 3 (16). – P. 154-158.
3. Chelubova, Yu.V. Youth Market of Labor as an Object of Theoretical-Methodological Study / Yu.V. Chelubova // TGU Herald. – 2008. – No. 12 (68) – P. 479-483

**EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF WATER CONSUMPTION  
IN AGRICULTURE IN ENSURING ENVIRONMENTAL SECURITY**

**Ahmedov Sayfullo Normatovich**

Ph.D, associate professor,  
Deputy Chairman of the  
Federation of Trade Unions  
of the Republic of Uzbekistan,  
[sayfullo\\_normatovich@mail.com](mailto:sayfullo_normatovich@mail.com)

**Abstract**

In this paper is dedicated to evaluation of the efficiency of water consumption in agriculture in ensuring environmental security . By author was proposed methods have been tested on statistical data on the regions of the Republic of Uzbekistan for a long period, which makes it possible to take into account the specifics of the stages of world economic cycles in the studied relationship of indicators.

**Key words:** environmental security, agricultural production, irrigation, melioration, water consumption, growth, cluster analysis, time intervals, statistics.

**EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF WATER CONSUMPTION  
IN AGRICULTURE IN ENSURING ENVIRONMENTAL SECURITY**

**Ахмедов Сайфулло Норматович**

к.э.н., доцент, заместитель председателя

Федерации профсоюзов Республики

Узбекистан,

**Аннотация.** Настоящая работа посвящена оценке эффективности водопотребления в сельском хозяйстве в обеспечении экологической безопасности. Предложенная автором методика апробирована на статистических данных по регионам Республики Узбекистан за длительный период, что позволяет учитывать специфику стадий мировых экономических циклов в изучаемых взаимосвязях показателей.

**Ключевые слова:** экологическая безопасность, сельскохозяйственное производство, орошение, мелиорация, водопотребление, прирост, кластерный анализ, временные интервалы, статистика.

The economy of Uzbekistan in general, and one of its leading industries in particular, is characterized by a high dependence on water resources and a shortage of local fresh water resources. According to the conclusions presented in the World Bank report, “If current trends in water usage and population growth continue, Uzbekistan will reach water scarcity levels by 2030. In addition, climate change is having an adverse impact on the regime of formation, volume and quality of water resources in the region”. [1]

According to the level of groundwater mineralization, a number of territories are classified as “mainly saline”, in some areas there is a “secondary salinization” of lands by 45.7 percent” [2].


For the purpose of stable water supply of the population and all industries of the economy of the Republic of Uzbekistan in 2020-030, improving the ameliorative state of irrigated lands, widely introducing market principles, mechanisms and digital technologies in the water sector, ensuring the reliable operation of water facilities, as well as increasing the efficiency of the use of land and water resources, was developed and approved by the Decree of the President “Concept for the development of the water sector of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030” [2].

The main recommendations of this Concept include "the development of guidelines for design, introduction and application of water-saving irrigation technologies, as well as criteria for evaluating the effectiveness of their use [2].

**Table 1****Information on the amount of annual water received in the regions (by total economic sectors)**

#	Regions	2005	2010	2015	2020	2021
	<b>Total by Republic:</b>	<b>59476,4</b>	<b>57169,1</b>	<b>55138,3</b>	<b>51217,2</b>	<b>43661,6</b>
1	Republic of Karakalpakstan	8504,2	8452,4	8055,8	6360,5	5405,5
	regions:					
2	Andijan	3275,2	3353,4	3075,3	2751,6	2488,0
3	Bukhara	4390,4	4408,6	4667,6	4232,5	3472,3
4	Jizzakh	3222,6	2960,1	2848,3	2922,5	2219,8
5	Kashkadarya	7039,8	6367,2	5659,4	5641,2	4602,8
6	Navoi	2704,7	2764,3	2234,7	2486,1	2229,5
7	Namangan	3218,5	3223,0	3068,8	3430,6	2366,1
8	Samarkand	3893,7	3666,5	3427,4	3761,2	2412,4
9	Surkhandarya	4273,8	4517,6	4335,2	2971,1	3356,9
10	Syr Darya	3484,4	2943,8	3244,8	3441,9	3514,9
11	Tashkent	6053,4	5533,3	5293,2	5461,8	4766,0
12	Ferghana	4578,6	4364,8	4377,6	3779,5	3483,8
13	Khorezm	4837,1	4614,1	4850,3	3976,7	3343,5

The development of methods for regulating the water supply of sectors of the economy (and agriculture in particular) requires mathematical and statistical research on long-term spatial and temporal data. combining technological and economic information of water consumption. However, scientific publications in this area are very limited. As an example of two research approaches, two papers based on the application of statistical methods are presented below. Each of these studies presents methodologies. requiring meaningful reinforcement: the first - in the spatial and technological aspect, and the second (having a spatially technological orientation) - vice versa. in the economic aspect.[1]



**Fig.1. Information on the amount of water consumed per hectare in the regions**

The study was carried out according to the data of the regions of the Republic of Uzbekistan for years with a five-year interval: 2005, 2010, 2015, 2020, and 2021 was included in the calculations to compare the pre- and post-COVID situation

Cluster analysis was carried out according to indicators characterizing the intensity of water consumption in sectors of the economy per one employed person, the intensity of obtaining (transferring) water and industrial consumption in agriculture (per 1 ha), as well as the growth of agricultural production - the main sector of water consumption. [3]


The inclusion of the latter indicator in the cluster analysis made it possible to assess the structural and dynamic changes in the characteristics of industrial water consumption in relation to the effectiveness of agricultural production.

The following indicators were used in the study:

- The volume of water annually received in the sectors of the economy, m<sup>3</sup> per 1 employed person ( $Vz_{05}, \dots, Vz_{21}$ )
- Growth rates of agricultural production by regions, % ( $Gr_{AG_{05}}, \dots, Gr_{AG_{21}}$ )

- Water transfer, m3/ha (Vper\_ga\_05, ..., Vper\_ga\_21)
- The volume of water consumed per 1 hectare in the regions, thousand m3 per 1 ha (PotrV\_ga\_05, ..., PotrV\_ga\_21).

At the first stage of the study, based on the results of cluster analysis (Ward method), it was found (Table 1) that in the regions included in the cluster with higher growth rates of agricultural production, the relative values of water supply, water disposal and water consumption per 1 ha are higher. In the covid (2020) year, the situation reversed: the regional cluster with higher values of the considered irrigation indicators lagged behind in the growth rates of agricultural production. this indicates that non-technological (market) factors had a more significant impact in the crisis year.



**Fig.2. Graphical representation of a panel regression model that characterizes the impact of water consumption (taking into account the annual lag) on the growth of agricultural production (Cluster of 3 regions of the Republic of Uzbekistan).**

In the post-COVID year (2021), the situation returned to pre-crisis. However, a significant difference in indicators of water availability and water consumption by regional clusters did not provide the pre-crisis effect of the difference in the growth rates of agricultural production. The elasticity of agricultural production growth in terms of interrelated indicators of water availability and water consumption returned to positive values, but remained significantly lower than in the pre-coronavirus period.

Model 1 (cluster 1)

$$Gr\_AG(1) = 107.67 + 0.996 * Vz\_1 - 0.691 * Vper\_ga\_1$$

Model 2 (cluster 2)


$$\text{Gr\_AG}(2) = 109.89 - 1.14 \cdot \text{Vz} + 2.52 \cdot \text{Vz}_{-1} + 0.987 \cdot \text{Vper}_1 - 2.01 \cdot \text{Vper\_ga}_1$$

Model 3 (cluster 3)

$$\text{Gr\_AG}(3) = 101.37 + 1.868 \cdot \text{Vz} - 1.254 \cdot \text{Vz}_{-1}$$

Designations of indicators of models are given above. The sign ( $_{-1}$ ) indicates that the indicator is included in the model with a one-year lag.[4]

The explanatory properties of the obtained models are very high (more than 80%). The quality of the models is also confirmed by the distribution of residuals close to the normal distribution law (Fig. 2).



**Fig. 3. Distribution of residuals of the panel regression model characterizing the impact of water consumption on the growth of agricultural production.**

From the content of the models, we can conclude that indicators for assessing the response of agricultural production growth should be not only (and not so much) water consumption per 1 ha of crops (as suggested in the above works), but the interdependence of technological indicators of irrigation, their intensity per 1 ha and 1 worker, as well as the cyclicity of influence, as indicated by the signs of the model parameters at the current and lag values of the variables. When developing management indicators for the efficiency of water consumption in agriculture, it is

also necessary to take into account the spatial specificity of the identified statistical patterns.

### **References**

1. The World Bank Water Services and Institutional Support Project (P162263).  
February 20, 2020.  
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/802111584324088462/pdf/Uzbekistan-Water-Services-and-Institutional-Support-Project.pdf>
2. “Concept for the development of the water sector of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030”, <https://faolex.fao.org/docs/pdf/uzb196632.pdf>
3. AQUASTAT - FAO's Global Information System on Water and Agriculture.  
<https://www.fao.org/aquastat/en/databases/maindatabase/metadata/>
4. Li, Jingsi., Fei, Liangjun and others. Development of “water-suitable” agriculture based on a statistical analysis of factors affecting irrigation water demand (2020).  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048969720345150>.
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).

### **ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УЧУН ҚАДИМИЙ АХСИКЕНТ ШАҲРИ ХУНАРМАНДЧИЛИГИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШ.**

**Садуллаев Хамидулло Мансурович**

Фарғона политехника институти доценти

**Аловудинов Турсунали Билолдин ўғли**

Фарғона политехника институти талабаси

e-mail: [sadullayev.ferpi@gmail.com](mailto:sadullayev.ferpi@gmail.com)

### **Аннотация**

Мақолада Фарғонанинг қадимий пойтахти Ахсикент шаҳри хунармандчилигининг атрофдаги маҳаллалар иқтисодиётига таъсири мисолида хунармандчилик ривожланган шаҳарлар атрофидаги маҳаллалар иқтисодиётини ривожлантириш бўйича амалий тавсиялар баён этилган.

Калит сўзлар: археологик тадқиқот, тош ишлаш устахоналари, кулолчилик,

кандолатчилик, тўқимачилик, темирчилик, ёғочни қайта ишлаш.

### **Кириш**

Бугунги Ўзбекистон худудида, шу жумладан Фарғона водийсида энг қадимги тарих – ибтидоий одамлар яшаган жойлар узок вақт ўрганилмаган. Ўтган асрда Фарғона водийсида бир қанча махсус археологик тадқиқотлар ўтказишлар натижасида халқимиз тарихини ибтидоий жамоа тузуми давридан бошлаб ўрганишга имконият туғилди.

Фарғона водийсида ҳунармандчилик, кулолчилик, темирчилик каби йўналишлар ривожланган. Эрамиздан аввалги 150-40 минг йилликларда тошдан жуда оддий парчалаш ва синдириш йўли билан бирга қуролга анча аниқ ва муфассал шакллар берувчи қисиб синдириш усули кенг қўлланилган, тош ишлаш устахоналари, меҳнат қуроллари тайёрланадиган устахоналар мавжуд бўлганлиги аниқланган. Демак, бу даврда ўлкамизда ўзига хос ишлаб чиқариш ва турли йўналишларда ҳунармандчилик мавжуд бўлган.

### **Материаллар ва методлар**

Тарихчи олим Ёкут Ҳамавий қадимги юнон тарихчилари Геродот ва Птоломейлар бир қанча жойда Фарғонанинг пойтахти “Астакан” деб тилга олганликларини эслатиб ўтади.

Агар Геродот ва Птоломей (Эрамиздан 300-500 йиллар аввал яшаган) Фарғонанинг “Астакан” деб аталувчи пойтахти борлигини тасдиқлашган бўлса, демак ҳозирги “Ахсикент” эрамиздан 500 йил аввал ҳам дунё миқёсида тан олинган, танилган шаҳар эканлиги маълум бўлади.

Наманган вилоятининг Жомашўй – Шаҳанд автомагистрал йўлида, Сирдарёнинг ўнг соҳили бўйлаб шарқдан ғарбга ястаниб ётган, асрлар оша сукут сақлаб ўз тадқиқотларини кутиб турган қадимий Ахсикент шаҳри харобалари бор.

Балхлик тарихчи олим Маҳмуд ибн Валининг “Баҳрул-ул-асрлар” номли қомусий асарида “Ахсикент Фарғона шаҳарларининг онасидир” дейилган.



Тарихчи олим Й.Қосимов ўзининг “Қадимги Фарғона сирлари” номли китобида “Ахси” ва “Ахсикент” сўзлари ҳозирги кунда ҳам ёзма манбааларда ва адабиётларда “Ахсикант” ёзилиб келиняпти. ... Кўплаб ёзма манбаалар ва ривоятларга асосланиб, халқ орасида ҳамон Эски Ахси деб номланиб келаётган шаҳар харобасини Ахсикат-Ахсикет эмас, балки “Ахсикент” деб аташни биз ҳам мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз...” – деб ёзади.

Ушбу мақолада мазкур тарихий шаҳарнинг X-XII асрларда ижтимоий ҳаётда тутган ўрни, архитектураси, айрим бино ва иншоотларни барпо этишда қўлланилган қурилиш материаллари, металлни қайта ишлаш технологиялари ва бошқа хунармандчилик йўналишлари тўғрисида сўз юритилади.

Бизнинг давримизгача етиб келган тарихий-географик асарларда X асрдан бошлаб Ахсикент тўғрисида маълумотлар учрайди.

“Ҳудуд-ул-олам” китобида “Фарғона – улуғ, обод ва жуда кўркем вилоятдир. Унинг тоғлари, текис жойлари, оқар сувлари ва шаҳарлари кўп...” Ахсикент – Фарғонанинг пойтахти, амирнинг қароргоҳи. Бу жуда катта шаҳардир” – деб тасвирланса, араб географи ва сайёҳи Абу Исҳоқ ал-Истахрий (840-934 йй) нинг “Йўллар ва мамлакатлар ҳақида китоб” номли асарида “Фарғона кенг ер, унга қарашли шаҳар ва қишлоқлар ҳам катта, унинг энг катта шаҳри Ахсикатдир” деб таърифланади.

Машҳур олим ва сайёҳ Ёқут Ҳамавий (1179-1229 йй) “Шаҳарларни тасвирловчи китоб” асарида шундай деб ёзган: “Ахсикат-Фарғона томонда бир катта шаҳар бўлиб, Шош (ҳозирги Сирдарё) дарёсининг ёқасидаги текис ерга жойлашган. Дарёнинг шимолий томонидаги тоғлар билан Ахсикат орасидаги масофа бир фарсах (бир фарсах~8 км). Унинг 3 фарсахга яқин қўрғон ва атрофида одам яшайдиган жойлари бор.

Ахсикат ички шаҳрининг тўртта дарвозаси бўлиб, унинг иморатлари лойдан ясалган. Шаҳар ичида ва қўрғони атрофларида оқар сувлар ва катта ҳовузлар бор.

Қўрғонда бир-бирига туташган боғлар ва ҳеч тинмай оқадиган бир фарсах узунликдаги ариқлар бор. Бу ер Моварауннахрдаги энг хушманзара

жойлардан бири”.

Машхур шарқшунос академик В.В. Бартольд ўзининг “Мўғуллар босқини даврида Туркистон” деб номланган асарида ўрта аср муаллифлари қолдирган маълумотларга суяниб, мўғуллар истилоси даврида вайрон бўлган Ахсикент шаҳрини 3 қисмдан: арки аъло (ўрда), шаҳристон (ички шаҳар) ва работ (ташқи шаҳар) дан иборат, деб кўрсатади. Улардан ҳар бирининг ўзига хос жиҳатлари ва муҳим тарихий қиммати бор.

Арқда амирларнинг саройи, қамокхона, хазина ва маъмурий девон, шаҳристонда жоме масжиди, мадрасалар, ички бозор, аҳоли яшайдиган маҳаллалар, работда эса ташқи бозор, хунармандчилик корхоналари, маиший бинолар жойлашган.

Ахсикат диёрида туғилган машхур олим, шоир ва саркарда З.М. Бобурнинг тасвирлашича: “Сайхун (Сирдарё) суйининг шимоли тарафидаги қасабалар (шаҳарлар) дан бири Ахсидур. Китобларда Ахсикат битирлар... Фарғонада, мунча берк кўрғон йўқдир”. Ҳозирги вақтда ташқи шаҳристоннинг шимолий ва шимолий-шарқ қисмида йигирмага яқин минора харобалари сақланиб турибди. Бироқ ички шаҳристон миноралари дўнглик шаклида сақланиб қолган холос.

Ёзма манбаларда берилган маълумотларга кўра X аср охирида Ахсикент худуди 400 гектар майдонни эгаллаган.

Унинг бугунги кунда сақланиб қолган майдони 70 гектардан ошмайди.

Ахсикентни ўрганишга нисбатан қизиқиш жуда эрта бошланган. А.Н. Бернштам, Я. Ғуломов, И. Ахроров, А. Анорбоев каби таниқли олимлар Ахсикент тарихини ўрганиш билан жиддий шуғулландилар. Эски Ахси ёдгорликларини кенг кўламда ўрганиш асосан ўтган асрнинг 50 йилларида жиддий тус олиб, шарқий работ чегарасида ҳаммом қолдиқларининг топилишидан бошланди.

Марказий Осиёда миллий ҳаммомлар кўп бўлган. Лекин бу ҳаммом бошқалардан бутунлай фарқ қилади. 1960 йили мен Шаҳанддаги 24-мактаб томонидан уюштирилган экскурсия пайтида биринчи марта ҳаммом

колдиқларини кўрдим. Ҳаммом XI асрнинг бошида махсус лойиҳа асосида пишиқ ғиштлардан қурилган. Деворлари эса намга чидамли алоҳида қоришма билан сувалган. Девор харобаларидан кўринишича бир неча ўн қаватни ташкил этувчи, кўриниши ҳозирги юқори маркали кўкимтир цементни эслатадиган ўта юпқа қатламлардан иборат сувоқ жуда яхши сақланган.

Ҳаммом асосан 3 та архитектура комплексидан иборат.

Ҳаммомнинг шарқий ва ғарбий қисмларида ювинишга мўлжалланган хоналар жойлашган. Ҳаммомнинг шарқий қисми анча яхши сақланган. Бу ерда хоналар тартиб билан қўйилган бўлиб, ҳар бир хона ҳарорати муайян даражада зарурий миқдорда бўлиши таъминланган.

Ўтхонадан келаётган иссиқ ҳаво пол ости йўллари орқали девор ичига тик ўрнатилган махсус керамик қувурларга йўналтирилган. Натижада хона деворлари ҳам исиган. Ҳаммомнинг шарқий қисмига ғарб томондаги эшикдан махсус хона орқали ўтилади. Ечиниш хоналарининг деворлари бўйлаб супалар жойлашган.

Ахсикент ёнгинасида жойлашган Шаҳанд қишлоғида қурилган шарқона ҳаммом қадимий Ахсикент ҳаммомига бир қадар ўхшаш қилиб қурилган ноёб объект бўлиб, у қишлоқ аҳолисига кўп йиллар хизмат қилди, бироқ афсуски, XXI аср бошларида бу ҳаммом бузиб ташланган.

Ахсикент ҳаммомининг юқори қисмидан бошланган жарликлар Сирдарёга тутшиб кетади. Ана шу макондаги қазилма ишлари жараёнида шарқий робот худудининг шахристонга яқин қисмида металлурғлар маҳалласи жойлашгани аниқланган.

Жарликлар ёқасида ғарбий работ худудида ҳам бир неча металл эритиш печлари топилган. Кейинги йилларда Ўзбекистон ва чет эллик археолоғлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар тарихда жаҳонда машҳур “Дамашқ қиличлари” айнан мана шу ерда ишлаб чиқарилганлигини исботлади.

Ахсикент Шахристонининг уч жойидан топилган, пишиқ ғишдан қурилган ер ости сув йўли тармоқларининг очилиши бундан минг йиллар илгари ҳам Ахсикентда инженерлик тармоқлари яхши ривожланганидан дарак беради.

Сув йўли тармоқлари ишга туширилган пайтда шаҳар ичкараси ва ташқарисида уйлар бир-бирига нисбатан зич бўлган.

Шунга қарамай, ўз замонасининг амалий фанларга, ақл-идрок ва тажрибаларига таянган қурувчи архитекторлар, муҳандислар жуда усталик билан ҳозирги метро қурилишига ўхшаб кетадиган услубда сув йўли тармоқларини барпо этишган. Ярим гумбазсимон ҳолатда пишиқ ғиштлардан яратилиб, унинг ичкарасида бемалол юриш мумкин бўлган муҳандислик иншоотлари қолдиқлари кишини ҳайратга солади.

1620 йилда содир бўлган дахшатли зилзила Ахсикент шаҳрини бутунлай вайрон қилган. Лекин, бу қадимий шаҳар халқининг зилзиладан омон қолган қисми кўшни Шаҳанд қишлоғига кўчади. Шаҳар аҳолиси билан бирга хунармандчилик, савдо-сотик ҳам мазкур қишлоқда ўз фаолиятини давом эттиради. Фарғона водийсининг фақат Шаҳанд қишлоғидагина бутун водийга машҳур бозорнинг юзлаб йиллардан бери фаолият кўрсатиб келиши, қишлоқда қандолатчилик, темирчилик, кулолчилик, тўқимачилик ёғочни қайта ишлаш каби хунармандчиликка мослашган маҳаллаларнинг ҳозиргача мавжудлиги қадимий Ахсикент хунармандчилиги бугунги кунда ҳам маҳаллаларимизда хунармандчиликни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга эканлигини исботлайди.

Мамлакатимизда туризмни ривожлантиришга эътибор кучайиб бораётган ҳозирги даврда “Ахсикент” тарихий ёдгорлигини ва ундаги хунармандчиликни ҳар томонлама ва чуқур ўрганиш, ёдгорликнинг ўрнатилган, консервация қилинган ва очилган қисмларини реставрация қилиш ҳамда уни усти ёпилган “Очиқ осмон остидаги музей” га айлантириш, турли йилларда Ахсикентда қазиш вақтида топилган хунармандчиликка оид моддий ва маданий намуналарни ўзга юртларнинг музей экспонантларидан Ахсикентда ташкил этиладиган янги музейга қайтариш, дарё соҳилини обод қилиш бу қадимий тарихий ҳудудга нафақат ватанимиздаги ички туристларни, балки бутун дунёдан туристларни кенг жалб этиш имконини беради.

Қадимий Ахсикент шаҳри ҳунармандчилигининг қўшни қишлоқлар, маҳаллаларнинг ишбилармон, тадбиркор фуқаролари томонидан ижодий тарзда ўзлаштирилиб, Шаҳанд қишлоғи каби ривожланишида муҳим аҳамият касб этаётганлиги ҳозирги кунда ҳунармандчилиги ривожланган Марғилон, Қўқон, каби шаҳарларнинг тажрибасини яқин атрофда жойлашган туманлар маҳаллаларига ёйиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан биридир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Й.Қосимов “Қадимги Фарғона сирлари” 1988 йил. Наманган нашриёти.
2. Sadullaev, X., Muydinov, A., Xoshimov, A., & Mamarizaev, I. (2021). Ecological environment and its improvements in the fergana valley. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 100-106.
3. Sadullaev, X., Tojiyev, R., & Mamarizaev, I. (2021). Experience of training bachelor-specialist mechanics. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 1(5), 116-121.

### **МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ИСЛОҲОТЛАРНИ САМАРАЛИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИДАГИ РОЛИ**

**Қодиров Нажмиддин Неъматович**  
**ТДИУ, Умумий ва аниқ фанлар**  
**кафедраси мудир**  
**Тарих фанлари номзоди, доцент**

#### **Кириш**

Ўзбекистонда "кучли давлатдан кучли фуқаролик жамиятига" ўтиш давридаги мураккаб ислоҳотлар даврида ўзини ўзи бошқариш органлари ёки "маҳалла" деб аталадиган анъанавий ижтимоий институтнинг Ўзбекистон учун тутган ўрни ва аҳамияти ҳақида қисқача маълумот берилган. Давлат ва фуқаролар ўртасидаги кўприк, жамиятда демократик қадриятлар ўтказувчиси, "ижтимоий капитал" деб аталувчи, ижтимоий шериклик ва ижтимоий шерикликнинг ҳаракатлантирувчи кучларидан бири бўлган маҳаллалар

мавжудлигида анъанавийлик замонавийликка мос келади, деб таъкидланади. Ўрта синфнинг пайдо бўлиши ва кейинги ривожланиш манбалари. Япониядаги ташкилотлар ва Европадаги қўшни жамоалар ўзбек маҳаллалари билан ўхшашликларга ега бўлиб, уларнинг тажрибасини маҳаллалар фаолиятини такомиллаштиришда қўллаш мумкин. Бизнинг мавзуга умумий ёндашувимиз нафақат маҳаллаларнинг умумий хусусиятларини ўрганиш, балки ушбу институтларни Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ривожлантиришда ҳал қилувчи аҳамиятга ега деб ҳисоблашдан иборат.

### **Мулоҳаза ва таҳлиллар**

Ўзбекистон мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб демократик ислохотлар, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ахборот, маънавий ва ҳаётнинг бошқа соҳаларини либераллаштириш йўлидан борди. Аста-секин ислохотлар амалга оширилгач, ҳам миқёси, ҳам ижтимоий аҳамияти билан "кучли давлатдан кучли фуқаролик жамиятига" ўтиш тамойилини амалга ошириш зарурати тобора долзарб бўлиб борди. Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг яратилган ташкилий-ҳуқуқий асосларини, кўплаб жамоат бирлашмалари, нодавлат нотижорат ташкилотлари (ННТ) ва фуқароларнинг маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятини, шунингдек, уларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги бевосита ва фаол иштирокини таҳлил қилиш мамлакат, асосан, Ўзбекистон кучли фуқаролик жамиятига ўтиш йўлидан қайтмас ва изчил ҳаракат қилаётганини намоён этмоқда. Шунини таъкидлаш жоизки, модернизация ва унинг белгилари остида ўтган бу йўл бир нечта ўзига хос хусусиятларга эга, бу уни фақат Ўзбекистон учун хос бўлган ноёб "ўзбек модели" сифатида ажратиш имконини беради<sup>48</sup>.

Биринчидан, бу босқичма-босқич трансформациялар. Бугунги кунда, тез ўзгарувчан дунёда ва айрим минтақаларда кечган сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ходисалар фониди босқичма-босқичлик ва изчилликнинг аҳамияти

---

<sup>48</sup> Karimov Islam A (1993) Building the future; Uzbekistan - its own Model for Transition to Market Economy. Tashkent: Government Printing Office Tashkent.

тобора ортиб бормоқда. Ўзбек халқига хос бўлган "янги уй қурмай, эскисини бузманг" тамойили, эҳтимол, Ўзбекистондаги барча модернизация жараёнларининг шакл ва мазмунини белгиловчи элементидир.

Иккинчидан, бу давлат ва фуқаролик жамияти ўртасидаги муносабатларнинг алоҳида шакли бўлиб, унда биринчиси самарали меъёрий-ҳуқуқий базани таъминлаш ва иккинчисини яратиш ва ривожлантиришга қаратилган ислохотларни амалга ошириш учун жавобгарликни ўз зиммасига олади. Тадқиқотчи Пекканен таъкидлашича, " фуқаролик жамиятини ривожлантириш учун давлат томонидан тақдим этилган тартиб доирасидан муҳимроқ нарса йўқ"<sup>49</sup>. Ва кейин у " фуқаролик жамияти ва давлат ўртасидаги муносабатлар соф қарама-қаршилик муносабатлари эмас. Ижтимоий тартибнинг мулк ҳуқуқидан тортиб инфратузилмагача бўлган қанча элементларини давлат таъминлаётганини ва фуқаролик жамияти фаровонлик учун қандай эҳтиёж борлигини кўриб чиқсак, бу аниқ ҳақиқат бўлиб туюлади"<sup>50</sup>. Шунга ўхшаш нуқтаи назарни фуқаролик жамияти ва давлатни кўплаб таркибий алоқалар боғлайди, деб ҳисоблайдиган баъзи олимлар ҳам бор. Уларнинг таъкидлашларича, давлат ижтимоий ҳаётда тартибга солиш функцияларини амалга ошириб, фуқаролик кадриятлари ва институтлари билан муносабатлардан четлашмайди, иккинчиси эса горизонтал тузилиши орқали барча ижтимоий муносабатларни қамраб олади. Шундай қилиб, уларнинг мавжудлиги учун фуқаролик жамияти ва давлат бир-бирини тўлдирди. Шу билан бирга, фуқаролик жамияти ва давлат ўртасидаги муносабатлар нафақат ўзаро боғлиқ, балки бир-бирини тўлдирди<sup>51</sup>. Ўзбекистон мисолида муҳолифат ва Давлат ҳамда фуқаролик жамиятининг алоҳида мавжудлиги ҳақида гапириш мумкин эмас, шунингдек, Давлат фуқаролик жамиятини бўйсундиради ёки ўзига сингдиради, деб ишониш ҳам

---

<sup>49</sup> Pekkanen R (2006) Japan's dual civil society: members without advocates, Stanford, California: Stanford University Press. – P. 6.

<sup>50</sup> Pekkanen R (2006) Japan's dual civil society: members without advocates, ... – P. 6

<sup>51</sup> Abakumov SA (2005) Civil society and authority: opponents or partners? Moscow: Gallery, 2005. – С. 174-175; Mamut LS (2002) Civil society and state: the problem of correlation, Social sciences and contemporaneity, No. 5, p. 101.

асоссиздир. Аксинча, Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг самарали фаолият юритиши Давлат ҳаётийлигининг муҳим шarti эканлиги тўғрисида хабардорлик тобора ортиб бормоқда. Чунки фуқаролик жамияти мавжуд бўлгандагина жамият ва фуқаро билан барқарор муносабатларни амалга ошириш мумкин. Давлат учун бу жамиятнинг ҳолати, унинг манфаатлари, кайфияти ва ҳокимиятга муносабати тўғрисида кенг кўламли маълумот манбаи бўлган фуқаролик жамияти институтлари билан алоқалардир. Шу билан бирга, шуни таъкидлаш керакки, давлатнинг роли кучайганига қарамай, Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг мустақиллиги ва автономлиги, уларнинг давлат институтлари билан ҳамкорлигини сақлаб қолиш билан бирга, ўзаромужассамлиги бузилмайди.

Учинчидан, бу анъанавийликни "замонавийлик", тарихий ва маданий кадриятларни демократлаштириш соҳасидаги халқаро тажриба билан муваффақиятли уйғунлаштиришдир. Ўзбекистонда табиат ва йўналиш бўйича қарама-қарши бўлган анъана ва замонавийлик нафақат бир-бирини тўлдиради, балки фаолият ва ривожланишда кесишади, бу эса мамлакатда фуқаролик жамиятининг муваффақиятли ривожланишига ёрдам беради. Яхши кўшничилик ва ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат, муҳтожларга ғамхўрлик қилиш, ёш авлодни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш, ўзбек халқининг ажралмас қисми бўлган жамият ва инсон ҳаётининг жамоавий табиати олдидаги бурч ва масъулиятни чуқур англаш каби анъана ва тамойиллар, фуқаролик жамиятининг пайдо бўлиши учун қулай замин бўлиб хизмат қилади.

Тўртинчидан, Ўзбекистон учун анъанавий бўлган ва айни пайтда фуқаролик жамияти учун муҳим бўлган "маҳалла" лар ёки маҳаллий ҳокимият органларининг роли ва аҳамияти ошиб бормоқда. Маҳалла анъанавийликнинг ифодаси ва намоён бўлиши сифатида демократик жамият учун ижтимоий назорат, ўзини ўзи бошқариш, онгли ва баркамол шахсни тарбиялаш, хусусий бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш каби муҳим вазифаларни



базаради. Бундан ташқари, маҳалла "ижтимоий капитал"<sup>52</sup> деб аталадиган асосий манба бўлиб, жамиятда юқори даражадаги ишонч ва мулоқотнинг мавжудлиги билан ажралиб туради. Бу эса Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратади<sup>53</sup>.

Бизнинг фикримизча, маҳалланинг изчиллиги ва функционалиги, унинг чинакам "миллий" характери ва кўлами, ўзини ўзи бошқариш хусусияти ва тузилиши, ижтимоий кадрият ва анъаналари маҳалланинг фуқаролик жамияти институтлари тизимидаги алоҳида мавқеи ва нуфузи ҳақида фикр юритиш имконини беради. Ушбу тамоил 2017 йил феврал ойида қабул қилинган ва долзарб масалаларни ҳар томонлама ўрганиш, амалдаги Қонунчилик, ҳуқуқни кўллаш амалиёти ва илғор халқаро амалиёт таҳлили, шунингдек, жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган Ўзбекистоннинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган ривожланиш стратегиясида яққол ўз ифодасини топди<sup>54</sup>. Ушбу стратегия Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишини ўз ичига олиб, улардан бири давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштириш, фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, шунингдек, маҳалланинг жамиятдаги аҳамияти ошириш ва фаолияти самарадорлигини оширишни ўз ичига оладиган янгича бошқарув тизимини яратишга йўналтирилган ислоҳотларни амалга оширишни назарда тутди<sup>55</sup>.

Шунинг учун ҳам Ўзбекистонда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш нуқтаи назаридан маҳалла фаолиятини таҳлил қилиш муҳим ва долзарб аҳамиятга эга.

Маҳалла азалдан бизгача етиб келган фуқаролик жамиятининг ноёб институтларидан биридир. Тарихан у халқ таълими сифатида фаолият

---

<sup>52</sup> Putnam Robert D (1995) Bowling Alone: America's declining social capital // Journal of Democracy. – January, – Vol. 6, No. 1. – p. 6578.

<sup>53</sup> Muminov A (2017) Makhalla as the center and the conductor of socio-political development in Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (48): 103-107.

<sup>54</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 феврал “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги №4947-сонли Фармони.

<sup>55</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 феврал “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги №4947-сонли Фармони.

юритган, унинг субъектлари яшаш жойи, урф-одатлари, анъаналари, алоқа шакллари, ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва оилавий муносабатлар билан ўзаро боғланган.

Янги Ўзбекистонда маҳалла "кучли давлатдан кучли фуқаролик жамияти сари" асосий тамойилини амалга оширишда, аҳолининг заиф қатламларини манзилли ижтимоий ҳимоя қилишни таъминлашда энг муҳим воситага айланиб, янги мавқега эга бўлди. Бозор иқтисодиётини шакллантиришга йўналтирилган кенг қамровли ислохотлар даврида мазкур институт инсон манфаатларини ҳимояловчи ва таъминловчи муҳим ижтимоий институт сифатида гавдаланди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида Маҳалла фаолияти учун Конституция ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар даражасида мустаҳкам Қонунчилик базаси яратилди. Хусусан, фуқароларнинг ички бошқаруви фуқароларнинг манфаатлари, ривожланишнинг тарихий хусусиятлари, шунингдек, мамлакатимизда миллий ва маънавий қадриятлар, маҳаллий урф-одатлар ва анъаналардан келиб чиққан ҳолда маҳаллий аҳамиятга эга бўлган масалаларни ҳал қилиш бўйича мустақил фаолияти сифатида Конституция билан кафолатланди<sup>56</sup>. Шу билан бирга, бугунги кунда Ўзбекистонда жамиятнинг муайян соҳасидаги маҳалла фаолияти ва иштирокини тартибга солувчи 100 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган. Биргина ўтган беш йил давомида Ўзбекистон Республикасининг "маҳаллий ҳокимият органлари тўғрисида" ги ва "фуқаролар йиғинлари раислари ва унинг маслаҳатчилари сайлови тўғрисида" ги қонунлари, шунингдек, маҳаллалар ва уларнинг ижтимоий тузилмалари фаолиятига оид 20 га яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, Президент Ш.М.Мирзиёевнинг 3 йил 2017 февралдаги "Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Фармонида маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни самарали ҳал этишда маҳаллий ҳокимият

---

<sup>56</sup> (1994) CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, 1993, No. 1, art.4, 1994, No. 1, art. 5; Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2003, No. 3-4, art. 27; Bulletin of Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2007, No. 4, art. 162; 2008, No. 12, art. 637, 2011, No. 4, art. 100; No. 12/1, art. 343; 2014, No. 4, art. 85.

органларининг ролини ошириш, фуқароларнинг умумий манфаатларини ифодаловчи бирлашмага аъзо бўлиш ҳуқуқларини амалга ошириш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлашга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлар белгиланди. Уларнинг давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлигини янада ривожлантириш бўйича тизимли ўзгаришлар амалга оширилди<sup>57</sup>.

2021 йил 1 сентябрь ҳолатига Ўзбекистон ҳудудида 9255 маҳаллалар мавжуд бўлиб<sup>58</sup>, ҳар бир маҳалла ўртача 3 мингга яқин кишини қамраб олади. Улар илгари маҳаллий ҳокимият органларининг ваколатига кирадиган 30 га яқин функцияларни бажарадилар<sup>59</sup>.

Маҳалла институти ёшлар ўртасида тарбиявий ишларни муваффақиятли олиб бормоқда, аҳолининг ҳуқуқий маданиятини шакллантиришга беқиёс ҳисса қўшмоқда, ҳудудларни ободонлаштириш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, ижтимоий инфратузилмани яратиш, жамоат тартибини муҳофаза қилиш, оилавий бизнес, хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ҳамда фуқароларнинг ижтимоий ҳаёти билан боғлиқ замонавий муаммоларни ҳал этмоқда. Бундан ташқари, маҳалла йирик давлат дастурларини амалга оширишда муҳим ўрин тутмоқда. Бугунги кунда ҳар қандай ижтимоий аҳамиятга эга масалаларни фуқароларнинг маҳаллий ҳокимият органлари иштирокисиз ҳал қилишни тасаввур қилиш ҳам қийин.

Ўзбекистон "Маҳалла" хайрия жамоат фондига алоҳида эътибор қаратилиб, унинг асосий мақсади фуқаролар йиғинларига маҳаллани аҳолини манзилли ижтимоий қўллаб-қувватлаш марказига айлантириш, хусусий тадбиркорлик ва оилавий бизнесни ривожлантириш, шунингдек, уларни янада кенгайтиришга қаратилган фаолиятини такомиллаштиришга кўмаклашишдан иборат фуқароларнинг маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг давлат

---

<sup>57</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маҳалла институти янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 3 февралдаги ПФ-4944-сонли Фармони.

<sup>58</sup> Ўзбекистонда маҳаллалар сони 9 255 тага етди. // «Халқ сўзи» газетаси № 192 07.09.2021.

<sup>59</sup> Саидов С. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожининг баъзи мезонлари. 2018 йил 16 сентябрь. <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/2946/>.

назорати органлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизимидаги вазифалари, жамиятда барқарорлик ва юксак маънавий муҳитини таъминлаш мақсадида миллий ва маънавий кадриятларни тарғиб қилиш, уларни ривожлантириш тўғрисида кенг жамоатчилик хабардорлигини амалга ошириш.

Ижтимоий шерикликда иштирок этишда маҳалланинг ўрни катта. Демократик тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатлар учун универсал тушунча бўлиб, у Ўзбекистон шароитида ўзига хос хусусиятларга эга. Бир томондан, ижтимоий шерикликни "давлат–фуқаролик жамияти" муносабатлари призмаси орқали кўриб чиқсак, бу институтлар чигал ва ўзаро боғлиқлиги аён бўлади. Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, Ўзбекистонда улар алоҳида мавжуд эмас, балки миллий мақсад ва вазифаларга эришиш, шунингдек, миллий ғояни амалга ошириш учун биргаликда ишлайди. Бундан ташқари, ушбу ҳамкорлик давлатнинг асосий ислохотчи сифатидаги роли катта бўлиб, мамлакатда фуқаролик жамиятини шакллантириш ва институтларнинг самарали ишлаши учун ташкилий-ҳуқуқий механизмлар ва шарт-шароитларни яратди. Бошқа томондан, маҳалланинг Ўзбекистондаги ижтимоий шерикликдаги иштироки унга ўзига хос хусусият беради, у фуқароларнинг бирламчи манфаатларининг асосий дирижёрига айланиши ва ушбу манфаатларни амалга оширишга қаратилган самарали давлат ҳокимиятига айланиши мумкин.

Маҳалла ижтимоий шерик сифатида давлат тузилмалари ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги муносабатлар тизимида алоҳида мавқега эга, чунки у ушбу жамият нима эканлигига, яъни шахс ва унинг муҳим манфаатларига яқинроқдир. Шундай қилиб, маҳалла нафақат жамоат манфаатларининг вакили, балки ўзини ўзи бошқаришни ташкил этиш, жамият томонидан ўзига юкланган турли ва қарама-қарши функцияларни бажариш, давлат органлари ва бошқа манфаатдор ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорлик қилиш орқали ушбу манфаатларни амалга оширувчи органдир. Бу нафақат маҳалланинг давлат муассасалари тузилмасидаги ўзига хос хусусиятларини,

балки унинг ўзига хослигини ҳам кўрсатади. Шу билан бирга, маҳалла тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантириш марказига айланиб, мамлакатнинг ўрта синфини шакллантириш ва мустаҳкамлашга, ижтимоий шерикликни икки партиядан уч партиявий муносабатлар тизимига, шу жумладан, давлат муассасалари ва фуқаролик жамияти, кучли ўрта синфга эга хусусий сектор. Мамлакатда нафақат иқтисодий, балки сиёсий ва ижтимоий барқарорликнинг, унинг ривожланиши ва фаровонлигининг асосига айланишни мақсад қилган ҳақиқий мулкдорларнинг ўрта синфини шакллантириш ва ривожлантириш зарур шарт бўлиб, шаклланаётган фуқаролик жамиятининг таянчи бўлиб хизмат қилади.

Жадал ислохотлар амалга оширилиш жараёнида Президент Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан 2020 йили 18 февралда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-4602-сонли қарори қабул қилиниб, унда аҳоли осойишталигини таъминлаш, оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш, нурунийлар ижтимоий фаоллигини ошириш, маҳаллани жиноятчиликдан холи худудга айлантиришда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари роли ва мавқеини янада мустаҳкамлаш асосий устувор вазифа сифатида<sup>60</sup> белгиланди.

Мазкур қарорнинг қабул қилиниши ва унинг ижросини таъминлаш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида маҳалла институтини фаолиятида самарадорлик ошишига, тизимлашувига эришилди. Ўтган қисқа даврда маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш, ишсизлик ва камбағалликни қисқартириш, ҳар бир оила билан манзилли ишлайдиган, нотинч оилалардаги аҳволни олдиндан ўрганиб, муаммони бартараф этиш, кам таъминланган, ишсиз, уй-жойга муҳтож ва ногиронлиги

---

<sup>60</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-4602-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4740335>.

бор аёлларга манзилга кўмак бериш, ишсиз хотин-қизларга хунар ўргатиш ва иш билан таъминлашга кўмаклашиш бўйича салмоқли ишлар амалга оширилди. Ушбу амалга оширилган манзилли ишлар натижасида 2016 йилдан бошлаб Харакатлар стратегияси асосида мамлакатимизда аёллар ва уларнинг жамиятдаги ўрнини мустаҳкамлаш, уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги нуфузини ошириш бўйича салмоқли ишлар амалга оширилди. Хусусан, 2018 йилда 75784 нафар, 2019 йилда 41500 нафар, 2020 йилда 80000 нафар, 2021 йилда 900000 нафар хотин-қизларга ижтимоий-иқтисодий, тиббий, ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатилди ҳамда масъул идоралар томонидан муаммолари ижобий ҳал этилди<sup>61</sup>.

Мазкур даврда хотин-қизларни уй-жойга эга бўлишларига ҳамда уларнинг тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга эътибор қаратилди. Бу мақсадларда биргина 2021 йилда имтиёзли кредитлар асосида уй-жойлар учун 18 минг аёлларга 400 млрд. сўм маблағ ҳамда тадбиркорлик фаолиятларини йўлга қўйишлари учун 126 мингга яқин хотин-қизларга 2 трлн. сўм маблағлар йўналтирилган<sup>62</sup>. 2018 йилда 24660 нафардан ортиғига 21 млрд 540 млн сўмга яқин моддий ёрдам берилиши<sup>63</sup>, 2020 йилдан бошлаб, “Аёллар дафтари” тизими йўлга қўйилиб, унга киритилган 900 мингга яқин хотин-қизларга ижтимоий-иқтисодий, тиббий, ҳуқуқий ва психологик кўмак берилиши<sup>64</sup> хотин-қизларнинг жамиятда ўз ўрнини топишларига кўмаклашиб, уларнинг ижтимоий ҳаётдаги фаоллигини ошмоқда.

Бу борада сўнгги йиллардаги ислохотларни жадал давом эттирилиши натижасида маҳалла институти фаолият механизми таомиллаштирилиб

---

<sup>61</sup> Хотин-қизлар учун улкан имкониятлар белгиланди. <https://xs.uz/uzkr/post/khotin-qizlar-uchun-ulkan-imkoniyatlar-belgilandi>. 01 март 2022 йил. (мурожаат қилинган сана 10.05.2023).

<sup>62</sup> Мирзиёев Ш.М. Муқаддас она, азиз Ватан, оила тимсоли, битмас-туганмас меҳр, эзгулик ва куч-ғайрат манбаи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи. // Халқ сўзи, 2021 йил 7 март, №48 (7828). – Б. 1-2. <https://xs.uz/uz/site/newspaper?page=31>. (мурожаат қилинган сана 13.05.2022).

<sup>63</sup> Мирзиёев Ш.М. С безграничной любовью, уважением и почтением к светочу жизни – женщинам. Выступление Президента Республики Узбекистан на торжественной церемонии, посвященной международному женскому дню. 8 март 2019 йил <https://president.uz/uz/lists/view/2417>. (мурожаат қилинган сана 13.05.2023).

<sup>64</sup> Хотин-қизлар учун улкан имкониятлар белгиланди. <https://xs.uz/uzkr/post/khotin-qizlar-uchun-ulkan-imkoniyatlar-belgilandi>. 01 март 2022 йил. (мурожаат қилинган сана 10.05.2022).

борилди. Хусуцсан, маҳаллаларда ҳоким ёрдамчилари фаолиятини йўлга қўйилиши ижобий аҳамият касб этди.

Ҳоким ёрдамчилари фаолиятининг дастлабки натижалари кўриб чиқилди. Қайд этилганидек, улар уч ой давомида 6 миллион 900 минг хонадонни хатловдан ўтказиб, 4 та тоифага ажратган. Хонадонларнинг 11 фоизи кам даромадли, 47 фоизи қўшимча даромадга эҳтиёжи бор, 6 фоизи ижтимоий ҳимояга муҳтож, 36 фоизи ўзига тўқ оилалар экани аниқланган. Шу асосда ишсиз фуқаролар бандлигини таъминлаш, касб-хунар ўрганишига кўмаклашилган. Ўтган уч ойда ҳоким ёрдамчилари ташаббуси билан 50 мингта оилавий тадбиркорлик лойиҳаси учун 1 триллион 300 миллиард сўм кредит ва 20 миллиард сўм субсидия ажратилди. Натижада жойларда 47 мингта янги тадбиркор фаолияти йўлга қўйилди, 8 мингта кичик саноат ва сервис лойиҳаси ишга туширилди.

Шу билан бирга, ҳоким ёрдамчилари маҳалладаги ишсиз аҳолини иш билан таъминлаш, уларга доимий даромад манбаини яратишга кўмаклашиш учун устувор равишда маҳалладаги муваффақиятга эришган тадбиркорлик субъектлари билан ҳамкорликда фаолият олиб бормоқда.

Шу ўринда ҳоким ёрдамчилари томонидан 2022 йил январь-март ойларида аҳоли бандлигини таъминлаш мақсадида 24,3 мингта корхона ва ташкилотлардаги бўш (вакант) иш ўринларига 73 минг нафар ишсиз фуқароларни ишга жойлаштирилди.

Тадбиркорликни ривожлантириш бўйича 2 547 та кичик ишлаб чиқариш лойиҳалари (1 007 та тикувчилик, 1 239 та қандолатчилик ва 301 та бошқа кичик ишлаб чиқариш) амалга оширилди. Хизмат кўрсатиш йўналишида 5 524 та (977 та сартарошхона, 1981 та савдо дўконлари, 725 та гўзаллик салони ва 1 841 та бошқа йўналишда) объектлар ишга туширилди. 1897 та корхоналар фаолияти кенгайтирилди ва кам қувват билан ишлаётган 1 380 та корхоналарнинг қувватлари тикланди.

Амалга оширилган ишлар натижасида жорий йил 1 апрель ҳолатига 736 минг нафар фуқаролар даромадли меҳнат билан бандлиги таъминланди.

Оилавий тадбиркорлик дастури доирасида ҳоким ёрдамчилари тавсияномалари асосида 49 530 та лойиҳага 1 302 млрд. сўмлик кредитлар ажратилди. Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш, уларга меҳнат қуроллари ва асбоб ускуналари олиб бериш бўйича 8509 та фуқарога 19,3 млрд. сўмлик субсидиялар ажратилди. 5. 24 мингта юридик ва 23 мингта яқка тартибдаги тадбиркорлик субъектлари давлат рўйхатидан ўтказилди<sup>65</sup>.

### **Хулоса**

Мустақиллик йилларида ўзини ўзи бошқарув – маҳаллалар фаолиятининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш ва янада ривожлантиришга эътибор қаратилди. Бу институтнинг мамлакат сиёсий, иқтисодий ва маънавий ҳаётининг ажралмас бўғини сифатида шакллантириш, унинг учун зарур моддий ва молиявий шарт-шароитлар яратилди.

Маҳаллаларни фуқаролик жамиятининг институти сифатида мустақил тараққиётнинг дастлабки йилларида зиммасига юклатилган жамоатчилик вазифаларини босқичма-босқич бошқа маҳаллий давлат ва нодавлат ташкилотлар зиммаларига ўтказилиши ҳамда маҳаллаларни аҳоли турмушини юксалтириш борасида вазифаларини амалга оширишда қўшимча ваколатлар ва имкониятлар яратилиши ушбу институтни фаолияти самарадорлигини оширилишига хизмат қилди. Айниқса, 2020 йил 18 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-4602-сонли қарор бу борада муҳим аҳамият касб этди.

Маҳалла ўзининг ижтимоий йўналиши ва ижтимоий интеграцияси нуқтаи назаридан маҳаллий ўзини ўзи бошқаришнинг энг яхши шакллари билан бири эканлигини таъкидлаймиз. Шу билан бирга, жамиятда ва умуман мамлакатда ижтимоий ўзгаришларнинг илғор агентига айланиш учун маҳалла ўзининг кенг функционал юки ва фаолиятининг барча соҳаларида ўз ишини

---

<sup>65</sup> “Маҳаллабай” ишлаш тизимида ҳоким ёрдамчилари фаолияти 6 та кўрсаткич ва 5 та ташаббускорлик хислатлари билан баҳоланди. <https://yuz.uz/news/mahallabay-ishlash-tizimida-hokim-yordamchilari-faoliyati-6-ta-korsatkich-va-5-ta-tashabbuskorlik-xislatlari-bilan-baholandi>. 2023 йил 9 июнь.



фаоллаштириши кераклиги аниқ. Маҳалла яратилган ҳуқуқий ва ташкилий-техник шарт-шароитлардан муносиб ва самарали фойдаланиши, шунингдек, ўз фаолиятини янада такомиллаштириш ва Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги иштирокини кенгайтириш бўйича ҳар томонлама саъй-ҳаракатларни амалга ошириши муҳим.

Маҳалла институтларини замонавий жамият тараққиётида содир бўлаётган ўзгаришларга мослашувчанлиги сўст. Ваҳоланки, демократик жамият барпо этилишида жамият ҳаёти тарнсформациялашиб бормоқда. Бироқ, маҳалла бу жараёнда орқада қолаётганлиги кўзга ташланади. Мазкур ҳолат бир томондан маҳаллаларни ўзгараётган, яъни ривожланаётган жамиятга ҳамоҳанг бўлмай қолаётганлигини, иккинчи томондан ислоҳотларни қўйи инстанцияларда – жамиятнинг қўйи институтлари фаолиятида акс этмаётганлигини намоён этади.

Маҳалла – фуқаролик жамиятининг муҳим институти сифатида белгиланган бўлса-да, мустақил тараққиёт йилларида янги демократик ислоҳотлар жараёнида ўз-ўзини бошқаришнинг функционал вазифаларини мутлоқ қамраб ололмаганлиги сабабли тўлақонли самарадорликни намоён эта олмади. Сўнгги йиллардаги ислоҳотлар маҳалла институти фаолиятида йўл қўйилган камчиликларни бартараф этишга хизмат қилмоқда. Хусусан, маҳаллалардаги хоким ёрдамчилари фаолияти бунга яққол исбот бўла олди.

## **МАМЛАКАТИМИЗДА ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДА САНОАТ ТАРМОҚЛАРИНИНГ ЎРНИ**

**Маҳмудов Мираббос Фазлиддинович**

*и.ф.ф.д. (Ph.D), доцент, Вазирлар Маҳкамаси*

*ҳузуридаги Макроиқтисодий ва*

*ҳудудий тадқиқотлар институти*

*Аннотация. Ушбу мақолада саноатнинг минтақавий иқтисодиётнинг инновацион ривожланишидаги роли очиб берилган.*

*Калит сўзлар: миллий иқтисодиёт, минтақавий иқтисодий сиёсат,*

тармоқ, инновацион ривожланиш, саноат, ҳудудлар.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается роль промышленности в инновационном развитии региональных экономик.

**Ключевые слова:** национальная экономика, региональная экономическая политика, сеть, инновационное развитие, промышленность, регионы.

**Abstract.** This article explains the role of industry in the innovative development of regional economies.

**Keywords:** national economy, regional economic policy, network, innovative development, industry, regions.

Ўзбекистонда кейинги йилларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар шароитида минтақавий иқтисодий сиёсатни такомиллаштириш ҳамда ҳудудларнинг бой иқтисодий салоҳиятидан самарали ва оқилона фойдаланиш масалалари муҳим ўрин тутди. Зеро, ҳудуд иқтисодиётини модернизация ва диверсификация қилиш, унинг табиий, минерал-ҳомашё, саноат, қишлоқ хўжалиги ва меҳнат салоҳиятидан комплекс ҳамда самарали фойдаланиш натижасида халқнинг турмуш даражаси ва даромадларини ошириш мумкин.

Мазкур вазифалар билан бир қаторда, ҳудудларда хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий манфаатларини янада тўлароқ рўёбга чиқариш, ишлаб чиқаришни мақбуллаштириш, ички тармоқ ва тармоқлараро кооперацияни мустаҳкамлаш ҳамда маҳаллийлаштириш жараёнларини кенгайтириш ва мазкур соҳа имкониятларидан самарали, тўлиқ фойдаланиш, экспортга мўлжалланган рақобатбардош маҳаллий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш, ҳудудлараро саноат кооперациясини ривожлантириш ва шу асосида моддий фаровонликни ошириш масалалари минтақавий иқтисодий сиёсатда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Республикамиз иқтисодиётининг асосий тармоқларидан бири ҳисобланган саноат ишлаб чиқаришини ривожлантириш ва ҳудудларнинг саноат салоҳиятидан оқилона фойдаланиш юқоридаги вазифаларни ҳал этишда алоҳида аҳамият касб этади, чунки саноат кўшимча қиймат яратиши,

аҳоли эҳтиёжини қондиришдаги ўрни ва ишлаб чиқариш локомотиви вазифасини бажариши билан бошқа соҳа ва тармоқлардан тубдан фарқ қилади. Худудларда саноат тармоғининг ривожланиши миллий иқтисо-диётнинг барқарор суръатларда ривожланишига олиб келади. Саноат соҳасида казиб олинган, экиб ўстирилган барча ресурсларни қайта ишлаш, улардан янгидан-янги маҳсулотлар ишлаб чиқариш, ассортимент ва номенклатуранинг кўпайиши ҳисобига диверсификациялашув жараёнлари такомиллашади<sup>66</sup>.

Ривожланаётган ва янги индустриал давлатлар тажрибасига кўра, мазкур давлатлардаги иқтисодий муваффақиятлар кўп жихатдан саноатда, айниқса, қайта ишловчи саноатда чуқур тузилмавий ўзгаришлар билан изоҳланади<sup>67</sup>.

Тадқиқотларда қайд этилишича, саноат иқтисодий ўсишни ҳаракатга келтирувчи асосий куч ҳисобланади ва аксарият тадқиқотлардаги мазкур фикр, иқтисодиётнинг бошқа тармоқларига нисбатан айнан саноатда инновация ва билимларнинг янги комбинациясидан фойдаланиш имкониятининг юқорилиги билан изоҳланади. Бу эса меҳнат унумдорлиги ва ишлаб чиқариш ҳажми ошига олиб келади, натижада иқтисодий ўсиш таъминланади<sup>68</sup>.

Бугунги кунда саноат бозордаги зарур мувозанатни таъминлаш, иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ва аҳоли даромадларини ошириш, ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш каби муаммоларни самарали ҳал этиш имконини ҳам беради ҳамда мазкур тармоқ янги иш ўринларини яратишда муҳим ўрин тутаяди. Хусусан, қайта ишловчи саноатда битта иш ўрнининг

---

<sup>66</sup> Мамаджонов Д. Ўзбекистон Республикасида саноат тармоғини ривожлантиришнинг асосий омиллари. // “Biznes-Эксперт” иқтисодий илмий-амалий ойлик нашр. 2018. №10. 3 - 6.

<sup>67</sup> UNIDO. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna, Austria. 2015. <http://www.unido.org>.

<sup>68</sup> Lall S., (2000). Technological Change and Industrialization in the Asian Newly Industrializing Economies: Achievements and Challenges. In: Technology, Learning and Innovation: Experiences of Newly Industrializing Economies, eds. Kim, L. and Nelson R.R., Cambridge: Cambridge University Press.; Szirmai, A., and Verspagen, B., (2011). Manufacturing and Economic Growth in Developing Countries, 1950-2005. UNU-MERIT Working Paper Series 2011-069. Maastricht, The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.; McMillan, M., and Rodrik, D. (2011). Globalization, Structural Change and Productivity Growth. In Making Globalization Socially Sustainable, eds. Bacchetta, M., and Jansen, M. Geneva: International Labour Office and World Trade Organization.; Szirmai, A., Naudé, W., and Alcorta, L., (2013). Introduction and Overview: The Past, Present and Future of Industrialization. In Pathways to Industrialization in the Twenty-First Century: New Challenges and Emerging Paradigms, eds. Szirmai, A., Naudé, W., and Alcorta, L. Oxford, UK: Oxford University Press.

яратилиши бошқа тармоқларда икки ёки учта иш ўринларининг яратилишига олиб келади<sup>69</sup>.

Тадқиқотларга кўра, меҳнатга ҳақ тўлаш даражаси ошиши, саноатлаштириш йўлидаги таркибий ўзгаришлар билан бевосита боғлиқ бўлиб, у аҳоли даромадларининг ўсишига катта ёрдам беради<sup>70</sup>.

Ривожланиш даражаси суст бўлган мамлакатларда паст технологияли кўп меҳнат талаб қилувчи саноат тармоқларининг (кийим-кечак, текстиль маҳсулотлари ишлаб чиқариш) ривожланиши аҳоли бандлигининг барқарор ўсишини қўллаб - қувватлайди ва бу аҳоли даромадлари ошишига олиб келади. Ўртача даромад даражасига эга мамлакатларда ўрта технологик даражадаги саноат тармоқларининг ривожланиши (рангли металлургия ва металл буюмлар ишлаб чиқариш) катта сондаги иш ўринларини яратмаса-да, юқори меҳнат унумдорлигини таъминлайди.

Саноат аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилайти ва унда қўлланилаётган технологиянинг ривожланиб бориши аҳолининг маълумот даражасига таъсир этади. Қайта ишловчи саноатнинг шаҳар марказидан чекка ҳудудларга кириб бориши ишлаб чиқариш суръатини тезлаштиради ва маҳаллий аҳоли даромадларини оширади.

Саноат тармоғининг динамик хусусияти иқтисодиётнинг бошқа соҳа ва тармоқлари ривожланишига ҳам сезиларли даражада ижобий таъсир этади ва мультипликатив самара беради. Хусусан, озиқ-овқат ва енгил саноат тармоқларининг ривожланиши қишлоқ хўжалиги, ўрмончилик ва балиқчилик соҳалари ривожланишини рағбатлантиради.

Қайта ишловчи саноатнинг ривожланиши хизматлар соҳасининг ривожланишига кучли таъсир этади (банк, суғурта, алоқа хизматлари, савдо ва транспорт). Айниқса, хизмат кўрсатиш соҳасининг бир қанча тармоқлари

---

<sup>69</sup> Lavopa A. and Szirmai A. (2012). Industrialization, Employment and Poverty, UNU-MERIT Working Paper Series 2012-081. Maastricht The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.

<sup>70</sup> UNIDO. Industrial Development Report 2016. Sustaining Employment Growth: The Role of Manufacturing and Structural Change. Vienna, Austria. 2013. <http://www.unido.org>.

қайта ишловчи саноатга бевосита боғлиқ бўлиб, мазкур хизматларсиз саноат товарлари истеъмолчиларга етиб бормади. Шунингдек, қайта ишловчи саноат илмий тадқиқот, улгуржи ва чакана савдо, автомобилларни таъмирлаш ва уларга техник хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожланишига ҳам салмоқли ижобий таъсир этади.

Саноат миллий иқтисодиётнинг барча тармоқларини ишлаб чиқариш воситалари, меҳнат қуроллари билан таъминлайди. Миллий иқтисодиёт, фан, маориф, маданият, соғлиқни сақлаш, спорт, туризм ва бошқа соҳалар ривожини саноатнинг тараққиёт даражасига боғлиқ<sup>71</sup>.

Ишлаб чиқариш кучлари тараққиётида саноатнинг ўрни бекиёс бўлиб, унинг самарадорлиги қанчалик юқори бўлса, ҳудуднинг мавқеи шунчалик кучли бўлади ва аҳоли турмуш даражаси янада яхшиланиб боради. Шунингдек, саноат ривожини туфайли унда банд бўлган ходимларнинг сони кўпаяди, уларнинг билими ва илми, маҳорати ортади, кадрлар салоҳияти юқори даражага кўтарилади. Фақат саноатгина техника ҳамда инновациянинг барча ютуқларини мужассамлаштириб, меҳнатни техника билан қуроллантириш орқали унумдорликни юқори даражага кўтара олади.

Саноатни ривожлантиришнинг долзарблиги ва иқтисодиётни такомиллаштиришда тутган ўрни мамлакатимиз иқтисодчи-олимларининг доимий диққат марказида бўлган. Хусусан, А.Ортиқов “Ўзбекистонда саноатни ривожлантиришнинг қатор имкониятлари, географик ва иқтисодий омиллари”га, М.Нарзиқулов “Саноатни ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш жараёнида асосий эътибор таркибий ўзгаришларга қаратилганлиги”га, Э.Махмудов “Саноат тармоқлари ривожланишига шароит яратишнинг стратегик йўналишлари, биринчи навбатда бюджет, солиқ, пул-кредит, нарх ва валюта сиёсати сингари воситаларни қамраб олган қулай макроиқтисодий муҳитни яратиш”га боғлиқ эканлигига алоҳида тўхталиб ўтганлар<sup>72</sup>.

---

<sup>71</sup> Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: ТДИУ, 2004. - 18 б.

<sup>72</sup> Мамаджонов Д. Ўзбекистон Республикасида саноат тармоғини ривожлантиришнинг асосий омиллари. // “Biznes-Эксперт” иқтисодий илмий-амалий ойлик нашр, 2018. №10. 3 - б.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, саноат тармоғининг миллий иқтисодий ривожлантиришда тутган ўрни юқорилиги сабабли мазкур тармоқнинг барқарор ривожланишини таъминлашга алоҳида эҳтиёж мавжуддир.

Шунингдек, мамлакатимиз ҳудудлари саноатини устувор даражада ривожлантириш заруриятини қуйидаги омиллар билан изоҳлаш мумкин:

- мамлакатимиз ва унинг ҳудудларида иқтисодий эркинлаштириш ва мулкӣ муносабатларни такомиллаштириш жараёнларини мантиқӣ якунига етказиш, энг аввало, саноат ишлаб чиқаришини модернизациялаш ва реструктуризациялаш масалаларининг муваффақиятли ҳал этилишига боғлиқ. Ҳудудлардаги саноат корхоналарида мулкӣ муносабатлар етарли даражада такомиллашмаган. Бу ўз навбатида корхоналарни бошқариш тизимида, стратегик режалар тизимида, инвестиция фаолиятини жадаллаштиришда муаммоларни келтириб чиқармоқда, ишлаб чиқариш омилларидан самарали фойдаланишга акс таъсир кўрсатмоқда;

- мамлакатимиз ҳудудларининг аксариятида саноат корхоналарининг техник-технологик даражаси паст, асосий воситаларнинг жисмоний ва маънавий эскириши юқори даражада бўлиб, бу сифатли, қўшилган қиймат даражаси юқори маҳсулотлар ишлаб чиқариш имкониятини бермайди;

- ҳозирги глобаллашув шароитида инвестицион товарлар тез маънавий эскириш хусусиятига эга бўлиб, илғор технологиялар алмашинувининг оператив тус олиб бориши бу жараённи янада жадаллаштиради, маънавий эскириш моддий эскириш суръатларини “қувиб ўтади”. Мазкур ҳодиса бугунги кунда тенденция характерига эга бўлмоқда. Шу нуқтаи назаридан саноат тармоғини ривожлантириш, саноат салоҳиятидан самарали фойдаланишга бўлган эҳтиёж доимий равишда ортиб боради;

- аксарият ҳудудларда саноат ишлаб чиқаришининг хомашё қазиб олиш (нефт-газ, кўмир ва ҳ.з.) ва бирламчи қайта ишлаш (пахта толаси, металл-прокат) соҳалари ривожланган. Тайёр истеъмол маҳсулотлари ва инвестицион товарлар ишлаб чиқариш даражаси паст ҳисобланади.

Маълумки, бозор иқтисодиёти шароитида саноат корхоналари ўз фаолиятларини доимо тўғридан-тўғри бозор конъюнктураси ўзгаришларига мўлжаллаб ташкил қиладилар. Бозор конъюнктураси эса, хоҳ у халқаро миқёсда бўлсин, хоҳ миллий давлат доирасида, узлуксиз ўзгариб туради. Бундай шароитда саноат корхоналарининг ўз яшовчанлигини сақлаб қолиши ва рақобатбардошлик даражасини ошириб бориши уларнинг ушбу ўзгаришларга қай даражада тез ва самарали мослашишига боғлиқ.

Худудларда саноатнинг ривожланиши мураккаб ва узоқ муддатли жараён бўлиб, буни биз Хитой, Ҳиндистон, Жанубий Корея, Лотин Америкаси мамлакатлари ва дунёнинг бошқа кўплаб саноати ривожланган давлатларининг тажрибаларидан ҳам кузатишимиз мумкин.

Қайд этиш керакки, саноат тармоғининг ривожланишини битта ёки бир неча кўрсаткичлар билан яққол ифода этиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам мазкур жараёнда кўрсаткичлар тизимини қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридаги фикрдан келиб чиққан ҳолда саноат ривожланишини ифода этувчи кўрсаткичлар тизими “кўлам” нуқтаи назаридан шартли равишда **тўрт даражага** ажратилди:

**макродаражада:** ЯИМда саноатнинг улуши, ялпи саноат маҳсулоти ҳажми, аҳоли жон бошига ялпи саноат маҳсулоти, ялпи маҳсулот ишлаб чиқаришда қўшилган қийматнинг улуши, қазиб олиш ва қайта ишлаш тармоқлари улуши, ялпи ишлаб чиқаришда экспортнинг улуши, саноатда яратилаётган янги иш ўринлари ва кичик бизнес субъектларининг сони, макродаражада саноатдаги омиллар умумий самарадорлиги (*TFP - total factor productivity*), давлат бюджетидан саноат тармоғига йўналтирилаётган харажатлар ҳажми, саноат тармоқларига киритилаётган хорижий инвестициялар ҳажми, жаҳон бозорида тармоқнинг юқори технологияли маҳсулотдаги улуши, макродаражада тармоқнинг капитал (фонд), материал (ресурс), фан-техника, энергия, табиат ва меҳнат сиғимлари, тармоқда меҳнат унумдорлиги ҳамда меҳнатнинг капитал билан қуролланганлик даражаси.

**минтақа даражасида:** ЯХМда саноатнинг улуши, ялпи ҳудудий саноат

маҳсулоти, саноат ишлаб чиқариш ҳудудий концентрация даражаси (%), ҳудудда ишлаб чиқаришнинг локализация ва ҳудуднинг муайян саноат тармоғига ихтисослашиш даражаси (коэффициент), ҳудудда саноат маҳсулотларини қайта ишлаш даражаси.

**мезодаражада:** саноатда яратилган ялпи қўшилган қиймат, тармоқ экспорт тузилишида юқори технологияли маҳсулот улуши, ялпи саноат ишлаб чиқаришида тармоқларнинг улуши, ишлаб чиқарилган дунё брендлари миқдори, тармоқда банд бўлган юқори малакали мутахандис ва тадқиқотчилар сони, тармоққа тегишли лицензия ва патентлар сони, тармоқнинг дефицит ресурслардан фойдаланиш даражаси (фоизда).

**микродаражада:** саноат маҳсулотининг энергия ва материал сиғими, ишлаб чиқаришнинг рентабеллик даражаси, саноат жиҳозларининг янгиланиш даражаси, жиҳозларнинг эскириш коэффициенти, умумий жиҳозлар ҳажмида 10 йилгача хизмат қилган машина ва жиҳозлар улуши.

Ҳудудларда саноат ривожланишини ифода этувчи кўрсаткичлар тизимидан айрим кўрсаткичлар тармоқнинг самарадорлигини ифода этса, баъзи кўрсаткичлар эса саноатнинг инновацион ривожланишини ўзида акс эттиради.

Юқоридагилардан ташқари, қуйида келтирилган кўрсаткичлар ҳам саноатнинг инновацион ривожланишини ифодалайди<sup>73</sup>:

- юқори технологияли маҳсулотнинг ЯИМдаги улуши (ишлаб чиқарилган юқори технологияли маҳсулот ҳажми / ялпи ички маҳсулот);
- умумий саноат ишлаб чиқаришда юқори технологияли тармоқнинг улуши (юқори технологияли тармоқда ишлаб чиқариш ҳажми / ялпи саноат ишлаб чиқариш ҳажми);
- юқори технологияли тармоқда бандлик даражаси (ўрта ва юқори технологияли тармоқда бандлар сони / меҳнатга қобилиятли аҳолининг умумий сони);

---

<sup>73</sup> “Национальная инновационная система Узбекистана: оценка потенциала и результативности”. Проект ПРООН. –Т., 2011. С. 86-100.



▪ юқори технологияли саноат маҳсулотининг экспортдаги улуши (юқори технологияли саноат маҳсулотининг экспорт ҳажми / умумий экспорт ҳажми).

Саноат иқтисодиётнинг етакчи тармоғи бўлганлиги боис, уни ривожлантириш масаласи доимо иқтисодчи-олимларининг илмий қизиқишлари соҳаси бўлиб келган.

Саноатнинг барқарор ривожланишини белгилаб берувчи омилларни биз шартли равишда икки гуруҳга ажратдик: ички омиллар ва ташқи омиллар.

Худуд саноатининг ривожланишини белгилаб берувчи асосий ташқи омилларга қуйидагилар киради:

- худуднинг қулай географик жойлашуви;
- қўшни худуд ва давлатларнинг ривожланганлик даражаси;
- мамлакатнинг жаҳон бозорларига бевосита чиқиш имкониятлари;
- жаҳон бозоридаги конъюктуралӣ ўзгаришлар ва ҳоказо.

Худуд саноатининг ривожланишини белгилаб берувчи асосий ички омилларга эса қуйидагилар киради:

- худуднинг табиий хом ашё ресурслари билан таъминланганлик даражаси;
- худуддаги ишчи кучининг миқдори ва сифати;
- худуддаги асосий капиталнинг миқдори ва сифати;
- худуднинг кадрлар салоҳияти ва тармоқни ривожлантиришга хизмат килувчи кучли қонунчилик базаси мавжудлиги;
- худуддаги саноат тармоқларининг қай даражада оқилона жойлашганлиги;
- худуддаги қулай инвестицион муҳит ва инвестицион жозибадорлик;
- худуддаги ишлаб чиқариш инфратузилмаларининг ривожланганлик даражаси ва ҳоказо.

Юқорида келтирилган худуд саноатининг ривожланишини белгилаб берувчи аксарият ички омиллар худуднинг “саноат ишлаб чиқариш салоҳияти”ни ҳам белгилаб беради. Ушбу салоҳиятни юзага чиқаришда худуддаги қулай инвестиция муҳити ва инвестиция жозибадорлиги муҳим

ўрин тутади. Чунки жаҳон тажрибасидан маълумки, ҳудуд иқтисодиётига киритилаётган инвестициялар ҳажмининг ўсиш суръати ва саноат ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръатлари ўртасида кучли чизикли корреляцион боғлиқлик мавжуддир.

Бироқ ҳудудга ўз-ўзидан инвестициялар кириб келмайди. Айниқса, ҳозирги замон инвестициялар бозори таклифга нисбатан талабнинг юқорилиги билан тавсифланади. Бошқача айтганда, илгари инвесторлар мамлакат ва ҳудудларга инвестиция киритиш учун рақобат қилган бўлсалар, ҳозирги кунда мамлакат ва ҳудудлар инвесторлар учун рақобатлашмоқда. Шу сабабли инвесторларни жалб этиш учун таклиф этилаётган имтиёз, унинг юқори даражаси етарли эмас, балки ижтимоий-иқтисодий муҳитнинг барқарор ва қулай бўлиши, маҳаллий қонунларнинг аниқлиги, ривожланган бозор инфратузилмаси мавжуд бўлиши, инвесторларнинг олган фойдаларини эркин тасарруф этиши сингари омиллар муҳим аҳамият касб этади.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Мамаджонов Д. Ўзбекистон Республикасида саноат тармоғини ривожлантиришнинг асосий омиллари. // “Biznes-Эксперт” иқтисодий илмий-амалий ойлик нашр. 2018. №10. 3 - б.

2. UNIDO. Industrial Development Report 2016. The Role of Technology and Innovation in Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna, Austria. 2015. <http://www.unido.org>.

3. Lall S., (2000). Technological Change and Industrialization in the Asian Newly Industrializing Economies: Achievements and Challenges. In: Technology, Learning and Innovation: Experiences of Newly Industrializing Economies, eds. Kim, L. and Nelson R.R., Cambridge: Cambridge University Press.;

4. Lavopa A. and Szirmai A. (2012). Industrialization, Employment and Poverty, UNU-MERIT Working Paper Series 2012-081. Maastricht The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.

5. UNIDO. Industrial Development Report 2016. Sustaining Employment

Growth: The Role of Manufacturing and Structural Change. Vienna, Austria. 2013.  
<http://www.unido.org>.

6. Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: ТДИУ, 2004. - 18 б.

7. Мамаджонов Д. Ўзбекистон Республикасида саноат тармоғини ривожлантиришнинг асосий омиллари. // “Biznes-Эксперт” иқтисодий илмий-амалий ойлик нашр, 2018. №10. 3 - б.

8. “Национальная инновационная система Узбекистана: оценка потенциала и результативности”. Проект ПРООН. –Т., 2011. С. 86-100.

## **ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ НА МЕСТАХ - ПРОДЕЛАННАЯ РАБОТА, ПРЕДСТОЯЩИЕ РЕФОРМЫ И ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ МАХАЛЛЕЙ**

**Научный руководитель старший преподаватель «Менеджмент» Джураева**

**Гузэл Шавкатовна.**

**Махамдалиев Диёрбек Абдурашид угли**

**студент факультета Корпоративное**

**Управление ТГЭУ Группа МО 41**

**Аннотация:** В статье рассматриваются проводимые реформы в Республики Узбекистан. 5-категорий городов и районов для поддержки предпринимательства и об органах самоуправления, улучшение благосостояние население, кардинально изменит экономическую так и социальную среду страны в целом.

**Annotatsiya** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z boradi. Tadbirkorlik va o‘zini o‘zi boshqarishni qo‘llab-quvvatlash, aholi farovonligini oshirish bo‘yicha 5 ta toifadagi shahar va tumanlar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy muhitini tubdan o‘zgartiradi.

**Abstract.** The article deals with ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan. 5-categories of cities and regions to support entrepreneurship and self-government, improving the welfare of the population, will radically change the economic and social environment of the country as a whole.

**Ключевые слова.** реформы, область, развития, экономика, управление.

**Kalit sozlar.** islohotlar, hudud, rivojlanish, iqtisodiyot, boshqaruv.

**Keywords.** reforms, area, development, economy, management.

**Введение:** Особенности проведения реформы управления экономикой в условиях Узбекистана. Экономика Р.Уз. шаг за шагом усиленно развивается. К примеру, ВВП 2022 года составляло 888 341,7 млрд. сум. Рост ВВП ↑ 5,7 (%), в целом за счёт быстрого темпа роста в промышленности- 5,8%. В Узбекистане прямые иностранные инвестиции выросли почти в 1,7 раза. В январе-марте 2022 года в общей сложности 23,1 трлн. сум освоены за счет иностранных инвестиций и кредитов в основной капитал. В его структуре прямые иностранные инвестиции составляют 8.0 трлн.

**Среди людей самый лучший тот, кто приносит народу больше пользы. Алишер Навои, узбекский поэт, философ XV века**

Следует отметить, что была развернута широкая дискуссия среди населения, в ходе которой граждане проявили особую заинтересованность и сопричастность к проводимым реформам. В частности, на портал «Система оценки воздействия актов законодательства» поступило 1 310 предложений и отзывов, на основе которых был пересмотрен 41 пункт Государственной программы. Также были организованы медианеделя и международные круглые столы, в которых приняло участие свыше 1 300 специалистов и экспертов. Такое обсуждение способствовало более полному учету интересов народа.

Вместе с тем при разработке документа были объективно оценены потенциал и возможности страны на данном этапе развития, учтены просчеты и ошибки предыдущего периода.

В основу «Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах» легли конкретные механизмы решения концептуальных вопросов общественно-

политического, социально-экономического, культурно-гуманитарного развития страны, заявленных Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиевым в ходе предвыборной кампании многочисленных встреч с общественностью.[1]

Как вы видите высшей упомянутом тексте говорится о важности проводимых реформах в стране, что они направлены на улучшения и благосостоянии народа, уменьшить социальную неравенства среди населения на мой взгляд, нужно больше уделять внимания на социально-психологических аспектов человеческих отношении.

В корне каждый делаемые или в дальнейшем запланированные реформы в первый очередь всегда направлены на индивидах, потому что современном эпохе общество составляет человек, а государство состоит из обществ с этого следует понять человек выходит в первостепенное место.

В качестве моих слов Узбекистан — суверенная республика, **правовое, социальное, светское,** демократическое государство. Названия государства «Республика Узбекистан» и «Узбекистан» равнозначны (Узбекистан — суверенная демократическая республика. Названия государства «Республика Узбекистан» и «Узбекистан» равнозначны) [2].

**Успех Центральной Азии и успех Узбекистана тесно взаимосвязаны.**

Это вполне естественно, поскольку Узбекистан является первой по численности населения страной в регионе, которая граничит с каждой из других четырех стран Центральной Азии. Цифры помогают обрисовать эту ситуацию. Более открытый Узбекистан радикально меняет ситуацию в региональной торговле. С 2017 по 2018 год, когда рынки стали открытыми, торговля внешнеторговыми товарами с соседними странами выросла приблизительно на 50 процентов. [3]

В соответствии с приоритетами, определенными в Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах, утверждены и реализуются «дорожные карты» по развитию сотрудничества

с Турцией, Индией, Китаем, Японией, Германией, Францией, Афганистаном, Казахстаном, Туркменистаном и другими странами. Укрепляются взаимовыгодные и всесторонние отношения с государствами Ближнего Востока: Саудовской Аравией, Египтом, Объединенными Арабскими Эмиратами, Кувейтом, Катаром, Оманом, Алжиром и другими. Узбекистан ввел безвизовый режим для граждан 86 и упрощенный визовый режим для граждан 57 государств. В 2019 году Узбекистан посетили 6,7 млн. иностранных граждан, что в 3,3 раза больше, чем в 2016 году.

В результате проводимой работы по развитию международного экономического сотрудничества в 2019 году значительно вырос приток прямых иностранных инвестиций в страну. Их объем составил 4,2 млрд. долларов, что в 3,7 раза больше, чем в 2018 году. По итогам первого полугодия 2020 года, несмотря на все сложности, связанные с Covid-19, объем иностранных инвестиций в экономику Узбекистана составил 4,8 млрд. долларов, в том числе прямых – 3,2 млрд. долларов. [4]

#### **Использованная литература**

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekistan-reformy-radi-naroda/viewer>
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/06/30/construction/>
3. [https://cbu.uz/ru/press\\_center/reports/74895/](https://cbu.uz/ru/press_center/reports/74895/)

<https://www.cer.uz/en/post/publication/vnesnie-orientiry-uzbekistana>

## РОЛЬ САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН В РАЗВИТИИ МЕСТНОГО ПРОИЗВОДСТВА

**Научный руководитель: старший  
преподаватель кафедры  
«Менеджмент» Исраилова Ф.Н.  
Акбарова Мохинур Фарход кизи,  
студентка 2– курса Факультета  
«Корпоративное управление»  
группы МО– 41**

***Аннотация.** Успешное развитие Узбекистана как государства, основанного на многоукладном гражданском обществе, цивилизованных экономических отношениях и демократических традициях, невозможно без всемерного повышения роли и статуса самоуправления граждан совместно с органами местного управления.*

***Annotatsiya.** O'zbekistonning ko'p bilimli fuqarolik jamiyati, tsivilizatsiyalashgan iqtisodiy munosabatlar va demokratik an'analarga asoslangan davlat sifatida muvaffaqiyatli rivojlanishi mahalliy boshqaruv organlari bilan birgalikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning roli va maqomini har tomonlama oshirmasdan mumkin emas.*

***Annotation.** The successful development of Uzbekistan as a state based on a multicultural civil society, civilized economic relations and democratic traditions is impossible without a comprehensive increase in the role and status of citizens' self-government together with local government bodies*

***Ключевые слова:** Самоуправление, махалля, органы самоуправления граждан, семейный бизнес, кадровая основа, муниципальное управление.*

***Kalit so'zlar:** o'zini o'zi boshqarish, mahalla, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oilaviy biznes, kadrlar bazasi, shahar hokimligi.*

***Keywords:** Self-government, mahalla, citizens' self-government bodies, family business, personnel base, municipal administration.*

Самоуправление – существенная, также законная структура каждого общества, обладающая правами также обязательствами, деятельность которой ориентирована на удовлетворенность потребностей населения.

Указом президента Республики Узбекистан 2022 год объявлен «Годом обеспечения интересов человека и развития махалли». В целях внедрения «активной» модели махалли, обеспечения необходимыми ресурсами и возможностями для непосредственного решения проблем населения и развития территорий в 2022 году были приняты следующие меры:

-наладить эффективную деятельность внедренных в махаллях в качестве нового института помощников хокимов районов (городов) по вопросам развития предпринимательства, обеспечения занятости населения и сокращения бедности, а также лидеров молодежи;

-внедрить порядок изучения проблем по своему направлению и поиска их решения руководителями всех уровней непосредственно с выездом в махалли, а также определить состояние дел в махалле главным критерием оценки деятельности министерств, ведомств и хокимиятов;

-повысить авторитет махалли среди населения путем создания системы обращения в государственные органы и диалога с их руководителями, оказания государственных и социальных услуг непосредственно в махалле, включая налаживание эффективного взаимодействия с народными приемными Президента Республики Узбекистан;

-расширить финансовые возможности органов самоуправления граждан с пересмотром их полномочий по решению социально-экономических проблем в махаллях;

-повысить эффективность системы государственной поддержки населения, проживающего и осуществляющего деятельность в махалле, исходя из «точек роста» и специализации предпринимательской деятельности жителей махалли;

-осуществить меры по созданию на территории махаллей на основе государственно-частного партнерства такой инфраструктуры, как спортивные



и культурные сооружения, творческие клубы, центры содействия занятости, учебные центры, объекты предпринимательства;

-создать правовые основы постоянной связи махалли с органами представительной власти на местах, включая внедрение эффективных механизмов внесения председателем махалли вопросов, подлежащих обязательному рассмотрению на заседаниях местного Кенгаша;

-внедрить институт внесения гражданами недоверия председателю махалли.[1]

Сегодня органы самоуправления граждан стали надежными партнерами предпринимателей. Активно содействуют их работе комиссии сходов граждан по вопросам развития предпринимательской деятельности и семейного бизнеса. Члены данной комиссии помогают желающим создать свой бизнес на территории махалли, разъясняют порядок, содействуют в выделении земельных участков, доступе к инженерным коммуникациям, получении кредитов. В каждой махалле есть свои пекарни, швейные мастерские, мини-цеха по переработке овощей и фруктов, молока. Славятся махалли и своими гончарами, плотниками, кузнецами, кондитерами.

На сегодняшний день более чем у 4,5 миллиона семей есть приусадебные участки, в их распоряжении свыше 412 тысяч гектаров земли. Можем заметить, что объем выращиваемой ими сельскохозяйственной продукции возрастает очень в хорошем темпе. А важным фактором служат принимаемые меры по эффективному использованию земли именно сходами граждан.

В центре внимания махалли также развитие животноводства и птицеводства в семьях. В этом деле сходы граждан постоянные помощники семей.

Следует отметить, что при организации семейного бизнеса учитываются особенности и возможности каждого региона. К примеру, в древних исторических городах наряду с ремесленничеством особое внимание уделяется развитию торговли и сферы обслуживания. А в районах,

специализирующихся на земледелии и животноводстве, все больше становится частных сельскохозяйственных предприятий.[2]

Основной целью осуществляемых в стране реформ является создание условий для счастливой и благополучной жизни каждого человека. И махалля сегодня на основе исконных принципов милосердия, гуманизма, единства сплачивает людей в деле социально-экономического развития территорий, способствует росту их благосостояния.[3]

Чтобы эффективно отвечать на запросы людей, нужна прочная кадровая основа местного самоуправления. Здесь важно обеспечить современный, комплексный подход, актуализировать ключевые образовательные программы и стандарты по направлениям, наиболее востребованным в сфере муниципального управления. Они должны быть направлены на практические задачи, отвечать требованиям времени, так как XXI-век нельзя представить без инновации. Например, специальность «государственное и муниципальное управление» может быть не только самостоятельным направлением подготовки, но и стать дополнением к отраслевым профессиям. Крайне важно, чтобы муниципальная служба стала привлекательной для молодых, образованных, современных, инициативных людей.[4]

Таким образом, уровень развития современного государства определяется, в том числе и тем, насколько рациональной и эффективной является организация местной власти. В связи с этим вопрос о функциональном назначении местного самоуправления имеет не только теоретическое, но и практическое значение. Деятельность населения (самоорганизация населения) с целью самостоятельного и под свою ответственность решения вопросов местного значения являются весомой характеристикой местного самоуправления.

#### ***Список литературы:***

1. Указ Президента Республики Узбекистан о стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы <https://lex.uz/docs/5841077>

2. Махалля - уникальный институт социальной поддержки  
<http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/3210-makhallya-unikalnyj-institut-sotsialnoj-podderzhki.html>
3. Научный журнал «Вестник магистратуры» 2021г. А.С.Машенов  
<https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-mestnogo-samoupravleniya-1>
4. В.В.Гулина «Функции местного самоуправления: институционально-правовое исследование»

## **ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТЛАРНИНГ РОЛИ**

**Юлдашева Дилдора Камилжан кизи**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети,

Сиртки факультети, “Иқтисодиёт” кафедраси ассистенти

Ўзи туғилиб ўсган жой инсон учун Ватан ҳисобланади. Маҳалла эса Ватан ичра кичик Ватандир. Унинг ободлиги, гўзаллиги ва кўркамлиги учун жон койитиш ҳар бир кишининг муқаддас бурчи ҳисобланади. Агар маҳаллада ҳамжиҳатлик бўлса, ободлик ва кўркамликка ҳисса қўшувчилар сафи кўпайса, албатта, ғурурланишга арзирли масканга айланади.

Маҳалла - Ўзбекистонда маъмурий ҳудудий бирлик. Ўзини ўзи бошқаришнинг халқимиз анъаналари ва қадриятларига хос бўлган усули.

Маҳалла кичик маъмурий ҳудуд бўлиши билан бирга, турмуш тарзи, қадриятлар, анъаналар, урф-одатлар умумийлиги билан боғланган кишилар жамоаси бирлигидир.

Маҳаллани ривожлантиришга оид 40дан ортиқ қонун ҳужжати қабул қилинди, 50 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар такомиллаштирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-

сон Фармони<sup>74</sup> асосида оила, хотин-қизлар ва кексаларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш соҳасидаги ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари билан ҳамкорлик ўрнатиш бўйича ваколатли давлат бошқаруви органи – Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳузуридаги «Маҳалла ва оила» илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 367- сон қарори<sup>75</sup> асосида маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш тизимини илмий-услубий ва амалий жиҳатдан таъминлаш, соҳага оид фундаментал, инновацион тадқиқотларни амалга ошириш мақсадида “Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институти ташкил этилди.

Маҳалла институтининг жамиятимиз ижтимоий-маънавий ҳаётида тутган ўрнини ҳисобга олиб, соҳа ходимларини қўллаб-қувватлаш мақсадида 22 март “Маҳалла тизими ходимлари куни” деб эълон қилинди.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ўрни ва ролини кучайтириш, жойларда маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш, миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамлаш мақсадида «Маҳалла ифтихори» кўкрак нишони таъсис этилди.

Туман ва шаҳар марказида “Маҳалла маркази” мажмуалари ташкил этилди, маҳалла идоралари қурилди, реконструкция қилинди.

Маҳаллаларнинг ихтисослашув йўналишларини аниқлаш ва «драйвер» лойиҳаларни амалга ошириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш; жойларда тадбиркорлик, инвестициявий ва рақобат муҳитини яхшилаш каби устувор йўналишларни назарда тутувчи “маҳаллабай” ишлаш тизими жорий этилди.

---

<sup>74</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сон Фармони. 2020 йил 18 февраль. [lex.uz](http://lex.uz).

<sup>75</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳузуридаги «Маҳалла ва оила» илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 367- сон қарори. 2020 йил 10 июнь. [lex.uz](http://lex.uz).

Аҳоли бандлигини таъминлаш механизмларини янада такомиллаштириш, маҳаллабай ишлаш тизимини янги босқичга олиб чиқиш мақсадида 2022 йил 1 январдан бошлаб маҳаллаларда туман (шаҳар) ҳокимларининг ёрдамчилари фаолияти ташкил этилди.

Маҳаллий ҳокимликлар билан бирга ҳудудларда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш каби вазифаларни амалга ошириш мақсадида Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қискартириш вазирлиги ҳузурида Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги фаолияти ташкил этилди.

Соҳани спектрал ривожлантириш бўйича бир қатор муҳим тамойиллар ва дастурлар амалга оширилмоқда:

- “маҳалла – сектор – Халқ қабулхонаси – маҳалла” тамойили;
- “маҳалла раиси — бош ислоҳотчи” тамойили;
- “маҳаллабай”, “хонадонбай” ишлаш тизими;
- “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари”га киритилган ижтимоий ҳимояга муҳтож оилаларга, хотин-қизларга, ёшларга манзилли ёрдам тизими;
- хотин-қизларни ва оилани қўллаб-қувватлаш давлат мақсадли жамғармаси ҳисобидан оғир турмушда яшаётган, ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолига ёрдам дастури;
- оилавий қадриятларни асраш, оилавий низо ва ажримларнинг олдини олиш;
- ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш марказлари;
- “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси ва б.

Президентимизнинг 2020 йил Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида маҳалла тизимининг жамият ижтимоий-маънавий тараққиётидаги ўрнини янада мустаҳкамлаш, соҳа фаолиятини чуқур ислоҳ этиш мақсадида бутунлай янги мезон — “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойили илгари сурилди. Давлатимиз томонидан маҳаллаларни ривожлантириш

бўйича тегишли дастурлар доирасидаги ишларга 2021 йилда жами 21 триллион сўм маблағ йўналтирилди.

2021-йил 5-март куни Вазирлар Маҳкамисининг «Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда соҳага замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори<sup>76</sup> қабул қилинди. Қарорга мувофиқ, Ўзбекистонда ҳар бир маҳалланинг ИД идентификация рақами ва ҳудудий чегараси кўрсатилган ягона электрон маълумотлар базаси жорий этилди.

2022 йил президент томонидан «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили» деб эълон қилинди.

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг устувор йўналишларида ҳам маҳалла институтининг ижтимоий потенциалини ривожлантириш белгиланган:

- эркин фуқаролик жамиятини ривожлантириш, инсон қадри-қиммати ва унинг қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган кенг кўламли ислохотларни янги поғонага кўтариш;

- миллати, тили ва динидан қатъи назар, юртимизда яшаётган ҳар бир фуқаронинг, халқимизнинг фаровонлигини таъминлашга хизмат қиладиган “Янги Ўзбекистон – халқчил ва инсонпарвар давлат” ғоясини амалга ошириш;

- маҳаллий бошқарув органларининг жойларда муаммоларни ҳал этишдаги роли ва масъулиятини янада кучайтириш;

- давлат функцияларининг катта қисмини марказдан ҳудудларга ўтказиш;

- жамият бошқарувининг таянч бўғини бўлган ислохотлар самараси бевосита акс этадиган маҳалла тизимини ҳокимликлар билан боғлаш мақсадида ҳар бир маҳаллада ҳоким ёрдамчиси лавозимини жорий этиш;

- маҳаллаларда ёшлар масалалари билан мунтазам шуғулланадиган Ёшлар ишлари агентлигининг вакилларини бириктириш;

---

<sup>76</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамисининг «Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда соҳага замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 122-сонли қарори. 2021 йил 5-март.

- маҳаллаларнинг молиявий имкониятини кенгайтириш мақсадида маҳалланинг алоҳида жамғармасини шакллантириш.

Бугунги кунда олиб борилаётган тизимли ислоҳотлар қуйидаги вазифаларни амалга оширишнинг муҳим омили бўлиб хизмат қилади:

- мамлакатимизда маҳаллий ўзини ўзи бошқариш тамойилига оид конституциявий меъёрларни амалга оширишга асосланган, маҳаллий аҳамиятга эга долзарб масалаларни ҳал қилишда ҳуқуқий мустақилликка эга ўзини ўзи бошқариш органларининг самарали экотизими яратилади;

- ҳокимиятнинг децентрализацияси реал ислоҳотларни амалга оширишга, аҳолининг ролини оширишга имкон беради;

- маҳаллий ўзини ўзи бошқариш ва давлат ҳокимияти органлари ўртасида стратегик функцияларини амалга ошириш доирасида давлат ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг ўзаро таъсирининг самарали схемаси шаклланади, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати амалга оширилади;

- маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари субсидиарлик тамойили асосида маҳаллий аҳамиятга эга бўлган турли масалаларни ҳал қилиш имкониятига эга бўлади;

- аҳолининг бошқарув қарорларини қабул қилишда роли ва иштироки ҳамда ижтимоий ҳаётнинг муҳим муаммоларини ҳал қилишда сиёсий фаоллиги оширилади.

Тизимни ислоҳ этиш йўлидаги ҳаракатлар, охириги икки йил давомида амалга оширилган ишлар ва шу кунлардаги ўзгаришлар айнан маҳаллани фуқароларга янада яқинлаштиришга, ҳар бир оиланинг дардига дармон бўлишига имкон яратишга, унинг жозибадорлигини оширишга қаратилган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага

олиб чиқиш чора–тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5938-сон Фармони. 2020 йил 18 февраль. [lex.uz](http://lex.uz).

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳузуридаги «Маҳалла ва оила» илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 367- сон қарори. 2020 йил 10 июнь. [lex.uz](http://lex.uz).

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда соҳага замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 122-сонли қарори. 2021 йил 5 март. [lex.uz](http://lex.uz).

## **XUDUDLARDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA**

### **ISLOHOTLARNI AHAMIYATI**

**Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Menejment kafedrası  
2-kurs tayanch doktoranti

Islohotlar iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy chora-tadbirlar majmui bo'lib, ulardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat yuritishining eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy axloqiy yetukligiga erishish, aholi qatlamlari o'rtasidagi ta'lim, madaniyat, kasbiy malaka, daromadlar bo'yicha keskin tafovutlarni bartaraf etish, munosib turmush darajasini oshirish, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Xududlarda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni ta'minlash; ishga joylashish, kasb tanlash, malaka oshirish va bilim olish; kafolatlangan daromad; har bir fuqaroning iqtisodiy faoliyatida daromadlari mavjudligi; iste'molchilarning, iste'molchilar jamiyatlarining himoyasi; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatlarini ta'minlash; aholiga tibbiy yordam ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan a'zolariga turli imtiyozlar, pensiyalar, nafaqalar berish.



Mamlakatning izchil iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan undagi hududlarning rivojlanish suratlari va darajasiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston hududlarining mutanosib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi – makroiqtisodiy barqarorlikning, milliy iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishining asosidir. Bu barcha hududlar manfaatlariga mos keladigan iqtisodiyotning samarali tuzilmasi shakllantirilishini taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning nazariy jihatlarini chuqurroq o‘rganish asosida erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi amalda ro‘yobga chiqarilishi zarurligini belgilab beradi.

Xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tufayli mamlakatda iqtisodiy o‘sish ta‘minlanadi va shu asosda o‘sib boruvchi ehtiyojlar qondira boriladi. Buning evaziga mamlakatda cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, ko‘proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish ta‘minlanadi. Bu esa bozorlarda mahsulot turlarining ko‘payishi va narxlarning barqarorligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish aholini ish bilan ta‘minlash, pulning qadrsizlanishini oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shartidir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyasi makro iqtisodiyot darajasida tahlil qilinib, uning sohalari, ko‘rsatkichlari, omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, iqtisodiy o‘sish yo‘llarini aniqlab ko‘rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asoslangan bolib xizmat qiladi. Shunday qilib, xududlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha islohotlar – ko‘p o‘lchamli jarayon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyotida o‘z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan hal e‘tilgandagina erishiladi. Bunda respublika hokimiyat organlari e‘tibor umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat ko‘rsatish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo‘ladi. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zaruriyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) o‘zlariga

biriktrilgan daromadlar manbalari hisobga hal etishda ko‘proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi. Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Respublikamizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat mustaqilligining iqtisodiy asosi sifatida olingan bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyo‘lning hozirgi sharoitlariga eng ko‘p darajada mos keladi. Bunday ko‘rinishdagi bozor iqtisodiyoti korxonalarini va jismoniy shaxslarning ish faoliyatlarini davlat qonunlari, huquqiy kafolatlar asosida, moddiy rag‘batlantirishlar asosida olib borishni ta‘minlashi lozim. Barcha turdagi mulklarning qonuniy va huquqiy asosda tengligini, ish yurituvchilar erkinligini respublikadagi milliy an‘ana, urf-odat va qadriyatlarni e‘tiborga olishi insonlarning faoliyatlarini to‘liq shart-sharoitlar bilan ta‘minlashi lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston mintaqalari rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha keskin tafavutlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida hududlarni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va qo‘llab – quvvatlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi:

- mamlakat barcha hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish;
- hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va ularni joylashtirishdagi asossiz nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- hududlarni oqilona xo‘jalik ixtisoslashuvini ta‘minlash va hududlararo iqtisodiy aloqalarni maqbullashtirish;
- mintaqalararo va tashqi iqtisodiy integratsiyam ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ajralib qolishga yo‘l qo‘ynaslik va boshqalar.

Makroiqtisodiy dastaklar muayyan hududlarda iqtisodiy subyektlar faoliyatiga ta‘sir qiluvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Bular sirasiga imtiyozli soliqlar, bojxona imtiyozlari, kredit berish va boshqalar kiradi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy

mexanizmi byedje't tizimi hisoblanadi. Joylarda mahalliy byudje't tushumlarining yangi manbalarni qidirib topish va byudje't intizomiga rioya qilish asosiy vazifalaridan biridir. Hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishda bevosita boshqaruv usullaridan keng foydalaniladi. Davlat tomonidan iqtisodiy ishloho'llarni rag'batlantirish va ularni chuqurlashtirishni qo'llab-quvvatlash respublika byudje'ti, hududlarga do'latsiyalar va subvensiyalar berish hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalarini bajarish orqali hududlar rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hududlar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tartibga solishda dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish bevosita boshqarishning asosiy uslublaridan biri hisoblanadi. Hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni tartibga solishning asosiy dastaklari investitsiya va hududiy dasturlar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimini tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Hududlarni kompleks rivojlantirishda asosan, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni oldini olish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasining taraqqiyoti yangi, zamonaviy va asosiysi bugungi kun bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan texnika va texnologiyalarning jalb etilishi, nafaqat qishloq xo'jalik korxonalarining rivojlanishi, kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish, tasdiqlangan investitsiya loyihalarini amalga oshirilishini ta'minlash, hududning qisqa va uzoq muddatli rivojlantirish loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish, mavjud sanoat korxonalarini to'la quvvatda ishlatish, bo'sh turgan bino va inshoo'llarda ishlab chiqarishni tashkil etish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, bundan tashqari, qishloqda istiqomat qiluvchi mehnatga layoqatli aholi uchun kafolatlangan ish

o‘rinlari tashkil etish, ayniqsa ixtisoslashgan kasb-hunar ta’lim muassasalarini bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **МАҲАЛЛАЛАРДА ЯНГИ ИШ ЖОЙЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ДАСТУРЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ.**

**Ражабова Наргизахон Рахмоналиевна**  
*фалсафа доктори илмий даражасига номзод,*

**Хабибуллаев Шукурулло**  
*Фаргона политехника институти талабаси*

[e-mail: n.rajabova@ferpi.uz](mailto:n.rajabova@ferpi.uz)

**Аннотация:** Мақолада маҳаллаларда иш жойларига бўлган реал эҳтиёж ва уларни яратиш имкониятларини ўрганиш асосида янги иш жойларни ташкил этиш дастурларини ишлаб чиқиш бўйича тавсиялар баён этилган.

**Калит сўзлар:** маълумотлар, таҳлил манбалари, салоҳият, иқтисослашув, меҳнат бозори, молиявий манбалар, меҳнатбозорига кириб келувчилар, хусусий тадбиркорлик, хунармандчилик, касаначилик, сервис хизмати, парандачилик.

### **Кириш**

Мустақил республикаимиз маҳаллаларида тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш давлатимиз сиёсатининг устивор йўналишларидан бири бўлиб бу йўналишда қатор фармонлар, қарорлар қабул қилинган. Уларнинг ижросини таъминлаш, айниқса “фаол маҳалла” моделини яратиш, уни шу маҳаллада яшовчи аҳоли муаммоларини бевосита жойида, оператив ҳал қилиш ҳамда худудни ривожлантириш учун зарур ресурс ва имкониятлар билан таъминлаш йўналишларида кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. Жойларда фуқороларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш истаги бор кишиларни қўллаб қувватламоқда, маҳаллаларда янги

иш ўринларини яратиш, кичик ишлаб чиқариш корхоналарини очиш, миллий хунармандчиликни тиклаш бўйича ижобий фаолият олиб борилмоқда.

Шу билан бирга маҳаллаларда хунармандчилик ва тадбиркорликни замон талабларига жавоб бера оладиган миллий моделини яратиш ишлари хануз мукамал эмас. Бу сўҳадаги ишларнинг самарадорлигини ошириш мақсадида маълум бир тавсияларга эҳтиёж мавжуд.

Мазкур тавсиялар маҳалла фаоллари учун ҳудудда иш жойлари ташкил этиш ва аҳолини иш билан таъминлаш дастурларини бугунги кун талаблари асосида ишлаб чиқиш ва амалга оширишда амалий ёрдам кўрсатишни кўзда тутди. Ҳар бир маҳаллада янги иш жойларни ташкил этиш дастурини ишлаб чиқишда маълумотлар ва таҳлил манбаларини аниқлаш талаб этилади.

Бунда маҳалланинг ижтимоий иқтисодий ривожланиши, истиқболлари, салоҳияти, бирон – бир соҳага ихтисослашуви, аҳоли ва унинг таркиби, меҳнат бозоридаги мавжуд вариант ва унинг ўзгариш эҳтимоллари, иш ўринларига бўлган эҳтиёж, уларни яратиш имкониятлари, маҳалла ихтиёридаги молиявий манбалар тўғрисидаги маълумотлар жамланиб таҳлил қилигҳниши зарур бўлади.

Маҳалла ҳудудида янги иш жойларига бўлган эҳтиёжни аниқлаш учун шу ҳудуддаги мактаб, билим юрти, техникум, коллеж, лицей, олий ўқув юртини битириб, биринчи марта меҳнат бозорига кириб борувчиларнинг рўйхатини тузиш, ишга жойлашишига муҳтож аҳолини, яъни мунтазам иш жойи, даромад манбаига эга бўлганларни аниқлаш, муддатли харбий хизматдан бўшатилиши мумкин бўлганлар руйхатини тузиш керак.

Аҳоли бандлиги ва даромадларини оширишга ҳар томонлама кўмаклашиш, ишсизлар, айниқса, ёшлар ва хотин-қизлар, меҳнат бозорига илк бор кириб келаётган битирувчилар бандлигини таъминлаш бўйича янги таъсирчан механизмларни жорий этиш, эҳтиёжманд аҳолини меҳнат фаолиятига жалб қилишда қулай шарт-шароитлар яратиш, шунингдек, янги иш ўринларини ташкил этган тадбиркорлик субъектлари фаолиятини янада рағбатлантириш керак

Тўлиқ ва самарали иш билан бандлик, ходимлар учун соғлом шароитлар яратилиши, улар меҳнатига муносиб ҳақ тўлаш муносиб меҳнат асоси ҳисобланади. Кейинги йилларда иш жойларида экологик меъёрларга риоя этишнинг аҳамияти, шу жумладан, яшил иш ўринлари яратиш, бундай шартшароитларни таъминлашда иш берувчиларнинг ижтимоий масъуллигини ошириш йўналишларидаги ишларга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маълумки, муносиб меҳнат нафақат ижтимоий адолат тамойиллари, балки иқтисодийнинг барқарор ўсиши ва ривожланиши, жамиятда манфаатлар уйғунлигини таъминловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда муносиб меҳнат концепциясини амалга ошириш доирасида ижтимоий-меҳнат соҳасидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш ишларини олиб бориш билан бирга янги иш ўринларини яратиш республика дастурлари ҳамда аҳолини иш билан таъминлаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ҳудудий дастурларига биноан янги иш ўринлари яратилмоқда.

Ўзбекистон корхоналарида меҳнат шароитлари ва меҳнатни ташкил қилиш масаласи долзарблигича қолмоқда. Республикада иш ўринларининг 75 фоизига яқини инсон саломатлиги учун хавfli ҳисобланади ва меҳнатни муҳофаза қилиш нормаларига мос келмайди. Зарарли ва хавfli меҳнат шароитларида банд бўлган ходимлар сони йил сайин ортиб бормоқда ва сўнгги маълумотларга кўра, иқтисодий фаолиятнинг барча турлари бўйича ходимларнинг умумий сонида уларнинг улуши 39,7 фоизни ташкил қилмоқда, маҳаллада тадбиркорлик ва деҳқончиликни ривожлантириш учун оилаларни зарур асбоб-ускуналар ва иш қуроллари билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш зарур

Мутасаддилар олдига экин ерларини ажратиш ишларини танқидий муҳокама қилиб бориш, аҳолини паррандачилик, қўй-эчкичилик, қуёнчилик, балиқчилик, асаларичилик билан банд қилиш учун етакчи тадбиркорларни жалб этиш, мавжуд имкониятларни ўрганиб, тадбиркорлар иштирокида маҳаллаларни инкубатор билан таъминлаш, етиштирилган қишлоқ хўжалиги

маҳсулотларини кафолатли сотиб олиш тизимини ташкил этиш вазифаси кўйилди.

Бир нарсани ҳамма аниқ тушуниб олиши зарур. Ҳоким ёрдамчилари – Президентнинг маҳалладаги вакиллари ҳисобланади. Уларнинг асосий вазифаси – ўз маҳалласида тадбиркорликни ривожлантириш, иш ўрни яратиш, камбағалликни қисқартириш ва оилалар даромадини кўпайтиришдан иборат.

Кейинги босқичда эса маҳаллада янги иш жойларини яратиш имкониятлари баҳоланади.

Бунда маҳалла ҳудудида кичик корхоналар ва микрофирмалар ташкил этиш, хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, микрокредитлаш тизимини янада самарали ишлашини вўллаб қувватлаш талаб этилади.

Ўй меҳнатининг барча шаклларини, шу жумладан, яқин атрофда фаолият кўрсатаётган корхоналар билан меҳнат шартномалари асосида касаначиликни йўлга қўйиш, миллий ҳунармандчиликни ва ойлавий тадбиркорликни ривожлантириш, хизмат кўрсатиш ҳамда сервис фаолиятини янада такомиллаштириш, иқтисослашган деҳқон фермер хўжаликларида чорвачилик, парандачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш, айниқса кейинги йилларда урф бўлаётган кичик иссиқхоналар ташкил этиш имкониятлари реал баҳоланиши керак.

Юқорида тавсия этилаётган барча ишлар Давлат дастурлари, Президент Фармонлари ва қарорлари, ҳукумат қарорларига мувофиқ амалга оширилади.

Маҳаллаларда иш жойларига бўлган реал эҳтиёж ва уларни яратиш имкониятлари ҳисобланиб, аниқ параметрлар, режа – кўрсаткичлари шаклланади. Ушбу имкониятлар ва кўрсаткичлар ҳар бир ҳудудда иш жойларига бўлган эҳтиёж билан таққосланади.

Агар маҳалланинг иш жойлари яратиш бўйича имкониятлари уларга бўлган эҳтиёждан кам бўлса, дастур ишлаб чиқишда иш ўринлари яратиш бўйича қўшимча чоралар кўрилиши керак бўлади.

Кейинги босқичларда маҳалла учун янги иш жойлари дастури шакллантирилади. Ушбу дастур лойихасига иш жойларин ташкил этилиши ва аҳоли бандлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган ҳисоб китоблар ҳам киритилади.

Дастурнинг асосий параметрлари ҳудуддаги иқтисодиёт, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш, молия статистика органлари раҳбарлари, туман. Шахар, хокиликлари тамонидан муҳокама этилиб тасдиқланади.

### **Хулоса**

Ўрнатилган тартибда ҳоким ва халқ депутатлари Кенгаши тамонидан тасдиқланган Дастур самарали бажарилиши учун унинг ижроси мониторинг қилиб борилиши керак

Мониторинг янги иш ўринлари яратилганлиги ҳақидаги маълумотларни умумлаштиради, ташкил этилган, фаолият кўрсатаётган ва йўқотилган иш ўринлари ҳақидаги маълумотларин тўплаб умумлаштиради.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

4. Ў.Р.Саломов., Р.Ж.Тожиев., И.М.Тўхтаров. Янги Ўзбекистон инновацион тараққиёт йўлида Тошкент 2021.
5. Й.Қосимов “Қадимги Фарғона сирлари” 1988 йил. Наманган нашриёти.
6. А.Аъзамов., Р.Ж.Тожиев., И.М.Тўхтаров. Ахмад ал Фарғоний хаёти ва ижоди 2019 йил. Фарғона нашриёти
7. М Сайфитдинова., Ю.Додобоев., А.Ўринов.,Х.Умрзоқова Ўзбекистон Республикасида арончилик иқтисодиёти ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш. Ғофур Ғулом номидаги нашрёт матбаа ижодий уйи ТОШКЕНТ 2022



# ИМПЕРАТИВЫ И ПРИОРИТЕТЫ УПРАВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА ТРУДА

Ph.D, доцент. Ходжаева Нодирахон Абдурашидовна.

Филиал ФГБОУ ВО «Российский экономический  
университет имени Г.В. Плеханова» в Ташкенте,

Ташкент, Узбекистан

**Аннотация:** в статье рассматриваются современные критерии оценки «зеленных» рабочих мест в условиях трансформации экономики.

**Ключевые слова:** критерии, рабочие места, трансформация экономики, условия труда..

На сегодняшний день в современной науке, нету научных разработок в вопросах касательно единого подхода к понятию и критериям высокоэффективного рабочего места в экологически ориентированной экономике.

В связи с эти автором были разработаны группа критериев управления социально-трудовых отношений при экологически ориентированной экономике на основе метода “экспертных оценок”.

**Таблица 1.**

**Группа критериев управления социально-трудовых отношений  
при экологически ориентированной экономике<sup>77</sup>**

Группа критериев	Критерии	Постиндустриальное общество
Критерии оценки рабочих мест приэкологически ориентированной экономике	Характер работы	Операции по максимуму автоматизируются, человек выполняет лишь творческие функции, отрабатывает возникающие нестандартные ситуации
	Способы увеличения производительности труда работников при экологически ориентированной экономике	Усиление вовлеченности работника, использовать творческий, инновационный талант личности, предоставление свободы выбора форм трудовых действий.

<sup>77</sup>Разработано автором

Критерии оценки кадров при экологически ориентированной экономике	Инсорсинг, аутсорсинг Фрилансинг, краудсорсинг, рекрутинг, повышение квалификации, обучение	Использование всех мощностей предприятий. Делегирование задач группе людей на добровольной основе
Критерии соответствия условиям труда при экологически ориентированной экономике	Аттестация, организации труда, методы управления персоналом	Проектная деятельность. Демократические формы воздействия. Коучинг. Эффективное целеполагание с использованием обратной связи
Критерии эффективности управления социально-трудовыми отношениями при экологически ориентированной экономике	Способы стимулирования труда, оплата труда, формы трудовых отношений,	Размер з/п позволяет удовлетворить весь комплекс потребностей работника. На первый план выходят потребности в самореализации. Доминирование сорсинг-технологий, делегирование непрофильных функций исполнителям
Критерии взаимосвязи с результатами труда при экологически ориентированной экономике	Связь с результатами труда	Идентификация результатов труда с работниками
Критерии «экологическая безопасность» при экологически ориентированной экономике	Интенсификация труда	Усиление вовлеченности работника

В процессе применения метода “экспертной оценки”, основное внимание уделялось таким вопросам, как количественный отбор экспертов и формирование экспертных групп, оценка уровня их компетентности, определение уровня совпадения мнений экспертов, обработка данных экспертами и принятие определенных решений относительно полученных результатов.

В экспертной оценке очень важен «консенсус экспертного мнения». В связи с этим, в диссертационном исследовании используется «коэффициент конкордации» для оценки уровня согласия между экспертами, который определяется следующим образом:

$$W = \frac{12 \times S}{n^2 \times (m^3 - m)} \quad (1)$$

где:

W – коэффициент конкордации;

n – приглашенные эксперты – количество специалистов;

m – объекты, количество предприятий занимающихся вторичной

переработкой(число);

$S$  – количественная величина в коэффициенте конкордации

Количественное значение ( $S$ ) в коэффициенте конкордации

определяется следующим образом:  $S = \sum_{i=1}^m \left( \sum_{s=1}^n r_{is} - \bar{r} \right)^2$  (2)

где:

$r_{is}$  –  $i$ - объект  $s$ -во экспертов дающих оценку

В зависимости от приемлемого значения коэффициента конкордации определяются уровни совпадения мнений экспертов. В нем используется словесно-цифровая шкала Харрингтона.

Таблица 2.

**Вербально-цифровая шкала Харрингтона<sup>78</sup>**

№	Числовые значения коэффициента конкордации	Уровни консенсуса мнения экспертов
1	$0 \leq W < 0.2$	Соответствие очень низкое
2	$0.2 \leq W < 0.37$	Низкая гибкость
3	$0.37 \leq W < 0.64$	Гибкость средняя
4	$0.64 \leq W < 0.8$	Гибкость высокая
5	$0.8 \leq W \leq 1.0$	Гибкость очень высокая

Кроме того, для оценки значимости определяемого коэффициента конкордации принят критерий конкордантности  $\chi^2$  -Pearsona

$\chi^2$  - распределение с  $K = n-1$  степенями свободы принимает следующее значение:

$$\chi^2 = \frac{12 \times S}{nm(m+1) - \frac{1}{m-1} \sum_{i=1}^n T_i} \quad (3)$$

Если да  $\chi_{his}^2 > \chi_{jad}^2$ , то уровень консенсуса мнений экспертов разумный, в противном случае такой консенсус оказывается незначительным

<sup>78</sup> Галиновский А.Л., Самсонов К.С. и др. Сравнение различных методов контроля и диагностики качества керамики методом экспертного оценивания. Инновация и экспертиза. 2017. Выпуск 1 (19). - 68 с.

- молиявий фаолият самарадорлиги<sup>97</sup>.

### 1-жадвал

#### Қашқадарё вилояти «Shaxrisabz vino-aroq» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Oq Saroy Tekstile» МЧЖ кабиларнинг молиявий натижалари прогноз параметрлари<sup>98</sup>

Т/р	Субъектлар номи	Ўлчов бирлиги	Кўрсаткичлар					
			Жами	Йиллар кесимида				
				2022	2023	2024	2025	2026
1.	«Shaxrisabz vino-aroq» ОАЖ	Ҳажми (млн сўм)	1,1 баробар	8282	8696	9357	10125	10955
		ўсиш (%)		113,5	102,3	105	107,6	108,2
2.	«Don – Xalq Rizqi» АЖ	Ҳажми (млн сўм)	1,4 баробар	12568	13473	14591	15890	17527
		ўсиш (%)		126,0	107,2	108,3	108,9	110,3
3.	«Sado» МЧЖ	Ҳажми (млн сўм)	1,3 баробар	858	906	971	1048	858
		ўсиш (%)		116,6	104,2	105,6	107,2	107,9
4.	«Oq saroy Tekstile» МЧЖ	Ҳажми (млн сўм)	1,4 баробар	9105	9725	10435	11374	12534
		ўсиш (%)		109,4	106,8	107,3	109	110,2

<sup>97</sup> Клочков А.К.. «КРІ и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов». –Москва: ЭКСМО; 2010. ISBN 978-5-699-37901-9. С103. 23стр.

<sup>98</sup> Қашқадарё вилояти «Shaxrisabz vino-aroq» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Oq Saroy Tekstile» МЧЖ прогноз кўрсаткичлари асосида муаллиф ишланмаси.

Танлама кузатув учун олинган «Shaxrisabz vino-arog» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Оқ Сароу Текстиле» МЧЖ кабиларнинг молиявий натижалари прогноз параметрлари 1-жадвалда ўз аксини топган.

Юқоридаги жадвал маълумотлари субъектлар томонидан ишлаб чиқилган муҳим мақсадли кўрсаткичлар бўлиб, улардаги ўсиш кўрсаткичлари вилоят миқёсида саноат маҳсулотлари ўсиш 1,5 баробар) кўрсаткичидан паст прогнозни кўрсатмоқда. Бу эса, қўйилган мақсадларда иккиланишлар, ноаниқликлар ва вазифаларни белгиланишида барча омилларни тўлиқ қамраб олмаслик натижаси дея баҳолаш мумкин.

2-жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, 2018-2021 йилларда корхона ва ташкилотлардаги ходимлар сони ўзгариб турган. Буни хомашё, 2019-2020 йиллардаги Covid-19 пандемияси ҳолатидаги вазият ва бошқа омиллар билан изоҳланди.

## 2-жадвал

### Қашқадарё вилояти «Shaxrisabz vino-arog» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Оқ Сароу Текстиле» МЧЖ кабиларда фаолият юритаётган ходимлар сони динамикаси<sup>99</sup>

Т/р	Субъектлар номи	Ўлчов бирлиги	Йиллар кесимида				
			2018	2019	2020	2021	2022
1.	«Shaxrisabz vino-arog» ОАЖ	киши	628	406	428	393	393
		олдинги йилга нисбатан, %	196	65	105	92	100
2.	«Don – Xalq Rizqi» АЖ	киши	249	234	183	203	203
		олдинги йилга нисбатан, %	74	94	78	111	100
3.	«Sado» МЧЖ	киши	175	142	275	265	265
		олдинги йилга нисбатан, %	101	81	194	96	100

<sup>99</sup> Қашқадарё вилояти «Shaxrisabz vino-arog» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Оқ Сароу Текстиле» МЧЖ прогноз кўрсаткичлари асосида муаллиф ишланмаси.

4.	«Oq saroy Tekstile» МЧЖ	киши	1 832	1 740	1 761	1 225	1 225
		олдинги йилга нисбатан, %	323	95	101	70	100

Ходимлар сонидаги ўзгаришлар фаолиятдаги ходимлар меҳнат самарадорлигига салбий таъсир этади. Шунинг эътиборига олган ҳолда 2019-2021 йилларда тадқиқот натижаларимиз «Shaxrisabz vino-aroq» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Oq Saroy Tekstile» МЧЖ бошқарув жамоасига тақдим этилди ва 2022 йил бошидан буён иш ўринлари сонидаги ўзгаришлар бўйича аниқ тўхтамга келинганлигини кўриш мумкин.

Ходимлар меҳнат фаолияти самарадорлигининг муҳим кўрсаткичларини тизимини баҳолашда ходимлар кўнимсизлиги, ишдан бўшаш ҳолатлари ва иш ўринлари сонининг қисқариши натижадорликка салбий таъсир кўрсатади.

Ходимлар сони ўзгаришидаги узвийлик «Shaxrisabz vino-aroq» очик турдаги акциядорлик жамияти ва «Saroy Tekstile» масъулияти чекланган жамиятда кузатилган. Ҳар иккала хўжалик юритувчи субъектда ҳам ходимлар сони камайиш тенденциясига эга бўлган.

Вилоятдаги «Don – Xalq Rizqi» акциядорлик жамияти ва «Sado» масъулияти чекланган жамиятида ходимлар сони 2019-2020 йилларда кескин камайиш ва ортиш тенденциясини кўрсатган. Бу ҳолат ҳар иккала хўжалик юритувчи субъектлардаги ходимлар меҳнат фаолияти самарадорлигининг муҳим кўрсаткичлари бўйича ҳисоб-китобларда ноаниқликлар келтирган.

Қашқадарё вилояти «Shaxrisabz vino-aroq» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖ, «Sado» МЧЖ ва «Oq Saroy Tekstile» МЧЖ ходимлар меҳнат самарадорлигининг муҳим кўрсаткичи (KPI) тизимини такомиллаштириш юзасидан қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратилган:

- корхоналарда бошқарув вакиллари фаолияти самарадорлигининг муҳим кўрсаткичлари (KPI) жорий этилган ва корхоналар раҳбарлари меҳнатига ҳақ тўлаш тизими максимал даражада такомиллаштирилган ва юқори натижалар учун ходимларни рағбатлантириш учун амалда бонус жорий этилган;



- «Sado» МЧЖ ва «Oq Saroy Tekstile» МЧЖ фаолияти самарадорлиги натижаларини қайд этиш учун қулай бўлган, унинг натижаларини бўлимлар ва цехлар бўйича, фойдаланувчилар учун қулай шаклда танишиш ва ходимлар меҳнат самарадорлигининг муҳим кўрсаткичларини (KPI) автоматик тарзда ҳисоблаб бориш ва бошқа функцияларни ўзида акс эттирувчи тизим ишлаб чиқилган;

- «Shaxrisabz vino-arog» ОАЖ, «Don – Xalq Rizqi» АЖнинг вилоят иқтисодиётдаги улушини, уларни ялпи ҳудудий маҳсулот, экспорт-импорт ҳажмлари, асосий капиталга киритилган инвестициялар шаклланиши, ишлаб чиқариш ва аҳоли бандлигидаги улушларини ҳисоблаш ва ҳар чорак якуни бўйича мониторинг қилиш тизимини йўлга қўйилган.

Тадқиқотимизда корхоналардаги ходимлар меҳнат самарадорлигини баҳолашда қўлланилиб келинаётган самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари (KPI) тизими ва ходимлар қўнимсизлиги, шу билан биргаликда ходимларни рағбатлантиришдаги ҳолат, адолатли бошқарув ва ташкил этилган меҳнат бўйича таҳлил натижалари қуйидаги хулосаларни берди:

Биринчидан, корхонада самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари (KPI) тизимини жорий этишда у ёки бу вазн birlikларини танлашдаги хатолар мавжудлиги ходимлар қўнимсизлигига олиб келиши мумкин.

Иккинчидан, корхона фаолиятида меҳнат самарадорлигини баҳолашда адолатлилик тамойилиши доимий амал қилиниши, жамоа ва бошқарув ходимлари рағбатлантиришда жамоанинг фаолиятига тўғри баҳо бериш мақсадга мувофиқ.

Учинчидан, самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари (KPI) тизими ҳар қандай корхонада ходимларни ўз ўрнига қўйилган ёки қўйилмаганлигини кўрсатиб турувчи муҳим кўрсаткич ҳисобланади. Шунинг учун ушбу тизимдан фойдаланишдан олдин ҳар қандай корхона ходимларни бошқариш тизимини қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Буни тадқиқот давомидаги сўровнома саволларига респондентлар томонидан берилган натижалардан кўриш мумкин.

# “ЎРТА ҚАТЛАМ” ОМИЛИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШГА МЕТОДОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР

**Асадов Жасур Абдужабборович**

Тошкент давлат иқтисодиёт

университети тадқиқотчиси

Замонавий жамиятда “ўрта қатлам” деб номланувчи ва бугунги кунга қадар кўплаб баҳс-мунозараларга сабаб бўлаётган феномен ҳақидаги илк қарашлар антик даврларга бориб тақалади.

Қадимги юнон драматурги (тахминан мил. ав. 420 йил) Еврипид ўрта қатлам ҳақида шундай ёзган эди: “Давлатда учта синф бор: биринчиси бойлар, шаҳар учун улардан фойда йўқ, уларга ўзи учун кўпроқ наф тегса бўлди. Камбағал ва бечоралар ҳам хавфли, мулкдорларга таҳдид билан ўзининг “заҳарли нишини суқади”. Фақатгина ўрта синф шаҳар учун таянч ҳисобланади. У қонунга ва давлатга итоат қилади”<sup>100</sup>.

“Ўрта қатлам” хусусияти ҳақидаги ёндашувлар қадимги юнон ва Уйғониш даври мутафаккирлари Н. Макиавелли, Т.Гоббс, Д.Локк, И.Бентам, Ж.-Ж.Руссо, Ф.Гизо, О.Минье, О.Тьерри ва бошқаларнинг асарларида ўз ифодасини топган. “Ўрта қатлам”нинг бугунги кундаги моҳиятига яқин қарашлар XVII асрда Англияда пайдо бўлди.

XVIII асрнинг охири ва XIX асрнинг бошларида Англия иқтисодчилари А.Смит, Д.Рикардо ва бошқалар жамиятдаги синфларга бўлинишнинг иқтисодий сабабларини ўрганишга ҳаракат қилганлар. Улар синфларнинг мавжуд бўлишини, энг аввало, уларнинг даромад манбаи турличалиги билан изоҳлаганлар.

Г. Спенсер учта синфни ажратиб кўрсатган: қуйи, ўрта ва юқори. Ўша даврда уларнинг функцияларини алоҳида кўрсатиб берган. Хусусан, озиқ-овқатлар учун хомашёни етиштириш ва озиқ-овқат билан таъминлаш орқали жамият ҳаётини ушлаб туриш функцияси – қуйи қатламга, маҳсулотларнинг

---

<sup>100</sup> Еврипид. Умоляющие. Перевод Иннокентия Анненского. Еврипид. Трагедии. В 2 томах. Т. 1. “Литературные памятники”. – М., Наука, Ладомир, 1999. – С. 9

олди-сотди масалалари ва уларни етказиб бериш функцияси – ўрта қатламга, жамиятнинг ривожланиш стратегиясини белгилаб берувчи бошқарув функцияси – юқори қатламга тегишли.<sup>101</sup>

Яна бир бошқа мутафаккир Р. Вормс жамиятни тирик организм сифатида баҳолаган. Р. Вормс қарашларининг бошқалардан фарқли томони шундаки, унинг замондошлари ўрта синфни ўрганишда асосий эътиборни даромад манбаи ва профессионал мавқеига қаратган бўлса, Р. Вормс жамиятни иккита ўлчов – касб ва ижтимоий мартаба бирлиги асосида синфларга ажратган.

Аҳоли синфларини ўрганиш назарияси ва методологиясини ишлаб чиқаришга катта амалий ҳисса қўшган олимлардан бири бу – Карл Маркс. К.Маркснинг таъкидлашича, жамиятдаги синфлар ва улар ўртасида курашнинг мавжудлиги бу унинг кашфиёти эмас. Бироқ, у иқтисодий муносабатларнинг бутун тизимини фундаментал таҳлил қилиш орқали жамиятнинг синфий тузилмасини чуқур асослаб берган. К.Маркс “буржуазия-пролетариат” схемасига кирмайдиган крестьянлар, кичик буржуазия ва профессионаллардан бошқа катта гуруҳ борлигини таъкидлаган. Аммо, олим ушбу синф вақт ўтиши билан йўқолиб кетиши ва бошқа синфларга “сингиб кетиши”ни ишонч билан айтган. Унинг фикрича, ўртадаги қатлам синфлар курашига халақит беради, чунки уларда “ташаббус ҳам, жўшқинлик ҳам йўқ” деб таъкидлаган. “Синф” сўзи К.Маркснинг кўплаб асарларида учрайди.<sup>102</sup> Бироқ, танқидчилар унинг асарларида “ўрта қатлам”га аниқ таъриф берилмаганлиги ва у алоҳида ажратиб ўрганилмаганлиги тўғрисида фикр билдирган.

Шу ўринда, биз илмий-тадқиқот ишида нега “синф” эмас, “қатлам” тушунчасига устуворлик қаратганимизни изоҳлаб ўтсак. “Синф” деганда маълум бир жамиятда иқтисодий ва ижтимоий муносабатларнинг тарихий шаклланган тизимида аниқ бир ўринни қатъий банд этган шахслар гуруҳи

---

<sup>101</sup> Спенсер Г. Основания социологии. –СПб., 1898. – Т.1. – С. 244.

<sup>102</sup> Маркс К., Энгельс Ф. Манифест Коммунистической партии. – М.: Политиздат, 1980. – С. 36.

тушунилади. Буни Собик иттифоқ давридаги “буржуазия” ва “пролетариат” синфлари мисоли яққол кўриш мумкин. “Пролетариат” синфи фақат ёлланма ишчи сифатида баҳоланган ва улар ўзини тамоман шу синф вакили деб тан олган. Бошқача қилиб айтганда, улар буржуазияга хизмат қилувчи синф сифатида баҳоланган.

Худди шундай синфий бўлинишни Ҳиндистондаги “касталар” мисолида ҳам кўриш мумкин. “Касталар” – бу кишиларнинг биқик эндогам гуруҳи. Касталар ўзига хос социал вазифаларни бажариш, меросий касб-ҳунарлар билан шуғулланиш натижасида ажраладики, бу ҳол муайян этник, баъзан диний муштаракликка мансублик билан боғлиқ бўлиши мумкин. Касталар баланд-паст табақалар ҳосил қилади ва улар ўртасидаги муносабатларда катъий чекланишлар мавжуд. Ҳиндистонда ҳиндуизмда, асосан, одамларнинг муайян белгига кўра гуруҳларга бўлиниши ялпи тус олган. Жумладан, энг юқори поғона – браҳманлар (коҳинлар) ва ҳарбий ер эгалари (кшатрийлар)нинг касталари йирик ва ўртаҳол мулкдорлардан ташкил топган. Улардан қуйироқ поғонани савдогар ва судхўрлар эгаллаган. Кейинги поғонадаги заминдорлар (вайшиялар) кастаси майда мулкдорлар ва деҳқонлар бўлиб, жамоанинг тўла ҳуқуқли аъзолари ҳисобланган. Янада қуйи поғонага кўп сонли ерсиз ва тўла ҳуқуққа эга бўлмаган деҳқонлар, ҳунармандлар ва хизматкорлар (шудралар) кирган. Уларнинг энг паст қатлами ҳуқуқсиз ва энг эзилган “ҳазар қилинганлар” (париялар)нинг касталари.

“Қатлам” тушунчаси шу билан изоҳланадики, бунда жамиятдаги гуруҳлар бир-бирига қарши турмайди ёки бир-бирини инкор этмайди. Жамиятдаги юқори, ўрта ва қуйи қатламлар орасида чегара жуда ҳам шаффоф бўлади. Ўз устида ишлаш ва билимларини ошириш орқали даромадларини кўпайтирган ҳамда жамиятда муносиб ўрин эгаллаган қуйи қатлам ўрта қатламга ва ҳаттоки юқори қатламга ўтиши мумкин ва аксинча.

Англияда мазкур йўналишда ижтимоий тадқиқот ўтказганлар орасида Ч. Бут, С. Раунтри, А. Баули, Беатрис ва Сидней Вебб етакчи саналади.

Америкалик социолог Уильям Ллойд Уорнер (1898–1970) ижтимоий табақаланишнинг кўзга кўринган тадқиқотчиларидан бири ҳисобланади.

Америка жамиятининг “типик” маданиятини ўрганган ҳолда, Уорнер ушбу маданиятларнинг доминантлари тегишли ижтимоий табақаланиш орқали рўёбга чиқишини ва уларнинг муҳим элементларидан бири бу ўрта синф эканлигини таъкидлаган. Эътиборли жиҳати шундаки, Уорнер ўз тадқиқотларини даромад ижтимоий синфларга бўлинишнинг асоси эканлиги тўғрисидаги гипотезани асослашдан бошлаган бўлса, якунида у пуллар (даромад, мол-мулк, бойлик) номоддий омилга (тан олиш, ҳурмат қилиш, ҳамкорлик, ташкилотлар ва бошқаларда биргаликда иштирок этиш кабиларга) айланиши лозимлиги таъкидлаган.

Совет иттифоқи даврида ўрта синф муаммоси деярли ўрганилмаган. Ушбу термин биринчи марта академик Заславская томонидан рус жамияти тузилмасини таҳлил қилиш жараёнида фойдаланилган<sup>103</sup>. У ўрта синфга шундай таъриф берган: “Ўрта синф – бу жамиятнинг юқори ва қуйи қатлами ўртасида оралиқ позицияни эгаллаган ижтимоий гуруҳлар йиғиндиси бўлиб, ўзига хос ижтимоий медиатор функциясини бажаради”<sup>104</sup>.

Муаллиф ўзининг табақалаштириш моделида “синф” тушунчасидан фойдаланмаган. У “қатлам” тушунчасидан фойдаланишни афзал кўрган. Заславская иккита қатламни ажратиб кўрсатган: юқори ўрта ва ўрта қатлам. Муаллифнинг фикрича, юқори ўрта қатламга – ўрта ва йирик тадбиркорлар, ўрта қатламга – кичик тадбиркорлар, ишлаб чиқариш соҳаси менежерлари, ноишлаб чиқариш соҳаси бошқарувчилари, юқори тоифали зиёлилар, ишчи элита, ҳарбий кадрлар киради. Шунингдек, Заславская “базавий қатлам” ҳақида ҳам фикр юритиб, ушбу қатламга оммавий зиёлилар, савдо ва сервис соҳаси ходимлари, саноат ишчилари ва деҳқонларни киритган.

---

<sup>103</sup> Заславская Т.И., Громова Р.К. К вопросу о «среднем классе» российского общества // Мир России. – 1998. – № 4. – С. 29-40.

<sup>104</sup> Заславская Т.И. Социетальная трансформация российского общества. Деятельностно-структурная концепция. – М.: Дело, 2002. – С. 471.

Илмий адабиётларда ўрта қатламни тадқиқ қилиш бўйича иккита асосий назарий-методологик ёндашув ажратиб кўрсатилади. Булар – синфий назария ва табақаланиш назарияси. Биринчи ёндашув турли ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги зиддиятларни таҳлил қилишни назарда тутса, иккинчиси жамият аъзоларини махсус мезонлар ёрдамида тартибга солишга интилади. Ҳам амалий, ҳам назарий жиҳатдан илмий жамоатчиликда жамиятни табақалаштириш назарияси энг кўп эътибор қозонган.

Табақаланиш назариясининг асосчиси П.Сорокин бўлиб, у ижтимоий гуруҳларнинг айрим назарий-методологик тамойиллар асосидаги энг батафсил таснифини таклиф қилган. П.Сорокин томонидан табақаланиш назариясининг ишлаб чиқилиши социология фанининг ривожига улкан ҳисса қўшган.

П.Сорокин синфга учта бошланғич гуруҳлар: касбий, мулкӣ, ҳуқуқӣ гуруҳларни ўзида мужассам этган “кумулятив” гуруҳ дея таъриф берган. У инсонларнинг ижтимоий ҳолатини ўзи ижтимоий табақаланиш деб атаган кўрсаткичлар орқали кўриб чиқишни таклиф қилган<sup>105</sup>. Мазкур ёндашувга кўра, страта, яъни умумий белгиси инсон, ижтимоий гуруҳлар ва жамоаларни турли даромад даражаси, турмуш тарзи, хулқ-атвор шаклига тааллуқлилиги ва уларнинг жамиятда эътироф этилишига қараб гуруҳлаштириш бўлган инсонлар бирлашмаси энг муҳим тушунча ҳисобланади.

П.Сорокиннинг фикрига кўра, табақаланиш – инсонларнинг муайян гуруҳларини (аҳолини) иерархик жиҳатдан фарқлаш бўлиб, бу юқори ва қуйи қатламлар мавжудлигида ўз ифодасини топади. Ижтимоий тенгсизлик – унинг асоси ва моҳиятидир. Ушбу ҳолат ҳуқуқлар ва имтиёзлар, жавобгарлик ва мажбуриятларнинг нотекис тақсимланиши, жамиятнинг у ёки бу аъзолари орасида ижтимоий қадриятлар, ҳокимият ва таъсир кучининг мавжуд бўлиши ёки бўлмаглигида юзага чиқади. Табақаланиш тушунчаси инсонлар, ижтимоий гуруҳлар, қатламлар, жамоаларни таққослаш, уларнинг ҳолатини

---

<sup>105</sup> П.А.Сорокин. Инсон. Цивилизация. Жамият / А.Ю.Согомоновнинг сўзбошиси билан ва умумий таҳрири остида. Инглиз тилидан таржима – М.: Политиздат, 1992, 159-162-бетлар.

турли мамлакатлар бўйича ёки битта мамлакат миқёсида қиёслаш ҳамда ушбу қатламлар орасидаги ижтимоий фарқлар даражасини аниқлаш мақсадида уларни тавсифлаш имконини беради.

Табақаланиш мезонларини ажратиб олиш жараёни бугунги кунда ҳам анча долзарбдир. Ижтимоий табақаланиш мезонлари муайян жамият мавжуд бўлишининг аниқ бир босқичида ундаги ижтимоий реалликни ифодалаб бера олади. Инсоннинг у ёки бу ижтимоий синфга мансублигини белгилаб берувчи мезонлар тизими анча мураккаб, бироқ ушбу масалага нисбатан ҳозирда мавжуд бўлган қарашлар бир нечта умумий жиҳатларга эга.

П.Сорокин ижтимоий синф деганда “касби, мулкӣ ҳолати, ҳуқуқлари жиҳатдан ўхшаш бўлган инсонлар гуруҳи, яъни касбий+мулкӣ+ижтимоий-ҳуқуқӣ манфаатлар эгалари”ни тушунган.<sup>106</sup>

Қайд этиш лозимки, турли фанларда ўрта қатламга тааллуқлиликни аниқлашда турлича устуворликлар ажратиб кўрсатилади. Масалан, иқтисодчилар биринчи навбатда “даромадлар–харажатлар” омилларини таъкидлайдилар; социологлар – ўз ўрнини топиш ва ижтимоий мақомга; психологлар – иқтисодӣ воқеликнинг ўзгарувчан шарт-шароитларига мослашувчанлик қобилятига эътибор қаратади.

Л.И.Стадниченконинг<sup>107</sup> фикрича, кўплаб мезонлар орасидан ижтимоий синфни тавсифловчи қуйидаги энг муҳимларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

1. Иқтисодӣ ўзгарувчилар: касб, даромад, фаровонлик даражаси. Касб ва фаолият тури – бу ижтимоий синф тўғрисида энг кўп маълумот бера оладиган кўрсаткичдир. Инсон машғул бўлган меҳнат, шубҳасиз, унинг ҳаёт тарзида акс этади.

2. Ўзаро алоқалар жиҳатлари: шахсий мавқе, мулоқот доираси, ижтимоий алоқалар. Инсоннинг мақомига худди шу иш билан шуғулланувчи бошқа одамлар эришган муваффақиятларга қараганда унинг эришган

<sup>106</sup> Сорокин П.А. Система социологии: В 2-х т. Т. 2: Социальная аналитика. – М., 1993. – С. 376.

<sup>107</sup> Л.И.Стадниченко, О.Н.Беленов. “Истеъмолчилар хулқ-атвори. Ўқув қўлланма. Воронеж: Воронеж давлат университети нашриёти, 2001.

марралари ҳам таъсир кўрсатади. Жамиятдаги алоқалар ҳам кишининг мақомини белгилаб беради. Ижтимоийлашув давомида инсон ўз жамияти ҳаётида иштирок этиши учун зарур бўлган кўникмаларга эга бўлади. Қадриятлар, яъни инсонларнинг ўзини қандай тутиши кераклиги тўғрисидаги маслағи шаклланади. Бу қадриятлар одамнинг у ёки бу ижтимоий синфга мансублигини кўрсатади.

3. Сиёсий ўзгарувчилар: ҳокимият, синфий онг, мобиллик. Ҳокимият – айрим одамлар ёки одамлар гуруҳининг ўз иродасини бошқаларга ўткази олишининг эҳтимолий имконияти. Ижтимоий мавқенинг муҳим кўрсаткичларидан бири ижтимоий онг ҳисобланади. Бу кўрсаткич одамлар ўзининг алоҳида сиёсий ёки иқтисодий манфаатларга эга бўлган муайян гуруҳга мансублигини қай даражада англаб етганини ифодалайди. Ушбу даража ортган сари инсонларнинг ўз манфаатларини мустаҳкамлаш мақсадида сиёсий партиялар, профессионал иттифоқлар ва бошқа гуруҳларга бирлашиш эҳтимоли кучайиб боради. Мобиллик – янада юқорироқ ёки қуйироқ синфий гуруҳларга ўтиш жараёни.

М.Рыбинанинг фикрига кўра, шаклланаётган ўрта синф концепцияси унинг қуйидаги базавий тавсифларини белгилаш асосида келиб чиқади<sup>108</sup>:

– мулкӣ ҳолат, мулкка нисбатан муносабат, ўрта синф вакиллари эга бўлган мулк ҳажми ва тури;

– ўз мақомини сақлаб қолиши учун барқарор юқори даромадга эга бўлиш. Бу, ўз навбатида, айнан ўрта синф вакилига хос бўлган турмуш тарзини таъминловчи харажатлар ва истеъмол таркиби билан ажралиб туради;

– ижтимоий мавқени таъминловчи ва хулқ-атвор стереотипларини белгиловчи юқори профессионал таълимга ва малакага эга бўлиш;

– ўзининг қатламга мансублик мавқеидан қониқиш даражаси. Бунда, қонунлар ва демократик қадриятлар устуворлигига асосланган жамиятнинг шаклланиши ва сақлаб қолиниши энг муҳим аҳамиятга эга;

---

<sup>108</sup> М.Н.Рыбина. Россиянинг бозор иқтисодиёти маконида ўрта қатламни излаб. // Россия регионлари аҳолисининг турмуш даражаси, 5-6, 2006.



– ўрта синф вакиллари эга бўладиган алоҳида менталитетнинг мавжуд бўлиши. Бунда, мазкур менталитетнинг кадриятлари тизимида ушбу синф вакилларининг ўзи ажралмас қисми бўлган давлатни ривожлантириш ғоясини ўз миссияси деб билиши алоҳида ўрин тутаети, бу эса ўрта синфни маданий ходиса сифатида белгилаш имконини беради.

М.К.Горшковнинг кайд этишича, ҳозирги вақтда Россия социологиясида ўрта синфни ажратиб олиш учун тўртта асосий ёндашув қўлланилади<sup>109</sup>.

Улардан **биринчиси** ўрта синфга, аввало, нисбатан юқори ҳаётий стандартлар ва харажатлар даражаси билан характерланувчи оммавий ижтимоий субъект сифатида қараш билан боғлиқ. Ушбу ёндашувга биноан, ўрта синфни ажратиб олиш мезони сифатида жон бошига даромад даражаси ёки қимматбаҳо мол-мулкнинг муайян тўпламига эга бўлишдан фойдаланилади.

**Иккинчи ёндашув** ўрта синф мезонларини белгилашда индивидларнинг ўзига хос психологик жиҳатларига эътибор қаратади. Чунки синфнинг ижтимоий жиҳатдан ўзини ҳис қилиши ҳамда ижтимоий-сиёсий кайфият ва хулқ-атворга айнан улар энг кучли даражада таъсир кўрсатади. Бу ҳолатда ўрта синф инсонларнинг ўзи ҳақидаги фикри, ўзини ўзи ўрта синф таркибига “киритиши” асосида ажратиб олинади.

**Учинчи ёндашув** доирасида ўрта синф иккига: “янги” ўрта синф (ривожланган инсон капитали ёки ҳокимият ресурсларига эга бўлган менежерлар ва мутахассисларни ўз ичига олади) ва “эски” ўрта синф – ўз иқтисодий капитали орқали дивиденд олувчи “кичик бизнес” вакилларига бўлинади.

Ўрта синфни таҳлил қилишнинг бундай ёндашуви асосида ҳокимият ваколатлари, у ёки бу инсон, уй хўжалиги, синф ва бошқалар эга бўлган капитал ҳажми, тури ва таркиби ётади.

---

<sup>109</sup> М.К.Горшков, Н.Е.Тихонова. Ҳозирги Россия жамятида ўрта синфни ажратиб кўрсатиш ва унинг сонини аниқлаш мезонлари // Бугунги Россияда ўрта синф. РФА Социология институти. – М.: 2008. 12-24-бетлар.

**Тўртинчи ёндашув** ўрта синфни ажратиб олишнинг анъанавий мезонларига таянади. Уларга муайян касбий белгилар, маълумот даражаси, мулкӣ-даромад сифатлари киради. Баъзан уларга, шунингдек, ўзликни англаш ҳам қўшилади. Ўрта синфнинг турли функцияларни бажариш қобилиятига қараб ушбу мезонлар рўйхати кенгайтиши мумкин. Мазкур ёндашув ўрта синфни эмпирик тадқиқ қилишда анча кенг тарқалган.

Кўпинча илмий адабиётларда ўрта синфни аниқлашнинг асосий, айрим ҳолларда эса ягона мезони сифатида моддий фаровонлик даражаси олинади. Ушбу мезоннинг бу қадар кўп ишлатилишига сабаб уни ҳисоблашнинг осонлиги ва аҳолининг истемолчилик хулқ-атворини тадқиқ қилишга бўлган талабдир.

Масалан, америкалик олимлар Н.Бердсолл, К.Грэхэм ва С.Петинато<sup>110</sup> ўз тадқиқотларида турли мамлакатлардаги ўрта қатламнинг ҳажмини аниқлаш ва уни тавсифлашда аҳоли даромадлари кўрсаткичларидан фойдаланган. Муаллифлар ўзларининг бу танловини изоҳлар экан, мазкур мезон мамлакатлараро тадқиқотлар ўтказиш ҳамда ўрта қатлам ҳажмининг вақт ўтиши билан ўзгаришини қайд этиш имконини беради, деб таъкидлайди.

Қайд этиш жоизки, бугунги кунда биздаги ижтимоий фанларда гарчи ўрта қатламга ўзининг таърифини ва унинг сонига турлича баҳосини берган турфа хил адабиётлар бўлса-да, унинг умумий қабул қилинган ва эмпирик жиҳатдан асослангирилган таркибий модели мавжуд эмас<sup>111</sup>. Социологик тадқиқотларда ўрта қатламнинг ягона талқини йўқ. Кўпинча, у ҳақда гап кетганда ижтимоий табақаланиш тизимида оралиқ поғонани эгаллаган, ҳолати, онги ва сиёсий хулқ-атвори турфа хил бўлган синф тушунилади.

Ҳар бир мамлакатнинг ўрта қатлами ўзининг алоҳида хусусиятларига эга. Турли мамлакатларда ўрта қатламни ўлчаш учун, қоида тариқасида, табақаланиш белгиларининг ўхшаш тизимлари қўлланилади. Одатда, ўрта

---

<sup>110</sup> N. Birdsall, C. Graham, S. Petinato. Stuck in the Tunnel: Is Globalization Mudding the Middle Class? // Carnegie Endowment for International Peace. Discussion Paper No 1. November 2000.

<sup>111</sup> Л.Григорьев, А.Салмина, Кузина. Россия ўрта қатлами: унинг таркиби ва молиявий хулқ-атвори таҳлили. – М.: Экон-Информ, 2009.

катламни аниқлаш учун қуйидаги бир нечта асосий мезонлар ажратиб кўрсатилади<sup>112</sup>:

- 1) моддий фаровонлик (моддий мақом);
- 2) ишлаб чиқариш воситаларига (капиталга) эгалик қилиш;
- 3) касбий-лавозим (ижтимоий-профессиянал) мақоми;
- 4) сиёсий мақом;
- 5) ижтимоий мобиллик салоҳияти;
- 6) турмуш тарзи (шакли)нинг нуфузга эгалиги;
- 7) ижтимоий обрў.

Қуйидаги жадвалда ўрта қатламни ажратиб кўрсатишнинг мамлакатлараро қиёсий таҳлили келтирилган.

### **Ўрта қатламни ажратиб олиш мезонларини таққослаш**

*1-жадвал*

<b>Мамлакат</b>	<b>Ўрта қатламни ажратиб олиш мезонлари</b>
АҚШ	<ul style="list-style-type: none"> <li>- даромад даражаси</li> <li>- таълим даражаси</li> <li>- ўзини англаш даражаси</li> <li>- кредитдан фойдаланиш</li> </ul>
Буюк Британия	<ul style="list-style-type: none"> <li>- таълим даражаси</li> <li>- даромад даражаси</li> <li>- касбга мансублик</li> </ul>
Германия	<ul style="list-style-type: none"> <li>- даромад даражаси</li> </ul>
Польша	<ul style="list-style-type: none"> <li>- касбга мансублик</li> <li>- нисбатан юқори турмуш даражаси (даромад жамғариш, активлар, хусусан, жамғармалар ва уларни ишлатиш)</li> <li>- мол-мулк</li> <li>- ўзига хос дунёқараш, эътиқодлар ва қадриятлар</li> </ul>

<sup>112</sup> Л.Григорьев, А.Салмина. Россияда ўрта қатлам: миқдор ва сифат жиҳатдан баҳолашлар. М. ТИЕС, 2000. 46-48-бетлар.

	- турмушнинг моддий стандарти ва эътикод билан боғлиқ хулқ-атвор
Россия	- касбий таълимнинг юқори даражаси (олий маълумотга эгаллик) - даромад даражаси - истеъмол намуналари (даражаси) - ўзини англаш даражаси
Беларусь	- мулкка эга бўлиш - даромад даражаси - таълим даражаси - касбининг нуфузи - ўзини англашнинг аниқ шакли (ўзини англаш даражаси) - турмуш тарзи - қадриятлар тизими ва менталитети
Украина	- ўзини англаш даражаси - таълим даражаси - моддий жиҳатдан қаноатланганлик - машғулот тури

Санаб ўтилган мезонлар бир хил қийматга эга эмас, яъни ўрта қатламни аниқлашда улардан бири бошқасига нисбатан кўпроқ таъсирга эга. Ушбу мезонларнинг вазни маданий-тарихий муҳитга боғлиқ.

Сўнгги бир неча ўн йилликларда бозор иқтисодиётига ўтган мамлакатларда моддий фаровонлик ва касбий-лавозим мақоми кўрсаткичлари биринчи ўринга кўтарилди.

Ўрта қатламга киритиш бўйича келтирилган мезонлар исталган мамлакат учун аҳамиятга эга бўлиши мумкин, бироқ бу жараён миллий иқтисодиёт тараққиётининг маълум бир даражасида уни таҳлил қилмасдан туриб амалга оширилмаслиги лозим. Чунки ҳар қандай мезонлар, табиийки,

нисбий катталиқдир ҳамда бутун мамлакатдаги иқтисодий вазиятни инобатга олган ҳолда кўриб чиқилиши керак.

Шундай қилиб, биз амалга оширган қиёсий таҳлил кўрсатдики, ўрта қатламни аниқлаш мезонлари ҳар бир мамлакат учун ҳар хил хусусият касб этади. Бу эса, ўз навбатида, мамлакатлараро қиёсий таҳлиллар ўтказиш имкониятини маълум маънода чеклаб қўяди.

Умуман олганда, “ўрта қатлам” тушунчаси ижтимоий табақалашнинг жуда кўп муҳокама қилинадиган ва турлича талқин этиладиган категорияси ҳисобланади. Ўрта қатлам мавжудлиги тўғрисидаги масалага тўхталар эканмиш, таъкидлаш лозимки, қайси гуруҳ ўрта қатлам функциясини бажарса, ўша қатлам “ўрта қатлам” деб баҳоланади. У ўзининг аналогларидан бошқа жиҳатлари билан фарқ қилиши мумкин. Чунки, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий ривожланиш турли давлатларда турлича. Ўрта қатлам аввал ҳам бўлган ва бундан кейин ҳам бўлади. Улар ҳеч қачон бутунлай “йўқолиб кетмайди”. Фақатгина уларнинг ўлчами, характери ва таркиби ўзгариб туради.<sup>113</sup> Шунга кўра, ҳар бир жамиятда ўрта қатламни аниқлашда унинг жамиятдаги ўзига хос функциясидан келиб чиқиш лозим.

Жамиятнинг ижтимоий тузилмасини баён этувчи замонавий назария иккита асосий манбага бориб тақалади – К.Маркс ва М.Вебер назариялари. Бу назариялар кўп ҳолларда бир-бирига қарши қўйилади. Лекин улар ўзаро бир-бирини тўлдиради. Ҳар иккала концепция синфий тузилма ривожланишини бозор ва хусусий мулкка асосланган капиталистик жамиятнинг феномени сифатида кўриб чиққан. К.Маркс ҳам, М.Вебер ҳам синф категориясидан ижтимоий-иқтисодий гуруҳларни аниқлашда фойдаланган ва мулкни синфий табақаланиш асоси сифатида кўриб чиққан.

Бугунги “ўрта қатлам” тушунчасини аниқлаш бўйича бир қанча ёндашувлар мавжуд. Улардан бири қуйидаги назарияга асосланган: ўрта қатлам – бу юқори ва қуйи қатлам ўртасида жойлашган жамият қатлами.

---

<sup>113</sup> Средние классы в России: экономические и социальные стратегии / Е. М. Аврамова и др.; Под ред. Т. Малевой. Моск. Центр Карнеги. – М.: Гендальф, 2003. – С. 29-30.

Бундай қарашнинг асосида фақат иқтисодий мезон ётибди. Яъни бунда инсонларнинг мулкӣ ҳолати даражасига қараб жамиятни табақалаштириш назарда тутилган. Масалан, Ғарбда ўртача бир ойда 2-2,5 минг евро даромадга эга шахс реал ўрта қатламга киритилган.

**Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИХТТ) версияси:** ИХТТ даромади аҳолининг умумий даромади медианасининг 75-200% га тўғри келадиган одамларни ўрта қатламга қўшади. Медиана кўрсаткичи ўша ораликнинг айнан ўртасида бўлган шахс даромадини англатади. Яъни, аҳолининг ярми бу кўрсаткичдан паст, ярми юқори даромад олади.

**Credit Suisse версияси:** энг йирик банк конгломератларидан бири ўзининг турли мамлакатлар аҳолисининг фаровонлиги тўғрисидаги йиллик Global Wealth Report маърузасида ўрта қатлам ҳолатига ҳам эътибор қаратади.

Credit Suisseнинг талқинига кўра, инсон ушбу қатламга қўшилиши учун 5-25 минг доллар, яъни жорий курс бўйича ойига тахминан 5-25 млн сўм пул топиши керак эди.<sup>114</sup>

**The World Data Lab версияси:** 2018 йилда консалтинг компанияси дунё аҳолисининг қарийб ярмини, яъни 3,59 миллиард кишини ўрта қатлам ва бойлар қаторига киритди. Ҳисоб-китобларда компания дунёда кенг қўлланиладиган усулдан фойдаланган. Унга кўра кунига 11–110 доллар ишлаб топадиган ҳар бир киши ўрта қатлам ҳисобланади. Тадқиқот муаллифлари ўрта қатламга аниқ тавсиф берилмаганлигини эътироф этиб, уни қуйидагича таърифлайдилар: ўрта қатлам вакилининг даромади унга узоқ муддат фойдаланиладиган товарлар (масалан, автомобил, музлаткич ёки бошқа йирик маиший техника) сотиб олиш, таътилни режалаштириш, бўш вақтни ўтказиш ва касаллик ёки ишдан бўшатиш тақдирда қашшоқлик чегарасидан пастга тушмаслик учун етадиган пулни жамғариш имконини бериши керак.

---

<sup>114</sup> <https://www.credit-suisse.com/corporate/en/research/research-institute/global-wealth-report.html>

Шу билан бирга, The World Data Lab ўрта қатламнинг ўсишини ва 2030 йилга бориб 5,3 миллиард кишигача етишини тахмин қилмоқда. Ва унинг катта қисми Осиё минтақаси аҳолисига тўғри келади.

Бундан ташқари, компания таҳлилчиларининг фикрича, ўрта қатлам вакиллари йирик корхоналар учун муаммо келтириб чиқариши мумкин. "Кўпчилик трансмиллий корпорациялар доим маълум маънода бир хил маҳсулотни таклиф қиладилар ва ўрта қатлам эса ўзига хос, яъни ажралиб турадиган таклифларни яхши кўради", дейди Брукингс институтининг катта тадқиқотчиси, The World Data Lab тадқиқоти раҳбари Хоми Харас. Унинг фикрича, давлат ҳам ўрта қатламни эътиборсиз қолдира олмайди, чунки айнан у кўпинча фуқаролик жамиятининг ҳаракатлантирувчи кучига айланади.<sup>115</sup>

**Жаҳон банки** мутахассиси Мартин Раваллион томонидан қўлланилган энг кенг қамровли ҳисоб-китобда кунига 2 доллардан 13 долларгача даромад оладиган ҳар қандай кишини ўрта қатламга киритади. Ривожланаётган бозорларда ўрта қатламнинг кенгайишини ўлчаш учун мўлжалланган ушбу таъриф Жаҳон банкининг 2 долларлик қашшоқлик чегарасидан ўтганларни ўз ичига олади. Мазкур метод ёрдамида Хитой ва Ҳиндистон сўнгги ўн беш йил ичида бу борада ақл бовар қилмайдиган ютуқларга эришди ва ҳақиқий ўрта қатламни шакллантирди. Аммо қиёсий қиймат ва қамроқни инобатга олсак, илғор Ғарб иқтисодиётида яшовчиларнинг аксарияти бу мезонга кўра жуда камбағал бўлиб чиқади.<sup>116</sup>

**Global Journal of Human Social Science (Ижтимоий-гуманитар фанлар бўйича глобал журнал, АҚШ) версияси:** ўрта қатлам – бу муайян даражада барқарор ҳамда моддий ва ижтимоий эҳтиёжларнинг кенг доирасини қондириш учун етарли даромадга эга одамларнинг ижтимоий гуруҳидир.

Бу қатламнинг ўзига хос хусусияти унинг юқори таълим даражасидир. Ўрта қатламнинг функциясига янги маҳсулотлар ва инновацияларни жорий

---

<sup>115</sup> <https://www.ft.com/content/e3fa475c-c2e9-11e8-95b1-d36dfef1b89a>

<sup>116</sup> Shannon K. O'Neil. Measuring the Global Middle Class. Ташқи алоқалар кенгаши, [www.cfr.org](http://www.cfr.org)

этиш, экспертлик меҳнати натижаларини такрор ишлаб чиқариш ва, эҳтимол, жамиятда узоқ муддатли тинчлик ва барқарорликни қўллаб-қувватлашни ўз ичига олади.<sup>117</sup>

Ўрта қатламни тавсифлашга нисбатан ягона ёндашувнинг йўқлиги ушбу тоифанинг турлича талқинларига олиб келади. Илмий ишларда ўрта қатламни аниқлашда кўплаб ёндашувлар мавжуд: улар жорий шахсий даромад даражаси, ўзини ўзи англаш, таълим, маданият, малака даражаси, фундаментал кадриятлари, иқтисодий ва ижтимоий фаолият учун мотивация, хусусий мулк, ва бошқалар .

Мезонларнинг кўплиги ўрта қатламнинг ҳажмига оид жуда хилма-хил натижаларга сабаб бўлади. Иқтисодий сиёсат объекти сифатида ўрта қатлам ҳажмининг аниқ тавсифи йўқлиги ўрта қатламнинг иқтисодий тизимдаги функцияларини чуқурроқ ўрганишни ва унинг жамият таркибидаги улушини жиддий ошириш бўйича иқтисодий сиёсат мақсадларига эришишни қийинлаштиради.

Ўрта қатлам чегарасини аниқлаш бўйича турли методологик ёндашувларни умумлаштирган ҳолда айтиш мумкинки, уни ажратишнинг учта йўналиши мавжуд: “шахсий эътироф” ёки субъектив метод; “обрў-эътиборни баҳолаш” методи; объектив ёндашув.

Кўплаб замонавий тадқиқотчилар ўрта қатламни аниқлашда объектив ва субъектив кўрсаткичлар комплексидан фойдаланади. Булар:

- ҳаёт сифатини белгиловчи фаровонлик даражаси;
- юқори малакали ишларни бажариш имконини берувчи таълим ва маданият даражаси;
- иқтисодий мустақиллик ва капитални кўпайтиришга бўлган интилишларни акс эттирувчи иқтисодий хулқ-атвор;
- дунёкарашнинг аниқ белгиланган кадриятлари ва ҳ.к.



Ўрта қатлам тадқиқотчилари қарашларида унинг профессионал таркибини аниқлашда тафовут жуда кичик. Улар профессионал таркибга илмий ва инженер техник ходимларни, ёлланма асосда ишловчи бошқарув персоналларини (ўрта қатлам бошқарувчиларини), зиёлилар, шаҳар ва қишлоқнинг кичик ва ўрта мулкдорлари (шу жумладан, фермерларнинг катта қисми), моддий ва номоддий ишлаб чиқариш соҳасидаги юқори малакали ишчилар (юқорида таъкидланганидек, ушбу масала бироз баҳсли), эркин касб эгалари. Шубҳасиз, юқори даражадаги таълим кўплаб олимлар томонидан ўрта қатламнинг асосий омилларидан бири сифатида таъкидланади. Ўрта қатлам учун моддий ва номоддий манфаатдорлик, ҳаёт тарзи ўзига хос характерга эга.

Замонавий ижтимоий-фалсафий адабиётларда ўрта қатламни аниқлашда нормативистик ва релятивистик қарашлар қўлланилган. Нормативистик ёндашувга кўра, ривожланган Ғарб жамияти стандартлари асосида ўрта қатламнинг қандайдир идеал модели яратилади ва тадқиқотчилар бошқа жамиятларни таҳлил қилишда ушбу моделдан фойдаланади. Мисол учун, Ғарб давлатларида ушбу модель асосида ўрта қатламни ташкил этувчи профессионал қатлам аниқлаб олинади ва унинг хусусиятлари асосида бошқа барча жамиятлар таҳлил қилинади (шу жумладан, Марказий Осиё ёки бошқа минтақа давлатлари).

Релятивистик ёндашув эса, аксинча, ҳар бир тарихий давр, ҳар бир аниқ мамлакат учун унинг ўзига мос келадиган ўрта қатлам модели яратилади. Албатта, ҳар бир ёндашувдан ўрта қатламни ўрганиш учун фойдаланиш мумкин. Буни инкор этиб бўлмайди.

Ижтимоий тузилма ва ўрта қатламни тадқиқ қилиш ҳолати солиштирилса, ҳаттоки Россия ва Ўзбекистон таққосланганда, биз бу масалада анча орқада эканлигимиз кўзга кўринади. Чунки Россияда бутун бир илмий ҳамжамиятлар ижтимоий тузилма, ижтимоий табақаланиш, ўрта қатлам ва улар билан боғлиқ муаммоларни ўрганади. Ўзбекистонда индивидуал назарий хулосалар билан чегараланилмоқда. Бизнинг фикримизча, ўрта қатламни

ўрганиш масаласида комплекс ёндашув зарур. Жамиятнинг асосий бўғини ҳисобланган ўрта қатламни ривожлантириш ўта муҳим ҳисобланади.

### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Еврипид. Умоляющие. Перевод Иннокентия Анненского. Еврипид. Трагедии. В 2 томах. Т. 1.
2. “Литературные памятники”. – М., Наука, Ладомир, 1999. – С. 9
3. Спенсер Г. Основания социологии. –СПб., 1898. – Т.1. – С. 244.
4. Маркс К., Энгельс Ф. Манифест Коммунистической партии. – М.: Политиздат, 1980. – С. 36.
5. Заславская Т.И., Громова Р.К. К вопросу о «среднем классе» российского общества // Мир России. – 1998. – № 4. – С. 29-40.
6. Заславская Т.И. Социетальная трансформация российского общества. Деятельностно-структурная концепция. – М.: Дело, 2002. – С. 471.
7. П.А.Сорокин. Инсон. Цивилизация. Жамият / А.Ю.Согомоновнинг сўзбошиси билан ва умумий тахрири остида. Инглиз тилидан таржима – М.: Политиздат, 1992, 159-162-бетлар.
8. Сорокин П.А. Система социологии: В 2-х т. Т. 2: Социальная аналитика. – М., 1993. – С. 376.
9. Л.И.Стадниченко, О.Н.Беленов. “Истеъмолчилар хулқ-атвори. Ўқув кўлланма. Воронеж: Воронеж давлат университети нашриёти, 2001.
10. М.Н.Рыбина. Россиянинг бозор иқтисодиёти маконида ўрта қатламни излаб. // Россия регионлари аҳолисининг турмуш даражаси, 5-6, 2006.
11. М.К.Горшков, Н.Е.Тихонова. Ҳозирги Россия жамиятида ўрта синфни ажратиб кўрсатиш ва унинг сонини аниқлаш мезонлари // Бугунги Россияда ўрта синф. РФА Социология институти. – М.: 2008. 12-24-бетлар.
12. N. Birdsall, C. Graham, S. Petinato. Stuck in the Tunnel: Is Globalization Mudding the Middle Class? // Carnegie Endowment for International Peace. Discussion Paper No 1. November 2000.
13. Л.Григорьев, А.Салмина, Кузина. Россия ўрта қатлами: унинг таркиби ва молиявий хулқ-атвори таҳлили. – М.: Экон-Информ, 2009.

14. Л.Григорьев, А.Салмина. Россияда ўрта қатлам: миқдор ва сифат жихатдан баҳолашлар. М. ТИЕС, 2000. 46-48-бетлар.

15. Средние классы в России: экономические и социальные стратегии / Е. М. Аврамова и др.; Под ред. Т. Малевой. Моск . Центр Карнеги. – М.: Гендальф, 2003. – С. 29-30.

16. <https://www.credit-suisse.com/corporate/en/research/research-institute/global-wealth-report.html>

17. <https://www.ft.com/content/e3fa475c-c2e9-11e8-95b1-d36dfef1b89a>

18. Shannon K. O'Neil. Measuring the Global Middle Class. Ташқи алоқалар кенгаши, www.cfr.org

19. Global Journal of Human Social Science, Sociology & Culture. Volume 13 Issue 7 Version

## **КРЕАТИВ ҲИСОБНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШДАГИ РОЛИ**

**Аслиддин Махмудов**

**ТДИУ тадқиқотчиси**

Бухгалтерия соҳасида илмий фикр бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш мақсадлари учун ижодий ёндашув нуқтаи назаридан доиморивожланмоқда. Иқтисодий адабиётларда бухгалтерия ҳисоби жараёнига ва ҳисобот беришга таъсир қилувчи профессионал фикрга оид баҳс-мунозарали нуқтаи назарлар пайдо бўлди. Бунинг оқибатида хорижий адабиётларда турли мамлакатлар олимлари томонидан турли нуқтаи назар ва позицияларда кўриб чиқилган креатив ҳисоб тушунчаси пайдо бўлди.

Шунингдек, сўнгги вақтларда дунёнинг ривожланган мамлакатларида йирик компанияларнинг биржа қийматини ошириб кўрсатиш, асоссиз кўшимча дивидендларни тўлаш, соф фойдани кўпайтириб қайд этиш тенденцияси кузатилмоқда. Бу бухгалтерия ҳисобини юритиш ва ҳисоботни тузишга креатив ёндашув натижасида пайдо бўлди.

Креатив ҳисоб ёки ижодий ёндашиладиган ҳисоб инглиз тилидаги creative (ижодий) сўзидан олинган. Креатив ҳисоб бухгалтернинг

профессионал фикрларидан фойдаланган ҳолда манфаатдор шахслар учун молиявий ҳисоботларнинг жозибadorлигини оширадиган ва фаолият кўрсатаётган компанияси учун солиқ юкини камайтирадиган қонуний усуллар тўпламини ифодалайди. Шундай қилиб, бухгалтернинг ижодий ёндашуви давлат нуқтаи назаридан қараганда бюджет ва ташкилотнинг ўртасидаги бюджетни тўлдириш масаласидаги ўзаро муносабатларига салбий таъсир кўрсатади. Хорижда креатив ҳисоб нисбатан мақбул кўринишида - бу умумий қабул қилинган амалиётга ёки белгиланган меъёрлар ва тамойилларга мос келмайдиган ҳар қандай ҳисобга олиш усулидир. Энг салбий кўриниши эса, акциядорлар, инвесторлар ва бошқа манфаатдор фойдаланувчилар олдида ўз фаолиятларини янада мақбул ва ижобий кўринишда тақдим этиш мақсадида компаниядаги ҳисобни ўзгартириш жараёнидир, деган қарашлар мавжуд.

Ҳисобнинг креативлиги ахборот йўналишига ва унинг бошқарувда кўлланилишига боғлиқ бўлмайди, балки бухгалтернинг бухгалтерия ҳисобини бошқарув мақсадлари учун жорий қилиш ҳамда ташкил этишга таъсирини тавсифлайди. Бизнингча, креатив ҳисобни бухгалтернинг профессионал фикрини корхонани ўз олдига қўйган мақсадидан келиб чиқиб, ишончли, сифатли бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларни тайёрлашга таъсири нуқтаи назаридан кўриб чиқиш керак.

Ҳозирги кунда иқтисодий адабиётларда креатив ҳисоб асосан корхонанинг ҳақиқий молиявий ҳолатини хаспўшлаб кўрсатиш воситаси сифатида қаралади. Шу муносабат билан, молиявий ҳисоботларда йўл кўйиладиган хатолар иккита тур: рақамларни нотўғри акс эттириш ва сохталаштиришга ажратилади. Рақамларни нотўғри акс эттириш ҳар доим ҳам қасддан қилинмайди ва баланс тузувчиларнинг малакасини пастлиги ёки бепарволиги туфайли юзага келиши мумкин, лекин одатда қасддан қилинади. XX асрда хорижий олимлар бундай ҳисобни алдов, бироқ меъёрий хужжатлар ва тартибга солувчи хужжатлар асосида амалга ошириладиган алдов деб ҳисоблаган. Иқтисодий адабиётлар тадқиқоти шуни кўрсатдики, бу йўналиш бухгалтерия ҳисобини инглиз-саксон мактабига тегишлидир. Ушбу мактабда

бухгалтерия ҳисобини малакали бухгалтерлар институти томонидан ишлаб чиқилган қоидаларга кўра ташкил этилиши устувор ҳисобланади. Умуман олганда, кўплаб хорижий тадқиқотчиларнинг ижодий ҳисоб масаласига муносабати салбий ҳисобланади. Бухгалтерия ҳисоби қонун билан қатъий тартибга солинган мамлакатларда бундай ҳисоб унчилик ривожланмаган. Буни асосий сабаби уларда даромадлар, молиявий қийинчиликлар, қарздорликнинг мавжудлиги ёки корxonани молиявий барқарор қилиб кўрсатиш мақсадида рақамларни атайин пасайтириш имконияти кам бўлади.

Россияда эса креатив ҳисоб кўпинча бухгалтерия ҳисобини одатдаги солиқ ҳисоби, бошқарув ҳисоби, кичик корxonалар ҳисоби элементлари каби мустақил элемент сифатида қаралмоқда. Бу тўғри албатта. Чунки креатив ҳисоб бизнесни юритиш шартларидан келиб чиқиб, ижодий ёндашув корxonаларнинг иқтисодий муаммоларини ҳал қилиш ва фаолият объектларини оқилона бошқариш имконини берадиган ҳолатларда қўлланилиши керак. Креатив ҳисоб аслида мавжуд бухгалтерия стандартлари ичидан турли ҳисоб технологияларини танлаш демакдир.

Креатив ҳисобни кенг тарқалган усулларига қуйидагилар киради:

- харажатларни қонун ҳужжатларида белгиланган счетлардан бошқасига ҳисобдан чиқариш;

- савдо ҳажмини ошириш мақсадида ўзаро тил бириктириш орқали ширкатлар ўртасида бир хил товарни сотиш бўйича операцияларни амалга ошириш;

- компаниянинг даромадларини сезиларли даражада бузилишига олиб келадиган бозор баҳосида эмас, балки шартнома нархларида амалга ошириладиган акциялар, дастурий таъминот ёки бошқа технологиялар учун хизматлар алмашиш бўйича бартер битимлари;

- капитал таркибини сунъий равишда яхшилайдиган ва қўшимча маблағларни паст нархларда жалб қилиш имконини берадиган балансда манбаси кўрсатилмаган балансдан ташқари молиялаштириш.

Бу чора - тадбирларнинг барчаси қоғозда савдо ҳажми, даромад ва охиروقибат-компания бозор қийматини сунъий оширилишига олиб келади. Шу билан бирга, раҳбарлар мазкур ҳолатда қуйидаги турли мақсадларни кўзлашлари мумкин:

- компаниянинг ривожланиш истиқболларини яхшилаш;
- акцияларга эга бўлиш орқали даромад олиш ва опционлар тизими орқали наф кўриш мақсадида ҳар қандай йўл билан компаниянинг юқори бозор қийматига эришиш.

Кўпинча асосий мақсад инвесторларни истак хоҳишларини қондириш ҳисобланади. Кўпгина ҳолларда оддий қоида мавжуд: агар компанияни эълон қилинган молиявий кўрсаткичлари инвесторларнинг талабларига жавоб берса, компаниянинг қиймати ёки компаниянинг улуши ортади.

Ғарб таҳлилчилари томонидан олиб борилган ижтимоий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, креатив ҳисобга бўлган муносабат хорижий мамлакатларда турличадир. Таққослаш базаси сифатида Европанинг иккита мамлакати - Испания ва Буюк Британия олинган. Тадқиқот жуда қизиқарли натижалар берган: креатив ҳисобнинг бизнес воситаси сифатида қонунийлигига муносабат тахминан тенг бўлган. Буюк Британия ва Испанияда креатив ҳисоб муаммосининг ҳал қилинишига муносабат аксинча бўлиб чиқди. Британиялик респондентларнинг 91 фоизи, Испанияда эса 38 фоизи креатив ҳисобни ҳал қилиб бўлмайдиган муаммо деб билади.

Ривожланган Европа ва АҚШ мамлакатларида бухгалтерия ҳисоби манипуляцияси муаммоси бухгалтер ва аудиторларнинг касбий этикасини такомиллаштириш орқали ҳал қилинади. Бухгалтерияга оид ахлоқ кодексини яратиш бўйича ишларни кучайтирилиши, биринчи навбатда, АҚШда бухгалтерия ҳамжамияти томонидан содир этиладиган қонунбузарликларга йўл қўймасликка уринишдир. Бу борада бухгалтерия уюшмалари Янги Зеландия тажрибасига жуда оптимистик қарашади. У ерда бухгалтерия ҳисоби стандартлари ва бухгалтерия ҳисобини қонуний тартибга солиш тизими бухгалтерларнинг ўзини ўзи тартибга солувчи ташкилотлари фаолияти билан

биргаликда бухгалтерия ҳисобининг ижодий технологияларидан фойдаланиш имкониятларини энг паст даражага туширган.

Ҳозирги кунда креатив ҳисобни тарафдорлари ва танқидчилари мавжуд. Танқидчилар унга турлича қонунийлаштирилган фирибгарлик сифатида қарашади. Бу молиявий ҳисоботнинг ташқи ва ички фойдаланувчиларини қалғитиш ва алдашга олиб келади, деб ҳисоблашади. Креатив ҳисоб тарафдорлари уни муайян объектларни ҳисобга олиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни шакллантириш, бухгалтерия балансини тузиш, фойдаланувчилар учун ички ҳисобот тақдим этиш билан боғлиқ ижодий жараёни кўришади. Натижада, ушбу ҳисоб-китоб тартиб-қоидаларини амалга оширишда бухгалтернинг профессионал фикрига таянилади. Шундай қилиб, профессионал фикр креатив ҳисобнинг бир қисми ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Егорова С. Е., Юданова Л. А. Профессиональное суждение бухгалтера и учет расходов будущих периодов / С. Е. Егорова, Л. А. Юданова // Современное состояние и перспективы развития бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита: материалы международной научно-практической конференции/под научной редакцией Е. М. Сорокиной. – Иркутск, 2015. – С. 208–213.
2. Жук В., Гриявський С., Нагірска К. Стратегічне судження бухгалтера. Економічний часопис Волинського національного університету імені Лесі Українки. РОЗДІЛ II. Облік, аналіз, аудит та оподаткування. 4, 2021.
3. Шевелева, Е.А. Профессиональное суждение бухгалтера в условиях перехода к цифровой экономике / Е.А. Шевелева // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». – 2020. – Т. 14, № 2. – С. 129–136.
4. Пономарева С.В, Мироненко В.М. Механизм профессионального суждения в реализации принципов бухгалтерского учета. Экономика: проблемы, решения и перспективы. Вестник университета. № 7-8, 2017.
5. Миславская Н.А. Профессиональное суждение: научный аспект. Аудит и финансовый анализ. 1'2016.

6. Бодяко А. В. Консолидация плановой и отчетной информации для внутрикорпоративного контроля в предпринимательских структурах холдингового типа [Электронный ресурс] / А. В. Бодяко // Российский экономический интернет-журнал. – 2016. – № 3. – С. 4. – Режим доступа : <http://www.re-j.ru/archive/2016/3>; Горлов В. В. Теоретический анализ категориального аппарата управленческого учета [Электронный ресурс] / В. В. Горлов, Т. М. Рогуленко // Российский экономический интернет-журнал. – 2016. – № 4. – С. 50. – Режим доступа : <http://www.re-j.ru/archive/2016/4>

## **ПАРРАНДАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА ОЗУКАГА БЎЛГАН ТАЛАБНИ АНИҚЛАШ**

**Алланиязов Парахат Атаниязович**

*Қорақалпоқ давлат университети*

*мустақил изланувчиси*

Парранда озиклари, айрим озик ва микроқўшимчаларга бўлган талабини ҳисоблаш услубини урганишда паррандачилик хўжаликларининг омихта ем ва унинг айрим ташкилий қисмларига талаби икки усул билан аниқланади [1].

Паррандачилик хўжаликларининг меъёрлари бўйича махсулот бирлиги учун сарфланадиган миқдорига ёки парранданинг омихта емни ейиш даражасига қараб белгиланади. Иккала усулни амалий мисолларда кўриб чиқамиз. Паррандачилик хўжаликларининг келгуси йилда 50 минг товук асраш режалаштирилган. Махсулот бирлигида озик сарфи меъёр бўйича. Дастлаб товукларнинг режалаштирилган тухум махсулдорлиги аниқланади [2].

Ҳар бир бош товукдан 240 донадан тухум олиш мўлжалланган. Шундай қилиб, жами ишлаб чиқариладиган тухум  $50\,000\text{ товук} * 240\text{ дона} = 12\,000\,000$  дона. Нормативлар бўйича 1000 дона тухум учун 2,1 ц озик сарфланади.

Бу ерда  $x = \frac{12000000}{100} 2,1 = 25000$  ц. Паррандачилик фермасининг омихта емга талаби 25000 ц экан. 1ц омихта емда (тахминан) 1,2 ц озик бирлиги



мавжудлигини ҳисобга олганда, омихта емга бўлган йиллик талаб  $25000 * 1,2=21000$  ц ни ташкил қилади. Парранданинг озик истеъмол қилиши бўйича. Тухум йуналишидаги товуқ зотларининг бир кунда истеъмол қиладиган озик миқдори 125 г бўлса, паррандаларнинг йиллик омихта емга бўлган талаби  $16500000 * 125 \text{ г} = 20625$  ц га боради. Шундай қилиб, иккала усулда ҳам бири-бирига яқин сонлар олинди: 21000 ц ва 20625 ц. Бу сонлардан қайси бири амалий жиҳатдан яхши деган ҳақли савол тутилади [3]. Чунки йуналишидаги паррандачиликда ҳам озикқа талаб яна икки усул бўйича аниқланади. Паррандачилик хўжаликларининг меъёрлари бўйича 200 минг бош урдакнинг тирик вазнини ўртача 2,6 кг ўстириш мўлжалланади. Бунда умумий тирик вазни  $200\ 000 * 2,6= 520$  минг кг ёки 5200 ц ни ташкил этади. Ҳар 1 ц усишга норматив бўйича 3,85 ц омихта ем, режалаштирилган тирик вазн учун эса 3,85 ц \* 5200=2002 тонна омихта ем талаб килинади (1-жадвал).

Озиқланадиган кунлар бўйича урдакларни ўстиришнинг давомийлиги 50 кун бўлса, озиқланадиган кунлар паррандачилик хўжаликларида  $50 * 200000$  бош = 10000000 бўлади. Агар озиқланадиган бир кунга масалан, 200 г омихта ем талаб қилинса, у вақтда жами озиқланадиган кунларга талаб 200 г 10 млн. = 2000 т. бўлади [4]. Омихта емнинг ташкилий қисмларига талабни аниқлашда озик рацион таркибидаги процент миқдори асос қилиб олинади. Масалан, товуқлар омихта емининг асосий рецептида маккажухори 25 г, арпа 15 г ва ҳ.к. Рецептда озиклар тўплами 100 г ҳисобида тўзилганлигида барча сонли кўрсаткичларни процент ҳисобида ҳисоблаш мумкин.

1- жадвал

**1 т омихта емга қўшимча киритиладиган витаминларнинг нормалари**

<b>Витаминлар</b>	<b>Миқдори</b>
А (ретинол), млн. иб	2,8
Дз (холе кальциферол), млн. иб	6,5
В) (тиамин)	2,0

B2 (рибоволафин)	4,0
B3 (пантотен кислота)	3,0
B12 (кобаламин), мг	0,015

Бизнинг мисолимизда паррандачилик хўжаликлари учун озиқларга бўлган йиллик талаб 21 000 ц, маккажуҳори бўйича 21000-100%, \* -25% ёки 21000ц \* 25:100=5250 ц, арпа бўйича 21000\*15:100=3150 ц ни ташкил этади ва ҳ.к. Ғалла ўсимликларнинг ўртача ҳосилдорлиги маълум бўлиб, омихта ем хўжаликнинг ўзида тайёрланадиган бўлса, озиқларнинг керакли микдорини олиш учун талаб қилинган ер майдонини ҳисоблаш мумкин. Масалан, маккажуҳори ҳосилдорлиги гектарига 40 ц бўлганда: 5250 ц:40 ц=131 га, яъни 131 гектар майдонга маккажуҳори экиш талаб қилинади. Юкорида келтирилганидек, омихта емнинг 1 тоннасига киритиладиган микроқўшимчаларнинг умумий меъёрлари қўйидаги жадвалларда келтирилади.

2- жадвал

**Омихта емга қўшимча киритиладиган аминокислоталарни нормалари, % ҳисобида**

<b>Паррандалар гуруҳи</b>	<b>Лизин</b>	<b>Метионин</b>	<b>Цистин</b>	<b>Триптофон</b>
Гўшт ва тухум йўналишидаги				
Товуқлар	0,80	0,32	0,28	0,17
Куркалар	0,80	0,32	0,25	0,15
Урдақлар	0,64	0,26	0,26	0,17
Ғозлар	0,63	0,35	0,20	0,16
Жужалар	0,67	0,30	0,20	0,14

Бройлер жужалар	0,95	0,38	0,27	0,18
Урдак жужалари	0,89	0,40	0,22	0,18

Масалан, паррандачилик хўжаликларидаги товуқлар учун умумий озикқа бўлган талаб 21000 ц бўлганда, озикқа киритиладиган дизим кўшимчаси  $21000 \cdot 0,8 : 100 = 16,8$  бўлади [5]. Худди шунга ўхшаш паррандачилик хўжаликларида витаминларга бўлган талаб ҳам ҳисобланади. Микроэлементларга бўлган талабни ҳисоблаш бир қанча мураккаброқдир. Масалан, товуқлар омихта емининг 1 тоннасига 50 г марганец ўнини қўшиш керак дейлик. Паррандачилик хўжалиги марганецни ўнинг тузлари сифатида олади. Айтайлик, бу сульфат бўлиб, тоза марганецнинг марганец сульфатга кўчириш коэффиценти 4,386 ташкил қилади. Бунда мазкур туз кўшимчаси бир тонна омихта ҳисобига  $50 \cdot 4,386 = 200$  г бўлади. Бизнинг мисолимизда 21000 т омихта емга бўлган умумий талаб, яъни паррандачилик хўжалигида марганец сульфатга бўлган умумий йиллик талаб  $21000 \cdot 220 \text{ г} = 462 \text{ кг}$  ни ташкил қилади. Паррандачилик хўжаликларидаги бошқа микроэлементларга бўлган талаблар ҳам юқорида келтирилган усулда ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Рўзиев Р.И ва б., Парранда боқиш бўйича тавсиянома. Тошкент-2017. 36 с.
2. 100 китоб тўплами Агробанк. Тухум йўналишидаги товуқларни парваришlash. 2021.
3. И.Хошимов, Т.Туйчиев. Паррандалар озиги ва парранда боқиш. Т., «Меҳнат» 1985. 250 с.

# MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNI KENGAYTIRISH DASTURI ORQALI HUDUDLARDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

*To'xtamurotova A.O.*

TDIU, "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasida assistenti

E-mail: [adolat0518@mail.ru](mailto:adolat0518@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish zarur shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv jarayoni muhim sanaladi. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish dasturi orqali hududlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat, oziq-ovqat xavfsizligi, iste'mol darajasi, mahsulot ishlab chiqarish, dastur.

Bugungi kunda mintqada sodir bo'layotgan iqtisodiy-siyosiy hamada keskin iqlim o'zgarishlari, hududlarda ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va taqchillikni oldini olish, narxlar barqarorligiga erishishda mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini ishga tushurish ayni damda dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Hususan Respublikaga qo'shni mamlakatlar bilan transchegaraviy suv masalalari bo'yicha muammolarni hal etish shuningdek mintaqada mamlakatlari qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilina foydalangan holda oziq-ovqat yetishtirish zanjirini uzviyligiga erishish masalasi muhimdir.

Xususan, 2022 yil boshida 80 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, yegulik mahsulotlar yetishtirish uchun aholiga ajratib berildi. Buning natijasida 785 ming kishi ish bilan ta'minlanib, 3 trillion so'mlik 1 million 500 ming tonna qo'shimcha oziq-ovqat hosili olingan. Mamlakatimizda kartoshkaga bo'lgan yillik ehtiyoj 3 million 400 ming tonnani tashkil qiladi. Shundan 20-25 foizi import hisobidan qoplanmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'istonga yiliga qo'shimcha 100 ming tonnaga yaqin, Navoiy viloyatiga 45 ming tonna, Jizzax viloyatiga 35 ming tonna kartoshka yetishmaydi. Yoki, o'simlik yog'iga yillik ehtiyojimiz 515 ming

tonna bo‘lib, buning 46 foizi xorijdan olib kelinmoqda. Yurtimizdagi yog‘-moy korxonalari esa to‘liq quvvatda ishlaymagan. Umuman, ichki bozorda 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ta‘minoti importga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlari narxining mavsumiy o‘zgarishlari ham sezilarli. Chunki qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan 50 ta tumanda muzlatkichli omborlar yetishmaydi. Umuman, bugungi kunda mavjud saqlash quvvatlari 1,5 million tonnani tashkil etib, jami yetishtirilayotgan mahsulotlarning 7 foiziga ham yetmaydi. Bu albatta “narx o‘ynashi”ga ta‘sir qiladi.

Yuqoridagi muammolar hududlarada mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini joriy etishga hamda ishga tushurishga turtki bo‘lmoqda.

Prezidentning 24.01.2022 yildagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-son qarori qabul qilindi.

2022 yilga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish dasturi tasdiqlandi, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning prognoz parametrlari;

➤ Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirish yig‘ma ko‘rsatkichlari;

➤ Iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirish bo‘yicha loyihalar ro‘yxati;

➤ Hududiy korxonalar tomonidan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirish bo‘yicha loyihalar ro‘yxati o‘rin olgan.

2022 yil 1 apreldan boshlab ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘shma moliyalashtirish yo‘nalishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi mablag‘lari quyidagilarga yo‘naltiriladi:

➤ marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish jarayonlarida texnologik ko‘maklashish, xorijiy mutaxassislar va konsalting kompaniyalari tomonidan jihozlarni o‘rnatish va ishga tushirish;

➤ tenderlar yoki texnologiya litsenziarlarining eng yaxshi takliflarini tanlash asosida aniqlanadigan zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskunalar qiymatining 50%ini to'lashga.

Ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'shma moliyalashtirish yo'nalishida investitsiya shartnomalari doirasida jalb qilingan xorijiy investorlarning mablag'lari, birinchi navbatda, ilmiy tadqiqotlar va tijoratlashtirishga tayyor bo'lgan texnologiyalar transferini qo'shma moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Tarmoqlararo kooperatsiyani qo'llab-quvvatlash sohasida transferga tayyor ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida Elektron kooperatsiya portali orqali sotishga ruxsat beriladi.

Shuningdek, respublika hududida avval ishlab chiqarilmagan, mahalliy korxonalar tomonidan o'zlashtiriladigan mahsulotlarni davlat organlari va ustav kapitalida davlat ulushi 50%dan ortiq bo'lgan korxonalar tomonidan o'rta muddatli shartnoma tuzish orqali kafolatli xarid qilish tizimi joriy etiladi. Bunda:

➤ kafolatli xarid qilish shartnomalari bo'yicha tanlovlar ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ro'yxati doirasida amalga oshiriladi;

➤ ichki bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ro'yxati Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali, Elektron kooperatsiya portali hamda manfaatdor vazirlik va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladi .

Bunda davlat organlari va ustav fondida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'zining import mahsulotlarga talabi asosida mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlarni o'zlashtirayotgan korxonalar bilan kafolatli xarid qilish to'g'risidagi shartnomalarni tuzishga ruxsat beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish dasturi orqali hududlar bozorlaridagi mavsumiy taqchill mahsulotlar hamda ushbu mahsulotlarning o'rnini bosuvchi yangi turlarini ishlab chiqarishini kengaytirish oraqli oziq-ovqat xavfsizligiga erishish mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishda meva-sabzavotchilikni kreditlash bo'yicha yangi tizim joriy qilinadi. Endi kartoshka, sabzavot, yog'-moy ekinlari ekadigan klaster va dehqonlarga hosilni sug'urtalash xarajatining 50 foizi davlat hisobidan qoplab beriladi. Bundan buyon paxta va g'alladagi kabi, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda ham sug'urta polisi kredit ta'minoti hisoblanadi. Bu yangilik ko'plab dehqonlarning ishini osonlashtiradi.

Mahsulotlar mo'l-ko'l bo'lishi sifatli uruqqa ham bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha har yili 300 ming tonna kartoshka, 6 ming tonna dukkakli va 11 ming tonna moyli ekinlar urug'ini tayyorlash zarur.

Bu borada Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida tadbirkorlar 450 sentnergacha hosil beradigan elita kartoshka urug'i yetishtirmoqda.

Prezidentimiz bu tajribani kengaytirib, xususiy sektor bilan birga, dukkakli va moyli ekinlar urug'chiligida ham yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Har bir viloyatda kamida bittadan intensiv sabzavot ko'chatchilik xo'jaligi tashkil etish, hosildor yerlarning barchasini intensivga o'tkazish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda, shuningdek qish-bahor oylarida meva-sabzavotlar narxini barqaror saqlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Mahsulotlarni saqlash va tashish imkoniyatlarini kengaytirish uchun yuk mashinalari, saralash va qadoqlash uskunalari xarid qilishga tijorat banklariga 140 million dollar ajratilgani, yana 330 million dollar imtiyozli kredit ajratilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. <https://www.worldbank.org/en/topic/food-security>
2. Nosirov B.Z., Qobulova M. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi fanidan ma'ruzalar matni, Andijon – 2016, 101-bet
3. [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/mahsulotlar\\_ishlab\\_chiqarish\\_va\\_sanoat\\_kooperaciyasini\\_kengaytirish\\_dasturi\\_qabul\\_qilindi](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/mahsulotlar_ishlab_chiqarish_va_sanoat_kooperaciyasini_kengaytirish_dasturi_qabul_qilindi)
4. [https://en.wikipedia.org/wiki/FDA\\_Food\\_Safety\\_Modernization\\_Act](https://en.wikipedia.org/wiki/FDA_Food_Safety_Modernization_Act)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг. Фармони. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида.

6. Sadibekova B.D.Xorijiy mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi siyosatining xususiyatlari (xitoy xalq respublikasi misolida) // "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari". Respublika ilmiy – amaliy anjumani ilmiy maqolalar va ma'ruzalar to'plami. (2016 yil 15 dekabr) – T.: «TDIU», 2016.- 24-25 b.
7. Adilov, T. T., Israilova, X. M., Uzohkov, I. E., Axtamov, M. X., & Raxmatullayeva, X. 1. (2031). Food security: National food market strategy. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 619-626.

**TA'LIM SIFATINI KO'TARISHDA TA'LIM MENEJMENTINING  
YUZAGA KELISHI VA AHAMIYATI**

**PhD Sadullayeva Gulnoza Sodiq qizi**

**TDIU "Turizm va servis" kafedrası v.v.b dotsenti**

[gulnozasadullayeva94@gmail.com](mailto:gulnozasadullayeva94@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim menejmentida eng asosiy vazifasi, menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar, yoritilib o'tilgan. Menejment boshqaruv ma'nosini bildirib turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiy boshqaruvdan tubdan farq qiladi. Ta'lim menejmentini rivojlantirish orqali odamlarning mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ma'naviy rag'batlantirish va hamkasblar o'rtasida do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishdir.

**Kalit so'zlari:** Menejment, boshqaruv, raxbarlik, ishbilarmonlik, sohalar, bilimlar, korxonalar, tashkilot, idora, nazorat, yuritish, qonun, qoida, reja, mehnat.

Xozirgi davrga kelib qator sohalar singari ta'lim sohasida islohatlar olib borilmoqda shu o'rinda ta'lim menejmenti sohasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish bugungi kunning talabi, ta'limni rivojlantirmasdan hech bir sohani rivojlantirib bo'lmaydi degan fikrlari negizida qanchalik chuqur ma'no



kasb etishi bizga ma'lum, shu nuqtai nazardan eng avvalo ta'lim sohasini, ta'lim sohasida boshqaruvni rivijlantirish, boshqarish va nazorat qilish orqali natijaga erishish mumkinligini inobatga olib ta'lim menejmentiga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim menejmentining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichiga bir nazar tashlasak uzoq tarixga egadir, ammo boshqaruv nazariyasi 20-asr boshlariga kelib rivojlana boshladi. "Management" inglizcha so'zdan olingan bo'lib o'zbek tilida boshqaruvni tashkil qilish, rahbarlik qilish ma'nolarini bildiradi. Umumiy rejada menejment boshqaruvni bildiradi, ya'ni u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va rahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarda 20-asrning boshlarida ilmiy boshqaruv maktablari evolyutsiyasi yuzaga keldi. Demokratik mamlakatda ulkan mehnat bozori paydo bo'ldi. Ta'limning mavjudligi mamlakatda odamlarning ilm olishiga, rivojlanishiga yordam berdi. Ta'lim berish jarayonida boshqaruvning yangi usullari talab qilina boshladi. 1911 yilda Frederik Teylorning "Printsiplar" kitobida guruh ta'sirining odamlarning mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkinligini isbotladi. Menejmentda ma'naviy rag'batlantirishdan foydalanishni maslahat berdi, masalan, xodimning hamkasblari bilan aloqasi. U rahbarlarni jamoaviy munosabatlarga e'tibor berishga chaqirdi va maktab menejmentning ajralib chiqishiga hissa qo'shdi uning fikricha alohida kasb va ikkita yo'nalishga ega. Birinchisi, korxonalarni boshqarish muammolarini o'rganish va zamonaviy boshqaruv tushunchalarini ishlab chiqish. Ikkinchisi - menejerlarning lavozim vazifalari va funktsiyalarini o'rganish. Har qanday rahbar quydagi funktsiyalarni bajarishi maqsadga muvofiq:

- korxonaga uchun maqsadlarni belgilash va rivojlanish yo'llarini tanlash;
- ishlarni tasniflash, taqsimlash, tashkiliy tuzilmani yaratish, kadrlarni tanlash va joylashtirish va boshqalar;
- xodimlarni rag'batlantirish va muvofiqlashtirish, menejerlar va jamoa o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan nazorat;

- me'yorlash, korxonada ishini va unda ishlaydigan barcha ishchilarni tahlil qilish;
- ish natijalariga qarab motivatsiya. Shunday qilib, zamonaviy menejning faoliyati murakkablashadi.

Menejer turli sohalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va amalda tasdiqlangan usullarni qo'llashi kerak. Maktab yirik sanoat ishlab chiqarishida hamma joyda paydo bo'ladigan bir qator muhim boshqaruv muammolarini hal qildi. Menejmentda eng asosiy vazifa - bu odamlar bilan ishlashdir. Menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar shundan dalolat beradiki, u boshqaruv ma'nosini bildiradi turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiy boshqaruvdan tubdan farq qiladi.

Bu farqlar quyidagicha: Birinchi farq - bu bozor iqtisodiga taalluqli bo'lib, ma'muriy buyruqbozlik xo'jalikni reja asosida olib borish tizimi emasdir. Ikkinchi farq - birinchi farqdan kelib chiqadiki, ya'ni taraqqiy topgan davlatlarda menejment iqtisodiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Uchinchi farq - menejmentni sotsialistik tizim boshqaruvidan farqini oxirgi to'rtta tavsifni birlashtirish asosida aniqlash mumkin. Uni "menejment - bu samarali boshqaruv fani va san'ati"dir deyish mumkin. Bunday boshqaruv bu kabi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning yuqori malakasi, ya'ni menejerlar hisobiga, ularning bilimdonligi, faol ijodiy ishi, tashabbuskorligi, fikr yuritishining egiluvchanligi, taktik va strategik masalalarni echishdagi qobiliyati, odamlar bilan bevosita ishlay olishi hisobiga amalga oshadi. Oksford izohli lug'atida menejment tavsifi quyidagi oddiy so'z bilan ifodalangan.

"Menejment - bu ma'muriy ishni bajarishdagi alohida qobiliyat va bilimdonlikdir", - deyilgan. Hozirgi davrda menejment - boshqaruvga qo'yiladigan turli talablarni, ya'ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to'g'ri yo'naltirish san'ati va fanga qo'yiladigan talablarni qattiq ma'muriy talabsiz belgilangan maqsadning bajarilishini o'zida aks ettiradi. Yuqoridagi sifatlarga qo'shimcha qilib, hozirgi zamon menejmenti taraqqiy topgan davlatlardagi 2 ta tavsifini ham keltirish o'rinlidir:

1-Menejerlik korpusining faoliyatini iste'molchi talabiga mos keladigan yuqori sifatli mahsulot olishga yo'naltirilganligi (menejmentda marketing yondashuvi).

2-Menejer ishini tashkilot jamoa a'zolarining faravonligini oshirishga yo'naltirilganligi (boshqaruv faoliyatini insonparvarligi).

Pirovard natijada "Menejment" termini yana bitta, aniqrog'i ikkita keng tarqalgan ma'noga ega. U ko'proq to'plash ma'nosida, barcha tashkilot menejerlar jamoasini yoki oliy menejerlar korpusini belgilashda ishlatiladi. Bu kabi ma'nolarda "Menejer" so'zi odatda 2 xil faoliyatni: boshqaruvchilar (menejerlar) va ishlab chiqaruvchilar (ishchilar) orasida ma'lum qarama-qarshilik ko'zda tutilganda qo'llaniladi.

Ma'lumki, bu fanning mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'ekti orasidagi o'zaro munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchilarga boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rgatishdan iborat. Fanni o'qitish talabalarda boshqarish muammolariga nisbatan qiziqish uyg'otish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq tug'dirishdan iborat. Chunki hozir boshqarish asoslarini o'rganayotgan talabalar kelgusida boshqarish tizimining xodimlari, kichik va o'rta, katta jamoalarning rahbarlari, korxonalar va firmalar iqtisodiy, sotsial, tashkiliy - texnik faoliyatining turli tomonlarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiqishga da'vat etilgan mutaxassislar bo'lib etishadilar. Boshqa tomondan boshqaruv ko'p hollarda rahbarning qobiliyatiga, uning odamlar bilan ishlay olishiga, shaxsiy tashabbusiga, fahm-farosatiga bog'liqdir. Bularning barchasini boshqaruvda ishlata olish - bu san'atdir. Boshqaruv san'ati - bu menejning, rahbarning qobiliyati, ustamonligi, ijodiyotidir. Shunday qilib har qanday ijodiy faoliyat sifatida menejment o'zida fan va san'at elementlarini jamul-jam qilgan. Xulosa qilib aytganda o'quvchi yoshlar va talabalarning kelajakda har sohada raqobatbardosh kadr qilib tarbiyalashning kafolatlangan tizimlardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. - Tashkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 p.

2. Pergudov L.V., Saidov M.Kh. Management of the economics of education. - T.: Molia, 2001.

3. Sharifxo'jaev M., Abdullaev q. Management. Daslik. - T .: Teacher, 2001.
4. G'ulomov S.S. Fundamentals of management. - T .: Teacher. 2002.
5. Vikhansky O.S., Naumov A.I. Management: A textbook for universities on econb. arrogance. and directed. - Third edition. - M .: Gardarika, 2008.
6. Gerchikova I.N. Management: Textbook. - 4th ed., Rev. and add. - M .: Yuniti-Dana, 2009.
7. Vesnin V.R. Management in schemes and definitions. Tutorial. - M .: Prospect, 2009 .-- 120 p.
8. Danalin V.I. Financial management: tasks, tests, situations. Study guide. - M .: Prospect, 2009 .-- 360 p.
9. USAROV J. E. THEORETICAL AND CONCEPTUAL ISSUES OF INCLUSIVE EDUCATION // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. - 2021. - T. 1. - №. 02. - С. 37-46.
10. Usarov J. E. Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency // Theoretical & Applied Science. - 2017. - T. 53. - №. 9. - S. 79-82.

**ТЎҚИМАЧИЛИК ТАРМОҒИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК  
БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ДАВЛАТ  
ТОМОНИДАН ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ**

*Турдиева Муқаддас Умаровна  
Бухоро давлат университети  
таянч докторанти*

*Мақолада тўқимачилик тармоғини ривожлантиришида кичик бизнес субъектлари инновацион фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масаласи кўриб чиқилган. Кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятининг моҳияти ёритилган. Тўқимачилик тармоғида инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлашга борасида амалга оширилаётган инновацион лойиҳалар тадқиқ этилган.*

*В статье рассмотрены вопросы государственной поддержки субъектов малого бизнеса в развитии текстильной отрасли. Освещена сущность деятельности малого бизнеса и предпринимательства. Исследованы инновационные проекты, осуществляемые по программе*

*Государственной поддержки инновационной деятельности в текстильной отрасли.*

Бугунги кунда тўқимачилик саноати Ўзбекистон иқтисодиётида муҳим ўрин тутди. Бу тармоқ саноат маҳсулотини ишлаб чиқаришда марказий ўринда туради, чунки бу тармоқ кенг халқ истеъмоли маҳсулотлари ишлаб чиқаради, бу эса ўз навбатида бозорнинг катта бир қисмининг тўйинишидир. Бундан ташқари, тармоқ республикани катта миқдордаги иш ўринлари билан таъминлайди, жумладан, бу тармоқда асосан аёлларнинг банд бўлиши саноат районларида демографик балансни ушлаб туриш имконини беради.

Ўзбекистон ҳозирда катта ва кўп йўналишларга эга бўлган тўқимачилик саноатига эга. Тўқимачилик саноатининг республика ялпи ички маҳсулотидаги улуши 4,8 %ни ташкил этади, саноат маҳсулотининг 25 %и, ишлаб чиқариш асосий фондларининг 13 %и тўғри келади. Шу билан бирга, унда республика саноат ходимларининг 32 %и меҳнат қилмоқда.

Аҳолини сифатли тўқимачилик ва енгил саноат маҳсулотлари билан таъминлаш, янги иш ўринларини яратиш, ҳамда аҳолининг турмуш тарзини яхшилашда кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятининг ўрни катта.

Ҳозирги пайтда турли илмий-назарий адабиётларда тадбиркорлик фаолияти ва бизнес хусусида, унинг йўналишлари, тамойиллари, ҳуқуқий-иқтисодий жиҳатлари тўғрисида кўплаб олимларнинг фикрлари, мулоҳазалари кенг ўрин эгалламоқда. Уларда кўпинча тадбиркорлик фаолияти ва бизнесни бир хил тушунча сифатида талқин қилинмоқда. Фикримизча, тадбиркорлик бизнесдан фарқ қилиб, тадбиркорлик – бу маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишга ижодкорлик, янгилик яратиш руҳи асосида ёндашиш билан боғлиқ фаолиятдир. Бизнес эса унга нисбатан кенг тушунча бўлиб, умуман фойда олиш нуқтаи-назаридан юритилувчи фаолиятдир.

Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик ва тадбиркорлар фаолиятининг кафолатлари тўғрисида»ги қонунида таърифланишича, Тадбиркорлик (тадбиркорлик фаолияти) – юридик ва жисмоний шахслар томонидан мулкый масъулият остида, мавжуд қонунлар доирасида, даромад

(фойда) олиш мақсадида, таҳлика билан амалга ошириладиган иқтисодий фаолиятдир[1].

Тадбиркорликнинг ривожланиши, ўз навбатида, бир қатор шароитларнинг мавжуд бўлишини тақозо этиб, улар асосида умуман товар ишлаб чиқаришнинг умумий ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлари ётади.

Биринчидан, тадбиркор хўжалик юритишда унинг бирон турини танлаш, ишлаб чиқариш жараёнини амалга ошириш, уни ўзгаришларга мослаштириш, манбаларни танлаш, ресурс топиш, маҳсулот сотиш, уларнинг нархини белгилаш, фойдани тасарруф қилиш ва шу кабилар бўйича маълум ҳуқуқ ва эркинликлар мавжуд бўлишини тақозо этади.

Иккинчидан, тадбиркор ишлаб чиқариш воситаларига, ишлаб чиқарилган маҳсулот ва олинган даромадга мулкчилик ҳуқуқига эга бўлиши керак. Тадбиркорлик фаолияти мулкдорнинг ўзи томонидан ҳам, унинг мол-мулки асосида иш юритувчи субъект томонидан ҳам амалга оширилиши мумкин.

Учинчидан, хўжалик юритиш йўлини эркин танлаш, даромадни инвестициялаш имконияти ва шу кабиларни реал таъминлайдиган маълум иқтисодий муҳит ва ижтимоий-сиёсий шароит яратиши зарур[2].

Тўртинчидан, тадбиркорлик мулкчилик ва ўзлаштириш турли-туман шакллари ва турларининг мавжудлигини тақозо қилади. Ўз навбатида мулкчилик ва ўзлаштириш соҳаларидаги турли-туманлиликнинг ўзи объектив ҳодиса бўлиб, ишлаб чиқарувчи кучларнинг ривожланиши оқибати сифатида майдонга чиқади.

Бешинчидан, етарли молиявий манбаларга, яхши маълумот ва малакали тайёргарликка эга бўлиш, умумий тижорат қонунчилиги, солиқ бўйича имтиёзлар, тадбиркорлик муҳити ва уни ривожлантиришда жамият манфаатдорлигининг мавжуд бўлиши тадбиркорликни ривожлантиришнинг навбатдаги шарт-шароитлари ҳисобланади[2].

Юқорида кўриб чиқилган барча шарт-шароитлар мавжуд бўлган давлатларда тадбиркорлик яхши ривожланади, акс ҳолда фаолиятнинг бу тури ҳуфёна иқтисодиёт соҳасига ўтиб кетиши эҳтимоли ҳам юқори бўлади.

Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг жадал ривожланишини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, шу асосда аҳолининг бандлиги ва фаровонлигини ошириш муаммоларини ҳал этиш иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда кичик тадбиркорликнинг ривожланишига мазкур соҳани турли даражаларда қўллаб-қувватлашнинг самарали тизими катта таъсир кўрсатди. Давлат томонидан унинг меъёрий-ҳуқуқий асослари ишлаб чиқилди ва такомиллаштирилди, кичик корхоналарни молия-кредит ва инвестиция жиҳатидан қўллаб-қувватлаш бўйича муайян ишлар амалга оширилди. Кичик тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича давлат ва минтақавий дастурлар ишлаб чиқилди ва бугунги кунда ҳам ҳаётга изчил равишда татбиқ этилмоқда. Бу соҳада минтақалараро ва халқаро алоқалар йўлга қўйилмоқда, ҳукуматлараро ва халқаро шартномалар тасдиқланмоқда, тадбиркорларнинг жамоатчилик уюшмалари фаолияти жонлантирилмоқда, ахборот таъминоти тизими вужудга келтирилмоқда.

Давлат томонидан фан-техника муҳитини қўллаб-қувватлаш тизимида тубдан ўзгаришлар Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сон Фармони билан 2019 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегияси, уни амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси», Ўзбекистон Республикасини 2030 йилгача инновацион ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари тасдиқланганидан сўнг амалга ошди. У билан боғлиқ равишда фан-техника тараққиёти бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш томонидан бизнинг жамиятимиз стратегик вазифаларига жавоб бера оладиган устувор тадқиқот йўналишлари тасдиқланди[3]:

1. Бозор иқтисодиёти шароитларида фуқаролик жамиятини шакллантириш ва демократик давлатни ривожлантиришнинг ҳуқуқий асосларини тадқиқ қилиш;

2. Тарихий, миллий ва умуминсоний қимматликлар уйғунлиги асосида ёш авлодни тарбиялаш, маънавий ва маърифий жамиятни шакллантириш

муаммоларини тадқиқ қилиш;

3. Мамлакат саноат ишлаб чиқариши учун илмталаб технологияларни яратиш, минерал хом-ашё ресурсларини ўрганиш, қазиб олиш ва тубдан қайта ишлаш юқори технологияли услубларини ишлаб чиқиш;

4. Ер ва сув ресурсларини оқилона ишлатиш ва тиклаш тупроқ хосилдорлигини ошириш, атроф муҳитни химоялаш тизимини мукамаллаштириш;

5. Соғлиқни сақлаш тизими самарадорлигини оширишга ёрдам берувчи медицина усул ва воситаларини ишлаб чиқиш, юқори самарали қишлоқ хўжалик маҳсулотлари турлари ва навларини яратиш, бунда замонавий илм-фан ютуқлари, жумладан ген инженерияси ва биотехнология ютуқларидан фойдаланиш;

6. Давлат иқтисодий тармоқларининг прогрессив тараққиётидан, ёқилғи-энергетика ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва тиклашни таъминловчи энергия ва ресурсни тежаш технологиялари ва техник воситаларини ишлаб чиқиш[3].

Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноат корхоналарининг инновацион фаолияти давлат томонидан қабул қилинган тармоқни ривожлантириш дастурлари асосида бошқарилади.

Тўқимачилик маҳсулотларининг ҳажми 2021 йили 392.8 млн дона, шундан 193.8 млн дона ички бозор учун, 199 млн. дона эса экспорт учун ишлаб чиқарилган. Пайпоқ маҳсулотлари эса 219.9 млн. жуфтни, шундан 136.3 млн. жуфти ички бозор учун, 83.6 млн. жуфти эса экспорт учун ишлаб чиқарилган.

Тўқимачилик саноати корхоналари инновацион фаолиятини давлат томонидан бошқаришда республикамиз минтақаларининг ривожланиш ҳолати, ҳамда минтақаларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш дастурлари ҳам алоҳида ўрин тутди[4].

Вилоятлар бўйича тўқимачилик саноат корхоналари инновацион фаолиятини таҳлил қиладиган бўлсак, Андижон вилоятида



“Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибидаги 141 та тўқимачилик корхонасига инновацион технологиялар киритилган бўлиб, шулардан 86 таси 2017-2021 йилларда янги техника ва технологияга асосланган ҳолда ташкил этилган.

Қашқадарё вилоятида ҳам давлат инвестиция дастури асосида тўқимачилик корхоналарига инновацион инвестициялар киритилмоқда, корхоналар қайта жиҳозланиб, модернизация қилиниб, ишлаб чиқариш фаолияти кенгайтирилмоқда. Бугунги кунда Қашқадарё вилоятида «Ўзтўқимачиликсаноат» уюшмаси таркибидаги 12 та корхона фаолият олиб бормоқда. Мавжуд корхоналар модернизация қилинган, қайта жиҳозланган, янги ассортиментлар ўзлаштирилган.

Наманган вилоятида жойлашган 424 та тўқимачилик корхонасига тармоқни ривожлантириш инвестицион дастурлари асосида инновацион инвестициялар киритилди. Натижада, тармоқнинг ишлаб чиқариш ҳажми, экспорт салоҳияти ортди. “Форт импекс” МЧЖ корхонаси 2012 йил март ойида Германия давлятидан киритилган инвестициялар асосида ташкил этилган бўлиб, ўртача йиллик ишлаб чиқариш қуввати 1900 минг дона. Корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини 2019-2020 йилларда 1100 минг донага, 2021 йил 1800 минг донага етказилди.

Сирдарё вилоятида 18 та тўқимачилик корхоналарига янги техника ва технологиялар кўринишида инвестициялар киритилди. «SIRDARYA BEST FASHION» МЧЖ ХК чет инвестициялари иштирокида ташкил этилган, ўртача йиллик ишлаб чиқариш қуввати 3500 минг донага тенг.

Самарқанд вилоятида ҳам тўқимачилик тармоғини ривожлантириш борасида ишлар олиб борилмоқда. Вилоятда «Ўзтўқимачиликсаноат» уюшмаси таркибидаги 91 та тўқимачилик корхонаси фаолият кўрсатаётган бўлиб, “Амин инвест” МЧЖ корхонаси 1996 йили, “8-март” (Зарафшон) МЧЖ корхонаси эса 1969 йил ташкил этилган.

Фарғона вилоятида жойлашган уюшмага аъзо 162 та тўқимачилик корхонасига тармоқни ривожлантириш инвестицион дастурлари асосида

инновацион инвестициялар киритилди. Натижада, тармоқнинг ишлаб чиқариш ҳажми, экспорт салоҳияти ортди.

Хоразм вилоятида 14 та тўқимачилик корхонаси саноати корхоналари фаолият юритмоқда. “Silver tex” МЧЖ корхонаси Германия давлати инвестициялари асосида 2014 йил январь ойида ташкил этилган. Корхонанинг ўртача йиллик қуввати 1000 дона пайпоқ маҳсулотлари бўлиб, корхона 2022 йил охирига бориб, 900 минг жуфт пайпоқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришни, шундан 360 минг жуфтини экспорт қилиш имкониятлари бор.

Хулоса қиладиган бўлсак, 2017 – 2021 йилларда тармоқнинг инновацион фаолиятини бошқариш ишлаб чиқаришни техникавий ва технологик қайта қуриш, модернизация қилиш бўйича лойиҳаларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари турли иқтисодий сиёсат дастаклари, солиқ ва божхона, молиявий ва преференция имтиёзларидан самарали фойдаланишга қаратилган.

Фикримизча, истиқболда модернизациялаш ва қайта қуриш бўйича лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш тармоқни ривожлантиришнинг қуйидаги жиҳатларига қаратилган бўлиши керак[5]:

юқори қўшилган қийматга эга бўлган маҳсулотларни ишлаб чиқариш;

бўяш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш, инновацион йўналишларни ривожлантириш;

аралаш толали ва техник газламаларни ишлаб чиқариш;

хориж бозорлари талабларига мос тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш;

халқаро бозорда “Ўзбек текстили”, “Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган” брендини ривожлантириш.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик ва тадбиркорлар фаолиятининг кафолатлари тўғрисида” ги қонуни.

2. Юсупов У.Ш. Кичик тикувчилик корхоналарида инновацион фаолиятни бошқариш хусусиятлари. «Иқтисодиёт ва таълим» журнали.

2012йил, №6, 59-63 бетлар.

3. Мукаддас Турдиева. Корхона ходимларининг инновацион фаолиятини мотивациялаш орқали рақобатбардошликни таъминлаш омиллари Iqtisodiyot: Tahlillar va prognozlar.

4. Turdiyeva M., Nazarova F. Mechanism for stimulating and effective use of the innovative potential of Uzbekistan. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 7. №12. 2021

5. Turdiyeva Mukaddas. Importance of Innovations in the Development of Bukhara Industry International Simposium of Young Scholars (USA) This conference will be organized in the USA on 10 the of October and the final proceeding will be provided on the 24th of October as a whole. 264-267 P.

**HUNARMANDCHILIK VA TADBIRKORLIKDA ISHLAB  
CHIQRISHNING TEXNIK VA TEXNOLOGIK JARAYONLARINI  
LOYIHALASHGA HAMDA TEXNIK DARAJASINI  
RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV**

**Xursanov Boyqo‘zi Jo‘raqo‘zievich, v.b.dotsent.,  
Mirzaev Dilshod Bahodir o‘g‘li, talaba.,  
Abdunazarov Abdulaziz Abdurasul o‘g‘li, talaba.  
Farg‘ona politexnika instituti  
e.mail: [boyqozi.xursanov@mail.ru](mailto:boyqozi.xursanov@mail.ru), [b.xursanov@ferpi.uz](mailto:b.xursanov@ferpi.uz).**

**Annotatsiya.**Maqolada hunarmandchilik va tadbirkorlikda ishlab chiqarishning texnik va texnologik jarayonlarini loyihalash, yangi texnika va texnologiyalarning texnik darajasi va samaradorligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar va ulardan foydalanish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** hunarmandchilik, tadbirkorlik, mashinasozlik mahsulotlari, asboblari, agregatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichi, Ishlab chiqarish bosqichi Foydalanish bosqichida, texnologik ta‘sir darajasi texnologik intensivlik darajasi.

**Kirish**

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida hunarmandchilik, qishoq ho‘jaligi mashinasozligi mahsulotlari bozorida raqobat

kuchayib bormoqda, chunki mashinasozlik iqtisodiyotning asosi – asosiy kapital yaratuvchisidir. Qishloq ho‘jalik mashinalari va uskunalari, transport vositalari, asboblari va agregatlari o‘z faoliyati jarayonida iqtisodiyotning asosiy kapitaliga aylanadi va mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatini oshiradi.


### **Materiallar va metodlar**

Texnologiya darajasining ko‘rsatkichi texnologik jarayonda mehnat unumdorligining o‘zgarishini texnologik jihozlarning o‘zgarishi bilan bog‘laydigan tenglamada mutanosiblik koeffitsienti hisoblanadi. Texnologiya darajasi ma‘lum bir mahsulotni ishlab chiqarish usuliga xos bo‘lgan har bir texnologik jarayonning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ushbu mulk texnologik jarayonning g‘oyasi va ushbu g‘oyani texnik amalga oshirish bilan belgilanadi. Texnologik jarayonning g‘oyasi texnologik jarayonning ishchi va yordamchi harakatlarining tabiati va ketma-ketligida o‘z ifodasini topadi.

Agar texnologik jarayonni takomillashtirish jarayonida uning asosiy g‘oyasi o‘zgarmasa, ya‘ni texnologiyaning oqilona rivojlanishi mavjud bo‘lsa, texnologiya darajasi o‘zgarishsiz qoladi. Bu texnologiya darajasi ko‘rsatkichining sifatli tomoni. Miqdoriy jihatdan bu ko‘rsatkich ushbu turdagi texnologiyaning samarali foydaliligini jamiyat nuqtai-nazaridan umumlashtiruvchi baholashdir.

Ishlab chiqarish texnologik darajasini mahsulotning sifati bilan baholash mumkin. Texnologiya darajasi tirik va o‘tmishdagi mehnat unumdorligi mahsuloti bilan belgilanadi va tirik va o‘tmishdagi mehnatni mustaqil ravishda o‘tkazish nuqtai nazaridan texnologik jarayonning umumiy samaradorligini ifodalaydi.

Texnologiya darajasini baholashda yangi texnologiyalar afzalliklari uni amalga oshirishning dastlabki bosqichida yaqqol ko‘zga tashlanmaydi, hatto eski texnologiyadan ortiq bo‘lsa ham, ya‘ni jarayon o‘zgarishlar dinamikasi rivojlanish istiqbolini yanada aniq aks ettiradi. Baholashdan sifat jihatidan turli xil texnologik jarayonlarni solishtirish imkonini beradi. Masalan, texnologiya darajasiga ko‘ra, traktor va transport vositalari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish darajasini solishtirish mumkin.



1.1 – rasm. Texnologik jarayonning sxema shakli.

Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarning texnik darajasi va samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichida:** javoblilik, patent tozaligi, standartlashtirish va unifikatsiya darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlari xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, ilmiy intensivlik, dizaynning uzluksizligi, mahsulotning murakkabligi, o'zgaruvchanligi, ergonomik ko'rsatkichlari, estetik ko'rsatkichlari, xavfsizligi, atrof-muhit ko'rsatkichlari.

**Ishlab chiqarish bosqichida:** unumdorligi, tezligi, parametrlari va o'lchamlari, boshqarilishi, optimal tuzilishi, optimal ishlashi, ishonchliligi va xavfsizligi; iqtisodiy ko'rsatkichlar: mehnat zichligi, moddiy iste'mol, kapital intensivligi, asosiy xarajatlar, mehnat unumdorligi, o'ziga xos kapital qo'yilmalar, mexanizatsiyalash darajasi, avtomatlashtirish.

**Foydalanish bosqichida:** ishonchlilik, xavfsizlik, barqarorlik, ishlash ko'rsatkichlari, quvvat, ishlab chiqarish qobiliyati, ishlash davrining davomiyligi, samaradorligi, dizayni, ekspluatatsiya xarajatlari, butlovchi qismlar va ehtiyot qismlarning mavjudligi, xizmatga yaroqliligi, kafolati.

Ya'ni, ishlab chiqarishning innovatsion texnik darajasi ko'rsatkichlari uning texnik va tashkiliy rivojlanishi bo'yicha chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi.

## Ishlab chiqarishning texnologik darajasi ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarishning texnologik darajasi ko'rsatkichlari	
Ilmiy-texnika darajasi	Ishlab chiqarish darajasi
Yangi mahsulot	Texnologik intizom
Texnologik samaradorlik	Ishlab chiqarish oqimlilik
Texnologik taraqqiyot	Texnik va energetik qurollanganligi
Ishlab chiqarish texnologik jihozlarning taraqqiy etganlik darajasi	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, quvvatlash va yangitdan jihozlash
Ishlab chiqarishning texnika va texnologiya darajasi	

Ishlab chiqarish texnologiyasining holati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oldindan belgilab beruvchi eng muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun har bir mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanganligini eng to'la va aniq ko'rsatkichdir. Shu bilan birga texnologik rivojlanish - bu faol ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarishning qator elementlariga bog'liqdir: uskunalarni parkini shakllantirish; kadrlar bilan ta'minlash; yangi materiallar, yoqilg'i va xom-ashyolardan foydalanish.

Texnologik daraja - bu ishlab chiqarishning texnologik sikli bo'lib, u erda ishlab chiqarish vositasini boshqaradigan kishi, mahsulotni yaratish uchun zarur bo'lgan professional operatsiyalarni bajaradi, texnologiya umuman alohida mahsulotlar va mahsulot guruhlari, alohida birliklar, yig'ilishlar va ehtiyot qismlar uchun korxonada ishlab chiqarish texnologiyasi bo'lishi mumkin.

Texnologiya darajasi tashqi ko'rsatkichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishni mexanizatsiyalash koeffitsienti (Km.r), mehnatni mexanizatsiyalash (Km.t) va mehnat intensivligi bo'yicha mexanizatsiyalash (Km.tr):

$$K_{m.r.} = \frac{O_m}{O}$$

$$K_{m.t.} = \frac{T_m}{T}$$

$$K_{m.r.} = \frac{K_{mt}}{K_{m.r.}}$$

bu erda:

$O_m$  - mexanizatsiyalashgan usulda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish) hajmi;

$O$  - ishning umumiy hajmi;

$T_m$  - mexanizatsiyalashgan ishlarga sarf qilingan ish vaqti;

$T$  - ishlab chiqarish yoki ishning ma'lum hajmi uchun ishlagan umumiy vaqt.

Avtomatlashtirish koeffitsienti; Ilg'or texnologik jarayonlarning ulushi;

Puxtalik omili; Ishlab chiqarish uskunalarining nisbati; Progressiv texnologik usullar bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi va progressiv texnologiyalar yordamida bajarilgan ishlarning nisbati; Texnologik mehnat intensivligida mashina vaqtining o'ziga xos og'irligi; Texnologik intizom ko'rsatkichlari; Birlashtirish va standartlashtirish koeffitsienti.

Texnologiya darajasi, shuningdek, quyidagilarga ham bog'liq:

texnologik boshqaruvni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga, texnologik ta'sir darajasiga turli xil usullarning (fizikaviy, kimyoviy, mexanik va boshqalar), mehnat mavzusiga, jarayonning texnologik intensivligi darajasi, texnologik jarayonning moddiy, energiya va vaqt parametrlaridan foydalanish darajasi;

texnologik boshqaruv darajasidan - tashqi omillar o'zgarganda texnologik jarayonlarni o'zgartirish imkoniyati, eng yuqori foyda olish uchun eng yuqori mahsuldorlikka va maksimal ishlab chiqarish samaradorligiga erishish, jarayonni texnologik tashkil etish darajasiga (jarayonning uzluksizligi, soni, optimal tarkibiga), texnologik jarayonni moslashtirish darajasida - mavjud ishlab chiqarish va atrof-muhit bilan birgalikda ushbu rejimga muvofiq texnologiyaning ishlashining imkoniyati.

Yangi texnologiyaning texnik darajasi va samaradorligi ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarishning texnologik ilg'orligini taminlaydi va ko'p jihatdan texnologiyaning texnik darajasi va samaradorligi belgilaydi.

**Texnologik ta'sir darajasi:** mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, elektronlashtirish; fizik, kimyoviy, mexanik, elektron, ion, boshqa ta'sir turlari, kompyuterdan va ABT lardan foydalanish darajasi.

**Texnologik intensivlik darajasi:** metal kesish tezligi, Xom-ashyo, materiallar, energiya sarfi; texnologik tsiklning davomiyligi; ishlab chiqarish maydon va jihozlardan foydalanish darajasi va boshqalar.

**Texnologik tashkil etilganlik darajasi:** texnologik usullarning kombinatsiyasi; jarayonlarning uzluksizligi; ishlov berishning texnologik bosqichlari soni; moddiy oqimlarning soni va harakat yo'nalishlari;

**Texnologik jarayonning moslashish darajasi:** ishonchlilik, muammosiz va xavfsizlik; asbob va texnologiyalarni asrash, texnik estetika va ergonomika talablariga muvofiqlik. Zamonaviy texnologik jarayonlar iqtisodiy obyektlar sifatida ko'riladi. Zamonaviy texnologiya rivojlanish darajasi korxonaning raqobatbardoshligini ko'p jihatdan belgilaydi va shuning uchun iqtisodiy ta'sirga ega. Ushbu ta'sir ishlab chiqarish jarayonida korxonaning har bir qatlamida o'zgacha ta'sir etadi.

### **Xulosa.**

- Innovatsion yondashuv - bu boshqaruv obyektini o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdagi ta'sirni olish orqali bozor (ishlab chiqarish) ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangilik (ilmiy yutuq)ni joriy etishning yakuniy natijasidir.
- Texnologik rivojlanish darajasi – har bir ishlab chiqaruvchi korxonaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.
- Texnologik jarayonlar o'zgarishi texnologik qurollanganlik va texnologik rivojlanish darajasini oshishiga olib borishi kerak.



- Texnologik rivojlanish darajasi yangi texnika va texnologiya joriy etilganligi va ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichidir.

### **Адабиётлар рўйхати**

- 1.Казанцев А. К, Д. А. Рубвальтера. НБИС-технологии: инновационная цивилизация XXI века /– М. : ИНФРА-М, 2021. – 382 с.
- 2.Кузьмина Е. Е., Кузьмина Л. П. Активизация инновационной деятельности — важнейшее условие повышения эффективности использования инвестиций // Вестник РГТЭУ. 2012. №4.
- 3.Радиевский М.В. Организация производства: инновационная стратегия устойчивого развития предприятия: учебник . М.: Инфра, 2019. – 377 с.
- 4.Сагиева Г.С. Технологический уровень производства российских организаций // Экономика. 2015. №5. с.72-84.

## **MAHALLIY ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI**

**Turgunov Doston Turgunovich**

“Fundamental iqtisodiyot” kafedrası doktoranti

Ishlab chiqarish tarmog'i azaldan iqtisodiyot rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib kelgan. Ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar oshishiga erishilgan. Davlat iqtisodiyoti uchun ayniqsa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ahamiyati katta. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida davlat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga turli imtiyozlar beriladi. Ularni qo'llovchi qaror va farmoyishlar qabul qilinadi. Misol tariqasida 2021 yil 29 yanvardagi 41-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarorini aytishimiz mumkin. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar ichida o'ziga hos yangiliklar ishlab chiqarayotgan, yangi g'oya va ishlanmalarni yaratayotganlar bor. Ularni qo'llab quvvatlashning zamonaviy va samarali usullaridan biri bu innovatsion tanlovlar o'tkazib ularni moliyalashtirish bo'lmoqda. Innovatsion tanlovlar natijasida g'olib bo'lgan tadbirkorlarga davlat tomonidan

mablag' ajratiladi va ish faoliyati bir necha yil davomida kuzatib tahlil qilib boriladi. Bundan tashqari ularga konsalting xizmatlari ko'rsatiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Startap loyihalarga ajratilgan mablag'larni ko'radigan bo'lsak, 2021 yilda mahalliy va xalqaro tanlovlari doirasida jami qiymati 41,4 mlrd so'mlik 56 ta startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etilgan. Bu esa o'z navbatida 2020 yilga nisbatan 560 foizga ko'p startap loyihalar qo'llab-quvvatlanganini bildiradi. Vazirlik ma'lumotlariga ko'ra Startap loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha 2019-2022-yillar mobaynida 10 ta tanlov e'lon qilindi. Tanlovlarda har bir startap loyihasi 6 bosqichli saralashdan o'tkaziladi. Shu kunga qadar tanlovlarga ikki mingga yaqin ariza kelib tushgan. 2019-2022-yillar davomida jami hisobda, 104 mlrd so'mlik 155 ta startap loyiha moliyalashtirilgan. Startap loyihalarni moliyalashtirilishi natijasida jami 1 279 ta yangi ish o'rni yaratildi<sup>118</sup>.

Respublikamiz 81 ta indikator bo'yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog'onaga ko'tarildi. Innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat byudjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so'mga yetkazildi. Yosh olimlar 2018-yilda 6,5 ming nafar bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi, ya'ni bir yarim baravarga o'sdi. Oxirgi 4 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg'armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga yetkazildi. 2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi – "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion texnologiyalar platformasiga aylanmoqda<sup>119</sup>.

---

<sup>118</sup> <https://uzreport.news/economy/ozbekiston>

<sup>119</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/5321> 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2023.01.01.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qator chora va tadbirlar ko'rilmoqda. Hududlarning innovatsion salohiyatini bo'yicha ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, innovatsion jihatdan eng faol hududlar: Farg'ona, Navoiy, Toshkent, Namangan, Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlari. Inoovatsion sust bo'lgan hududlar: Xorazm, Qoraqalpog'iston Respubikasi, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlari.

1-jadval.

2020-2021 yillarda amalga oshirilgan ishlar.

Yillar	Summa mlrd. so'm	Innovatsion loyihalar	Yangi ish o'rinlari	Yangi mahsulot va xizmatlar
2020 yil	126	137	1290	230
2021 yil	206.5	224	2507	268

Manba: Innovatsion rivojlanish agentligi<sup>120</sup>

2020 yilda Respublikamizda jami 126 mlrd. so'mlik moliyalashtirish amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilda 206,5 mlrd. So'mga yetdi. Ya'ni moliyalashtirish 63,8%ga oshdi. Innovatsion loyihalar soni ham 63,5%ga oshgan. Yaratilgan yangi ish o'rinlari 2020 yilda 1290tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 2507 taga yetdi. Yangi mahsulotlar soni esa 2020 yilda 230ta bo'lsa, 2021 yilda yangi mahsulotlar soni 268taga yetdi. Bu o'tgan 2020 yilga nisbatan 16,5%ga oshgan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki innovatsion faoliyat yildan yilga oshib bormoqda. Olib borilayotgan innovatsion siyosat natijasida yangi tadbirkorlar soni ortmoqda, yangi ish o'rinlari ortib bormoqda. Mahsulotlarning sifati oshib va turlari kengayib bormoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash orqali hududlarda iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda.

Bu borada 2022 yildan 2026 yilga qadar Respublikamizda innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilinib, bir qator vazifalar belgilab berildi. Strategiya doirasida hududlar kesimida innovatsion markazlar sonini ko'paytirish vazifasi ham belgilab berilgan. Bu albatda kelajakda innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarini yanada oshishiga va iqtisodiyotimiz gullab yashnashiga olib keladi.

<sup>120</sup> <https://mininnovation.uz/opendata/post-690>

## MAHALLALARNI TASHKIL ETISHDA TARIXGA NAZAR

**Hamidova Gulzodaxon Rustamxon qizi**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi**

**Mahalla** — O‘zbekistonda ma‘muriy-hududiy birlik; o‘zini o‘zi boshqarishning o‘zbek xalqining an‘analari va qadriyatlariga xos bo‘lgan usuli. Mahalla atamasi arabcha bo‘lib, „o‘rin-joy“ degan ma‘noni anglatadi. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda Mahallalarning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. Masalan, Narshaxiy o‘zining „Buxoro tarixi“ asarida Buxoroda bundan 1100-yil ilgari bir qancha mahallalar bo‘lganini qayd etib o‘tgan. Alisher Navoiy o‘zining „Hayrat ul-abror“ asarida mahallani „mahalla shahar ichidagi shaharcha“dir deb ta’riflaydi,

Mahalla kichik ma‘muriy hudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an‘analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog‘langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o‘zgarishiga qarab Mahallaning vazifalari ham o‘zgarib turgan. Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o‘tkazish, o‘z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta‘minlash, barcha an‘anaviy me‘yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish, urf-odatlarga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbariyati ariq-hovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va Mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. Bu ishlarning barchasi birgalikda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan.

Mahalla jamiyatning tuzilmasi sifatida tarixan bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. U 20-asrning 1-choragida o‘zining an‘anaviy shaklini oldi. Sovet hukumati mahallalarga o‘z umrini yashab bo‘lgan o‘tmish sarqiti sifatida qaradi. Shundan kelib chiqib, u an‘anaviy milliy boshqaruvlarni bekor qilish yo‘li bilan bu yerda sanoatlashgan jamiyatni qaror toptirish siyosatini joriy

etishga kirishdi. 20-yillar boshlaridan sovet hukumati mahallalar vazifasini cheklash, o'ziga bo'ysundirishga intildi. Biroq mahallalar o'zining yashovchanligini namoyon etib, an'anaviy xayot va aloqa tarziga qarshi har qanday hujumlarga va ularni yo'qotish yo'lidagi urinishlarga dosh berdi. U ilgari hayot tarzi, urf-odat va rasmlarini saklab qoldi.

1932-yil 17-aprelda O'zbekistonda birinchi marotaba shaharlardagi „Mahalla qo'mitalari to'g'risida“ Nizom qabul qilindi. 1935—36 yillarda mahallalarda oqsoqol boshchiligida Mahalla qo'mitalari tashkil etilib, aholi o'rtasida olib boriladigan barcha ishlarni rais boshqargan.

1961-yil avgustda O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan „Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullaridagi Mahalla qo'mitalari to'g'risida“gi Nizomda ham mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. Mahalla qo'mitalari biron-bir moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular oldisotdi, ijaraga berish ishlarini bajarishda qatnashishlari mumkin bo'lmagan. Mahallaning huquq va vakolatlari cheklangan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga va 1993-yil sentabrda qabul qilingan „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida“gi qonunga binoan, Mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirdi. Mahallalar davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisobkitob raqamiga — jamg'armasiga egadir. Bu qonunga asosan, har bir Mahalla o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini Mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

Mahalla va uning aholisining ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy yuksalishiga har tomonlama yordam berish, milliy an'ana va urf-odatlarni

boyitish, Mahalla qo'mitalari ishlarini muvofiklashtirish, Mahallalardagi kam ta'minlangan oilalar, keksalar, faxriylar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yetim-yesirlar, baynalmilalchilar manfa-atlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida 1993-yil 17-avgustda O'zbekiston „Mahalla“ xayriya jamg'armasi tashkil etildi. „Mahalla“ gazetasi chiqa boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Mahallaning hozirgi zamon jamiyatidagi mohiyati va ahamiyatiga quyidagicha baho beradi: "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda. Ular amalda o'z huquqlaridagi barcha ishlar uchun mas'uldirlar. Zero, mahallaning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q. Uning nufuzini ko'tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim".

Har bir Mahalla aniq tashkiliy tuzilmaga ega. Unga Mahallaning umumiy yig'ilishida saylanadigan Mahalla kengashi rahbarlik qiladi. Kengash o'z tarkibidan rasman Mahalla yig'ini raisi (oqsoqol)ni, o'rinbosari va kotibini saylaydi. Bundan tashqari, Mahalla kengashiga keksa, tajribali kishilardan Mahalla oqsoqoli maslahatchilari ham saylanadi. Kengash huzurida to'y marosimlarini o'tkazish, xotinqizlar, yoshlar, urush va mehnat faxriylari bilan ish olib boruvchi, jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish, turar joy fondlarini saqlash va h.k. bo'yicha komissiyalar tuziladi.

mahalla rahbariyati 2,5 yilga saylanadi va har yili aholi oldida hisobot beradi. Joriy masalalarni hal etish uchun Mahalla kengashi oyda bir marta yig'iladi. Endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, belgilangan namunadagi muhrga ega hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

1998-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi „Prezidentining Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida“gi farmoniga ko'ra, Mahalla rahbariyatining (rais, kotib) faolligini oshirish, ijtimoiy

muhofaza qilish va qo'llabquvvatlash maqsadida ularning ish haqi oshirildi, pensioner raislarga pensiyani to'liq olishlariga ijozat berildi. Natijada Mahalla rahbariyatining manfaatdorligi va nufuzi ortdi.

Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Res-publikasining „Fuqarolarning o'zo'zini boshqarish organlari haqida“gi (yangi tahrirda) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi. Yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga asosan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi.

2003-yil O'zbekistonda „Obod mahalla yili“deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 7-fevralda qabul qilgan „Obod mahalla yili“ dasturiga binoan, Mahalla nufuzini ko'tarishga qaratilgan muhim vazifalar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida jami 9627 fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi faoliyat ko'rsatadi, shulardan 6855 tasi yuridik shaxs maqomiga ega

2021-yil 5-mart kuni Vazirlar Mahkamasining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O'zbekistonda har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko'rsatilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasi joriy etildi. 2021-yil 1-aprelgacha quyidagilar ishlab chiqilib, joriy etildi:

- har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko'rsatilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasi;

- ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalar hamda vasiylikka va homiylikka olingan bolalar va oilaga tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi;
- davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bo'yicha tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan yagona elektron axborot tizimi;
- fuqarolarning avtotransport vositalari sozligi yoki nosozligi bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi<sup>[1]</sup>.

Ma'lumki, Qashqadaryo viloyati 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. 1927-yil 17-fevraldan 1938-yil 15-yanvargacha Qashqadaryo okrugi maqomi berilgan. Maydoni 28,6 ming km<sup>2</sup>. Tarkibida 13 ta qishloq tumani bor bo'lib (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor). 12ta shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Yangi Nishon, Qamashi, Qarshi, G'uzor), 4 ta shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Eski Yakkabog', Qashqadaryo) mavjud. Markazi-Qarshi shahri. Aholisining zichligi 1km<sup>2</sup> ga 83,7 kishiga to'g'ri kelgan. Shahar aholisi esa 587,5 ming kishi bo'lgan. 2021 yil holatiga ko'ra 768 ta fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatgan. Viloyatda 6 ta shahar kengashi va 337ta mahalla fuqarolar yig'ini o'z binosiga ega emas. Shahrisabz, Yakkabog' va kitob tumanlari ko'p jihatdan respublikamizning aholi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voha va vodiidir.

#### **Adabiyotlar:**

Karimov I. A., Bizdan ozod vaobod Vatan qolsin, T., 1996;

Malitskiy N. G., Toshkent mahalla va mavzelari, T., 1996;

Mahalla: o'zini o'zi boshqarish huquqiy kafolati (qonunchilik va me'yoriy hujjatlar to'plami), T., 1999;

Toshkent mahallalari: an'analar va zamonaviylik, T., 2002.



## ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИ

Жалолова Мадина Шопўлат қизи

Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти

**Аннотация:** мазкур мақолада транспорт тизими самарадорлигини белгилаб берувчи асосий кўрсаткичлар, транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари тури ва уларни баҳолаш усуллари келтирилган, мамлакат транспорт тизими иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг асосий кўрсаткичлари тизимлаштирилган ҳамда тизимнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш услубиётига асосан хулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** транспорт тизими, самарадорлик кўрсаткичлари, транспорт-логистика, транзит ташувлар, юкларни етказиб бериш, транспорт комплекси, транспорт инфратузилмаси.

**Аннотация:** В данной статье представлены основные показатели, определяющие эффективность транспортной системы, тип показателей экономической эффективности транспортной системы и методы их оценки, также систематизированы основные показатели экономической эффективности транспортной системы и сделаны выводы на основе методологии экономической эффективности.

**Ключевые слова:** транспортная система, показатели эффективности, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, транспортный комплекс, транспортная инфраструктура.

**Аннотация:** This article presents the main indicators that determine the efficiency of the transport system, the type of economic efficiency indicators of the transport system and methods of their assessment, systematizes the main indicators of economic efficiency of the transport system and draws conclusions based on the methodology of economic efficiency.

**Key words:** transport system, efficiency indicators, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, transport complex, transport infrastructure.

**Кириш.** Жаҳонда юз бераётган глобаллашув ҳамда интеграция жараёнларида транспорт соҳасининг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Жаҳон

банки ҳисоботларига кўра, бутун дунё транспорт хизматларининг ЯИМ таркибидаги миқдори 4,3 трлн. АҚШ доллари (6,9%)ни ташкил этиб, йилига 110 млрд. тонна юк ва 1 трлн. дан ортиқ йўловчилар ташилмоқда, транспорт мажмуасида банд бўлган ходимлар сони 100 млн. кишини ташкил этмоқда[1]. Транспорт тизимида самарадорлик кўрсаткичларини тизимлаштириш ва етказиб беришнинг илғор технологияларидан фойдаланиш моддий захиралар ҳажмини 30% дан 60% гача тежаш, шунингдек, транспорт хизматларидан фойдаланувчи корхоналарининг етказиб бериш харажатларини тахминан 30-35 фоизга камайтирилишига эришиш имконини беради.

Жаҳонда транспорт тизими иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини баҳолаш юзасидан кенг қамровли илмий изланишлар олиб борилмоқда. Хусусан, транспорт фаолиятини янада самарали ривожлантириш масалаларига мажмуавий ёндашиш, транспорт тизими кўрсаткичларини тизимлаштиришни таъминлайдиган иқтисодий ёндашувларни шакллантириш бўйича олиб борилаётган изланишларда транспорт тизими иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини баҳолашнинг умумий ёндашувлари шакллантирилган, аммо, мазкур ёндашувларда транспорт тизими самарадорлигини баҳолашнинг алоҳида кўрсаткичлар тизими шакллантирилмаган. Шундан келиб чиққан ҳолда, транспорт тизими иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини баҳолаш бўйича қўшимча изланишлар олиб бориш лозимлигини белгилайди.

Бугунги кунда мамлакатда иқтисодиётнинг муҳим тармоғи сифатида қараладиган транспорт комплексини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «Миллий транспорт логистика компаниялари ўртасида рақобат даражасини ошириш»[2] бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилганлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Маҳсулотларимизни ички ва ташқи бозорларга етказиш, улурнинг таннархини тушириш учун транспорт-логистика соҳасини

ривожлантиришимиз зарур” [3] деб таъкидладилар. Бу ўз навбатида мамлакат транспорт-транзит салоҳиятидан ва замонавий етказиб бериш технологияларидан самарали фойдаланишни ҳамда транспорт тизими иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини тизимлаштириш юзасидан илмий тадқиқотлар олиб боришнинг мақсадга мувофиқлигини ифодалайди.

### **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Транспорт тизими самарадорлигини ошириш бўйича бир қатор хорижлик ва маҳаллий олимларининг илмий тадқиқотларида ўз аксини топган. Инглиз иқтисодчиси Энтони Венаблснинг фикрига кўра транспорт комплекси бу ижтимоий ишлаб чиқаришнинг юклар ва йўловчиларни ташишга бўлган эҳтиёжини қондиришга ихтисослашган халқ хўжалиги тармоқлари йиғиндиси тушунилади [4].

Д. Бауэрсокснинг фикрича, анъанавий усулларга нисбатан юк ташувларини ташкил этишнинг афзаллиги ва иқтисодий самарадорлиги масалаларини киритган ҳолда мультимодал ва интермодал юк ташувларини ташкил этиш муаммоларига алоҳида эътибор қаратган. Шу билан бирга муаллиф, транспорт тармоқлари, транспорт воситалари ва транспорт компаниялари ўз ичига олган транспорт тизимини алоҳида қайд этади [5].

Мамлакатимиз олимларидан Ғ.Самадов, А.Зоҳидов, А.Гуламов ва М.Равшановларнинг фикрича “транспорт тизими – бу юк ва йўловчиларни ўз манзилига етказиш жараёнида ўзаро алоқаси бўлган транспорт турари ва инфратузилмалари мажмуаси, яъни ўзаро боғлиқ бўлган транспорт секторлари, меҳнат ресурслари ҳамда мамлакат иқтисодиётини самарали бошариш мақсадида транспортнинг барча турларини бошқарув тизими тушинилади” [6].

### **Тадқиқот методологияси**

Транспорт тизими самарадорлик кўрсаткичларини тизимлаштириш муаммоларини таҳлил этиш билан шуғулланган миллий ва хорижлик олимларнинг илмий изланишлари натижалари мазкур тадқиқотнинг назарий-услубий базаси сифатида хизмат қилди. Мақолани тайёрлашда абстракт ва

аналитик мушоҳада, қиёсий ва омилли таҳлил, индикатив, танланма кузатув, таққослаш, иқтисодий-статистик ва бошқа усуллардан фойдаланилди.

### **Таҳлил ва натижалар**

Жаҳон давлатлари иқтисодиётининг самарали ривожланишида асосий “қон айланиш” вазифасини бажарувчи транспорт комплекси алоҳида аҳамият касб этади. Самарали транспорт тизими ички бозорда хош-ашё ва маҳсулот ҳаракатларини оптималлаштиради, шу билан бир қаторда ташқи савдода мамлакатнинг иқтисодий рақобатбардошлигини ошириб, жаҳон бозорига интеграция жараёнларини тезлаштириш имкониятини беради. Умуман олганда мамлакатни кенг кўламда ривожлантириш минтақалараро иқтисодий муносабатларнинг юқори суръатларда бўлиши кенг маънода транспорт инфратузилмасининг самарали фаолиятига ҳам бевосита боғлиқ.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозим, транспорт-транзит ҳамда транспорт-логистика салоҳиятини ошириш географик нуқтаи назардан оптимал жойлашмаган, шу билан бирга тўғридан-тўғри денгиз портларига хатто қўшни давлатлар орқали чиқиш имкониятига эга бўлмаган давлатлар учун ташқи сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Аммо, бугунги кунда мазкур соҳаларнинг самарадорлик кўрсаткичларини тизимлаштириш юзасидан халқаро амалиёт ва назарияда турлича ёндашувларнинг мавжудлиги дастлаб уларни тўғри талқин қилиш ҳамда назарий асосларини аниқроқ ёритиб бериш лозимлигини белгилайди.

Транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини таҳлил этишдаги мавжуд усуллар транспорт тизимини баҳолаш борасидаги камчилик ва нозик жиҳатларни аниқлаш имконини беради. Ҳар бир услуб транспорт тизими самарадорлигини баҳолашнинг тўлақонли суръатини очиб бера олмайди. Таъкидлаш лозим, аксарият ҳолларда транспорт корхоналари самарадорлигини оширишга бугунги кунда етарлича эътибор берилмаяпти. Мутахассислар фикрига кўра, “транспорт тизимининг самарадорлиги – бу, биринчи навбатда, транспорт тизими фаолиятининг берилган (мақсадли) натижаси кўрсаткичи ҳамда амалда эришилган натижа ўртасидаги нисбатдир.

Транспорт тизими самарадорлигини баҳолашга мақсадли ёндашув ресурсли ёндашувга нисбатан ўзини кўпроқ оқлайди”.

Қатор олимларнинг фикрича (Г. Саматов, А.А.Зоҳидов, А.А. Гуламов), транспорт тизими самараси тушунчаси етарли даражада ишлаб чиқилмаган, транспорт тизими самарадорлик ҳисоби формулаларига оддий, ўта содда деб таъриф бериш мумкин. “Самарадорликни баҳолаш учун барча кўрсаткичлар куйидагича ҳисоблаб топилади:

- 1) натижа/харажатлар – харажатлар бирлигига олинган натижа;
- 2) харажатлар/ натижа – харажатларнинг олинган натижа бирлигига тўғри келадиган солиштирма катталиги (қиймати)”;
- 3) (натижа – харажатлар) /натижа – самаранинг олинган натижа бирлигига тўғри келадиган харажатларнинг солиштирма катталиги (қиймати) (111).

Ушбу нисбатлар транспорт тизими фаолият самарадорлиги кўрсаткичларини ишлаб чиқишда асос бўлиб келади. Амалиётда бу каби услубиётларни амалга ошириш баъзи хусусиятлар туфайли мураккаблашади:

– юкларни етказиб бериш жараёнининг натижасини доим ҳам даража ва ўлчов бирликларига кўра харажатлар билан қиёслашнинг иложи йўқ. Натижалар сифат ёки замон (вақт) тавсифига, шу билан бирга харажатлар қиймат тавсифига эга бўлиши мумкин.

– транспорт стратегияси элементларини қўллаш натижалари ва транспорт тизимини ривожлантиришда оқимли жараёнларни ташкил этиш самарадорлиги доим ҳам юқори миқдорий кўрсаткичлар билан тавсифланмайди, бироқ улар ташки тизимга кўрсатадиган самара кўпинча мультипликатив характерга эга бўлиб, кўплаб ўзаро боғлиқ тизимларни ривожлантириш учун муҳим аҳамиятга эга.

Транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини ошириш ва уни таракқий эттириш ҳам экстенсив, ҳам интенсив омилларига боғлиқ. Экстенсив омиллар қаторига етказиб бериш жараёни ҳажмий тавсифларининг миқдор жиҳатидан ортиб боришини киритиш (ташиладиган юклар миқдори, омбор

майдонларини катталаштириш, транспорт хизмат харажатларини ошириш) лозим. Интенсив омилларга мавжуд ресурслардан самарали фойдаланишга қаратилган чора-тадбирлар киритилиб, улар етказиб бериш операцияларини амалга оширишда моддий оқимлар, ишчи-хизматчилар ва молиявий ресурсларни қайта тақсимлашда ифодаланади.

Шунингдек, транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлиги статик ва динамик белгиларига кўра таснифланиши ҳам мавжуд. Транспорт жараёнларининг статик самарадорлигига етказиб бериш тизимининг яна ҳам ўсишини кўзламаган ҳолда ташқи муҳитда самарали фаолият кўрсатиши киритилади. Одатда статик самарадорлик ташкилотнинг муайян вақт мобайнида (қисқа муддатда) рақобатбардошлигини белгилаб беради, бироқ самарадорликнинг бу тури транспорт тизимини истиқболда тавсифлаб бера олмайди. Динамик самарадорлик тизимнинг узоқ муддатли истиқболдаги ишончлилиги, сифати ва хавфсизлигини белгилаб беради. Транспорт тизими самарадорлик таърифи ва унинг кўрсаткичларини ҳисоблаш услубиётини қисқача 1-жадвалда тақдим этилди.

1-жадвал

### Транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари тури ва уларни баҳолаш усуллари<sup>121</sup>

Тушунчалар (кўрсаткичлар) номланиши	Тавсифи	Ҳисоб-китоб учун формула	Маъно-моҳияти
Транспорт тизими иқтисодий самарадорлиги	Транспорт тизими фаолиятининг берилган (мақсадли) кўрсаткичи ва амалда эришилган кўрсаткич ўртасидаги нисбат	$C_{\text{ТЛПБ}} = \frac{\sum_{i=1}^3 D_{\text{П}}}{\sum_{i=1}^3 X_{\text{Т}} + \sum_{i=1}^4 X_{\text{ПРР}} + \sum_{i=1}^2 X_{\text{ХР}}}$	Олинаётган натижалар бирлигига тўғри келувчи самаранинг солиштирма катталиги
Самарадорлик	Бошқарилаётган тизим олдида қўйилаётган вазифаларнинг тизим томонидан ўз вазифасини тўлиқ ва сифатли бажарилиши	$C_{\text{Ф}} = \frac{\text{натижа}}{\text{сарф} - \text{харажатлар}}$	Сарф-харажатлар бирлигига олинган натижа

<sup>121</sup> Олиб борилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Сарф-харажатларнинг солиштирма самарадорлиги	1000 сўмга олинган натижага эга иқтисодий самара қийматини кўрсатади	$У_c = \frac{\text{сарф} - \text{харажатлар}}{\text{натижа}}$	Олинган натижа бирлигига тўғри келувчи сарф-харажатларнинг солиштирма катталиги
Статистик самарадорлик	Транспорт тизимининг ташқи муҳитда қўшимча ўсишсиз фаолият самарадорлиги	Формула тизимнинг фаолият мақсади натижаси бўйича танлаб олинади	Транспорт тизимининг жорий (ҳозирги) ҳолати, яъни тактика масалалари ҳал қилинишини кўрсатади
Динамик (ўзгарувчан) самарадорлик	Транспорт тизими самарадорлиги, у узоқ муддатли истиқболда тизимнинг ишончлилиги, хавфсизлиги ва сифатини таъминлайди	$C_d = H \cdot B \cdot K$	Формула кўрсатиб ўтилган параметрларни бирлаштирувчи интеграцияланган кўрсаткич сифатида шаклланади

Транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш ёндашувларини тадқиқот мақсадлари бўйича таснифлаш талаб этилади. Бунда қуйидагича тасниф таклиф этилади:

- юкларни етказиб бериш жараёнлари самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш;
- транспорт тизимини ривожлантириш усуллари самарадорлигини аниқлаш;
- транспорт тизимини ривожлантириш стратегияси самарадорлигини аниқлаш;
- натижалар номувофиқлигини аниқлаш.

1. Юкларни етказиб бериш жараёнларининг самарадорлигини аниқлаш параметрлари. Логистика нуқтаи назаридан, оқим – яхлит ва ягона сифатида идрок этиладиган ва муайян вақт даври мобайнида динамик ўзгаришларга дуч келадиган тузилмавий жиҳатдан ўзаро боғлиқ элементлар тизимини тавсифловчи иқтисодий қийматдир.

Етказиб бериш жараёнида оқим динамик қиймат ва захиранинг дифференциал функцияси ҳисобланади. Захира оқимнинг ўзгариш

натижасини акс эттиради. Оқим мавжуд бўлиши учун захира вақт функцияси бўлиши керак. Демак, транспорт тизими самарадорлигини ўлчаш вақтни ўлчаш тизимидаги худудий захиралар кўрсаткичлари ва натурал кўрсаткичларга асосланган бўлиши лозим. Оқимли жараён сифати захиралар ҳолатининг ўзгариши ёрдамида тавсифлаб берилиши мумкин.

Ушбу услубиётда транспорт тизими самарадорлигини аниқлаш имкониятлари бўйича қоидалар батафсил баён этилган, бироқ ҳисоб-китобларни амалга ошириш бўйича аниқ тавсиялар берилмаган, бу ҳозирда долзарб вазифалардан биридир. Маълум бўладики, ҳар бир оқимли жараён учун маълум ўзига хос жиҳатларни аниқлаш керак бўлиб, уларга мос равишда баҳолаш мезонлари танлаб олинади.

2. Транспорт тизимини ривожлантириш усуллариининг самарадорлик кўрсаткичлари.

Ушбу йўналишда тахминий ва ҳақиқий натижалар, шунингдек, тахминий ва ҳақиқий сарф-харажатларни қиёслаш энг самарали ёндашув ҳисобланади. Шу тариқа, транспорт тизими самарадорлигини баҳолаш харажатлар кўрсаткичларига таяниб, бу натижаларнинг иқтисодий самарадорлигини ифодалаб, бу ҳолат транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини тавсифлайди.

Қуйидаги кўрсаткичларни жуфтликда қиёслаш таклиф қилинади:

- “тахминий сарф-харажатлар – ҳақиқий сарф-харажатлар”;
- “тахминий сарф-харажатлар – тахминий натижалар”;
- “ҳақиқий сарф-харажатлар – ҳақиқий натижалар” ва “тахминий сарф-харажатлар - тахминий натижалар”.

3. Транспорт тизимини ривожлантириш стратегиясининг самарадорлик кўрсаткичлари.

Транспорт тизимини ривожлантиришда самарадорлик кўрсаткичлари орасидан қуйидагиларни ажратиб кўрсатишни мақсадга мувофиқ деб, ҳисобладик:

- вақт бўйича мақсадларга эришиш (ҳақиқий вақтни режалаштирилган



вақтга нисбати);

- стратегияни амалга ошириш сифати бўйича мақсадларга эришиш (воситачи ва истеъмолчиларнинг хизматлар сифатидан қониқиш даражаси – балли баҳолаш тизимида);

- стратегияни тўлиқ амалга оширишга риоя қилиш (режалаштирилган чора-тадбирлардан амалда нечтаси бажарилди);

- стратегиянинг мураккаблиги – транспорт стратегияси мақсадларининг маркетинг стратегияси ва темир йўл транспортини ривожлантириш бўйича умумий стратегик режага мослигига риоя қилиш, ўзаро зид бўлмаган мақсадли функциялар нисбати сифатида ҳисоблаб чиқилади.

Шундай қилиб, транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш имконини берувчи «функциялар кесишмаси (cross-functional)» усули тақдим этилди (1-расм). Келтирилган формуладан кўриниб турибдики, транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш тўрт асосий кўрсаткични ҳисобга олган ҳолда амалга оширилди. Уларнинг йиғиндиси «1» га ёки фоизда ифодалаганда 100% га интилиши лозим. Бу транспорт тармоғининг ривожланиш хусусиятлари билан боғлиқ бўлиши мақсадга мувофиқ.

Масалан, транспорт корхоналари сони кам бўлиши, ушбу транспорт корхонасида “мураккаблик” элементидаги алоқаларнинг зичлик коэффициенти пастроқ бўлишига олиб келади. Шундай қилиб, транспорт тизими самарадорлик мезонларининг чегаралари ҳам ўзгариб туриши мумкин. Таклиф этилган усулга таянган ҳолда ишлаб чиқилган усул бўйича таклифларни амалиётга тадбиқ қилганда қуйидаги амалий натижаларга эришилди:


тизимнинг юқори самарадорлиги таъминланади;

юкларни етказиб бериш бўйича барча операцияларни ташкил этишнинг тезкорлиги оширилади;

транспорт воситаларининг назорат қилиш имконияти яратилади;

харажатлар ва етказиб бериш вақти сезиларли даражада тежалишига

эришилади.



**1-расм. Транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш усули<sup>122</sup>**

Юқоридаги мулоҳазаларга асосланиб транспорт тизими иқтисодий самарадорлигини баҳолашда қуйидаги асосий кўрсаткичлар эътиборга олиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- моддий-техник база кўрсаткичлари;
- юк ташиш ҳажм кўрсаткичлари;
- юк айланмаси кўрсаткичлари;
- транспорт химатлари кўрсаткичлари;
- транспорт соҳаси рентабиллиги;
- транспорт тармоғининг ЯИМдаги улуши;
- транспорт турининг зичлиги;
- транспорт коридорининг юк ўтказиш қобилияти;
- транспорт логистика салоҳияти;
- инфратузилманинг мавжудлиги;
- транспорт-транзит салоҳияти.

<sup>122</sup> Олиб борилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

## **Хулоса ва таклифлар**

Демак, юқорида баён этилганлардан транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш услубиётига асосан қуйидаги хулосалар шаклланди:

1. Юқларни етказиб бериш жаранларини тадқиқ этиш услублари транспорт тизимига таъсир кўрсатувчи омилларнинг ўзаро боғлиқлиги, сифат ва тармоқнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланганлик даражасини ўрганишга қаратилган бўлиши лозим.

2. Транспорт тизими самарадорлигини ошириш мақсадини белгилаш, етказиб бериш жараёнларини тадқиқ этиш воситаларини танлаш юқларни етказиб бериш жараёнининг таснифланиш гуруҳига боғлиқ.

3. Транспорт соҳаси бўйича лойиҳалар самарадорлигини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Шу мақсадда самарадорлик мезонларини шакллантириш ҳамда уларни ҳисоб-китоб қилиш услубиёти келтирилиши лозим.

4. Самарадорлик мезонлари транспорт тизимида амалга оширилаётган чора-тадбирлар транспорт тизимининг иқтисодий самарадорлигини аниқлашга асосланган бўлиши мақсадга мувофиқ.

## **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.

4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost–Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.

5. Коврижных И.В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СиБАГС, 2016. – 86с.

6. Fayzullayev J.S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249-0892 Vol9 Issue-2, Dec -2019. [http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2\\_P9.pdf](http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf)

7. Зоҳидов А.А. Марказий осийё транспорт тизимини самарали бошқариш механизминини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.

8. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007. – 514 p.

9. Экономика транспорта: Учебное пособие / Терешина Н.П., Потапова Е.В., Терёшина Н.В., Епишкин И.А. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.

10. Гольц Г.А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14-15 июня 2004 года.

11. Fayzullayev J.S. The economic-mathematical model of the organization activity of the modern transport-logistics system. // Бюллетень науки и практики – Bulletin of Science and Pracrice научный журнал (scientific journal). 2018. №5 (4). С. 345-352. DOI:10.5281/zenodo.1147072. Impact Factor (5) GIF – 0.454; (21) Info Base Index – 1.4; (17) ОАИ – 0.350, (43) (UIF) – 0.1502; (4) JCR – 1.021. <http://oaji.net/articles/2017/3996-1526585902.pdf>

12. Бекмагамбетов М.М. Перспективы сотрудничества и координации усилий международных организаций и национальных правительств в реализации транспортных проектов в ЦА регионе. – Алматы: 2010. – С. 11-12.

# ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОСАНОАТ МАЖМУИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ

**Асқарова Мавлуда Турабовна**

**АННОТАЦИЯ:** Ўзбекистон Республикаси агросаноат мажмуини инновацион ривожлантириш орқали ҳудудлар, корхоналар инновацион фаолиятини ўлчаш, баҳолаш масалаларининг ечимини аниқлаш мумкин. Ушбу мақсадга эришиш учун таҳлил, таққослаш, илмий мушоҳада каби умумий илмий усуллардан фойдаланилган. Тадқиқот натижасида инновацияларни ўлчаш имкони йўқлиги, изоҳлашдаги қийинчиликлар ва “инновация” атамаси моҳиятини билиш билан боғлиқ муаммолар аниқланган.

**Калит сўзлар:** *инновация, инновацион ривожланиш, аграр сектор, минтақа, инновацион ривожланиш индикаторлари.*

## ***Кириш***

Ривожланган давлатларнинг қишлоқ хўжалигида техник ва ижтимоий инқилоби рўй берганлиги билан, яъни агросаноат мажмуанинг шаклланиши ва ривожланиши билан изоҳлаш мумкин. Иқтисодийнинг аграр секторининг ривожланишига илмий-техник тараққиёти сабаб бўлган, ундаги ижобий ўзгаришлар эса бевосита қайта ишлаш секторининг шаклланиши билан боғлиқ бўлган. Бу қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш кучларни саноатлаштиришнинг муҳим натижаларидан бирига айланди.

Агросаноат мажмуи ишлаб чиқаришда ва аграр хомашёдан тайёрланган маҳсулотни тақсимлашда у ёки бу тарзда иштирок этувчи тармоқ ва корхоналарнинг вертикал интерациялашган ва мувофиқлаштирилган йиғиндиси сифатида намоён бўлади. У учта асосий секторлардан таркиб топади:

аграр сектор учун барча зарур бўлган ресурслар (машина, ўғит, бегона ўт ва зараркунандаларга қарши курашиш учун кимёвий ва биологик воситалар ва бошқалар)ни ишлаб чиқарувчи тармоқлар;

қишлоқ хўжалиги ўзи;

аграр маҳсулотларни қайта ишловчи ва уни истеъмолчига етказиб берувчи корхоналар.

Марказий Осиё мамлакатлари учун муҳим салоҳият мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш даражасини, шу жумладан, минтақа мамлакатлари ўртасидаги кооперация ҳисобидан кўпайтиришни англатади. Бу нафақат Қозоғистон ва Россия бозорларидан хорижий ишлаб чиқарувчиларни кўчиришга, балки Европа Иттифоқи бозорларига чиқиш, мева-сабзавот маҳсулотларининг асосан тез бузиладиган маҳсулот эканлиги сабабли товарларни йўқотиш хавфини камайтиришга имкон беради. Халқаро ташкилотлар, биринчи навбатда, инвестицияларни жалб қилиш, жаҳон тажрибаси, технологиялар томонидан мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш секторини қўллаб-қувватлаш ва турли мамлакатларидан ишлаб чиқарувчилар ўртасида кооперация учун шарт-шароитлар яратади.

Агар қишлоқ хўжалиги корхоналарининг рақобат афзалликларини кўриб чиқадиган бўлсак, шуни таъкидлаш керакки, турли сабабларга кўра улар анъанавий равишда ноқулай иқтисодий шароитларда бўлишади:

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг аксарияти тез бузилмоқда, бу уни амалга ошириш муддатини қисқартиради, бозор ва қайта ишлаш саноати корхоналари томонидан белгиланадиган шартларни қабул қилишга мажбур қилади. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг мавсумийлиги салбий таъсир кўрсатади;

- қишлоқ хўжалиги корхоналари аҳоли учун озиқ – овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаради, нархларнинг ўсиши асосан унинг ҳал қилувчи талаби билан чекланади;

- қишлоқ хўжалиги корхоналари томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ассортиментини нисбатан бир хилдир, бу эса тармоқ ичидаги рақобатни кучайтиради;

- қишлоқ хўжалиги корхоналари паст даражадаги рақобатбардош устунликларга эга бўлиб, уларнинг иқтисодиётини жуда беқарор ҳолга келтиради.

Инновацияларни жорий этиш ишлаб чиқаришни йўқотиш, самарали аграр сиёсатнинг етишмаслиги ва қишлоқ хўжалиги ва унинг тармоқларини ривожлантиришга қарши давлатнинг протекционизмига тўсқинлик қилади.

Шу нуқтаи назардан, илмий-инновацияларни ривожланишини баҳолаш, ўлчаш рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришда асосий ўрин тутди. Ушбу ҳолатни ҳисобга олганда, инновацияларни ривожланиши билан боғлиқ соҳаларни лозим даражада мувофиқлаштириш, бу борадаги биринчи навбатдаги мақсад ва вазифаларни бажаришга имкон беради.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда қабул қилинган инновацияларни ривожлантириш стратегиясини амалга оширишнинг институционал, ҳуқуқий-норматив ҳужжатлари ишлаб чиқилган. Бу Ўзбекистонни 2030 йилга келиб Глобал инновацион индекс рейтинги бўйича жаҳоннинг 50 та илғор мамлакати қаторига киришига имкониятлар яратади.

Ушбу кўп қиррали ва ўта мураккаб масалани ҳал этиш инновацион фаолият индикатор (кўрсаткич)ларининг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилиш, таққослаш, уларни баҳолаш ҳамда ўлчашни талаб этади. Аммо, тадқиқотлар кўрсатадики, инновациялар қийматини ўлчаш ва амалда уларни баҳолаш мураккаб жараёнлардан ҳисобланади.

Шуларни ҳисобга олган ҳолда, ушбу тадқиқотда иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида хусусан, аграр секторда инновацион фаолият самарадорлиги тизими кўрсаткичларини таҳлил қилиш, ўрганиш ва баҳолаш мақсад қилиб қўйилган.

Шуларни ҳисобга олиб, тадқиқот вазифалари сифатида, инновацион тизимлар самарадорлигини баҳолашнинг турли усуллари таҳлил қилинади; уларда қўлланиладиган асосий кўрсаткичларни ажратиб кўрсатиш ва умумлаштириш; инновацияларнинг ўзига хослигини, уларнинг ҳар бирининг афзалликлари ва камчиликлари кўрсатилади; уларни бирлаштиришга ҳаракат қилинади. Аграр сектор соҳасида инновацион ривожланиш кўрсаткичларидан фойдаланиш хусусиятларини аниқлашга, соҳадаги инновацион фаолиятнинг статистик ҳисобига алоҳида эътибор қаратиш лозим ҳисобланади.

**Адабиётлар таҳлили.** Иқтисодиёт ва унинг тармоқларини инновацион ривожлантириш муаммоларига кўплаб хорижий ва Ўзбекистон тадқиқотчиларининг илмий ишлари бағишланган. Улар тадқиқотларида асосий эътибор инновацияларни мазмун моҳияти, уларни харажатлар нуктаи назаридан ўлчаш ҳамда самарадорликни баҳолаш усулларига қаратилган.

Ушбу йўналиш билан боғлиқ масалалар Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари, қонунчилик ҳужжатларида ўз аксини топган ва уларда инновацияларни ривожлантиришнинг устувор мақсад ва вазифалари асослаб берилган [1,2,3,10].

Аграр сектор тармоқларида инновацион фаолиятни юритиш ва уни ривожлантириш Россиялик олимлардан И.Г.Ушачев [5], В.В.Киселёв [7], О.В.Мамай [8] ва бошқа олимлар ишларида қайд этилган [9].

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқотда аграр соҳани янада ривожлантиришнинг асосий шарти сифатида тармоқда рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва уларни экспорт қилиш салоҳиятини янада ошириш зарур. Шу билан бир вақтда бундай маҳсулотларни кўпайтириш нафақат сифатини, балким янги турдаги маҳсулотларни яратиш ва уларни қайта ишлаш тармоқларини инновацион йўллари кенгайтиришни талаб этади. Бу ўта мураккаб, кўп босқичли жараён сифатида ҳисобга олиниши керак. Шунинг ҳисобга олганда ушбу жараённи ўзаро бир-бирига боғлиқ иқтисодий ҳаракат деб қараш лозим. Демак, инновациялар рақобатга бардошли маҳсулотларни яратишга олиб келиши керак. Бунда яратилган инновацияларнинг самарадорлигини улар қийматини ўлчаш орқали баҳолаш мумкин. Аммо амалиётда инновацияларни яратиш, уларни жорий этиш ҳамда корхона ва ташкилотларга тарқатиш ишлари маълум харажатларни талаб этади. Методологик жиҳатдан аграр соҳада инновацияларни ривожлантириш ана шу харажатларни ўлчаш ва уларни баҳолашга асосий эътибор қаратилиши зарур.



Шуни ҳисобга олганда, аграр секторда инновацион жараён босқичларини (инновацияларни яратиш, уларни товар ишлаб чиқарувчилар томонидан тарқатилиши ва ривожланиши) ва самарадорликнинг асосий турларини (иқтисодий, технологик, ижтимоий ва атроф-муҳит) баҳолашга асосий эътибор қаратиши лозим. Инновацияларни яратиш, тарқатиш ва ривожлантиришнинг умумий интеграл таъсирини акс эттирувчи ҳудуд иқтисодиётининг аграр соҳасидаги инновациялар ўзгариши кўрсаткичлари тизимини яратишга ҳаракат қилиниши кўзда тутилиши керак.

**Таҳлил ва натижалар.** Қишлоқ хўжалигининг техник жиҳатдан таъминланганлик даражаси ошиши билан бирга агротехника яхшиланиб бормоқда, чорвачиликда витаминлаштирилган ем-хашаклардан фойдаланиш кенгаймоқда. Овқатланиш рационини такомиллаштириш чорва молларни боқиш муддатларини камайтиради.

Ҳозирги шароитда фақатгина ишлаб чиқаришнинг битта жойда тўпланиши ва йирик капиталнинг ролини кучайиши ҳисобига аграр корхоналари ўз фаолият кўрсатмоқда. Бунда аграр кооперацияси ва давлат кўмаги катта аҳамият касб этади.

Европа давлатлари қишлоқ хўжалигида узоқ пайт давомида капиталлистик ишлаб чиқариш муносабатлар ҳукмронлик қилмоқда. Бироқ уларнинг аграр секторда ривожланиши бир меъёрда эмас. Охирги пайтда ушбу жараён тезкорлик билан ривожланмоқда. Ишлаб чиқариш муносабатларнинг такомиллаштиришнинг муҳим омили ишлаб чиқаришни бир жойга тўплаш бўлиб, унда хўжаликларнинг умумий сони қисқариб, йирик корхоналарнинг сони ва уларнинг иқтисодий аҳамияти тобора ошиб кетмоқда.

Ҳозирги вақтда аграр сектор рақобатбардошлигини ошириш масалалари инновацион фаолиятни ривожлантириш билан узвий боғлиқлигига ҳеч кимда шубҳа туғдирмайди. Аммо, ҳозиргача рақобатдошлик ва инновацион ривожланиш ўртасидаги боғлиқлик аниқ миқдорий кўрсаткичларнинг йўқлиги билан тавсифланади.

Аграр соҳанинг рақобатбардошлик даражасини оширишда инновацияларнинг ролини таҳлил қилиш учун меъёрий ва статистик таҳлил усулларидан фойдаланилади. Масалан, тадқиқотлар ва ишланмаларга сарфланган харажатлар (иқтисодий ривожланиш) ёки иқтисодий ўсиш ёки патентлар олиш ҳажми ва дунёдаги товар маҳсулотлари ўртасидаги боғлиқлик ўрганилади. Шу орқали мамлакатимизнинг инновацияларни ўзига хос, сифатли, кўпинча ноёб товар ва хизматларга айлантириш қобилияти, миллий маҳсулотлар рақобатдошлигининг муҳим кўрсаткичи сифатида қаралиши мумкин.

Хорижий олимлар тадқиқотларига кўра [4], қайси мамлакатни, унинг худудини ёки корхонасини инновацион деб ҳисоблаш мумкинлиги тўғрисида аниқ бир тушунча мавжуд эмас.

"Инновация" тушунчасининг кўп қирралилиги [5] уни аниқлашда катта қийинчиликларни келтириб чиқаради. Шу билан бирга, инновацияларни ўлчашга ҳаракат қилиш янада қийинроқ. Агар тадқиқот ва ишланмаларга сарфланадиган харажатларни пул ва ишчи кучи билан ўлчаш мумкин бўлса, айрим инновацияларнинг алоҳида таркибий қисмларини, ҳатто пул билан ҳам ўлчаб бўлмайди. Айниқса, ихтиро жараёнида ишлатиладиган фундаментал билимлар захирасини ёки ихтирочи иши, техник ихтиролар ва ихтироларнинг шу каби хусусиятларини етарли даражада пул билан ўлчаш деярли мумкин эмас. Маълумки, инновация жараёнининг алоҳида босқичлари турли корхона ва ташкилотлар томонидан амалга оширилади. Шунинг учун уларнинг пул "таъминоти"ни ҳар доим ҳам ҳисобга олиш мумкин бўлмайди.

Шундай қилиб, инновацияларга сарфланган харажатлар тўғридан-тўғри (ҳисобланган) кўрсаткичлар деярли ишлатилмайди. Кўрсаткичлар сифатида, яъни билвосита ушбу фаолиятни тавсифловчи кўрсаткичлар сифатида алоҳида корхоналар учун тадқиқот ва ишлаб чиқариш харажатларининг умумий таннархдаги улуши ишлатилади. Инновацион фаолият даражасининг ягона "ҳисобланган" кўрсаткичи - бу инновацион фаолият билан шуғулланадиган корхоналарнинг улуши ҳисобланади.

Инновацион фаолият натижалари тўғридан-тўғри ҳисоб-китоб билан камроқ баҳоланади, чунки улар сезиларли кечикиш билан намоён бўлади, жуда кўп ташқи таъсирга эга ва "такрорлаш" жараёни узок давом этади. Шу сабабли, маълум бир иқтисодий агент (корхона) томонидан олинган патентлар сони инновация самарадорлигининг асосий кўрсаткичи сифатида ишлатилади. Шундай қилиб, илмий фаолиятнинг амалдаги ҳажмининг тўғридан-тўғри ўлчанадиган кўрсаткичи ҳозиргача мавжуд эмас. Шунинг учун уни молиялаштириш учун асосий иқтисодий субъектлар: давлат, хусусий корхона ва компаниялар ва кичик миқдорда нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган харажатлар миқдори ўлчанади.

Мамлакат, ҳудуд, корхоналарнинг инновацион тизими самарадорлигини баҳолашда турли усуллар, турли хил кўрсаткичлардан фойдаланилади. Улар орасида, айниқса, инновацион ривожланиш даражаси ва шароитлар тўғрисида умумий таассуротни шакллантирадиган асосий кўрсаткичлар ва индикаторларни ажратиб кўрсатиш зарур:

- иқтисодий ўсишнинг сифат ва миқдор кўрсаткичлари (аҳоли жон бошига аграр соҳа маҳсулоти, қишлоқ аҳолисининг умр кўриш давомийлиги ва бошқалар) ва рақобатдошлик даражаси;

- аграр секторнинг қонунчилик базаси ва бозор институтлари ривожланишининг сифат кўрсаткичлари (инновацион соҳадаги аграр корхоналар сони ва бошқалар);

- қишлоқ хўжалигида эришилган илмий-техник ривожланиш даражасининг кўрсаткичлари (уларнинг умумий сонидagi инновацион фаол корхоналарнинг улуши; аграр соҳа тармоқларининг инновацион фаоллиги даражаси ва бошқалар);

- аграр соҳага янгиликларни тарқатиш ва улардан фойдаланиш кўрсаткичлари (бир минг кишига патент талабномалари сони; аграр ишлаб чиқаришнинг умумий ҳажмидаги инновацион маҳсулотларнинг улуши,%; аграр соҳа олимларининг нашрлик фаолияти интенсивлиги ва бошқалар);

- тадқиқот ва тажриба-конструкторлик харажатлари, қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотига нисбатан % да (инновациялар учун давлат томонидан маблағ оладиган корхоналар улуши ва бошқалар);

- меҳнат ресурсларининг таълим даражаси кўрсаткичлари: илмий даражага эга тадқиқотчиларнинг ўртача ёши, йиллар (узлуксиз таълимда иштирок этиш ва бошқалар).

Шу билан бир вақтда, давлат статистикаси маълумотларининг таҳлили шуни кўрсатадики, қишлоқ хўжалигининг тармоқ статистикасида инновацион фаолият ва унга тегишли кўрсаткичлар тўғридан-тўғри кузатилмайди. Хулоса қилганда, ҳудудлардаги статистик ҳисоб иқтисодиётнинг аграр секторининг инновацион ривожланишининг ҳақиқий ҳолатини тўлиқ акс эттирмайди.

Юқорида айтиб ўтилганларни умумлаштириб хулоса қилишимиз мумкинки, аграр тармоқда инновацион ривожланишнинг барча кўрсаткичлари шартли равишда иккита катта гуруҳга бўлиш мумкин: инновацияларнинг ўзини яратиш ва ривожлантириш учун кетадиган харажатлар кўрсаткичлари ва инновацияларни яратиш ва натижаларни олиш кўрсаткичлари. Шу билан бирга, тадқиқот натижалари ва аграр секторда инновацияларни қўллашнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, юқоридаги кўрсаткичлар рўйхатини кенгайтириш керак.

Шу билан бир вақтда иқтисодиётнинг аграр соҳасидаги инновацион жараёнларни ривожлантириш бўйича амалий тажрибалар уларнинг асосий босқичларини ажратиш кўрсатишга имкон беради [5]: инновацияларни яратиш, уларни товар ишлаб чиқарувчиларига тарқатиш ва ривожлантириш. Шу билан бирга, инновация натижаларини тарқатишни шартли равишда икки босқичга бўлиш мумкин: инновацион янгиликни биринчи тарқатиш (бу ҳақида маълумотларни ишлаб чиқарувчига етказиш) ва инновацияни янада кенг тарқатиш (янгиликларнинг тарқалиши).

Инновацион жараённинг энг муҳим ва узоқ давом этадиган босқичи - бу инновация яратишдир. Ушбу босқичда муаммони нафақат мамлакат шароитида, балки чет элларда, айниқса, энг ривожланган мамлакатларда

ўрганишни чуқур таҳлил қилишда ўз ифодасини топган ғоя (келажакдаги инновация концепцияси) туғилади.

### **Хулосалар**

1. Аграр соҳада маҳсулотлар ишлаб чиқарувчилар томонидан инновацияларнинг ўзлаштирилиши илмий-техник тараққиётни тезлаштириш учун босқичма-босқич шароит яратилиши асосий омил ҳисобланади. Шу билан бирга, ишлаб чиқаришда инновацияларни ривожлантириш натижасида маълум бир самара олинади, бу ер бирлигига қўшимча маҳсулот ишлаб чиқаришда, маҳсулот бирлигига харажатларни камайтиришда ва қўшимча даромад олишда намоён бўлади.

2. Аграр соҳада инновациялардан қўшимча олинadиган даромад инновацияларни интенсив яратиш ва ўзлаштириш харажатларидан ошиқ бўлиши керак. Шу муносабат билан, шунинг назарда тутиш керакки, тўғридан-тўғри ишлаб чиқаришда илмий-техника тараққиётидан олинган йиғма умумий қўшимча самара аграр секторнинг илмий-техник соҳасини молиялаштириш учун етарли бўлмаслигини ҳисобга олиш керак. Шунинг учун республикада илмий-техник тараққиётни молиялаштириш асосан давлат бюджети ҳисобидан амалга оширилади ва бу қишлоқда илм-фанни ривожлантириш даражасини юқори бўлишига хизмат қилиши лозим.

3. Инновацияларни яратишдан фарқли ўлароқ, инновацияларни тарқатиш босқичи қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига янгиликларнинг кириб бориши учун турли йўналишларни ва аниқ каналларни қамраб олади. Улар орасида қуйидагилар муҳим ўрин тутди: аграр секторни бошқариш органларининг фаолияти, раҳбар кадрларни, оммавий касблар мутахассислари ва ишчиларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, шунингдек, ахборот-тарғибот фаолиятини ривожлантириш. Аммо ҳозирги шароитда ушбу босқичга берилаётган эътибор етарли эмас.

4. Ахборот-коммуникация технологияларининг такомиллашиши ва ривожланиши қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига инновацияларни яратиш босқичида бевосита ушбу инновациялар қўллашда ишлаб чиқариш

тажрибасига эга бўлган илғор корхоналардан эмас, балки тадқиқотчилар ва ишлаб чиқувчилардан олишлари учун шароит яратиб беради. Амалиёт шуни кўрсатадики, нафақат ишлаб чиқиш учун тавсия этилган инновациялар, балки уларни яратиш истиқболлари тўғрисида ҳам тўлиқ маълумот танловни сезиларли даражада кенгайтиришни талаб этади ва бу маҳсулот ишлаб чиқарувчиларнинг инновацион фаоллигини оширишга имкон беради.

5. Инновацион ишланмаларни тарқатиш босқичида инновацион жараёнларнинг муваффақиятли ривожланиши кўп жиҳатдан ахборотни таъминотига боғлиқ. Бунинг учун тўғридан-тўғри инновациялар яратувчи илмий ташкилотлар, университетлар ва бошқа аграр сектор соҳасидаги давлат идоралари жавобгар бўлиши керак. Улар ишлаб чиқарувчиларни тўғридан-тўғри яратилган ва яратиладиган инновациялар тўғрисида тезкор хабардор қилишдан манфаатдор бўлиши лозим. Ахборот таъминотида инновациялар ва илғор ишлаб чиқариш амалиётлари тўғрисида маълумот ташувчилар сифатида ахборот-маслаҳат хизматлари алоҳида роль ўйнаши зарур деб ҳисоблаймиз.

6. Аграр соҳада инновацияларни ўзлаштириш босқичида ушбу жараённинг муваффақияти кўп жиҳатдан ишлаб чиқарувчиларнинг ўзига боғлиқ бўлади. Ушбу босқичда ишлаб чиқаришда инновацияларни ривожлантиришнинг етарлича аниқ ташкилий-иқтисодий механизмига эга бўлиш жуда муҳимдир, бунда асосий ўрин инновация маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларнинг инновацияларни яратувчилар билан ва ўзаро шартномавий муносабатларига берилиши керак.

7. Аграр секторда инновацион маҳсулотларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш учун меҳнат унумдорлиги даражаси, капитал интенсивлиги, ресурсларни тежаш, маҳсулотларга энергия сарфи, шунингдек унинг рақобатбардошлигини тавсифловчи кўрсаткичлардан фойдаланиш зарур.

8. Аграр тармоқларда инновацион маҳсулотларнинг ижтимоий самарадорлигини аниқлаш учун ишчиларнинг турмуш даражасининг ўсиши, жароҳатланишнинг пасайиши, иш шароитининг яхшиланиши, истеъмол

товарлари, озиқ-овқат, уй-жой таъминот даражаси ошишини акс эттирувчи кўрсаткичлардан фойдаланиш мумкин.

9. Қишлоқда инновацион маҳсулотлардан фойдаланишнинг экологик самарадорлиги атроф-муҳит ифлосланишининг пасайиши, унинг ҳолатининг яхшиланишини акс эттирувчи кўрсаткичлар ёрдамида баҳоланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли Фармони..

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармони.

4. Емельянов С. Инновационный вектор стратегии национальной конкурентоспособности США. [URL:http://www.ebiblioteka.ru/sources/article.jsp?id=2320636](http://www.ebiblioteka.ru/sources/article.jsp?id=2320636)

5. Мамай О.В., Мамай И.Н. Теоретические основы инновационного развития аграрного сектора региональной экономики: монография / О.В. Мамай, Кинель, 2015. -166 с.

Mahalla – hunarmandchilik va tadbirkorlikni tashkil etishning milliy modeli

mavzusida

XALQARO ILMIY – AMALIY ANJUMANI

TEZISLAR TO'PLAMI

2023 YIL 14 IYUN